DARSLIK

Sh.B. Qurbonov, V.N. Fedorko

O'ZBEKISTON GEOGRAFIYASI

II QISM. O'ZBEKISTON IQTSODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI



910.
Q-75.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Sh.B. Qurbonov, V.N. Fedorko

-5737-/xe

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYASI

(II QISM. O‘ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI)

Darslik

60530400-Geografiya,
60722500-Geodeziya, kartografiya va kadastr (yerdan foydalanish)
bakalavriat yo‘nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
“Yangi Chirchiq prints”
2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

UO'K 910;911
KBK 26.8
Q 75

Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi (II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). Darslik / Mas'ul muharrir M.I. Nazarov. – Toshkent: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 384 b.

Darslikda O'zbekistonning geografik o'rni, tabiiy resurs salohiyati, aholisi va mehnat resurslari, iqtisodiyotining tarmoqlar va hududiy tarkibi, tashqi iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy sohalar rivojlanishining xususiyatlari yoritib berilgan. Shu bilan birga, kitobda respublikamizni iqtisodiy rayonlarga ajratish, iqtisodiy rayonlar va ularning tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir masalalar ham o'z aksini topgan.

Darslik respublika oliy ta'lim muassasalari 60530400-Geografiya, 60722500-Geodeziya, kartografiya va kadastr (yerdan foydalanish) yo'nalishlari bakalavriat talabalariga mo'ljallangan. Shuningdek, undan turdosh yo'nalishlardagi talabalar, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining geografiya o'qituvchilari, fan metodistlari hamda mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Курбанов Ш.Б., Федорко В.Н. География Узбекистана (II часть. Экономическая и социальная география Узбекистана). Учебник / Отв. ред. М.И. Назаров. – Ташкент: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 384 с.

В учебнике рассмотрены географическое положение, природно-ресурсный потенциал, население и трудовые ресурсы, отраслевая и территориальная структура экономики, внешнеэкономические связи, развитие социальной сферы Узбекистана. Также в книге отражены вопросы, связанные с экономическим районированием республики, социально-экономическим развитием её экономических районов и административно-территориальных единиц.

Учебник предназначен для студентов бакалавриата высших учебных заведений республики по специальности 60530400-География, 60722500-Геодезия, картография и кадастр (землепользование). Он также может использоваться студентами смежных специальностей, преподавателями географии общеобразовательных школ, предметным методистами, а также широким кругом читателей, интересующихся экономической и социальной географией страны.

Kurbanov Sh.B., Fedorko V.N. Geography of Uzbekistan (II part. Economic and social geography of Uzbekistan). Textbook / Responsible editor M.I. Nazarov. – Tashkent: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 384 p.

In the textbook the geographical position of Uzbekistan, natural resource potential, population and labor resources, sectors and territorial structure of the economy, foreign economic relations and the characteristics of the development of social spheres are highlighted. At the same time, the book also reflects the issues related to the division of the republic into economic regions, socio-economic development of economic regions and their administrative-territorial units.

The textbook is intended for undergraduate students of higher educational institutions of the republic majoring in 60530400-Geography, 60722500-Geodeziya, kartografiya and kadastr (land use). It can also be used by students of related fields, geography teachers of general secondary education schools, science methodologists, and a wide readership interested in the economic and social geography of the country.

Mas'ul muharrir: **Nazarov M.I.**, *g.f.n., dotsent*

Taqrizchilar: **Turdimambetov I.R.**, *g.f.d., professor*
Egamberdiyeva U.T., *dotsent*

Darslik Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (Guvohnoma № 259).

ISBN 978-9910-780-28-8

So'z boshi

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid o'quv fanlaridan bo'lajak geograf-mutaxassislarning kasbiy tayyorlovida "O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)" fanining o'rni alohida bo'lib, uning mazmun-mohiyati mamlakatimizning geografik joylashuvi, jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, iqtisodiyoti, ijtimoiy sohalariga, ya'ni, ijtimoiy borlig'ining deyarli barcha jabhalariga aloqadordir.

Mazkur fan talabalarga O'zbekiston Respublikasi, uning iqtisodiy rayonlari va hududlariga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarni ochib berishi, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, milliy iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tarkibida ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida tizimli ma'lumot berishi bilan ahamiyatlidir.

Darslikning asosiy maqsadi – talabalarga O'zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichidagi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir tizimli bilim berish, mustaqil bilim olishga va uni amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir.

Darslik fan dasturiga mos holda tuzilgan bo'lib, 22 ta mavzudan iborat. Darslikning 1-14-mavzulari O'zbekistonning umumiy iqtisodiy geografik tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, respublikamizning geografik o'rni, geosiyosiy munosabatlari, ma'muriy-hududiy tuzilishi, tabiiy-resurs salohiyati, aholisi va mehnat resurslari, makroiqtisodiy rivojlanishi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari, ijtimoiy sohalarining iqtisodiy geografik jihatlari bilan bevosita bog'liq.

Darslikning 15-22-mavzulari esa hududiy mazmun-mohiyatga ega bo'lib, mamlakatimizning iqtisodiy rayonlashtirilishi, 6 ta asosiy iqtisodiy rayoni (Toshkent, Farg'ona, Mirzacho'l, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo), 14 ta ma'muriy-hududiy birligi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahri) ning kompleks iqtisodiy geografik tavsifiga bag'ishlangan. Hududlarning iqtisodiy geografik tavsifi fanda qabul qilingan uslubiy yondashuvdan foydalangan holda bajarildi. Xususan, bunda, hududlarning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholi va mehnat resurslari mintaqaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati nuqtayi nazaridan baholandi. Iqtisodiyotga tavsif berishda uning hududiy tafovutlari va tarkibi, dinamik o'zgarishlariga alohida e'tibor qaratildi. Darslikning so'nggi mavzusi respublika hududlari

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muammolari, bu boradagi ularning taqqoslama reytingiga bag‘ishlangan.

Darslikni yozishda mualliflar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining statistika boshqarmalarining rasmiy ma’lumotlari, respublikamizda so‘nggi yillarda nashr etilgan turli statistik ma’lumotnomalar, to‘plamlar, geografik atlaslar va boshqa ilmiy-uslubiy materiallardan foydalandi.

Mualliflar darslikning mazmun-mohiyatini yaxshilashga qaratilgan fikr-mulohazalari va takliflari uchun mas’ul muharrir g.f.n., dotsent M.I. Nazarov hamda taqrizchilar g.f.d., professor I.R. Turdimambetov va dotsent U.T. Egamberdiyevalarga o‘zlarining samimiy minnatdorchiligini bildiradilar.

1-§. O‘zbekistonning geografik o‘rni, maydoni va chegaralari

Geografik o‘rnining umumiy tavsifi. O‘zbekiston Respublikasi Shimoliy va Sharqiy yarimsharlarda, Yevrosiyo materigining markaziy qismida, Dunyo okeanidan ancha uzoqda (eng yaqin okean Hind okeani bo‘lib, ungacha bo‘lgan masofa 1000 kmdan ko‘proq), O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi, Markaziy Osiyo siyosiy geografik mintaqasida, asosan, ikki yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan.

O‘zbekiston Respublikasining eng chekka shimoliy nuqtasi Qozog‘iston bilan chegarada, Ustyurt platosining Orol dengiziga tutash qismida, 45° 36′ sh.k., eng chekka janubiy nuqtasi Afg‘oniston bilan chegarada, Termiz shahri yaqinida, Amudaryo sohilida, 37° 11′ sh.k., eng chekka g‘arbiy nuqtasi Qozog‘iston va Turkmaniston bilan chegarada, Ustyurt platosida 56° 00′ shq.u., eng chekka sharqiy nuqtasi esa Qirg‘iziston bilan chegarada, Farg‘ona vodiysida, 73° 10′ shq. uzoqlikda joylashgan. O‘zbekiston hududi g‘arbdan sharqga 1425 km, shimoldan janubgacha esa 930 kmga cho‘zilgan.

Maydoni va chegaralari. O‘zbekistonning hududi 448,9 ming km^2 ga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha jahonning mustaqilligi BMT tomonidan tan olingan 194 ta davlat orasida 56-o‘rin, Osiyo davlatlari orasida esa 15-o‘rin egallamoqda. Maydoni kattaligi jihatidan O‘zbekistonga eng yaqin bo‘lgan davlatlar Shvetsiya, Marokash va Iroq hisoblanadi. O‘zbekiston hududi jami quruqlikning 0,3 % ini egallaydi.

O‘zbekiston aholisi, 01.01.2023-yil holatiga ko‘ra, 36,025 mln kishini tashkil etgan bo‘lib, bu jihatdan respublika jahon davlatlari ichida 43-o‘rinda turgan. Aholi soni bo‘yicha O‘zbekistonga eng yaqin ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan davlatlar qatoriga Yaman, Malayziya, Angola va Saudiya Arabistonini kiritish mumkin.

O‘zbekiston shimoli-g‘arb va shimolda Qozog‘iston, sharqda Qirg‘iziston, janubi-sharqda Tojikiston, janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubda, Amudaryo orqali, Afg‘oniston bilan chegaradosh. O‘zbekiston Respublikasi davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km bo‘lib, shundan 2203 km, ya’ni 1/3 qismi, Qozog‘iston, 1621 km Turkmaniston, 1161 km Tojikiston, 1099 km Qirg‘iziston hamda 137 km Afg‘onistonga to‘g‘ri keladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, eng so‘nggi vaqtlarda O‘zbekistonning qo‘shni mamlakatlar, xususan, Qirg‘iziston bilan davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha harakatlar davom etmoqda va buning natijasida respublikamiz davlat chegaralarining uzunligi va yer


maydonini aks ettiruvchi raqamlarga ma'lum kichik o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Qo'shni Qirg'iziston hududida O'zbekistonning 4 ta eksklav hududi mavjud – So'x, Shohimardon, Cho'ng'ara, Jangayil. Ularning barchalari Farg'ona viloyatiga tegishlidir. Ayni paytda O'zbekiston hududida (Namangan viloyatida) Tojikistonning Sarvak eksklavi joylashgan.

Iqtisodiy geografik o'rni. O'zbekiston Respublikasi makro iqtisodiy geografik o'rni, ya'ni global miqyosdagi o'rnining o'ziga xosligi nafaqat o'zi, balki biror bir qo'shni mamlakati ham Dunyo okeaniga tutash emasligidan iboratdir. Bunday geografik xususiyat jahon mamlakatlari ichida, respublikamizdan tashqari, faqatgina G'arbiy Yevropadagi "mitti" davlatlardan biri – Lixtenshteyn knyazligiga xos, hududi kattaroq davlatlardan esa hech qaysi birida geografik joylashuvining bunday jihati mavjud emas. Mamlakatimizning bunday ichki kontinental joylashuvi iqtisodiy geografik nuqtayi nazardan birmuncha noqulay hisoblanadi, chunki aynan dengiz transport yo'llari xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda yetakchi ahamiyatga ega. Shu bois, O'zbekiston hukumati respublikamizni okean va dengiz portlari bilan bir nechta yo'nalishlardagi ishonchli va qulay chiqish yo'llarini ta'minlash maqsadida turli xalqaro transport yo'lak (koridor) larini shakllantirishga qaratilgan geostrategik loyihalar (TRASEKA, Yangi Ipak yo'li, Shimol-Janub koridori, Transafg'on koridori va boshqalar) da faol ishtirol etmoqda.

O'zbekistonning mezo iqtisodiy geografik o'rni Rossiya, Xitoy, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Kavkaz singari Markaziy Osiyo mintaqasiga bevosita tutash bo'lgan davlat va mintaqalarni quruqlik transport magistrallari orqali o'zaro tutashtiruvchi tranzit imkoniyatlarining yuqoriligi bilan belgilanadi (1-rasm). O'zbekiston iqtisodiy geografik o'rnining tranzit imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida respublikamiz transport sohasida Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Gruziya, Eron, Turkiya, Ummon, Afg'oniston, Pokiston kabi davlatlar bilan keng qamrovli o'zaro hamkorlik ishlarini tizimli ravishda rivojlantirilmoqda.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi miqyosidagi, ya'ni bevosita qo'shni bo'lgan davlatlariga nisbatan joylashuvi bilan belgilanadigan mikro iqtisodiy geografik o'rni ancha qulaydir, chunki O'zbekiston mintaqaning o'rtasida joylashgan bo'lib, uning qolgan barcha davlatlarining transport tizimlari bilan yaxshi bog'langan.



1-rasm. O'zbekistonning iqtisodiy-geografik va geosiyosiy o 'rni

Manba: Geografiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun o'quv atlas. T., 2021. B. 35

Geosiyosiy o‘rni va munosabatlari. O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni o‘ziga xos bo‘lib, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Turkiya, Hindiston, Eron, Pokiston kabi Yevrosiyodagi asosiy geosiyosiy markazlarning tashqi manfaatlari kesishgan mintaqada joylashganligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, harbiy-siyosiy vaziyati barqarorlikdan uzoq bo‘lgan Afg‘oniston bilan chegaradoshligi ham O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rnining salbiy tomonlarini belgilaydi. Bunday geosiyosiy sharoitda haqiqiy siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishish, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash kabi maqsadlarga erishish nihoyatda murakkabdir.

Ta’kidlash lozimki, jahondagi yetakchi davlatlarning global va mintaqaviy miqyosdagi geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlar qarama-qarshiligi va raqobati keskinlashib borayotgan hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Davlatimiz tashqi siyosatining bosh maqsadi davlat suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surishdan iborat. Respublika harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik kursiga sodiq bo‘lib, o‘z hududida xorijiy harbiy bazalar va obyektlarni joylashtirishga, shuningdek, o‘z harbiy xizmatchilarining chet eldagi tinchlikparvarlik amaliyotlarida yoki harbiy mojarolarda ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shunday ekan, respublikamizning geosiyosiy munosabatlarini milliy manfaatlarning ustuvorligida shakllangan, ko‘p yo‘nalishli, neytral, tinchliksevar va konstruktiv deb e’tirof etish mumkin.

Diplomatik aloqalari, xalqaro tashkilot va integratsion uyushmalardagi ishtiroki. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi 1991-yil 31-avgustda e’lon qilindi. O‘zbekiston 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlat sifatida qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro siyosiy va huquqiy tizimning to‘laqonli mustaqil subyektiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi, 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, jahondagi BMTga a’zo bo‘lgan 195 ta (BMTda kuzatuvchi davlat maqomiga ega bo‘lgan Vatikan va Falastinni hisobga olganda) davlatdan 143 tasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatgan. Jumladan, Yevropadagi 44 ta davlatning barchasi, Osiyodagi 48 ta davlatning 47 tasi, Afrikadagi 54 ta davlatning 22 tasi, Amerikadagi 35 ta davlatning 27 tasi, Avstraliya va Okeaniyadagi 14 ta davlatning 3 tasi bilan O‘zbekiston rasmiy diplomatik aloqalarga ega.

O‘zbekiston milliy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy manfaatlarga mos keluvchi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida BMT tizimidagi va boshqa tarmoq hamda hududiy tamoyil asosida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘nlab xalqaro tashkilotlarga a’zodir. Ular qatorida YUNESKO, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon Banki, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Butunjahon Turizm Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Shuningdek, O‘zbekiston, turli harbiy-siyosiy maqsadlarda tuzilgan blok va uyushmalarga prinsipial ravishda a’zo bo‘lmagan holda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, umumiy xavf-xatarlarga qarshi kurashishga qaratilgan samarali xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga intilib, qator integratsion uyushmalarga a’zodir. Xususan, respublikamiz Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) va Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) ning to‘laqonli a’zosi hisoblanadi, Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi faoliyatida esa kuzatuvchi davlat sifatida ishtirok etmoqda.

Siyosiy tuzumi. O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzumi mamlakat Konstitutsiyasi (dastlab 1992-yil 8 dekabr kuni, yangi tahrirdagi ko‘rinishi 2023-yil 30-aprel kuni qabul qilingan) va qonunlari bilan belgilanadi. O‘zbekiston boshqaruv shakli jihatidan prezidentlik respublikasidir. Davlat rahbari umumxalq ovoz berish yo‘li bilan 7 yilga saylanadigan Prezident hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O‘zbekistondagi qonun chiqaruvchi hokimiyatning oliy organi hisoblanadi. U ikki palatali tuzilishga ega bo‘lib, Qonunchilik palatasi va Senatdan tashkil topgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi besh yil muddatga Qonun asosida saylanadigan 150 nafar deputatdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, uning 56 nafar a’zosi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — to‘rt kishidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 9 nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyatining oliy organi bo’lib, O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyot, ijtimoiy va ma’naviy sohalarning samarali faoliyat ko‘rsatishiga, qonunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston poytaxti — Toshkent shahri (maydoni — 0,45 ming km^2, aholisi (01.01.2023-y.) — 2955,7 ming kishi).


Ma’muriy-hududiy tuzilishi. O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishi nuqtayi nazaridan unitar davlat hisoblanadi. O‘zbekiston tarkibida 14 ta asosiy ma’muriy-hududiy birlik – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri ajratiladi. Ular esa qishloq va shahar ma’muriy tumanlari, respublika, viloyat va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq aholi punktlari va mahalla fuqarolar yig‘inlariga bo‘linadi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy bo‘linishi (2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)

	Hududi (ming km^2)	Ma’muriy markazi	Tumanlar soni	Shaharlar soni	shu jumladan, respublika va viloyat bo`ysunuvidagi shaharlar soni	Shaharchalar soni	Qishloq aholi punktlari soni
O`zbekiston Respublikasi	**448,97**	**Toshkent sh.**	**173**	**120**	**32**	**1058**	**10990**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	166,59	Nukus sh.	16	12	1	26	1126
viloyatlar:							
Andijon	4,30	Andijon sh.	14	11	2	79	455
Buxoro	40,22	Buxoro sh.	11	11	2	68	1473
Jizzax	21,21	Jizzax sh.	12	6	1	42	529
Qashqadaryo	28,57	Qarshi sh.	14	12	2	117	1042
Navoiy	111,10	Navoiy sh.	8	7	3	46	582
Namangan	7,44	Namangan sh.	13	8	1	115	388
Samarqand	16,77	Samarqand sh.	14	11	2	88	1901
Surxondaryo	20,10	Termiz sh.	14	8	1	112	859
Sirdaryo	4,28	Guliston sh.	8	5	3	25	257
Toshkent	15,14	Nurafshon sh.	15	16	7	89	830
Farg‘ona	6,76	Farg‘ona sh.	15	9	4	194	998
Xorazm	6,05	Urganch sh.	11	3	2	56	550
Toshkent shahri	0,44	-	12	1	1	1	0

Manba: www.stat.uz // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti.



2-rasm. O‘zbekistonning siyosiy-ma’muriy xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 6-7.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tarkibida, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 163 ta qishloq ma’muriy tuman, 2 ta shahar tumani (Namangan shahri tarkibida), 31 ta viloyat bo‘ysunuvidagi shahar mavjud. Respublika bo‘ysunuvidagi shahar maqomiga ega bo‘lgan O‘zbekistonning poytaxti, Toshkent shahri, o‘z navbatda, 12 ta shahar tumani va 1 ta shaharchadan iboratdir.

Maydoni jihatidan O‘zbekiston hududlari orasida eng kattalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyati hisoblanib, ular Respublika umumiy maydonining 62 foizini egallaydi. Eng kichik ma’muriy-hududiy birliklar sifatida esa Sirdaryo va Andijon viloyatlarini ajratsa bo‘ladi. Shuningdek, Xorazm, Farg‘ona va Namangan viloyatlarini ham maydoni jihatidan kichik ma’muriy-hududiy birliklar qatoriga kiritish mumkin.

O‘zbekistondagi 163 ta qishloq ma’muriy tumandan 5 tasining maydoni 10 ming km^2dan katta bo‘lib, ularning 3 tasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq, Taxtako‘pir), 2 tasi esa Navoiy viloyati (Tomdi, Uchquduq) tarkibiga kiradi. Bu 5 ta tuman respublika jami maydonining deyarli yarmini egallaydi. Ayni vaqtda 11 ta qishloq tumanining maydoni 0,25 ming km^2dan kichik. Ularning aksariyati Farg‘ona vodiysida joylashgan. Respublikadagi eng katta qishloq tumani Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumani (76 ming km^2), eng kichigi esa Toshkent viloyatidagi Toshkent tumani (0,16 ming km^2) hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi qaysi tabiiy geografik va qaysi siyosiy geografik mintaqalarda joylashgan?
2. O‘zbekiston iqtisodiy geografik o‘rnining ijobiy va salbiy jihatlarini izohlab bering.
3. O‘zbekistonning makro, mezo va mikro iqtisodiy geografik o‘rnini taqqoslang. Qaysi biri nisbatan qulay, qaysi biri esa nisbatan noqulay hisoblanadi? Nima uchun?
4. Mamlakatimizning tashqi siyosatiga uning geosiyosiy o‘rni qanday ta’sir ko‘rsatgan, deb o‘ylaysiz?
5. Qo‘shimcha manbalardan foydalanib, Osiyo qit’asidagi maydoni O‘zbekistondan katta bo‘lgan davlatlarni aniqlang.
6. Fikringizcha, nima sababdan mamlakatimizning viloyat va tumanlari hududiy kattaligi jihatidan o‘zaro keskin farq qiladi?

Test savollari

1. O‘zbekistonning chekka janubiy nuqtasi qaysi davlat bilan chegarasida joylashgan?
A) Tojikiston
B) Qirg‘iziston
C) Afg‘oniston
D) Turkmaniston

2. Maydoni kattaligi jihatidan O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan davlatlar qatorini belgilang.
A) Belgiya, Niderlandiya, Chexiya
B) Shvetsiya, Marokash, Iroq
C) Saudiya Arabistoni, Meksika, Eron
D) Nepal, Tojikiston, Gruziya

3. Qaysi viloyat hududida Tojikistonning Sarvak eksklavi joylashgan?
A) Farg‘ona
B) Jizzax
C) Toshkent
D) Namangan

4. Quyidagi integratsion uyushmalardan qaysi birining faoliyatida O‘zbekiston kuzatuvchi davlat sifatida ishtirok etadi?
A) Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi
B) Turkiy Davlatlar Tashkiloti
C) Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi
D) Shanxay Hamkorlik Tashkiloti

5. O‘zbekiston Respublikasidagi qishloq tumanlaridan maydoni jihatidan eng yirigi qaysi?
A) Tomdi
B) Taxtako‘pir
C) Qo‘ng‘irot
D) Uchquduq

2-§. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari

Yer yuzasi tuzilishi va mineral resurslari. O‘zbekiston hududining 78,7 % ini tekisliklar, 21,3 % qismini esa tog‘lar, tog‘oldi tekisliklar va tog‘lar oralig‘idagi botiqlar egallaydi. Respublikaning shimoli-g‘arbiy qismi, asosan, tekisliklardan iborat bo‘lsa, uning janubi-sharqiy hududlariga ko‘proq tog‘oldi-tog‘ relyef shakllari xos (3-rasm).

O‘zbekistonning eng baland nuqtasi respublikamiz janubida, Hisor tizmasida, Surxondaryo viloyatining Tojikiston Respublikasi bilan chegarasida joylashgan Hazrat Sulton cho‘qqisi hisoblanadi. Uning mutlaq balandligi dengiz sathidan 4643 metrga teng. Mamlakatimizning eng past joyi esa Navoiy viloyati hududida, Qizilqum cho‘lining markaziy qismida joylashgan, mutlaq balandligi -12 metrga teng bo‘lgan Mingbuloq botig‘i hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, respublika hududida mutlaq balandliklar farqi 4655 metrga teng bo‘lib, tabiiy sharoitning xilma-xilligini ko‘p jihatdan belgilab beradigan omil hisoblanadi.

O‘zbekistonning chekka shimoli-g‘arbida asosiy qismi 100-200 metr mutlaq balandligiga, eng baland nuqtasi (Qorabovur qiri) esa 292 metrga teng bo‘lgan hamda atrofidagi pasttekisliklardan chink deb ataladigan tik yonbag‘irlar bilan ajralib turadigan Ustyurt platosi joylashgan. Undan sharqda juda katta maydonni egallagan Turon tekisligi joylashgan bo‘lib, uning asosiy qismini Qizilqum cho‘li va Amudaryo deltasi egallaydi. Ustyurt, Qizilqum va Amudaryo deltasi orasida tobora qurib borayotgan, sho‘rxok va qumliklar bilan qoplangan Orol dengizining botig‘i joylashgan. Bu hudud Orolqum cho‘li sifatida alohida tabiiy geografik birlik sifatida ajratiladi. Respublikamizning tekislik qismidagi aholi yashashi va xo‘jalik faoliyati (ayniqsa, sug‘orma dehqonchiligi) bilan shug‘ullanishiga eng maqbul tabiiy sharoit Amudaryo va Zarafshon daryolarining quyi oqimida qadimdan vujudga kelgan Xorazm va Buxoro-Qorako‘l vohalariga xosdir.

Mamlakatning janubi-sharqida G‘arbiy Tyanshan va Hisor-Oloyning tog‘ tizmalari joylashgan. Ulardan eng yiriklari qatoriga Talas Olatovi, Piskom, Chotqol, Qurama, Turkiston, Zarafshon, Hisor, Nurota, Boysuntog‘, Ko‘hitangtog‘ va Bobotog‘ tizmalari kiradi. Ushbu baland tog‘ tizmalari oralig‘ida Farg‘ona, Chirchiq-Ohangaron, Mirzacho‘l, Sangzor-Nurota, Samarqand, Kitob-Shahrisabz, Surxon-Sherobod kabi botiqlar joylashgan. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston sharoitida tog‘oldi tekisliklar va tog‘ oralig‘idagi botiqlar yer sirti tuzilishi, yer va suv resurslari bilan ta’minlanishi jihatidan aholi yashashi va xo‘jalik faoliyati


uchun eng qulay tabiiy sharoitga ega hududlar hisoblanadi. Bejiz emaski, aholi zichligi eng yuqori darajaga yetgan vodiylar hamda eng yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalari (Toshkent, Samarqand, Namangan, Farg‘ona-Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qo‘n) aynan tog‘oldi tekisliklar va tog‘ oralig‘idagi botiqlar doirasida shakllangan.

O‘zbekiston hududida jami 120 ga yaqin turdagi foydali qazilmalarning 2700 ta konlari topilgan. Mineral resurslar ayrim turlarining zaxiralari bo‘yicha respublikamiz jahon mamlakatlari orasida ham yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Jumladan, O‘zbekiston jahon mamlakatlari orasida oltin zaxiralari bo‘yicha 4-, uran zaxiralari bo‘yicha 7-, molibden zaxiralari bo‘yicha 8-, mis rudalari bo‘yicha esa 10-o‘rinda turadi. Yoqilg‘i-energetika resurslari ichida tabiiy gaz eng katta ahamiyatga ega. Noruda qazilma boyliklaridan kaliy tuzlari va fosforitlar qazishda dunyo bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan birida turadi.

Tabiiy gazning asosiy konlari Qashqadaryo (Sho‘rtan, Muborak), Buxoro (Qandim, Gazli) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (Surgil) joylashgan. Neft zaxiralari Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Farg‘ona vodiysi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud bo‘lib, eng yirik koni Qashqadaryo viloyatidagi Ko‘kdumaloq hisoblanadi. Mamlakatimizdagi eng yirik ko‘mir koni Toshkent viloyatidagi Angren koni bo‘lib, u yerdan qo‘ng‘ir ko‘mir qazib olinadi. Surxondaryo viloyatida Sharg‘un va Boysun toshko‘mir konlari joylashgan.

Oltinning eng yirik konlari (Muruntov, Ko‘kpatas) Markaziy Qizilqumda, Navoiy viloyatida joylashgan. Shuningdek, oltin konlari Samarqand (Zarmitan), Jizzax (Marjonbuloq), Toshkent (Qizilolma) va Namangan (Chodak) viloyatlarida ham mavjud. Uran konlarining asosiy qismi Navoiy, Buxoro va Samarqand viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Ulardan eng kattasi Navoiy viloyatidagi Uchquduq konidir. Mis rudalarining yirik konlari Toshkent viloyatida, Qurama tizmasi yonbag‘irlarida joylashgan (Qalmoqqir, Sarichek, Dalneye). Polimetal rudalarining konlari Jizzax (Uchquloch), Surxondaryo (Xonjiza), Toshkent (Lashkarak) viloyatlarida, volfram rudalarining konlari Jizzax (Qo‘ytosh), Samarqand (Ingichka) viloyatlarida, molibden rudalarining konlari Toshkent (Olmaliq) viloyatida joylashgan.

Tog‘ kimyo xomashyosining katta zaxiralari Qoraqalpog‘iston Respublikasi (sulfat tuzlari – Tumryuk, Borsakelmas konlari), Qashqadaryo (kaliy tuzi – To‘begatan koni) va Navoiy (fosforit – Jeroy-Sardora, Shimoliy Jetimtov konlari) viloyatlarida topilgan.



3-rasm. O‘zbekistonning tabiiy xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 4-5.

Umuman olganda, O‘zbekiston hududlaridan turli foydali qazilmalarning yirik konlariga, asosan, Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi boy hisoblanadi.

Turli mineral resurslarning ulkan zaxiralari yurtimizda rangli metallurgiya, yoqilg‘i, kimyo va qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Iqlim sharoiti va agroiqlim resurslari. O‘zbekistonning iqlimi quyoshli, quruq, keskin kontinental xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Bu mamlakatimizning Yevrosiyo materigining o‘rtasida, mo‘tadil va subtropik iqlim mintaqalarining chegarasida joylashganligi bilan bog‘liqdir.

Respublika hududida kuzatilgan eng yuqori havo harorati Termiz shahrida qayd qilingan bo‘lib, u +49,6°C ga teng. Eng past havo harorati esa Ustyurt platosining shimolida kuzatilgan bo‘lib, uning qiymati -39°C ni tashkil etgan.

Atmosfera yog‘inlarining yillik yig‘indisi O‘zbekiston hududining tekislik qismida 100-200 mm, adirlarda 200-500 mm, tog‘larda esa 500-1000 mmga teng. Eng kam yog‘in miqdori Xorazm vohasi va Farg‘ona vodiysining chekka g‘arbiy qismida kuzatilsa, eng ko‘p yog‘in Piskom, Chotqol, Hisor va Zarafshon tog‘ tizmalarning eng baland qismlarida yog‘adi. Respublikamizda yog‘inlarning katta qismi qish va bahor oylarida yog‘adi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratuvchi boy agroiqlim resurslariga ega. Xususan, vegetatsiya davrining davomiyligi (225-266 kun), issiq va quyoshli kunlarning ko‘pligi tufayli O‘zbekistonda paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, polizchilik kabi yuqori daromadli dehqonchilik tarmoqlari intensiv ravishda rivojlanmoqda. Termik resurslariga, ayniqsa, Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari boy bo‘lib, ularning janubiy hududlarida samarali (ya’ni +10°C dan yuqori bo‘lgan) havo haroratlarning yillik yig‘indisi 5000°C dan oshadi.

O‘zbekiston agroiqlim resurslarining zaif jihati tabiiy namgarchilikning ozligi bilan tavsiflanadi. Shu bois, respublikamizda dehqonchilik, asosan, sun’iy sug‘orish yordamida rivojlanadi. Sug‘orishsiz, ya’ni lalmikor dehqonchilik faqat tog‘oldi va tog‘ hududlarida mavjud bo‘lib, bunday yerlarda, asosan, bug‘doy, arpa, dukkakli ekinlar yetishtiriladi.

Suv resurslari. O‘zbekiston hududidagi asosiy daryolar – Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Norin, Qoradaryo, Chirchiq,

- 5137 -
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Surxondaryo, Qashqadaryo, Ohangaron, So‘x. Bu daryolarning aksariyati transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lib, qo‘shni mamlakatlar – Tojikiston va Qirg‘izistonning tog‘li hududlaridan boshlanadi. Mamlakatimiz chegaralari doirasida o‘rtacha yillik hisobda 11 km^3 suv resurslari shakllanib, bu Orol dengizi havzasi jami suv resurslarining salkam 10 % ini tashkil etadi, xolos. Demak, suv ta’minoti jihatidan O‘zbekiston yuqori darajada qo‘shni davlatlarga bog‘liqdir.

Respublika hududlari orasida suv boyliklari bilan Toshkent, Andijon, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari nisbatan yaxshi darajada ta’minlangan. Ayni paytda mamlakatimiz g‘arbida joylashgan, katta qismini cho‘llar egallagan Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu jihatdan ancha taqchil vaziyat vujudga kelgan.

Yurtimizda qishloq xo‘jaligi yerlarini suv bilan ta’minlash maqsadida ko‘plab sug‘orish kanallari qurilgan bo‘lib, ulardan eng yiriklari qatoriga Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi Katta Farg‘ona, Katta Andijon, Shimoliy Farg‘ona, Janubiy Farg‘ona, Katta Namangan kanallari, Mirzacho‘ldagi Do‘stlik, Janubiy Mirzacho‘l kanallari, Qashqadaryo viloyatidagi Qarshi kanali, Buxoro va Navoiy viloyatidagi Amu-Buxoro kanali, Surxondaryo viloyatidagi Amu-Zang, Sherobod kanallari, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Toshsaqa, Qizketken, Suenli kabi kanallarni kiritish mumkin. Ayrim kanallar yerlarning tabiiy relyefiga qarama-qarshi yo‘nalishda qurilganligi bois, suv ularning o‘zani bo‘ylab nasoslar yordamida harakatga keltiriladi. Bunday kanallar mashina kanallari deb atalib, ularga Amu-Buxoro, Qarshi, Amu-Zang, Janubiy Mirzacho‘l va boshqa kanallar misol bo‘la oladi. Amu-Buxoro va Qarshi kanallari Turkmaniston hududidan boshlanib, transchegaraviy xususiyatga ega.

Daryo va soylarning suv rejimini sug‘orish va gidroenergetika maqsadlarida boshqarish uchun O‘zbekistonda 50 tadan ortiq suv va sel omborlari bunyod etilgan. Ularning eng yiriklari Tuyamo‘yin, Chorvoq, Andijon, Janubiy Surxon, Chimqo‘rg‘on, Tallimarjon, Kattaqo‘rg‘on suv omborlaridir. Ayniqsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Namangan viloyatlarida turli kattalikdagi suv va sel omborlari ko‘p qurilgan.

Yer fondi va uning tarkibiy tuzilishi. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining umumiy maydoni, 1.01.2023-yil holatiga ko‘ra, 44,89 mln gektarga teng. Uning eng mahsuldor qismi hisoblanadigan sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydoni 4,34 mln gektarga teng bo‘lib, mamlakat

umumiy yer fondining 9,7 % ini tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi yerlarining barcha turlari 25,77 mln gektarni egallaydi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismini yetishtirib beradigan ekin yerlarining jami maydoni 4,03 mln gektar bo‘lib, 3,24 mln gektari sug‘oriladigan, 0,79 mln gektari lalmikor yerlardan iborat. Sug‘oriladigan ekin yerlarining asosiy qismi daryolarning vodiy va deltalarida, tog‘oldi tekisliklar hamda tog‘ oralig‘idagi botiqlarida joylashgan. Ularning eng katta maydonlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi (418,8 ming gektar) va Qashqadaryo viloyati (417,3 ming gektar), eng kichik maydoni esa Navoiy viloyati (91,4 ming gektar) ga tegishli. Lalmikor ekin yerlari esa faqat 6 ta viloyatda, ya’ni Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida mavjud bo‘lib, eng katta maydonlari Qashqadaryo (258,1 ming gektar) va Jizzax (244,2 ming gektar) viloyatlariga to‘g‘ri keladi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining eng katta tarkibiy qismi yaylovlardan iborat bo‘lib, ularning jami maydoni 21,22 mln gektarga teng. Yaylov yerlarining eng katta maydonlari yurtimizning cho‘l qismida joylashgan Navoiy viloyati (8,89 mln gektar), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (5,27 mln gektar) va Buxoro viloyati (2,57 mln gektar) da qayd etilgan.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekistonning qaysi hududlari aholi yashashi va xo’jalik faoliyati uchun eng qulay relyefga ega?
2. Mineral resurslar qaysi turlarining zaxiralari bo‘yicha O‘zbekiston jahon miqyosida alohida ajralib turadi?
3. Respublikamizning qaysi hududlari eng katta mineral resurs salohiyatga ega?
4. O‘zbekiston agroiqlim resurslarining ijobiy va salbiy jihatlarini izohlang.
5. Mamlakatimizdagi qaysi sug‘orish kanallari mashina kanallari hisoblanadi va ularning o‘ziga xos xususiyati nimadan iborat?
6. O‘zbekistonda lalmikor yerlarning hududiy tarqalishini tushuntiring.

Test savollari

1. O‘zbekistonning eng baland va eng past nuqtalari mutlaq balandligining o‘zaro farqi necha metrga teng?
A) 4643
B) 4650
C) 4655
D) 4663

2. Qandim gaz koni qaysi viloyatda joylashgan?
A) Qashqadaryo
B) Buxoro
C) Surxondaryo
D) Namangan


3. Ushbu oltin konlaridan qaysi biri Jizzax viloyatida joylashgan?
A) Zarmitan
B) Chodak
C) Qizilolma
D) Marjonbuloq

4. Quyidagi hududlardan qaysi biri suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta’minlangan?
A) Samarqand viloyati
B) Buxoro viloyati
C) Navoiy viloyati
D) Qoraqalpog‘iston Respublikasi

5. Ushbu viloyatlarning qaysi birida lalmikor ekin yerlari mavjud emas?
A) Surxondaryo
B) Navoiy
C) Jizzax
D) Sirdaryo

3-§. O‘zbekiston aholisi va mehnat resurslari

Aholi soni va o‘sishi. O‘zbekiston Respublikasi aholisining soni, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 36024,9 ming kishiga teng. Ta’kidlash joizki, demografik salohiyati jihatidan O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, mamlakatimizda mintaqa jami aholisining 45 foizi istiqomat qiladi. E’tiborlisi, O‘zbekiston Markaziy Osiyo umumiy hududining 11,2 foiz qismini egallaydi, xolos.




4-rasm. O‘zbekiston doimiy aholisi sonining o‘sishi (1940-2023-yy., yil boshi holatiga ko‘ra)
Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Respublika aholisi muntazam ravishda o‘sib bormoqda (4-rasm). Mustaqillik arafasida, ya’ni 1990-yilda, 20,2 mln kishiga teng bo‘lgan O‘zbekiston aholisi 2023-yilga kelib, 36 mln kishiga yetdi. O‘tgan vaqt oralig‘ida aholi soni har yili, o‘rtacha hisobda, 478,8 ming kishiga ortib borgan. 2022-yil yakunlari bo‘yicha esa respublikamiz aholisining umumiy ko‘payishi 753,6 ming kishiga teng bo‘ldi. Bunda tabiiy ko‘payish 760,1 ming kishini, mexanik (migratsion) ko‘payish esa -6,5 ming kishini tashkil etdi. Yillik hisobda aholi sonining mutlaq o‘sishi tobora ortib bormoqda: 2010-yilda bu ko‘rsatkich 456,7 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2015-yilda u 552,8 ming kishiga, 2020-yilda 653,7 ming kishiga teng bo‘ldi. Ushbu tendensiya, bir tomondan, mamlakatimizda tug‘ilishning mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarining

o‘sishi, ikkinchi tomondan esa, tashqi migratsiyasini manfiy saldosining kamayishi bilan bog‘liqdir.

Aholishunoslik ma’lumotnoma byurosi (AQSH) tomonidan 2022-yilda e’lon qilingan prognoz bo‘yicha, O‘zbekiston aholisi 2035-yilga borib 41,4 mln kishi, 2050-yilga borib esa 46,9 mln kishigacha yetib qoladi.

Aholi tabiiy ko‘payishi va migratsion harakati. O‘zbekistonda, 2022-yil yakunlari bo‘yicha, tug‘ilish umumiy koeffitsiyenti 1000 kishiga nisbatan 26,2 ga, o‘lim umumiy koeffitsiyenti 4,8 ga, tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti esa 21,4 ga teng bo‘ldi.



5-rasm. O‘zbekiston aholisining tabiiy ko‘payish koeffitsiyentining o‘zgarish dinamikasi (har 1000 kishiga, 1940-2022-yy.)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikamizda aholi tabiiy ko‘payishi sur’atlari 1960-yildan keyingi davrda, asosan, pasayib bordi. Ayniqsa, 1990-2000-yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich keskin tarzda kamaydi (5-rasm). Lekin 2010-yildan keyingi davrda mamlakatimizda aholi tabiiy ko‘payish sur’atlarining ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. E’tiborlisi, respublikamizda kuzatilayotgan bunday tendensiya tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning global demografik trendlariga teskaridir.

O‘zbekiston hududlari orasida tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlarida muayyan tafovutlar mavjud (2-jadval). Xususan, 2022-yilda eng yuqori ko‘rsatkich Surxondaryo viloyati (24,4), eng past ko‘rsatkich esa Qoraqalpog‘istonda (16,9) qayd etildi. Umuman olganda, 2015-2022-yy. oralig‘ida tabiiy ko‘payishning eng yuqori sur’atlari Surxondaryo,

Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand va Namangan viloyatlarida kuzatilgan bo‘lsa, nisbatan past ko‘rsatkichlar esa Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Toshkent, Buxoro va Navoiy viloyatlarida qayd etilgan. Dinamik jihatdan qaraganda, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘istondan tashqari barcha hududlarda 2010-2022-yillarda tabiiy ko‘payish darajasi tobora o‘sib bormoqda.

2-jadval

O‘zbekiston hududlarida aholi tabiiy ko‘payish koeffitsiyentining dinamikasi (1000 kishiga nisbatan, 2010-2022-yy.)


Hududlar	2010	2015	2020	2022
O‘zbekiston Respublikasi	**17,2**	**18,6**	**19,5**	**21,4**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	17,7	18,7	15,8	16,9
viloyatlar:				
Andijon	17,7	18,9	20,8	21,6
Buxoro	16,3	17,5	16,3	18,1
Jizzax	18,6	21,0	23,0	23,3
Qashqadaryo	19,9	22,2	23,1	23,6
Navoiy	16,6	17,5	18,8	21,1
Namangan	17,0	19,3	21,5	23,3
Samarqand	18,8	20,5	21,2	22,7
Surxondaryo	19,8	22,9	23,6	24,4
Sirdaryo	17,7	18,0	20,1	21,5
Toshkent	15,0	15,2	16,2	19,8
Farg‘ona	17,1	17,8	19,7	21,1
Xorazm	18,3	18,3	17,2	18,2
Toshkent shahri	10,1	11,1	12,6	19,7

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi soni dinamikasiga tashqi migratsiya omili ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Respublikamizda 1976-yildan buyon migratsiya qoldig‘i (saldosi) manfiy bo‘lmoqda. Ayniqsa, 1990-2005-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda tashqi migratsiyaning manfiy saldosi baland darajada bo‘lgan (aholi mexanik kamayishining maksimal ko‘rsatkichi 1994-yilda qayd etilgan bo‘lib, -137,2 ming kishini tashkil qilgan). Ammo 2006-yildan buyon respublikamizda aholi mexanik kamayishi ko‘rsatkichi tobora pasayib bormoqda (6-rasm).

Respublikamiz aholisining tashqi migratsiyasi geografik tarkibida MDH davlatlarining ulushi (92-98 %) boshqa xorijiy davlatlar ulushiga (2-8 %) nisbatan an’anaviy ravishda ancha yuqori. Xususan, 2022-yilda O‘zbekistonga 2,3 ming kishi doimiy yashash maqsadida xorijdan ko‘chib kelgan bo‘lsa, ulardan 35 % i Rossiyadan, 32,8 % i esa Qozog‘istondan ko‘chib kelgan. Ayni vaqtda mamlakatimizdan doimiy yashash uchun 8,8 ming kishi xorijga ko‘chib ketgan holda, ulardan 79,5

% i Qozog‘istonga, 16,4 % i esa Rossiyaga ko‘chib ketgan. Shunday ekan, O‘zbekiston tashqi migratsiya orqali, asosan, Qozog‘iston va Rossiya bilan bog‘langan.



6-rasm. O‘zbekiston tashqi migratsiya saldosining o‘zgarish dinamikasi (ming kishi, 2005-2022-yy.)


Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Hududlar kesimida ko‘rib chiqqanda, aholining xorijga ko‘chib ketish ko‘rsatkichlari so‘nggi 20 yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Toshkent viloyatida hamda Toshkent shahrida eng yuqori darajada kuzatilmoqda. Bu holat ko‘p jihatdan ushbu hududlar aholisining etnik tarkibi, xususan, qozoq va rus millatlarining vakillari soni bilan bog‘liqdir.

Aholining yosh va jins tarkibi. O‘zbekiston aholisining yosh tarkibida, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 30 % qismi 14 yoshgacha bo’lgan bolalar, 65 % qismi jahon statistik meyyorlari bo‘yicha mehnatga layoqatli bo‘lib hisoblanadigan 15-64 yoshdagi aholi, 5 % qismi esa 65 yosh va undan kattalardan iborat bo‘lgan. Mustaqillik yillarida kuzatilayotgan demografik o‘tish (demografik modernizatsiya) jarayonida ro‘y bergan tug‘ilishning pasayishi hamda o‘rtacha umr ko‘rish davrining uzayib borishi (2000-yilda 70,8 yosh, 2022-yilda 74,3 yosh) ta’sirida O‘zbekiston aholisi asosiy yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishida mehnatga layoqatli va keksa yoshdagilarning ulushlari biroz ortgan. Ammo eng so‘nggi yillarda kuzatilayotgan tug‘ilishning ko‘payishi natijasida mamlakatimiz aholisining yosh tarkibida kichik yosh guruhlarining ulushi ortib bormoqda (masalan, 2020-yilda 14

yoshgacha bolalarning ulushi 29 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 30 %ga tenglashdi).

Hududlar kesimida aholi yosh tarkibida keskin tafovutlar kuzatilmasa ham, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘iston keksalarning nisbatan past, Toshkent viloyati va, ayniqsa, Toshkent shahri tegishli yosh guruhining nisbatan balandroq ulushi bilan respublika hududlari orasida ajralib turadi. Bu farqlanishlar tug‘ilish koeffitsiyenti va o‘rtacha umr davomiyligi kabi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi.



7-rasm. O‘zbekiston doimiy aholisining yosh-jins piramidasi (1.01.2023-yil holatiga ko‘ra)

Manba: O‘zbekiston Respublikasining demografik holati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining press-relizi. 2023-yil yanvar-iyun // www.stat.uz/images/uploads/reliz-2023/demografiya-press-reliz-25_07_2023-uzb.pdf. – B. 7.

Respublika aholisi jins bo‘yicha tarkibida, 1.01.2023-yil holatiga ko‘ra, erkaklar soni 18128,6 ming kishini, ayollar soni esa 17896,3 ming kishini tashkil etib, erkaklar ulushi 50,3 %, ayollar ulushi esa 49,7 % ga teng. Ma’lumki, tug‘ilgan chaqaloqlar orasida, odatda, o‘g‘il bolalar son jihatdan qiz bolalardan biroz ustun bo‘ladi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi esa ayollarda erkaklardan birmuncha uzoqroq bo‘ladi. Natijada aholining yosh va jins bo‘yicha tarkibi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, aholi tarkibida yoshlarning ulushi qanchalik baland bo‘lsa, shunchalik erkaklarning son jihatdan ustunligi kuzatiladi, keksalarning ulushi ortgan sari esa, aksincha, ayollarning salmog‘i ko‘payib boradi. Bu bog‘liqlikni aholi yosh-jins piramidalarida yaqqol

ko‘rish mumkin (7-rasm). O‘zbekiston doimiy aholisining yosh-jins piramidasidan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz aholisining 35 yoshgacha bo‘lgan yosh guruhlari tarkibida erkaklar, 35 yoshdan kattaroq qatlamlarda esa ayollar son jihatidan ustunlikka ega. Demak, umumiy hisobda respublikamiz aholisi tarkibida erkaklarning son jihatdan biroz ustunligi aholining yosh tarkibidan kelib chiqadi. Ta’kidlash joizki, aholisining yosh tarkibida keksalarning ulushi birmuncha yuqoriroq bo‘lgan Toshkent shahridan tashqari, mamlakatimizning barcha hududlarida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko‘proq. Bu tarkibiy ustuvorlik, ayniqsa, tug‘ilish yuqori bo‘lgan Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida ko‘zga tashlanadi.

Aholining milliy tarkibi. O‘zbekiston aholisining milliy tarkibi 130 ta millat va elat vakillaridan iborat. Rasmiy statistik ma’lumotlarga binoan, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, mamlakatimiz aholisining 84,5 % qismini o‘zbeklar tashkil etgan. Shuningdek, respublika aholisining milliy tarkibida tojiklar (4,8 %), qozoqlar (2,4 %), qoraqalpoqlar (2,2 %), ruslar (2,1 %), qirg‘izlar (0,84 %), turkmanlar (0,6 %), tatarlar (0,54 %) va koreyslar (0,5 %) salmoqlari boshqa millatlarga nisbatan yuqori. Mustaqillik yillarida respublika aholisining milliy tarkibida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar ro‘y berdi (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston aholisining milliy tarkibi (1989 va 2021-yy.)

Millatlar	12.01.1989-y. (Aholi ro‘yxati ma’lumotlari bo‘yicha)		1.01.2021-y. (O‘zR Davstatko‘m ma’lumotlari bo‘yicha)	
	ming kishi	%	ming kishi	%
O‘zbeklar	14142,5	71,39	29194,1	84,48
Qoraqalpoqlar	411,9	2,08	752,6	2,18
Ruslar	1653,5	8,35	720,3	2,08
Tojiklar	933,6	4,71	1657,3	4,80
Qozoqlar	808,2	4,08	821,2	2,38
Qirg‘izlar	174,9	0,88	291,6	0,84
Turkmanlar	121,6	0,61	206,2	0,60
Tatarlar	467,8	2,36	187,3	0,54
Koreyslar	183,1	0,92	174,2	0,50
Boshqa millatlar	913,0	4,61	554,0	1,90


Jadval muaaliflar tomonidan 1989-yildagi Butunittifoq aholi ro‘yxati hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bu o‘zgarishlardan eng kattasi o‘zbeklarning mutlaq soni (2,1 barobar) va jami aholidagi ulushining (71,39 % dan 84,48 % gacha) yuqori darajada ko‘payganidan iborat. Shuningdek, tojik, qoraqalpoq, qirg‘iz va turkmanlarning soni sezilarli darajada o‘sdi, lekin jami aholidagi ulushi deyarli o‘zgarmadi. Aholi milliy tarkibida qozoq va

koreyslar son jihatdan o‘tgan davr mobaynida kam siljigan holda, jami aholidagi salmoqlari ancha tushib ketdi. Rus, tatar, yahudiy, ukrain va boshqa nomahalliy millatlar vakillarining mamlakat aholisi etnik tarkibidagi o‘rni esa mutlaq soni jihatidan ham, salmog‘i jihatidan ham anchagina pasayib ketdi. O‘zbekiston aholisi milliy tarkibidagi bu siljishlar, birinchi navbatda, o‘tgan davr mobaynida kuzatilgan migratsion jarayonlar natijasi bo‘lib, turli millat vakillarining yosh tarkibi va tabiiy ko‘payishi xususiyatlari bilan ham ma’lum darajada bog‘liq bo‘ldi.

Mamlakatimiz hududida turli millatlarning o‘ziga xos joylashuvini ham ko‘rish mumkin. Jumladan, tojik millati vakillarining 85 foizi Surxondaryo, Samarqand, Namangan, Farg‘ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida, qozoqlar 4/5 qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatida, qoraqalpoqlarning 95 foizi bevosita Qoraqalpog‘istonda, rus va tatarlarning deyarli 2/3 qismi, koreyslarning 3/4 qismi Toshkent shahri va Toshkent viloyatida, qirg‘izlarning 4/5 qismi Andijon, Farg‘ona va Jizzax viloyatlarida, turkmanlarning yarmi Qoraqalpog‘istonda, 1/3 qismi esa Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida istiqomat qiladi. Bu holat respublikamizning o‘ziga xos etnik geografiyasini hosil qiladi va hududining etnogeografik rayonlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Ushbu darslik mualliflari tomonidan O‘zbekiston etnogeografik rayonlashtirish sxemasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu rayonlashtirish 3 ta taksonomik birlikdan iborat: etnogeografik provinsiya, okrug hamda rayonlar. O‘zbekiston hududida gidrografik jihatdan o‘ziga xos joylashuviga ega bo‘lgan va asosiy millatlarning tarkibi bilan farq qiluvchi 4 ta etnogeografik provinsiya ajratilgan: Yuqori Sirdaryo (Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari), O‘rta Sirdaryo (Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, Navoiy viloyatining Nurota tumani), O‘rta Amudaryo (Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlari, Navoiy viloyatining Xatirchi, Karmana, Navbahor, Qiziltepa tumanlari, Navoiy shahri), Quyi Amudaryo-Qizilqum (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyati, Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlari, Zarafshon shahri). O‘zbeklar bilan birgalikda asosiy millatlar qatoriga (jami aholining kamida 1 foizini tashkil etgan holda) Yuqori Sirdaryo provinsiyasida tojiklar va qirg‘izlar, O‘rta Sirdaryo provinsiyasida qozoqlar, ruslar, tojiklar va qirg‘izlar, O‘rta Amudaryo provinsiyasida tojiklar va ruslar, Quyi Amudaryo-Qizilqum provinsiyasida esa qoraqalpoqlar, qozoqlar va turkmanlar kiradi.




8-rasm. O‘zbekistonning etnogeografik rayonlashtirilishi xaritasi

Xarita mualliflar tomonidan tuzilgan

Yuqori Sirdaryo provinsiyasi tarkibida 1 ta etnogeografik okrug – Farg‘ona okrugi, O‘rta Sirdaryo provinsiyasida 2 ta – Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati) va Mirzacho‘l-Nurota (Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, Navoiy viloyatining Nurota tumani) okruglari, O‘rta Amudaryo provinsiyasida 2 ta – Zarafshon (Samarqand, Buxoro viloyatlari, Navoiy viloyatining Xatirchi, Karmana, Navbahor, Qiziltepa tumanlari, Navoiy shahri) va Janubiy (Qashqadaryo va Surxondaryo) okruglari, Quyi Amudaryo-Qizilqum provinsiyasi tarkibida 1 ta – Shimoli-G‘arbiy etnogeografik okrug ajratiladi. Okruglar aholining milliy tarkibida asosiy millatlarning ulushi va o‘zaro nisbati bo‘yicha farqlanadi. Okruglar tarkibida tuman va shaharlar kesimidagi jami aholida turli millat vakillarining salmog‘idan kelib chiqib etnogeografik rayonlar ajratilgan. Ularning respublika bo‘yicha umumiy soni 32 taga teng (8-rasm).

Shahar va qishloq aholisi. O‘zbekiston doimiy aholisi tarkibida, 1.01.2023-yil holatiga ko‘ra, shahar aholisining salmog‘i 51 % ni, qishloq aholisining salmog‘i esa 49 % ni tashkil etgan. Respublikamizda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining bosh miqdoriy ko‘rsatkichi hisoblanadigan shahar aholisining ulushi 1989-2008-yillarda sezilarli darajada pasaygan edi (40,7 % dan 35,8 % gacha). Bu shahar aholisining tabiiy harakati qishloq aholisiga nisbatan biroz sustligi, shuningdek, Mustaqillikning dastlabki yillarida shaharlardan nomahalliy millat vakillarining intensiv darajada xorijga ko‘chib ketishi tufayli ro‘y bergan.



9-rasm. O‘zbekistondagi aholi soni bo‘yicha yetakchi 10 ta shahar (1.01.2023-y. holatiga ko‘ra, ma’muriy bo‘ysunuvidagi shaharcha va qishloqlar aholisi bilan birga)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikadagi urbanistik vaziyat 2009-yilda, ma'muriy islohot doirasida 966 ta qishloq aholi punktiga shaharcha maqomini berish natijasida keskin ravishda o'zgardi. O'sha yili mamlakatimizda shahar aholisining salmog'i 51,5 % gacha ko'tarildi va hozirgacha deyarli bir xil darajada saqlanmoqda.

O'zbekistonda, 2023-yilning boshi holatiga ko'ra, 11432,3 ming kishi istiqomat qiladigan 120 ta shahar hamda 6905,2 ming kishi yashovchi 1058 ta shaharcha mavjud. Respublikadagi 120 ta shahardan 1 tasi (Toshkent) aholisi 1 mln kishidan ko'p bo'lgan "millioner" shahar, 2 tasi (Namangan, Samarqand) aholisi 500 ming – 1 mln kishi oralig'ida bo'lgan eng yirik shahar, 6 tasi (Andijon, Nukus, Farg'ona, Qo'qon, Buxoro, Qarshi) 250 – 500 ming kishi yashaydiga yirik shaharlar toifasiga mansub (9-rasm). Shu bilan birga, 10 ta shahar katta (aholisi 100 – 250 ming kishi), 23 tasi o'rta (aholisi 50 – 100 ming kishi), 78 tasi esa kichik (aholisi 50 ming kishigacha bo'lgan) shaharlar toifalariga kiradi.

4-jadval

O'zbekiston hududlarida shahar va qishloq aholisining soni va salmog'i (1.01.2023-y. holatiga ko'ra)

Hududlar	Jami aholi soni, ming kishi	Shahar aholisi		Qishloq aholisi	
		ming kishi	%	ming kishi	%
O'zbekiston Respublikasi	**36024,9**	**18370,9**	**51,0**	**17654,0**	**49,0**
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1976,2	967,3	48,9	1008,9	51,1
viloyatlar:					
Andijon	3322,7	1734,5	52,2	1588,2	47,8
Buxoro	2009,7	740,5	36,8	1269,2	63,2
Jizzax	1475,5	692,0	46,9	783,5	53,1
Qashqadaryo	3482,3	1491,6	42,8	1990,7	57,2
Navoiy	1055,5	517,1	49,0	538,4	51,0
Namangan	2997,5	1943,9	64,9	1053,6	35,1
Samarqand	4118,2	1513,0	36,7	2605,2	63,3
Surxondaryo	2806,5	1016,8	36,2	1789,7	63,8
Sirdaryo	896,6	386,4	43,1	510,2	56,9
Toshkent	2993,4	1499,5	50,1	1493,9	49,9
Farg'ona	3976,3	2264,1	56,9	1712,2	43,1
Xorazm	1958,1	647,8	33,1	1310,3	66,9
Toshkent sh.	2956,4	2956,4	100,0	-	0,0

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublika hududlari orasida, 1.01.2023-y. holatiga ko'ra, shahar aholisining jami aholidagi salmog'i jihatidan yetakchi o'rinlarni Namangan (64,9 %), Farg'ona (56,9 %) va Andijon (52,2 %) viloyatlari

egallagan bo'lsa, tegishli ko'rsatkich bo'yicha so'nggi o'rinlarda Buxoro (36,8 %), Samarqand (36,7 %), Surxondaryo (36,2 %) va Xorazm (33,1 %) viloyatlari turadi (4-jadval).

O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksiga binoan, respublikamizdagi qishloq aholi punktlari aholi soni jihatidan kichik (1000 kishigacha), o'rta (1000-3000 kishi), katta (3000-5000 kishi) va yirik (5000 kishidan ko'p) kabi guruhlarga bo'linadi. O'zbekistonda, 1.01.2023-yil holatiga ko'ra, 10990 ta qishloq aholi punkti mavjud bo'lib, ulardan 5161 tasi (47 %) kichik, 4594 tasi (42 %) o'rta, 981 tasi (9 %) katta, 254 tasi (2 %) yirik qishloqlar hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida kichik qishloqlar son jihatdan ustuvorlik qilsa, boshqa viloyatlarda o'rta qishloqlar ko'pchilikni tashkil etadi. Qishloq aholi punktlarining umumiy soni bo'yicha Samarqand (1901 ta), Buxoro (1473 ta) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (1126 ta) yetakchilik qiladi.

Aholi zichligi va joylashuvi. O'zbekiston aholisi hududiy jihatdan juda notekis taqsimlangan. Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismi daryo vodiy va deltalaridagi vohalar, tog'oldi tekisliklar hamda tog' oralig'idagi botiqlarda joylashgan, cho'l hududlari va tog'larda, o'z navbatida, aholi ancha kam sonli va siyrak holda joylashgan.

O'zbekistonda, 1.01.2023-yil holatiga ko'ra, aholi soni bo'yicha yetakchi ma'muriy hududlar qatoriga Samarqand (4118,2 ming kishi), Farg'ona (3976,3 ming kishi) va Qashqadaryo (3482,3 ming kishi) viloyatlari hisoblanadi. Ayni paytda, aholi soni bo'yicha eng so'nggi o'rinlarda Jizzax (1475,5 ming kishi), Navoiy (1055,5 ming kishi) va Sirdaryo (896,6 ming kishi) viloyatlari hisoblanadi (4-jadval). Shunda, jami mamlakat aholisida Samarqand viloyatining ulushi 11,4 % ga, Sirdaryo viloyatining ulushi esa 2,5 % ga teng.

Ta'kidlash joizki, respublikamiz aholisining hududiy tarkibi ancha barqaror. Masalan, 2000-yilda ham aholi soni eng ko'p bo'lgan hudud Samarqand viloyati, eng kam aholi esa Sirdaryo viloyatida istiqomat qilgan edi. Lekin o'tgan davr mobaynida mamlakatimiz jami aholisi tarkibida hududlarning ulushi biroz o'zgargan. Jumladan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Andijon va Namangan viloyatlarining ulushi 2000-2022-yillarda 0,3-0,8 foiz punktiga o'sdi, Toshkent, Buxoro, Navoiy viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrining salmoqlari esa 0,2-1,3 foiz punktlariga pasaydi. Ayni paytda, Farg'ona, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlarning mamlakat aholisi tarkibidagi hissalari 0-0,1 foiz punktiga o'zgardi, xolos. Ushbu

demogeografik siljishlar yuqorida tahlil etilgan hududlar orasidagi aholi tabiiy ko‘payish sur’atlaridagi tafovutlar bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha aholi zichligi 1 km^2ga 80 kishiga teng bo‘lgan holda (1.01.2023-y.), hududi, asosan, intensiv darajada foydalaniladigan sug‘orma dehqonchilik yerlaridan iborat bo‘lgan Andijon (773 kishi/km^2), Farg‘ona (588 kishi/km^2), Namangan (403 kishi/km^2) va Xorazm (324 kishi/km^2) viloyatlarida bu ko‘rsatkich juda yuqori, asosan cho‘l yaylovlari egallagan Buxoro (50 kishi/km^2), Navoiy (9 kishi/km^2) viloyatlari hamda Qoraqalpog’iston Respublikasida (12 kishi/km^2) esa u ancha past darajadadir. Ta’kidlash joizki, Andijon viloyati MDH mamlakatlari bo‘yicha aholi zichligining eng yuqori darajasi bilan tavsiflanadigan viloyat darajasidagi ma’muriy-hududiy birlik hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq ma’muriy tumanlari orasidagi aholi zichligi tafovutlari yanada keskinroq xususiyatga ega. Xususan, Andijon viloyatidagi Asaka va Shahrixon tumanlari hamda Toshkent viloyatining Toshkent tumanida aholi zichligi 1 km^2ga 1000 kishidan ko‘proq bo‘lsa, Navoiy viloyatining Tomdi va Uchquduq hamda Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq tumanida bu ko‘rsatkich 1 km^2ga 1 kishiga ham yetmaydi. O‘zbekistonda hozirgi vaqtda mavjud 163 ta qishloq ma’muriy tumandan 45 tasida (ya’ni, 27,5 % ida) aholi zichligi 250-500 kishi/km^2, 38 tasida (ya’ni 23,2 % ida) esa u 100-250 kishi/km^2 oralig‘idagi qiymatlarga teng. Bu guruhlardagi tumanlarda O‘zbekiston qishloq ma’muriy tumanlari jami aholisining, mos ravishda, 32 % i va 23 % i istiqomat qiladi.

Mehnat resurslari va aholi bandligi. O‘zbekistonda rasman mehnatga layoqatli yosh erkaklarda 16-59 yosh, ayollarda esa 16-54 yoshga teng hisoblanadi. Bu yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnat faoliyati bilan rasman shug‘ullanayotgan pensionerlar hamda 14-16 yoshdagi o‘smirlar mehnat resurslari tarkibiga kiritiladi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston doimiy aholisining 55 % ini mehnat resurslari tashkil qiladi. Mamlakatimizning mehnat resurslari tarkibida esa 99,5 % qismi mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga, 0,5 % qismi esa mehnatga layoqatli yoshdan kichik va undan kattalarga to‘g‘ri keladi. Respublika aholisi tarkibida mehnat resurslarining salmog‘i 2012-yildan buyon asta-sekin pasayib bormoqda (2012-2023-yillarda u 59 % dan 55 % gacha tushdi) va bu holat mamlakat aholisining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston mehnat resurslarining 77 % dan ko‘prog‘ini iqtisodiy faol aholi, jumladan 69 % dan ko‘prog‘ini iqtisodiyotda band bo‘lgan

aholi tashkil qiladi. Iqtisodiy faol aholining 10,5 % i rasmiy ishsizlarga, ya’ni ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lganlarga to‘g‘ri keladi.

Band aholining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishida eng yuqori salmoqlar qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (25,1 %), sanoat (13,2 %), savdo (11,1 %), qurilish (9,6 %) va ta’lim (9,3 %) sohalariga tegishli (2022-y.). Respublikadagi jami band aholining 81 % idan ortig‘i iqtisodiyotning nodavlat sektorida mehnat qilmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. So‘nggi yillarda O‘zbekiston aholisining o‘sish sur’atlari qanday bo‘lmoqda va ularning o‘zgarish tendensiyalari qanaqa?
2. Nima uchun O‘zbekistonda hozirgi davrda ro‘y berayotgan demografik tendensiyalar bu boradagi global trendlarga teskari deb baholanishi mumkin?
3. O‘zbekistonda aholining tabiiy ko‘payishi borasidagi hududiy tafovutlarni izohlang.
4. Tashqi migratsiya jarayonlarida qaysi hududlar vakillari ko‘proq ishtirok etmoqda? Bu holatni qanday omillar bilan bog‘lash mumkin?
5. Aholining yosh va jins tarkibi orasidagi bog‘liqlikni izohlang. Bu bog‘liqlikni tahlil qilishda yosh-jins piramidalarning ahamiyati qanaqa?
6. O‘zbekiston aholisining milliy tarkibida Mustaqillik yillarida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi? Bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatdi?
7. Respublikamiz hududi qaysi etnogeografik provinsiya va okruglarga bo‘linadi? Qaysi etnogeografik okrugda o‘zbeklardan tashqari, asosiy millatlar qatoriga tojik va qirg‘izlar, qaysi birida esa qoraqalpoq, qozoq va turkmanlar kiradi?
8. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonarining dinamikasiga 2009-yilda amalga oshirilgan ma’muriy islohot qanday ta’sir ko‘rsatganini tushuntiring.
9. O‘zbekiston qonunchiligiga binoan, qishloq aholi punktlari qanday toifalarga bo‘linadi?
10. O‘zbekiston hududlari orasidagi aholi zichligi bo‘yicha tafovutlarga tabiiy sharoit omili qanday ta’sir ko‘rsatgan?
11. O‘zbekistonda mehnatga layoqatli yoshning rasmiy chegaralari qanday?
12. Milliy iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarida eng ko‘p mehnat resurslari band?

Test savollari

1. O‘zbekistonda Markaziy Osiyo aholisining qancha qismi istiqomat qiladi?
A) 30 %
B) 40 %
C) 45 %
D) 50 %

2. Qaysi viloyatda 2022-yilda eng yuqori tug‘ilish koeffitsiyenti qayd qilingan?
A) Surxondaryo
B) Xorazm
C) Samarqand
D) Farg‘ona

3. So‘nggi yillarda O‘zbekistondan ko‘chib ketgan aholining eng katta qismi qaysi davlatga ko‘chib borgan?
A) Qozog‘iston
B) Qirg‘iziston
C) Rossiya
D) AQSH

4. Quyidagi hududlardan qaysi biri qirg‘iz aholisining soni va salmog‘i bilan ajralib turadi?
A) Xorazm viloyati
B) Jizzax viloyati
C) Navoiy viloyati
D) Qoraqalpog‘iston Respublikasi

5. Aholi soni bo‘yicha yetakchi viloyatni ajratib oling.
A) Farg‘ona
B) Toshkent
C) Andijon
D) Samarqand

4-§. O‘zbekiston Respublikasi xo‘jaligining umumiy tavsifi

Yalpi ichki mahsulotning dinamikasi va tarkibi. O‘zbekiston Respublikasi, jahon mamlakatlarining BMT tasnifi bo‘yicha, o‘tish iqtisodiyotidagi davlat hisoblanadi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning xarid qobiliyati bo‘yicha hisoblangan yalpi ichki mahsuloti (YaIM), 2022-yil yakunlari bo‘yicha, 340 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi va bu ko‘rsatkich bo‘yicha XVF hisobotida qayd qilingan 192 ta davlat va hudud ichida respublikamiz 58-o‘rinni egallagan. MDH davlatlari orasida bu jihatdan O‘zbekiston Rossiya va Qozog‘istondan keyingi 3-, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa Qozog‘istondan keyingi 2-o‘rinda turadi. XVF ma’lumotlariga muvofiq, mamlakatimiz 2021-yilda tegishli makroiqtisodiy ko‘rsatkich bo‘yicha jahonda 59-o‘rinni egallagan edi.

Ma’lumki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, YaIMning mutlaq hajmidan tashqari, bu ko‘rsatkichning aholi jon boshiga qiymati ham belgilab beradi. XVF ma’lumotlariga binoan, 2022-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston YaIM aholi jon boshiga hisoblangan qiymati 9634 AQSH dollariga teng bo‘lgan (hisobotda aks ettirilgan 192 ta davlat va hudud orasida 126-, MDH davlatlari orasida 7-, Markaziy Osiyo davlatlari orasida 2-o‘rin). XVF 2021-yil yakunlari bo‘yicha e’lon qilingan statistikasiga ko‘ra esa, O‘zbekistonda aholi jon boshiga YaIM qiymati 8696 AQSH dollariga teng bo‘lgan holda, jahon mamlakatlarining reytingida 127-pozitsiyani egallagan.

Mustaqillik yillarida respublikamiz YaIMning o‘zgarish dinamikasida, odatda, *3 ta davr* ajratiladi. Birinchisi *1991-1996*-yillarni o‘z ichiga olib, iqtisodiy pasayish bilan tavsiflangan. Bu holat, asosan, sobiq Ittifoq doirasidagi hududiy mehnat taqsimoti tizimi parchalanishi, O‘zbekistondagi ko‘plab korxonalarning boshqa sobiq ittifoqdosh respublikalardagi korxonalar bilan kooperatsion aloqalarining uzilishi natijasida kelib chiqdi. *1997-2003*-yillar oralig‘ida ro‘y bergan ikkinchi bosqich milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi va YaIM o‘sishining boshlanishi davri bo‘ldi. Ta’kidlash joizki, O’zbekistonning YaIM ko‘rsatkichi 2001-yilda sobiq Ittifoq davlatlari ichida birinchi bo‘lib 1990-yildagi qiymatidan oshib ketdi. Uchinchi davr *2004*-yilda boshlanib, hozirgacha davom etmoqda. Bu yillar uchun O‘zbekiston YaIMning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi xosdir. Faqatgina 2020-yilda, koronovirus pandemiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan karantin choralari qat’iy ravishda joriy etilgan sharoitda milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari

sezilarli darajada pasaydi. Lekin 2020-yildan keyingi vaqtda respublikamiz YaIM o‘sish sur’atlari pandemiyadan oldingi davr ko‘rsatkichlarigacha tiklandi (5-jadval).

5-jadval

O’zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 2010-2022-yillardagi dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar				
		2010	2015	2020	2021	2022
Joriy narxlarda YaIM	mlrd so‘m	78936,6	221350,9	605514,9	738425,2	888341,7
YaIM o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan	%	107,1	107,2	102,0	107,4	105,7
Joriy narxlarda aholi jon boshiga YaIM	ming so‘m	2763,4	7072,2	17 688,5	21 149,2	24 919,7
Aholi jon boshiga YaIM o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan	%	104,1	105,4	100,1	105,3	103,5

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasining YaIM hajmi (joriy narxlarda, milliy valyutada) 2022-yil yakunlari bo‘yicha 888341,7 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bu makroiqtisodiy ko‘rsatkich, 2010-yil holatiga ko‘ra, 78936,6 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. Real hisobda, ya’ni doimiy narxlarda olinganda, 2010-2022-yillar oralig‘ida respublikamizning YaIM hajmi 2,03 barobar o‘sdi.

O‘zbekistonning aholi jon boshiga hisoblangan YaIM qiymati, 2022-yil yakunlari bo‘yicha, 24 919,7 ming so‘mga teng bo‘lgan. 2010-yilda esa bu makroiqtisodiy indikator 2763,4 ming so‘mni tashkil qilgan edi. Aholi jon boshiga real YaIM ko‘rsatkichi 2010-2022-yillar oralig‘ida 1,62 barobar o‘sdi.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi 23,4 foiz, sanoat va qurilishning ulushi 31,1 foiz, xizmatlar sohasining ulushi 38,7 foiz, mahsulotlarga sof soliqlarning ulushi 6,8 foizga teng (6-jadval). 2010-2022-yillar oralig‘ida respublika YaIMdagi eng sezilarli o‘zgarish sanoat va qurilish ulushining o‘sganidan iborat. Demak, milliy iqtisodiyotimiz

rivojlanishining hozirgi bosqichida sanoatlashuv tendensiyasi namoyon bo‘lmoqda.

6-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining tarkibi (% da)

Iqtisodiy faoliyat turlari	YaIM tarkibidagi ulushi			
	2010	2015	2020	2022
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	26,9	29,2	24,9	23,4
Sanoat va qurilish	21,2	22,5	31,0	31,1
Xizmatlar	39,8	39,2	36,8	38,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	12,0	9,1	7,3	6,8

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Yalpi ichki mahsulotning hududiy tarkibi. O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining hududiy tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, 16,6 foizli salmog‘i bilan Toshkent shahri birinchi o‘rinni egallagan (7-jadval). Shuningdek, Toshkent (10,5 %), Navoiy (7,5 %) va Samarqand (7,0 %) viloyatlarining ulushlari nisbatan yuqoridir. Eng past ko‘rsatkichlar bu borada Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,4 %), Surxondaryo (3,9 %), Xorazm (3,6 %), Jizzax (3,1 %) va Sirdaryo (2,0 %) viloyatlariga tegishli.

7-jadval

O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining hududiy tarkibi

№	Hududlar	O‘zbekiston YaIM dagi ulushi, %			Aholi jon boshiga YaHM, ming so‘m		
		2010	2020	2022	2010	2020	2022
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2,8	3,6	3,4	1 317,0	11 335,4	15 249,4
	viloyatlar:						
2	Andijon	5,7	6,3	6,1	1 722,7	12 036,0	16 564,0
3	Buxoro	5,9	5,2	5,2	2 822,2	16 189,2	22 975,6
4	Jizzax	2,8	3,0	3,1	1 940,4	13 207,6	18 596,0
5	Qashqadaryo	8,8	5,8	5,6	2 601,3	10 687,0	14 372,6
6	Navoiy	5,5	8,2	7,5	5 016,3	49 513,0	63 832,1
7	Namangan	4,3	4,6	4,5	1 450,8	9 814,0	13 864,4
8	Samarqand	8,3	7,1	7,0	2 061,3	10 996,3	15 323,2
9	Surxondaryo	4,3	4,1	3,9	1 597,5	9 275,2	12 561,6
10	Sirdaryo	2,1	2,1	2,0	2 342,0	14 999,7	20 433,5
11	Toshkent	9,7	10,6	10,5	2 918,0	21 833,1	31 499,2
12	Farg‘ona	6,9	6,1	6,3	1 718,8	9 830,0	14 219,1
13	Xorazm	3,7	3,5	3,6	1 826,7	11 338,6	16 465,7
14	Toshkent shahri	13,2	15,7	16,6	4 596,1	36 051,4	50 675,3
15	Hududlarga bo‘linmagan hajm	16,1	13,9	14,7	-		-

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2010-2022-yillar oralig‘ida mamlakat YaIMning hududiy tarkibidagi Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent, Andijon, Jizzax, Namangan viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi sezilarli darajada o‘sgan, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Farg‘ona, Surxondaryo viloyalarining hissasi, o‘z navbatda, ancha pasaydi. E’tiborli jihati shundaki, 2010-2022-yillar oralig‘ida Toshkent shahri va Toshkent viloyatining milliy iqtisodiyotimizdagi yetakchiligi yanada mustahkamlanib, ikki hududning mamlakat YaIMdagi umumiy salmog‘i o‘tgan davr mobaynida 22,9 % dan 27,1 % gacha ko‘tarildi. Bu holat O‘zbekiston iqtisodiyotida hududiy mujassamlashuv jarayonlari rivojlanib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotning eng yuqori ko‘rsatkichlari 2022-yil yakunlari bo‘yicha Navoiy viloyati va Toshkent shahrida qayd etilgan. Ta’kidlash lozimki, faqatgina Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatida aholi jon boshiga YaHM ko‘rsatkichi respublika bo‘yicha aholi jon boshiga YaIM ko‘rsatkichidan oshgan. Aholi jon boshiga YaHMning eng past qiymatlari Surxondaryo, Namangan, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarida qayd qilingan. Eng yuqori va eng past hududiy ko‘rsatkichlar (Navoiy va Surxondaryo viloyatlari) orasidagi tafovut 5 barobarga teng.

YaHM tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, sanoat va qurilishning ustunligi Navoiy (71,9 %), Toshkent (47,9 %) viloyatlarida, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining yetakchiligi Andijon (39,6 %), Buxoro (42,7 %), Jizzax (50,6 %), Qashqadaryo (39,3 %), Namangan (34,0 %), Samarqand (39,5 %), Surxondaryo (46,5 %), Sirdaryo (38,1 %), Farg‘ona (34,0 %) va Xorazm (44,5 %) viloyatlarida qayd qilingan. Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi YaHM tarkibida esa xizmatlar sektori eng yuqori ulush (mos ravishda, 56,4 % va 35,5 %) bilan ustuvor ahamiyatga ega. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston hududlarining aksariyati mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi jihatidan agrar yoki agrar-industrial xususiyatga ega. Bu borada Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyati boshqa hududlardan keskin farq qiladi, xolos. Ammo ta’kidlash o‘rinliki, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan tashqari barcha hududlarda so‘nggi yillarda YaHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining salmog‘i pasayib borib, sanoat va qurilish hamda xizmatlar sohasining ulushi ko‘tarilmoqda.

Investitsiyalar. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim omillardan biri – investitsiya faoliyati. Jami asosiy kapitalga kiritilgan

investitsiyalar, 2022-yil yakunlari bo‘yicha, 269,9 trln so‘mni tashkil etdi. Bu raqam 2010-yilga nisbatan real hisobda 2,45 barobar o‘sdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yirik moliyalashtirish manbalari qatoriga xorijiy investitsiya va kreditlarni (41,6 %) hamda korxona va aholi mablag‘lari (jami investitsiyalarning 40,8 % i) kiritish mumkin. E’tiborlisi, 2016-yildan buyon asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlarning salmog‘i muntazam ravishda o‘sib borib, 6 yil davomida 20,7 % dan 41,6 % gacha ko‘tarildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida investitsiyalarning taqsimlanishiga e’tibor qaratilsa, ularning eng katta hajmlari sanoatga (45,5 %), turar-joy qurilishga (8,3 %), qishloq xo‘jaligiga (7,4 %) kiritildi. Bu borada muhim tendentsiya jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida sanoat ulushining keskin o‘sishi bilan bog‘liq. Xususan, 2010-yilda sanoat ishlab chiqarishiga barcha investitsiyalarning 29,5 % qismi yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, bu ko‘rsatkich, yuqorida qayd qilinganday, 45,5 % gacha yetdi. Ayniqsa, ko‘rilayotgan davrda ishlab chiqaradigan sanoatga kiritilayotgan investitsiyalarning hajmi va ulushi sezilarli darajada o‘sdi.

8-jadval

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

№	Hududlar	2010		2022	
		mlrd so‘m	%	mlrd so‘m	%
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	496,4	3,0	10099,8	3,7
	viloyatlar:				
2	Andijon	726,2	4,4	14758,6	5,5
3	Buxoro	2147,2	13,0	21138,0	7,8
4	Jizzax	440,8	2,7	10763,1	4,0
5	Qashqadaryo	1792,8	10,9	16181,5	6,0
6	Navoiy	1741,8	10,6	19396,1	7,2
7	Namangan	660,6	4,0	14348,2	5,3
8	Samarqand	1083,1	6,6	21955,2	8,1
9	Surxondaryo	655,3	4,0	11507,3	4,3
10	Sirdaryo	406,2	2,5	12574,7	4,7
11	Toshkent	1606,1	9,8	34954,7	13,0
12	Farg‘ona	930,9	5,7	15396,7	5,7
13	Xorazm	416,9	2,5	8806,6	3,3
14	Toshkent shahri	3309	20,1	56725,8	21,0
15	Hududlarga bo‘linmagan hajm	50,4	0,3	1251,5	0,4

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hududiy tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, Toshkent shahri (21,0 %) va Toshkent viloyati (13,0 %) ulushi eng yuqori (8-jadval). Bundan tashqari, Samarqand (8,1 %), Buxoro (7,8 %) va Navoiy (7,2 %) viloyatlarining ko‘rsatkichlari qolgan hududlarga nisbatan balandroq. Eng past ko‘rsatkichlar esa Jizzax (4 %), Xorazm (3,3 %), Surxondaryo (4,3 %), Sirdaryo (4,7) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,7 %) ga tegishli. Bundan ko‘rinib turibdiki, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 1/3 qismi poytaxt mintaqasiga yo‘naltirilmoqda. Ta’kidlash o‘rinliki, 2010-yildagi investitsiyalarning hududiy taqsimlanishi bilan taqqoslaganda, yetakchi va so‘nggi o‘rinlardagi mintaqalar tarkibi o‘tgan davr mobaynida kam o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Lekin 2010-2022-yillar oralig‘ida ko‘p hududlarning investitsiyalar taqsimlanishidagi ulushi sezilarli darajada oshdi. Bular qatoriga Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Andijon va Namangan viloyatlarini kiritish mumkin. Shu davrning o‘zida, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi salmog‘i ancha pasaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga 2022-yilda 112219,5 mlrd so‘m xorijiy investitsiyalari kiritildi. Eng katta miqdordagi investitsiyalar Rossiya (20,3 %), Xitoy (16,4 %), Turkiya (10,1 %), Germaniya (6 %) va Saudiya Arabistoni (6 %) tomonidan kiritildi. Jami xorijiy investitsiyalarning 68,3 % i sanoatga, jumladan 42,5 % i ishlab chiqarish sanoatiga jalb qilingan. Hududiy jihatdan qaraganda, xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmida katta qismi Toshkent shahri (14,1 %), Buxoro (10,7 %), Toshkent (10,3 %), Navoiy (9,5 %) va Sirdaryo (8,7 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. O‘z navbatda, eng kam miqdordagi xorijiy investitsiyalar Jizzax (4,3 %), Xorazm (2,4 %) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,5 %) ga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasida 1.01.2023-yil holatiga ko‘ra, 15801 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko‘rsatayotganligi qayd etilgan. Ularning asosiy qismi Rossiya (20,0 %), Turkiya (13,9 %), Xitoy (13,5 %), Qozog‘iston (8,0 %) va Koreya Respublikasi (5,9 %) hissalariga to‘g‘ri keladi. Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Toshkent shahri (63,8 %) va Toshkent viloyati (11,1 %) da joylashgan bo‘lsa, eng kam soni esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi (1,2 %) va Xorazm (1,0 %) viloyatiga to‘g‘ri keladi.


Kichik tadbirkorlik. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishi xususiy tadbirkorlik, xususan,

kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, uning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan bog‘liqdir. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda, 1.01.2023-yil holatiga ko‘ra, 523,6 mingta kichik korxona va mikrofirmalar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, har 1000 aholiga 17,9 ta kichik tadbirkorlik subyektlari mos kelgan. Hududlar kesimida ularning eng ko‘p soni Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, 106,1 mingtani tashkil etgan (respublikadagi salmog‘i 20,3 %). Boshqa hududlardan kichik korxona va mikrofirmalarning soni bo‘yicha Toshkent (49,1 ming; 9,4 %), Samarqand (47,9 ming; 9,1 %) va Farg‘ona (46,3 ming; 8,8 %) viloyatlari nisbatan ajralib turadi. Har 1000 aholiga nisbatan olganda esa kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta miqdori Toshkent shahar (35,9), Navoiy (24,8), Sirdaryo (23), Jizzax (21,5) va Toshkent (19,7) viloyatlarida qayd etilgan. Umuman olganda, statistik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, poytaxtda kichik tadbirkorlikning rivojlanish darajasi ham mutlaq, ham nisbiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha respublikaning boshqa hududlariga nisbatan ancha yuqoridir.

Kichik tadbirkorlikning, 2022-yil yakunlari bo‘yicha, mamlakatimiz YaIM tarkibidagi ulushi 51,8 % ni tashkil etdi. Kichik biznesning salmog‘i eng yuqori bo‘lgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar qatoriga yo‘lovchi aylanmasi (95,9 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti (95,3 %), yo‘lovchi tashish (93,2 %), chakana savdo aylanmasi (79,4 %), qurilish ishlari (71,6 %) hamda yuk aylanmasi (71,1 %) ni kiritish mumkin. Import (49,4), xizmatlar sohasi (48,4 %), investitsiya (47,6 %), yuk tashish hajmi (46,6 %), eksport (29,5 %) hamda yalpi sanoat mahsuloti (25,9 %) kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning salmog‘i nisbatan pastroq. Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda respublikaning YaIM va deyarli barcha boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarida (ayniqsa, sanoat ishlab chiqarish hajmida) kichik biznesning ulushi mutassil ravishda pasayib bormoqda. Buning asosiy sababi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yirik tadbirkorlik subyektlari ulushining o‘sib borishi bilan bog‘liq.

Hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining YaHMdagi eng katta ulushi Jizzax (78,4 %), Surxondaryo (76,8 %), Buxoro (74,1 %), Namangan (72,8 %) va Xorazm (71,6 %) viloyatlarida, eng past salmog‘i esa Toshkent shahri (46,8 %), Toshkent (46,5 %) va Navoiy (26,8 %) viloyatlarida qayd etildi. Demak, iqtisodiyoti agrar yoki agrar-industrial tuzilishga ega bo‘lgan mintaqalarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ahamiyati ancha yuqoridir.

Maxsus iqtisodiy hududlar. Hududlarning sanoat ishlab chiqarish, investitsiyaviy, innovatsion va eksport salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni yanada ko‘proq hajmda jalb etish maqsadida respublika hukumatining tashabbusi bilan mamlakatimizda qator *maxsus iqtisodiy hududlar* tashkil qilindi. Maxsus iqtisodiy hududlarning asosiy ko‘rinishlari bo‘lib *erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnopark* va *klasterlar* hisoblanadi. Dastlab “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax” (Sirdaryo viloyatidagi filiali bilan), keyinchalik esa Xorazm viloyatida “Xazorasp”, Buxoro viloyatida “G‘ijduvon”, Samarqand viloyatida “Urgut” hamda Farg‘ona viloyatida “Qo‘qon” EIZlari yaratildi. O‘zbekiston bo‘yicha, 1.01.2023-yil holatiga ko‘ra, 20 ta maxsus (erkin) iqtisodiy zona, 317 ta kichik sanoat zonasi, 21 ta texnopark va 506 ta klaster faoliyat ko‘rsatgan. Ular tomonidan 2022-yilda umumiy hisobda 62716,8 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich mamlakatimizning 2022-yildagi yalpi sanoat mahsulotining 11,4 % ini tashkil etgan.



10-rasm. O‘zbekiston hududlarida faoliyat ko‘rsatayotgan maxsus iqtisodiy hududlar soni (1.01.2023-y.)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Maxsus iqtisodiy hududlarning respublikamiz asosiy ma’muriy-hududiy burliklari kesimidagi taqsimlanishini 10-rasmdagi diagrammadan ko‘rish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi, Xalqaro valyuta fondining 2022-yilga oid ma’lumotlariga ko‘ra, YaIM umumiy va aholi jon boshiga miqdori bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida qaysi o‘rinlarda turadi?
2. O‘zbekiston YaIM ko‘rsatkichi dinamik o‘zgarishi nuqtai nazaridan Mustaqillik davrini qanday 3 ta bosqichga bo‘lish mumkin?
3. So‘nggi yillarda respublikamiz YaIM tarkibida qanday muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda? Bu o‘zgarishlarni qanday baholaysiz?
4. Mamlakatimiz YaIM tarkibida qaysi hududlarning salmog‘i eng yuqori, qaysilarniki esa nisbatan past? Fikringizcha, bunday hududiy tafovutlarga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?
5. Respublikamiz hududlari iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishiga ko‘ra bir-birlaridan qanday farqlanadi?
6. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga qaysi davlatlar tomonidan eng ko‘p investitsiyalar kiritilmoqda? Respublikamizda qaysi davlatlar kapitali ishtirokidagi korxonalar ko‘p?
7. O‘zbekiston hududlari iqtisodiyotining sanoatlashganligi hamda YaHM tarkibidagi kichik tadbirkorlikning ulushi orasida qanday bog‘liqlikni ajratish mumkin?
8. O‘zbekistonda qanday turdagi maxsus iqtisodiy hududlar tashkil etilgan? Ularni tashkil etishdan maqsad nima, deb o‘ylaysiz?

Test savollari

1. O‘zbekiston, XVF ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda jahondagi davlat va hududlar orasida YaIM hajmi jihatidan nechanchi o‘rin egallagan?
A) 58-o‘rin
B) 60-o‘rin
C) 70-o‘rin
D) 77-o‘rin

2. Markaziy Osiyodagi qaysi davlatning YaIM ko‘rsatkichi O‘zbekistondan yuqori?
A) Turkmaniston
B) Tojikiston
C) Qozog‘iston
D) Qirg‘iziston

3. O‘zbekiston YaIM pasaygan davr qaysi yillarni qamrab olgan?
A) 1991-1996-yy.
B) 1996-2003-yy.
C) 1991-2003-yy.
D) 2003-2008-yy.

4. O‘zbekiston YaIM tarmoqlar tarkibida qaysi tarmoqning ulushi 2010-2022-yillar oralig‘ida sezilarli darajada o‘sgan?
A) Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
B) Sanoat va qurilish
C) Xizmatlar sohasi
D) Mahsulotlarga sof soliqlar

5. O‘zbekiston YaIM hududiy tarkibida qaysi hudud eng yuqori ulushga ega?
A) Navoiy viloyati
B) Samarqand viloyati
C) Toshkent shahri
D) Toshkent viloyati

6. Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi bo‘yicha qaysi hudud respublika bo‘yicha peshqadam?
A) Sirdaryo viloyati
B) Toshkent shahri
C) Toshkent viloyati
D) Navoiy viloyati

7. O‘zbekistonda qaysi xorijiy davlat kapitali ishtirokidagi korxonalar eng ko‘p?
A) Xitoy
B) Rossiya
C) Turkiya
D) AQSH

5-§. O‘zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi

O‘zbekiston sanoatining umumiy holati. Sanoat O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tayanch va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlaridan biridir. Sanoat aholi, iqtisodiyotning barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari uchun minglab turdagi mahsulotlarni yetkazib beradi.

O‘zbekiston Respublikasining yalpi sanoat mahsuloti 2022-yil yakunlari bo‘yicha 551,1 trln so‘mni tashkil qilgan. Bu ko’rsatkich 2010-yilga nisbatan 4,6 barobar, 2000-yilga nisbatan esa 11 barobar o‘sgan. 2010-2022-yillar oralig‘ida yalpi sanoat mahsuloti o‘sishining o‘rtacha yillik sur’atlari 105,7 % ga teng bo‘lgan. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti, 2022-yil yakunlari bo‘yicha, 15458,1 ming so‘mni tashkil qilib, 2010-yil ko‘rsatkichiga nisbatan 3,7 barobar, 2000-yil ko‘rsatkichiga nisbatan esa 7,6 barobar o‘sdi.

Hozirgi paytga kelib O‘zbekistonda mustahkam sanoat ishlab chiqarish salohiyati yaratildi. Mamlakatimiz MDH mamlakatlari va jahon miqyosida oltin, uran, tabiiy gaz, kadmiy, molibden, sulfat kislotasi, polietilen, azot o‘g‘itlari, gazlamalar, yengil avtomobillar va boshqa mahsulotlarning yetakchi ishlab chiqaruvchilari qatoridan joy egallaydi.

Sanoatning O‘zbekistonning yalpi ichki mahsulotidagi ulushi tobora ortib bormoqda. 2000-yilda mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 16,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2010-yilda u 20,2 %, 2022-yilda esa 26,7 % gacha yetgan. Bu raqamlar O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti tarmoqlar tarkibida sanoatning ulushi mufassal ortib borayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda sanoat korxonalarining umumiy soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 98,8 mingtani tashkil etgan. Tegishli ko‘rsatkich 2010-yilda 40,9 mingtaga teng bo‘lgan. Demak, 2010-2023-yillar oralig‘ida mamlakatimizda sanoat korxonalarining soni 2,4 barobarga o‘sgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda avtomobilsozlik, mikroelektronika, kaliy o‘g‘itlari va soda ishlab chiqarish, farmatsevtika, shakar sanoati va boshqa yangi sanoat tarmoqlari bunyod etildi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, Qandim gazni qayta ishlash zavodi, Gazli gazni qayta ishlash zavodi, Xorazm avtomobil zavodi, Zafarobod va Sherobod sement zavodlari, Toshkent metallurgiya zavodi va boshqa yirik ishlab chiqarish obyektlari qurildi.

Sanoat tarmoqlarining tasnifi. Hozirgi vaqtda respublikamizning statistik hisob tizimida hamda rasmiy ish yuritishda "sanoat tarmoqlari" tushunchasi rasman qo'llanilmasdan, sanoat ishlab chiqarishning yo'nalishlari "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi" (O'zIFTT) ga muvofiq iqtisodiy faoliyat turlari sifatida ajratiladi. Bunda sanoat ishlab chiqarish tarkibida 4 bo'lim ajratiladi:

- tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;
- ishlab chiqaradigan sanoat;
- elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;
- suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi: ko'mir va lignit qazib olish; xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish; metall rudalarini qazib olish; tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat; tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar.

Ishlab chiqaradigan sanoat sohasi bir nechta iqtisodiy faoliyat turlarini birlashtiradi: oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish; ichimliklar ishlab chiqarish; tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish; to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish; kiyim ishlab chiqarish; teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish; yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish; qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish; yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish; koks va neftni qayta ishlash mahsulotlar ishlab chiqarish; kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish; asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish; rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish; boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish; metallurgiya sanoati; mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish; kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish; elektr uskunalar ishlab chiqarish; boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish; avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish; boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish; mebel ishlab chiqarish; boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish; mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi: elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash; gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash; bug' uzatish va havoni konditsiyalash.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasi esa suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash; kanalizatsiya tizimi; chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish; tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar kabi iqtisodiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar, xususan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid adabiyotlarda esa, odatda, mamlakatimizda 2011-yilgacha amal qilingan "O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi tarmoqlarining umumdavlat tasniflagichi" (O'zXXTUT)dagi sanoat tarmoqlarining nomlari qo'llanilib kelmoqda. Bunda quyidagi sanoat tarmoqlari ajratilgan:

- elektr energetika;
- yoqilg'i sanoati;
- ko'mir sanoati (adabiyotlarda, qoida tariqasida, yoqilg'i sanoati tarkibiga kiritiladi);
- qora metallurgiya;
- rangli metallurgiya;
- kimyo va neft-kimyo sanoati;
- mashinasozlik va metallni qayta iahlash;
- o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati;
- qurilish materiallari sanoati;
- yengil sanoat;
- oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati;
- sanoatning boshqa tarmoqlari.

9-jadval

O'zXXTUT doirasida ajratilgan sanoat tarmoqlari va O'zIFTT doirasida ajratilgan iqtisodiy faoliyat turlari orasidagi o'zaro moslik

Sanoat tarmoqlari	Iqtisodiy faoliyat turlari
Elektr energetika	Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash; Bug' uzatish va havoni konditsiyalash.
Yoqilg'i sanoat (ko'mir sanoatini qo'shgan holda)	Ko'mir va lignit qazib olish; Xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish; Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlar ishlab chiqarish; Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash.
Qora metallurgiya	Metallurgiya sanoati
Rangli metallurgiya	
Kimyo va neft-kimyo sanoati	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish; Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish;

	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish.
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarish; Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish; Elektr uskunalar ishlab chiqarish; Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish; Avtotransport vositalari, treylarlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish; Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish; Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish.
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati	Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish; Mebel ishlab chiqarish; Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish.
Qurilish materiallari sanoati	Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat; Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish;
Yengil sanoat	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish; Kiyim ishlab chiqarish; Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish.
Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish; Ichimliklar ishlab chiqarish; Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish.
Sanoatning boshqa tarmoqlari	Yozilgan materisllarni nashr qilish va aks ettirish; Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish; suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash; Kanalizatsiya tizimi; Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish; Tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar.

Jadval mualliflar tomonidan tuzilgan.

Ta'kidlash joizki, har ikkala tasnifning ustun jihatlari va kamchiliklari mavjud. Iqtisodiy faoliyat turlari tasnifining ijobiy tomonlari xalqaro statistik standartlarga moslashtirilganligi va amaldagi davlat statistika hisobi tizimida foydalanayotganligi bo'lsa, sanoat tarmoqlari tasnifining ustunligi ajratilgan tarmoqlar va nomlarining nisbatan ixchamligi, ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar, ijtimoiy-iqtisodiy xaritalarda qo'llanilishidan iborat. Ushbu darslikda an'anaviy

sanoat tarmoqlari tasnifidan foydalaniladi. Shu bois, darslik yozish jarayonida mualliflar tomonidan ko'p holatlarda sanoat statistikasida so'nggi yillar uchun berilgan ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish uchun iqtisodiy faoliyat turlari va sanoat tarmoqlari tasniflagichlarining o'zaro mosligiga e'tibor qaratildi (9-jadval).

O'zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi va uning o'zgarib borishi. Yuqorida keltirilgan ikkala tasniflagichning o'zaro mosligini hisobga olib, respublikamiz sanoati tarmoqlar tarkibi, 2022-yil yakunlariga ko'ra, quyidagi ko'rinishga ega bo'lganligi aniqlandi: qora va rangli metallurgiya – 21,8 %; mashinasozlik va metallni qayta ishlash – 16,9 %; yengil sanoat – 14,9 %; oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati – 13,8 %; yoqilg'i sanoati – 9,1 %; kimyo va neft-kimyo sanoati (farmatsevtika sanoati bilan birga) – 8,4 %; elektr energetika – 6,8 %; qurilish materiallari sanoati – 4,7 %; o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati – 2,0 %; sanoatning boshqa tarmoqlari – 1,1 %. Shunday ekan, respublika sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yengil sanoat, oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati va yoqilg'i sanoati kiradi (10-jadval).

10-jadval


O'zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi (%)

Sanoat tarmoqlari	2000-y.	2010-y.	2022-y.
Yoqilg'i sanoati	15,3	19,8	9,1
Elektr energetika	8,5	8,1	6,8
Qora va rangli metallurgiya	11,5	13,3	21,8
Kimyo va neft-kimyo sanoati (farmatsevtika sanoati bilan birga)	6	5,1	8,4
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	9,9	16,1	16,9
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz	1,4	1,1	2,0
Qurilish materiallari sanoati	5,4	4,9	4,7
Yengil sanoat	19,1	13,3	14,9
Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati	13,3	12,8	13,8
Sanoatning boshqa tarmoqlari	9,6	5,5	1,1

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

10-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2000-2022-yillarda yalpi sanoat ishlab chiqarishning tarkibida metallurgiya hamda mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo va neft-kimyo sanoati kabi tarmoqlarning ulushi eng sezilarli darajada o'sgan bo'lsa, yoqilg'i sanoati va yengil sanoat tarmoqlarining salmog'i, aksincha, anchagina pasaydi. Ammo, 2010-2022-yillar oralig'ida yengil sanoat ulushi biroz ko'tarildi

O‘zbekiston sanoatining hududiy tarkibi va uning o‘zgarib borishi. O‘zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi o‘ziga xos hududiy tarkibiga ega. Mamlakatimiz sanoatining hududiy tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy va Andijon viloyatlari ulushi eng yuqori bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Namangan, Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarining ko‘rsatkichlari esa eng past darajada (11-rasm). Demak, metallurgiya hamda mashinasozlik tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan hududlar respublika yalpi sanoat mahsulotiga eng katta hissa qo‘shmoqda.



11-rasm. O‘zbekiston Respublikasi sanoatining hududiy tarkibi (2010- va 2022-yy. yakunlariga ko‘ra, %)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma`lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi sanoatining hududiy tarkibida 2010-2022-yillar oralig‘ida katta o‘zgarishlar ro‘y bergan. Xususan, 2010-yil holatiga ko‘ra, Qashqadaryo, Andijon va Farg‘ona viloyatlarining ulushi, 2022-yilga kelib, ancha pasaygan. Ayni paytda, ko‘rilayotgan davrda

Navoiy, Toshkent, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining mamlakat sanoatidagi o‘rni sezilarli darajada o‘sgan (11-rasm).

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti bo‘yicha hududlar ichida, 2022-yil holatiga ko‘ra, yetakchi o‘rinlar Navoiy viloyati (80,5 mln so‘m), Toshkent shahri (36,9 mln so‘m) va Toshkent viloyati (31,4 mln so‘m), so‘nggi o‘rinlar esa Qashqadaryo (6,6 mln so‘m), Namangan (6,2 mln so‘m) va Surxondaryo (2,6 mln so‘m) viloyatlariga tegishli (O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich – 15,4 mln so‘m).

O‘zbekistonda yirik sanoat markazlari shakllangan bo‘lib, ular qatoriga Toshkent, Navoiy, Asaka, Olmaliq, Bekobod, Samarqand, Zarafshon, Uchquduq, Andijon, Farg‘ona, Chirchiq, Angren, Ohangaron, Qorovulbozor, Muborak, Pitnak shaharlari, Qirqqiz va Sho‘rtan shaharchalari kiradi. Ulardan ayrimlari (Toshkent, Navoiy, Chirchiq, Samarqand va boshqalar) ko‘p tarmoqli bo‘lsa, bir guruhi esa (Asaka, Qorovulbozor, Muborak, Uchquduq, Qirqqiz va boshqalar), asosan, bitta tarmoqqa ixtisoslashgan.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasi qaysi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha jahon miqyosida va MDH davlatlari orasida yetakchi o‘rinlarda turadi?
2. O‘zbekistonda Mustaqillik yillarida qaysi yangi sanoat tarmoqlari barpo etildi va qaysi yirik sanoat korxonalari ishga tushirildi?
3. O‘zXXTUT va O‘zIFTT tasniflagichlari orasidagi farqni tushuntiring.
4. Mamlakatimiz sanoatining tarmoqlar tarkibida qaysi sanoat tarmoqlari yetakchi ahamiyatga ega?
5. So‘nggi yillarda qaysi sanoat tarmoqlarining O‘zbekiston sanoati tarmoqlar tarkibidagi salmog‘i o‘sib bormoqda?
6. Respublikamiz sanoatining hududiy tarkibida qaysi hududlar eng yuqori, qaysilari esa eng past ulushga ega? Bu holat hududlar sanoatining ixtisoslashuvi bilan qanday tarzda bog‘langan?
7. O‘zbekistondagi eng katta sanoat markazlari sifatida ajralib turadigan shahar va shaharchalarini sanab bering. Qaysilari ko‘p tarmoqli, qaysilari bir tarmoqli hisoblanadi?

Test savollari

1. Quyidagi yirik sanoat korxonalaridan qaysi biri Mustaqillik yillarida ishga tushirilgan?
A) Navoiy kon-metallurgiya kombinati
B) Olmaliq kon-metallurgiya kombinati
C) Muborak gazni qayta ishlash zavodi
D) Xorazm avtomobil zavodi

2. "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi"ga muvofiq sanoat sohasi nechta bo'limdan iborat?
A) 2 ta
B) 3 ta
C) 4 ta
D) 5 ta


3. O'zbekiston sanoati tarmoqlar tarkibida qaysi tarmoq eng yuqori ulushga ega (2022-yil holatiga ko'ra)?
A) Qora va rangli metallurgiya
B) Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati
C) Yengil sanoat
D) Yoqilg'i sanoati

4. O'zbekiston sanoatining hududiy tarkibida qaysi hududning ulushi eng yuqoridir (2022-yil holatiga ko'ra)?
A) Navoiy viloyati
B) Toshkent shahri
C) Toshkent viloyati
D) Andijon viloyati

5. Ushbu hududlardan qaysi birining respublika sanoati hududiy tarkibidagi ulushi 2010-2022-yillarda bir necha barobar kamayib ketgan?
A) Navoiy viloyati
B) Toshkent viloyati
C) Toshkent shahri
D) Qashqadaryo viloyati

6-§. Yoqilg'i-energetika majmuasi geografiyasi


Yoqilg'i-energetika majmuasining tuzilishi va respublika sanoatining tarmoqlar tarkibidagi o'rni. Yoqilg'i-energetika majmuasi mamlakat aholisini hamda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini yoqilg'i, elektr va issiqlik energiyasi bilan ta'minlashga xizmat qiladi. U o'z tarkibida yoqilg'ini qazib olish va uni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan yoqilg'i sanoati hamda elektr energiyasini ishlab chiqarish, taqsimlash va yetkazishni ta'minlab beruvchi elektr energetikani birlashtiradi (12-rasm). Mamlakatimizda yoqilg'i sanoatining 3 ta tarmog'i mavjud: ko'mir sanoati, neft va neftni qayta ishlash sanoati hamda gaz va gazni qayta ishlash sanoati. An'anaviy ravishda O'zbekiston elektr energetikasi tarkibida issiqlik va gidro elektr energetika singari tarmoqlari ajratilardi. So'nggi yillarda mamlakatimizda muqobil energiya manbalaridan quyosh elektr energetikasi shakllana boshladi.



12-rasm. O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuasining tarmoqlari
Rasm mualliflar tomonidan tuzilgan.

Mamlakat eksportining katta qismi tabiiy gazdan iborat bo'lgan 1995-2010-yillarda yoqilg'i-energetika majmuasining respublika sanoat ishlab chiqarishi tarkibidagi o'rni ancha yuqori bo'lgan. Xususan, 1995-

yilda yoqilg‘i sanoati va elektr energetikaning respublika sanoati tarmoqlar tarkibidagi umumiy ulushi 28,5 %, 2000-yilda – 23,8 %, 2005-yilda – 27,6 %, 2010-yilda – 27,9 % ga teng bo‘lgan. Keyinchalik boshqa sanoat tarmoqlarining ustuvor ravishda rivojlanishi ta’sirida bu raqam yildan-yilga pasayib bordi (2015-yilda – 19,6 %, 2018-yilda – 18,5 %, 2022-yilda – 15,9 %). Bu jarayonga respublika eksportining tovar tarkibida qimmatbaho va rangli metallar, to‘qimachilik mahsulotlarining ulushining o‘sishi, tabiiy gaz qazib olinishi va eksportining tobora qisqarib borayotganligi katta ta’sir ko‘rsatmoqda.



13-rasm. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan birlamchi energiyaning tarkibi (2022-y.)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekistonda birlamchi energiyani ishlab chiqarishda 1980-yillardan buyon tabiiy gaz juda katta ustuvorlik bilan yetakchi o‘rin egallab kelmoqda (13-rasm). Shu bois, mamlakatimiz yoqilg‘i-energetika majmuasi tarmoqlari orasida gaz sanoati alohida ahamiyatga ega. Biroq, eng so‘nggi yillarda tabiiy gazning mamlakat yoqilg‘i-energetika balansidagi o‘rni biroz pasaydi, ko‘mir va neftning ulushi esa biroz ko‘tarildi.

Yoqilg‘i sanoati. Sanoatning bu tarmog‘i ko‘mir, neft va tabiiy gazni qazib olish hamda qayta ishlash asosida turli yoqilg‘i mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liqdir. Yoqilg‘i sanoatining mamlakat yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi, 2022-yil yakunlari bo‘yicha, 9,1 % ga teng

edi. 2010-2022-yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich sezilarli darajada kamaydi (2010-yil holatiga ko‘ra, u 19,2 % ni tashkil etgan).

Gaz va gazni qayta ishlash sanoati. O‘zbekistondagi tabiiy gazning 1.01.2021-y. holatiga ko‘ra tasdiqlangan zaxiralari, “O‘zbekneftgaz” AJ ma’lumotlariga ko‘ra, 1,866 trln m^3ni tashkil etadi. Tabiiy gazni qazish respublikamizda 1950-yillarning ikkinchi yarmida Buxoro viloyatida boshlangan. O‘sha vaqtda Buxoro viloyatida Uchqir, Gazli va boshqa bir qator yirik gaz konlari ishga tushurildi. 1980-yillar boshida Qashqadaryo viloyatidagi Muborak va Sho‘rtan tabiiy gaz kon guruhlari ishga tushirildi. Keyinchalik Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham bir qator yirik gaz konlari ochilib, ular ham bosqichma-bosqich ishga tushirilmoqda. So‘nggi yillarda Janubi-G‘arbiy Hisor hududida (Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumani, Surxondaryo viloyatining Boysun tumani) yangi yirik gaz konlarini o‘zlashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.




14-rasm. O‘zbekistonda tabiiy gazni qazib olish dinamikasi (2000-2022-yillar, mlrd m^3)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Mustaqillik yillarida tabiiy gazni qazib olishning eng katta hajmi 2008-yilda qayd qilinib, 68,3 mlrd m^3 ga teng bo‘lgan (14-rasm). So‘nggi yillarda (2019-yildan keyin) respublikamizda tabiiy gazni qazib chiqarish hajmi sezilarli darajada kamaydi va 2022-yilda u 51,7 mlrd m^3ni tashkil etdi. BP (“British Petroleum”) kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda O‘zbekiston gaz qazib olish bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida

15-, MDH davlatlari orasida esa 3-o‘rin (Rossiya va Turkmanistondan keyin) egallagan. Hududiy jihatdan olganda, tabiiy gaz, asosan, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida qazib olinadi.

O‘zbekistonda hozirgi vaqtda bir nechta yirik gazni qayta ishlash korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular qatoriga Qashqadaryo viloyatidagi Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi, “Uzbekistan GTL” zavodi, Buxoro viloyatidagi Qandim va Gazli gazni qayta ishlash zavodlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Ustyurt gaz-kimyo majmuasi kiradi (15-rasm).



15-rasm. O‘zbekistondagi yirik gazni qayta ishlash korxonalari: a) “Uzbekistan GTL” (Qashqadaryo viloyati); b) Ustyurt gaz-kimyo majmuasi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi)

Rasm ochiq manbalardan olingan.

Neft va neftni qayta ishlash sanoati. O‘zbekiston hududida neft qazib olish Farg‘ona vodiysida 19-asrning 80-yillarida boshlangan. Sanoat usulida neftni qazib chiqarish boshlangan dastlabki kon Chimyon hisoblanadi (1904-yil). Hozirgi Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani hududida 1906-yilda O‘zbekistondagi birinchi neftni qayta ishlash zavodi qurildi. Respublikamizda 1960-yillargacha neftning asosiy qismi Andijon va Farg‘ona viloyatidagi konlardan qazib olingan. Farg‘ona shahrida 1959-yilda yirik neftni qayta ishlash zavodi tushirildi. Keyinchalik Surxondaryo, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham ko‘plab neft konlari ishga tushirildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yangi yirik neft konlari Qashqadaryo (Ko‘kdumaloq) va Namangan (Mingbuloq) viloyatlarida ochildi. Shuningdek, 1997-yilda hozirgi kungacha O‘zbekistondagi eng katta neftni qayta ishlash zavodi bo‘lib hisoblanadigan Qorovulbozor shahridagi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi.

11-jadval

O‘zbekistonda neft va gaz kondensatini qazish dinamikasi (mln t)

	2000	2005	2010	2015	2020	2022
Neft	4170,0	3440,4	2017,9	1000,1	753,6	787,8
Gaz kondensati	3366,0	2008,6	2019,5	1728,0	2027,9	1287,1
Jami	7536,0	5449,0	4037,4	2728,1	2781,5	2074,9

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda neft va unga yo‘ldosh bo‘ladigan gaz kondensatini qazib olish hajmi tobora kamayib bormoqda (11-jadval). Xususan, 2022-yilga kelib neft qazib olish hajmi 2000-yilga nisbatan 5,3 barobar, gaz kondensatini qazib olish hajmi esa 2,6 barobar kamaydi. Bu holat ancha vaqtdan buyon yangi yirik neft konlari ishga tushirilmayotganligi, amalda foydalanilib kelayotgan konlarning zaxiralari esa kamayib qolganligi bilan bog‘liqdir. Shu sababdan O‘zbekiston so‘nggi yillarda katta miqdorda neft va neft mahsulotlarini Turkmaniston, Qozog‘iston va Rossiyadan import qilmoqda.

O‘zbekistonda neftni qazib olishning hududiy tarkibida 70 % ga yaqin hissa Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri keladi. Undan tashqari, neft Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida qazib olinadi.

12-jadval

O‘zbekistonda ayrim neft mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi (2000-2022-yy., ming t.)


Neft mahsulotlari	2000	2005	2010	2015	2020	2022
Benzin	1709,4	1389,6	1413,8	1064,0	1024,0	1257,7
Dizel yoqilg‘isi	1972,0	1437,1	1127,9	1286,4	930,8	660,5
Aviatsiya kerosini	394,0	315,7	339,0	184,9	123,0	180,5
Mazut	1709,0	978,0	287,2	89,8	166,6	125,8

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Neftni qayta ishlash zavodlari Qorovulbozor (Buxoro viloyati), Farg‘ona (Oltiariq tumani Tinchlik shahridagi filiali bilan), Jarqo‘rg‘on (Surxondaryo viloyati) va Chinoz (Toshkent viloyati) shaharlarida joylashgan. Bu korxonalarda turli yoqilg‘i mahsulotlari ishlab chiqariladi (12-jadval). Deyarli barcha neft mahsulotlarini ishlab chiqarishda Qorovulbozorda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi yetakchilik qiladi. Shu bois, 2022-yil ma’lumotlari bo‘yicha neft mahsulotlarini ishlab chiqarishda Buxoro viloyatining ulushi 81,4 % ga teng bo‘lgan.

Ko‘mir sanoati. O‘zbekistonda ko‘mir sanoati 1940-yillarda Angren qo‘ng‘ir ko‘mir koni ishga tushirilishi bilan shakllandi. Birozdan so‘ng,

1950-yillarda Surxondaryo viloyatidagi Sharg‘un konidan toshko‘mir qazib olinishi boshlandi.




16-rasm. O‘zbekistonda ko‘mir qazib olish dinamikasi (2000-2022-yy., mln t)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekistonda 2022-yilda 5 mln 356,2 ming tonna ko‘mir qazib olingan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2000-yilga nisbatan 2,1 barobar, 2010-yilga nisbatan 1,5 barobar, 2020-yilga nisbatan esa 1,3 barobar ko‘paydi (16-rasm). Respublikamizda qazib olinadigan ko‘mirning 95 % atrofidagi qismi Toshkent viloyatidagi Angren konidan ochiq usulda qazib olinadigan qo‘ng‘ir ko‘mirga to‘g‘ri keladi. Qolgan hajm Surxondaryo viloyatidagi Sharg‘un toshko‘mir konidan qazib olinadi. Sharg‘un shahrida briket fabrikasi faoliyat ko‘rsatadi.

Elektr energetika. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarishda ijobiy dinamika kuzatilmoqda (17-rasm). Respublikamizda 2022-yilda 74,3 mlrd kWh elektr energiya ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich, 2010-yilga qaraganda, 1,43 barobar, 2015-yilga nisbatan 1,29 barobar, 2020-yil bilan solishtirganda esa 1,12 barobar o‘sgan.

Respublikamizda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining asosiy qismi – deyarli 90 % i – issiqlik elektr stansiya (IES) va issiqlik elektr markaz (IEM) lariga to‘g‘ri keladi. Bunda asosiy generatsiya manbalari sifatida 8 ta yirik IES – Sirdaryo, Angren, Yangi Angren, Toshkent, Navoiy, Taxiatosh, Tallimarjon, To‘raqo‘rg‘on hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekistonda Muborak, Toshkent va Farg‘ona IEM ham faoliyat ko‘rsatadi.



17-rasm. O‘zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarish dinamikasi (2010-2022-yy., mlrd kWh)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Shu bilan birga respublikada 50 ta GES, shu jumladan, 12 ta katta, 32 ta kichik va 6 ta mikro GES faoliyat ko‘rsatmoqda. GESlar, odatda, respublikada ishlab chiqaradigan elektr energiyasining 8-10 % ini ta’minlaydi (bu ko‘rsatkich daryolarning suvliligiga qarab yildan-yilga tebranib turadi). Respublikadagi eng yirik GES Chirchik daryosida qurilgan Chorvoq GES hisoblanadi. Umuman olganda, mamlakatimizdagi GESlarning yarmidan ko‘prog‘i Toshkent viloyatida joylashgan.

Quyosh elektr stansiyalarining jami elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2022-yilda 0,6 % ga teng bo‘lgan (Navoiy va Samarqand viloyatlarida faoliyat ko‘rsatayotgan 2 ta quyosh elektr stansiyasi).

O‘zbekiston bo‘yicha 2022-yilda jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasining asosiy qismi 6 ta hudud – Toshkent (26,4 %), Sirdaryo (22,9 %), Navoiy (15,5 %), Qashqadaryo (11,4 %), Namangan (9,0 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi (7,2 %) ga to‘g‘ri kelgan (13-jadval). Respublika elektr energetikasining hududiy tarkibida 2010-2022-yillar oralig‘idagi eng sezilarli o‘zgarishi To‘raqo‘rg‘on IESning ishga tushirilishi natijasida tarmoqdagi yetakchi hududlar qatoriga Namangan viloyatining qo‘shilishi bo‘ldi. Natijada Toshkent va Sirdaryo viloyatining salmoqlari birmuncha pasaydi.

13-jadval

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi (%)

Hududlar	2010	2022
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6,0	7,2
viloyatlar:		
Andijon	1,5	1,1
Buxoro	0,0	2,1
Jizzax	0,0	0,0
Qashqadaryo	11,2	11,4
Navoiy	14,2	15,5
Namangan	0,0	9,0
Samarqand	0,0	0,1
Surxondaryo	0,2	0,3
Sirdaryo	29,4	22,9
Toshkent	34,5	26,4
Farg‘ona	0,9	0,5
Xorazm	1,4	0,9
Toshkent shahri	0,7	2,6

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Respublika 2022-yilda 2,7 mlrd kWh elektr energiyasini eksport qilib (59 % i Afg‘onistonga, 38 % i Qirg‘izistonga, 3 % i boshqa davlatlarga), 5,6 mlrd kWh elektr energiyasini import qilgan (86 % i Turkmanistondan, 13,5 % i Tojikistondan, 0,5 % i Qirg‘izistondan).

“2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi”ga ko‘ra, mamlakatdagi barcha elektr stansiyalarning umumiy quvvatini 29 300 MWga, elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmini esa 120,8 mlrd kWhga yetkazish rejalashtirilgan. Bu maqsadga erishish uchun mavjud IESlarning quvvatini oshirish va texnologik jihatdan modernizatsiyalash, To‘raqo‘rg‘on IES quvvatlarini to‘liq ishga tushirish, Sirdaryo, Buxoro, Toshkent viloyatlari va Janubiy O‘zbekistonda yangi IESlarni bunyod qilish, 27 ta GESni modernizatsiyalash, 35 ta yangi GESni qurish, bir nechta shamol va quyosh elektr stansiyalari hamda Jizzax viloyatida atom elektr stansiyasini qurib ishga tushirish rejalashtirilmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika majmuasi qaysi tarmoqlardan iborat?
2. Yoqilg‘i-energetika majmuasining respublika sanoatidagi ulushi so‘nggi yillarda qanday o‘zgargan? Bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatdi?

3. O‘zbekistonning qaysi hududlari gaz va gazni qayta ishlash sanoatida asosiy ahamiyatga ega?
4. Mamlakatimizda qanday yirik gazni qayta ishlash korxonalari mavjud?
5. O‘zbekistonda neft va neftni qayta ishlash sanoati dastlab qaysi hududda vujudga kelgan? Hozirgi vaqtga kelib neft qazib olish va uni qayta ishlashda qaysi viloyatlar yetakchilik qilmoqda?
6. Respublikamizda ko‘mir qazib olish dinamikasi qanday rivojlanmoqda? Ko‘mir qaysi viloyatlarda qazib olinadi?
7. O‘zbekistonda ishlab chiqaradigan elektr energiyaning asosiy qismini ta’minlab beradigan 6 ta hududni sanab bering. Bulardan qaysi biri elektr energiyasining yirik ishlab chiqaruvchilari qatoriga yaqinda qo‘shildi?
8. O‘zbekistonda elektr energetikasini rivojlantirish borasida 2030-yilgacha qanday muhim choralarning amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda?

Test savollari

1. O‘zbekistonda gazni qazib olish dastlab qaysi viloyatda boshlangan?
A) Qashqadaryo viloyati
B) Buxoro viloyati
C) Farg‘ona viloyati
D) Andijon viloyati

2. Quyidagi neft konlaridan qaysi biri Qashqadaryo viloyatida joylashgan?
A) Polvontosh
B) Chimyon
C) Mingbuloq
D) Ko‘kdumaloq

3. Sharg‘un ko‘mir koni qaysi viloyat hududida joylashgan?
A) Surxondaryo viloyati
B) Toshkent viloyati
C) Navoiy viloyati
D) Jizzax viloyati

4. O‘zbekistonning qaysi viloyatida atom elektr stansiyasining qurilishi rejalashtirilmoqda?
A) Navoiy viloyati
B) Surxondaryo viloyati
C) Buxoro viloyati
D) Jizzax viloyati

7-§. Metallurgiya, kimyo, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati

O‘zbekistonda metallurgiya sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibi. Metallurgiya sanoati strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U texnika, ishlab chiqarish va kundalik hayotda nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan materiallarning ishlab chiqarishini ta’minlab beradi. Turli metall rudalarini qazish va boyitish, metall va qotishmalarni eritish, metall prokatini ishlab chiqarish metallurgiya sanoatining vazifalari hisoblanadi.

Ma’lumki, metallurgiya sanoati qora va rangli (rangdor) metallurgiyaga bo‘linadi. Qora metallurgiya temir, marganes, xrom hamda ularning qotishmalarini eritish bilan shug‘ullansa (asosiy mahsulotlari po‘lat va cho‘yan hisoblanadi), rangli metallurgiya barcha boshqa metallar va ularning qotishmalarini ishlab chiqaradi.

Metallurgiya O‘zbekiston sanoatining eng yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning hisobiga, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimiz yalpi sanoat ishlab chiqarishining 21,8 % i to‘g‘ri kelgan (sanoat tarmoqlari orasida eng yuqori ko‘rsatkich). 2010-yilda bu ko‘rsatkich 13,7 % ga teng bo‘lgan. Demak, o‘tgan oraliqda metallurgiya sanoatining O‘zbekiston yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘i 1,6 barobar oshgan. Ta’kidlash joizki, metallurgiya sanoati mahsulotlari, jumladan, oltin, uran, mis va rux mamlakatimiz eksportida katta o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda qora metallurgiya ikkilamchi xom ashyoni qayta ishlashga asoslansa, rangli metallurgiya tarmog‘i uchun respublikamizda ancha boy tabiiy xomashyo bazasi mavjud. Xususan, O‘zbekiston jahon mamlakatlari orasida oltin zaxiralari bo‘yicha 4-, uran zaxiralari bo‘yicha 7-, molibden zaxiralari bo‘yicha 8-, mis zaxiralari bo‘yicha esa 10-o‘rinda turadi. Shu bilan birga, mamlakatimiz qator nodir metallar (kadmiy, stronsiy, gafniy va boshqalar) ning zaxiralari bilan ham jahon miqyosida ajralib turadi.

Respublikamizda metallurgiya sanoatining ayrim mahsulotlarini ishlab chiqarishning ijobiy dinamikasini 14-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda metallurgiya sanoati, asosan, uchta hudud – Navoiy, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida mujassamlashgan (18-rasm). Xususan, qora metallurgiya ishlab chiqarishning 90 % dan ko‘proq qismini Toshkent viloyati va Toshkent shahri ta’minlaydi. Rangli metallurgiyaning yalpi mahsulotining deyarli 3/4 qismini Navoiy viloyati

ta’minlasa, qolgan 25 % i deyarli to‘laligicha Toshkent viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Boshqa hududlarning metallurgiya sanoati hududiy tarkibidagi ahamiyati o‘ta past darajada.


14-jadval

O‘zbekistonda metallurgiya sanoatining ayrim mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

№	Mahsulot	O‘lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi		
			2010-y.	2015-y.	2022-y.
1	Tayyor qora metallar prokati	ming tonna	691,6	764	1336,3
2	Po‘lat quvurlar	ming tonna	90,6	207,2	402,4
3	Egilgan po‘lat profillari	ming tonna	44,5	24,2	221,4
4	Mis quvur va trubkalar	tonna	-	301,8	18593,7

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018)” (Toshkent, 2019) va “O‘zbekiston sanoati (2019-2022)” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamlardagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Rangli metallurgiya korxonalarining Navoiy va Toshkent viloyatlarida joylashganligi bu yerdagi ulkan mineral-xonashyo resurslari bilan bog‘liq. Qora metallurgiyaning poytaxt mintaqasida mujassamlashganligi transport geografik o‘rin omili, ya’ni respublikaning boshqa hududlari hamda qo‘shni davlatlar bilan temir yo‘llar orqali qulay ravishda bog‘lanish imkoniyati bilan bog‘liq.



18-rasm. O‘zbekiston metallurgiya sanoati xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 14.

O‘zbekistonda metallurgiya sanoati geografiyasi, asosan, 1940-70-yillarda shakllanib, hozirgi vaqtgacha umumiy ko‘rinishini saqlamoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda Toshkent metallurgiya zavodi, Ohangaron metal quvur zavodi, Angren quvur zavodi, Namangan metallurgiya zavodi (Chust shahri) va boshqa bir qator yirik metallurgiya korxonalari ishga tushirilishini ta’kidlash o‘rinli.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston bo‘yicha qora metallurgiya sanoatining asosiy markazlari sifatida Bekobod, Ohangaron va Toshkent shaharlari ajralib turadi. Tarmoqdagi eng yirik sanoat korxonasi Bekobod shahridagi O‘zbekiston metallurgiya kombinatidir. Rangli metallurgiyaning asosiy markazlari qatorida esa Navoiy, Olmaliq, Zarafshon, Uchquduq va Angren shaharlari joy olgan. Rangli metallurgiyada ikkita yirik sanoat korxonasi – Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari asosiy ahamiyatga ega. Bu ikkita kombinat jahon miqyosidagi eng yirik rangli metallurgiya korxonalari qatoriga kiradi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Toshkent viloyatidagi konlardan tashqari, Jizzax, Namangan, Samarqand va Surxondaryo viloyatidagi polimetall va oltin ruda konlaridan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati esa Navoiy viloyatidagi konlar bilan birgalikda, Samarqand va Jizzax viloyatidagi oltin va uran ruda konlaridan foydalanadi.

O‘zbekiston oltin qazib olish hajmi bo‘yicha jahondagi peshqadam 10 ta davlat qatoriga kiradi. Respublikamizda 2020-yilda 101,6 t oltin qazib olingan. Oltinning asosiy qismi Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan qazib olinadi. Navoiy viloyatida dunyodagi eng yirik oltin konlaridan biri hisoblanadigan Muruntov koni joylashgan (2022-yilda 48,19 t oltin qazib olindi va bu jahon bo‘yicha Indoneziyadagi Grasberg konidan keyingi 2-chi ko‘rsatkichdir). Boshqa yirik oltin konlardan Ko‘kpatas, Chuqurquduq, Zarmitan, Marjonbuloq, Qizilolmasoy va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Oltin Navoiy, Zarafshon va Uchquduq shaharlaridagi zavodlarda eritiladi.

O‘zbekiston uran zaxiralari bo‘yicha jahonda 10-o‘rin egallaydi (139,2 ming t, dunyo zaxiralarining 2,3 % i). Butunjahon yadroviy assotsiatsiya ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda O‘zbekiston uran qazib olish bo‘yicha jahonda 5-o‘rinda turgan (3,5 ming t). Uranni Navoiy va Samarqand viloyatlari hududidagi konlardan “Navoiyuran” davlat korxonasi qazib oladi. O‘zbekistondagi eng yirik uran koni Navoiy viloyatidagi Uchquduq konidir. O‘zbekiston hududida uran qayta ishlanmaydi va to‘liq hajmda eksport qilinadi, asosan, Yaponiya, Kanada, AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlariga. Xususan, 2022-yilda AQSHga

import qilingan uranning 11 % i O‘zbekistondan yetkazilgan (Kanada, Qozog‘iston va Rossiyadan keyingi 4-o‘rin).

Rangli metallurgiyaning muhim tarmoqlaridan mis sanoati ham hisoblanadi. Yirik mis konlari (Qalmaqqir, Saricheku, Dalneye va boshqalar) Toshkent viloyatida, Qurama tizmasida joylashgan. Bu konlardan Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan mis va molibden qazib olinadi. O‘zbekistonda 2022-yilda 148 ming t tozalangan mis eritilgan. Mis Olmaliq shahridagi mis zavodida eritiladi. Angren shahrida esa Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tarkibiga kiruvchi Angren quvur zavodi joylashgan bo‘lib, unda mis quvur va trubkalari ishlab chiqariladi (18,6 ming t, 2022-y.).

Molibden va molibden mahsulotlari Chirchiq shahrida joylashgan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga qarashli Nodir metallar va qattiq qotishmalarni ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida (2016-yilgacha – O‘zbekiston qiyin eruvchi va o‘tga chidamli materiallar kombinati) eritiladi.

Qo‘rg‘oshin-rux rudalari konlari Surxondaryo, Toshkent va Jizzax viloyatlarida mavjud. So‘nggi yillarda bu metallarning rudalari, asosan, Surxondaryo viloyatidagi Xonjiza konidan qazib olinadi. Bu kon Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tizimiga qarashli. Rux va qo‘rg‘oshin Olmaliq shahridagi qo‘rg‘oshin-rux zavodida eritiladi.

Kimyo va neft-kimyo sanoati rivojlanishi va hududiy tarkibi. Kimyo va neft-kimyo sanoati O‘zbekistonda dinamik tarzda rivojlanib borayotgan sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning mamlakatimiz sanoati tarmoqlar tarkibidagi ulushi 2010-2022-yillarda 6,0 % dan 8,4 % gacha, ya’ni 1,4 barobar ko‘tarildi. Ta’kidlash o‘rinliki, mamlakatimizda kimyo va neft-kimyo sanoatini rivojlantirish uchun boy xomashyo bazasi hamda yetarlicha ilmiy-texnologik va malakali kadrlar salohiyati mavjud.

Respublikamizda kimyo sanoati 1930-40-yillarda shakllana boshlagan. Tarmoqdagi dastlabki korxonalar qatoriga Chirchiq elektrokimyo kombinati va Qo‘qon superfosfat zavodi kiradi. Mustaqillikdan oldingi davrda O‘zbekiston kimyo sanoati tarkibida ma’danli (azotli va fosforli) o‘g‘itlarni ishlab chiqarish, sun’iy tolalarni ishlab chiqarish, gidroliz sanoati, maishiy kimyo kabi tarmoqlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan. Mustaqillik yillarida respublika kimyo sanoati uchun yangi hisoblangan ishlab chiqarish yo‘nalishlari bunyod etildi, jumladan, kalsiylangan va kaustik soda, kaliy o‘g‘itlari, polietilen, polipropilen kabi kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston kimyo va neft-kimyo sanoatining asosiy mahsulotlari qatoriga ma’danli (azotli, fosforli, kaliy) o‘g‘itlar, sulfat kislotasi, sintetik ammiak, polietilen, polipropilen, kalsiylangan va kaustik soda, texnik tuz, loq-bo‘yoq mahsulotlari, xlorid kislotasi kiradi (15-jadval).

15-jadval


O‘zbekistonda kimyo va neft-kimyo sanoatining asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

№	Mahsulot	O‘lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi		
			2010-y.	2015-y.	2022-y.
1	Ma’danli o‘g‘itlar (100 % to‘yimli ozuqa hisobida)	ming tonna	1134,5	1234,4	1483,9
2	Sulfat kislota	ming tonna	1192,6	1505,7	1656,5
3	Sintetik ammiak	ming tonna	1343,9	1369,9	1560,1
4	Polietilen	ming tonna	129,2	178,4	428,2
5	Birlamchi formalardagi polipropilen	ming tonna	-	9,9	101,4
6	Kalsiylangan soda	ming tonna	90,4	88,3	206,1
7	Kaustik soda	ming tonna	23,1	20,3	71,1
8	Texnik tuz	ming tonna	350,3	451,6	270,2
9	Kimyoviy tola va iplar	ming tonna	24,6	11,4	42,8
10	Loq-bo’yoq mahsulotlari	ming tonna	80,5	72,1	110,7
11	Xlorid kislotasi	ming tonna	34,0	43,1	45,2
12	Sintetik yuvish vositalari	ming tonna	8,0	63	68,8

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018)” (Toshkent, 2019) va “O‘zbekiston sanoati (2019-2022)” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamlardagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Tarmoqning asosiy mahsulotlaridan 2010-2022-yillarda ma’danli o‘g‘itlar, sulfat kislota, sintetik ammiak, polietilen, polipropilen, kalsiylangan va kaustik soda, sintetik yuvish vositalari, kimyoviy tola va iplarni ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o‘sdi (15-jadval).

Kimyo va neft-kimyo sanoatining hududiy tarkibida Toshkent shahri (23,4 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (21,9 %), Toshkent (15 %), Navoiy (11,3 %), Qashqadaryo (9,3 %) va Farg‘ona (9 %) viloyatlari asosiy o‘rinlarni egallaydi (ushbu 6 ta hudud tarmoqning jami ishlab chiqarilgan mahsulotning 90 % ini ta’minlaydi), boshqa hududlarning ulushi esa 0,2-2,1 % oralig‘ida (2022-y.). Qoraqalpog‘iston Respublikasi polietilen, Qashqadaryo viloyati ma’danli o‘g‘itlar va polietilen, Navoiy viloyati sulfat kislota, sintetik ammiak, ma’danli o‘g‘itlar, texnik tuz, Toshkent viloyati ma’danli o‘g‘itlar, sulfat kislotasi, sintetik ammiak, rezina va plastmassa buyumlari, Farg‘ona viloyati ma’danli o‘g‘itlar, sintetik ammiak, Toshkent shahri farmatsevtika mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishda alohida ajralib turadi.



19-rasm. O‘zbekiston kimyo va neft-kimyo sanoati xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarining 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 15.

Ushbu sanoat tarmog‘ining yirik markazlari qatoriga Toshkent, Navoiy, Chirchiq, Farg‘ona, Olmaliq, Qo‘ng‘irot shaharlari, Qirqqiz (Qoraqalpog‘iston Respublikasi), Sho‘rtan, Beshbuloq (Qashqadaryo viloyati) shaharchalari kiradi (19-rasm). O‘zbekiston sharoitida kimyo va neft-kimyo sanoati yirik korxonalari joylashuviga mineral xomashyo konlariga yaqinligi, iste’mol omili, boshqa tarmoq korxonalari bilan hamkorlik imkoniyatlari va ekologik omil ta’sir ko‘rsatgan.

O‘zbekistonda mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining rivojlanishi va geografiyasi. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini turli texnika vositalari bilan ta’minlaydigan mashinasozlik va metallni qayta ishlash zamonaviy sanoatning eng muhim tarmoqlaridan biridir. O‘zbekistonning yalpi sanoat mahsulotidagi bu tarmoqning ulushi 2022-yilda 16,9 % ni tashkil etgan va bu jihatdan u metallurgiya sanoatidan keyingi ikkinchi o‘rinda turgan.

Mustaqillik davrigacha O‘zbekiston mashinasozligi, asosan, paxtachilik, paxta tozalash va to‘qimachilik sanoati, sug‘orish inshootlarini qurish uchun mashina va uskunalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Mustaqillik yillarida esa respublikamizda yirik avtomobil sanoati bunyod etilib, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati tarkibida aynan o‘sha tarmoq yetakchi o‘ringa chiqdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mashinasozlik mahsulotlarining yarmiga yaqin qismi avtomobilsozlikka to‘g‘ri keladi.

16-jadval

O‘zbekistonda mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining ayrim mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

№	Mahsulot	O‘lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi		
			2010-y.	2015-y.	2022-y.
1	Avtomobillar	ming dona	220,3	190,5	341,2
2	Avtobuslar	dona	1268	754	1362
3	Avtomobil dvigatellari	ming dona	-	87,1	225,4
4	Akkumulyatorlar	ming dona	411,0	631,1	970,9
5	Traktorlar	dona	2807	1378	401
6	Seyalkalar	dona	611	318	626
7	Markazdan qochiradigan nasoslar	ming dona	1,8	3,0	95,6
8	Liftlar	dona	24	206	1263
9	Sovutgich va muzlatgichlar	ming dona	18,9	117,1	752,2
10	Televizorlar	ming dona	62,9	337,6	888,6
11	Kir yuvish mashinalari	ming dona	-	120,1	775,0
12	Konditsionerlar	ming dona	19,0	86,9	413,5

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018)” (Toshkent, 2019) va “O‘zbekiston sanoati (2019-2022)” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamlardagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlaridan tashqari so‘nggi yillarda O‘zbekistonda turli maishiy va kommunal texnika vositalarini ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda (16-jadval).

Mamlakatimizdagi mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga avtomobilsozlik, elektrotexnika sanoati hamda metall konstruksiya va buyumlar sanoati kiritish mumkin.

O‘zbekiston mashinasozligining hududiy tarkibida (2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra) Toshkent shahri (31,9 %) va Andijon viloyati (30,5 %) yaqqol ustunlikka ega. Shuningdek, qolgan hududlarga qaraganda, Toshkent (8,5 %), Xorazm (8,1 %), Samarqand (5,6 %) va Navoiy (5,6 %) viloyatlarining salmoqlari birmuncha yuqori. Avtomobil sanoatidan tashqari deyarli barcha mashinasozlik tarmoqlarida Toshkent shahri keskin ustunlikka ega. Bu holat, ayniqsa, elektrotexnika va elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Andijon viloyati avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishda yetakchi ahamiyatga ega (Asaka avtomobil zavodi hisobiga). Toshkent viloyatining salmog‘i avtomobil sanoati (avtomobil dvigatellarini ishlab chiqarish), elektrotexnika va elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qishloq xo‘jaligi mashinasozligida nisbatan yuqori. Xorazm va Samarqand viloyatlari esa avtomobil sanoatining hududiy tarkibida birmuncha sezilarli ulushga ega.

O‘zbekistondagi jami mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda Namangan, Farg‘ona va Jizzax viloyatlarining hissalari 2-3 % darajada bo‘lsa, Surxondaryo, Sirdaryo, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 1 % ga ham yetmaydi.

a) 

b) 

20-rasm. O‘zbekiston avtomobil sanoatining yirik korxonalari:
a) Xorazm avtomobil zavodi (Xorazm viloyati, Pitnak shahri)
b) “MAN” avtomobil zavodi (Samarqand viloyati, Jomboy shahri)

Rasm ochiq manbalardan olingan.

Respublikamizdagi mashinasozlikning eng yirik markazlari Asaka va Toshkent shaharlari hisoblanadi. Bu ikkita sanoat markazi O‘zbekiston mashinasozligi yalpi mahsulotining 60 % ini ta’minlab bermoqda. Ulardan tashqari, mamlakatimiz mashinasozligining yetakchi markazlari jumlasiga Pitnak, Andijon, Jomboy, Samarqand shaharlari va Toshkent viloyatining Zangiota tumanini kiritish mumkin. Shuningdek, Navoiy, Chirchiq va Xonobod (Andijon viloyati) shaharlari ham mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining rivojlanganligi bilan nisbatan ajralib turadi.

Avtomobilsozlikning yirik markazlari qatoriga Asaka (Asaka avtomobil zavodi), Pitnak (Xorazm avtomobil zavodi), Jomboy (“MAN” korxonasi) va Samarqand (“Isuzu” korxonasi) shaharlari kiradi.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston qaysi metallarni ishlab chiqarishda katta salohiyatga ega?
2. O‘zbekiston metallurgiya sanoatining hududiy tarkibida qaysi hududlar yetakchi ahamiyatga ega? Bunga ta’sir ko‘rsatgan omillarni tushuntiring.
3. Mustaqillik yillarida qurilgan yangi metallurgiya korxonalariga misollarni keltiring.
4. O‘zbekistonda kimyo va neft-kimyo sanoatining qaysi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘sdi?
5. Respublikamiz hududlaridan qaysilari kimyo va neft-kimyo sanoati rivojlanishida yetakchi o‘rinlarga ega? Qaysilari ma’danli o‘g‘itlar, qaysi birlari polietilen ishlab chiqarish bilan ajralib turadi?
6. O‘zbekiston mashinasozligining ixtisoslashuvi Mustaqillik yillarida qanday tarzda o‘zgardi?
7. Mamlakatimizda mashinasozligining hududiy tarkibida qaysi viloyat va shaharlar katta ulushga ega?
8. O‘zbekiston hududlari mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining ixtisoslashuvidagi tafovutlarini izohlang.

Test savollari

1. O‘zbekiston qaysi metall zaxiralari bo‘yicha jahonda 8-o‘rinda turadi?
A) Oltin
B) Uran
C) Molibden
D) Mis

2. Qaysi viloyat O‘zbekiston qora metallurgiya sanoatining hududiy tarkibida alohida o‘ringa ega?
A) Andijon viloyati
B) Toshkent viloyati
C) Sirdaryo viloyati
D) Samarqand viloyati

3. Quyidagi korxonalardan qaysi biri respublikamizdagi kimyo sanoatining dastlabki korxonalaridan biri sanaladi?
A) “Navoiyazot” korxonasi
B) Chirchiq elektrokimyo kombinati
C) “Farg‘onaazot” korxonasi
D) Dehqonobod kaliy zavodi

4. Ushbu hududlardan qaysi biri O‘zbekiston kimyo sanoatining hududiy tarkibida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi?
A) Sirdaryo viloyati
B) Namangan viloyati
C) Buxoro viloyati
D) Qoraqalpog‘iston Respublikasi

5. Qaysi mashinasozlik mahsulotini ishlab chiqarish hajmi so‘nggi yillarda pasaydi?
A) Akkumulyatorlar
B) Konditsionerlar
C) Televizorlar
D) Traktorlar

6. “MAN” avtomobil zavodi Samarqand viloyatining qaysi tumanida joylashgan?
A) Jomboy tumani
B) Urgut tumani
C) Toyloq tumani
D) Pastdarg‘om tumani

8-§. Qurilish materiallari, o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati

O‘zbekistonda qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibi. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish O‘zbekiston sanoatining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Unga respublika yalpi sanoat ishlab chiqarishining 4,7 % i to‘g‘ri keladi (2022-yil holatiga ko‘ra). 2010-yilda bu ko‘rsatkich 5,7 %, 2015-yilda esa 6,2 % ga teng bo‘lgan. Demak, tarmoqning sanoat ishlab chiqarish tarkibidagi salmog‘i so‘nggi yillarda biroz pasaydi.

Qurilish materiallari sanoati xilma-xil mahsulotlarni ishlab chiqaradi hamda uning tarkibida bir nechta tarmoqlar mavjud. Sement, asbest va asbestosement (shifer), yig‘ma temir-beton konstruksiyalari, devorbop materiallar, qurilish sopolchiligi, qum-shag‘al materiallari, tabiiy toshni qazib olish va qayta ishlash, ohak va gips, asfalt va asfalt beton, shisha va boshqa sanoat tarmoqlari shular jumlasidandir. Eng muhim tarmoq mahsulotlarining respublikada ishlab chiqarish dinamikasini 17-jadvaldan ko‘rish mumkin. Xususan, 2010-2022-yillar oralig‘ida tarmoq mahsulotlari orasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan sement va yig‘ma temir beton konstruksiya va buyumlari ishlab chiqarish hajmi, mos ravishda, 1,9 va 2,0 barobar o‘sgan. Bu holat respublikamizda qurilish ishlari ko‘lamining kengayishidan dalolat beradi. Ayni paytda, qurilish g‘ishtlar ishlab chiqarish hajmining biroz pasayishi qurilishdagi texnologiyalarning o‘zgarishi bilan bog‘lash mumkin.

17-jadval


O‘zbekistonda qurilish materiallari sanoatining ayrim mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

№	Mahsulot	O‘lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi		
			2010-y.	2015-y.	2022-y.
1	Sement	ming tonna	6807,8	8459,8	13058,2
2	Yig‘ma temir beton konstruktsiya va buyumlari	ming m^3	664,0	1388,7	1344,3
3	Qurilish g‘ishtlar	mln dona shartli g‘isht	1173,2	1594,4	975,9
4	Deraza oynasi	ming m^2	7285,0	7226,0	20124,9
5	Asbestsementli listlar (shifer)	mln shartli plitka	435,1	356,6	308,3
6	Ichki devorlarni qoplashga mo‘ljallangan sirlangan sopol plitkalar	ming m^2	744,3	6832,6	3103,1

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018)” (Toshkent, 2019) va “O‘zbekiston sanoati (2019-2022)” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamlardagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

O‘zbekiston qurilish materiallari sanoatining hududiy tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, Toshkent (18,5 %), Farg‘ona (15,7 %) viloyatlari hamda Toshkent shahri (17,6 %) yaqqol ustunlikka ega. Shuningdek, Navoiy (9,2 %), Jizzax (7,4 %), Buxoro (5,5 %) va Samarqand (5,2 %) viloyatlarining ulushi nisbatan yuqori. Xorazm viloyati (1,7 %) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2,7 %) ning bu boradagi ko‘rsatkichlari esa respublika hududlari ichida eng past hisoblanadi. So‘nggi yillarda qurilish materiallari sanoatining hududiy tarkibida Navoiy viloyatining hissasi sezilarli darajada pasayib, Andijon, Namangan va, ayniqsa, Farg‘ona viloyatining salmoqlari, aksincha, o‘sib bormoqda. Shuningdek, tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi statistikasiga Jizzax viloyatidagi Zafarobod va Surxondaryo viloyatidagi Sherobod sement zavodlarining Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tarkibida faoliyat olib borayotganligi va ko‘rsatkichlari Toshkent viloyatiga qo‘shilishi muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Demak, Toshkent viloyati qurilish materiallari sanoati mahsulotining ma’lum qismi aslida boshqa viloyatlar hududida ishlab chiqariladi.

O‘zbekiston qurilish materiallari sanoatining eng yirik markazlari qatoriga Toshkent, Navoiy, Ohangaron, Quvasoy va Bekobod shaharlari kiritish mumkin.



21-rasm. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan sementning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi (2022-y., %)

Rasm mualliflar tomonidan “O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami (2021-2022)” (Toshkent, 2023) dagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Sement ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Toshkent, Navoiy, Jizzax va Farg‘ona viloyatlari yetakchi o‘rinlarda turadi (21-rasm), chunki respublika bo‘yicha eng yirik sement zavodlari Navoiy, Ohangaron, Bekobod, Zafarobod va Quvasoyda joylashgan. Bu sement zavodlari Mustaqillik davridan oldin ishga tushirilgan. Mustaqillik yillarida esa nisbatan yirik sement ishlab chiqaradigan korxonalar Jizzax viloyati Zafarobod tumanida, Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Qoratov shaharchasida bunyod etilgan. Undan tashqari, mamlakatimizda yildan-yilga kichik quvvatli sement zavodlari ko‘payib bormoqda.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda turli qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish uchun ham mahalliy mineral xomashyo resurslari, ham mahsulotlarga mavjud talab yetarli darajada. Shu bois, yaqin yillarda tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yanada o‘sib borishini kutish lozim.

O‘zbekistonda o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati rivojlanishi va hududiy tarkibi. O‘zbekistonda sanoatning bu tarmog‘ini rivojlantirish uchun tabiiy-resurs imkoniyatlari ancha cheklangan bo‘lib, shu bois uning korxonalari ko‘p hollarda chetdan (asosan, Rossiyadan) keltirilayotgan xomashyodan foydalanadi. Bu tarmoq, asosan, Mustaqillik yillarida rivojlana boshlagan.

O‘zbekiston yalpi sanoat mahsulotidagi bu tarmoqning ulushi, 2022-yil holatiga ko‘ra, 2,0 % ga teng. Bu ko‘rsatkich 2010-yilda 1,1 % ga teng bo‘lgan. Demak, tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish jami sanoat ishlab chiqarishga qaraganda tezroq o‘sib bormoqda. O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoatining asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasini 19-jadvalda keltirilgan raqamlardan ko‘rish mumkin.

19-jadval


O‘zbekistonda o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoatining asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

№	Mahsulot	O‘lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi		
			2010-y.	2015-y.	2022-y.
1	Arralangan yog‘och materiallari	ming m^3	7,4	34,3	73,2
2	Qog‘oz va karton	ming tonna	28,7	39,0	114,8
3	Sellyuloza	ming tonna	4,0	11,2	15,0
4	Mebel	mlrd so‘m	160,3	614,8	2998,3
5	Yig‘ma deraza va eshik bloklari	ming m^2	118,9	462,3	758,6

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018)” (Toshkent, 2019) va “O‘zbekiston sanoati (2019-2022)” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamlardagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati tarkibida quyidagi tarmoqlarni ajratish mumkin: yog‘ochni tayyorlash, yog‘ochni qayta ishlash, mebel, gugurt ishlab chiqarish, sellyuloza-qog‘oz va o‘rmon-kimyo sanoati. O‘zbekistonda, asosan, yog‘ochni qayta ishlash, mebel va sellyuloza-qog‘oz kabi sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimizda o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoatining hududiy tarkibida Toshkent shahri (38,2 %) va Toshkent viloyati (24,3 %) yaqqol ustunlikka ega. Boshqa hududlardan nisbatan yuqori ulush Farg‘ona (9,1 %), Namangan (4,7 %) va Samarqand (4,7 %) viloyatlariga tegishlidir. O‘zbekiston sharoitida tarmoqning hududiy tarkibiga, boshqa omillardan ko‘ra, iste’mol omili yuqori darajada ta’sir ko‘rsatadi.



22-rasm. O‘zbekistonda qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarishning hududiy tarkibi (2022-y., %)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda tarmoqning hududiy tarkibida Toshkent shahrining salmog‘i sezilarli darajada pasayib, boshqa hududlar, ayniqsa, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarining ulushi ko‘tarildi. Masalan, 2018-yil yakunlari bo‘yicha, respublika bo‘yicha tarmoq korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning 59,1 % qismi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelib, Toshkent viloyatining ulushi 15 %, Farg‘ona viloyatining ulushi esa 6,3 % ni tashkil etgan. Lekin shunda

ham tarmoqning hududiy tarkibida Toshkent shahrining ustunligi saqlanmoqda. Bu holat, ayniqsa, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarishda ko‘zga tashlanadi (22-rasm).

Respublikamizdagi o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoatining eng yirik markazi Toshkent shahri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu tarmoqning muhim markazlari toifasiga Samarqand, Namangan, Jizzax, Yangiyo‘l shaharlari, Toshkent viloyatining Toshkent va O‘rta Chirchiq tumanlari, Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanini kiritish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston qurilish materiallari sanoatining asosiy mahsulotlarini sanab bering.
2. Qurilish materiallarini ishlab chiqarishda qaysi hududlarning ulushi eng yuqori? Tarmoqning hududiy tarkibi ko‘proq qaysi mahsulotni ishlab chiqarish geografiyasi bilan bog‘liq?
3. Qaysi shaharlarda respublikamizda eng yirik sement zavodlari joylashgan?
4. O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati tarkibida qanday kichik tarmoqlarni ajratish mumkin? O‘zbekiston sharoitida ularning qaysilari, asosan, rivojlanmoqda?
5. O‘zbekistonda o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoatining hududiy tarkibi haqida so‘zlab bering.
6. Qaysi shahar va tumanlar mamlakatimizdagi o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoatining eng yirik markazlari qatoriga kiradi?

Test savollari

1. O‘zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibida qurilish materiallari sanoati ulushi qanchaga teng (2022-y.)?
A) 3,5 %
B) 4,7 %
C) 5,5 %
D) 6,7 %

2. Qaysi viloyatda eng ko‘p sement ishlab chiqarilmoqda?
A) Jizzax viloyati
B) Navoiy viloyati
C) Farg‘ona viloyati
D) Toshkent viloyati

3. Quyidagi hududlardan qaysi birining respublika qurilish materiallari sanoatining hududiy tarkibidagi ulushi past?
A) Toshkent shahri
B) Qoraqalpog‘iston Respublikasi
C) Toshkent viloyati
D) Navoiy viloyati

4. Farg‘ona viloyatining qaysi shahrida yirik sement zavodi faoliyat ko‘rsatadi?
A) Farg‘ona
B) Marg‘ilon
C) Qo‘qon
D) Quvasoy

5. Zafarobod sement zavodi qaysi viloyatda joylashgan?
A) Surxondaryo viloyati
B) Navoiy viloyati
C) Jizzax viloyati
D) Xorazm viloyati

6. O‘zbekistonga yog‘och xomashyosi asosan qaysi davlatdan import qilinadi?
A) Xitoy
B) Rossiya
C) Ukraina
D) Kanada

7. Ushbu shaharlardan qaysi biri mamlakatimizdagi o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoatining yirik markazlari qatoriga kiradi?
A) Yangiyo‘l
B) Chirchiq
C) Angren
D) Olmaliq

9-§. Yengil va oziq-ovqat sanoati

O‘zbekistonda yengil sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibi. Yengil sanoat an’anaviy ravishda O‘zbekiston sanoatining yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ko‘plab iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqaradigan yengil sanoatining O‘zbekiston yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 14,9 % ni tashkil etadi (2022-yil holatiga ko‘ra). Bu ko‘rsatkich 2010-2022-yillar oralig‘ida biroz o‘sgan (2010-yilda u 13,4 % ga teng bo‘lgan).

O‘zbekiston yengil sanoati ko‘p tarmoqli tarkibga ega bo‘lib, quyidagi asosiy tarmoqlarni birlashtiradi: paxta tozalash, pillakashlik, to‘qimachilik, tikuvchilik, trikotaj, charm-poyabzal, gilamdo‘zlik, mo‘yna sanoati. Ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha to‘qimachilik sanoati yetakchi ahamiyatga ega. O‘zbekiston yengil sanoatining asosiy mahsulotlari ip-kalava, gazlamalar, trikotaj mahsulotlari, kiyim mahsulotlari, chulki-paypoq mahsulotlari, poyabzal, gilam va gilam mahsulotlaridan iborat (20-jadval). 2010-2022-yillar oralig‘ida ip-kalava ishlab chiqarish 2,9 barobar, gazlamalar – 3,0 barobar, trikotaj mahsulotlari – 4,6 barobar, poyabzal – 7,3 barobar, tikuv mahsulotlari – 38,3 barobar ko‘paygan. Yengil sanoat mahsulotlari O‘zbekiston eksportining tovar tarkibida qimmatbaho metallardan keyingi o‘rinda turadi.

20-jadval


O‘zbekistonda yengil sanoatining asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

№	Mahsulot	O‘lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi		
			2010-y.	2015-y.	2022-y.
1	Ip-kalava	ming tonna	225,6	326,1	662,3
2	Xom ipak iplar	tonna	1306,1	1349,8	4709,6
3	Barcha turdagi gazlamalar	mln m^2	194,5	227,1	590,4
4	Trikotaj mahsulotlari	mln dona	98,9	161,6	455,6
5	Tikuv mahsulotlari	mlrd so’m	115,5	1718,4	4424,1
6	Chulki-paypoq mahsulotlari	mln juft	27,8	31,8	206,9
7	Poyabzal	mln juft	3,3	8,2	24,0
8	Gilam va gilam mahsulotlari	ming m^2	21649,6	32650,8	60133,1

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018)” (Toshkent, 2019) va “O‘zbekiston sanoati (2019-2022)” (Toshkent, 2023) statistik to’plamlardagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Yengil sanoati O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida yaxshi rivojlangan bo‘lib, keng geografiyaga ega. Tarmoqning hududiy tarkibida Andijon (15,8 %), Farg‘ona (13,3 %), Toshkent (9,0 %), Namangan (8,8 %) viloyatlari va Toshkent shahri (8,4 %) yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

Respublika yengil sanoatida eng past salmoqqa Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2,9 %), Navoiy viloyati (3,1 %), Sirdaryo (3,4 %) va Surxondaryo (3,5 %) viloyatlari ega. Boshqa hududlarning tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi esa 4-8 % oralig‘ida. Ta’kidlash lozimki, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda aholi soni va zichligi yuqori bo‘lgan hududlar yetakchilik qilmoqda. Bu holat yengil sanoat rivojlanishi va joylanishida mehnat resurslari, iste’mol bozori va ishbilarmonlik muhiti kabi omillarning muhim ahamiyatini aks ettiradi.



23-rasm. O‘zbekiston yengil sanoatining hududiy tarkibi (2018- va 2022-yy. holatiga ko‘ra)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

So‘nggi yillarda yengil sanoatning hududiy tarkibida Andijon, Samarqand va Toshkent viloyatlarining ulushi sezilarli darajada o‘sgan. Xususan, ushbu viloyatlarning tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi salmog‘i 2018-2022-yillar oralig‘ida, mos ravishda, 11,8 % dan 15,8 % gacha, 5,2 % dan 7,4 % gacha va 6,6 % dan 9,0 % gacha ko‘tarilgan. Ayni paytda, Toshkent shahrining ulushi 12,7 % dan 8,4 % gacha, Qashqadaryo

viloyatining ulushi 10,2 % dan 7,9 % gacha, Xorazm viloyatining ulushi esa 7 % dan 4,7 % gacha tushib ketgan (23-rasm).

21-jadval

O‘zbekistonda ayrim yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning hududiy tarkibi (2022-y.)

Hududlar	Ip-kalava		Gazlamalar		Trikotaj mato		Poyabzal	
	Ming tonna	%	Mln m^2	%	Ming tonna	%	Ming juft	%
O‘zbekiston Respublikasi	662,3	100,0	590,3	100,0	95,2	100,0	24030,3	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	25,4	3,8	2,0	0,3	0,1	0,1	0	0,0
viloyatlar:								
Andijon	76	11,5	41,7	7,1	15,7	16,5	4362,7	18,2
Buxoro	29,2	4,4	101,0	17,1	1,4	1,5	107,4	0,4
Jizzax	50,8	7,7	0,1	0,02	2	2,1	43,2	0,2
Qashqadaryo	55,5	8,4	6,6	1,1	2,3	2,4	114,4	0,5
Navoiy	28,6	4,3	1,4	0,2	0	0,0	229	1,0
Namangan	63,3	9,6	131	22,2	15,4	16,2	2263,4	9,4
Samarqand	17,4	2,6	20,1	3,4	4,2	4,4	8350,3	34,7
Surxondaryo	53,4	8,1	50,1	8,5	0	0,0	0	0,0
Sirdaryo	19,1	2,9	0,1	0,02	0,1	0,1	1084,9	4,5
Toshkent	42,7	6,4	49,1	8,3	16,7	17,5	941	3,9
Farg‘ona	125,6	19,0	65,0	11,0	8,1	8,5	5193,2	21,6
Xorazm	36,3	5,5	27,5	4,7	0,8	0,8	126,2	0,5
Toshkent shahri	39	5,9	94,5	16,0	28,4	29,8	1209,8	5,0

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami (2021-2022)” (Toshkent, 2023) dagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Respublika hududlaridan ip-kalava ishlab chiqarishda Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari, gazlamalarni ishlab chiqarishda Namangan, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahri, trikotaj matoni ishlab chiqarishda Toshkent shahri, Toshkent, Andijon va Namangan viloyatlari, poyabzal sanoatida esa Samarqand, Farg‘ona va Andijon viloyatlari alohida o‘rin egallaydi (21-jadval).

Respublikamizdagi yengil sanoatning yirik markazlari qatoriga Toshkent, Qo‘qon, Namangan, Samarqand, Chirchiq shaharlari, Qarshi (Qashqadaryo viloyati), Urgut (Samarqand viloyati), Xo‘jaobod (Andijon viloyati), Toshloq (Farg‘ona viloyati) tumanlarini kiritish mumkin.

O‘zbekistonda oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibi. Aholini iste’mol mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati respublika sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri. Bu tarmoqning O‘zbekiston yalpi sanoat mahsulotidagi

salmog‘i 13,8 % ga teng (2022-yil holatiga ko‘ra). Bu ko‘rsatkich 2010-yilda 12,6 % ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati ko‘p tarmoqli tarkibga ega bo‘lib, un-yorma, non ishlab chiqarish, yog‘-moy, makaron, qandolatchilik, meva-sabzavot va konservalash, go‘sht, sut, likyor-aroq, vino mahsulotlarini ishlab chiqarish, pivo va alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish, shakar, omuxta-yem (kombikorm) va boshqa tarmoqlarni birlashtiradi. Tarmoqning asosiy mahsulotlari qatoriga un, non va non mahsulotlari, o‘simlik yog‘i, makaron mahsulotlari, yorma, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, margarin mahsulotlari va boshqalarni kiritish mumkin. Un, makaron mahsulotlari, margarin mahsulotlari, qandolat mahsulotlari, sut mahsulotlari, meva-sabzavot konservalari, kolbasa mahsulotlari, alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish hajmi 2022-yilga kelib 2010-yilga nisbatan sezilarli darajada o‘sgan (22-jadval). Demak, umuman olganda, tarmoqda ishlab chiqarish hajmi mamlakat aholisining ko‘payishiga hamohang ravishda o‘sib bormoqda va bu holatni, albatta, ijobiy tarzda baholash lozim.

22-jadval

O‘zbekistonda oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

№	Mahsulot	O‘lchov birligi	Ishlab chiqarish hajmi		
			2010-y.	2015-y.	2022-y.
1	Un	ming tonna	1579,8	2062,3	3250,1
2	Non va non mahsulotlari	ming tonna	912,9	1269,9	970,1
3	Makaron mahsulotlari	ming tonna	57,4	125,7	91,6
4	Yorma	ming tonna	20,5	36,9	20,8
5	O‘simlik yog‘i	ming tonna	235,6	223,1	96,3
6	Margarin mahsulotlari	ming tonna	11,4	27,1	44,6
7	Qandolat mahsulotlari	ming tonna	36,3	116,1	144,4
8	Aroq va likyor-aroq mahsulotlari	mln dal	11,7	15,1	13,6
9	Uzum vinosi	mln dal	3,6	3,3	1,5
10	Alkogolsiz ichimliklar	mln dal	43,0	61,1	291,1
11	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	ming tonna	202,2	283,8	213,0
12	Kolbasa mahsulotlari	ming tonna	23,7	36,4	38,5
13	Sut va sut mahsulotlari	ming tonna	307,2	464,5	566,0
14	Meva-sabzavot konservalari	mln shartli banka	124,6	641,1	883,5
15	Papiros va sigaretlar	mln dona	13949,0	10513,0	11269,5

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018)” (Toshkent, 2019) va “O‘zbekiston sanoati (2019-2022)” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamlardagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining hududiy tarkibida Toshkent shahri yaqqol ustunlikka ega.

Poytaxt salmog'iga tarmoq yalpi mahsulotining 29,2 % qismi to'g'ri keladi (2022-yil holatiga ko'ra). Boshqa hududlar orasida Toshkent (15,4 %) va Samarqand (10,2 %) viloyatlarining ko'rsatkichlari nisbatan ajralib turadi. Qolgan hududlardan faqat Buxoro (5,6 %), Farg'ona (6,4 %) va Xorazm (6,7 %) viloyatlari ulushi 5 % dan oshadi. Eng past salmoq esa Navoiy (2,8 %), Sirdaryo (2,7 %), Surxondaryo (2,0 %) va Jizzax (1,9 %) viloyatlariga tegishli. Ko'rinib turibdiki, yengil sanoat singari, bu tarmoq rivojlanishidagi hududiy tafovutlarga iste'mol omili katta ta'sir ko'rsatib, uning geografiyasida ham aholi soni katta bo'lgan hududlar yetakchi ahamiyatga ega.

23-jadval

O'zbekiston oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining hududiy tarkibi (2018- va 2022-yy. holatiga ko'ra)


Hududlar	Ulushi, %	
	2018-y.	2022-y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,6	3,7
viloyatlar:		
Andijon	3,4	4,3
Buxoro	3,2	5,6
Jizzax	1,7	1,9
Qashqadaryo	3,5	4,4
Navoiy	1,4	2,8
Namangan	5,6	4,7
Samarqand	11,2	10,2
Surxondaryo	2,0	2,0
Sirdaryo	2,9	2,7
Toshkent	17,3	15,4
Farg'ona	4,4	6,4
Xorazm	3,2	6,7
Toshkent shahri	37,6	29,2

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

So'nggi yillarda respublika oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining hududiy tarkibida ma'lum siljishlar kuzatilmoqda (23-jadval). Xususan, an'anaviy ravishda tarmoqda yetakchi o'rinlarda turadigan poytaxt mintaqasi va Samarqand viloyatining ulushi sezilarli darajada pasaygan, tarmoqning hududiy tarkibidagi salmog'i past bo'lgan bir qator hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Andijon viloyatlari) ning hissasi esa, aksincha ko'tarildi. Demak, tarmoqdagi hududiy tafovutlar muayyan darajada qisqarib bormoqda.

Tarmoq mahsulotlaridan eng muhimlari qatoriga kiradigan un va o'simlik yog'i ishlab chiqarishda hududlarning salmog'ini (2022-yil

holatiga ko'ra) 24-rasmda ko'rishimiz mumkin. Un ishlab chiqarishda Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatlari, o'simlik yog'ini ishlab chiqarishda esa Xorazm, Namangan va Samarqand viloyatlari alohida ajralib turadi.



24-rasm. O'zbekiston hududlarining un va o'simlik yog'ini ishlab chiqarishdagi salmog'i (2022-y., %)

Jadval mualliflar tomonidan "O'zbekiston sanoati (2019-2022)" (Toshkent, 2023) statistik to'plamdagi ma'lumotlar asosida tuzilgan.

O'zbekistondagi oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining eng yirik markazi Toshkent shahri hisoblanadi. Toshkent viloyatining poytaxtga tutash Qibray, Toshkent va Zangiota tumanlarining tarmoqdagi salohiyati ancha yuqori bo'lib, umumiy holda olinganda, bu uchta tumanda respublika bo'yicha tarmoq mahsulotining salkam 9 % i ishlab chiqariladi. Samarqand shahar va uning atrofida joylashgan Toyloq,

Samarqand va Jomboy tumanlarida ham deyarli shuncha hajmda oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek, Namangan, Qo'qon, Yangiyo'l, Qarshi, Urganch va boshqa shaharlarni ham tarmoqning yirik markazlari sifatida ko'rsatish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston yengil sanoati tarkibida qanday tarmoqlar ajratiladi?
2. Yengil sanoatining hududiy tarkibida qaysi hududlar eng katta salmoqqa ega? Tarmoqning hududiy tarkibiga qanday omillar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi?
3. Qaysi shahar va tumanlar O'zbekistonda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hisoblanadi?
4. Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining hududiy tarkibiga hududlarning demografik salohiyati qanday ta'sir ko'rsatishini izohlang.
5. O'zbekistonda oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining hududiy tarkibida qaysi hududlarning ulushi alohida ajralib turadi?
6. Mamlakatimizda oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining hududiy tarkibida so'nggi yillarda qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda?

Test savollari

1. O'zbekiston yengil sanoatining hududiy tarkibida qaysi hududning salmog'i eng kichik (2022-y.)?
A) Qoraqalpog'iston Respublikasi
B) Buxoro viloyati
C) Navoiy viloyati
D) Surxondaryo viloyati

2. Qaysi viloyatning respublika yengil sanoati hududiy tarkibidagi ulushi 2018-2022-yillarida ancha o'sgan?
A) Qashqadaryo viloyati
B) Toshkent viloyati
C) Xorazm viloyati
D) Surxondaryo viloyati

3. Ip-kalava ishlab chiqarish bo'yicha qaysi viloyat yetakchi o'rinda turadi?
A) Toshkent viloyati
B) Xorazm viloyati
C) Samarqand viloyati
D) Farg'ona viloyati

4. Samarqand viloyatining qaysi tumani yengil sanoatining rivojlanishi bilan respublika miqyosida ajralib turadi?
A) Bulung'ur
B) Urgut
C) Payariq
D) Paxtachi

5. Ushbu mahsulotlardan qaysi birining ishlab chiqarish hajmi O'zbekistonda 2010-2022-yillarda pasaygan?
A) Margarin mahsulotlari
B) Alkogolsiz ichimliklar
C) O'simlik yog'i
D) Qandolat mahsulotlari

6. Qaysi hududning respublika oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati hududiy tarkibidagi ulushi 2018-2022-yillarida o'sgan?
A) Xorazm viloyati
B) Toshkent shahri
C) Toshkent viloyati
D) Samarqand viloyati

7. Qaysi hudud O'zbekistonda un ishlab chiqarish hajmi bo'yicha O'zbekistonda 1-o'rinda turadi (2022-yil holatiga ko'ra)?
A) Farg'ona viloyati
B) Samarqand viloyati
C) Namangan viloyti
D) Toshkent shahri

10-§. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga umumiy tavsif

Qishloq xo‘jaligining O‘zbekiston milliy iqtisodiyotidagi o‘rni. Qishloq xo‘jaligi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlab beruvchi iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘i hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi aholini oziq-ovqat mahsulotlari, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini xomashyo bilan ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lib, paxta, pilla, qorako‘l terilari, uzum, meva, sabzavot va poliz ekinlarining ko‘plab turlarini yetishtirish va eksport qilish hajmi bo‘yicha jahon miqyosida yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sektori, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston YaIMning 23,4 % ini ta’minlab bergan. Mustaqillik yillarida bu ko‘rsatkich, goh pasayib, goh ko‘tarilib, ancha tebrangan, lekin 2016-yildan buyon asta-sekin pasayib bormoqda.

Respublika hududlari kesimida olganda, 2022-yil holatiga ko‘ra, Navoiy va Toshkent viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahridan tashqari, barchasining YaHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi ustuvor ahamiyatga ega. Bu borada eng yuqori ko‘rsatkichlar Jizzax (51,9 %), Surxondaryo (47,7 %) va Xorazm (46 %) viloyatlarida, eng past ko‘rsatkichlar esa Toshkent (22,1 %), Navoiy (13,9 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (0,0 %) qayd etilgan.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibi va uning hududiy xususiyatlari. O‘zbekistonda, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi qishloq xo‘jaligi yerlarining umumiy maydoni 25769 ming gektarga teng. Bu ko‘rsatkich 2010-yilga nisbatan 489 ming gektarga, ya’ni 1,9 % ga ko‘paydi.

24-jadval

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi yerlarining tarkibi

Qishloq xo‘jaligi yerlarining toifalari	1.01.2010-y.		1.01.2023-y.	
	ming ga	%	ming ga	%
Barcha qishloq xo‘jaligi yerlari	25280,0	100,0	25769,0	100,0
Ekin yerlar	4073,1	16,1	4028,5	15,6
Ko‘p yillik daraxtzorlar	347,8	1,4	438,5	1,7
Yaylov va pichanzorlar	20776,6	82,2	21215,4	82,3
Bo‘z yerlar	82,5	0,3	86,6	0,4

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Qishloq xo‘jaligi yerlari tarkibida eng katta ulush (82,3 %) yaylov va pichanzorlarga to‘g‘ri keladi. Qishloq xo‘jaligi yerlarining eng mahsuldor toifasi hisoblanadigan ekin yerlarning umumiy maydoni 4028,5 ming gektarga teng bo‘lib, respublikadagi barcha qishloq xo‘jaligi yerlarining 15,6 % ini tashkil qiladi. Ekin yerlarning maydoni 2010-yil bilan taqqoslaganda 44,6 ming gektar (1,1 %) ga qisqardi. Ko‘p yillik daraxtzorlar mamlakatimizdagi jami qishloq xo‘jaligi yerlarining 1,7 % ini tashkil etgan holda, umumiy maydoni 438,5 ming gektardan iborat. Ko‘p yillik daraxtzorlarning maydoni O‘zbekistonda tobora kengayib bormoqda va 2010-yilga qaraganda u 90,7 ming gektar yoki 26,1 % ga ko‘paydi. Umuman olganda, 2010-2023-yillarda qishloq xo‘jaligi yerlari fondi tarkibiy jihatdan kam o‘zgargan. Ro‘y bergan o‘zgarishlar, asosan, ko‘p yillik daraxtzorlar maydonining kengayishi bilan bog‘liqdir.

25-jadval

O‘zbekiston hududlari qishloq xo‘jaligi yerlarining tarkibi (1.01.2023-yil holatiga ko‘ra)

Hududlar	Qishloq xo‘jaligi yerlari		Ekin yerlar		Ko‘p yillik daraxtzorlar		Yaylov va pichanzorlar		Bo‘z yerlar	
	ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%
O‘zbekiston Respublikasi	25769	100	4028,5	15,6	438,5	1,7	21215,4	82,3	86,6	0,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5706,4	100	418,8	7,3	8	0,1	5265,4	92,4	14,2	0,2
viloyatlar:										
Andijon	255,2	100	200,1	78,4	31,4	12,3	21,1	8,3	2,6	1,0
Buxoro	2785,6	100	200,1	7,2	21	0,8	2557,5	91,7	7	0,3
Jizzax	1262,6	100	504,1	39,9	42,5	3,4	704,7	55,8	11,3	0,9
Qashqadaryo	2142,7	100	675,4	31,5	38,9	1,8	1406,5	65,7	21,9	1,0
Navoiy	9030,1	100	122,5	1,4	10,3	0,1	8890,5	98,4	6,8	0,1
Namangan	401,3	100	185	46,1	48,9	12,2	164,9	41,1	2,5	0,6
Samarqand	1298	100	423,9	32,7	72,4	5,6	796,5	61,3	5,2	0,4
Surxondaryo	1137	100	277,9	24,4	34,2	3,0	824,6	72,6	0,3	0,0
Sirdaryo	286,7	100	248,9	86,8	7,7	2,7	19,9	6,9	10,2	3,6
Toshkent	822,7	100	322,2	39,2	54,7	6,6	445	54,1	0,8	0,1
Farg‘ona	306,4	100	242	79	54,9	17,9	9,5	3,1	0	0,0
Xorazm	331,5	100	205,3	61,9	13,1	4,0	109,3	33,0	3,8	1,1
Toshkent shahri	2,8	100	2,3	82,1	0,5	17,9	0	0,0	0	0,0

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Barcha toifadagi qishloq xo‘jaligi yerlari umumiy maydonining 35,0 % i Navoiy viloyati, 24,8 % i Qoraqalpog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, Buxoro (12,1 %) va Qashqadaryo (6,6 %)

viloyatlari qishloq xo'jaligi yerlari maydonining kattaligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Eng kam qishloq xo'jaligi yerlari esa Namangan (1,6 %), Xorazm (1,3 %), Farg'ona (1,2 %), Sirdaryo (1,1 %) va Andijon (1,0 %) viloyatlariga to'g'ri keladi. Lekin qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni katta bo'lgan hududlarda ularning asosiy qismi yaylov va pichanzorlardan iborat, hududi kichik bo'lgan viloyatlarda esa qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibida ekin yerlar yaqqol ustunlikka ega (25-jadval).


Ekin yerlarning maydoni bo'yicha Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi alohida ajralib turadi. Bu 4 ta hududga respublikadagi jami ekin yerlarning 50 % qismi to'g'ri keladi. Ko'p yillik daraxtzorlarning maydoni jihatidan Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Namangan viloyatlari yetakchilik qiladi. Bu hududlarning mamlakatdagi tegishli yerlar jami maydonidagi salmog'i 53 % ga teng. Yaylov va pichanzorlar umumiy maydonining salkam 80 % i 3 ta hudud – Navoiy va Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish dinamikasi va tarmoqlar tarkibi. O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti 2022-yilda 347,6 trln so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 1,04 barobar, 2010-yilga nisbatan esa 1,68 barobar o'sgan. 2010-2022-yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti mahsuloti o'sishining o'rtacha yillik sur'atlari 104,4 % ga teng bo'lgan. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti, 2022-yil yakunlari bo'yicha, 9,75 mln so'mni tashkil qilgan.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibida, 2022-yil yakunlari bo'yicha, dehqonchilikning ulushi 51,7 %, chorvachilikning ulushi esa 48,3 % tashkil qildi. 2010-yilda bu ikki sohaning mamlakatning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ulushi, mos ravishda, 58,7 % va 41,3 % ga, 2015-yilda – 55,6 % va 44,4 %, 2020-yilda esa – 49,5 % va 50,5 % ga teng bo'lgan. Demak, mamlakatimizda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tarmoqlar tarkibi o'zgarishining o'rtacha tendensiyasi dehqonchilik ulushining pasayishi va, mos ravishda, chorvachilik salmog'ining o'sib borishidan iborat. Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2010-2022-yillar oralig'ida o'rtacha yillik hisobda 103,9 % ga o'sgan bo'lsa, chorvachilikda bu ko'rsatkich, mos ravishda, 105,4 % ni tashkil qilgan.

Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida qishloq xo'jaligi tarkibida dehqonchilik

mahsulotlari ustunlikka ega bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Xorazm, Jizzax, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida chorvachilik ustuvor ahamiyatga ega (2022-y.). Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida dehqonchilikning eng katta ulush ko'rsatkichlari Andijon (63,3 %), Farg'ona (59,8 %), Namangan (59,5 %) va Sirdaryo (58,3 %) viloyatlarida qayd qilingan bo'lsa, chorvachilikning eng yuqori ulushi, o'z navbatda, Jizzax (59,1 %), Qashqadaryo (59,3 %) va Navoiy (64,6 %) viloyatlarida kuzatilgan (25-rasm). E'tiborga loyiq tomoni shundaki, yaylov va pichanzorlarning maydoni kam bo'lgan hududlarda qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibida dehqonchilik mahsulotlari, yaylov va pichanzorlarga boy bo'lgan hududlarda esa chorvachilik mahsulotlari ustuvor ahamiyatga ega.



25-rasm. O'zbekiston hududlarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibida dehqonchilik va chorvachilik ulushi (2022-y., %)

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qishloq xo'jaligining tashkiliy shakllari. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchta toifadagi xo'jaliklarda amalga oshirilib, ular fermer xo'jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlaridan iborat.

2022-yil yakunlariga ko‘ra, respublikada yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 62,2 % qismi dehqon xo‘jaliklari, 31,4 % fermer xo‘jaliklari, 6,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda fermer xo‘jaliklarining ulushi 55,3 %, dehqon xo‘jaliklarining ulushi 36,2 %, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi 8,5 % ni tashkil etgan. Chorvachilik mahsulotlarini yetkazishda esa dehqon xo‘jaliklari yaqqol ustunlikka ega bo‘lib, jami tarmoq mahsulotining 90,2 % i aynan shu toifadagi xo‘jaliklarda ishlab chiqarilgan. Fermer xo‘jaliklari chorvachilik mahsulotlarining 5,8 % ini, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari esa 4,0 % ini ta’minlab berdi.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotining turli toifadagi xo‘jaliklar bo‘yicha taqsimlanishi 2000-2010-yillarda keskin tarzda o‘zgardi, xususan, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi keskin tarzda kamayib, fermer xo‘jaliklari salmog‘i, aksincha, bir necha barobar o‘sdi. Bu jarayonlar, asosan, dehqonchilikda rivojlandi. 2010-yildan keyingi davrda esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tarkibida katta siljishlar ro‘y bermadi. Bu davrdagi asosiy tendensiya qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushining o‘sib borayotganligidan iborat. Lekin taqsimlanishning umumiy ko‘rinishi ham dehqonchilik, ham chorvachilikda deyarli o‘zgarmagan (26-jadval).


26-jadval

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarkibida turli toifadagi xo‘jaliklar salmog‘ining o‘zgarishi (2000-2022-yy., jamiga nisbatan %)

Xo‘jalik toifalari	2000	2005	2010	2015	2020	2022
Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti						
Fermer xo‘jaliklari	5,5	24,3	36,3	30,7	28,2	31,4
Dehqon xo‘jaliklari	66,7	61,7	61,6	66,9	67,4	62,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27,8	14,0	2,1	2,4	4,4	6,4
Dehqonchilik mahsuloti						
Fermer xo‘jaliklari	9,7	41,6	59,1	52,0	52,0	55,3
Dehqon xo‘jaliklari	43,9	37,1	39,4	46,2	42,3	36,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	46,4	21,3	1,5	1,8	5,7	8,5
Chorvachilik mahsuloti						
Fermer xo‘jaliklari	1,3	2,7	3,9	4,0	4,9	5,8
Dehqon xo‘jaliklari	89,7	92,6	93,1	92,9	92,0	90,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,0	4,7	3,0	3,1	3,1	4,0

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ta’kidlash lozimki, 2022-yil holatiga ko‘ra, barcha hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklari ustuvor ahamiyatga ega. Lekin ularning tarmoqdagi ulushi 50,3 % dan (Sirdaryo viloyati) 70,8 % gacha (Navoiy viloyati) o‘zgaradi. Fermer xo‘jaliklarning agrar sohadagi ulushi, o‘z navbatda, 17,0 % dan (Toshkent viloyati) 39,5 % gacha (Samarqand va Farg‘ona viloyatlari), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar salmog‘i esa 3,2 % dan (Samarqand viloyati) 16,0 % gacha (Sirdaryo viloyati) qiymatga ega (26-rasm).



26-rasm. O‘zbekiston hududlarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibida turli toifadagi xo‘jaliklarning ulushi (2022-y., %)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining hududiy tarkibi va ixtisoslashuv tiplari. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish

hajmi bo‘yicha, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, Samarqand, Andijon, va Buxoro viloyatlari yetakchi, Navoiy, Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi esa so‘nggi o‘rinlarni egallagan. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi bo‘yicha Samarqand, Andijon va Farg‘ona viloyatlari, chorvachilik mahsulotlarini yetkazishda Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Ham dehqonchilik, ham chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi eng past ulush Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo va Navoiy viloyatlariga tegishli.

27-jadval

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning hududiy tarkibi (2022-yil ma’lumotlari bo‘yicha)

№	Hududlar	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi, %	Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi, %	Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi, %
1	Qoraqalpog‘iston Resp.	3,9	3,7	4,0
viloyatlar:				
2	Andijon	10,3	12,6	7,8
3	Buxoro	9,6	9,6	9,6
4	Jizzax	6,6	5,3	8,1
5	Qashqadaryo	9,3	7,3	11,4
6	Navoiy	4,4	3,0	5,9
7	Namangan	7,2	8,1	6,2
8	Samarqand	12,0	12,6	11,4
9	Surxondaryo	7,9	8,2	7,6
10	Sirdaryo	3,3	3,8	2,8
11	Toshkent	9,5	9,0	9,9
12	Farg‘ona	9,3	10,8	7,8
13	Xorazm	6,7	6,0	7,5

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Respublika qishloq xo‘jaligining hududiy tarkibida 2010-2022-yillarda muayyan siljishlar ro‘y bergan. Ko‘rilayotgan davr mobaynida tarmoqning hududiy tarkibida Sirdaryo, Toshkent va, ayniqsa, Samarqand viloyatlarining ulushi tushib ketib, Navoiy viloyatining salmog‘i o‘zgarmadi, qolgan barcha hududlarning salmoqlari esa ko‘tarildi (28-jadval).

O‘zbekiston hududida odatda, quyidagi 4 ta qishloq xo‘jaligi mintaqasi ajratiladi: sug‘oriladigan dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik, cho’l-yaylov chorvachiligi va tog‘oldi-tog‘-yaylov chorvachiligi mintaqalari.

28-jadval

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi hududiy tarkibining o‘zgarishi (2010-2022-yy., %)


Hududlar	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3,2	3,3	3,9	3,9
viloyatlar:				
Andijon	9,2	9,8	10,4	10,3
Buxoro	7,9	8,3	9,5	9,6
Jizzax	5,6	5,7	6,5	6,6
Qashqadaryo	8,9	9,1	9,5	9,3
Navoiy	4,4	4,2	4,5	4,4
Namangan	6,2	7,0	7,2	7,2
Samarqand	17,4	14,4	12,9	12,0
Surxondaryo	7,4	8,3	7,8	7,9
Sirdaryo	3,5	3,6	3,2	3,3
Toshkent	11,7	10,8	9,5	9,5
Farg‘ona	8,3	9,2	8,6	9,3
Xorazm	6,3	6,2	6,5	6,7

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Sug‘oriladigan ekin yerlar, asosan, tekislik va tog‘oldi hududlarda, daryo vodiylari va deltalarida keng tarqalgan. Bu toifadagi yerlarda ko‘p tarmoqli dehqonchilik bilan birgalikda chorvachilikning sut-go‘sht qoramolchiligi, ipakchilik va parrandachilik kabi tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Sug‘oriladigan dehqonchilik mintaqasi O‘zbekistonning barcha ma’muriy-hududiy birliklarini qamrab olgan.

Lalmikor ekin yerlar kam suvli tog‘oldi va past tog‘li hududlarda shakllangan. Eng ko‘p lalmikor yerlar Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida joylashgan. Shuningdek, ular Toshkent, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida ham mavjud. Respublikaning boshqa hududlarida lalmikor yerlar yo‘q. Lalmikor yerlarda, asosan, bug‘doy, arpa, dukkakli ekinlar, poliz ekinlari yetishtiriladi. Chorvachilik tarmoqlaridan bu mintaqada qo‘ychilik va echkichilik, g‘osht-sut qoramolchiligi rivojlangan. Hozirgi vaqtda lalmikor dehqonchiligi mintaqasida nasoslar bilan suvni ko‘tarish, tomchilatib sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish hisobiga sug‘oriladigan yerlar maydoni kengaymoqda.

Cho‘l-yaylov chorvachiligi mintaqasi O‘zbekistonning tekislik qismidagi keng cho‘llarni qamrab oladi. Bu yerda qo‘ychilik, jumladan, qorako‘lchilik, echkichilik, tuyachilik va yilqichilik muhim ahamiyatga ega. Cho‘l yaylovlari, asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida joylashgan.



27-rasm. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 20-21.

Tog‘oldi-tog‘-yaylov chorvachiligi mintaqasi adir va tog‘ hududlarini qamrab oladi. Bu mintaqada chorvachilikning qo‘ychilik, echkichilik, go‘sht-sut qoramolchiligi, yilqichilik va asalarichilik singari tarmoqlari bilan birgalikda daryo va soy vodiylaridagi sug‘oriladigan va lalmikor yerlarda bog‘dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan. Bu mintaqa Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Toshkent va Namangan viloyatlarida katta maydonlarni egallaydi.

Ushbu 4 ta qishloq xo‘jaligi mintaqalari doirasida qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvining quyidagi 6 ta tipi ajratiladi:

1) Sug‘oriladigan yerlarda paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, polizchilik, ipakchilik, sut-go‘sht qoramolchiligi;

2) Sug‘oriladigan yerlarda paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, ipakchilik, sut-go‘sht qoramolchiligi, parrandachilik;

3) Sug‘oriladigan yerlarda sabzavotchilik, donchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, sut-go‘sht qoramolchiligi, parrandachilik;

4) Lalmikor va sug‘oriladigan yerlarda donchilik (bug‘doy, arpa, dukkakli ekinlar), bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, polizchilik, go‘sht-jun qo‘ychiligi, echkichilik, go‘sht-sut qoramolchiligi;

5) Cho‘l-yaylov chorvachigi (qorako‘lchilik, tuyachilik, yilqichilik), suv havzalaridagi baliqchilik bilan;

6) Tog‘oldi-tog‘-yaylov chorvachiligi (go‘sht-jun qo‘ychiligi, echkichilik, sut-go‘sht qoramolchiligi), bog‘dorchilik va uzumchilik bilan (27-rasm).

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekistonning qaysi hududlarida qishloq xo‘jaligining YaHMdagi ulushi eng yuqori, qaysilarida esa eng past?

2. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yerlarining qaysi toifalari mavjud? Mamlakatimiz hududlari qishloq xo‘jaligi yerlari fondining tarkibi jihatidan farqlanishini izohlang.

3. So‘nggi yillarda respublikamiz qishloq xo‘jaligi tarkibida dehqonchilik va chorvachilikning nisbati qanday o‘zgarib bormoqda?

4. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida qanday toifadagi xo‘jaliklar mavjud? Ularning dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushi qanday farqlanadi?

5. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining hududiy tarkibida qaysi hududlarning ulushi alohida ajralib turadi?

6. Mamlakatimizda qanday qishloq xo‘jaligi mintaqalari va ixtisoslashuv tiplari ajratiladi?

Test savollari

1. Qaysi viloyat respublikada ekin yerlar maydoni bo‘yicha 1-o‘rin egallaydi?
A) Jizzax viloyati
B) Qashqadaryo viloyati
C) Navoiy viloyati
D) Buxoro viloyati

2. Quyidagi viloyatlarning qaysi birida yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibida dehqonchilikning ulushi chorvachilik ulushiga nisbatan yuqori?
A) Qashqadaryo viloyati
B) Navoiy viloyati
C) Farg‘ona viloyati
D) Jizzax viloyati

3. Quyidagi ekinlardan qaysi biri lalmikor yerlarda ko‘p yetishtiriladi?
A) Paxta
B) Sholi
C) Kartoshka
D) Arpa

4. Quyidagi viloyatlardan qaysi birining respublika qishloq xo‘jaligi hududiy tarkibidagi salmog‘i 2010-2022-yillar oralig‘ida kamaydi?
A) Toshkent viloyati
B) Andijon viloyati
C) Jizzax viloyati
D) Namangan viloyati

5. Qaysi viloyatda tog‘oldi-tog‘-yaylov chorvachiligi mintaqasi katta maydon egallaydi?
A) Sirdaryo viloyati
B) Andijon viloyati
C) Surxondaryo viloyati
D) Buxoro viloyati

11-§. Dehqonchilik geografiyasi

Dehqonchilik tarmoqlari. Dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar tarkibi. O‘zbekiston dehqonchiligida jami yetishtirilgan mahsulot hajmi 2022-yilda 179,9 trln so‘mga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 103,8 % ga, 2010-yilga qaraganda esa 155 % ga o‘sgan.

O‘zbekiston dehqonchiligining asosiy tarmoqlari qatoriga donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik, kartoshkachilik, polizchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va ozuqa ekinlarini yetishtirish kabi tarmoqlar mansub. Bog‘dorchilik va uzumchilikda foydalaniladigan yerlar ko‘p yillik daraxtzorlar toifasiga kirsa, qolgan dehqonchilik tarmoqlarida foydalaniladigan yerlar ekin yerlar hisoblanadi.

O‘zbekistonda jami qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydon 2022-yil holatiga ko‘ra, 3353,3 ming gektarga teng. Ekin maydonlarining tarkibida eng katta ulush don ekinlariga tegishli bo‘lib, 46,8 % ni tashkil etadi. Jumladan, bug‘doy ekilgan yerlarning ulushi 38,3 % ga teng. Texnik ekinlar jami ekin maydonlarining 32,9 % qismiga ekilgan. Ularning asosiy qismini tashkil etgan paxtaning jami ekin maydonlaridagi ulushi 31,3 % ni tashkil etdi. Respublikadagi barcha ekin maydonlari tarkibida kartoshka, sabzavot va poliz ekinlariga umumiy hisobda 12,6 %, ozuqa ekinlariga esa 7,7 % to‘g‘ri keladi (29-jadval).

29-jadval


O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydonlarining tarkibi

Qishloq xo‘jaligi ekinlari	2010-y.		2022-y.	
	ming ga	%	ming ga	%
Don ekinlari	1679,4	45,3	1567,3	46,8
shu jumladan, bug‘doy	1450,4	39,1	1283,5	38,3
Sholi	78,5	2,1	51,4	1,5
Texnika ekinlari	1417,0	38,2	1104,3	32,9
shu jumladan, paxta	1342,5	36,2	1048,5	31,3
Kartoshka	70,7	1,9	110,9	3,3
Sabzavot	173,0	4,7	240,5	7,2
Poliz	47,9	1,3	71,8	2,1
Ozuqa ekinlari	320,4	8,6	285,4	7,7
Jami	3708,4	100,0	3353,3	100,0

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018)” (Toshkent, 2019) va “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi (2019-2022)” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamlardagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

O‘zbekistondagi jami qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydon 2022-yilga kelib 2010-yilga nisbatan 355,1 ming gektarga, ya’ni 9,6 % ga qisqargan. O‘tgan davr mobaynida ekin maydonlari tarkibida ham ma’lum darajadagi o‘zgarishlar ro‘y bergan. Bu o‘zgarishlar, asosan,

paxta ekilgan yerlarning maydoni va ulushining qisqarib borishi, don ekinlarining maydoni qisqarayotgan holda, ularning jami ekin maydonidagi ulushi ortib borishi, kartoshka, sabzavot hamda poliz ekinlarining maydoni va ulushining ko‘payishidan iborat. Sholi va ozuqa ekinlarining maydoni va ulushi kamayganini ham ko‘rish mumkin.



28-rasm. O‘zbekistondagi qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydonlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi (ming ga va %, 2022-y.)

Rasm mualliflar tomonidan “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2019-2022” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamdagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Ekin maydonlarining kattaligi jihatidan Qashqadaryo (O‘zbekistondagi jami ekin yerlarining 12,5 % i), Jizzax (11,6 %) va Samarqand (9,9 %) viloyatlari alohida ajralib turadi. Navoiy viloyati esa respublikadagi ekin maydonlarning hududiy tarkibidagi eng kichik ulushi (2,6 %) bilan boshqa hududlardan keskin ajralib turadi (28-rasm).

Dehqonchilikda foydalaniladagian yerlarga meva va rezavorlar hamda tokzorlar (uzumzorlar) kiradi. Meva va rezavorlarning umumiy maydoni 2010-2022-yillar oralig‘ida 253,3 ming gektardan 351,8 ming gektargacha (38,9 % ga) kengaytirildi. Tokzor maydoni shu vaqtning o‘zida 7,0 % ga ko‘paydi: 2010-yilda – 127,9 ming ga, 2022-yilda – 136,8 ming ga.

Don xo‘jaligi. O‘zbekistonda, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, don ekinlarining yalpi hosili 7990,5 ming tonnaga teng bo‘lgan. Uning 78,5 % ini (6270,1 ming t) bug‘doy tashkil etgan. Bundan tashqari,

respublikada ko‘rilayotgan yilda 359,1 ming tonna sholi, 656,4 ming tonna makkajo‘xori, 469,5 ming tonna dukkakli ekinlar, 123,4 ming tonna arpa, 112 ming tonna boshqa don ekinlari yig‘ib olindi. So‘nggi yillarda bug‘doy yalpi hosilida katta o‘zgarishlar kuzatilmayapti, lekin makkajo‘xori va dukkakli ekinlar yalpi hosili 2017-yildan buyon yuqori sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Tegishli davr mobaynida makkajo‘xori yalpi hosili 1,7 barobar, dukkakli ekinlar hosili esa 2,2 barobar ortgan.

Don ekinlari, ayniqsa, bug‘doy yetishtirishda fermer xo‘jaliklari alohida o‘rin tutadi. Fermer xo‘jaliklariga 2022-yildagi don ekinlari yalpi hosilining 78,8 % i, dehqon xo‘jaliklariga 9,7 % i, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga 11,5 % i to‘g‘ri keldi.


Don ekinlari yalpi hosilining hududiy tarkibida Farg‘ona (10,8 %), Samarqand (10,5 %), Qashqadaryo (9,7 %), Andijon (8,8 %) va Jizzax (8,7 %) viloyatlari yetakchi ko‘rsatkichlarga ega. Navoiy viloyati (3,1 %) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,6 %) bu borada so‘nggi o‘rinlarda turadi.

Bug‘doy barcha hududlarda don ekinlari jami ekilgan maydoni va yalpi hosilining asosiy qismini tashkil etadi. Boshqa don ekinlarining joylashuvida yaqqol hududiy tafovutlar mavjud. Jumladan, arpa ekin maydonlarining 90 % idan ortiq qismi Jizzax, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida mujassamlashgan bo‘lib, eng katta maydoni (60 % idan ko‘proq) Jizzax viloyatiga to‘g‘ri keladi. Ta’kidlash lozimki, bu ekin, asosan, lalmikor yerlarda yetishtiriladi. Sholi ekin maydonlari bo‘yicha Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi yaqqol ustunlikka ega. Bu ikkita hududga umumiy hisobdagi respublika bo‘yicha sholi ekilgan maydonlarning salkam 2/3 qismi to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, Toshkent, Andijon, Sirdaryo va Namangan viloyatlarida nisbatan ko‘p sholi yetishtiriladi. Makkajo‘xori ekin maydonlari bo‘yicha Toshkent, Jizzax va Andijon viloyatlari yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Dukkakli ekinlar ekin maydonlari bo‘yicha esa Jizzax viloyati yaqqol yetakchilikka ega. Uning bu boradagi ulushi 30 % ga yaqin. Shuningdek, Samarqand, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari ham dukkakli ekinlar yetishtirishda boshqa hududlarga qaraganda yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Paxtachilik. Ma’lumki, Mustaqillik davrigacha paxtachilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining asosiy ixtisoslashgan tarmog‘i bo‘lgan. Paxta ekilgan maydonlar 1990-yilda respublika bo‘yicha 1996 ming gektarga teng bo‘lib, jami qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydonlarning 47,5 % ini egallagan. Mustaqillikning dastlabki yillaridayo‘q paxta yakkahokimligiga barham berish hamda oziq-ovqat

xavfsizligini ta'minlash maqsadida paxta maydonlari keskin qisqartirilib, uning evaziga don, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari maydonlari kengaytirildi. Bu jarayon muayyan miqyosda hozirga vaqtda ham davom etmoqda. Xususan, respublika bo'yicha jami paxta ekilgan ekin maydoni, 2022-yil holatiga ko'ra, 1048,5 ming gektarga teng bo'lib, 2010-yilga nisbatan 294,0 ming gektar (21,9 %) ga qisqargan.

O'zbekistonda 2022-yilda 3500,7 ming tonna paxta xomashyosi yig'ib olindi. Bu ko'rsatkich 2018-yil bilan taqqoslaganda, 1215,1 ming tonna (56,3 %) ga ko'paygan. O'zbekiston jahon mamlakatlari orasida paxta tolasini yetishtirish bo'yicha Xitoy, Hindiston, AQSH, Pokiston va Braziliyadan keyingi 6-o'rinda turadi.



29-rasm. Paxta ekilgan maydon (a) va yalpi hosili (b) ning hududiy tarkibi (2022-y.)

Rasm mualliflar tomonidan "O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2019-2022" (Toshkent, 2023) statistik to'plamdagi ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Paxta yetishtirishda fermer xo'jaliklari yetakchi ahamiyatga ega. Xususan, 2022-yilda jami yig'ib olingan paxtaning 72,5 % i fermer xo'jaliklari, 27,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan. Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda respublika paxtachiligida qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning mavqei o'sib bormoqda. Bu jarayonni mamlakatimizda agroklasterlarning rivojlanishi bilan bog'lash mumkin.

Paxta ekilgan maydon kattaligi bo'yicha Qashqadaryo (respublikadagi jami paxta ekilgan yerlarning 12,6 % i), Buxoro (9,4 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (10,4 %) yetakchilik qiladi. Paxtaning eng kam ekin maydonlari Navoiy viloyatida (2,9 %) qayd etilgan (29-a-rasm). Paxta yalpi hosili bo'yicha yetakchi hududlar qatoriga Qashqadaryo (12,2 %) va Buxoro (10,3 %) viloyatlari kiradi. Navoiy viloyatiga respublikada yig'ilgan paxta hosilining atigi 3,3 % i to'g'ri kelgan (2022-y., 29-b-rasm). Andijon va Farg'ona viloyatlarining paxta yalpi hosilidagi ulushi uning ekin maydonlaridagi salmog'idan sezilarli darajada yuqori. Bu holat tegishli hududlarda paxta hosildorligining nisbatan yuqori darajasidan dalolat beradi.


Kartoshkachilik. O'zbekistonda 2022-yilda kartoshkaning yalpi hosili 3441,7 ming tonnani tashkil etgan bo'lib, 2010-yil bilan taqqoslaganda, bu ko'rsatkich 1746,9 ming tonnaga, ya'ni 104 % ga (2,04 barobar) ko'paydi.

Kartoshkani yetishtirishda yetakchi ahamiyat dehqon xo'jaliklarga tegishli. Bu toifadagi xo'jaliklarga, 2022-yil holatiga ko'ra, kartoshka yalpi hosilining 72,2 % i to'g'ri kelgan. Fermer xo'jaliklarining kartoshka yalpi hosilidagi ulushi esa 25,9 % ga teng. Kartoshka yalpi hosilining 1,9 % qismi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga tegishli. So'nggi yillarda tarmoqdagi fermer xo'jaliklarining ulushi sezilarli darajada oshgan (masalan, 2018-yilda fermer xo'jaliklarida jami kartoshka hosilining 10,9 % ini yetishtirilgan).

Kartoshkaning yalpi hosili bo'yicha Samarqand (718,6 ming tonna; 20,9 %), Andijon (418,2 ming tonna; 12,2 %), Toshkent (375,1 ming tonna; 10,9 %), Farg'ona (360,1 ming tonna; 10,5 %) va Surxondaryo (350,5 ming tonna; 10,2 %) viloyatlari yetakchi o'rinlarni egallagan. Tumanlar kesimida olganda, respublika miqyosida kartoshka yalpi hosili bo'yicha Samarqand viloyatining Bulung'ur, Urgut, Toyloq va Payariq tumanlari alohida ajralib turadi. Kartoshkaning eng kam yalpi hosili esa Sirdaryo (66,4 ming tonna; 1,9 %) va Navoiy (85,6 ming tonna; 2,5 %)

viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (90,6 ming tonna; 2,6 %) yig‘ib olingan.

Sabzavotchlik. Mamlakatimizda 2022-yilda sabzavotning yalpi hosili 11163 ming tonnaga teng bo‘lib, 2010-yilga nisbatan, 4900,6 ming tonnaga, ya’ni 78 % ga oshdi. Sabzavot yalpi hosili tarkibida eng katta ulush sabzi, pomidor, piyoz, bodring va karamga to‘g‘ri keladi (30-rasm). Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston bodring, karam, sarimsoq yalpi hosili bo‘yicha jahon davlatlarining birinchi o‘ntaligiga kiradi.



30-rasm. O‘zbekistondagi sabzavot yalpi hosilining tarkibida turli sabzavotlarning ulushi (2022-y.)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Sabzavotni yetishtirishda kartoshkachilik singari, asosiy ulush dehqon xo‘jaliklariga tegishli. Ularning, 2022-yil holatiga ko‘ra, jami sabzavot yalpi hosilidagi ulushi 60,6 % ga teng. Fermer xo‘jaliklariga sabzavot yalpi hosilining 36,4 % qismi to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, sabzavot yalpi hosilining 3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga tegishli. Bu tarmoqda ham fermer xo‘jaliklarining hissasi so‘nggi yillarda ancha o‘sdi (2018-2022-yillar oralig‘ida 24,2 % dan 36,4 % gacha ko‘tarildi).

Sabzavotning yalpi hosili bo‘yicha Andijon (1708,2 ming tonna; 15,3 %), Samarqand (1665,9 ming tonna; 14,9 %), Farg‘ona (1227,6 ming tonna; 11 %), Surxondaryo (1143,8 ming tonna; 10,3 %) va Toshkent

(1069,2 ming tonna; 9,6 %) viloyatlari yetakchi o‘rinlarni egallaydi. So‘nggi yillarda tarmoqdagi ulushi jihatidan Surxondaryo, Farg‘ona va, ayniqsa, Andijon viloyatlari oldinga siljidi, Toshkent viloyati esa, aksincha, o‘z mavqeini biroz pasaytirdi. Tumanlardan respublika miqyosida sabzavot yetishtirishda Samarqand viloyatining Bulung‘ur va Kattaqo‘rg‘on tumanlari sezilarli ustunlik bilan peshqadam o‘rinlarda turadi. Eng kam sabzavot Navoiy (320,2 ming tonna; 2,9 %), Sirdaryo (293,6 ming tonna; 2,6 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (314,6 ming tonna; 2,8 %) yetishtirilgan.

Polizchilik. Respublikada poliz ekinlari yalpi hosili 2022-yilda 2420,7 ming tonnaga teng bo‘lib, 2010-yilga nisbatan, 1238,3 ming tonnaga, ya’ni 104 % ga (2,04 barobar) oshdi. E’tirof etish lozimki, tarvuz yetishtirishda O‘zbekiston jahondagi peshqadam davlatlardan biri bo‘lib, ayrim yillarda tegishli reytingda 5-o‘ringacha ko‘tarilgan.

O‘zbekiston bo‘yicha, 2022-yil holatiga ko‘ra, poliz ekinlari yalpi hosilida fermer xo‘jaliklarining ulushi 53,3 %, dehqon xo‘jaliklarining ulushi 42,9 %, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi esa 3,8 % ni tashkil etgan. So‘nggi yillarda tarmoqda fermer xo‘jaliklari ustuvor ahamiyatga ega bo‘ldi, dehqon xo‘jaliklari hissasi esa 1,5 barobar pasaydi (2018-yilda dehqon xo‘jaliklari poliz ekinlari jami hosilining 60 % dan ko‘proq qismini ta’minlagan).

Poliz ekinlarining yalpi hosili bo‘yicha Surxondaryo (329,1 ming tonna; 13,6 %), Jizzax (280,7 ming tonna; 11,6 %) va Sirdaryo (278,8 ming tonna; 11,5 %) viloyatlari yetakchi o‘rinlarda turadi. So‘nggi yillarda Surxondaryo viloyatining tarmoqdagi salmog‘i sezilarli darajada o‘sgan. Bu borada so‘nggi o‘rinlarni Toshkent (65,4 ming tonna; 2,7 %), Navoiy (100,5 ming tonna; 4,1 %), Namangan (127,7 ming tonna; 5,3 %) viloyatlari egallaydi. Tumanlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkichlar Sirdaryo viloyatining Xovos, Jizzax viloyatining Zarbdor va Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanlariga tegishli.

Bog‘dorchilik va uzumchilik. Bog‘dorchilik va uzumchilik O‘zbekiston dehqonchiligining asosiy eksportbop tarmoqlari qatoriga kiradi. O‘zbekistonda 2022-yilda meva va rezavorlarning yalpi hosili 2983,5 ming tonnaga teng bo‘lib, 2010-yilga nisbatan, 1307,2 ming tonnaga, ya’ni 78 % ga oshdi. Uzumning yalpi hosili esa 1760,6 ming tonnani tashkil etib, 2010-yil bilan taqqoslaganda, 781,3 ming tonnaga (80 % ga) ko‘paygan. Yig‘ib olingan meva va rezavor tarkibida olma (1313,2 ming tonna), o‘rik (451,3 ming tonna), gilos (216,9 ming tonna),

shaftoli (211,8 ming tonna) va olxo'ri (177,6 ming tonna) yetakchilik qilgan. E'tirof etish kerakki, o'rikning yalpi hosili bo'yicha mamlakatimiz jahonda Turkiyadan keyingi 2-o'rinda turadi. Shuningdek, gilos, shaftoli, olma, xurmo, anjir kabi mevalarning hosili va eksporti bo'yicha ham respublikamiz jahon bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiradi.

O'zbekistonda, 2022-yil holatiga ko'ra, meva va rezavorlarning yalpi hosilida dehqon xo'jaliklarining salmog'i 53,5 %, fermer xo'jaliklarining ulushi 43,2 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi esa 3,5 % ni tashkil etadi. Uzum yalpi hosilining 52,3 % qismi dehqon xo'jaliklarida, 45,2 % qismi fermer xo'jaliklarida, 2,5 % i esa qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida yetishtirildi. Bog'dorchilik va uzumchilikda dehqonchilikning boshqa tarmoqlari singari fermer xo'jaliklarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Hududlar orasida, 2022-yil ma'lumotlariga asosan, bog'larning maydoni bo'yicha Farg'ona (55,8 ming ga; 15,9 %), Surxondaryo (52,3 ming ga; 14,9 %), Samarqand (43,3 ming ga; 12,3 %), Toshkent (34,7 ming ga; 9,9 %), Andijon (31,9 ming ga; 9,1 %) va Namangan (31,6 ming ga; 9,1 %) viloyatlari alohida ajralib turadi. Bu borada eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyati (7,3 ming ga; 2,1 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (7,1 ming ga; 2,1 %) ga tegishli.

Meva va rezavorlarning yalpi hosili bo'yicha 2022-yilda Andijon (681,7 ming tonna; 22,9 %), Farg'ona (383,4 ming tonna; 12,9 %), Samarqand (368,9 ming tonna; 12,4 %), Namangan (328,2 ming tonna; 11,0 %) va Buxoro (289,7 ming tonna; 9,7 %) viloyatlari yetakchi o'rinlarda turadi. Tumanlar kesimida olganda, respublika bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on, Andijon viloyatining Asaka va Jalaquduq tumanlariga tegishli. Mamlakatda yetishtirilgan jami meva va rezavorlarda Sirdaryo viloyatiga 1,4 %, Qoraqalpog'iston Respublikasiga esa 2,2 % igina to'g'ri keladi.

Uzumzorlarning maydoni bo'yicha, 2022-yil holatiga ko'ra, Samarqand viloyati (48,5 ming ga; 35,4 %) keskin ajralib turadi. Toshkent (16,2 ming ga; 11,8 %) va Surxondaryo (11,3 ming ga; 8,3 %) viloyatlari, mos ravishda, 2- va 3-o'rinlarni egallaydi. Tokzorlar maydoni jihatidan so'nggi o'rinlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi (1,8 ming ga; 1,3 %), Sirdaryo (1,4 ming ga; 1,0 %), Xorazm (3,5 ming ga; 2,6 %) va Andijon (3,3 ming ga; 2,4 %) viloyatlari turadi.

O'zbekiston hududlari orasida uzumning yalpi hosili bo'yicha, tabiiy holki, Samarqand viloyati alohida ajralib turadi. Bu mintaqada

2022-yilda 625,4 ming tonna uzum (mamlakat bo'yicha yalpi hosilning 35,5 %) yetishtirildi. Boshqa hududlardan Buxoro (218,7 ming tonna; 12,4 %) va Farg'ona (184 ming tonna; 10,4 %) viloyatlari nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega. O'zbekiston tumanlari orasida uzum yalpi hosili bo'yicha Samarqand viloyatining Ishtixon va Urgut tumanlari alohida ajralib turadi. Uzumning yalpi hosili eng past bo'lgan hududlar qatoriga Sirdaryo viloyati (14,4 ming tonna; 0,8 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasini (11,5 ming tonna; 0,7 %) kiritish mumkin.

Dehqonchilikning hududiy xususiyatlari. O'zbekiston dehqonchiligi ixtisoslashuvida muayyan hududiy tafovutlar mavjud. Bu tafovutlarga agroiqlim, yer-suv resurslari, aholining xo'jalik ko'nikmalari, tashqi va ichki bozor talabi kabi omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tekisliklarda paxta, bug'doy, sabzavot va poliz ekinlari ko'proq yetishtirilsa, tog'oldi-tog' hududlari hamda yirik shaharlar (ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Namangan shaharlari) atrofida, paxta ekin maydonlari keskin kamaygan holda, sabzavotchilik, kartoshkachilik, bog'dorchilik va uzumchilik katta ahamiyat kasb etadi.

30-jadval

O'zbekiston hududlarida qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan maydonlarining tarkibi (2022-y., %)

Hududlar	Don ekinlari	Paxta	Boshqa texnika ekinlari	Kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari	Ozuqa ekinlari
O'zbekiston Respublikasi	46,7	31,3	1,7	12,6	7,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	36,5	38,4	5,9	13,1	6,0
viloyatlar:					
Andijon	41,7	35,5	0,8	16,1	6,0
Buxoro	32,1	41,2	0,6	14,6	11,5
Jizzax	58,5	22,0	2,6	9,0	7,9
Qashqadaryo	53,5	31,5	0,9	7,8	6,3
Navoiy	47,5	34,2	0,8	12,1	5,5
Namangan	46,4	35,3	1,3	12,5	4,5
Samarqand	54,0	20,8	2,1	18,0	5,1
Surxondaryo	44,0	29,4	0,7	14,1	11,8
Sirdaryo	49,3	34,4	0,9	8,2	7,2
Toshkent	49,0	24,5	1,8	13,1	11,7
Farg'ona	45,3	32,0	0,3	16,7	5,7
Xorazm	34,6	42,6	1,2	11,8	9,8

Jadval mualliflar tomonidan "O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2019-2022" (Toshkent, 2023) statistik to'plamdagi ma'lumotlar asosida tuzilgan

Dehqonchilikning ba'zi tarmoqlarida ayrim hududlarning yaqqol ustunligi ko'zga tashlanadi. Masalan, sholi yetishtirishda Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi, kartoshkachilik va uzumchilikda Samarqand viloyati, bog'dorchilikda Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyati katta ustuvorlik bilan yetakchi o'rinlarda turadi.

Respublika hududlarida dehqonchilik ixtisoslashuvining ayrim xususiyatlarini ekin maydonlari tarkibiga qarab ham aniqlash mumkin (30-jadval). Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Xorazm viloyatlarining bu borada o'ziga xos xususiyati paxta ekilgan maydonlarning don ekinlari ekilgan maydonlardan ko'pligi. Bunday holat boshqa hech qaysi hududda kuzatilmaydi. Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlari don ekinlari ekilgan maydonlarning juda yuqori ulushi bilan ajralib turadi. Bu holat, albatta, ushbu viloyatlarda lalmikor yerlarning nisbatan ko'pligi bilan bog'liq. Aholisi zich joylashgan, yuqori urbanizatsiyalashgan, tog'oldi relyefli Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlarida kartoshka va sabzavot ekinlarining ulushi boshqa hududlarga qaraganda birmuncha yuqori. Toshkent, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari boshqa hududlarga nisbatan ozuqa ekinlari salmog'ining birmuncha kattaligi bilan ajralib turibdi.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston dehqonchiligining asosiy tarmoqlarini sanab bering.
2. Respublikamizda qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan maydonlarning tarkibida qanday ekinlar asosiy o'rin tutadi? Mamlakatimizda so'nggi yillarda ekin maydonlarining tarkibida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tushuntiring.
3. Dehqonchilikning qaysi tarmoqlarida fermer xo'jaliklari, qaysilarida esa dehqon xo'jaliklari ustuvor ahamiyatga ega? Bu borada O'zbekiston dehqonchiligida qanday tarkibiy siljishlar ro'y bermoqda?
4. O'zbekistonda turli don ekinlarining joylashuvida qanday xususiyatlar mavjud?
5. Mamlakatimiz jahon miqyosida qaysi sabzavot, meva va poliz ekinlarining yalpi hosili bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiradi?
6. O'zbekiston sharoitida dehqonchilikning ixtisoslashuviga qanday omillar katta ta'sir ko'rsatadi?
7. Samarqand viloyati O'zbekistonda qaysi dehqonchilik tarmoqlarida alohida ajralib turadigan mavqega ega?
8. Farg'ona vodiysi viloyatlari dehqonchilik ixtisoslashuvi borasida qanday xususiyatlarga ega?

Test savollari

1. O'zbekistonda 2010-2022-yillar oralig'ida qaysi ekinning ekiladigan maydoni qisqardi?
A) Sholi
B) Kartoshka
C) Sabzavot ekinlari
D) Poliz ekinlari

2. O'zbekistondagi jami arpa ekin maydonlarining 60 % idan ko'proq qismi qaysi viloyat hissasiga to'g'ri keladi?
A) Surxondaryo viloyati
B) Jizzax viloyati
C) Samarqand viloyati
D) Xorazm viloyati

3. O'zbekistonda kartoshkaning yalpi hosili bo'yicha qaysi viloyat 1-o'rinda turadi?
A) Buxoro viloyati
B) Andijon viloyati
C) Toshkent viloyati
D) Samarqand viloyati

4. Ushbu tumanlardan qaysi biri poliz ekinlarining yalpi hosili bilan alohida ajralib turadi?
A) Pop tumani
B) Xovos tumani
C) Koson tumani
D) Gurlan tumani

5. Quyidagi viloyatlardan qaysi birida paxta don ekinlaridan ko'ra ko'proq maydonda ekiladi (2022-y.)?
A) Samarqand viloyati
B) Qashqadaryo viloyati
C) Jizzax viloyati
D) Buxoro viloyati

12-§. Chorvachilik geografiyasi

O‘zbekiston chorvachiligining yalpi mahsuloti, uning dinamikasi va hududiy tarkibi. Chorvachilik go‘sht, sut, tuxum, jun, qorako‘l terilari, pilla, charm, asal kabi muhim mahsulotlarni aholi iste‘moli va sanoat uchun yetkazadi. O‘zbekistonda chorvachilikning asosiy tarmoqlari bo‘lib, qoramolchilik, qo‘ychilik (jumladan, qorako’lchilik), echkichilik, parrandachilik, ipakchilik, asalarichilik, yilqichilik, tuyachilik hisoblanadi.

O‘zbekistonda 2022-yilda 167,7 trln so‘mlik chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarildi. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 103,4 % ga, 2010-yilga nisbatan esa 185,6 % ga o‘sgan. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 2010-2022-yillar oralig‘ida o‘rtacha yillik hisobda 105,3 % ga o‘sib borgan.

Chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarish tarkibida dehqon xo‘jaliklari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, bu toifadagi xo‘jaliklar 2022-yilda mamlakat chorvachilik mahsulotining 90,2 % ini ishlab chiqarishini ta’minlagan. Fermer xo‘jaliklarining tarmoqdagi ulushi 5,8 % ni, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning hissasi esa 4,0 % ni tashkil etgan. Ta’kidlash lozimki, chorvachilik mahsulotining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi 2000-yildan buyon hozirgi vaqtgacha deyarli o‘zgarmagan. Demak, O‘zbekiston chorvachiligida yirik xo‘jaliklar yaxshi rivojlanmagan.

31-jadval

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi (%)

Hududlar	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3,5	3,8	4,1	4,0
viloyatlar:				
Andijon	6,8	7,7	7,4	7,8
Buxoro	9,2	8,8	9,7	9,6
Jizzax	6,4	7,5	7,8	8,1
Qashqadaryo	9,6	11,3	11,4	11,4
Navoiy	5,6	5,7	5,8	5,9
Namangan	6,9	6,1	6,3	6,2
Samarqand	12,5	12,2	11,9	11,4
Surxondaryo	8,1	7,5	7,7	7,6
Sirdaryo	3,2	2,9	2,9	2,8
Toshkent	13,2	11,3	10,5	9,9
Farg‘ona	7,1	8,1	7,4	7,8
Xorazm	7,8	7,0	7,1	7,5

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Respublika hududlaridan, 2022-yil holatiga ko‘ra, chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarishda eng katta salmoq Qashqadaryo va Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keladi (31-jadval). Ikkala hudud mamlakatimizda ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotidagi ulushi 11,4 % ga teng. Shuningdek, Toshkent (9,9 %) va Buxoro (9,6 %) viloyatlarining ko‘rsatkichlari ham nisbatan yuqori. Tarmoq mahsulotini ishlab chiqarishda eng past ulush esa Sirdaryo viloyati (2,8 %) va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga (4,0 %) tegishli. Chorvachilik mahsulotining hududlar bo‘yicha taqsimlanishida 2010-2022-yillarda keskin o‘zgarish ro‘y bermagan. Lekin Samarqand va, ayniqsa, Toshkent viloyatlari ulushining pasayishi, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari salmog‘ining ko‘tarilishi ma’lum darajada e’tiborni tortadi.

Chorva mollari va parrandalar bosh sonining dinamikasi va hududiy tarkibi. O‘zbekistonda, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 13853,5 ming bosh yirik shoxli qoramollar (jumladan, 4956,5 ming bosh sigirlar), 23602,5 ming bosh qo‘y va echkilar, 97315,5 ming bosh parrandalar, 269,0 ming bosh otlar boqilgan. 2010-yil 1-yanvar holati bilan qiyoslaganda, yirik shoxli qoramollar bosh soni 52 % ga (xususan, sigirlar bosh soni 32 % ga), qo‘y va echkilar bosh soni 54 % ga, parrandalar bosh soni 158 % ga, otlar bosh soni 44 % ga ko‘paygan.

32-jadval

O‘zbekistonda chorva mollari va parrandalar bosh soni dinamikasi (1-yanvar holatiga, ming bosh)

Chorva turlari	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2023-y.
Yirik shoxli qoramollar	9094,7	10995,2	12949,7	13853,5
Shu jumladan, sigirlar	3758,1	4084,3	4663,5	4956,5
Qo‘y va echkilar	15340,9	18438,9	21906,9	23602,5
Parrandalar	37733,3	56276,3	87859,7	97315,5
Otlar	187,4	213,4	247,1	269,0

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Turli toifadagi xo‘jaliklarning chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi har xil. Bu borada dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, ularda yirik shoxli qoramollarning 91,4 % i (jumladan, sigirlarning 91,0 % i), qo‘y va echkilarning 78,5 % i, parrandalarning 52,9 % i, otlarning 70,9 % i boqilgan. Fermer xo‘jaliklarga yirik shoxli qoramollarning 6,9 % i (jumladan, sigirlarning 7,4 % i), qo‘y va echkilarning 14,8 % i, parrandalarning 16,5 % i, otlarning 23,2 % i to‘g‘ri kelgan. Qishloq

xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa yirik shoxli qoramollarning 1,7 % i (jumladan, sigirlarning 1,6 % i), qo‘y va echkilarning 6,7 % i, parrandalarning 30,6 % i, otlarning 5,9 % i boqilgan. So‘nggi yillarda chorva mollari va parrandalar bosh sonining taqsimlanishida fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi biroz bo‘lsada, o‘sgan.

Hududlar orasida yirik shoxli qoramollar bosh soni bo‘yicha Qashqadaryo (12,2 %) va Samarqand (12,2 %) viloyatlari alohida ajralib turadi. Yirik shoxli qoramollar bosh soni nisbatan yuqori bo‘lgan hududlar qatoriga Buxoro (9,6 %), Andijon (8,2 %), Farg‘ona (7,8 %) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasini (8,7 %) kiritish mumkin. Tumanlar kesimida qaralganda, respublika miqyosida Samarqand viloyatining Pastdarg‘om va Urgut tumanlari hamda Qashqadaryo viloyatining Koson tumani yirik shoxli qoramollar bosh soni bo‘yicha alohida ajralib turadi. Yirik shoxli qoramollar bosh sonining eng past ko‘rsatkichlari Namangan (5,5 %), Navoiy (3,9 %) va Sirdaryo (3,6 %) viloyatlariga tegishli.

Sigirlar bosh soni Samarqand (14,8 %), Qashqadaryo (11,2 %), Buxoro (8,8 %) va Toshkent (8,5 %) viloyatlarida eng ko‘p, Namangan (5,2 %), Navoiy (4,4 %) va Sirdaryo (3,6 %) viloyatlarida esa eng kam.

Qo‘y va echkilar bosh soni bo‘yicha Qashqadaryo viloyati yaqqol ustunlikka ega. Bu mintaqaga respublikadagi jami qo‘y va echkilarning salkam 21 % qismi to‘g‘ri keladi. Boshqa hududlardan Samarqand (11,0 %), Surxondaryo (10,7 %), Buxoro (10,2 %), Navoiy (10,1 %) va Jizzax (9,8 %) viloyatlari bu borada nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Tumanlar bo‘yicha tahlil etganda, eng katta ko‘rsatkichlar Jizzax viloyatining Forish, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Koson, Qarshi, Samarqand viloyatining Nurobod hamda Navoiy viloyatining Konimex tumanlariga tegishli. Eng kam qo‘y va echkilar soni Farg‘ona (3,9 %), Namangan (3,5 %), Xorazm (2,1 %) va Sirdaryo (1,6 %) viloyatlarida qayd qilingan.

Parrandalar bosh soni bo‘yicha Toshkent (16,8 %) va Samarqand (14,7 %) viloyatlari alohida ajralib turadi. Shuningdek, Andijon (10,8 %) va Farg‘ona (8,7 %) viloyatlari ham bu borada qolgan hududlar ichida yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Respublika tumanlarida parrandalar bosh soni jihatidan Samarqand, Zangiota va Bo‘stonliq tumanlari yaqqol peshqadamlik qiladi. Parrandalar eng kam boqiladigan hududlar qatoriga Sirdaryo (4,4 %), Jizzax (4,1 %) va Navoiy (3,5 %) viloyatlarini kiritish mumkin.

Toshkent viloyati O‘zbekiston hududlari ichida otlar bosh soni bo‘yicha yaqqol yetakchilikka ega. Bu yerda respublikadagi jami otlarning 21,1 % qismi boqiladi. Shu bilan birga, Qashqadaryo (13,2 %), Jizzax (10,8 %), Samarqand (10,7 %) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (10,2 %) otlar bosh soni bo‘yicha nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Respublika miqyosida eng ko‘p ot boqiladigan tumanlar qatoriga Toshkent viloyatining Bo‘stonliq, Jizzax viloyatining Forish va Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanlari kiradi. Otlar bosh soni eng past darajada bo‘lgan hududlar sifatida Farg‘ona (3.8 %), Andijon (2,7 %), Buxoro (2,7 %), Namangan (2,6 %) va Xorazm (2,2 %) viloyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Umuman olganda, turli chorva mollari hamda parrandalar bosh soni bo‘yicha Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlari alohida ajralib turadi. Shuningdek, so‘nggi yillarda chorva mollari va parrandalar bosh sonining hududiy tarkibida hududlararo tafovutlarning asta-sekin kamayishi tendensiyasi kuzatilmoqda, ya’ni tegishli ko‘rsatkichlari an’anaviy ravishda yuqori bo‘lgan viloyatlarning salmog‘i pasayib (bu holat, ayniqsa, Samarqand va Toshkent viloyatlariga xos), aksincha, oxirgi o‘rinlarda turgan hududlarning ulushi ko‘tarilib bormoqda.

Asosiy chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi va geografiyasi. O‘zbekistonda, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 2725,9 ming tonna go‘sht, 11627,2 ming tonna sut, 8129,2 mln dona tuxum, 1287,6 mln dona qorako‘l teri, 24,3 ming tonna pilla, 14,7 ming tonna asal yetishtirildi (33-jadval).

33-jadval

O‘zbekistonda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

Chorvachilik mahsulotlari va o‘lchov birligi	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Go‘sht (tirik vaznda), ming tonna	1461,4	2 033,4	2519,6	2725,9
Sut, ming tonna	6169,0	9 027,8	10976,9	11627,2
Tuxum, mln dona	3061,2	5 535,4	7781,2	8129,2
Jun, ming tonna	26,5	36,0	35,4	37,3
Qorako‘l teri, ming dona	934,9	1 032,0	1152,1	1287,6
Pilla, ming tonna	25,2	26,3	20,9	24,3
Asal, ming tonna	3,2	10,2	13,4	14,7

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Jami ishlab chiqarilgan go‘shtning 74,3 % qismini yirik shoxli qoramollar go‘shti, 15,3 % ini qo‘y va echkilar go‘shti, 9,7 % ini

parrandalar go‘shti, 0,6 % qismini esa boshqa turdagi chorva mollarning go‘shti tashkil qilgan. Sutning 99,8 % ini sigir suti tashkil qilgan. Tuxumning 99,5 % qismi tovuq tuxumiga to‘g‘ri kelgan. Yetishtirilgan go‘sht miqdori, 2010-yil bilan solishtirganda, 87 % ga, sut 88 % ga, tuxum 166 % ga, jun 41 % ga, qorako‘l teri 38 % ga, asal 359 % ga ko‘paygan, faqat pilla yetishtirish 4 % ga kamaydi.

Dehqon xo‘jaliklari respublikada yetishtirilgan go‘shtning 87,9 % ini, sutning 93,4 % ini, tuxumning 61,9 % ini, junning 85 % ini, qorako‘l terining 81,3 % ini ta’minlagan. Fermer xo‘jaliklariga go‘shtning 5,8 % i, sutning 5,4 % i, tuxumning 14,8 % i, junning 9 % i, qorako‘l terining 8,3 % i, pillaning 59,5 % i to‘g‘ri kelgan. Mos ravishda, go‘shtning 6,3 %, sutning 1,2 %, tuxumning 23,3 %, junning 6 %, qorako‘l terining 10,4 %, pillaning 40,5 % qismi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan. Shunday ekan, ipakchilikdan tashqari, chorvachilikning asosiy tarmoqlarida dehqon xo‘jaliklari ustuvor ahamiyatga ega. Boshqa toifadagi xo‘jaliklarning ulushi parrandachilikda biroz kattaroq.

34-jadval

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarining hududlar kesimida taqsimlanishi (%, 2022-yil ma’lumotlari bo‘yicha)

№	Hududlar	Go‘sht (tirik vaznda)	Sut	Tuxum	Jun	Qorako‘l terilari	Pilla
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4,4	3,7	4,8	4,0	7,2	3,3
viloyatlar:							
2	Andijon	6,8	8,9	9,2	4,8	0,0	12,8
3	Buxoro	10,5	9,1	6,4	11,0	43,9	10,6
4	Jizzax	8,7	5,8	4,7	11,0	0,5	3,3
5	Qashqadaryo	11,6	11,0	6,7	21,5	20,1	9,5
6	Navoiy	6,6	4,5	4,7	12,1	24,4	4,2
7	Namangan	6,2	6,5	8,0	4,6	0,0	8,4
8	Samarqand	11,5	11,9	15,7	10,8	2,2	13,0
9	Surxondaryo	7,7	8,0	6,7	7,3	0,9	7,5
10	Sirdaryo	2,6	3,3	2,4	1,9	0,0	2,7
11	Toshkent	10,4	8,4	17,9	4,3	0,0	7,2
12	Farg‘ona	6,6	9,5	6,9	3,5	0,0	9,2
13	Xorazm	6,4	9,4	5,9	3,2	0,8	8,3

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2019-2022” (Toshkent, 2023) statistik to‘plamdagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Hududlar kesimida, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, go‘sht yetishtirishda Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Toshkent viloyatlari yaqqol ustunlikka ega bo‘lib, umumiy hisobda mamlakatda yetishtirilgan go‘shtning 44 % qismini ta’minlab bergan. Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi esa go‘sht yetishtirishda boshqa hududlarga nisbatan ancha past ko‘rsatkichlarga ega.

Sut yetishtirishning hududiy tarkibida Samarqand, Qashqadaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari eng yuqori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo va Navoiy viloyatlari esa eng past ulushga ega.

Tuxum yetishtirish hajmi bo‘yicha Samarqand va Toshkent viloyatlari yaqqol ravishda peshqadam o‘rinlarda turmoqda. Boshqa hududlardan Andijon va Namangan viloyatlarining salmog‘i nisbatan yuqori darajada. Ayni paytda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari bu borada eng past ko‘rsatkichlarga ega.


Jun yetishtirish bo‘yicha respublikada Qashqadaryo viloyati yaqqol yetakchilik bilan ajralib turadi. Viloyat mamlakatda jami yetishtirilgan junning 1/5 qismidan ko‘prog‘ini yetkazib bermoqda. Shu bilan birga, Samarqand, Navoiy, Jizzax va Buxoro viloyatlari ham jun yetishtirishda nisbatan yuqori ulushga ega. Bu hududlar Qashqadaryo viloyati bilan birgalikda respublikada yetishtirilgan junnung 2/3 qismini ta’minlab bermoqda. Farg‘ona vodiysi viloyatlari, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga esa jun yetishtirishda ancha past ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Qorako‘l terilarini yetishtirishda O‘zbekistonning 8 ta hududi ishtirok etgan bo‘lib, asosiy hajmini Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari yetkazib bermoqda. Bu 3 ta viloyatga umumiy hisobda O‘zbekistonda 2022-yilda yetishtirilgan qorako‘l terilarning 88,4 % qismi to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, boshqa hududlarga nisbatan qorako‘lchilik tarmog‘ida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Samarqand viloyatining ko‘rsatkichlari birmuncha ajralib turibdi. Farg‘ona vodiysi, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida hozirgi vaqtda qorako‘l qo‘ylari boqilmaydi.

Pilla yetishtirishda, o‘z navbatida, Samarqand, Andijon va Buxoro viloyatlari eng yuqori ulushga ega. Undan tashqari, Qashqadaryo, Farg‘ona, Surxondaryo, Namangan va Xorazm viloyatlarining pilla yetishtirishdagi o‘rni nisbatan baland. Ipakchilik tarmog‘ida eng past ishlab chiqarish hajmi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlariga tegishli. Umuman olganda, pilla yetishtirish paxtachilik tarmog‘i bilan chambarchas ravishda rivojlanadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston hududlari orasida asosiy chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Shu bilan birga, Toshkent, Buxoro, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida ham ko‘p tarmoqli chorvachilik yaxshi rivojlangan.

Baliq xo‘jaligi. O‘zbekistonda, 2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, 185,3 ming tonna baliq ovlangan. Bu ko‘rsatkich mamlakatimizda muntazam ravishda o‘sib bormoqda. Taqqoslash uchun, respublikada 2015-yilda 59,8 ming tonna, 2020-yilda 144,1 ming tonna baliq ovlangan edi. Tarmoqdagi bunday ijobiy dinamikaga baliq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlarga yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar hamda baliq mahsulotlariga bo‘lgan iste’mol talabining yuqoriligi ta’sir ko‘rsatmoqda.



31-rasm. O‘zbekistonda ovlangan baliq miqdorining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi (%)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Baliq xo‘jaligining hududiy tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, Xorazm (16,4 %), Andijon (11,6 %) va Toshkent (10,4 %) viloyatlari yetakchi, Qashqadaryo (2,9 %), Surxondaryo (3,5 %) va Sirdaryo (3,9 %) viloyatlari eng so‘nggi o‘rinlarda turadi. E’tirof etish kerakki, 2015-2022-yillarda tarmoq mahsulotining hajmi barcha hududlarda o‘sib kelayotgan holda, uning hududlar bo‘yicha taqsimlanishida katta siljishlar ro‘y berdi. Xususan, Andijon, Samarqand, Namangan, Xorazm va Buxoro viloyatlarining ulushi sezilarli darajada ko‘tarilgan bo‘lsa, Qashqadaryo, Navoiy hamda, ayniqsa, Jizzax va Toshkent viloyatlarining ko‘rsatkichlari anchagina pasayib ketdi. Bu holat tarmoqdagi hududiy tafovutlarning kamayib borayotganligidan dalolat beradi hamda mamlakatimizning barcha hududlari aholisini baliq mahsulotlari bilan yetarli darajada ta’minlanishiga imkoniyat yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Chorvachilikning geografik tiplari. O‘zbekiston hududi tabiiy-xo‘jalik sharoitining xilma-xilligi tufayli chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishi, ixtisoslashuvi va mahsuldorligida sezilarli darajadagi hududiy tafovutlar kuzatiladi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida chorvachilikning turli geografik tiplarini ajratish mumkin:

1) sug‘oriladigan yerlardagi chorvachilik. Chorvachilikning bu tipi respublikaning barcha hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, asosiy tarmoqlari sut-go‘sht qoramolchiligi va ipakchilik hisoblanadi;

2) lalmikor yerlardagi chorvachilik. Bu yo‘nalishdagi chorvachilik, asosan, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarining lalmikor dehqonchiligi tarqalgan hududlarda shakllangan bo‘lib, go‘sht-sut qoramolchiligi, qo‘ychilik va echkichilikka ixtisoslashgan;

3) shahar atrofi chorvachiligi. Yirik shaharlarga tutash qishloq tumanlarida, ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Buxoro shaharlari atrofida shakllangan bo‘lib, bu tipdagi chorvachilikning asosiy tarmoqlari parrandachilik va sut-go‘sht qoramolchiligi hisoblanadi;

4) cho‘l-yaylov chorvachiligi. Asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlarining cho‘l-yaylov yerlari uchun xos tip hisoblanadi, qo‘y va echkilarni boqishga, xususan, qoraqo‘lchilikka ixtisoslashgan, ayrim hududlarda yilqichilik va tuyachilik ham muhim ahamiyatga ega;

5) tog‘oldi-tog‘-yaylov chorvachiligi. Chorvachilikning bu yo‘nalishi Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax va Toshkent viloyatlarining tog‘li tumanlarida keng tarqalgan bo‘lib, bosh tarmoqlari qatoriga go‘sht-sut qoramolchiligi, qo‘ychilik va echkichilik kiradi.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston chorvachiligining asosiy tarmoqlarini sanab bering.
2. Respublikamiz chorvachiligida xo‘jaliklarning qaysi toifasi ustuvor ahamiyatga ega? Ipakchilik va parrandachilikda bu boradagi vaziyat qanday xususiyatga ega?
3. O‘zbekiston chorvachiligining hududiy tarkibida qaysi hududlar yetakchi o‘rinlarga ega? Tarmoqning hududiy tarkibida qanday siljishlar so‘nggi yillarda kuzatilmoqda?
4. Qaysi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda hududiy mujassamlashuv nisbatan yuqori darajada kuzatiladi?
5. Ipakchilik tarmog‘i O‘zbekistonning qaysi hududlarida nisbatan yaxshi rivojlangan?
6. Qorako‘l qo‘ylari respublikaning qaysi hududlarida eng ko‘p boqiladi, qaysilarida esa umuman boqilmaydi?
7. O‘zbekistonning qaysi hududlari baliq xo‘jaligi sohasida peshqadam hisoblanadi? Qaysi hududlarning bu boradagi ko‘rsatkichlari so‘nggi yillarda ko‘tarildi?
8. O‘zbekistonda chorvachilikning qanday geografik tiplarini ajratish mumkin?
9. Shahar atrofi qishloq tumanlari chorvachilikning qaysi tarmoqlariga ko‘proq ixtisoslashgan? Buni qanday izohlash mumkin?

Test savollari

1. Quyidagi viloyatlardan qaysi birining respublika chorvachiligidagi ulushi 2010-2022-yillar oralig‘ida o‘sgan?
A) Samarqand viloyati
B) Toshkent viloyati
C) Jizzax viloyati
D) Sirdaryo viloyati

2. Quyidagi viloyatlardan qaysi birining respublika chorvachiligidagi ulushi 2010-2022-yillar oralig‘ida kamaygan?
A) Farg‘ona viloyati
B) Jizzax viloyati
C) Qashqadaryo viloyati
D) Toshkent viloyati

3. O‘zbekistonda 2022-yilda qaysi chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 2010-yilga nisbatan kamaygan?
A) Go‘sht
B) Sut
C) Pilla
D) Tuxum

4. Toshkent viloyati qaysi chorvachilik mahsulotini yetishtirish hajmi bo‘yicha respublikada 1-o‘rin egallaydi?
A) Jun
B) Tuxum
C) Sut
D) Go‘sht

5. Qaysi viloyat qorako‘l terilarini yetishtirish bo‘yicha O‘zbekistonda yetakchi?
A) Buxoro viloyati
B) Navoiy viloyati
C) Qashqadaryo viloyati
D) Jizzax viloyati

6. Qaysi hududning respublika baliq xo‘jaligi hududiy tarkibidagi ulushi 2022-yilda eng yuqori bo‘lgan?
A) Qoraqalpog‘iston Respublikasi
B) Buxoro viloyati
C) Toshkent viloyati
D) Xorazm viloyati

7. Chorvachilikning qaysi tipi, asosan, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida tarqalgan?
A) Sug‘oriladigan yerlardagi chorvachilik
B) Lalmikor yerlardagi chorvachilik
C) Cho‘l-yaylov chorvachiligi
D) Tog‘oldi-tog‘-yaylov chorvachiligi

13-§. Ijtimoiy sohalarning rivojlanishi


Ijtimoiy soha tushunchasi va uning tarmoqlar tarkibi. O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatdir. Mamlakatimizda fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, har bir oilaning farovonligini ta’minlash bo‘yicha keng qamrovli choralar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalar, ishsizlar, o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha faol siyosat olib borilmoqda.

Qishloq joylarida ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Poliklinikalar, shifoxonalar, qishloq vrachlik punktlari, umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, savdo va umumiy ovqatlanish obyektlari, sport maydonchalari ishga tushirilmoqda, uy-joy qurilishi ishlari faol olib borilmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy sohada milliy an’analar va ma’naviyatni tiklash, insonning madaniy va intellektual manfaatlarini amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy soha deganda, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan, xodimlari jamiyat va davlatning tegishli maqsadlarga yo‘naltirgan mablag‘lari hisobidan daromad topadigan iqtisodiyot tarmoqlari majmuasi tushuniladi. “Ijtimoiy soha” tushunchasiga mazmunan yaqin tarzda “xizmatlar sohasi” va “iqtisodiyotning uchlamchi sektori” tushunchalari ham ishlatiladi.

Ijtimoiy soha tarmoqlari, korxona va tashkilotlarining faoliyati aholining turmush sifati va tarziga, farovonligiga, iste’mol darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy soha tarkibiga savdo, umumiy ovqatlanish, uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy sug‘urta va pensiya ta’minoti, sog‘liqni saqlash, rekreatsiya va turizm, jismoniy tarbiya va sport, ta’lim, madaniyat va san’at, ommaviy axborot vositalari kabi tarmoqlar kiradi. Ular asosiy maqsadidan kelib chiqib, 2 guruhga bo‘linadi: 1) moddiy ne’matlarni iste’molchilargacha yetkazishga xizmat qiladigan tarmoqlar; 2) aholining ijtimoiy-madaniy, ma’naviy, intellektual ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan tarmoqlar (32-rasm).



32-rasm. Ijtimoiy soha tarmoqlari

Rasm mualliflar tomonidan tuzilgan.

Pullik xizmatlar hajmi dinamikasi va hududiy tarkibi. O‘zbekistonda 2022-yilda 366,9 trln so‘mlik pullik xizmatlar ko‘rsatildi. Bu ko‘rsatkichning 2021-yilga nisbatan o‘sish sur’atlari 116,3 % ni tashkil etdi, 2010-yil bilan taqqoslaganda esa pullik xizmatlar hajmi 4,46 barobar o‘sgan. Uning 2010-2022-yillar oralig‘idagi o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari 113,5 % ga teng bo‘lgan.

Pullik xizmatlar tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, savdo xizmatlari (24,5 %), transport xizmatlari (22,9 %) va moliya xizmatlari (22,0 %) asosiy o‘rin egallagan. Pullik xizmatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishida 2010-2022-yillarda muayyan o‘zgarishlar ro‘y bergan. Bu o‘zgarishlarning eng muhimlari moliya xizmatlari ulushining keskin o‘sishi va transport xizmatlari ulushining sezilarli darajada pasayishidan iborat (35-jadval). Shuningdek, yashash va ovqatlanish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi xizmatlarning salmoqlari ko‘rilayotgan davr mobaynida birmuncha o‘sgan. Bu holat

mamlakatimizda mehmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, nodavlat ta'lim va tibbiyot muassasalarining rivojlanishidan dalolat beradi.

35-jadval

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha taqsimlanishi (%)

Iqtisodiy faoliyat turlari	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Xizmatlar – jami	100,0	100,0	100,0	100,0
axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	7,7	6,6	6,3	6,7
moliya xizmatlari	9,7	10,5	20,8	22,0
transport xizmatlari	38,8	34,1	24,4	22,9
shu jumladan: avtotrasport xizmati	18,9	20,4	12,9	11,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1,1	1,1	2,5	3,6
savdo xizmatlari	24,4	27,2	26,2	24,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,0	3,5	2,7	2,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	2,8	3,4	3,9	4,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,0	1,4	1,5	1,8
ijara va lizing bo'yicha xizmatlar	2,0	2,3	1,9	1,8
kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,3	2,2	1,5	1,6
shaxsiy xizmatlar	2,8	3,0	2,3	2,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,1	1,1	2,2	2,0
boshqa xizmatlar	3,3	3,6	3,8	3,9


Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmining hududlar bo'yicha taqsimlanishiga e'tibor qaratilsa, Toshkent shahrining juda katta ustuvorlik bilan yetakchiligi ko'zga tashlanadi (33-rasm). Boshqa hududlardan nisbatan yuqori ulushi bilan Toshkent (7,1 %), Samarqand (6,3 %) va Farg'ona (6,0 %) viloyatlari ajralib turadi.

Pullik xizmatlarning hududiy tarkibi dinamikasida 2010-2015-yillar oralig'ida Toshkent shahri ulushining biroz pasayishi kuzatilgan bo'lsa, 2015-2022-yillar oralig'ida, poytaxtning salmog'i, aksincha, sezilarli tarzda o'sgan. Ayni paytda, qolgan barcha hududlarning nisbiy ko'rsatkichlari pasaygan yoki o'zgarmasdan qolgan. Demak, xizmatlar sohasining hududiy tarkibida markazlashuv tendensiyasi yaqqol ravishda kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pullik xizmatlar hajmi, 2022-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha 10292,0 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 113,9 % ga o'sgan. 2010-2022-yillar oralig'ida uning o'rtacha yillik hisobidagi o'sish sur'atlari 111,4 % ni

tashkil etgan. Ta'kidlash lozimki, respublika bo'yicha o'rtacha darajadan balandroq ko'rsatkich har yili faqatgina Toshkent shahrida qayd etilgan bo'lib, 2022-yilda uning qiymati mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan salkam 5 barobar yuqori bo'lgan (49678,1 ming so'm). Eng past ko'rsatkichlar, 2022-yil holatiga ko'ra, Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan va Jizzax viloyatlariga tegishli. E'tiborlisi, oldingi yillarda ham ushbu hududlarda tegishli ko'rsatkich respublika bo'yicha eng minimal darajada qayd qilingan edi.



33-rasm. Pullik xizmatlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (%)

Rasm mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Chakana savdo. Respublika bo'yicha, 2022-yil holatiga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 270,69 trln so'mni tashkil etgan. Chakana savdo tovar aylanmasining 78,4 % qismi (212,22 trln so'm) shahar joylarida, 21,6 % qismi (58,47 trln so'm) esa qishloq joylarida amalga oshirilgan. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda shahar joylarining jami chakana savdo aylanmasidagi salmog'i o'sib bormoqda. Bu holat chakana savdo

aylanmasi shaharlarda qishloq joylarga nisbatan birmuncha tezroq o‘sib borayotganidan dalolat beradi.

Mulkchilik shakllari kesimida olganda, chakana savdo tovar aylanmasining 99,9 % i nodavlat, 0,1 % i esa davlat savdo korxonalariga to‘g‘ri kelgan. Demak, mamlakatimizda chakana savdo deyarli to‘laligicha xususiy sektor doirasida rivojlanmoqda. Yirik savdo korxonalari jami chakana savdo tovar aylanmasining 20,4 % ini, kichik biznes subyektlari esa 79,6 % imi ta’minlab bergan. Ta’kidlash o‘rinliki, so‘nggi yillarda yirik savdo korxonalarining tovar aylanmasi kichik biznes subyektlariga nisbatan ancha tezroq o‘smoqda va ularning jami chakana savdo aylanmasi tarkibidagi ulushi ko‘tarilib bormoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida 2022-yilda oziq-ovqat mahsulotlariga 42,3 % (114,58 trln so‘m), nooziq-ovqat mahsulotlariga esa 57,7 % (156,1 trln so‘m) to‘g‘ri kelgan. Chakana savdo tarkibini shu jihatdan dinamikada ko‘rsak, nooziq-ovqat mahsulotlari ulushining ortib borish tendensiyasi ko‘zga tashlanadi: 2000-yilda chakana savdo tarkibida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarining o‘zaro nisbati 60,5 % : 39,5 % ni, 2005-yilda – 51,9 % : 48,1 % ni, 2010-yilda – 48,4 % : 51,6 % ni, 2015-yilda – 47,4 % : 52,6 % ni, 2020-yilda – 40,7 % : 59,3 % ni tashkil etgan. Ammo so‘nggi 2 yilda (2021-2022-yy.) oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi biroz ko‘tarildi. Bu holat respublika aholisi xarid qilish qobiliyatining o‘zgarish dinamikasini aks ettiradi.

O‘zbekiston bo‘yicha, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, jami 117603 ta chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona mavjud bo‘lib, 2022-yil 1-yanvarga nisbatan bu ko‘rsatkich 17052 taga (117,4 % ga) o‘sgan. Chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 349 tani tashkil etadi. Shuningdek, mamlakatimizda, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, jami 33 111 ta umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, 2022-yil 1-yanvarga nisbatan ularning soni 3150 taga (110,5 % ga) o‘sgan. Umumiy ovqatlanish korxonalaridan 63 tasi yirik korxona hisoblanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasining hududiy tarkibida Toshkent shahri eng katta ulushga ega. Xususan, 2022-yil yakunlari bo‘yicha mamlakatimizdagi chakana savdo tovar aylanmasidan 24,7 % i (ya’ni, salkam 1/4 qismi) aynan poytaxtga to‘g‘ri kelgan. Boshqa hududlardan nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand (9,4 %) Toshkent (9,3 %) va Farg‘ona (8,3 %) viloyatlariga tegishli. Vaziyatga dinamika nuqtayi nazaridan e’tibor berganda, 2015-yildan keyingi davrda Toshkent shahri salmog‘ining tobora o‘sib borayotganini ko‘rish mumkin. Qolgan

hududlardan faqat Samarqand, Namangan va Toshkemt viloyatlari ulushi biroz o‘sgan bo‘lib, boshqa hududlarning nisbiy ko‘rsatkichlari pasayish tendensiyasini namoyish etmoqda (36-jadval). Demak, chakana savdo rivojlanishidagi hududiy tafovutlar sezilarliroq bo‘lmoqda.

36-jadval

Chakana savdo tovar aylanmasining O‘zbekiston hududlari bo‘yicha taqsimlanishi

Hududlar	2010		2015		2020		2022	
	mlrd so‘m	%	mlrd so‘m	%	mlrd so‘m	%	mlrd so‘m	%
O‘zbekiston Respublikasi	**21 872,8**	**100**	**63 027,1**	**100**	**168 649,0**	**100**	**270687,2**	**100**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	711,3	3,3	2 098,7	3,3	5 828,7	3,5	9557,9	3,5
viloyatlar:								
Andijon	1 704,2	7,8	5 052,1	8,0	13 035,5	7,7	19 046,9	7,0
Buxoro	1 290,2	5,9	3 976,3	6,3	10 136,9	6,0	15 522,0	5,7
Jizzax	629,6	2,9	2 070,1	3,3	5 066,0	3,0	7 995,4	3,0
Qashqadaryo	1 325,2	6,1	4 604,7	7,3	12 081,4	7,2	18 165,9	6,7
Navoiy	850,6	3,9	2 732,8	4,3	6 443,7	3,8	10 101,6	3,7
Namangan	1 297,0	5,9	3 775,8	6,0	10 320,5	6,1	17 273,1	6,4
Samarqand	1 683,0	7,7	5 442,8	8,6	15 275,3	9,1	25 342,5	9,4
Surxondaryo	1 321,3	6,0	4 384,5	7,0	11 311,0	6,7	17 428,5	6,4
Sirdaryo	411,1	1,9	1 084,9	1,7	2 991,6	1,8	4 453,7	1,6
Toshkent	2 306,3	10,5	6 608,5	10,5	15 593,5	9,2	25 250,0	9,3
Farg‘ona	1 911,6	8,7	5 352,7	8,5	14 573,9	8,6	22 448,5	8,3
Xorazm	1 005,9	4,6	2 378,4	3,8	7 061,8	4,2	11 317,2	4,2
Toshkent sh.	5 425,5	24,8	13 464,7	21,4	38 929,4	23,1	66 784,0	24,7

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilda 7,59 mln so‘mga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 108,5 % ga o‘sgan bo‘lsa, 2010-2022-yillar oralig‘ida 2,85 barobar o‘sdi. Tegishli davr mobaynida ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha yillik hisobda 109,5 % ga o‘sib borgan.

Aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi faqat 4 ta hududda – Toshkent shahri (22,96 mln so‘m), Navoiy (9,67 mln so‘m), Toshkent (8,51 mln so‘m) va Buxoro (7,79 mln so‘m) viloyatlarida respublika o‘rtacha darajasidan ko‘ra yuqori, qolgan 10 ta hududda esa bu ko‘rsatkich respublika bo‘yicha o‘rtacha qiymatiga qaraganda pastroqdir. Ta’kidlash o‘rinliki, 2010-2022-yillar oralig‘ida bu vaziyat barqaror bo‘lib saqlanib kelmoqda. Eng past ko‘rsatkichlar, 2022-yil holatiga ko‘ra, Sirdaryo viloyati (5,02 mln so‘m) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (4,87 mln so‘m) qayd etilgan. Albatta, aholi jon boshiga

nisbatan olingan chakana savdo tovar aylanmasining ko‘rsatkichlari, ulardagi hududiy tafovutlar, ma’lum darajada, aholi turmush darajasidagi hududiy tafovutlarini aks ettiradi.

Sog‘liqni saqlash. O‘zbekistonda Mustaqillik yillarida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning zamonaviy tizimi yaratildi, bu esa tibbiy xizmatning barcha turlaridan keng foydalanish imkonini berdi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlashning yagona tizimiga ega bo‘lib, u turli manbalardan moliyalashtiriladigan davlat va xususiy muassasalarning birlashmasidir. Davlat fuqarolarning yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar ularga tibbiy yordam huquqini kafolatlaydi.

O‘zbekistonda davolashning eng ilg‘or shakl va usullari joriy etilgan bo‘lib, ona va bolani muhofaza qilish, shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash, tibbiyot muassasalarini eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash borasida salmoqli yutuqlarga erishilgan.

37-jadval

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining asosiy ko‘rsatkichlari (yil oxiriga)

Ko‘rsatkichlar	2010-yil	2022-yil
Shifoxona muassasalari soni	1158	1328
Shifoxona o‘rinlari soni:		
jami, ming	139,6	166,9
10 000 aholiga	47,9	46,3
Bitta shifoxona o‘rniga to‘g‘ri keladigan aholi soni	209	216
Homilador ayollar va tug‘adiganlar uchun o‘rinlar soni:		
jami, ming	19,9	17,8
10 000 ayollarga (15-49 yosh)	24	19,3
Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni	5993	7010
Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati, bir smenada qatnovlar soni:		
jami, ming	422,5	508,0
10 000 aholiga	145,1	141
Barcha mutaxassislikdagi shifokorlarning soni:		
jami, ming	79,9	100,5
10 000 aholiga	27,4	27,9
Bitta shifokorga to‘g‘ri keladigan aholi soni	356	358
O‘rta tibbiyot xodimlari soni:		
jami, ming	310,2	382,8
10 000 aholiga	106,5	106,3
Bitta o‘rta tibbiyot xodimiga to‘g‘ri keladigan aholi soni	92	94

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Umuman olganda, shuni ta’kidlash lozimki, Mustaqillik yillarida mamlakatimizning sog‘liqni saqlash sohasidagi yutuqlariga jahon hamjamiyati ijobiy baho berdi. Bu yutuqlarning eng muhimi respublikada aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1995-2022-yillar oralig‘ida 69,1 yoshdan 74,3 yoshgacha oshganligidir.

O‘zbekiston bo‘yicha, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, 1328 ta shifoxona muassasalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, 2010-yilga nisbatan ularning soni 170 taga ko‘paygan. Shifoxona muassasalaridagi o‘rinlar soni 2010-2022-yillar oralig‘ida 139,6 mingdan 166,9 minggacha ko‘paygan. Mamlakatimizda har 10 000 ta aholiga nisbatan 46,3 ta shifoxona o‘rinlari to‘g‘ri kelgan holda, bitta shifoxona o‘rniga mos keladigan aholi soni 216 nafarni tashkil etmoqda. Bu raqamlar, 2010-yil bilan taqqoslaganda, kam o‘zgargan (37-jadval).

Respublikada, 2022-yil oxiri holatiga ko‘ra, 7010 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo‘lgan. E’tiborlisi, 2010-yilga nisbatan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni mamlakatimizda 1017 taga ko‘paygan. Ularning quvvati bir smenada 508,0 ming qatnovlarga teng bo‘lib, har 10 000 aholiga nisbatan 141,0 qatnovni tashkil etadi.

O‘zbekistonda 2022-yil oxirida 100,5 ming nafar barcha mutaxassislikdagi shifokorlar sohada faoliyat ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich 2010-yil bilan taqqoslaganda 20,4 ming nafarga ko‘paygan. Har 10 000 aholiga nisbatan shifokorlarning soni 27,9 ga teng bo‘lib, 2010-yilga qaraganda bu raqam 0,5 ga o‘sgan.

Respublika sog‘liqni saqlash tizimida, 2022-yil ma’lumotlari bo‘yicha, 382,8 ming nafar o‘rta tibbiyot xodimlari ishlagan. Bu ko‘rsatkich 2010-2022-yillar mobaynida 72,6 ming kishiga ko‘paygan. Har 10 000 aholiga nisbatan o‘rta tibbiyot xodimlari soni respublikada 106,3 nafarga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2010-yil bilan qiyoslaganda 0,2 ga kamaydi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, shifoxona muassasalari soni bo‘yicha Toshkent shahri, Andijon, Farg‘ona, Samarqand va Namangan viloyatlari alohida ravishda ajralib turadi. Eng kam shifoxona muassasalari Navoiy, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri keladi (38-jadval).

Shifoxona o‘rinlari bo‘yicha Toshkent shahri yaqqol yetakchilikka ega, shuningdek, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarining ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori. O‘z navbatda, Jizzax, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari bu borada so‘nggi o‘rinlarni egallamoqda.

Albatta, tibbiy infratuzilmaga oid mutlaq ko‘rsatkichlar ko‘p jihatdan hududlardagi aholi soniga ham bog‘liq.

Har 10 000 aholiga nisbatan olganda, shifoxona o‘rinlari soni jihatidan Toshkent shahri boshqa hududlarga nisbatan ancha peshqadam ko‘rsatkichga ega (o‘rtacha respublika darajasidan 1,5 barobar yuqori). Shuningdek, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarining ko‘rsatkichlari ham respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan biroz bo‘lsada, yuqoridir. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida esa ushbu ko‘rsatkich hududlar ichida eng past darajada qayd qilingan.

38-jadval

O‘zbekiston hududlarida sog‘liqni saqlash tizimining ayrim ko‘rsatkichlari (2022-yil oxiriga)

Hududlar	Shifoxona muassasalari soni	O‘rindagi o‘rinlar soni		Shifokorlar soni, har 10000 aholiga	O‘rta tibbiyot xodimlari soni, har 10000 aholiga
		ming	Har 10 000 aholiga		
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	66	8,0	40,5	27,4	98,2
viloyatlar:					
Andijon	162	14,4	43,3	24,9	99,8
Buxoro	95	9,2	45,6	32,5	122,2
Jizzax	55	6,5	44,1	20,6	120,1
Qashqadaryo	91	11,6	33,2	18,9	110,1
Navoiy	40	4,4	42,1	30,1	140,5
Namangan	114	14,1	47,0	20,1	101,3
Samarqand	120	17,3	34,7	27,6	78,1
Surxondaryo	67	9,7	34,7	17,9	83,3
Sirdaryo	41	4,4	49,4	22,2	149,9
Toshkent	102	18,1	60,5	21,9	104,1
Farg‘ona	128	16,7	42,0	22,5	111,9
Xorazm	75	7,8	39,8	28,6	88,0
Toshkent shahri	156	23,4	72,2	70,0	136,5

Jadval mualliflar tomonidan “O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami (2021-2022)” (Toshkent, 2023) dagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

O‘zbekiston hududlari orasida shifokorlar bilan ta’minlanganligi jihatidan ham sezilarli tafovutlar mavjud. Respublika bo‘yicha har 10000 aholiga 27,9 nafar shifokor to‘g‘ri kelgan holda, Toshkent shahrida bu ko‘rsatkich 70,0 nafarga teng. Boshqa hududlardan respublika bo‘yicha o‘rtacha darajadan biroz balandroq ko‘rsatkichlar Samarqand, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlarida qayd qilingan. Eng past ko‘rsatkichlar esa Namangan, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryoga tegishli bo‘lib,

ularning ko‘rsatkichlari mamlakat bo‘yicha qayd qilingan o‘rtacha darajaning 55-67 % ini tashkil etadi, ya’ni undan 1,5-1,9 barobar pastdir.

O‘rta tibbiyot xodimlari bilan ta’minlanganlik borasida hududlardagi vaziyat birmuncha ijobiyroq. Respublika bo‘yicha o‘rtacha ravishda har 10000 aholiga 106,3 nafar o‘rta tibbiyot xodimlari to‘g‘ri kelgan holda, 8 ta hududda bu ko‘rsatkich bundan yuqori. Eng baland ko‘rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etilib (149,9), ikkinchi o‘rinda Navoiy viloyati (140,5), uchinchi o‘rinda esa Toshkent shahri (136,5) turadi. Eng past ko‘rsatkichlar bu borada Xorazm, Surxondaryo va Samarqand viloyatlariga tegishlidir.

Umuman olganda, sog‘liqni saqlash infratuzilmasi obyektlari va xodimlari bilan ta’minlanganligi jihatidan respublika bo‘yicha eng yaxshi va boshqa hududlardan keskin tarzda ijobiy tomonga ajralib turgan vaziyat Toshkent shahriga xos. Shuningdek, nisbatan ijobiy holat Navoiy, Buxoro, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida kuzatiladi. Eng past ko‘rsatkichlar esa Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlariga tegishli. Demak, shu hududlarning ijtimoiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ta’lim. O‘zbekiston Respublikasida quyidagi ta’lim turlari mavjud:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o‘rta ta’lim;
- o‘rta-maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) faoliyatini takomillashtirish O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda, 2022-yil oxiriga, 8412 MTT (jumladan, 1826 ta nodavlat MTT) faoliyat yuritgan. Bu ko‘rsatkich, 2010-yil oxiriga, 5375 tani tashkil etgan holda, o‘tgan davr mobaynida 56,5 % ga ko‘paydi. Respublikadagi barcha MTTlarda jami o‘rinlar soni, 2022-yil oxiri holatiga ko‘ra, 1372,6 mingtani tashkil etgan.

O‘zbekistondagi MTTlarda tarbiyalanuvchilar soni, 2022-yil oxiriga, 1455,8 ming nafarga teng bo‘lib, 2010-yil bilan taqqoslaganda, 932,9 ming nafarga (2,8 barobar) ko‘paydi. Ta’kidlash lozimki, MTTlar va ulardagi tarbiyalanuvchilar sonining so‘nggi yillardagi ijobiy

dinamikasiga nodavlat MTTlar tarmog‘ining intensiv tarzda rivojlanishi katta ta’sir ko‘rsatgan.

O‘zbekiston bo‘yicha 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi, 2022-yil oxiriga, 68,3 % ni tashkil qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich, 2012-yilga qaraganda, 49,6 foiz punktiga, 2020-yilga nisbatan esa 17,4 foiz punktiga o‘sdi.

39-jadval

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining asosiy ko‘rsatkichlari (2022-yil oxiriga)

Hududlar	MTTlar soni	Ularda bolalar soni, ming nafar	3-6 yoshdagi yoshdagi bolalarning MTT tarmog‘i bilan qamrab olinishi (%)
O‘zbekiston Respublikasi	8412	1455,8	68,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	546	93,3	79,7
viloyatlar:			
Andijon	765	146,3	77,9
Buxoro	593	85,6	77,6
Jizzax	307	66,7	72,5
Qashqadaryo	557	91,8	47,7
Navoiy	305	50,0	79,7
Namangan	689	121,0	69,8
Samarqand	921	155,8	65,7
Surxondaryo	594	92,7	55,0
Sirdaryo	236	35,7	74,4
Toshkent	668	106,5	60,9
Farg‘ona	1065	180,8	75,2
Xorazm	451	85,4	76,5
Toshkent shahri	715	144,2	71,9

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikamiz hududlari orasida MTTlar va ulardagi tarbiyalanuvchilar soni bo‘yicha Farg‘ona, Samarqand va Andijon viloyatlari yetakchi o‘rinlarda turadi (39-jadval). Eng kam MTTlar esa Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Umuman olganda, MTT tarmog‘i hududlar aholisiga proporsional tarzda shakllangan.

3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi jihatidan Navoiy, Andijon, Buxoro, Xorazm, Farg‘ona viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi eng yuqori ko‘rsatkichlar bilan ajralib turadi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng so‘nggi o‘rinlarni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari egallaydi. Shuningdek, Toshkent viloyatining bu boradagi ko‘rsatkichi yuqori emas.

O‘zbekistonda 2022-2023-o‘quv yili boshiga jami 10552 ta umumta’lim muassasalari (194 tasi, yoki 1,8 % i, nodavlat umumta’lim muassasalaridir) mavjud bo‘lib, ularning aksariyat qismini (10359 ta) umumiy o‘rta ta’lim maktablari tashkil qilgan holda, boshlang‘ich maktablarning soni 72 tani, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablarning soni esa 91 tani tashkil qiladi. Umumiy o‘rta talim maktablarining O‘zbekiston bo‘yicha umumiy soni 2010-2011-o‘quv yiliga nisbatan 731 taga ko‘paygan bo‘lsa, boshlang‘ich maktablarning soni o‘tgan davrda 18 taga kamaygan.

Umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining umumiy soni 2022-2023-o‘quv yili boshida 6461,7 ming nafarga teng bo‘lgan. Shundan 6426,8 ming nafar o‘quvchi umumiy o‘rta maktablarda, 1,1 ming nafar o‘quvchi boshlang‘ich maktablarda, 21,8 ming nafar o‘quvchi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablarda tahsil olgan. Umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining kontingenti 2010-2011-o‘quv yiliga qaraganda 1766,4 ming nafarga (37,6 % ga) ko‘paygan. Bu, ko‘p jihatdan, 2017-2018-o‘quv yilidan boshlab maktablarda 9-yillik ta’limdan 11-yillik ta’limga o‘tganligi bilan bog‘liqdir.

Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim muassasalaridan 2834 tasida (27,2 % i) bir smenada, 7521 tasida (72,7 % i) ikki smenada, 13 tasida (0,1 % i) uch smenada olib boriladi. E’tiborlisi, 2018-2019-o‘quv yiliga nisbatan bir smenali umumta’lim muassasalarning soni 44,2 % ga ko‘paydi (asosan, yangi qurilgan, jumladan nodavlat, maktablar hisobiga).

O‘zbekiston hududlari orasida umumta’lim muassasalari soni bo‘yicha Samarqand (1310 ta), Qashqadaryo (1220 ta) va Farg‘ona (1026 ta) viloyatlari alohida ajralib turadi. Eng kam umumta’lim muassasalari soni Toshkent shahri (385 ta), Navoiy (374 ta), Sirdaryo (327 ta) viloyatlariga to‘g‘ri keladi.

Bitta umumta’lim muassasasiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni 614 nafarga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha Toshkent shahri keskin yetakchilikka ega (1297 o‘quvchi). Boshqa hududlardan bu borada Andijon (739 nafar), Namangan (711 nafar), Farg‘ona (673 nafar) va Xorazm (638 nafar) viloyatlari nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (487 nafar), Jizzax (467 nafar), Sirdaryo (487 nafar) va Navoiy (502 nafar) viloyatlari eng past ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi. E’tiborlisi, ushbu ko‘rsatkich

hudud aholi zichligi va aholi manzilgohlarining o‘rtacha aholi soni bilan yuqori darajada bog‘liq.

O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim 8 ta tilda olib boriladi. Jumladan, 2021-2022-o‘quv yili boshiga respublikamizda 9401 ta umumta’lim muassasasida ta’lim mashg‘ulotlari o‘zbek tilida (8237 tasida faqat o‘zbek tilida), 1046 tasida rus tilida (133 tasida faqat rus tilida), 380 tasida qoraqalpoq tilida (240 tasida faqat qoraqalpoq tilida), 365 tasida qozoq tilida (144 tasida faqat qozoq tilida), 240 tasida tojik tilida (100 tasida faqat tojik tilida), 49 tasida qirg‘iz tilida (22 tasida faqat qirg‘iz tilida), 44 tasida turkman tilida (23 tasida faqat turkman tilida), 4 tasida ingliz tilida (2 tasida faqat ingliz tilida) olib borilgan.

40-jadval

O‘zbekistondagi umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining ta’lim olib boriladigan tillar bo‘yicha taqsimlanishi (nafar, 2021-2022-o‘quv yili boshiga)

Hududlar	Ta’lim tili							
	O‘zbek	Qoraqalpoq	Rus	Qozoq	Tojik	Qirg‘iz	Turkman	Ingliz
O‘zbekiston Respublikasi	5355701	125850	642636	53558	65358	8183	10902	1538
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	152360	125565	43615	20411	-	-	10347	-
viloyatlar:								
Andijon	514702	-	54715	-	-	2689	-	144
Buxoro	303963	-	20192	684	8	-	-	-
Jizzax	238882	-	11860	67	1109	3936	-	-
Qashqadaryo	604991	-	17126	-	11039	-	-	-
Navoiy	158416	285	15241	8355	760	-	-	-
Namangan	466127	-	43409	-	1123	289	-	-
Samarqand	680536	-	56485	-	8684	-	-	-
Surxondaryo	480497	-	9143	-	19715	-	-	-
Sirdaryo	145482	-	9948	57	721	-	-	-
Toshkent	408424	-	65560	23768	6924	780	-	-
Farg‘ona	603412	-	53867	-	15275	489	-	144
Xorazm	333255	-	25629	216	-	-	555	-
Toshkent shahri	264654	-	215846	-	-	-	-	1250

Manba: Халқ таълими рақамларда. Рисола. II нашр. – Тошкент, 2022. – Б. 69.

Ta’lim o‘zbek va rus tillarida olib boriladigan maktablar barcha hududlarda faoliyat ko‘rsatsa, qoraqalpoq maktablar faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatida, qozoq maktablarning katta qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent va Navoiy viloyatlarida, tojik maktablari ko‘proq Surxondaryo, Farg‘ona,

Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida, qirg‘iz maktablarning asosiy qismi Jizzax va Andijon viloyatlarida, turkman maktablar faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan (40-jadval).

O‘zbekiston bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan akademik litseylarning umumiy soni 2022-2023-o‘quv yili boshiga 85 tani tashkil etgan. Ta’kidlash lozimki, bu ko‘rsatkich 2016-2017-o‘quv yilidan buyon pasayib bormoqda va o‘tgan davr mobaynida 59 taga kamaydi. Akademik litseylarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning umumiy soni 2022-2023-o‘quv yili boshida 32,4 ming nafarga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2016-2017-o‘quv yili boshida bu raqam 101,3 ming nafar o‘quvchini tashkil qilgan edi. Hududlar kesimida olganda, Toshkent shahri respublika bo‘yicha akademik litseylar va ulardagi o‘quvchilar soni jihatidan katta ustunlik bilan yetakchi o‘rin egallaydi. Boshqa hududlardan Samarqand, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlari birmuncha balandroq ko‘rsatkichlarga ega (41-jadval).

41-jadval

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha akademik litseylar va ulardagi o‘quvchilar soni (o‘quv yili boshiga)


Hududlar	2016-2017-o‘quv yili		2022-2023-o‘quv yili	
	Akademik litseylar soni	Ulardagi o‘quvchilar soni, ming nafar	Akademik litseylar soni	Ulardagi o‘quvchilar soni, ming nafar
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10	7,6	5	1,9
viloyatlar:				
Andijon	12	7,4	5	1,7
Buxoro	8	5,0	4	1,6
Jizzax	4	3,4	3	1,7
Qashqadaryo	7	5,9	7	2,3
Navoiy	4	3,1	3	1,2
Namangan	10	9,0	4	2,1
Samarqand	14	10,4	8	3,3
Surxondaryo	5	3,9	4	1,1
Sirdaryo	4	3,6	2	0,8
Toshkent	7	3,5	4	1,2
Farg‘ona	12	8,3	6	2,2
Xorazm	6	5,0	3	1,5
Toshkent shahri	41	25,2	27	9,8

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikamizda 2017-yilda umumiy o‘rta ta’lim 9-yillik tizimdan 11-yillik tizimga qaytarilgandan so‘ng akademik litseylar soni va ularning

kontingenti keskin kamayib ketdi. Hududlar kesimida bu jarayonga qaralsa, faqat Qashqadaryo viloyatida akademik litseylar soni qisqarmadi, boshqa barcha hududlarda esa 1,3-2,4 barobarga kamaygan. Akademik litseylarning kontingenti esa barcha hududlarda kamayib, qisqarish darajasi 2,0 barobardan (Jizzax viloyati) 4,5 barobargacha (Sirdaryo viloyati) teng bo‘ldi.

O‘zbekistonda 2022-2023-o‘quv yili boshida oliy ta’lim tashkilotlarining (OTT) umumiy soni (hududiy filiallarni qo‘shgan holda) 191 taga teng bo‘lgan. Bu raqam 2010-2011-o‘quv yiliga nisbatan 126 taga (196 % ga) ko‘paygan. Tahlillar ko‘rsatyaptiki, mamlakatimizda OTT soni 2017-yildan boshlab keskin o‘sib bormoqda (34-rasm). Birgina 2021-2022-o‘quv yili mobaynida respublikada 38 ta yangi OTT tashkil etildi. Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy va nodavlat OTTlar soni ancha ko‘paygan. Xususan, 2018-2019-o‘quv yili boshida O‘zbekistonda 10 ta xorijiy (jami OTTlarning 10,2 % i) va 1 ta nodavlat (1 %) OTT faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2022-2023-o‘quv yili boshiga kelib, mamlakatimizdagi xorijiy OTTlarning soni 28 tagacha (jami OTTlarning 14,7 % i), nodavlat OTTlarning soni esa 41 tagacha (21,5 %) yetgan.



34-rasm. O‘zbekistonda OTT sonining dinamikasi

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan jami talabalarning soni 2022-2023-o‘quv yili boshida 1040,4 ming nafarni tashkil etgan holda, shundan 94,1 ming nafar talaba nodavlat, 30,1 ming nafar talaba xorijiy OTTlarda ta’lim olayotgan edi. Talabalarning umumiy kontingenti 2021-2022-o‘quv yili boshiga qaraganda 232,0 ming nafar talabaga (28,7 % ga) ko‘paygan, 2010-2011-o‘quv yiliga nisbatan esa 765,9 ming nafar talabaga (3,8 barobar) ko‘paydi. Bu jarayonlarga nodavlat va xorijiy OTTlar sonining ko‘payishidan tashqari, oliy ta’limning sirtqi va kechki shakllarining qayta tiklanishi ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Hududlar kesimida olganda, eng ko‘p OTTlar Toshkent shahrida mujassamlashgan (42-jadval). Shuningdek, Samarqand, Farg‘ona, Buxoro, Andijon va Toshkent viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida OTTlar soni qolgan hududlarga nisbatan ko‘proq. Eng kam oliygohlar esa Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida joylashgan. OTTlarda tahsil olayotgan talabalar soni jihatidan ham, tabiiyki, Toshkent shahri alohida ajralib turgan holda, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari boshqa hududlar bilan taqqoslaganda birmuncha oldinda turadi. Sirdaryo viloyati esa talabalarning kamligi bilan boshqa hududlardan keskin ajralib turadi.

42-jadval

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha oliy ta’lim tashkilotlari va ulardagi talabalar soni (o‘quv yili boshiga)

Hududlar	2010-2011-o‘quv yili		2022-2023-o‘quv yili	
	OTTlar soni / jumladan, nodavlat OTTlar	Ulardagi talabalar soni, ming nafar	OTTlar soni / jumladan, nodavlat OTTlar	Ulardagi talabalar soni, ming nafar
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2/0	16,9	10/0	57,5
viloyatlar:				
Andijon	4/0	15,4	10/1	58,3
Buxoro	3/0	14,4	11/4	54,2
Jizzax	2/0	8,6	5/1	37,0
Qashqadaryo	2/0	11,6	9/3	57,4
Navoiy	2/0	9,7	4/2	30,3
Namangan	3/0	12,5	6/1	52,3
Samarqand	6/0	23,0	15/1	84,7
Surxondaryo	1/0	7,0	7/0	50,6
Sirdaryo	1/0	4,2	3/0	21,5
Toshkent	2/0	12,0	10/1	60,3
Farg‘ona	3/0	19,6	11/2	77,7
Xorazm	1/0	8,8	8/2	44,6
Toshkent shahri	33/0	110,8	82/23	354,0

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

OTTlar soni 2010-2011-o'quv yilidan 2022-2023-o'quv yiligacha bo'lgan davr mobaynida O'zbekistonning barcha hududlarida sezilarli darajada ko'paygan. Ayniqsa, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida OTTlar sonining keskin o'sishi qayd qilindi. OTT talabalarining soni ham barcha hududlarda ko'rilayotgan davrda sezilarli darajada ko'paygan. Ta'kidlash lozimki, ko'rilayotgan davrda OTTlar va ular kontingentining poytaxtda mujassamlashuv darajasi biroz kamaydi. Jumladan, 2010-2011-o'quv yili boshi holatiga ko'ra, O'zbekistondagi jami OTTlardan 51 % qismi va ular jami kontingentidan 43 % qismi Toshkent shahriga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022-2023-o'quv yili boshida, poytaxtning tegishli ko'rsatkichlardagi ulushi, mos ravishda, 40 % va 34 % ga teng bo'lgan. Lekin shunda ham Toshkent shahri respublika oliy ta'lim tizimi geografiyasida alohida o'rnini saqlamoqda.

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda OTTlar nafaqat Toshkent va viloyat markazlarida, balki boshqa shaharlarda ham tashkil etilmoqda. Bunday shaharlar qatoriga Chirchiq, Olmaliq, Shahrisabz, Denov, Kattaqo'rg'on, Urgut, Yangiyer va boshqa shaharlar kiradi.

Madaniyat. *Kutubxona, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari.* O'zbekiston Respublikasi bo'yicha, 2022-yil holatiga ko'ra, 12518 ta kutubxona, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2015-yilga nisbatan 860 taga (7,4 % ga), 2020-yilga nisbatan esa 1133 taga (10 % ga) ko'paygan.

Hududiy jihatdan qaraganda, kutubxona, axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni jihatidan Samarqand (1478; 11,8 %), Qashqadaryo (1400; 11,2 %) va Farg'ona (1170; 9,3 %) viloyatlari yetakchi o'rinlarni egallaydi, Sirdaryo viloyatida esa tegishli madaniy xizmat ko'rsatadigan obyektlar eng kam (423; 3,6 %). Ko'rilayotgan obyektlar soni, albatta, birinchi navbatda, hududdagi turli ta'lim muassasalari, ayniqsa, umumta'lim maktablar soni bilan bevosita bog'liq.

Muzeylar. O'zbekistonda, 2022-yil oxiriga ko'ra, 134 ta muzey faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 2158,4 mingtani tashkil etgan. Muzey eksponatlari tarkibida rassomlik, grafika, haykaltaroshlik, amaliy san'at, numizmatika (tangalar), arxeologiya buyumlari hamda fotosuratlar, hujjatlar va boshqa guruhlar ajratiladi. Respublikada 2020-2022-yillar oralig'ida muzeylar soni 34 taga, ulardagi eksponatlar soni esa 92,7 mingtaga ko'paygan.

Hududlardan muzeylar soni jihatidan Toshkent shahri (33 ta), Buxoro (19 ta), Farg'ona (17 ta) va Samarqand (15 ta) viloyatlari yetakchi

o'rinlarda tursa, Xorazm (4 ta), Andijon (3 ta), Namangan (2 ta) va Sirdaryo (1 ta) viloyatlari bu borada so'nggi o'rinlarni egallaydi. Muzeylardagi eksponatlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (1069,8 mingta), Surxondaryo (179,4 mingta) va Samarqand 150,3 mingta) viloyatlariga, eng pastlari esa Navoiy (25,9 mingta), Jizzax (18,6 mingta) va, ayniqsa, Sirdaryo (2,7 mingta) viloyatlariga tegishli. Ta'kidlash lozimki, ko'proq yangi o'zlashtirilgan yerlar va hududlardan iborat bo'lgan viloyatlarda muzey fondlari ancha kamroq.

Muzeylarga yakka tartibda va ekskursiya tarzida tashriflar soni jihatidan hududlar orasida, 2021-yil yakunlariga ko'ra, Samarqand viloyati yaqqol ustunlik bilan 1-o'rinni egallagan (2074,5 mingta). Shuningdek, Toshkent shahri (1321,9 mingta), Buxoro (449,3 mingta), Xorazm (393,9 mingta) va Farg'ona (327,8 mingta) viloyatlari boshqa hududlarga qaraganda ancha oldinda. Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar, muzeylarga tashrif buyurganlarning soni ko'p jihatdan turizm rivojlanishi bilan belgilanishini aks ettiradi.

Teatrlar. Respublikamizdagi jami teatrlar soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 50 tani tashkil etadi. O'zbekistondagi teatrlar yo'nalishi (janri) bo'yicha taqsimlanganda, drama teatrlari soni 24 tani tashkil etib, teatrlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, mamlakatimizda 10 ta musiqali teatr, 7 ta qo'g'irchoq teatri, 4 ta bolalar uchun qo'g'irchoq teatri, 4 ta yosh tomoshabinlar teatri hamda 1 ta opera va balet teatri faoliyat ko'rsatadi.

Teatrlar soni hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (18 ta teatr, 36 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida 5 tadan, Samarqand viloyatida 4 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon viloyatida 3 tadan, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida 2 tadan hamda Namangan, Sirdaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida 1 tadan teatr mavjud. Teatrlarga tashrif buyurgan tomoshabinlar ulushi hududlar kesimida tahlil qilinganida, Toshkent shahri (495,9 ming nafar), Samarqand (411,6 ming nafar) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (205,5 ming nafar) yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Rekreatsiya va turizm. *Rekreatsiya* (lotin tilidan *recreatio* – qayta tiklash) deb, kishilarning bo'sh vaqti davomida amalga oshiriladigan dam olishga hamda salomatligi va mehnatga layoqatliligini qayta tiklashga qaratilgan faoliyatiga aytiladi. Tegishli maqsadlarda foydalanilishi mumkin bo'lgan tabiiy va ijtimoiy-madaniy obyekt va sharoitlar

rekreatsiya resurslari hisoblanadi. Ular tabiiy va ijtimoiy-madaniy rekreatsiya resurslariga bo‘linadi.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston, ayniqsa, uning tog‘oldi-tog‘ hududlari turli-tuman rekreatsiya resurslariga ancha boy. Mamlakatimizdagi rekreatsiya obyektlaridan sanatoriya-kurort muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, respublikamizdagi “Zomin”, “Oqtosh”, “Xumson”, “Chortoq”, “Chimyon”, “Sitorai-Moxi-Xosa” va boshqa sihatgohlar, nafaqat mamlakatimiz aholisi orasida, balki qo‘shni mamlakatlar fuqarolari tomonidan ancha mashhur hisoblanadi. O‘zbekistonda, 2023-yil boshi holatiga ko‘ra, 243 ta sanatoriya-kurort muassasalari faoliyat ko‘rsatgan. Hududlar orasida ularning soni jihatidan Toshkent (49 ta), Qashqadaryo (32 ta), Samarqand (31 ta), Farg‘ona (29 ta) va Namangan (21 ta) viloyatlari boshqa hududlardan ancha ilgarilab ketgan. Ayni paytda, Sirdaryo (2 ta), Buxoro (5 ta) va Navoiy (5 ta) viloyatlari tegishli obyektlarning soni bo‘yicha eng so‘nggi o‘rinlarda turgan. Ushbu raqamlardan ko‘rinib turibdiki, respublikamizning tog‘oldi-tog‘ viloyatlari tekislik viloyatlariga qaraganda sanatoriya-kurort xo‘jaligi rivojlanishi jihatidan ancha ustunlikka ega.

Rekreatsiya faoliyatiga turizm, ya’ni sayyohlik sohasi bevosita yaqin hisoblanadi. Ma’lumki, O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi va betakror go‘zal tabiati bilan har yili millionlab xorijiy sayyohlarning e’tiborini o‘ziga tortadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo‘qon kabi tarixiy shaharlar o‘zining me’moriy obidalari bilan jahonga mashhur. Bunday turistik salohiyat, an’anaviy o‘zbek mehmondo‘stligi va ochiqligi, eng muhimi, mamlakatimizdagi barqarorlik va osoyishtalikka ko‘paytirilib, O‘zbekistonga xorijiy mamlakatlar aholisining keng qatlamlari tomonidan sayyohlik nuqtayi nazaridan katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Mamlakatimizga xorijiy davlatlar fuqarolarining turistik maqsadlarida kirib kelish oqimi respublika hukumati tomonidan sohada olib borilgan samarali islohotlar tufayli, ayniqsa, 2017-2019-yillarda keskin tarzda ko‘paygan. Xususan, 2018-yilda respublikamizga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan xorijliklarning soni 5346,3 ming kishini tashkil etgan holda, 2017-yilga nisbatan 198,7 % ga o‘sgan, bir yildan so‘ng esa, yana 126,2 % ga o‘sib, 6748,5 ming nafargacha yetdi. Lekin COVID-19 pandemiyasi sababli mamlakatimizda va butun jahonda joriy etilgan qat’iy karantin choralari bu ijobiy tendensiyaga barham berdi. Natijada, 2020-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlarning soni 4,5 barobar kamayib, 1504,1 ming kishigacha tushib

ketdi. Keyingi 2 yilda, karantin choralari yumshalishi va olib tashlanishi munosabati bilan tahlil etilayotgan ko‘rsatkich qaytadan o‘sishni boshladi, ammo 2022-yil yakunlari bo‘yicha olinganda, pandemiyadan oldingi darajagacha yetgani yo‘q.

O‘zbekistonga 2022-yil davomida kelgan xorijiy fuqarolar soni 5232,8 ming kishini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 2,8 barobarga oshgan. Ulardan 4968,1 ming nafari (94,9 % i) MDH davlatlaridan, 264,7 ming nafari (5,1 % i) boshqa xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan. Yurtimizga tashrif buyurgan xorijliklardan 89 % qismi qarindoshlarini yo‘qlash maqsadida kelgan bo‘lsa, bevosita bo‘sh vaqt o‘tkazish va dam olish maqsadida 7,5 % qismi (392,2 ming kishi) kelgan. Xususan, respublikamizga MDH davlatlaridan kelgan xorijiy fuqarolarning 92,3 % i qarindoshlarini yo‘qlash maqsadida, boshqa xorijiy davlatlardan kelgan xorijliklarning eng katta qismi – 53,1 % i – bo‘sh vaqt o‘tkazish va dam olish maqsadlarida tashrif buyurgan.

Mamlakatimizga kelgan xorijliklar tarkibida Qozog‘iston (29,6 %), Tojikiston (27,7 %), Qirg‘iziston (25,9 %) va Rossiya (10,8 %) fuqarolari son jihatdan alohida ajralib turadi. Keyingi o‘rinda turgan Turkiyadan kelgan sayyohlarning ulushi 1,4 % ni tashkil etadi, xolos. Bevosita bo‘sh vaqt o‘tkazish va dam olish maqsadida tashrif buyurganlar olinsa, ularning tarkibida Rossiya (157,4 ming kishi; 40,1 %), Qozog‘iston (37,9 ming kishi; 9,7 %) va Turkiya (23,3 ming kishi; 5,9 %) fuqarolari yetakchilik qilgan.

Mamlakatimizda, 2022-yil holatiga ko‘ra, 348 ta turistik firma va tashkilot faoliyat ko‘rsatgan. E’tiborlisi, 2019-yilda bu raqam 517 tani tashkil etgan bo‘lib, 2020-yilda 337 ta, 2021-yilda esa 288 tagacha kamaydi. O‘zbekistondagi turistik firma va tashkilotlarining 60 % qismidan ko‘prog‘i Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatadi. Xattoki, Samarqand (15 %) va Buxoro (7 %) viloyatlari bu jihatdan poytaxtdan ancha orqada. Albatta, bu holatga aholining chiqish turizmiga bo‘lgan talabi ham katta rol o‘ynaydi. Qolaversa, logistika masalalari ham, ya’ni aksariyat aviareyslar Toshkent orqali amalga oshirilishi soha korxonalarining poytaxtda mujassamlashuviga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizdagi sayyohlik firma va tashkilotlari tomonidan xizmat ko‘rsatilganlar soni 2019-yilda 942,0 ming kishi, 2020-yilda 212,3 ming kishi, 2021-yilda 577,8 ming kishi, 2022-yilda esa 673,8 ming kishini tashkil etdi.

Mamlakatimizdagi mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 2022-yilda 1167 taga yetib, 2021-yilga nisbatan 82 taga

ko‘paydi. Respublikamizda so‘nggi bir necha yillarda (2020-2021-yillardan tashqari) mehmonxona xo‘jaligi ancha ijobiy dinamika bilan rivojlanib borgan va hozirgi vaqtda bu tendensiya qayta tiklandi. Tegishli obyektlarning soni bo‘yicha Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari yetakchilik qiladi. Bu hududlarga, umumiy hisobda, respublikamizdagi jami mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalarining salkam 2/3 qismi to‘g‘ri keladi.

Savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiy soha tarkibiga qaysi tarmoqlar kiradi va ular qaysi 2 ta guruhga bo‘linadi?
2. Respublikamizda ko‘rsatilgan pullik xizmatlar tarkibida so‘nggi yillarda qaysi iqtisodiy faoliyat turlari yetakchilik qiladi?
3. O‘zbekistonda pullik xizmatlar ko‘rsatilishining hududiy tarkibiga qanday xususiyatlar xos?
4. Mamlakatimizda chakana savdo tovar aylanmasi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarining o‘zaro nisbati jihatidan qanday tarzda o‘zgarib bormoqda? Bu o‘zgarishlarni qanday omillar bilan bog‘lash mumkin?
5. O‘zbekistonda chakana savdo tovar aylanmasining hududiy tarkibi so‘nggi yillarda qanday ravishda o‘zgarmoqda? Chakana savdo aylanmasi hamda aholining turmush darajasi va tarzi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib bering.
6. Respublika hududlari orasida sog‘liqni saqlash tizimining asosiy ko‘rsatkichlari jihatidan eng yuqori va eng so‘nggi o‘rinlarda turgan hududlarni ajrating.
7. Hududlarda maktabgacha ta’lim tizimi rivojlanganligi va samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi nima? Uning O‘zbekistondagi holati va o‘zgarish tendensiyalarini izohlang.
8. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim qaysi tillarda olib boriladi? Turli tillarda maktab ta’limi qaysi hududlarda tashkil etilganligi haqida ma’lumot bering.
9. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlari tarmog‘i qanday rivojlanmoqda? Uning dinamikasiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan? Mamlakatimizda oliygohlar geografiyasi qanday o‘zgarib bormoqda?
10. Madaniyat xizmatlarini ko‘rsatadigan muassasalarga nimalar kiradi? Ularning respublikamizdagi hududiy tarkibi va unga ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni izohlang.
11. Rekreatsiya nima? Rekreatsiya resurslari nima va ular qanday guruhlarga bo‘linadi?
12. O‘zbekistonning turistik salohiyati haqida nimalarni bilasiz? Qaysi davlatlar fuqarolari O‘zbekistonga umumiy hisobda hamda bevosita bo‘sh vaqt o‘tkazish va dam olish maqsadida eng ko‘p tashrif buyuradilar?

Test savollari

1. O‘zbekistonda 2022-yilda aholiga ko‘rsatilgan pullik xizmatlar tarkibida xizmatlarning qaysi turi yetakchilik qilgan?
A) Savdo xizmatlari
B) Transport xizmatlari
C) Moliya xizmatlari
D) Aloqa xizmatlari

2. Quyidagi viloyatlardan qaysi birining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 2010-2022-yillar oralig‘ida ko‘paydi?
A) Andijon viloyati
B) Buxoro viloyati
C) Namangan viloyati
D) Surxondaryo viloyati

3. Qaysi ta’lim tilida faoliyat olib boradigan maktablar O‘zbekiston bo‘yicha faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida mavjud?
A) Qoraqalpoq tili
B) Qozoq tili
C) Qirg‘iz tili
D) Turkman tili

4. Oliy ta’lim tashkilotlarining soni bo‘yicha qaysi hudud O‘zbekistonda oxirgi o‘rinda turadi (2022-y.)?
A) Jizzax viloyati
B) Sirdaryo viloyati
C) Xorazm viloyati
D) Surxondaryo viloyati

5. Qaysi xorijiy davlat fuqarolari O‘zbekistonga 2022-yilda eng katta miqdorda tashrif buyurgan?
A) Tojikiston
B) Qirg‘iziston
C) Qozog‘iston
D) Turkmaniston

14-§. O‘zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi

O‘zbekiston transport tizimiga umumiy tavsif. Transport milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri, uning qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U ishlab chiqarish bilan iste’molni bog‘lab, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Transport to‘ri har qanday hududning o‘zlashtirilganlik va rivojlanganlik darajasini belgilovchi, hududiy mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi, iqtisodiy rayonlarni shakllantiruvchi muhim omildir. Hududning transport geografik o‘rin esa iqtisodiy geografik o‘rinning eng muhim jihati hisoblanadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Yevrosiyo materigining qoq o‘rtasida joylashgan. Mamlakatimizning bunday transport geografik o‘rni uning markaziyligi, tranzitligini aks ettiradi, shu bilan birga, uning dengiz yo‘llaridan uzoqda, quruqlik ichkarisida joylashganini bildiradi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi dengiz va okean portlariga turli yo‘nalishlarda chiqish yo‘llariga ega bo‘lish, Yevrosiyoning turli qismlaridagi regional transport tizimlari bilan bog‘lanish orqali iqtisodiy geografik o‘rnining tranzit imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadlarida transport sohasida Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Xitoy, Ozarbayjon, Gruziya, Eron, Ummon kabi davlatlar bilan keng qamrovli o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda. Buni O‘zbekistonning “Yangi Ipak yo‘li”, TRASEKA, “Shimol-Janub” xalqaro transport koridori, “O‘zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon” xalqaro transport koridori singari yirik xalqaro transport-logistika loyihalaridagi faol ishtirok etishidan ko‘rish mumkin. So‘nggi yillarda Xitoy-Qirg‘iziston-Xitoy temir yo‘li loyihasi ustidagi ishlar ham faollashdi.

Mamlakatimiz yordamida qurilgan Afg‘oniston hududidagi birinchi Termiz-Mozori-Sharif temir yo‘li O‘zbekistondan janubiy yo‘nalishda Dunyo okeani portlariga tomon eng qisqa transport chiqishini yaratishning dastlabki bosqichi bo‘ldi. Afsuski, Afg‘onistondagi siyosiy vaziyatning beqarorligi bu davlat hududidan Hind okeaniga tomon loyihalashtirilgan transport magistrallari qurilishini noaniq muddatgacha to‘xtatib turibdi.

O‘zbekistonda transportning temir yo‘l, avtomobil, havo, quvur kabi turlari asosiy ahamiyatga ega. Quruqlik ichkarisida joylashganligi bois, O‘zbekiston iqtisodiyotida suv transportining ahamiyati juda past, deyarli yo‘q darajada.


43-jadval

O‘zbekiston transportida yuk va yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Yuk tashish	*mln tonna*	763,2	1070,5	1366,7	1420,9
Yuk aylanmasi	*mlrd tonna-km*	60,4	65,8	66,9	75,5
Yo‘lovchi tashish	*mln kishi*	4072,0	5380,0	5295,9	6245,3
Yo‘lovchi tashish aylanmasi	*mlrd yo‘lovchi-km*	76,5	120,1	118,3	146,5

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekistonda, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, barcha transport turlari orqali 1420,9 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2010-yilga nisbatan 657,7 mln tonnaga, yoki 86,2 % ga ko‘paydi. Yuk aylanmasi (yuk tashish hajmi va 1 tonna yuk tashishning o‘rtacha masofasining ko‘paytmasi) esa 2010-2022-yillar mobaynida 60,4 mlrd tonna-kmdan 75,5 mlrd tonna-kmgacha, ya’ni 25 % ga ko‘paydi (43-jadval).



35-rasm. Tashiligan yuk va yuk aylanmasining transport turlari bo‘yicha taqsimlanishi (2022-yil, %)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Transport turlari ichida O‘zbekistonda eng ko‘p yuk avtomobil transportida tashiladi. Uning jami yuk tashish hajmidagi ulushi 2022-yilda 90,4 % ni tashkil etdi (35-rasm). Temir yo‘l transportining yuk tashishdagi salmog‘i 5,1 % ga teng. Quvur transportida (neft va gaz quvurlari orqali) barcha yuklarning 4,5 % qismi tashilgan. Havo

transportida esa 10,1 ming tonna, yani jamiga nisbatan 0,001 % yuk tashilgan, xolos.

Yalpi yuk aylanmasi tarkibida, 2022-yil holatiga ko'ra, 39,3 % quvur transporti, 33,1 % temir yo'l transporti, 27,2 % avtomobil transporti, 0,4 % havo transportiga to'g'ri kelgan (35-rasm). Transport turlari bo'yicha tashilgan yuk va yuk aylanmasi taqsimlanishidagi farqlanish yuklar avtomobil transportida, asosan, qisqa masofaga, boshqa transport turlarida esa uzoq masofaga tashilishi bilan izohlanadi. So'nggi yillarda yuk aylanmasi tarkibida quvur transportining salmog'i borgan sari kamayib bormoqda. Buni, asosan, tabiiy gaz eksportining kamayishi bilan bog'lash mumkin.

Respublikamizda 2022-yilda barcha transport turlarida tashilgan yo'lochilarning umumiy soni 6245,3 mln kishiga teng bo'lgan. Bu raqam, 2010-yil bilan taqqoslaganda, 2173,4 mln kishi, yoxud 53,4 % ga ko'paygan. Yo'lovchi tashish aylanmasi (tashilgan yo'lovchi soni va bir yo'lovchi tashilgan o'rtacha masofaning ko'paytmasi), 2022-yil yakunlariga ko'ra, 146,5 mlrd yo'lovchi-kmni tashkil etgan bo'lib, 2010-yilga qaraganda, 62,7 mlrd yo'lovchi-kmga, ya'ni 74,7 % ga ortgan (43-jadval).

Yo'lovchi tashishda avtomobil transporti yaqqol ustuvorlikka ega. Xususan, 2022-yilda barcha transport turlarida tashilgan yo'lovchilarning 97,55 % i aynan avtomobil transportida tashilgan. Metropolitenda jami yo'lovchilarning 2,19 % i tashildi. Temir yo'l transportining yo'lovchi tashishdagi ulushi 0,14 %, havo transportining hissasi esa 0,07 % ni tashkil etgan. Tramvaylarning yo'lovchi tashishdagi salmog'i 0,05 %, trolleybuslarning ulushi esa 0,01 % ga teng. Yo'lovchi tashish aylanmasi tarkibida avtomobil transportining salmog'i 89,43 %, havo transportining salmog'i 7,44 %, temir yo'l transportining ulushi 2,43 %, metropoliten transporti hissasi 0,68 %, tramvay va trolleybus transportining ulushi 0,02 % ni tashkil qilgan.

Temir yo'l transporti. O'zbekiston hududida birinchi temir yo'llar XIX asr oxiri – XX asr boshida qurilgan. Bular Kaspiyorti temir yo'li (Krasnovodsk (hozirgi Turkmanboshi) – Andijon) hamda Orenburg – Toshkent temir yo'llaridir. Keyinchalik ko'plab boshqa temir yo'l magistrallari ham qurildi. Respublikaning boshqa hududlar bilan transport aloqalarini rivojlantirishda, ayniqsa, Qo'ng'irot – Beynov – Makat – Aleksandrov Gay temir yo'l magistralining qurilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Biroq, respublikamiz temir yo'llar to'ri Mustaqillik davridan oldin uning turli hududlarini bog'lash nuqtai nazaridan yagona tizimni tashkil etmasdi. Shu bois, Mustaqillik yillarida O'zbekistonda transport xavfsizligiga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu jarayonda baland tog' tizmalari va keng cho'llar orqali, qo'shni davlatlar hududiga kirmagan holda o'tgan yangi temir yo'l magistrallari qurildi. Natijada Surxondaryo viloyati hududi Toshg'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi Uchquduq – Miskin – Nukus, Konimex – Miskin va Urganch-Xiva, Farg'ona vodiysi Angren – Pop temir yo'llari orqali O'zbekistonning yagona temir yo'llar tarmog'i bilan bog'landi. Natijada mamlakatning transport xavfsizligi, birbutunligi va mustaqilligi ta'minlandi. O'zbekiston hududi shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa yuzlab kilometr masofaga cho'zilganligi hamda davlat chegaralarining o'ziga xos shaklda tog' tizmalari va keng yastanib yotgan cho'llar orqali o'tganligini hisobga olsak, bu masala dolzarb geostrategik ahamiyatga ega ekanligiga amin bo'lamiz. Umuman olganda, mamlakatimizda Mustaqillik yillarida transport tizimini rivojlantirishda erishilgan natijalardan eng ahamiyatlisi respublika temir yo'l transporti tizimining birbutunligiga erishilganligidir.

Bundan tashqari, O'zbekistonda temir yo'llarini elektrlashtirish va tezyurar poezd yo'nalishlarini barpo etish bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent – Samarqand yo'nalishi bo'yicha "Afrosiyob", Toshkent – Qarshi yo'nalishida "Nasaf", Toshkentdan Buxorogacha "Sharq" tezyurar poezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda, 2022-yil holatiga ko'ra, temir yo'llarining foydalaniladigan uzunligi 6,1 ming kmni tashkil etgan bo'lib, umumfoydalanadigan temir yo'llarining uzunligi 4,7 ming km, idoraviy temir yo'llarning uzunligi 1,4 ming kmga teng. Umumfoydalanadigan temir yo'llarining uzunligi 2010-2022-yillar oralig'ida 491 kmga, yoki 11,6 % ga oshgan bo'lsa, idoraviy temir yo'llarining umumiy uzunligi 664 kmga kamaygan. Natijada temir yo'llarining foydalaniladigan uzunligi 173 kmga qisqardi. Respublikadagi umumfoydalanadigan temir yo'llarining 38,7 % i (1,8 ming km) elektrlashtirilgan. Bu ko'rsatkich, 2010-yil holatiga ko'ra, 16 % (0,7 ming km) ni tashkil etgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida 2,4 barobar ko'paydi.

O'zbekiston bo'yicha temir yo'llar zichligi, 2022-yil holatiga ko'ra, har 10 000 km^2 maydonga 138 yo'l kmga teng. Shu jumladan, umumfoydalanadigan temir yo'llari zichligi har 10 000 km^2 maydonga 105 yo'l kmni tashkil etgan.

O‘zbekiston hududlari orasida umumfoydalanadigan temir yo‘llarining eng katta uzunligi Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tegishli. Boshqa hududlardan Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida bu ko‘rsatkich nisbatan yuqori. Tegishli ko‘rsatkich bo‘yicha so‘nggi o‘rinlarni Xorazm, Sirdaryo va Andijon viloyatlari egallaydi. Bu boradagi hududlararo tafovutlar, asosan, viloyatlar maydonining katta-kichikligi bilan izohlanishi mumkin.

Xuddi shu omilning ta’sirida umumfoydalanadigan temir yo‘llarining zichligi ham respublika hududlarida turlichadir. Bu ko‘rsatkich maydoni kichik bo‘lgan, aholisi zich joylashgan Sirdaryo, Andijon, Farg‘ona, Xorazm va Namangan viloyatlarida eng yuqori bo‘lsa, hududining katta qismi cho‘llardan iborat bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlarida eng past darajada (43-jadval).

Umumfoydalanadigan temir yo‘llarining uzunligi va zichligi 2010-2022-yillar oralig‘ida Buxoro, Namangan, Xorazm, Navoiy, Toshkent viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida sezilarli darajada oshgan. Boshqa hududlarda esa mazkur ko‘rsatkichlar juda kichik darajada o‘zgargan yoki umuman o‘zgarmagan.

44-jadval

O‘zbekiston hududlarida umumfoydalanadigan temir yo‘llarining uzunligi va zichligi

Hududlar	Umumfoydalanadigan temir yo‘llarining uzunligi, km		Umumfoydalanadigan temir yo‘llarining uzunligi (har 10 000 km² maydonga yo‘l km)	
	2010-yil	2022-yil	2010-yil	2022-yil
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	844,3	885,3	50,7	53,1
viloyatlar:				
Andijon	155,8	155,8	362,3	362,3
Buxoro	270,6	499,2	62,9	124,1
Jizzax	280,5	274,5	132,3	129,4
Qashqadaryo	492,7	492,7	172,4	172,5
Navoiy	469,3	512,4	42,3	46,1
Namangan	144,6	224,3	194,3	301,5
Samarqand	283,8	282,9	172	168,7
Surxondaryo	409,4	425,6	203,7	211,7
Sirdaryo	160,1	160,9	374,1	375,9
Toshkent	348,8	390,9	228	255,3
Farg‘ona	228,6	228,6	338,2	338,2
Xorazm	138,7	199,6	229,3	329,9

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Temir yo‘l transportida 2022-yilda 73,4 mln tonna yuk tashilgan. Bu ko‘rsatkich so‘nggi yillarda mutassil o‘sib borib, 2010-yilga nisbatan 16,5 mln tonnaga, ya’ni 28,9 % ga ko‘paygan. Temir yo‘l transportida yuk aylanmasi 2022-yilda 25,0 mlrd tonna-kmni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2010-yilga nisbatan 2,7 mlrd tonna-kmga, yoki 12,2 % ga ortgan. Temir yo‘l transportida tashilgan yuklar tarkibida metal rudalari, qurilish yuklari, neft yuklari, ko‘mir, ma’danli o‘g‘itlar eng katta salmoqqa ega.

Temir yo‘llari orqali 2022-yilda jami 9,0 mln yo‘lovchi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2020-yilda karantin sharoitida birdaniga keskin kamayib, xanuzgacha 2019-yil darajasi (22,9 mln yo‘lovchi) gacha yetmadi. Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish aylanmasi, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, 3,6 mlrd yo‘lovchi-kmni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich ham 2020-yilda keskin pasayib, keyingi 2 yilda qayta tiklanmoqda.

Temir yo‘llarida yuk tashish hajmi bo‘yicha Toshkent va Navoiy viloyatlari peshqadamlik qilmoqda. Bu ikki hududga respublika bo‘yicha temir yo‘llarida tashilgan yukning salkam yarmi to‘g‘ri keladi. Bu holatni ushbu ikki viloyatda turli yirik sanoat korxonalar joylashganligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, Buxoro, Farg‘ona, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida bu ko‘rsatkich nisbatan yuqoridir.

Temir yo‘llarida yo‘lovchi tashish hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida qayd qilingan. Ushbu ikki viloyatning respublika bo‘yicha temir yo‘l transportida tashilgan yo‘lovchilar umumiy sonidagi ulushi salkam 70 % ni tashkil etadi. Bu holat tegishli hududlarda shahar atrofi yo‘nalishida temir yo‘l marshrutlarining rivojlanganligi bilan bog‘liq. Boshqa hududlardan Surxondaryo viloyatida temir yo‘llarida tashilgan yo‘lovchilar soni nisbatan yuqori darajada.

Avtomobil transporti. Respublikada, 2022-yil holatiga ko‘ra, qattiq qoplamali avtomobil yo‘llarining foydalaniladigan uzunligi 43,9 ming kmni tashkil etgan bo‘lib, jumladan umumfoydalanadigan qattiq qoplamali avtomobil yo‘llarining uzunligi 42,3 ming kmga, idoraviy qattiq qoplamali avtomobil yo‘llarining uzunligi 1,6 ming kmga teng bo‘lgan. O‘zbekiston bo‘yicha umumfoydalanadigan qattiq qoplamali avtomobil yo‘llari zichligi, 2022-yil holatiga ko‘ra, har 1 000 km² maydonga 93,7 yo‘l kmga teng. Respublika hududlaridan umumfoydalanadigan qattiq qoplamali avtomobil yo‘llarining eng katta uzunligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Buxoro viloyatlariga tegishli. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha so‘nggi o‘rinlarni Xorazm va Sirdaryo viloyatlari egallamoqda. Avtomobil

yo‘llarining zichligi Andijon, Farg‘ona, Xorazm va Namangan viloyatlarida eng yuqori bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatlarida u ancha pastdir.

Avtomobil transportida 2022-yilda 1284,1 mln tonna yuk tashilgan. Bu ko‘rsatkich 2010-yilga qaraganda 631,6 mln tonnaga, yoki 97 % ga ortgan. Avtomobil transportida yuk aylanmasi esa 20,5 mlrd tonna-kmni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2010-yilga nisbatan 11,4 mlrd tonna-kmga, ya’ni 125 % ga ko‘paygan. Avtomobil transportida yuk tashish hajmi bo‘yicha Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri yetakchilik qilmoqda.

Avtomobil transportida 2022-yilda jami 6092,1 mln yo‘lovchi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2010-2022-yillar oralig‘ida 2129,5 mln yo‘lovchi, yoxud 53,7 % ga ko‘paygan. Avtomobil transportida yo‘lovchi tashish aylanmasi 131 mlrd yo‘lovchi-kmni tashkil etgan. Bu raqam 2010-yilda 67,2 mlrd yo‘lovchi-kmga teng bo‘lgan va o‘tgan yillar mobaynida 75,9 % ga oshdi. Avtomobil transportida yo‘lovchi tashish hajmi bo‘yicha yaqqol peshqadamlik Toshkent shahriga tegishli. Boshqa hududlardan Andijon, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida bu ko‘rsatkich nisbatan balanddir.

45-jadval

Jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtomobillarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi (2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)

Hududlar	Jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtomobillar soni	Respublikadagi ulushi, %	Har 100 aholiga nisbatan	Nisbiy indeks (respublika ko‘rsatkichi = 1,00)
O‘zbekiston Respublikasi	3396520	100,0	9,4	1,00
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	138867	4,1	7,0	0,75
Andijon	229609	6,8	6,9	0,74
Buxoro	218054	6,4	10,8	1,15
Jizzax	96338	2,8	6,5	0,69
Qashqadaryo	273020	8,0	7,8	0,83
Navoiy	100238	3,0	9,5	1,01
Namangan	228745	6,7	7,6	0,81
Samarqand	387611	11,4	9,4	1,00
Surxondaryo	205455	6,0	7,3	0,78
Sirdaryo	66979	2,0	7,5	0,79
Toshkent	346956	10,2	11,6	1,23
Farg‘ona	329409	9,7	8,3	0,88
Xorazm	213139	6,3	10,9	1,16
Toshkent shahri	562100	16,5	19,0	2,02

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekistonda, 2023-yil boshi holatiga ko‘ra, 3396520 ta jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan yengil avtomobillar ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Hududlar kesimida bu ko‘rsatkich bo‘yicha oldingi o‘rinlarni Toshkent shahri, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari egallaydi. Har 100 ta aholiga nisbatan olganda, Toshkent shahri ko‘rsatkichi respublika bo‘yicha o‘rtacha darajadan 2,02 barobar ko‘p. Shuningdek, respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqoriroq indeks Toshkent, Buxoro, Xorazm va Navoiy viloyatida qayd qilingan. Eng past ko‘rsatkichlar esa Jizzax, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tegishli (45-jadval).

Havo transporti. O‘zbekistonda 2022-yilda havo transportida 10,1 ming tonna yuk tashilgan bo’lib, bu raqam barcha transport turlarida tashilgan yukning 0,001 % ini tashkil qiladi. Mazkur ko‘rsatkich, 2010-yil bilan taqqoslaganda, 19,3 ming tonnaga, yoki 65,4 % ga kamaygan.

Havo transportida yuk aylanmasi 322,8 mln tonna-kmga teng bo‘lib, jami yuk aylanmasining 0,4 % qismini tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich 2010-2022-yillar oralig‘ida 154,8 mln tonna-kmga, yoxud 92,1 % ga ko‘paydi. Tashilgan yukning kamaygani hisobga olinsa, yuk aylanmasining ko‘payishini yuk tashishning o‘rtacha masofa sezilarli darajada o‘sgani bilan izohlash mumkin.

Havo yo‘llari orqali 2022-yilda 4,1 mln yo‘lovchi tashilgan bo‘lib, tegishli ko‘rsatkich 2010-yilga qaraganda 2,2 mln yo‘lovchiga (115 % ga) ko‘paygan.

Aeroportlar Toshkent, Nukus shsharlarida hamda Jizzax, Guliston va Nurafshondan tashqari barcha viloyat markazlarida mavjud. Eng so‘nggi vaqtda So‘x (Farg‘ona viloyati), Mo‘ynoq (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) va Zomin (Jizzax viloyati) ga tomon mahalliy aviareyslar yo‘lga qo‘yildi.

Quvur transporti. Ushbu transport turi yordamida tabiiy gaz va neftning aksariyat qismi tashiladi. 2022-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistondagi transport quvurlarining umumiy uzunligi 13,9 ming kmga teng. Quvur yo‘llarining barchasi 2020-yildan buyon gaz quvurlardan iborat. 2010-yilga nisbatan mamlakatimizdagi gaz quvurlarining uzunligi 343 kmga kamaygan.

O’zbekistondagi gaz quvurlari orqali 2022-yilda 63,5 mln tonna tabiiy gaz quyildi. Quvur transportida yuk aylanmasi 29,7 mlrd tonna-kilometrni tashkil etgan.

Elektrlashgan shahar transporti. Ushbu transport turiga metropoliten, tramvay va trolleybus yo'llari kiradi. Bu aloqa yo'llaridan faqat yo'lovchi tashishda foydalaniladi.

Ma'lumki, O'zbekistonda metropoliten Toshkent shahrida bunyod etilgan. Toshkent metropoliteni yo'llarining uzunligi, 2022-yil holatiga ko'ra, 59,1 kmni tashkil etgan va 2020-yil bilan taqqoslaganda, 17 kmga ortgan. So'nggi yillarda Toshkent metropolitenida yangi yo'nalish va bekatlarni qurish bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshkent metropolitenida 2022-yilda 136,7 mln yo'lovchi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 3,5 barobar ko'paygan. Yo'lovchi tashish aylanmasi 2020-2022-yillar oralig'ida 0,3 mlrd yo'lovchi-kmdan 1,0 mlrd yo'lovchi-kmgacha oshdi.

O'zbekiston shaharlaridagi tramvay yo'llarining umumiy uzunligi 2022-yilda 12,9 kmni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich, 2010-yil bilan qiyoslaganda, 95,6 kmga, ya'ni 8,4 barobarga kamaygan. Tramvay yo'llari orqali tashilgan yo'lovchilar soni ko'rilayotgan vaqt oralig'ida 25,8 mln kishidan 2,9 mln kishigacha (8,9 barobarga) pasaygan.

Trolleybus yo'llarining O'zbekiston bo'yicha uzunligi, 2022-yil holatiga ko'ra, 35,6 kmga teng. Ta'kidlash lozimki, respublikamizda faqat bitta trolleybus yo'nalishi (Urganch-Xiva) faoliyat ko'rsatadi. Trolleybus yo'llari orqali 2010-yilda 1,6 mln yo'lovchi tashilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, bu ko'rsatkich 0,5 mln yo'lovchigacha pasaygan.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy ko'rsatkichlari. Jahonning barcha mamlakatlaridek, O'zbekiston Respublikasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etadi. Boshqa davlatlar bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi *tashqi iqtisodiy aloqalar* deb ataladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning eng muhim tarkibiy qismi *tashqi savdo* hisoblanadi. Tashqi savdo mahsulot va xizmatlarning *eksporti* (ya'ni, tashqariga chiqarilishi) va *importi* (ya'ni, tashqaridan olib kirilishi) dan iborat.

Mamlakat eksporti va importining yig'indisi *tashqi savdo aylanmasi* deb ataladi. Eksport va importning ayirmasi esa *tashqi savdo balansi (saldosi)* hisoblanadi. Tashqi savdo aylanmasi va balansi mamlakat tashqi savdo aloqalarining eng asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi, 2022-yil yakunlari bo'yicha, 50 mlrd AQSH dollaridan oshdi. Jumladan, eksport hajmi 19,3 mlrd AQSH dollari, import hajmi esa 30,7 mlrd AQSH dollariga teng bo'ldi (46-jadval). Tashqi savdo aylanmasi, 2010-yil bilan taqqoslaganda, 2,2 barobar, 2000-yil bilan solishtirganda esa 8,1 barobar oshgan. Tashqi

savdo aylanmasi dinamikasiga COVID-19 pandemiyasi va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan karantin salbiy ta'sir ko'rsatgan, lekin 2021-yildan buyon bu borada ijobiy dinamika tiklandi. Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimizning importi eksportidan ko'ra ancha tezroq o'sib bormoqda. Natijada O'zbekistonning tashqi savdo saldosi 2010-2022-yillarda 3847,6 mln AQSH dollaridan -11390,2 mln AQSH dollarigacha tushdi.

46-jadval

O'zbekiston tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlarining dinamikasi (mln AQSH doll.)

Tashqi savdo ko'rsatkichlari	Yillar						
	2000	2005	2010	2015	2019	2020	2022
Tashqi savdo aylanmasi	6212,1	9500,1	22199,2	24924,2	41751,0	36256,1	50008,4
Eksport hajmi	3264,7	5408,8	13023,4	12507,6	17458,7	15102,3	19309,1
Import hajmi	2947,4	4091,3	9175,8	12416,6	24292,3	21153,8	30699,3
Tashqi savdo balansi	317,3	1317,5	3847,6	91,0	-6833,6	-6051,5	-11390,2

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2022-yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining 38,4 % i MDH mamlakatlari, 61,6 % i boshqa xorijiy mamlakatlariga to'g'ri kelgan. 2010-yilda esa MDH mamlakatlarining O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 42,2 %, boshqa xorijiy mamlakatlarning ulushi esa 57,8 % ga teng bo'lgan.

47-jadval

O'zbekiston Respublikasining 10 ta eng yirik tashqi savdo hamkorlari (2022-y.)

№	Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi		Eksport, mln AQSH doll.	Import, mln AQSH doll.	Tashqi savdo balansi, mln AQSH doll.
		Mln AQSH doll.	Ulushi, %			
1	Rossiya	9279,7	18,6	3066,9	6212,8	-3145,9
2	Xitoy	8923,8	17,8	2519,0	6404,8	-3885,8
3	Qozog'iston	4621,0	9,2	1379,7	3241,2	-1861,5
4	Turkiya	3223,9	6,4	1507,4	1716,5	-209,1
5	Koreya Respublikasi	2340,6	4,7	48,1	2292,5	-2244,4
6	Qirg'iziston	1260,0	2,5	979,3	280,7	698,6
7	Germaniya	1159,3	2,3	88,9	1070,4	-981,5
8	Turkmaniston	926,3	1,9	194,8	731,5	-536,7
9	Afg'oniston	759,9	1,5	750,6	9,3	741,3
10	Hindiston	690,5	1,4	35,6	654,9	-619,3

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari. Tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha O‘zbekistonning eng yirik hamkorlari Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va Koreya Respublikasi hisoblanadi. Bu beshta mamlakatga 2022-yilda respublika tashqi savdo aylanmasining 56,7 % i to‘g‘ri kelgan (47-jadval).

Shuningdek, Qirg‘iziston, Germaniya, Turkmaniston, Afg‘oniston va Hundiston ham 2022-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonning 10 ta eng yirik tashqi savdo hamkorlari qatoriga kirdi. Respublikamiz tashqi savdo balansi asosiy savdo hamkorlarining ko‘pchiligi bilan manfiy qiymatga ega. Xususan, birinchi o‘ntalikdagi hamkorlardan faqatgina Qirg‘iziston va Afg‘oniston bilan respublikamizning tashqi savdo balansi musbat qiymatga egadir.

48-jadval

O‘zbekistonning yetakchi tashqi savdo hamkorlari tarkibining o‘zgarishi (2000-2022-yy., yalpi tashqi savdo aylanmasidan %)

2000		2005		2010		2015	
Rossiya	16,3	Rossiya	21,7	Rossiya	27,7	Xitoy	19,0
Koreya Resp.	6,3	Koreya Resp.	5,9	Xitoy	9,8	Rossiya	17,9
Ukraina	5,3	Turkiya	5,5	Qozog‘iston	8,5	Qozog‘iston	10,8
Qozog‘iston	5,1	Qozog‘iston	5,4	Koreya Resp.	7,3	Koreya Resp.	7,0
AQSH	5,0	Xitoy	5,1	Turkiya	4,4	Turkiya	4,8
2018		**2019**		**2020**		**2022**	
Xitoy	19,0	Xitoy	18,1	Xitoy	17,7	Rossiya	18,6
Rossiya	16,9	Rossiya	15,7	Rossiya	15,5	Xitoy	17,8
Qozog‘iston	8,9	Qozog‘iston	8,0	Qozog‘iston	8,3	Qozog‘iston	9,2
Turkiya	6,4	Koreya Resp.	6,5	Koreya Resp.	5,9	Turkiya	6,4
Koreya Resp.	6,3	Turkiya	6,0	Turkiya	5,8	Koreya Resp.	4,7

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

E’tiborlisi, O‘zbekiston tashqi savdo geografiyasi yuqori darajada barqaror xususiyatga ega. Ta’kidlash lozimki, 2005-yildan buyon mamlakatimiz tashqi savdo hamkorlarining birinchi beshtaligi tarkibi o‘zgarmasdan saqlanib qolmoqda (47-jadval). Bu 5 ta davlat hissasiga 2010-yilda mamlakatimiz yalpi tashqi savdo ayanmasining 57,7 % i to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2022-yilda ularning umumiy ulushi, yuqorida aytib o‘tilgandek, 56,7 % ni tashkil etdi.

Ammo respublika asosiy tashqi savdo hamkorlarining uning jami tashqi savdo aylanmasidagi salmoqlari ko‘rilayotgan davrda ma’lum darajada o‘zgardi. Bu o‘zgarishlarning eng muhimi Xitoy ulushining keskin o‘sganligidan iborat. Xususan, 2000-yil holatiga ko‘ra Xitoy mamlakatimizning 5 ta eng yirik savdo hamkorlari ichiga kirmagan

bo‘lsa, 2015-yilga kelib bu davlat ko‘rilayotgan reytingda birinchi o‘ringa chiqdi. Mos ravishda, ko‘p yillar davomida katta ustuvorlik bilan mamlakatimizning eng yirik savdo hamkori bo‘lib kelgan Rossiyaning O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2010-yildan keyin pasayib bordi va bu davlat yetakchilikni Xitoyga boy berdi. Bu jarayonlarga mamlakatimiz tabiiy gaz eksportining asosiy yo‘nalishi Rossiyadan Xitoyga qarab o‘zgarganligi hamda Xitoydan mashina va uskunalar importining keskin oshganligi ta’sir etdi. Lekin eng so‘nggi vaqtda (2021-2022-yy.), pandemiyadan keyin O‘zbekiston va Rossiyaning o‘zaro savdo aylanmasi sezilarli darajada o‘sdi. Umuman olganda, so‘nggi 10 yil davomida Rossiya va Xitoy O‘zbekistonning 2 ta eng yirik tashqi savdo hamkori sifatida mustahkamlandi.

O‘zbekiston tashqi savdosining tovar tarkibi. O‘zbekiston eksportining tovar tarkibida, 2022-yil holatiga ko‘ra, mahsulotlar ulushi 79,2 %, xizmatlar ulushi esa 20,8 % ni tashkil etgan. Umumiy hisobda mamlakatimiz eksportining yarmi mahsulotlarning 6 ta guruhidan iborat: qimmatbaho metallar (asosan, oltin), paxta (tola va ip-kalava), mineral yoqilg‘i (asosan, tabiiy gaz) va elektr energiyasi, mis va mis buyumlari, trikotajli kiyim mahsulotlari, meva va yong‘oqlar (48-jadval). Xizmatlar eksportining 50 % dan kattaroq qismini transport xizmatlari tashkil etgan.

49-jadval

O‘zbekiston eksportining tovar tarkibi (%)

Mahsulot guruhlari	2000	2005	2010	2015	2019	2020	2022
Qimmatbaho metallar (asosan, oltin)	21,7	25,3	21,3	15,5	29,2	39,4	22,3
Paxta (tola va ip-kalava)	31,1	22,0	15,5	10,6	7,4	7,9	8,3
Mineral yoqilg‘i (asosan, tabiiy gaz) va elektr energiya	10,3	11,5	22,8	21,5	14,5	4,4	6,3
Mis va mis buyumlari	3,9	6,3	4,1	4,3	4,1	4,8	5,7
Trikotajli kiyim mahsulotlari	0,2	0,3	0,9	1,4	1,9	3,0	4,3
Meva va yong‘oqlar	1,3	0,8	6,0	5,4	3,7	3,8	3,2
Sabzavot va ildizmevalilar	0,8	0,7	2,4	3,8	2,7	2,7	2,5
Ma’danli o‘g‘itlar	0,8	1,0	1,6	1,5	0,8	1,0	2,1
Plastmassa va plastmassa buyumlari	0,1	1,5	0,6	0,5	2,3	2,2	2,1
Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari	2,1	6,1	3,7	0,4	1,0	1,4	1,9
Boshqa mahsulotlar	14,0	12,1	10,8	10,6	12,8	16,1	20,5
Xizmatlar	13,8	12,2	10,3	24,5	19,7	13,3	20,8

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ta’kidlash lozimki, 2000-yildan keyingi davrda respublikamiz eksportining tovar tarkibidagi eng katta o‘zgarish paxta mahsulotlari ulushining deyarli 4 barobar pasayishi bo‘ldi. Shuningdek, tabiiy gazning ulushi ham o‘tgan davr mobaynida ancha pasaydi. Ayni vaqtda, mis va

mis buyumlari, trikotajli kiyimlar, plastmassa va plastmassa buyumlari, ma'danli o'g'itlar singari mahsulotlarning eksportdagi salmog'i ortib bormoqda.

O'zbekiston importining tovar tarkibida mashinasozlik sanoati mahsulotlari, jumladan, sanoat uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari, elektrotexnika va elektronika mahsulotlari, ularning ehtiyot qismlari, yetakchi ahamiyatga ega. Bu 3 ta mahsulot guruhining mamlakat importidagi umumiy ulushi 2000-2022-yillar mobaynida 30-40 % oralig'ida saqlangan (50-jadval). So'nggi yillarda respublikamiz importining tovar tarkibida qora metallar, mineral yoqilg'i va elektr energiyasi, farmatsevtika mahsulotlari, don mahsulotlari, hayvon va o'simlik yog'lari kabi mahsulot guruhlarining salmog'i ko'paygan, sanoat uskunalari va ularning ehtiyot qismlarining ulushi esa sezilarli darajada pasaydi, ammo yetakchi o'rnini saqlamoqda.

50-jadval

O'zbekiston importining tovar tarkibi (%)

Mahsulot guruhlari	2000	2005	2010	2015	2019	2020	2022
Sanoat uskunalari va ularning ehtiyot qismlari	18,2	18,9	17,0	19,3	23,1	22,5	16,0
Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari	9,1	13,9	14,4	9,0	8,8	8,7	8,6
Qora metallar	2,5	4,7	6,0	5,5	5,9	5,9	6,5
Mineral yoqilg'i va elektr energiya	4,0	2,6	7,1	5,8	3,9	5,2	5,8
Elektrotexnika va elektronika mahsulotlari, ularning ehtiyot qismlari	5,4	7,8	7,1	6,5	5,5	5,7	5,6
Farmatsevtika mahsulotlari	1,7	3,8	5,3	7,0	3,8	5,5	5,2
Plastmassa va plastmassa buyumlari	4,3	2,8	3,3	3,8	3,3	3,3	4,0
Qora metallardan ishlab chiqarilgan buyumlar	5,7	5,0	3,6	2,7	3,2	2,4	2,9
Yog'och va yog'och buyumlari	1,6	4,1	4,2	2,7	2,5	2,7	2,8
Don mahsulotlari	2,8	0,2	0,5	2,3	1,7	2,8	2,7
Hayvon va o'simlik yog'lari (moylari)	0,8	0,4	2,1	2,0	1,3	1,6	2,1
Boshqa mahsulotlar	35,0	25,2	24,0	25,7	27,0	28,1	29,9
Xizmatlar	8,9	10,5	5,3	7,7	10,0	5,8	7,9

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekistonning asosiy hamkorlari bilan amalga oshirilayotgan savdo aloqalarining tovar tarkibi ancha farq qiladi. Rossiyaga eksport qilinayotgan mahsulotlar orasida asosiy o'rinni paxta mahsulotlari, trikotajli kiyimlar, meva va yong'oqlar egallasa, Xitoyga yo'naltirilgan eksport tarkibida tabiiy gaz va paxta mahsulotlari ustuvor ahamiyatga ega. Turkiya yo'nalishidagi eksportning 3/4 qismini mis va mis buyumlari hamda paxta mahsulotlari tashkil etadi. Qozog'istonga mamlakatimizdan, asosan, avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari, meva va yong'oqlar, sabzavotlar, plastmassa buyumlari eksport qilinadi.

Qirg'izistonga esa O'zbekistondan ko'proq trikotajli kiyimlar, meva va yong'oqlar eksport qilinadi. Afg'oniston yo'nalishidagi eksport tarkibida don mahsulotlari, mineral yoqilg'i va elektr energiyasi eng katta salmoqqa ega.

Xitoydan import qilinadigan mahsulotlardan sanoat uskunalari, avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari, elektrotexnika va elektronika mahsulotlari eng katta salmoqqa ega. Rossiyadan respublikamizga ko'proq qora metallar va ulardan ishlangan buyumlar, yog'och mahsulotlari va mineral yoqilg'i (asosan, neft va neft mahsulotlari) olib kiriladi. Turkiyadan import qilinayotgan mahsulotlar orasida sanoat uskunalari katta ustunlik bilan yetakchi o'rin egallaydi. Qozog'istondan mamlakatimizga, asosan, don mahsulotlari, qora metallar, metall rudalari, neft va neft mahsulotlari import qilinadi. Koreya Respublikasidan O'zbekistonga katta miqdorda avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari hamda sanoat uskunalari olib kiriladi. Turkmaniston, o'z navbatda, so'nggi yillarda respublikamizga mineral yoqilg'i va elektr energiyasining eng yirik yetkazuvchisiga aylandi.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston qaysi xalqaro transport-logistika loyihalarida faol ishtirok etmoqda? Bundan qanday maqsadlar ko'zlanmoqda?
2. O'zbekiston sharoitida yuk va yo'lovchilarni tashishda qaysi transport turi eng katta ahamiyatga ega?
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qaysi yangi temir yo'l magistrallari qurildi? Bu yo'llarning transport geografik ahamiyatini tushuntiring.
4. Qaysi hududlarda aholining yengil avtomobillar bilan ta'minlanganlik darajasi nisbatan yuqori, qaysilarida esa eng past?
5. Tashqi savdo aylanmasi va tashqi savdo balansi ko'rsatkichlarning mohiyatini tushuntiring.
6. Qaysi davlatlar O'zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari hisoblanadi?
7. O'zbekiston eksporti va importining tovar tarkibida qaysi mahsulot guruhlari yetakchilik qiladi? O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari bilan amalga oshirilayotgan eksport va import aloqalarining tovar tarkibini taqqoslang.

Test savollari

1. O‘zbekistonda 2022-yilda jami yuk aylanmasi tarkibida qaysi transport turi yetakchilik qilgan?
A) Avtomobil transporti
B) Temir yo‘l transporti
C) Havo transporti
D) Quvur transporti

2. Quyidagi temir yo‘llaridan qaysi biri Mustaqillik yillarida qurilgan?
A) Navoiy-Uchquduq
B) Qo‘ng‘irot-Beynov
C) Urganch-Xiva
D) Toshkent-Angren

3. Ushbu hududlardan qaysi birida avtomobil yo‘llarining zichligi ancha past?
A) Xorazm viloyati
B) Qoraqalpog‘iston Respublikasi
C) Andijon viloyati
D) Farg‘ona viloyati

4. O‘zbekistonning eng yirik 10 ta tashqi savdo hamkorlari qatoriga respublika qo‘shni mamlakatlarining qaysi biri kirmaydi (2022-yil yakunlari bo‘yicha)?
A) Tojikiston
B) Afg‘oniston
C) Turkmaniston
D) Qirg‘iziston

5. Quyidagi mahsulotlardan qaysi birining O‘zbekiston eksporti tovar tarkibidagi salmog‘i 2015-2022-yillarda kamaygan?
A) Mis va mis buyumlari
B) Trikotajli kiyim mahsulotlari
C) Mineral yoqilg‘i
D) Avtotransport vositalari

15-§. O‘zbekiston Respublikasi xo‘jaligining hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlari

Iqtisodiy rayonlashtirishning mohiyati va tamoyillari. Mamlakat xo‘jaligini iqtisodiy geografik o‘rganishning integral bosqichi uning hududiy tarkibini tadqiq qilishdan iborat. Milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibini o‘rganishning asosiy usullaridan biri mamlakatning *iqtisodiy rayonlashtirilishi* hisoblanadi.

Iqtisodiy rayonlar sifatida xo‘jaligining ixtisoslashuvi bilan o‘zaro farq qiladigan mamlakatning yirik hududiy qismlari ajratiladi. Iqtisodiy rayonlar shakllanishiga quyidagi asosiy omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- iqtisodiy geografik o‘rin, hududiy yaxlitlik;
- tabiiy sharoit va resurslar;
- mehnat resurslari va malakali mutaxassislar;
- hududning tarixiy rivojlanishi va xo‘jalik an’analari;
- ilmiy-texnologik va ta’lim infratuzilmasi;
- rayon hosil qiluvchi markazlar (tayanch shaharlar);
- transport-logistika infratuzilmasi, ichki va tashqi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari;
- rekreatsiya va turizm resurslari va infratuzilmasi;
- geoekologik vaziyat.

Iqtisodiy rayonlar amaliy jihatdan davlat mintaqaviy siyosati va hududiy rejalashtirish, kompleks hududiy dasturlarning obyektlari sifatida xizmat qilishi mumkin, ilmiy-uslubiy jihatdan esa ular iqtisodiy geografik va mintaqaviy iqtisodiy tadqiqotlarning obyektlari hamda mamlakat iqtisodiy geografik tavsifini tuzishning asosiy hududiy elementlari hisoblanadi.

Iqtisodiy rayonlashtirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) quyidagilardan iborat:

- *hududiy yaxlitlik tamoyili* ajratiladigan rayonlashtirish birliklari hududiy jihatdan yaxlit bo‘lishini, bitta rayon mamlakatning turli qismlarida joylashgan bo‘laklardan iborat bo‘la olmasligini anglatadi;
- *ma’muriy-statistik tamoyil* iqtisodiy rayonlar davlatning siyosiy-ma’muriy boshqaruvi va statistik hisob yuritilishida foydalaniladigan ma’muriy-hududiy birliklar doirasida ajratilishi lozimligini nazarda tutadi. Bu tamoyil rayonlarni ajratishda iqtisodiy va ijtimoiy-demografik statistik ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi hamda iqtisodiy rayonlar kesimida bajarilgan ilmiy-tahliliy materiallardan davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda qulay bo‘ladi;

- *komplekslilik tamoyili* iqtisodiy rayonlarni ajratishda hududlar xo‘jaligining ixtisoslashuvi va tarmoqlar tarkibini kompleks tarzda hisobga olinishini, rayon xo‘jaligiga tarmoqlararo majmua tarzida qarashni taqozo etadi;

- *tizim-tarkib tamoyil* mamlakatning iqtisodiy rayonlashtirilishi pog‘onasimon (iyerarxik) ko‘rinishga ega bo‘lishini, ya’ni yirikroq birlik tarkibida kichikroq birliklar ajratilishini nazarda tutadi. Bunda rayonlashtirish pog‘onasi yuqoridan pastga tushgan sari ajratilgan birliklar xo‘jaligining yaxlitlik darajasi o‘sib boradi;

- *tarixiy tamoyil* iqtisodiy rayonlarni ajratishda xo‘jaligining shakllanish tarixi hamda yagona rivojlanish istiqbollarini hisobga olishni anglatadi. Shuningdek, tarixiy rivojlanish sari mamlakat xo‘jaligining hududiy tarkibi, rayonlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi va tarmoqlar tarkibi o‘zgarib borishi hisobiga vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy rayonlashtirish sxemalari obyektiv ravishda o‘zgarishi mumkinligi ham ana shu tamoyil mazmuniga tegishli.

O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlashtirilishi. O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlashtirilishi masalalari bilan turli bosqichlarda bir qator mamlakatimizdagi geograf va iqtisodchi olimlar, xususan, N.G. Sapenko, K.N. Bedrinsev, K.I. Lapkin, Z.M. Akramov, A.K. Bedrinsev, A. Al Xalil, A.S. Soliyev, N. To‘xliyevlar shug‘ullangan. Hozirgi vaqtda iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotga oid ko‘plab ilmiy manbalarda, oliy va maktab ta’limidagi o‘quv adabiyotlarida professor Abdusami Soliyev tomonidan asoslangan va dastlab 1998-yilda e’lon qilingan respublikamizning iqtisodiy rayonlashtirilishi sxemasi qo‘llaniladi. U sxemaga muvofiq, O‘zbekistonda quyidagi 6 ta asosiy iqtisodiy rayon ajratiladi:

1) Toshkent iqtisodiy rayoni – Toshkent viloyati va Toshkent shahrini birlashtiradi;


2) Farg‘ona iqtisodiy rayoni – Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlaridan iborat;

3) Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni – Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini qamrab oladi;

4) Zarafshon iqtisodiy rayoni – Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlaridan iborat;

5) Janubiy iqtisodiy rayon – Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini qamrab oladi;

6) Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni – Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatini birlashtiradi.



36-rasm. O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlashtirilishi xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarining 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 40.

Professor A. Soliyev tomonidan taklif qilingan bu rayonlashtirish sxemasining o‘ziga xos tomoni va oldingi tajribalardan farqi shundan iboratki, undagi barcha asosiy iqtisodiy rayonlar 2-3 ta ma’muriy-hududiy birlikni birlashtiradi va hech qaysi viloyat alohida iqtisodiy rayon sifatida ajratilmagan. Bunda har bir ma’muriy-hududiy birlik muayyan iqtisodiy rayon tarkibiga kiruvchi mamlakatning ma’muriy-iqtisodiy rayoni (mintaqasi) hisoblanadi. Bu bilan ko‘rilayotgan rayonlashtirish sxemasida iqtisodiy rayonlashtirishning tizim-tarkib tamoyiliga to‘liq rioya qilinishi ta’minlangan. Shu bois, ushbu darslikda mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti (xo‘jaligi) ning hududiy tarkibi aynan professor A. Soliyev taklif etgan va asoslab bergan iqtisodiy rayonlashtirish sxemasi doirasida ko‘rib chiqilgan (36-rasm).

O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari ixtisoslashuvi. Iqtisodiy rayonlarning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rnini tahlil qilish maqsadida, birinchi navbatda, ularning respublika bo‘yicha asosiy sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi salmog‘ini ko‘rish lozim. Iqtisodiy rayon muayyan mahsulotni mamlakat miqyosida ishlab chiqarishdagi ulushining o‘sha hudud aholisi sonining mamlakat jami aholisi sonidagi ulushiga nisbati *ixtisoslashuv koeffitsiyenti* sifatida e’tirof etiladi. Ma’lum bir mahsulot turi (tarmoq mahsuloti) ni ishlab chiqarish bo‘yicha iqtisodiy rayonning ixtisoslashuv koeffitsiyenti 1,00 dan yuqori bo‘lsa, tegishli tarmoq o‘sha iqtisodiy rayon uchun ixtisoslashuv tarmog‘i hisoblanadi.

O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlari sanoat salohiyati va ixtisoslashuvi bilan o‘zaro farq qiladi (51-jadval). Jumladan, Toshkent iqtisodiy rayoni sanoat salohiyati jihatidan respublikada alohida ajralib turadi. Yoqilg‘i sanoatidan tashqari, sanoatning barcha tarmoqlar shu rayon uchun ixtisoslashgan tarmoqlar qatoriga kiradi. Farg‘ona iqtisodiy rayoni sanoati yengil sanoat hamda mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashgan. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni uchun elektr energetika, qurilish materiallari sanoati va yengil sanoat ixtisoslashuv sifatida e’tirof etilishi mumkin. Zarafshon iqtisodiy rayoni sanoati metallurgiya hamda yoqilg‘i sanoatiga ixtisoslashgan. Janubiy iqtisodiy rayonida respublika miqyosida ixtisoslashuv darajasida faqat yoqilg‘i sanoati rivojlangan. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni uchun esa kimyo va yoqilg‘i sanoati ixtisoslashgan tarmoqlar sifatida hisoblanishi mumkin.

51-jadval

O‘zbekiston iqtisodiy rayonlarining turli sanoat tarmoqlari mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuv koeffitsiyentlari (2022-yil)

Iqtisodiy rayonlar	Sanoat tarmoqlari							
	Elektr energetika	Yoqilg‘i sanoati	Metallurgiya sanoati	Kimyo, neft-kimyo va farmatsevtika sanoati	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	Qurilish materiallari sanoati	Yengil sanoat	Oziq ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati
Toshkent	**1,71**	0,68	**2,95**	**2,33**	**2,45**	**2,19**	**1,05**	**2,70**
Farg`ona	0,38	0,61	0,02	0,38	**1,19**	0,80	**1,33**	0,54
Mirzacho`l	**3,63**	0,08	0,03	0,46	0,39	**1,58**	**1,20**	0,70
Zarafshon	0,82	**1,07**	**2,53**	0,72	0,66	1,00	0,89	0,93
Janubiy	0,70	**1,87**	0,00	0,59	0,06	0,36	0,65	0,37
Quyi Amudaryo	0,78	**1,56**	0,01	**2,10**	0,81	0,40	0,70	0,95

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari ham iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashuvini ko‘p jihatdan belgilaydi (52-jadval). Toshkent iqtisodiy rayoni respublika miqyosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga deyarli ixtisoslashmagan (tuxumdan tashqari). Farg‘ona iqtisodiy rayoni uchun kartoshkachilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik va ipakchilik ixtisoslashgan tarmoqlari hisoblanadi.

52-jadval

O‘zbekiston iqtisodiy rayonlarining asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuv koeffitsiyentlari (2022-yil)

Iqtisodiy rayonlar	Dehqonchilik mahsulotlari					
	Don ekinlari	Paxta	Kartoshka va sabzavot	Poliz ekinlari	Meva va rezavorlar	Uzum
Toshkent i.r.	0,47	0,42	0,60	0,16	0,23	0,36
Farg`ona i.r.	0,97	0,79	**1,19**	0,70	**1,63**	0,81
Mirzacho`l i.r.	**2,29**	**2,22**	0,94	**3,51**	0,69	0,39
Zarafshon i.r.	**1,08**	**1,05**	**1,35**	0,96	**1,29**	**2,66**
Janubiy i.r.	**1,08**	**1,12**	0,86	**1,21**	0,67	0,68
Quyi Amudaryo i.r.	0,86	**1,40**	0,74	**1,26**	0,69	0,31
Iqtisodiy rayonlar	Chorvachilik mahsulotlari					
	Go`sht	Sut	Tuxum	Jun	Qorako`l terilari	Pilla
Toshkent i.r.	0,63	0,51	**1,08**	0,26	0,00	0,44
Farg`ona i.r.	0,69	0,87	0,84	0,45	0,00	**1,06**
Mirzacho`l i.r.	**1,72**	**1,38**	**1,08**	**1,96**	0,08	0,91
Zarafshon i.r.	**1,43**	**1,28**	**1,34**	**1,70**	**3,54**	**1,39**
Janubiy i.r.	**1,11**	**1,09**	0,77	**1,65**	**1,20**	0,97
Quyi Amudaryo i.r.	0,99	**1,20**	0,98	0,66	0,73	**1,06**

Jadval mualliflar tomonidan "O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2019-2022" (Toshkent, 2023) statistik to‘plamdagi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni donchilik, paxtachilik, polizchilik tarmoqlari, shuningdek, go‘sht, sut, tuzum va jun yetishtirishga ixtisoslashgan. Zarafshon iqtisodiy rayoni respublika miqyosida yirik ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi bilan ajralib turadi. Bu yerda faqat polizchilik ixtisoslashuv darajasida rivojlanmagan, xolos (ammo, bu tarmoq bo‘yicha ham rayonning ixtisoslashuv koeffitsiyenti 1,00 ga ancha yaqin). Janubiy iqtisodiy rayonining qishloq xo‘jaligi don, paxta, poliz ekinlari, go‘sht, sut, jun hamda qorako‘l terilarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sharoitida esa paxta, poliz, pilla va sut yetishtirish ixtisoslashuv tarmoqlari sifatida ajralib turadi.

Iqtisodiy rayon va mintaqalarning O‘zbekiston milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va uning dinamikasi. Hududlarning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini ularning mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi salmog‘i orqali baholash mumkin (53-jadval). O‘zbekistonning yalpi ichki mahsulotining 14,7 % qismi, 2022-yil holatiga ko‘ra, hududlarga bo‘linmagan hajmni tashkil etgan holda, iqtisodiy rayonlardan eng katta ulush ko‘rsatkichi (27,1 %) Toshkent iqtisodiy rayoniga tegishli bo‘lgan. Boshqa iqtisodiy rayonlardan nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Zarafshon (19,7 %) va Farg‘ona (16,9 %) iqtisodiy rayonlarga to‘g‘ri kelgan. Eng past salmoq (5,1 %) shunda Mirzacho‘l iqtisodiy rayonida qayd etildi. Muhimi, faqat Toshkent iqtisodiy rayonining mamlakat YaIMdagi ulushi respublika jami aholisidagi ulushidan yuqori darajada, qolgan barcha iqtisodiy rayonlarning mamlakat YaIMga qo‘shgan hissasi, mos ravishda, aholi sonidagi ulushidan past. Bu holat, ayniqsa, Farg‘ona va Janubiy iqtisodiy rayonlariga xos.

Sanoat ishlab chiqarishi hududiy tarkibida ham Toshkent iqtisodiy rayoni 36,7 foizlik ulushi bilan yetakchi o‘rinni egallaydi. Nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar, shuningdek, Zarafshon (25,5 %) va Farg‘ona (18,6 %) iqtisodiy rayonlariga tegishli. Boshqa iqtisodiy rayonlarning O‘zbekiston sanoatidagi ulushi ancha past. Umuman olganda, faqat Toshkent va Zarafshon iqtisodiy rayonlarining mamlakat sanoatidagi salmog‘i respublika aholisi sonidagi ulushidan ko‘ra yuqori.

Respublika qishloq xo‘jaligiga eng katta hissani Farg‘ona (26,8 %), Zarafshon (26,0 %) va Janubiy (17,2 %) iqtisodiy rayonlari qo‘shmoqda. Aholi sonidagi salmog‘i bilan solishtirilganda, Zarafshon va Mirzacho‘l rayonlarining ko‘rsatkichlari eng ijobiy, Toshkent iqtisodiy rayonining ko‘rsatkichi esa eng pastdir.

53-jadval

O‘zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarida iqtisodiy rayon va mintaqalarning salmog‘i

Ko‘rsatkichlar	Iqtisodiy rayon va mintaqalar ulushi, %																Hududlarga taqsimlanmagan ulush, %
	Toshkent i.r.	jumladan,		Farg‘ona i.r.	jumladan,		Mirzacho‘l i.r.	jumladan,		Zarafshon i.r.	jumladan,		Janubiy i.r.	jumladan,		Quyi Amudaryo i.r.	jumladan,	
		Toshkent v.	Toshkent sh.		Andijon v.	Farg‘ona v.	Namangan v.		Sirdaryo v.	Jizzax v.		Buxoro v.	Navoiy v.	Samarqand v.		Qashqadaryo v.	Surxondaryo v.	Xorazm v.	Qoraqalpog‘iston Resp.
2000-yil																			
Aholi soni	18,2	9,6	8,6	27,7	8,9	10,9	7,9	6,6	2,6	4,0	19,9	5,8	3,2	10,9	16,0	8,9	7,1	11,6	5,4	6,2	0,0
YaIM (YaIHM)	23,0	10,8	12,2	24,2	7,4	11,5	5,3	5,2	2,6	2,6	19,0	6,4	4,5	8,1	12,3	7,2	5,1	7,8	4,4	3,4	8,5
Sanoat mahsuloti	31,8	16,3	15,5	25,0	8,2	13,2	3,6	4,4	3,3	1,1	23,1	6,7	11,2	5,2	10,8	8,5	2,3	4,9	2,6	2,3	0,0
Q/x mahsuloti	13,2	13,2	0,0	30,4	10,7	10,6	9,1	8,5	3,7	4,8	22,9	7,7	3,5	11,7	15,8	7,3	8,5	9,2	6,6	2,6	0,0
Pullik xizmatlar	36,7	7,0	29,7	18,3	7,8	6,6	3,9	2,8	1,0	1,8	14,5	5,4	2,3	6,8	7,6	4,2	3,4	6,4	3,8	2,6	13,7
Investitsiyalar	32,6	8,1	24,5	17,5	4,9	7,0	5,6	4,6	2,3	2,3	16,1	4,2	6,2	5,7	20,4	16,7	3,7	8,3	3,5	4,8	0,5
Qurilish ishlari	27,8	6,6	21,2	19,3	6,0	7,7	5,6	4,3	2,4	1,9	20,9	7,9	4,5	8,5	13,5	9,0	4,5	12,2	6,6	5,6	2,0
Tashqi savdo	45,1	12,3	32,8	12,1	6,0	4,4	1,6	3,7	2,8	0,9	15,6	4,5	7,1	4,0	7,3	5,6	1,7	3,3	1,5	1,8	12,9
2010-yil																					
Aholi soni	17,0	9,1	7,9	28,4	9,2	11,0	8,2	6,5	2,5	4,0	20,0	5,8	3,0	11,2	16,8	9,3	7,5	11,3	5,5	5,8	0,0
YaIM (YaIHM)	22,9	9,7	13,2	16,9	5,7	6,9	4,3	4,9	2,1	2,8	19,7	5,9	5,5	8,3	13,1	8,8	4,3	6,5	3,7	2,8	16,0
Sanoat mahsuloti	32,7	14,4	18,3	23,5	12,3	8,6	2,6	3,8	2,4	1,4	20,3	4,4	10,6	5,3	15,0	13,0	2,0	3,4	1,6	1,8	1,3
Q/x mahsuloti	11,6	11,6	0,0	24,3	9,1	8,2	7,0	9,0	3,5	5,5	29,5	7,9	4,4	17,2	16,2	8,8	7,4	9,4	6,3	3,1	0,0
Pullik xizmatlar	40,7	8,3	32,4	13,9	4,9	5,4	3,6	2,9	1,3	1,6	13,0	4,0	2,4	6,6	7,1	4,2	2,9	5,7	3,2	2,5	16,7
Investitsiyalar	29,9	9,8	20,1	14,1	4,4	5,7	4,0	5,2	2,5	2,7	30,2	13,0	10,6	6,6	14,9	10,9	4,0	5,5	2,5	3,0	0,2
Qurilish ishlari	21,1	6,2	14,9	14,2	4,2	5,9	4,2	4,2	1,6	2,6	18,4	7,0	5,1	6,3	12,6	8,5	4,1	6,3	3,4	2,9	23,2
Tashqi savdo	55,3	13,2	42,1	16,0	9,6	4,2	2,2	2,0	1,0	1,0	9,3	3,0	4,2	2,1	3,4	2,0	1,4	1,4	0,9	0,5	12,6
2022-yil																					
Aholi soni	16,5	8,3	8,2	28,6	9,2	11,1	8,3	6,6	2,5	4,1	19,9	5,6	2,9	11,4	17,5	9,7	7,8	10,9	5,4	5,5	0,0
YaIM (YaIHM)	27,1	10,5	16,6	16,9	6,1	6,3	4,5	5,1	2,0	3,1	19,7	5,2	7,5	7,0	9,5	5,6	3,9	7,0	3,6	3,4	14,7
Sanoat mahsuloti	36,7	17,0	19,7	18,6	9,8	5,5	3,3	4,3	2,2	2,1	25,5	4,9	15,3	5,3	5,4	4,1	1,3	6,5	3,3	3,2	3,0
Q/x mahsuloti	9,5	9,5	0,0	26,8	10,3	9,3	7,2	9,9	3,3	6,6	26,0	9,6	4,4	12,0	17,2	9,3	7,9	10,6	6,7	3,9	0,0
Pullik xizmatlar	46,5	7,1	39,4	14,9	4,9	6,0	4,0	3,6	1,4	2,2	13,1	4,3	2,5	6,3	7,9	4,4	3,5	5,8	2,9	2,9	8,2
Investitsiyalar	34,0	13,0	21,0	16,5	5,5	5,7	5,3	8,7	4,7	4,0	23,1	7,8	7,2	8,1	10,3	6,0	4,3	7,0	3,3	3,7	0,4
Qurilish ishlari	28,1	7,0	21,1	18,7	5,5	7,2	6,0	5,4	2,3	3,1	17,3	6,2	4,2	6,9	10,9	5,5	5,4	8,1	4,3	3,8	11,5
Tashqi savdo	50,3	11,2	39,1	15,3	8,6	4,1	2,6	3,0	1,6	1,4	9,8	2,5	2,5	4,8	1,8	1,1	0,7	2,8	1,6	1,2	17,0

Aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi jihatidan Toshkent iqtisodiy rayoni respublikada alohida ajralib turadi. Bu rayon hissasiga jami respublika bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning 46,5 % qismi to'g'ri keladi. Boshqa iqtisodiy rayonlarning bu boradagi ko'rsatkichlari ancha past.

Investitsiyalar bo'yicha eng yuqori ulush Toshkent (34,0 %) va Zarafshon (23,1 %) iqtisodiy rayonlariga tegishli bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Mirzacho'l (8,7 %) va Quyi Amudaryo (7,0 %) iqtisodiy rayonlarida qayd etilgan. Qurilish ishlari hajmi bo'yicha Toshkent (28,1 %), Farg'ona (18,6 %) va Zarafshon (17,3 %) iqtisodiy rayonlari nisbatan ajralib turadi.

Tashqi savdo aylanmasi bo'yicha Toshkent iqtisodiy rayonining salmog'i qolgan hududlardan keskin ajralib turadi, chunki bu borada unga respublika tashqi savdo aylanmasining yarmi (50,3 %) to'g'ri kelmoqda. Ayni paytda, Mirzacho'l (3,0 %), Quyi Amudaryo (2,8 %) va Janubiy (1,8 %) iqtisodiy rayonlarining bu boradagi ulushi juda past.

Umuman olganda, Toshkent iqtisodiy rayoni qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmidan tashqari barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha respublikada sezilarli ustuvorlik bilan birinchi o'rin egallaydi. Muhimi, qishloq xo'jaligi mahsulotidan tashqari rayonning barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi salmog'i respublika aholisi sonidagi ulushi (16,5 %) dan yuqori darajada.

O'zbekiston aholisining salkam 1/5 qismi yashovchi Zarafshon iqtisodiy rayoni qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi bo'yicha 2- (YaHM, sanoat, qishloq xo'jaligi mahsuloti, investitsiyalar), ayrimlari bo'yicha esa 3-o'rinda (pullik xizmatlar, qurilish ishlari, tashqi savdo) turadi. Sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi rayonning ulushi uning respublika aholisidagi hissasidan yuqori. Bu borada pullik xizmatlar va tashqi savdo bo'yicha rayonning holati aholi soni bilan taqqoslaganda ancha nomutanosibdir. Umumiqtisodiy salohiyati bo'yicha esa Zarafshon iqtisodiy rayonini Toshkent iqtisodiy rayonidan keyingi 2-o'ringa qo'yish mumkin.

Farg'ona, Janubiy va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlarida biror bir makroiqtisodiy ko'rsatkichdagi ulushi respublika aholisidagi salmog'idan ko'ra yuqori emas. Bu borada, ayniqsa, Janubiy iqtisodiy rayonning ko'rsatkichlari salbiy xususiyatga ega. Shuningdek, uchala iqtisodiy rayon ham respublika miqyosida, asosan, qishloq xo'jaligi sohasiga qo'shayotgan salmog'i bilan ajralib turadi. E'tiborlisi, bu raqamlar

rayonlarning demografik salohiyatiga deyarli mos keladi. Ushbu 3 ta iqtisodiy rayondan eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona, eng pastlari esa, asosan, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoniga xos. Bunday rayonlararo tafovutlar, albatta, aholi sonidagi katta hududiy farqlanish mavjudligi bilan ham bog'liqdir.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni aksariyat ko'rsatkichlar bo'yicha (investitsiyalar va tashqi savdodan tashqari) respublika iqtisodiy rayonlari orasida so'nggi o'rinda turadi. Lekin bu rayonning demografik salohiyati ham boshqa iqtisodiy rayonlardan ancha past. Shu bois, bu rayonning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va investitsiyalar borasidagi salmog'i respublika aholisi sonidagi ulushidan ko'ra yuqoriroqdir. Bu jihatdan rayonning vaziyati Farg'ona, Janubiy va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlaridan ijobiy tomonga farq qiladi.

Iqtisodiy rayonlarning milliy iqtisodiyotidagi o'rni dinamik tarzda, tabiiyki, ma'lum darajada o'zgarib boradi. Toshkent iqtisodiy rayonining 2022-yildagi ko'rsatkichlarini 2000-yil vaziyati bilan solishtirganda, rayonning respublika aholisi soni va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi salmog'i tobora pasayishi bilan bir vaqtda YaHM, sanoat ishlab chiqarishi, aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmidagi ulushi sezilarli darajada o'sgan. Bu holat milliy iqtisodiyotimizda *metropolizatsiya* (*yirik shaharlarda mujassamlashuv*) jarayonlarining ma'lum darajada rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Farg'ona iqtisodiy rayonining respublika miqyosida demografik salohiyati 2000-2022-yillarda 27,7 % dan 28,6 % gacha ko'tarildi. Ammo rayonning 2022-yildagi mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushini 2000-yildagi mos ko'rsatkichlari bilan qiyoslaganda, tashqi savdo aylanmasidan tashqari barcha yo'nalishlarda uning respublikadagi salmog'i pasayib ketganini ko'ramiz. Xususan, YaHM va sanoatdagi ulushi sezilarli tarzda pasayib ketdi, qishloq xo'jaligi, pullik xizmatlar, qurilish ishlari va investitsiyalardagi salmog'i 2010-yilga qaraganda biroz ko'tarilgan bo'lsa ham, 2000-yildagi qiymatlargacha yetib bormagan.

Mirzacho'l iqtisodiy rayonining 2000-2022-yillar orasida respublika aholisi soni, YaIM va sanoat ishlab chiqarishning hududiy tarkibidagi salmog'i deyarli o'zgarmagan holatda, rayonning mamlakat qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, qurilish ishlari va, ayniqsa, investitsiyalar borasidagi ulushi birmuncha o'sdi. Umuman olganda, Mirzacho'l iqtisodiy rayonining milliy iqtisodiyotidagi maqomi, asosan, o'sib bormoqda.

Zarafshon iqtisodiy rayonining mamlakat aholisidagi salmog'i 2000-2022-yillar mobaynida deyarli o'zgarmadi, ammo respublika YaIM, sanoat, qishloq xo'jaligi va investitsiyalarning hududiy tarkibidagi o'rni yaxshilandi. Ta'kidlash joizki, sanoat va YaIM bo'yicha rayonning ijobiy dinamikasiga Navoiy viloyati, qishloq xo'jaligi sohasida esa Buxoro viloyati ko'rsatkichlarining o'sishi ta'sir ko'rsatdi. Samarqand viloyatining ulushi barcha yo'nalishlarda 2000-yilga qaraganda pasaydi. Aholi soni borasida esa Samarqand viloyatining salmog'i, aksincha, o'sib keldi, qolgan ikkita viloyatning ko'rsatkichlari esa pasaydi.

Janubiy iqtisodiy rayoni hududlar orasida demografik salohiyatining o'sib borishi bilan alohida ajralib turadi. 2000-2022-yillarda rayonning respublika aholisidagi ulushi 16,0 % dan 17,5 % gacha ko'tarildi. Ammo rayonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi borasidagi vaziyat unchalik ijobiy emas. 2000-2010-yillarda rayonning mamlakat YaIM, sanoati, qishloq xo'jaligidagi ulushi sezilarli tarzda o'sdi, investitsiyalar, qurilish ishlari, pullik xizmatlar va tashqi savdodagi ulushi esa pasaydi. 2010-2022-yillar mobaynida esa faqatgina rayonning respublika qishloq xo'jaligidagi ulushi birmuncha o'sib, qolgan barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi, aksincha, pasaydi. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi keskin ravishda tushib ketdi. Bunga, albatta, Muborak gazni qayta ishlash zavodini Toshkent shahri yurisdiksiyasiga o'tkazilgani, Xondiza koni va Sherobod sement zavodining Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tarkibiy qismi sifatida Toshkent viloyatining sanoat statistikasi doirasida hisobga olinayotganligi katta ta'sir ko'rsatdi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining mamlakat miqyosidagi demografik ulushi 2000-2022-yillarda mutassil ravishda pasayib bordi. Respublika YaIM va sanoatining hududiy tarkibidagi o'rni esa 2000-2010-yillarda pasayib, 2010-2022-yillarda ko'tarildi. Ayniqsa, rayonning respublika sanoatidagi salmog'i sezilarli tarzda o'sdi. Bu Xorazm avtomobil zavodi va Ustyurt gaz-kimyo majmuasining o'tgan davr mobaynida ishga tushirilganiligi bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Rayonning mamlakat qishloq xo'jaligidagi ulushi 2000-2022-yillarda 9,2 % dan 10,6 % gacha o'sgan. Pullik xizmatlar, qurilish ishlari, investitsiyalar va tashqi savdo ko'rsatkichlari, o'z navbatida, 2000-2010-yillarda pasayib, 2010-2022-yillar oralig'ida ko'tarildi, lekin 2000-yildagi darajagacha yetgani yo'q.

Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy rayonlashtirishning mohiyati nimadan iborat? Iqtisodiy rayon deb nimaga aytiladi?
2. Iqtisodiy rayonlashtirishning ilmiy-uslubiy va amaliy ahamiyatini tushuntiring.
3. Iqtisodiy rayonlashtirishning asosiy tamoyillari qanday?
4. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlashtirilishi masalalari bilan qaysi geograf va iqtisodchi olimlar shug'ullanganlar? Hozirgi vaqtda ko'proq qo'llanilayotgan A.S. Soliyev tomonidan ishlab chiqilgan rayonlashtirish sxemasi qanday xususiyati bilan ajralib turadi?
5. Iqtisodiy rayonlarning shakllanishiga va o'zaro tafovutlariga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Iqtisodiy rayonlarining ixtisoslashuv koeffitsiyenti qanday hisoblab chiqariladi?
7. O'zbekiston iqtisodiy rayonlari sanoatining ixtisoslashuvini izohlang.
8. Respublikamiz iqtisodiy rayonlari qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi borasidagi tafovutlarini tushuntiring.
9. Toshkent iqtisodiy rayonining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni qanday jihatlar bilan tavsiflanadi? Bunga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan deb o'ylaysiz?
10. Qaysi iqtisodiy rayonlarning respublika makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'rinlari 2000-2022-yillarda ko'proq ko'tarilgan, qaysilarniki esa, aksincha, o'tgan davr mobaynida pasaygan?

Test savollari

1. Iqtisodiy rayonlashtirishning qaysi tamoyili mamlakatning iqtisodiy rayonlashtirilishi pog'onasimon (iyerarxik) ko'rinishga ega bo'lishini nazarda tutadi?
A) Komplekslilik tamoyili
B) Ma'muriy-statistik tamoyil
C) Tizim-tarkib tamoyil
D) Hududiy yaxlitlik tamoyili

2. Professor A.S. Soliyev tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonning iqtisodiy rayonlashtirilishi sxemasi dastlab nechanchi yilda e'lon qilingan?
A) 1996-yilda
B) 1998-yilda
C) 2001-yilda
D) 2004-yilda

3. Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari qaysi iqtisodiy rayon tarkibiga kiradi?
A) Zarafshon
B) Janubiy
C) Quyi Amudaryo
D) Mirzacho‘l

4. Toshkent va Zarafshon iqtisodiy rayonlari yuqori darajada ixtisoslashgan sanoat tarmog‘ini belgilang.
A) Mashinasozlik sanoati
B) Yengil sanoat
C) Kimyo sanoati
D) Metallurgiya sanoati

5. Don ekinlari, paxta va poliz ekinlarini yetishtirishga yuqori darajada ixtisoslashgan iqtisodiy rayonni ajrating.
A) Mirzacho‘l
B) Farg‘ona
C) Toshkent
D) Janubiy

6. Qaysi iqtisodiy rayon uzum, pilla va qorako‘l terilarini yetishtirishga yuqori darajada ixtisoslashgan?
A) Quyi Amudaryo
B) Zarafshon
C) Farg‘ona
D) Toshkent

7. Quyidagi iqtisodiy rayonlardan qaysi birining respublika YaIMdagi ulushi 2010-2022-yillarda sezilarli darajada pasaydi?
A) Quyi Amudaryo
B) Toshkent
C) Mirzacho‘l
D) Janubiy

16-§. Toshkent iqtisodiy rayoni

Iqtisodiy rayonning milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Toshkent iqtisodiy rayoni O‘zbekistonning shimoli-sharqiy qismida joylashgan, Toshkent viloyati va Toshkent shahrini birlashtiradi. Hududi – 15,59 ming km^2. Aholisi (1.01.2023 y.) – 5949,8 ming kishi. Aholining 75,0 foizi shahar, 25,0 foiz qismi esa qishloq joylarida istiqomat qiladi.

Rayon O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 27,1 %, sanoat mahsulotining 36,7 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 9,6 % ini beradi. Shuningdek, iqtisodiy rayonga respublika investitsiya hajmining 34,0 %, chakana savdoning 35,6 %, pullik xizmatlarning 45,7 % i to‘g‘ri keladi.

Toshkent iqtisodiy rayonining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bir nechta omillar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, bunday omillar qatoriga respublika poytaxtining aynan shu hududda joylashganligi, shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiy yo‘nalishlarda tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish uchun qulay transport geografik imkoniyatlar, boy mineral resurslar, suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta’minlanganligi, malakali kadrlarni tayyorlaydigan ko‘p tarmoqli oliy va o‘rta-maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari keng tarmog‘ining shakllanganligini keltirish mumkin.

Rayonning shimoli-sharqiy qismida G‘arbiy Tyanshanning baland tog‘ tizmalari va ularning orasidagi vodiylari joylashgan. Bu hududda rayonning asosiy suv manbalari hisoblanadigan Chirchiq va Ohangaron daryolari shakllanadi. Janubi-g‘arbiy hududlari tekisliklar bilan band. Rayon aholisining asosiy qismi aynan sug‘orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan tekislik hududlarda mujassamlashgan.

Toshkent iqtisodiy rayonining xo‘jalik majmuasi, birinchi navbatda, ko‘p tarmoqli sanoat ishlab chiqarishi bilan alohida ajralib turadi. Rayonda neft-gaz sanoatidan tashqari, O‘zbekistonda mavjud sanoat tarmoqlarining barchasi yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, ko‘mir sanoati, elektr energetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari, mashinasozlik va oziq-ovqat sanoatining hududiy tarkibida Toshkent iqtisodiy rayonining ulushi yuqori.

Toshkent iqtisodiy rayonida respublika qishloq xo‘jaligi mahsulotining salkam 10 % i yetishtiriladi. Ayniqsa, rayonning kartoshka va sabzavotni yetishtirishdagi ahamiyati yuqori.

Toshkent viloyati. Viloyat ma’muriy jihatdan respublikamizda dastlabkilaridan hisoblanib, 15-yanvar 1938-yilda tashkil topgan. Viloyat maydoni 15,14 ming km^2 bo‘lib, u mamlakatimiz umumiy hududining 3,4

% iga tengdir. Bu yerda 2993,4 ming kishi, yoki O‘zbekiston aholisining 8,3 foizi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 km²ga 198,6 kishi (1.01.2023-y.). Urbanizatsiya darajasi 50 foizga teng.

Ma’muriy markazi – Nurafshon shahri (54,1 ming kishi, 1.01.2023-y.).

Toshkent viloyati o‘ziga xos tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o‘ringa ega. U 3 ta xorijiy mamlakat bilan chegaradosh: shimoli-g‘arbda Qozog‘iston, shimoli-sharqda Qirg‘iziston, janubi-sharqda Tojikiston bilan tutashgan. Respublika doirasida esa mintaqa Namangan va Sirdaryo viloyatlari bilan qo‘shnichilik qiladi. Viloyatning siyosiy geografik o‘rni Surxondaryo viloyati o‘rniga o‘xshab ketadi.

Toshkent viloyati iqtisodiy nuqtai nazardan rivojlangan hisoblanadi. Uning hissasiga mamlakat YaHMning 10,5 foizi, sanoat ishlab chiqarish hajmining 17,0 foizi, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 9,5 foizi to‘g‘ri keladi. Shuningdek, 2022-yilda respublika jami chakana savdo aylanmasining 9,3 foizi va pullik xizmatlarning 7,1 foizi viloyat hissasiga to‘g‘ri keladi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,0 %, respublika eksportining 10,6 %, importining esa 11,5 % i viloyatga tegishli.

Ma'muriy-hududiy bo'linishi. Toshkent viloyati ma’muriy jihatdan ancha murakkab tuzilmaga ega. Uning tarkibiga 15 ta qishloq tumani, 16 shahar (7 tasi viloyatga bo‘ysunuvchi), 90 ta shaharcha va 830 ta qishloq aholi punktlari kiradi (54-jadval).

54-jadval

Toshkent viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi (01.01.2023-yil holatiga)

	Hududi (ming km²)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Toshkent viloyati	**15,14**	**15**	**16**	**90**	**830**
Shaharlar:					
Nurafshon	0,03		1		
Olmaliq	0,10		1		
Angren	0,17		2		
Bekobod	0,03		1		
Chirchiq	0,05		1		
Ohangaron	0,02		1		
Yangiyo‘l	0,01		1	1	2
tumanlar:					
Oqqo‘rg‘on	0,38	1	1	2	64
Ohangaron	3,20	1		5	81
Bekobod	0,75	1		5	81
Bo‘stonliq	4,92	1	1	17	29
Bo‘ka	0,59	1	1		92
Zangiota	0,19	1		10	27

Qibray	0,48	1		13	35
Quyichirchiq	0,56	1	1	2	60
Parkent	1,09	1	1	4	22
Piskent	0,79	1	1	2	66
O‘rtachirchiq	0,40	1		4	84
Chinoz	0,34	1	1	9	50
Yuqorichirchiq	0,46	1		3	51
Yangiyo‘l	0,41	1		4	63
Toshkent	0,16	1	1	9	23

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti.

Qishloq tumanlaridan maydoni jihatidan eng yirigi Bo‘stonliq (4,92 ming km²), eng kichigi esa Toshkent tumani (0,16 ming km²) hisoblanadi. Ular orasidagi farq deyarli 31 barobarga teng. Toshkent tumani nafaqat viloyatda, balki butun respublika bo‘yicha eng kichik qishloq tumani hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, viloyat shaharlar (shu jumladan viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar) soni bo‘yicha ham yetakchilik qiladi. Mavjud 16 ta shahardan Angren, Olmaliq, Bekobod, Chirchiq, Ohangaron va Yangiyo‘l nafaqat viloyat balki respublika miqyosida ham yirik sanoat markazlari hisoblanadi.


Tabiiy sharoiti va resurslari. Toshkent viloyati yer yuzasi tuzilishiga ko‘ra tekislik hamda tog‘li hududlardan iborat. Tekisliklar uning g‘arbiy va janubiy tomonlari, dengiz sathidan 600 m balandlikgacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga oladi. Tog‘li hududlar esa viloyatning shimoliy va shimoli-sharqiy qismlarini egallagan. Bu yerlarda G‘arbiy Tyanshanning tarmoqlari bo‘lgan Qurama, Chotqol, Piskom va Ugom tog‘ tizmalari joylashgan. Eng baland nuqtasi Piskom tizmasidagi Beshtor cho‘qqisi bo‘lib, uning balandligi dengiz sathidan 4299 metrga teng. Viloyat hududining katta qismi Sirdaryo tomon qiyalanib boradigan Chirchiq-Ohangaron vodiysi tog‘oldi tekisligidan iborat.

Toshkent viloyati foydali qazilmalarga boy. Bu yerda shakllangan Angren-Olmaliq sanoat rayoni mineral xomashyo salohiyatiga ko‘ra respublikamizda alohida o‘rin tutadi. Viloyatda mamlakatimizdagi eng yirik Angren ko‘mir koni, rangli metallarning katta zaxiralari mavjud. Qalmoqqir, Saricheku, Dalneye mis konlari, Ko‘chbuloq, Qizilolma oltin konlari, Loshkarak polimetal rudalari koni, Qo‘rg‘oshinkon qo‘rg‘oshin va rux rudalari koni viloyat sanoat salohiyatini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, viloyat yirik qurilish sanoati xomashyosi bazasiga ham ega.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental. Qishi nisbatan iliq, yozi uzoqroq davom etadi, issiq va quruq bo‘ladi. Viloyatning tekislik qismida yillik yog‘in-sochin miqdori o‘rtacha 400-500 mm, tog‘li hududlarda 600 mm va undan ko‘p. Yog‘inning ko‘p qismi bahor va qishda yog‘adi. Qor tog‘lardagina uzoqroq saqlanadi. Vegetatsiya davri tekislik qismida 210 kun.

Daryolari Sirdaryo havzasiga mansub. Bular Tyanshan tog‘laridan boshlanadi va suvidan elektr energiya olishda va sug‘orish ishlarida foydalaniladi. Bo‘zsuv, Qorasuv, Dalvarzin, Toshkent va boshqa sug‘orish kanallari mavjud. Chirchiq daryosida Chorvoq, Ohangaron daryosida Ohangaron va Tuyabo‘g‘iz (Toshkent dengizi) suv omborlari bunyod etilgan. Viloyatdagi sug‘orish tarmoqlari Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qaraydi.

Aholisi va mehnat resurslari. Toshkent viloyatida 2023-yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, doimiy aholisi 2993,4 ming kishini tashkil qilgan. Viloyat aholi soni bo‘yicha mamlakatimizda Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Andijon va Namangan viloyatlaridan keyingi 6-o‘rinda turadi. Viloyat aholisi Mustaqillik yillarida (1991-2023-yy.) 829,1 ming kishiga, yoki, o‘rta hisobda, yiliga 25,9 ming kishiga ko‘payib borgan.



37-rasm. Toshkent viloyati shahar va tumanlarining doimiy aholisi soni (ming kishi, 01.01.2023-y.)

Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti.

Toshkent viloyati shahar va qishloq tumanlari aholi soni bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiladi. 37-rasmdagi diagrammadan ko‘rish

mumkinki, viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar orasida Angren eng ko‘p aholiga ega bo‘lib (178,5 ming), eng kami Ohangaronga (40,7 ming) to‘g‘ri keladi. Ta’kidlash lozimki, Olmaliq, Chirchiq va Bekobod shaharlarining aholisi 100 ming kishidan ortiq.

Viloyatning demografik salohiyati eng katta qishloq tumanlari sifatida Yangiyo‘l (196,9 ming), Toshkent (192,8 ming), Bo‘stonliq (175,3 ming), Parkent (175,2 ming) va Qibray (172,9 ming) tumanlarini ko‘rsatish mumkin. Zangiota va Bekobod tumanlarining aholisi ham 150,0 ming kishidan ortiq. Nisbatan kam sonli aholiga ega tumanlar Oqqo‘rg‘on, Ohangaron va Piskent tumanlari hisoblanadi.


Aholi soni o‘sishida uning tabiiy harakatining roli katta. Viloyatda tug‘ilish har ming kishiga hisoblaganda 2022-yilda 24,8, o‘lim 5,0, tabiiy ko‘payish esa 19,8 promillega teng bo‘lgan (respublika bo‘yicha bu raqamlar, mos holda, 26,2; 4,8; 21,4).

Tug‘ilish koeffitsiyenti Yangiyo‘l (29,1 ‰), Angren (28,9 ‰), Olmaliq (27,9 ‰) shaharlarida nisbatan yuqori bo‘lib, Ohangaron shahrida (11,0 ‰) eng past ko‘rsatkichga ega. O‘lim darajasi bo‘yicha ham xuddi tug‘ilishga o‘xshagan farqlanishlar ko‘zga tashlanadi. Chirchiq shahrida o‘lim koeffitsiyenti 6,7 ‰, Zangiota tumanida 6,5 ‰ va Yangiyo‘l shahrida 6,3 ‰.

Toshkent viloyatiga 2022-yilda jami ko‘chib kelganlar 27350 kishini, ko‘chib ketganlar esa 33119 kishini tashkil qilgan, migratsiya saldosi minus 5769 kishiga teng. Viloyat markazi Nurafshon shahri, Olmaliq, Chirchiq, Ohangaron va Yangiyo‘l shaharlarida, shuningdek, Ohangaron, Quyichirchiq, Chinoz, Yangiyo‘l va Toshkent tumanlarida migratsiya saldosi ijobiy xarakterga ega bo‘lgan.

Viloyat aholisining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning ko‘p millatli ekanligidir. Bu yerda o‘zbeklardan tashqari, rus, tatar, koreys, tojik, qirg‘iz, qozoq va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Jami viloyat aholisining 70,1 foizini o‘zbeklar, qozoqlar 12,0 foizini, tojiklar 5,3 foizini, ruslar 4,7 foizini, koreyslar 2,4 foizini tashkil qiladi (38-rasm).

Rus va tatarlar, asosan, Chirchiq, Olmaliq, Yangiyo‘l shaharlari va Bo‘stonliq tumanida, qozoqlar ko‘proq Yuqorichirchiq, Bo‘stonliq, Chinoz, Parkent, Yangiyo‘l tumanlari va Chirchiq shahrida, qirg‘izlar ko‘proq Parkent, Bo‘stonliq va Bo‘kada, tojiklar, asosan, Angren va Chirchiq shaharlari, Bo‘stonliq va Parkent tumanlarida, eng ko‘p koreyslar esa Olmaliq, Angren shaharlari, Yuqorichirchiq va O‘rtachirchiq tumanlarida istiqomat qilishadi.



38-rasm. Toshkent viloyati aholisining milliy tarkibi (%, 1.01.2021-y.)


Rasm mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyatda 2022-yilda mehnat resurslari soni 1616,3 ming kishini tashkil qilgan, bu doimiy aholiga nisbatan 54,0 % demakdir. Iqtisodiy faol aholi soni 1323,5 ming kishi, ulardan iqtisodiyotda bandlar 1206,7 ming kishi, ishsizlar esa 116,8 ming kishiga teng. Ishsizlik darajasi 8,8 %.

Jami band aholining 23,5 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 22,0 % i sanoat, 10,9 % i savdo, 9,6 % i qurilish, 7,4 % i ta'lim, 4,6 % i tashish va saqlash, 4,5 % i sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohalariga to'g'ri keladi (2022-y.). E'tiborlisi, sanoat hamda qishloq xo'jaligi sohalarida band bo'lganlar deyarli teng. Bu aksariyat hududlarda kuzatilmaydigan vaziyat.

Viloyat xo'jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Toshkent viloyati xo'jaligi sanoat ishlab chiqarishning yirik salohiyatga egaligi bilan tavsiflanadi. Sanoatning tarmoq tarkibida qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, elektr energetika, oziq-ovqat va kimyo sanoati asosiy ahamiyatga ega. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bilan Olmaliq, Bekobod, Chirchiq, Ohangaron, Angren shaharlari, Qibray va Zangiota tumanlari alohida ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotining umumiy hajmi bo'yicha viloyat respublikadagi yetakchi hududlaridan biri. Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuviga 3 mln kishiga yaqin aholi istiqomat qiluvchi Toshkent shahrining ta'siri ancha sezilarli. Bu omilning ta'sirida viloyatda, ayniqsa poytaxtga tutash tumanlarda (Toshkent, Qibray, Zangiota) shahar atrofi xo'jaligiga xos tarmoqlar – sabzavotchilik, kartoshkachilik, bog'dorchilik, parrandachilik yuqori darajada rivojlangan.



39-rasm. Toshkent viloyatining iqtisodiy xaritasi


Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 41.

Tog‘li tumanlar (Bo‘stonliq, Parkent, Ohangaron) lalmikor dehqonchilik (donchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik) va tog‘-yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan. Viloyatning janubi-g‘arbidagi tekislik tumanlari (Bekobod, Bo‘ka, Piskent, Oqqo‘rg‘on, Quyi Chirchiq, Chinoz) ko‘proq paxtachilik va donchilikka ixtisoslashgan (39-rasm).

Toshkent viloyatining tog‘li hududlarida, ayniqsa Bo‘stonliq va Parkent tumanlarida yirik rekreatsion-turistik zonalar shakllangan. Bu borada Chorvoq-Chimyon turistik zonasining ahamiyati alohida diqqatga sazovordir.

Sanoati. Viloyat sanoat korxonalari tomonidan 2022-yilda 93,0 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, oldingi yilga nisbatan o‘sish 105,1 % ni tashkil etgan. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelgan, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,7 % tashkil etgan.

Ta’kidlash joizki, Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarishining turli tarmoqlari rivojlangan bo‘lib, bunga viloyatda mavjud mineral xomashyo va mehnat resurslari, transport va qulay iqtisodiy geografik o‘rni katta ta’sir ko‘rsatgan.



40-rasm. Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlar ulushi (% da, 2022-yil)

Rasm mualliflar tomonidan Toshkent viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyat ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi 42,9 %, oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoatining salmog‘i 12,6 %, yengil sanoatning ulushi 8,2 %, kimyo va

neft-kimyo sanoatining salmog‘i 8,1 %, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining ko‘rsatkichi esa 6,5 % ni tashkil etgan.

Viloyat sanoat ishlab chiqarishida katta hududiy farqlar ko‘zga tashlanadi. Bu borada, ayniqsa, yirik sanoat markazlari Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 35,3 %), Bekobod (11,3 %), Chirchiq (8,1 %), Angren (4,8 %) va Ohangaron (6,0 %) shaharlari alohida ajralib turadi. Eng past ko‘rsatkichlar esa Bekobod (0,3 %), Bo‘ka (0,4 %), Piskent hamda Parkent tumanlariga (har biriga 0,5 %) to‘g‘ri kelgan (40-rasm).

Qishloq xo‘jaligi. Toshkent viloyati respublikamizda katta agroiqtisodiy salohiyatga ega. Viloyat mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotining 9,6 foizini beradi, qishloq xo‘jaligining viloyat yalpi hududiy mahsuloti tarkibidagi ulushi esa 22,1 foizga teng. Mazkur tarmoqning viloyatda intensiv rivojlanishiga qulay agroiqlim sharoit, yetarli mehnat resurslari, suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta’minlanganligi hamda poytaxt aglomeratsiyasi doirasida katta iste’mol bozori mavjudligi sabab bo‘lgan.

2022-yilda viloyatda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 34695,9 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkich 2010-yilda 3848,0 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Viloyat yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotida chorvachilik nisbatan ustunlik qiladi. Unga jami qishloq xo‘jaligi mahsulotining 50,6 % i to‘g‘ri keladi. Ayni paytda, Chinoz, Parkent, Oqqo‘rg‘on, Bekobod, Quyichirchiq va Toshkent tumanlarida dehqonchilik ustunlikka ega.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha olib qaralganda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 66,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 16,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 16,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelgan.

Fermer xo‘jaliklarining ulushi Bo‘ka, Parkent, Yuqorichirchiq, Piskent, O‘rtachirchiq va Toshkent tumanlarida birmuncha yuqori. Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar faqat Quyichirchiq tumanida yaqqol ustunlikka ega, ularga jami tuman qishloq xo‘jalik mahsulotining 60,3 % i to‘g‘ri kelgan. Ohangaron, Pskent va Yangiyo‘l tumanlarida ularning ulushi 20 % dan oshadi.

Donli ekinlar yetishtirishda Quyichirchiq tumani yaqqol ustunlik qiladi. 2022-yilda viloyatda yetishtirilgan donli ekinlarning 21,9 % i aynan shu tuman hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu borada Bekobod tumani ham oldingi o‘rinlardan birida turadi (13,7 %). Kartoshka yetishtirishda Bo‘stonliq tumani (17,9 %), sabzavotchilikda Oqqo‘rg‘on, Zangiota va

Toshkent tumanlari, meva va rezavorlar yetishtirishda Parkent va Bo'stonliq, uzum yetishtirishda Parkent (63,4 %), poliz ekinlarida Bekobod tumani (51,2 %) yaqqol ustunlikka ega (55-jadval).

55-jadval

Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da, 2022-y.

	donli ekinlar	kartoshka	sabzavotlar	meva va rezavorlar	uzum	poliz ekinlari	go'sht	sut	tuxum
Jami viloyat	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Nurafshon sh.	0,05	0,01	0,05	0,9	0,1	0	0,2	0,4	0,0
Olmaliq sh.	0,05	0,07	0,10	0,9	0,1	0	0,2	0,7	0,2
Angren sh.		0,2	0,40	6,9	0,4	0	1,4	0,9	0,2
Bekobod sh.		1,4	0,30	3,1	0,07	0	2,2	1,2	0,5
Ohangaron sh.	0,02	0,2	0,30	0,4	0,2	0	0,2	0,4	0,4
Chirchiq sh.		0,8	0,20	2,3	0,5	0	0,2	0,5	2,7
Yangiyo'l sh.	0,02	0,2	0,20	0,3	0,1	0,1	0,2	0,2	0,1
tumanlar									
Oqqo'rg'on	9,1	3,9	11,0	3,6	0,5	5,0	6,2	6,6	3,7
Ohangaron	5,4	1,8	2,0	2,7	0,7	1,4	6,3	7,8	5,2
Bekobod	13,7	9,7	16,7	2,0	1,1	51,2	6,2	7,2	3,8
Bo'stonliq	1,9	17,9	6,2	10,5	10,4	0,2	9,7	11,0	11,8
Bo'ka	9,0	2,7	1,8	3,1	0,7	7,9	6,0	5,4	0,5
Quyichirchiq	21,9	6,3	2,5	2,7	0,5	2,7	4,1	5,0	4,0
Zangiota	2,3	8,5	10,2	6,9	2,9	4,6	9,3	3,9	15,1
Yuqorichirchiq	6,4	3,3	5,6	3,2	1,0	2,2	4,9	10,3	8,9
Qibray	1,8	5,3	5,4	8,9	3,9	1,3	5,1	5,4	12,2
Parkent	0,9	4,1	4,3	16,2	63,4	8,5	5,7	7,5	2,8
Pskent	6,5	7,3	3,4	2,9	4,1	2,4	8,5	5,2	3,4
O'rtachirchiq	8,6	4,6	4,2	3,7	1,0	0,7	8,2	5,8	8,1
Chinoz	5,4	6,4	7,1	4,0	1,4	5,8	4,7	6,0	4,9
Yangiyo'l	5,2	8,0	7,3	9,4	1,5	5,2	7,0	5,2	5,0
Toshkent	1,8	7,3	10,9	5,5	5,5	0,6	3,6	3,5	6,4

Jadval mualliflar tomonidan Toshkent viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2022-yilda viloyatda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 16 533,4 mlrd so'mni, yoki oldingi 2021-yilga nisbatan 103,6 % ni tashkil qilgan. Chorvachilik mahsulotlari yetkazib berishda ham hududiy farqlanishlar ko'zga tashlanadi. Viloyatda 2022-yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 282,6 ming tonna go'sht yetishtirilgan. Go'sht yetishtirishda Bo'stonliq va Zangiota tumanlari, sut yetkazib berishda Bo'stonliq va Yuqorichirchiq tumanlari oldingi o'rinlarda tursa,

tuxum yetkazib berishda Zangiota, Qibray va Bo'stonliq tumanlari peshqadamlik qiladi (55-jadval).

Viloyatda baliq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. 2022-yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 15233,4 tonna baliq ovlangan bo'lib, uning 80 % dan ortiq qismi Quyichirchiq, Yangiyo'l, Chinoz va O'rtachirchiq kabi 4 ta tumanga to'g'ri kelgan.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Ijtimoiy sohalar orasida chakana savdo, pullik xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda maishiy xizmat ko'rsatish muhim o'rin tutadi. Toshkent viloyatida ijtimoiy sohalarning deyarli barchasi yaxshi rivojlangan.

2022-yilda viloyatda ko'rsatilgan jami xizmatlar 25994,9 mlrd so'mni tashkil qilgan. Xizmatlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraganda eng katta ulushni savdo xizmatlari (33,4 %) egallaydi. Shuningdek, moliya xizmatlari 13,4 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 4,0 %, shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,2 % ga teng salmoqqa ega bo'lgan.

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2022-yilda 25250,0 mlrd so'mga teng bo'lgan. Bu borada Zangiota, Toshkent va Bo'stonliq tumanlarining ko'rsatkichlari ancha yuqori. Nisbatan past ko'rsatkichlar O'rtachirchiq, Quyichirchiq va Ohangaron tumanlariga tegishli. Aholi jon boshiga hisoblaganda, shaharlar orasida Yangiyo'l va Ohangaron, qishloq tumanlari bo'yicha esa Zangiota va Toshkent tumanlari yetakchilik qiladi. Ayni vaqtda O'rtachirchiq va Bekobod tumanlarining bu boradagi ko'rsatkichlari ancha past.

Toshkent viloyati ma'muriy birliklarida, 1.01.2023-y. holatiga ko'ra, 102 ta shifoxona xizmat ko'rsatadi. Shifoxonalarda bemorlar o'rni 18503 ta, har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 61,8 tani tashkil qiladi. Shahar va tumanlarning barchasi tuman markaziy shifoxonalari, tug'ruqxona majmuiga ega, yirikroq maxsus ixtisoslashtirilgan kasalxonalar Zangiota va Qibray tumanlarida joylashgan. Viloyatda jami shifokorlar soni 6550 nafar, o'rta tibbiyot xodimlari soni esa 31163 nafar.

Toshkent viloyatida 2022-yil oxiriga maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 668 tani tashkil etgan. Ulardagi jami tarbiyalanuvchilar soni 106478 ta bo'lib, o'rta hisobda bitta maktabgacha ta'lim tashkilotiga 160 ta tarbiyalanuvchi mos keladi. Viloyat bo'yicha 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi 60,9 % teng (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich – 68,3 %). Bu borada Angren, Olmaliq, Chirchiq, Bekobod va Ohangaron shaharlaridan tashqari barcha hudud ko'rsatkichlari viloyat darajasidan past.

Shuningdek, 2022/2023-o'quv yilida viloyatda 907 ta umumta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatgan, ularda o'quvchilar soni 518515 nafar, bitta maktabda o'rtacha 572 ta o'quvchiga ta'lim berilgan. Viloyat maktablarida ta'lim o'zbek, rus, qozoq, tojik, qirg'iz va qoraqalpoq tillarida olib boriladi. Xususan, Bo'ka, Bo'stonliq va Parkent tumanlarida 5 ta tilda faoliyat olib boradigan maktablar mavjud.

Viloyatda 4 ta akademik litsey faoliyat ko'rsatadi: Parkentda 1 ta, Qibrayda 2 ta va Chirchiq shahrida 1 ta. 2022/2023-o'quv yilida Toshkent viloyatida 11 ta kollej mavjud bo'lib, ularda jami 4,9 ming nafar o'quvchi tahsil olgan.

Toshkent viloyatida 2022/2023-o'quv yilida 10 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat olib borgan. Chirchiq shahrida 3 ta, Qibrayda 4 ta, Olmaliq shahrida 2 ta va viloyat markazi Nurafshon shahrida 1 ta oliygohlar joylashgan. Chirchiq davlat pedogogika universiteti yirik oliygohlardan hisoblanadi.

2022-yilda Toshkent viloyatida aholini toza markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 78,9 % ni tashkil etgan. Yirik sanoat markazlari-shaharlarda ta'minlanganlik 90,0 % dan yuqori, Ohangaron va O'rtachirchiq tumanlari 50,0 % dan past ko'rsatkichga ega.

Ta'kidlash joizki, Toshkent viloyati rekreatsiya resurslariga boy hisoblanadi. Ayniqsa, Bo'stonliq, Qibray, Parkent va Ohangaron tumanlari bu borada alohida ajralib turadi.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Toshkent viloyatida dengiz hamda havo transportidan tashqari barcha zamonaviy transport turlari rivojlangan. Respublika poytaxti Toshkent shahrini Farg'ona vodiysi viloyatlari bilan bog'lovchi temir va avtomobil yo'llar viloyat hududidan o'tadi.

2022-yilda viloyatda transport xizmatlari hajmi 5946,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Transport xizmatlarining eng katta qismi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Bir yil davomida viloyatda 253184,3 ming tonna yuk, 730970,4 ming yo'lovchilar tashilgan. Yuk va yo'lovchi tashishning ko'p qismi avtomobil transporti tomonidan amalga oshiriladi.

Toshkent viloyatining 2022-yildagi tashqi savdo aylanmasi 5593,2 mln AQSH dollarini (respublika tashqi savdo aylanmasining 11,2 % i) tashkil qilgan. Viloyat bu jihatdan mamlakatda Toshkent shahridan keyingi ikkinchi o'rinni egallagan. Shu yilda eksport 2052,2, import esa 3541,0 mln AQSH dollariga teng bo'lgan.

Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % tashkil etib, bular, asosan, qora va rangli metallar (52,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,0 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,3 %), mashina va asbob-uskunalar (3,2 %) dan iborat (56-jadval). Eksport hajmining 71,5 foizi 3 ta davlat – Turkiya, Rossiya va Qirg'iziston hissasiga to'g'ri keladi.

56-jadval

Toshkent viloyatining eksport va import tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foizda)

	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Tashqi savdo aylanmasi	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
eksport	60,5	52,9	38,8	47,5
import	39,5	47,1	61,2	52,5
Eksport tarkibi	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:				
paxta tolasi	17,6	8,9	0,7	0,0
oziq-ovqat mahsulotlari	14,3	33,4	15,8	13,0
kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan buyumlar	6,7	6,3	3,3	5,3
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	0,1	0,0	0,2
qora va rangli metallar	47,0	40,3	57,5	52,3
mashina va asbob-uskunalar	1,5	0,5	2,2	3,2
xizmatlar	0,7	0,8	0,7	0,6
boshqalar	12,3	9,7	19,8	25,4
Import tarkibi	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:				
oziq-ovqat mahsulotlari	9,1	20,6	16,0	22,2
kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan buyumlar	7,3	12,7	8,9	11,8
energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,7	2,0	3,7	4,0
qora va rangli metallar	12,0	8,7	13,6	10,1
mashina va asbob-uskunalar	38,1	38,9	34,4	26,7
xizmatlar	0,1	1,1	1,8	0,3
boshqalar	29,6	16,1	21,6	24,9

Jadval mualliflar tomonidan Toshkent viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Importda esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (26,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (22,2 %), qora va rangli metallar (10,1 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,8 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (4,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Importning asosiy qismi Qozog'iston, Rossiya va Qirg'iziston hissasiga mos kelgan.

Erkin iqtisodiy zonalar. 01.01.2023-yil holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida maxsus iqtisodiy zona (MIZ), kichik sanoat zonasi (KSZ),

texnopark va klasterlarning umumiy soni 43 tani tashkil etib (respublika bo'yicha 864 ta), tarkibi 4 ta MIZ, 19 ta KSZ, 1 ta texnopark va 19 tasi klasterlardan iborat.

Viloyatda 2012-yilning aprel oyida "Angren" erkin iqtisodiy zonasi tashkil qilindi. Jami 4125 gektar maydondan iborat ushbu erkin iqtisodiy zona, asosan, Ohangaron va Angren shaharlari hamda Ohangaron tumanida joylashgan bo'lib, shuningdek, Bekobod shahrining 15 gektar hududini o'z ichiga oladi. Erkin iqtisodiy zonada Xitoyning Shinjon Xalqaro savdo jamiyati investitsiya mablag'lari hisobidan ishga tushirilgan "Limax Gold Textile" MChJ korxonasi tomonidan jahonga mashhur "Limax" brendi ostida paypoq mahsulotlari, spandeks, poliestir, neylon hamda rezina ip mahsulotlari ishlab chiqariladi. Shuningdek, zonada "Quality devices" MChJ yirik korxonasida "Artel" va "Shivaki" brendi ostida ishlab chiqarilayotgan yuqori sifatli televizor, monitor va mikroto'lqinli pechlar nafaqat ichki bozorga, balki xorij davlatlariga ham katta miqdorda yetkazib berilmoqda. Rossiyaning issiqlik izolyatsiyasi materiallari ishlab chiqaruvchi "Penopleks" korxonasining O'zbekistondagi filiali ham "Angren" EIZda ishga tushirilgan. Bu korxona tomonidan penopolistirildan tayyorlangan issiqlik izolyatsiya plitalar ishlab chiqariladi.

Geoekologik muammolari. Toshkent viloyatida, ayniqsa, Angren – Olmaliq tog'-kon sanoati rayonida, ekologik va nozogeografik vaziyat barqaror emas. Bu xususda Toshkent aglomeratsiyasi doirasida sanoat, ayniqsa, ekologik jihatdan xavfli sanoat tarmoqlari rivojlanishini birmuncha cheklash, Chirchiq va Ohangaron vodiysi iqtisodiy va ekologik vaziyatini yaxshilash hamda hududlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Transport, xususan, shahar transportining atmosfera havosini buzilishida roli katta. Avtomobillar sonining ko'payishi, ularga mos holda yo'llarning o'z vaqtida kengaymasligi va magistrallashmasligi shahar havosini ifloslantirishga sabab bo'ladi. Yuzaga kelgan noxush ekologik vaziyat aholi orasida turli kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Ichki tafovutlari. Toshkent viloyatini ichki hududiy farqlanishi nuqtai nazaridan 3 ta mikrorayonga ajratish mumkin (A. Soliyev bo'yicha): 1) Chirchiq havzasi iqtisodiy rayoni; 2) Ohangaron iqtisodiy rayoni; 3) Janubiy rayon. Chirchiq havzasi iqtisodiy rayoniga Bo'stonliq, Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq, Quyichirchiq, Yangiyo'l, Parkent, Qibray, Zangiota, Toshkent, Chinoz tumanlari, Nurafshon, Chirchiq va Yangiyo'l shaharlari kiradi. Ohangaron iqtisodiy rayoni Ohangaron, Piskent,

Oqqo'rg'on tumanlari, Angren, Ohangaron va Olmaliq shaharlarini o'z tarkibiga oladi. Janubiy rayonga esa Bekobod va Bo'ka tumanlari hamda Bekobod shahri kiradi.

Mazkur kichik rayonlar ichida o'zining iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati jihatidan Chirchiq havzasi iqtisodiy rayoni ajralib turadi. Unga viloyat maydonining 63,0 % i, aholisining 63,9 % i, sanoat mahsulotining 35,5 % i mos keladi (2022-y.). Ohangaron iqtisodiy rayoniga viloyat maydonining 30,5 % i, aholisining 22,8 % i, sanoat mahsulotining 52,5 % i to'g'ri keladi. Bekobod va Bo'ka tumanlari hamda Bekobod shahrini o'zida birlashtirgan Janubiy rayonning ko'rsatkichlari ancha past (viloyat maydonining 6,5 % i, aholisining 13,3 % i, sanoat mahsulotining 12 % i).

Toshkent viloyatining istiqbol rivojlanishida turlicha ustuvor yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bunga, avvalo, uning geografik o'rni, mineral xomashyo, demografik hamda infratuzilma salohiyati, transport geografik o'rni katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mamlakat poytaxti, yirik ishlab chiqarish markazi va iste'mol bozori bo'lgan Toshkent shahrining viloyat iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri ham kelajakda saqlanib qoladi.


Toshkent shahri. Toshkent shahri mamlakatimizning shimoli-sharqida, Chirchiq daryosining o'rta oqimida, asosan, o'ng qirg'og'ida joylashgan. Hududi – 435 km^2. Shaharda, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko'ra, doimiy aholi soni 2956,4 ming kishini tashkil qiladi.

Poytaxt shahar hududi yillar davomida, dastlab sharqiy tomonga, ya'ni Chirchiq yo'nalishida kengaygan bo'lsa, so'nggi yillarda janub va g'arbiy tomonlariga ham kengayib bormoqda. Shahar maydoni so'nggi yillarda Toshkent viloyati Qibray, Zangiota va Toshkent tumanlaridagi ayrim mahallalarning qo'shilishi hisobiga kengayib bordi.

Toshkent ma'muriy-hududiy jihatdan 12 ta shahar tumanidan iborat. Shuningdek, 1 ta shaharcha – Ulug'bek shaharchasi Toshkent shahar hokimiyatiga bo'ysunadi.

Mavjud shahar tumanlaridan dastlab tashkil qilinganlari Mirobod va Shayhontohur tumanlari bo'lib, ular 1929-yilda tuzilgan. Shahar tarkibidagi eng yosh tuman esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-noyabr 2020-yildagi PQ-4888-son Qaroriga asosan tashkil etilgan Yangihayot tumani hisoblanadi.

Tumanlar miqyosida maydoni nisbatan yiriklari Yangihayot (44 km^2), Yunusobod (41 km^2), Yashnobod (37 km^2) va Mirzo Ulug'bek (36 km^2) hisoblanadi. Mazkur tumanlar jami Toshkent shahar maydonining 43,8 % ini tashkil qiladi.



41-rasm. Toshkent shahrining plani

Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 42.

Yakkasaroy, Mirobod va Bektemir tumanlari esa ancha kichik maydonlarga ega: mos holda, 14, 17 va 18 km^2.

Shaharning geografik o'rni va tabiiy sharoiti. Toshkent respublikamizning shimoli-sharqida, Tyanshan tizmasining g'arbiy etaklarida, Chirchiq daryosining o'rta oqimida joylashgan. Shahardan sharqda tog' tizmalarining mavjudligi va, ayni paytda, shimol va shimoli-g'arb tomonga ochiqligi shaharning tabiiy sharoiti, xususan iqlimining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Shahar hududining dengiz sathidan o'rtacha balandligi 440-480 metrga teng bo'lib, eng baland nuqtasi Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan bo'lib, 515 metrni tashkil qiladi.

Toshkent shahrining iqtisodiy geografik o'rni bir qancha ijobiy xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, shahar mahalliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan transport tuguni sifatida shakllangan.

Shaharning Qozog'iston Respublikasining janubiy chegaralariga juda yaqinligi uning geosiyosiy o'rnini belgilab beradi.

Aholisi va mehnat resurslari. Toshkentda, 01.01.2023-yil holatiga ko'ra, 2956,4 ming kishi (2022-yil mobaynida 94 ming kishiga, yoki 3,3 % ga ko'paygan), ya'ni respublika aholisining 8,3 % i istiqomat qiladi. Ta'kidlash joizki, Toshkent shahar aholi soni bo'yicha MDH mamlakatlarida Moskva va Sankt-Peterburg shaharlaridan keyingi 3-o'rinda, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinda turadi. Aholi zichligi 1 km^{2}ga 6597,5 kishiga teng.

Shaharda, 1897-yil ma'lumotlari bo'yicha, 156,0 ming aholi, 1989-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari bo'yicha esa 2105,8 ming kishi yashagan. Demak, orada o'tgan 92 yil mobaynida shahar aholisi deyarli 14 martaga yoki yiliga 21,2 mingga ko'payib borgan. Ta'kidlash joizki, Toshkent shahar aholisi dinamikasiga 1966-yildagi Toshkent zilzilasi ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

So'nggi yillarda shahar chegaralarining o'zgarishi, shuningdek, doimiy ro'yxatga olishdagi mezonlarning o'zgarishi aholi sonining ortishiga olib kelmoqda.

Poytaxtning aholisi soni uning ichki ma'muriy birliklari – tumanlar bo'yicha katta farqlanishlarga ega. Xususan, Olmazor (395,1 ming kishi), Yunusobod (367,0 ming kishi), Shayhontohur (360,5 ming kishi) va Mirzo Ulug'bek (323,1 ming kishi) tumanlari o'zlarining katta demografik salohiyati bilan ajralib turadi. Toshkent shahar jami aholisining deyali yarmi (48,3 %) aynan mazkur 4 ta tuman hissasiga to'g'ri keladi (57-jadval).

57-jadval

Hududlar bo‘yicha aholi soni (yil boshiga, ming kishi)

Ma’muriy birliklar	2000-y.	2010-y.	2020-y.	2023-y.
Toshkent shahri	**2142,3**	2234,3	**2571,7**	**2956,4**
tumanlar:				
Uchtepa	225,1	241,3	272,6	293,6
Bektemir	29	27,9	34,8	55,8
Yunusobod	287,5	300,1	340,1	367,0
Mirzo Ulug‘bek	250,3	247,8	275,5	323,1
Mirobod	123,9	123	138,0	149,5
Shayhontohur	254,2	291,1	340,7	360,5
Olmazor	278,4	311,7	365,4	395,1
Sergeli	156,2	150,4	195,8	162,3
Yakkasaroy	108,8	116	118,9	126,9
Yashnobod	211,2	206,1	241,8	289,5
Yangihayot				161,1
Chilonzor	217,7	218,9	248,1	272,0

Jadval mualliflar tomonidan Toshkent shahar statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi sonining eng kam miqdori esa Bektemir tumanida (55,8 ming kishi) qayd qilinib, eng ko‘p aholiga ega Olmazor tumani bilan orasidagi farq 7 martaga teng. Umuman olganda, shahar bo‘yicha o‘rtacha har bir tumanga 249,6 ming kishidan aholi to‘g‘ri keladi.

Aholi sonining tumanlar doirasida farqlanishi uning zichlik ko‘rsatkichlarida ham yaqqol ko‘rinadi. Shahar bo‘yicha har bir km^2 maydonga 6599,1 kishi to‘g‘ri kelib, shaharning qadimiy, eski qismida joylashgan Shayhontohur (13355 kishi), Olmazor (11620 kishi) va Uchtepa (10485 kishi) tumanlarida aholi zichligi eng yuqori darajaga ega. Aholi zichligi 1 km^2ga Bektemir tumanida 3100 kishi, Yangihayot tumanida esa 3661 kishiga teng va bu jihatdan ular shahar tumanlari ichida oxirgi o‘rinlarda turadi.

Toshkent shahrida 2022-yilda 73,9 mingta tug‘ilish qayd etilgan bo‘lib, 1000 ta aholiga nisbatan tug‘ilish koeffisiyenti 25,4 promilleni tashkil qilgan, bu oldingi yilga nisbatan 3,1 promillega ko‘pdir. Tug‘ilish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham tumanlararo farqlar mavjud. Bu farqlanishlar, asosan, tumanlar aholisining yosh-jins hamda milliy tarkibi bilan bevosita bog‘liq holda shakllanadi.

Eng yuqori tug‘ilish Sergeli tumaniga tegishli bo‘lib, 34,9 ‰ teng. Shuningdek, Bektemir hamda Uchtepa tumanlarida ham tug‘ilish koeffitsiyenti 30,0 promilledan yuqori. Nisbatan past ko‘rsatkich Mirzo Ulug‘bek va Mirobod tumanlariga tegishli.



42-rasm. Toshkent shahrida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti (2022-y.)


Manba: Toshkent shahar statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti.

Toshkent shahrida o‘lim ko‘rsatkichlari respublikaning boshqa hududlariga qaraganda yuqori. Bunga qator omillar, jumladan, aholining yosh tarkibi, urboekologik vaziyat va nozogeografik holat o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Shaharda 2022-yil davomida 16,5 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti 5,7 promilleni tashkil etgan (respublika bo‘yicha 4,8 ‰). Mirzo Ulug‘bek (8,0 ‰), Chilonzor (7,9 ‰) va Yashnobod (6,9 ‰) tumanlari 2022-yilda o‘lim darajasining yuqoriligi bo‘yicha ajralib turgan.

Aholi tabiiy harakatining yakuniy ko‘rsatkichi, ya’ni uning tabiiy ko‘payishi, asosan, tug‘ilish darajasidagi farqlarni takrorlaydi. U Sergeli, Uchtepa va Bektemir tumanlarida yuqori darajaga ega.

So‘nggi yillarda Toshkent shahri aholisining o‘sishida migrasiya yetakchi omil hisoblanmoqda. Yaqin yillargacha shaharga ko‘chib kelganlarga nisbatan ko‘chib ketganlar ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Masalan, 1996-yilda 32,7 ming kishi kelgan, 35,0 ming kishi ketgan, migrasiya qoldig‘i (saldosi) minus 2,3 ming kishini tashkil qilgan. 2000-yillarda ham Toshkent shahri uchun aholining migrasiya aylanmasi ko‘p hollarda ijobiy ahamiyat kasb etmagan. Har ming kishiga hisoblaganda, migrasiya saldosi 2000-yilda minus 8,1 ni tashkil etgan. Yuqoridagi vaziyat, ya’ni migrasiyaning salbiy oqibatlari, asosan, rusiyzabon va boshqa nomahalliy millat vakillarining o‘z tarixiy yurtlariga ko‘chib ketishi tufayli yuzaga kelgan.

Keyingi yillarda shahar aholi migrasiyasi ijobiy xususiyat kasb etmoqda. Masalan, 2022-yilda Toshkent shahar bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 99064 kishini tashkil etgan holda, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffisienti 34,1 promilleni tashkil etgan. Shuningdek, doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 63219 kishi yoki har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffisienti 21,7 promillega teng bo'lgan. Migrasiya saldosi +35845 kishini tashkil etadi va 2021 yilning mos davrida +38259 kishi bo'lgan.



43-rasm. Toshkent shahar aholisining milliy tarkibi (jamiga nisbatan foizda, 1.01.2021-y.)

Rasm mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Toshkent ko'p millatli aholiga ega bo'lgan shahar hisoblanadi. 2021-yil ma'lumotlariga qaraganda, o'zbeklar jami shahar aholisining 74,9 foizini, ruslar 12,2 %, tatarlar 3,1 % ini tashkil qilgan (43-rasm). Toshkentning eski shahar qismida, ya'ni Shayhontohur, Olmazor va Uchtepa kabi tumanlarida o'zbeklar ulushi juda katta. Ruslarning katta qismi Yakkasaroy (34,8 %), Mirobod (24,4 %), Mirzo Ulug'bek (23,1 %), Yashnobod (18,8 %) va Yunusobod (13,4 %) tumanlarida istiqomat qiladi. Qozoq millati Bektemir tumanida o'zbeklardan keyingi 2-o'rinda turadi (jami aholiniing 12,1 % i). Tatar va koreys millatlari Mirobod va Yashnobod tumanlarida ko'pligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Bektemir, Olmazor hamda Yashnobod tumanlarida lo'lilar ulushi katta.

Toshkent shahrida 01.01.2023-yilda doimiy aholisining 27,3 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 57,0 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 15,7 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga

to'g'ri kelgan. Iqtisodiy faol aholi soni 1463,2 ming kishi, iqtisodiyotda band aholi soni 1368,33 ming kishi. Ishsizlik 6,5 % teng bo'lgan.

Mehnat resurslari iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, sanoat, qurilish, transport va aloqa hamda turli xil ijtimoiy sohalarda band. Xususan, sanoat sohasida iqtisodiyotda band aholining 18,5 % i, savdoda 16,0 % i, qurilishda 12,1 % i, ta'limda 8,4 % i, tashish va saqlashda 7,4 % i, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5,2 % i to'g'ri keladi (2022-y.).

Shahar xo'jaligi. Toshkent shahri respublikamiz iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarida alohida o'ringa ega. 2022-yilda respublika yalpi ichki mahsulotining 16,6 % i, sanoat mahsulotining 19,7 % i, pullik xizmatlarning 39,4 % i Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, investisiyalarning 21,0 % i, qurilish ishlarining 21,1 % i va tashqi savdoning 39,1 % i poytaxt hissasiga tegishli bo'lgan.

Sanoat shahar yalpi hududiy mahsulotining 33,5 foizini ta'minlagan, qurilishning ulushi 10,1 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 15,4 %, tashish va saqlash, axborot va aloqa 12,9 %, boshqa xizmat tarmoqlari 28,1 foizini bergan (2022-y.).

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, shaharda ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni 122374 tani, faoliyat ko'rsatayotgani 117812 tani tashkil qilgan. Ularning aksariyati savdo, sanoat va qurilishda faoliyat olib boradi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 106071 ta, ularning rYaHMdagi ulushi 46,8 % tashkil etgan. Har 1000 aholiga 35,9 kichik tadbirkorlik subyektlari mos kelgan.

Sanoati. Toshkent shahri yirik sanoat markazi hisoblanadi. Toshkentning respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi deyarli 20 foizni tashkil qiladi. Shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmi 2022-yilda 108,8 trln so'mga teng bo'lgan. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush (82,5 %) ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 88,5 trln so'mni tashkil etgan.

Shahar sanoatining tarmoqlar tarkibida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining ulushi 29,6 %, metallurgiya sanoati – 13,8 %, yengil sanoatning ulushi 7,7 %, oziq-ovqat sanoati – 25,5 %, kimyo va neft kimyosi ulushi 8,0 % ga teng.

Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng katta ulush Yashnobod (22,5 %) hamda Sergeli (11,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Chilonzor (9,3 %), Bektemir (9,2 %) va Mirobod (7,3 %) tumanlarining ham ulushi yuqori. Umuman olganda, nisbatan yirik sanoat korxonalari joylashgan tumanlar, xususan,

Yashnobod tumani bir necha yillar davomida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda oldingi o'rinlarda turadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda eng past ko'rsatkichlar esa Yangihayot tumani (4,5 %), Yunusobod (4,9 %), Uchtepa (5,0 %) va Mirzo Ulug'bek (5,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda (58-jadval).

58-jadval

Shahar bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi (jamiga nisbatan foizda)

	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Toshkent shahar	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
tumanlar:				
Uchtepa	3,9	6,1	7,5	5,0
Bektemir	5,1	7,0	6,8	9,2
Yunusobod	5,0	7,2	6,4	4,9
Mirzo Ulug'bek	12,2	10,9	7,6	5,2
Mirobod	8,4	8,2	9,2	7,4
Shayhontohur	21,2	11,4	6,1	6,2
Olmazor	5,8	11,6	6,8	7,1
Sergeli	7,4	7,3	9,1	11,4
Yakkasaroy	5,3	5,4	6,0	7,4
Yashnobod	10,8	15,1	28,2	22,5
Yangihayot	-	-	-	4,4
Chilonzor	14,9	9,8	6,3	9,3

Jadval mualliflar tomonidan Toshkent shahar statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shaharda aholi jon boshiga 37398,7 ming so'mlik sanoat mahsuloti mos keladi. Mazkur ko'rsatkich Bektemirda 184921,1 ming so'm, Yashnobodda 86313,3 ming so'm, Sergeli tumanida 79254,9 ming so'mga teng.

Sanoat korxonalari shahar hududi bo'yicha notekis taqsimlangan. 01.01.2022-yil holatiga, Toshkent shahrida 16,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, undan 2,1 mingtasi (jami shaharga nisbatan 12,7 %) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,1 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,3 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,6 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (8,8 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga, 1,4 mingtasi (8,6 %) Shayhontohur tumaniga to'g'ri kelgan. Eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir, Yangihayot, Mirobod, Sergeli tumanlari hisoblanadi.

Shaharda yirik sanoat korxonalari sifatida Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan "Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi" AJ, Mirobod tumanidagi "O'zelektroapparat-electroshield" AJ, "O'ztemiryo'lmash-ta'mir" UK, Sergeli tumanidagi "O'zbekiston rangli metal parchalari

chiqindilarini tayyorlash va qayta ishlash zavodi" AJ, Yakkasaroy tumanida "Toshkent yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash zavodi" AJ, Yashnobod tumanidagi "Toshkent mexanika zavodi" AJ va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Toshkent shahri bo'yicha ayrim sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish miqdorini 59-jadvaldan ko'rish mumkin.

59-jadval

Toshkent shahrida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2022-yil yakunlariga ko'ra)

Mahsulot turi	O'lchov birligi	Hajmi
Chaqiq tosh	tonna	3813,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni	ming tonna	78,2
Paxta kalavasi	ming tonna	35,3
Margarin va yormalar	tonna	6401,2
Pivo	ming litr	76,3
Traktorlar	dona	162
Sovutgich va muzlatgichlar	ming dona	709,1
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar	tonna	15682,0
Tamaki mahsulotlari	dona	1836,1
Elektrenergiya	mln kWh	498,4
Issiqlik energiyasi	ming gkal	11912,8

Jadval mualliflar tomonidan Toshkent shahar statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Transporti. Toshkent shahrida transportning deyarli barcha turlari – avtobus, metropoliten, temir yo'l, havo transporti mavjud. 1977-yilda ishga tushirilgan Toshkent metrosi Markaziy Osiyodagi dastlabkisi hisoblanadi.

Shahar respublika, Markaziy Osiyo va xalqaro darajadagi yirik transport tuguni hisoblanadi. Bu yerda xalqaro aeroport, temir yo'l va avtomobil vokzallari mavjud.

Barcha transport turlari orqali tashilgan yuk va yo'lovchilarning yarmidan ko'prog'i avtomobil transportiga to'g'ri keladi.

60-jadval

Toshkent shahri avtotransportining asosiy ko'rsatkichlari

	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Tashilgan yuklar, ming t	70142,4	123119,0	180876,3	136420,44
Yuk aylanmasi, mln t-km	1339,1	1340,6	2024,5	3036,59
Tashilgan yo'lovchilar, ming kishi	952061,4	1095056,6	1007217,8	305142,41
Yo'lovchi aylanmasi, mln yolovchi-km	7468,1	9889,9	9710,9	2827,53

Jadval mualliflar tomonidan Toshkent shahar statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2022-yilda avtomobil transportida tashilgan yuklar 136420,4 ming tonnani tashkil qilgan. Tashilgan yo‘lovchilar soni esa 305142,4 ming kishi (60-jadval).

Alohida ta’kidlash lozimki, Mustaqillik yillarida sifatli transport xizmatlari ko‘rsatishga, shahar ko‘cha va yo‘llarini yaxshilashga e’tibor qaratilmoqda. Biroq, shaharda avtomobillar soni juda tez ko‘payib borayotganligi poytaxt transport infratuzilmasini yanada takomillashtirishni dolzarb qilib belgilaydi.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Yirik shaharlarda aholi sonining ko‘pligi ijtimoiy sohalarni jadal rivojlanishini taqozo etadi. Bu sohalar, o‘z navbatida, turli-tuman bo‘lib, ular ta’lim, sog‘liqni saqlash, chakana savdo, pullik xizmatlar, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Toshkent shahrida ijtimoiy sohalarning barchasi yaxshi rivojlangan.

2022-yilda shaharda ko‘rsatilgan jami xizmatlar 137358,1 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Xizmatlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraganda eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. Bu xizmatlarning ulushi 32,1 %, savdo xizmatlari 22,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 10,3 % transport xizmatlari 9,5 %, shuningdek, ta’lim xizmatlari 4,6 % ni tashkil qilgan.

Shaharda chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2022-yilda 66784,0 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. Bu borada Mirobod, Chilonzor, Yashnobod hamda Yunusobod tumanlari ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘lib, mazkur 4 ta tumanga jami shahar chakana savdosining 44,0 % i to‘g‘ri keladi. Nisbatan past ko‘rsatkichlar Yangihayot, Sergeli va Bektemir tumanlariga tegishli.

Toshkent shahrida 1.01.2023-y. holatiga ko‘ra, 156 ta shifoxona xizmat ko‘rsatadi (2010-yilda 106 ta bo‘lgan). Eng ko‘p shifoxonalar Mirzo Ulug‘bek (22 ta), Olmazor (20 ta) va Chilonzor (18 ta) tumanlarida joylashgan. Shifoxonalarda bemor o‘rinlari soni 23400 ta, har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 79,2 tani tashkil qiladi. Shahar sog‘liqni saqlash tizimida jami shifokorlar soni 20690 nafar, o‘rta tibbiyot xodimlari 40351 nafar. Shuningdek, poytaxtda 1095 ta ambulator-poliklinika muassasalari\ faoliyat ko‘rsatadi.

Toshkent shahrida 2022-yil oxiriga maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 715 tani tashkil etgan. Jami tarbiyalanuvchilar soni 144220 ta bo‘lib, ularga 12277 pedagog xodimlar tarbiya berishadi. O‘rta hisobda bitta maktabgacha ta’lim tashkilotiga 202 ta tarbiyalanuvchi mos keladi. Shahar bo‘yicha 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim

tashkilotlari bilan qamrab olinishi 71,9 % ga teng (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 68,3 % ga teng). Bu borada Mirzo Ulug‘bek, Yakkasaroy, Yunusobod va Sergeli tumanlaridan tashqari barcha shahar tumanlarining ko‘rsatkichlari shahar o‘rtacha darajasidan past.

Shuningdek, 2022/2023-o‘quv yilida shaharda 385 ta umumta’lim muassasalari (jumladan, 44 ta nodavlat ta’lim muasssasi) faoliyat ko‘rsatgan, ularda o‘quvchilar soni 499417 nafar (nodavlat sektorda 16965 nafar o‘quvchi) ga teng bo‘lib, bitta muassasada o‘rtacha 1297 ta o‘quvchiga ta’lim berilgan. O‘quv yilida umumta’lim maktablarida faoliyat olib borgan o‘qituvchilar 28609 nafarni tashkil qilgan. Jami maktablarning 26 % i bir smenada, 73,7 % i ikki smenada, 0,3 % i uch smenada ishlaydi. Ta’lim tillari kesimida olganda, 275,4 ming nafar o‘quvchi o‘zbek, 218,5 minf nafar o‘quvchi rus, 1,5 ming nafar o‘quvchi ingliz tillarida tahsil olgan.

Shaharda 27 ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatadi: Olmazorda 5 ta, Yunusobod, Yakkasaroy va Chilonzor tumanlarida 4 tadan mavjud. Umumun olganda, Uchtepa, Sergeli va Yangihayot tumanlaridan tashqari barcha tumanlarda akademik litseylar faoliyat ko‘rsatgan. Akademik litseylarda 9796 nafar o‘quvchi bilim olgan va ularga 929 ta o‘qituvchi mashg‘ulotlar olib borgan. Akademik litseylarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning eng katta qismi Olmazor tumaniga (2,0 ming kishi), eng kam qismi Yashnobod tumaniga (0,3 ming kishi) to‘g‘ri kelgan.

Shu bilan birga 2022/2023-o‘quv yilida Toshkent shahrida 6 ta kasb-hunar maktablari, 15 ta kollej va 11 ta texnikumlar mavjud bo‘lib, ularda jami 21,6 ming nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. O‘quv yilida professional ta’lim muassasalarni 8033 nafar o‘quvchi tugatgan.

Toshkent shahri yirik fan va oliy ta’lim markazi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va uning ilmiy tadqiqot institutlari aksariyati aynan shu yerda faoliyat ko‘rsatadi. Poytaxt o‘zining oliy ta’lim muassasalari sonining ko‘pligi bo‘yicha ham oldingi o‘rinda turadi. 2022/2023-o‘quv yili boshiga shaharda 82 ta (oldingi yilga nisbatan o‘sish 22,4 %) oliy o‘quv yurtlari faoliyat ko‘rsatgan. Jami oliy o‘quv yurtlarining 39 tasi davlat oliy ta’lim tashkilotlari, 23 tasi nodavlat ta’lim tashkilotlari va 20 tasi O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari hisoblanadi. Oliy ta’lim tashkilotlarining 17 tasi Mirzo Ulug‘bek tumanida, Shayhontohur va Chilonzorda 12 tadan, Yunusobodda 10 ta, Olmazor va Mirobod tumanlarida 9 tadan, Yakkasaroy tumanida 7 ta, Uchtepa va Yashnobod tumanlarida 3 tadan OTT joylashgan. Jami oliy ta’lim tashkilotlarida bakalavriat hamda

magistraturada kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida 354,0 mingta talaba tahsil oladi. Ko'rilayotgan yilda jami oliy ta'lim muassasalarida 14,6 mingta professor-o'qituvchi xodimlar faoliyat olib borgan.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti eng yirik oliygohlar hisoblanadi.

Toshkent shahrining ijtimoiy rivojlanishida teatrlar, muzeylar, rekreatsiya-dam olish joylari – istirohat bog'larining o'rni katta.

2023-yil boshida Toshkent shahrida 18 ta professional teatrlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning aksariyati Shayhontohur (7 ta), Mirobod (5 ta) va Chilonzor (3 ta) tumanlarida joylashgan. Muzeylar soni 33 ta. Sergeli, Bektemir va Uchtepa tumanlaridan tashqari barcha shahar tumanlarida muzeylar mavjud.

G'ofur G'ulom nomidagi Milliy bog', "Lokomotiv" bog'i, "Anhor-Lokomotiv", "Ashxobod", "Do'stlik" kabilar shaharning yirik dam olish, ko'ngil ochish joylari hisoblanadi. Shu bilan birga, shaharda "Bunyodkor", "Paxtakor", "Lokomotiv", "JAR" kabi sport majmualari ham faoliyat olib boradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi. Toshkent shahri O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarida faol qatnashadi. 2022-yilda shahar tashqi savdo aylanmasi 19530,1 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, bu respublika tashqi savdo aylanmasining 39,1 % i demakdir. Jami tashqi savdo aylanmasining 23,2 % eksportga, 76,8 % esa importga to'g'ri kelgan.

Toshkent jahonning 197 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining salmoqli hissasi Rossiyaga (23,0 %), Xitoyga (20,4 %), Qozog'istonga (9,2 %), Turkiyaga (6,3 %), Germaniyaga (4,1 %), Turkmanistonga (2,8 %) va Hindistonga (2,3 %) to'g'ri keladi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 51,3 % tashkil etib, sanoat tovarlari (18,3 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifadagi shunga o'xshash mahsulotlar (9,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,1 %) asosiy qismini tashkil etdi. Shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulush Mirobod tumani (21,7 %), eng quyi ulush esa Uchtepa tumani (0,7 %) ga to'g'ri kelgan.

Import tarkibida eng yuqori salmoq mashina va transport asbob-uskunalari (28,9 %), sanoat tovarlari (19,7 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifadagi shunga o'xshash mahsulotlar (18,1 %) hisobiga

to'g'ri keladi. Shahar tumanlari bo'yicha olib qaralganda, import tarkibida eng yuqori ulush Mirobod tumaniga tegishli bo'lib, 17,5 %, eng past ko'rsatkich esa Yangihayot tumaniga mos kelib, 1,4 % ga teng bo'ldi.

Ichki tafovutlar. Poytaxtni, fikrimizcha, umumiy tarzda tarixiy geografik jihatdan uchta katta qismga ajratish mumkin: Eski shahar, Yangi shahar va Eng yangi shahar. Eski va Yangi shahar o'rtasidagi shartli chegara sifatida Anhor kanali xizmat qiladi. Shaharning eski qismida hozirgi Shayhontohur, Olmazor va Uchtepa tumanlari joylashgan. Uning yangi va eng yangi qismlari, asosan, Chirchiq yo'nalishi va janubiy hududlarni egallaydi. Sharqiy yo'nalish Toshkentning asosiy dam olish (rekreatsiya) va dala hovli (dacha) zonasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyuldagi "Yangi Toshkent shahrini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-323-son Qaroriga muvofiq eng yangi shahar qurilishi olib borilmoqda. Yangi shaharni barpo etishdan maqsad Toshkent shahri aholisining o'sish sur'atini inobatga olgan holda, ularning uy-joyga bo'lgan talabini qondirish, turmush tarzi uchun qulay sharoitlar yaratish, yangi arxitektura va texnik yechimlarni joriy etish orqali zamonaviy markaz barpo etish, shuningdek, biznes, moliyaviy va turistik infratuzilmalarni jadal rivojlantirishni ta'minlashdan iborat. U Chirchiq va Qorasuv daryolari oralig'ida qurilmoqda. Yangi Toshkent loyihasi doirasida 20 ming gektarda 1 million aholi yashashi uchun qulay sharoit yaratiladi va shunga mos infratuzilma bilan ta'minlanadi. Davlat idoralari, Yangi O'zbekiston universiteti, Milliy kutubxonaning yangi binolari, teatr, ijod maktablari, savdo va servis markazlari ham shu yerda joylashadi.

Umuman olganda, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ichki farqlar tumanlar darajasida yanada yaqqol ko'rinadi. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha Yashnobod, Sergeli, Chilonzor, Bektemir va Mirobod tumanlari yetakchilik qiladi. Asosiy ijtimoiy sohalar, chakana savdo va aholiga pullik xizmat ko'rsatishda Mirobod, Chilonzor, Yashnobod va Yunusobod tumanlari oldingi o'rinlarda turadi.

Savol va topshiriqlar

1. Toshkent shahri va Toshkent viloyatlarini bitta iqtisodiy rayon doirasida birlashtirishga nimalar asos bo'la oladi?
2. Toshkent iqtisodiy rayoni sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari qaysi?

3. Toshkent viloyati tabiiy sharoiti va resurslarining qanday ijobiy jihatlarini ajratish mumkin?

4. Toshkent viloyati urbanistik tarkibiga qanday o'ziga xos jihat xos?

5. Toshkent viloyati aholisining milliy tarkibida o'zbeklardan tashqari qaysi millatlar katta o'rin tutadi?

6. Toshkent viloyati sanoati qanday tarmoqlarga ixtisoslashgan va uning tarmoqlar tarkibida so'nggi yillarda qanday o'zgarishlar kechmoqda?

7. Toshkent shahrining milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda tutgan o'rni nimalarga bog'liq?

8. Toshkent shahri xo'jaligi tarmoqlar tarkibining o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.

9. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmida qaysi tumanlarning ulushi yuqori?

10. Poytaxt shaharda aholining ko'payib borishi, shuningdek ishlab chiqarishning kengayishi bilan bog'liq qanday muammolar yuzaga keladi?

Test savollari

1. Toshkent iqtisodiy rayonining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga birlamchi ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsating?

A) Respublika poytaxtining aynan shu hududda joylashganligi, iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi

B) Aholi soning ko'pligi, aholi milliy tarkibining turli-tumanligi

C) Agroiqlim resurslari, yer-suv resurslari

D) Aholi zichligining yuqoriligi, shaharlar sonining ko'pligi

2. Toshkent iqtisodiy rayonining xo'jalik majmuasi qaysi sanoat tarmoqlari bilan alohida ajralib turadi?

A) Ko'mir sanoati, elektr energetikasi, qora va rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati

B) Yengil, oziq-ovqat, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati

C) Neft-gaz, kimyo sanoati, oziq-ovqat sanoati

D) Yoqilg'i, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoati

3. Toshkent shahri tarkibida eng yangi tashkil qilingan tumanni belgilang.

A) Sergeli

B) Yangihayot

C) Bektemir

D) Yashnobod

4. Toshkent shahri tumanlaridan qaysi biri eng yuqori aholi zichligiga ega?

A) Shayhontohur

B) Yangihayot

C) Chilonzor

D) Mirzo Ulug'bek

5. Toshkent shahar atrofi qishloq xo'jaligiga xos tarmoqlarni toping.

A) Sabzavotchilik, sut chorvachiligi

B) Polizchilik, uzumchilik

C) Sholikorlik, qo'ychilik

D) Paxtachilik, g'allachilik

6. 19 ta GESni o'z ichiga olgan gidroelektrstansiyalar kaskadi qaysi daryoda qurilgan?

A) Chirchiq

B) Pskom

C) Ohangaron

D) Sirdaryo

7. O'zbekistonda tog'-kon sanoati asosida vujudga kelgan hududiy ishlab chiqarish majmuasini toping.

A) Angren-Olmaliq

B) Toshkent-Chirchiq-Yangiyo'l

C) Farg'ona-Quvasoy

D) Quyi Amudaryo

8. Toshkent viloyatida eng ko'p aholiga ega shaharni belgilang?

A) Chirchiq

B) Angren

C) Bekobod

D) Olmaliq

17-§. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni

Iqtisodiy rayonning milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni O‘zbekiston Respublikasining shimoli-sharqida, Toshkent hamda Zarafshon iqtisodiy rayonlari oralig‘ida joylashgan. Shimoldan Qozog‘iston, janubdan Tojikiston, sharqdan Toshkent, g‘arbdan Zarafshon iqtisodiy rayoni bilan chegaradosh.

Iqtisodiy rayon ma’muriy jihatdan ikkita viloyat – Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridan iborat. Hududi – 25,49 ming km^2. Aholisi (1.01.2023-y.) – 2372,1 ming kishi (oltita iqtisodiy rayon ichida so‘nggi o‘rin). Urbanizatsiya darajasi 45,0 foizga teng. Aholi zichligi ko‘rsatkichi 93 kishi/km^{2}ga teng (1.01.2023-y.).

Rayonning xo‘jaligi uning qulay tranzit geografik joylashuvi, hududining katta qismi nisbatan yaqin o‘tmishda, ya’ni XX asrning 50-80-yillarida o‘zlashtirilganligi, yerlar meliorativ holatining muammoli jihatlari, suv resurslarining tanqisligi, yerosti boyliklarining ko‘p emasligi va boshqa hududiy omillar ta’sirida rivojlanmoqda.

Mirzacho‘l iqtisodiy rayonining sharqiy qismi sug‘orma dehqonchilik maqsadlarida o‘zlashtirilgan Mirzacho‘l tekisligi bilan band. Janubi-g‘arbiy qismida Turkiston, Nurota va Morguzar tog‘ tizmalari va ularning tog‘oldi tekisliklari joylashgan. Iqtisodiy rayonning shimoli-g‘arbini Qizilqum cho‘lining chekka hududlari egallaydi. Bu yerda O‘zbekistondagi eng yirik ko‘l tizimi hisoblangan Aydarko‘l, Tuzkon va Arnasoy ko‘llari mavjud. Asosiy suv manbalari – Sirdaryodan to‘yinadigan Do‘stlik, Janubiy Mirzacho‘l, Jizzax mashina kanallari, Sangzor daryosi hamda Zarafshondan suv oladigan Tuyatortar kanali.

Mirzacho‘l iqtisodiy rayonining hududiy ishlab chiqarish majmuasi ko‘p tarmoqli agrosanoat kompleksi negizida shakllangan. Sanoat salohiyati, barcha qolgan iqtisodiy rayonlar bilan qiyoslanganda, birmuncha pastroq. Sanoatning asosiy tarmoqlariga yengil, qurilish materiallari, elektr energetika hamda oziq-ovqat sanoatini kiritish mumkin. Milliy iqtisodiyot doirasida Mirzacho‘l rayoni, asosan, elektr energetika va qurilish materiallari sanoatining ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan ko‘zga tashlanadi. Bunday vaziyat Sirdaryo IES (Shirin sh.) va Zafarobod sement zavodi kabi yirik korxonalar tufayli vujudga kelgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda rayonda yengil sanoat hamda mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati rivojlanib bormoqda.

Rayon O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 5,1 %, sanoat mahsulotining 4,3 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 9,9 % ini beradi. Shuningdek, iqtisodiy rayonga respublika investitsiya hajmining 8,7 %, chakana savdoning 5,1 %, pullik xizmatlarning 3,6 %, qurilish ishlarining 5,4 % i to‘g‘ri keladi (2022-yil yakunlari bo‘yicha).

Jizzax viloyati. Jizzax viloyati O‘zbekiston Respublikasi tarkibida dastlab 29-dekabr 1973-yilda tashkil etilgan bo‘lib, 6-sentabr 1988-yilda qo‘shni Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritildi. Ammo ko‘p vaqt o‘tmay, Jizzax viloyati 16-fevral 1990-yilda o‘zining oldingi chegaralari doirasida qayta tiklangan.

Viloyat O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan. Shimolda Qozog‘istonning Turkiston viloyati, janubda Tojikistonning So‘g‘d viloyati, sharqda Toshkent viloyati, g‘arbda Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Hududi – 21,21 ming km^2. Viloyatda, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 1475,5 ming kishi, ya’ni mamlakatimiz aholisining 6,6 % qismi istiqomat qiladi. Ma’muriy markazi – Jizzax shahri (191,8 ming kishi, 1.01.2023-yil).

Viloyatning shimoli-sharqiy qismida Mirzacho‘l va Jizzax cho‘lining yangi o‘zlashtirilgan yerlari, janubi-g‘arbiy qismida Nurota-Turkiston tog‘lari va Sangzor vodiysi, shimoli-g‘ardida esa Qizilqum cho‘li va Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi joylashgan.

Jizzax viloyatining O‘zbekiston YaIMdagi salmog‘i 3,1 %, sanoat mahsulotidagi ulushi 2,1 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi hissasi esa 6,6 % ga teng (2022-y.). Shuningdek, respublika jami chakana savdo aylanmasining 3,0 % i, pullik xizmatlarning 2,2 % i, investitsiyalarning 4,0 % i, qurilish ishlarining 3,1 % i va tashqi savdo aylanmasining 1,4 % i Jizzax viloyatiga tegishli.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Jizzax viloyati tarkibiga 12 ta qishloq tumani, 6 ta shahar (1 tasi – Jizzax – viloyatga bo‘ysunuvchi), 42 ta shaharcha va 529 ta qishloq aholi punkti kiradi (61-jadval).

Qishloq tumanlari hududining kattaligi jihatidan bir-biridan keskin darajada farq qiladi. Forish tumanining maydoni 9,56 ming km^{2}ga teng bo‘lib, respublikamizdagi maydoni jihatidan yirik tumanlar qatorida turadi. Shuningdek, Zomin (2,67 ming km^2), G‘allaorol (1,95 ming km^2) va Baxmal (1,86 ming km^2) tumanlarining maydoni nisbatan katta. Paxtakor (0,38 ming km^2) tumani esa viloyat bo‘yicha eng kichik tuman hisoblanadi. Eng katta va eng kichik tuman orasidagi farq 25,2 martaga teng.

Viloyatdagi 12 ta qishloq tumanidan 5 tasining ma’muriy markazi shahar, 7 tasining ma’muriy markazi esa shaharcha maqomiga ega.

61-jadval

Jizzax viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi (01.01.2023-holatiga ko'ra)

	Hududi (ming km²)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Jizzax viloyati	**21,21**	**12**	**6**	**42**	**529**
Jizzax shahri	0,10		1		
tumanlar:					
Arnasoy	0,49	1		2	10
Baxmal	1,86	1		7	102
G'allaorol	1,95	1	1	6	107
Sharof Rashidov	1,32	1		7	39
Do'stlik	0,45	1	1	1	8
Zomin	2,67	1	1	3	74
Zarbdor	0,71	1		5	19
Zafarobod	0,52	1		4	8
Mirzacho'l	0,48	1	1	2	7
Paxtakor	0,38	1	1	1	20
Forish	9,56	1		2	111
Yangiobod	0,72	1		2	24

Manba: Jizzax viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Shaharchalar soni bo'yicha Baxmal va Sharof Rashidov tumanlari (7 tadan) viloyatda peshqadam. Paxtakor va Do'stlik tumanlarida esa faqat 1 tadan shaharcha joylashgan.

Viloyatda jami qishloq aholi punktlari soni 529 ta. Forish (111 ta), G'allaorol (107 ta) va Baxmal (102 ta) tumanlarida ularning soni nisbatan ko'p bo'lsa, yangi o'zlashtirilgan yerlarda joylashgan Arnasoy, Do'stlik, Zafarobod va Mirzacho'l tumanlarida qishloqlar soni ancha kam (7-10 ta).

Tabiiy sharoiti va resurslari. Jizzax viloyati hududining g'arbiy va janubiy qismlari tog'liklardan (Nurota-Turkiston tog'lari) va Sangzor-G'allaorol tog' oralig'idagi botiq, shimoliy va sharqiy qismlari esa tekisliklardan (Qizilqum va Mirzacho'l) iborat. Hududining eng baland nuqtasi Turkiston tizmasidagi Shavkartov cho'qqisi (4029 m, Zomin tumanining chekka janubida).

Viloyat relyefi va landshaftlarining turli-tumanligi hududiy mehnat taqsimotining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Viloyatning tog' va tog'oldi hududlarida chorvachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, lalmikor dehqonchilik, rekreatsiya va turizm rivojlangan, tekislik qismi esa ko'proq paxta, don, poliz va sabzavot ekinlari ekiladigan hududlardan iborat.

Viloyatda turli qazilma boyliklari ham mavjud. Ular jumlasiga oltin, volfram, qo'rg'oshin, rux, molibden, ohak, granit, marmar kabilar kiradi.

Qo'ytoshning volfram, Marjonbuloqning oltin, Uchqulochning qo'rg'oshin-rux konlari sanoat ishlab chiqarishida katta ahamiyatga ega.

Asosiy suv manbalari Sangzor va Zominsuv daryolari, Sirdaryodan to'yinadigan Janubiy Mirzacho'l va Jizzax mashina kanallari hamda Zarafshondan to'yinadigan Tuyatortar kanali hisoblanadi. Viloyatdagi sug'orish tarmoqlari Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qaraydi.

Viloyatning shimolida joylashgan Aydarko'l-Arnasoy ko'llar tizimi Orol dengizi qurigandan so'ng respublikamizdagi eng yirik ko'llar tizimi hisoblanadi. Bu suv havzalarida so'nggi yillarda baliqchilik, shuningdek, rekreatsiya va ekoturizm rivojlantirilmoqda.


Aholisi va mehnat resurslari. Jizzax viloyati doimiy aholisining soni, 2023-yilning boshi holatiga ko'ra, 1475,5 ming kishini tashkil etgan. Viloyat aholi soni bo'yicha respublikada faqat Sirdaryo va Navoiy viloyatlaridan oldinda, 12-o'rinda turadi. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1 kvadrat kilometrga o'rtacha hisobda 69,6 kishi to'g'ri kelmoqda (respublika bo'yicha 80,2 kishi). Jami aholining 46,9 % shahar joylarda istiqomat qiladi.

Jizzax viloyatining aholisi 2022-yil mobaynida 32,2 ming kishiga (2,2 % ga) ko'paygan. Viloyat aholisi Mustaqillik yillarida (1991-2023-yy.) 700,6 ming kishiga, yoki yiliga o'rtacha 30,5 ming kishiga ko'paygan.

Aholi soni bo'yicha Sharof Rashidov tumani yaqqol yetakchilik qiladi, tumanga viloyat aholisining 16 % i (236,8 ming kishi) to'g'ri keladi. G'allaorol (182,8 ming kishi), Zomin (175,2 ming kishi) va Baxmal (166,6 ming kishi) tumanlarining ham aholisi nisbatan ko'p. Yangiobod (29,5 ming kishi) va Arnasoy (48,1 ming kishi) tumanlari aholisi esa 50,0 ming kishidan kam. Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod, Mirzacho'l, Paxtakor va Forish tumanlari aholisi 50,0-100,0 ming kishi atrofida.

Viloyatda 2022-yilda tug'ilganlar soni 40729 kishini tashkil etgan, har 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti esa 27,9 promillega teng bo'lgan (44-rasm). Tug'ilishning eng yuqori darajasi Jizzax shahri (30,9 ‰), Zomin (29,3 ‰) va Baxmal (29,3 ‰) tumanlarida qayd etildi.

Viloyatda 2022-yilda o'lganlar soni 6784 kishi, o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Baxmal (4,9 promille), G'allaorol (5,3 promille), Zomin (5,3 promille) tumanlarida nisbatan yuqori, Sharof Rashidov (3,6 promille) va Forish (4,1 promille) tumanlarida esa birmuncha past darajaga ega bo'lgan.



44-rasm. Jizzax viloyatida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil)
Manba: Jizzax viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Jizzax viloyatida migratsiya jarayonlari muayyan xususiyatga ega. Dastavval, o'tgan asrning 60-70 yillarida Mirzacho'l yerlarini o'zlashtirish munosabati bilan bu yerga respublikamizning boshqa viloyatlaridan, ayniqsa, qo'shni Samarqand viloyatining Jomboy, Payariq, Bulung'ur, Pastdarg'om, Navoiy viloyatining Nurota tumanlaridan ko'plab aholi ko'chib kelgan. So'nggi yillarda esa migratsiya oqimi teskari yo'nalishda kuchayib bormoqda. Xususan, yangi o'zlashtirilgan hududlarda kelganlarga nisbatan ketganlar ko'p.

2022-yilda viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6631 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 8417 kishi tashkil qilgan. Migratsiya qoldig'i minus 1786 kishi tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, tahlil qilinayotgan davrda migratsiyaning ijobiy saldosi faqat Sharof Rashidov tumaniga tegishli bo'lgan (plyus 442 kishi).

62-jadval

Jizzax viloyati aholisining milliy tarkibi (1.01.2021-y.)

Millatlar	Soni (ming kishi)	Jami aholidagi ulushi (%)
O'zbeklar	1263,4	89,6
Qirg'izlar	43,7	3,1
Tojiklar	33,1	2,3
Qozoqlar	28,3	2,0
Ruslar	14,8	1,1
Boshqa millatlar	27,2	1,9

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jizzax viloyati aholisining milliy tarkibida o'zbeklarning ulushi 89,6 % ni tashkil etadi (62-jadval). Soni va viloyat aholisidagi salmog'i bo'yicha 2-o'rinda turadigan qirg'izlar jami aholining 3,1 % qismini tashkil etadi. Eng ko'p qirg'izlar Baxmal, Zomin va Do'stlik tumanlarida istiqomat qiladi. Tojiklarning katta qismi Forish va Yangiobod tumanlarida yashaydi. Ruslar, asosan, Jizzax shahrida yashaydi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, shahar aholisining ulushi 46,9 % tashkil qilgan. Tumanlar kesimida shahar aholisining salmog'i ancha farq qiladi. Bu borada eng yuqori ko'rsatkichlar Zarbdor (55,3 %), Zomin (47,5 %) va Sharof Rashidov (40,0 %) tumanlarida, eng past ko'rsatkichlar esa Yangiobod (21,3 %) tumanida qayd qilingan.

Viloyat markazi Jizzax shahrining aholisi 191,8 ming kishi bo'lib, viloyat jami aholisining 13,0 % i demakdir. Dashtobod shahrida 41,1 ming kishi, Paxtokorda 28,2 ming kishi, G'allaorolda 27,7 ming kishi, Gagarin va Do'stlik shaharlarida, mos ravishda, 19,2 ming va 20,7 ming kishi istiqomat qiladi. Shunday ekan, viloyatda Jizzaxdan tashqari barcha shaharlar kichik shaharlar toifasiga mansub.

Viloyatda 529 ta qishloq aholi manzilgohlari mavjud bo'lib, 1 ta qishloqqa o'rtacha hisobda 1480 kishi to'g'ri keladi (respublika bo'yicha o'rtacha hisobda mos ko'rsatkich 1606 kishiga teng).

Jizzax viloyati mehnat resurslarining soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 791,0 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu viloyat aholisining 53,6 % qismiga teng (respublika bo'yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi 76,2 % ni, iqtisodiy nofaol aholi esa 23,8 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida esa iqtisodiyotda band aholining salmog'i 90,6 %, ishsizlar ulushi esa 9,4 % ga teng.

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko'p band aholi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (43,0 %), sanoat (9,6 %), ta'lim (9,5 %), savdo (7,7 %), qurilish (5,7 %) kabi sohalarga to'g'ri keladi (2022-y.).

Viloyat xo'jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Jizzax viloyatining YaHM hajmi, 2022-yil yakunlariga ko'ra, 27,14 trln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 104,7 % ga o'sgan (respublika bo'yicha o'sish 105,7 %). Viloyatning mamlakat YaIMdagi salmog'i 3,1 % ga teng (2010-yilda 2,8 %). Bu jihatdan viloyat respublika hududlari orasida faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda, 13-o'rinda turadi.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblangan YaHM hajmi, 2022-yil ma'lumotlariga binoan, 16,30 mln so'mni (respublika bo'yicha o'rtacha

ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 105,4 % ga o‘sgan.

Viloyat YaHMning tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi 50,6 % (respublika YaIMdagi ulushi 23,4 %), sanoat va qurilishning salmog‘i 18,2 % (respublika YaIMdagi salmog‘i 31,1 %), xizmatlarning hissasi 28,6 % (respublika bo‘yicha 38,7 %), sof soliqlar ulushi esa 2,6 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ga teng bo‘lgan. So‘nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida agrar sektorning ulushi biroz pasayib, boshqa sohalarning salmog‘i esa birmuncha ko‘tarildi.

Jizzax viloyati O’zbekiston hududlari ichida sanoat ishlab chiqarish hajmining eng past ko’rsatkichlaridan biri bilan tavsiflanadi. Sanoatning tarmoqlar tarkibida yengil, qurilish materiallari va mashinasozlik sanoati yetakchilik qiladi.


Viloyatda mamlakatimizning jami qishloq xo‘jaligi mahsulotining 6 foizdan ziyod qismi yetishtiriladi. Ayniqsa, paxta, g‘alla, poliz ekinlari, go‘sht va jun yetishtirishda viloyatning respublikadagi ulushi nisbatan yuqori.

Jizzax viloyati tog‘li hududlarining rekreatsion-turistik salohiyati ancha yuqori. Bu borada, ayniqsa, Zomin tumani O‘zbekistonda mashhur.

Sanoati. Jizzax viloyatining yalpi sanoat mahsuloti hajmi 2022-yilda 11,15 trln so‘mga teng bo‘lib, oldingi yilga nisbatan 107,8 % ga o‘sgan. Respublika sanoati hududiy tarkibida viloyatning hissasi 2,1 % ni tashkil etib, bu borada viloyat mamlakatimiz hududlari ichida faqat Surxondaryo viloyatidan oldingi 13-o‘rinni egallaydi.

Viloyat sanoati tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,1 % tashkil etgan.

Jizzax viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida yengil sanoat alohida ajralib turgan holda, mazkur sanoat tarmog‘i viloyat jami sanoat mahsulotining 32,6 % ini tashkil etgan (2022-y.). Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining ulushi 25,9 %, qurilish materiallari sanoatining salmog‘i 14,5 %, oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati ulushi 11,4 %, kimyo va neft-kimyo sanoatining hissasi esa 6,5 % ni tashkil etgan. Boshqa sanoat tarmoqlarining ulushi ancha past. Demak, viloyat sanoati yengil, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish materiallari, oziq-ovqat va kimyo sanoati kabi tarmoqlarga ixtisoslashgan.



45-rasm. Jizzax viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 45.

Yengil sanoatda paxtani qayta ishlash tarmog‘i ustunlik qiladi. Paxtani qayta ishlash zavodlari paxta yetishtirishga ixtisoslashgan qishloq tumanlari (Paxtakor, Do‘stlik, Mirzacho‘l va boshqa) markazlarida joylashgan. Oziq-ovqat sanoatida un mahsulotlari ishlab chiqarish ustunlik qiladi. Don kombinatlari Jizzax va Do‘stlik shaharlarida joylashgan.

Viloyatda 2022-yilda 90,2 ming tonna paxta tolasi, 73,2 ming tonna chigit, 8,6 ming tonna o‘simlik yog‘i, 52,3 ming tonna un, 33,7 ming tonna omuxta yem ishlab chiqarilgan.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush Jizzax shahri (jami viloyat sanoat mahsulotining 34,3 foizi, 2022-y.), G‘allaorol (19,1 %) va Zafarobod (9,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Mirzacho‘l (1,4 %) va Arnasoy (1,9 %) tumanlarining sanoat salohiyati esa juda past.

Viloyatda tog‘-kon sanoati ham shakllangan. Uning asosiy markazlari Qo‘ytosh (volfram, molibden), Marjonbuloq (oltin), Uchquloch (qo‘rg‘oshin, rux) kabi “resurs” shaharchalar hisoblanadi. Bu yerda qazib olingan rudalar Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinatlari tomonidan qayta ishlanadi hamda Toshkent va Navoiy viloyatlari statistik hisobiga yoziladi.

Jizzax shahri, Zafarobod, Zomin, Forish va G‘allaorol tumanlarida qurilish materiallari sanoati rivojlangan, xususan, Zafarobod tumanida yirik sement zavodi ishga tushirilgan.

Qishloq xo‘jaligi. Viloyatda 2022-yilda 23,9 trln so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga qaraganda 103,4 % ga o‘sgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bo‘yicha viloyat respublika hududlari orasida Sirdaryo, Navoiy va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan oldingi, 11-o‘rinda turadi, mamlakatda yetishtirilgan agrar mahsulotning 6,6 % ini ta’minlab bergan.

Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi g‘allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog‘dorchilik, qoramolchilik, qo‘ychilik, asalarichilik kabi tarmoqlarga ixtisoslashgan. Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibida 40,9 % dehqonchilikka, 59,1 % chorvachilikka to‘g‘ri keladi (2022-y.).

Viloyatda jami qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni 1262,6 ming gektarga teng bo‘lib, 22,2 foizini sug‘oriladigan yerlar tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki, mintaqada intensiv ravishda qishloq xo‘jaligi, xususan, sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlari birmuncha cheklangan. Sug‘oriladigan yerlar ulushi, ayniqsa, tog‘ va

tog‘oldi hududlarda joylashgan Forish, Zomin, Baxmal, G‘allaorol, Yangiobod qishloq tumanlarida ancha kam. Forish tumanining qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlardan bor-yo‘g‘i 0,3 foizi, Yangiobod tumanida 6,6 foizi, Baxmal tumanida 8,2 foizi sug‘oriladigan yerlarga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich Arnasoy, Zafarobod, Mirzacho‘l tumanlarida ancha yuqori, Zarbdor va Paxtakor tumanlarida esa u deyarli 100 foizga teng. Jizzax viloyatining tog‘oldi-tog‘ tumanlari lalmikor dehqonchiligining respublika miqyosidagi eng asosiy hududlaridan biri hisoblanadi. Lalmi haydaladigan yerlarning umumiy maydoni bo‘yicha mamlakatimizda faqat Qashqadaryo viloyati Jizzaxdan oldinda turadi.

Jizzax viloyati yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 65,5 % i dehqon xo‘jaliklari, 28,7 % i fermer xo‘jaliklari, 5,8 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarga to‘g‘ri kelgan.

Jizzax viloyatida 2022-yilda 692,4 ming tonna don (respublikadagi ulushi 8,7 %, hududlar orasida 6-o‘rin), 268,9 ming tonna paxta (7,7 %; 6-o‘rin), 449,7 ming tonna sabzavot (4,0 %, 10-o‘rin), 97,7 ming tonna kartoshka (2,8 %, 11-o‘rin), 280,7 ming tonna poliz (11,6 %, 2-o‘rin), 93,5 ming tonna meva va rezavorlar (3,1 %, 12-o‘rin), 30,3 ming tonna uzum (1,7 %, 12-o‘rin), 237,8 ming tonna go‘sht (8,7 %, 5-o‘rin), 673,8 ming tonna sut (5,8 %, 10-o‘rin), 386,6 mln dona tuxum (4,7 %, 11-o‘rin) yetishtirilgan, 14,0 ming tonna baliq ovlangan (8,1 %, 5-o‘rin).

Qishloq xo‘jaligi geografiyasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjud. Eng ko‘p qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini Baxmal, G‘allaorol, Jizzax, Zomin va Do‘stlik tumanlari beradi. Turli xil qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ham tumanlararo farqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, boshoqli don ekinlari ko‘proq Do‘stlik, Mirzacho‘l, Paxtakor va Zarbdor tumanlarida, sabzavot – G‘allaorol va Zomin tumanlarida, kartoshka – G‘allaorol va Baxmalda, meva – Baxmal tumanida yetishtiriladi. Umuman olganda, viloyatning tekislik qismi ko‘proq bug‘doy, paxta va poliz ekinlari, tog‘oldi-tog‘ tumanlari esa kartoshka, sabzavot, meva va uzumni yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Yirik shohli qoramollar bosh soni bo‘yicha Baxmal, G‘allaorol va Zomin tumanlari yetakchi hisoblansa, qo‘y va echkilar bosh soni Forish, G‘allaorol va Baxmalda, parrandalar bosh soni esa G‘allaorol, Zafarobod va Zominda eng ko‘p.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Jizzax viloyatida 2022-yilda ko‘rsatilgan pullik xizmatlar hajmi 7984,0 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 2,2 % ni tashkil etib, hududlar orasida bu borada faqat Sirdaryo viloyatidan ko‘p, xolos. Pullik xizmatlar

tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 29,3 %, moliyaviy xizmatlarning salmog'i 26,4 %, transport xizmatlarining ulushi esa 14,6 % ni tashkil etadi, boshqa turdagi xizmatlarning ko'rsatkichlari ancha pastroq.

Pullik xizmatlar hajmining hududiy taqsimlanishida Jizzax shahrining ulushi (41,7 %) keskin ravishda ajralib turadi. Shuningdek, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sharof Rashidov (13,24 %), G'allaorol (8,3 %) va Zomin (8,2 %) tumanlarida kuzatiladi. Eng past ulushlar Yangiobod (1,0 %) va Zafarobod (1,7 %) tumanlariga tegishli.

Aholi jon boshiga hisoblaganda pullik xizmatlar hajmi viloyatda 5470,4 ming so'mni tashkil etgan holda, faqat Jizzax shahri (17567,1 ming so'm) ko'rsatkichlari viloyat darajasidan yuqori.

Jizzax viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilda 7995,4 mlrd so'mga teng bo'lgan (respublikadagi ulushi 3,0 %; hududlar ichida faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda, xolos). Jizzax shahri hissasiga viloyatdagi jami chakana savdo tovar aylanmasining 21,8 % i, Baxmal tumaniga 25,2 %, Sharof Rashidov tumaniga 12,7 % to'g'ri keladi. Yangiobod va Zafarobod tumanlarining bu boradagi ulushlari ancha past.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha 7777,9 ming so'mga teng. Bu borada Jizzax shahri, Baxmal va Zomin tumanlarining ko'rsatkichlari viloyatning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. Nisbatan past ko'rsatkichlar Zafarobod va Yangiobod tumanlariga tegishli.

Viloyatda, 1.01.2023-y. holatiga ko'ra, 55 ta shifoxona muassasasi faoliyat ko'rsatadi. Ulardan 25 tasi viloyat markazida joylashgan. Shifoxonalarda bemor o'rinlari soni 6500 ta (40,8 % i viloyat markaziga to'g'ri keladi) bo'lib, har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 44 tani tashkil qiladi. Viloyat bo'yicha ambulator-poliklinika muassasalari soni 226 tani tashkil etgan holda, 81 tasi Jizzax shahrida joylashgan. Viloyatda jami shifokorlar soni 3040 nafar (51,2 % i viloyat markazida), o'rta tibbiyot xodimlari 17715 nafar (42,5 % i viloyat markazida). Har 10 000 aholiga nisbatan 20,6 nafar shifokor, 120 nafar o'rta tibbiyot xodimi to'g'ri keladi.

Jizzax viloyatida 2022-yil oxiriga maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 307 tani tashkil etgan, ularda 66728 nafar tarbiyalanuvchi mavjud. Viloyat bo'yicha 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi 72,5 % ga teng (respublika bo'yicha 68,3 %).

Viloyatda 2022/2023-o'quv yili boshida 576 ta umumta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 18,8 % i bir smenada, 80,9 % i 2 smenada, 0,3 % i 3 smenada ishlaydi. Eng ko'p maktablar

G'allaorol (91), Baxmal (86), Zomin (73) tumanlarida faoliyat ko'rsatadi. Maktab o'quvchilari soni 269,2 ming nafar, bitta maktabda o'rtacha 467 ta o'quvchiga ta'lim berilgan. Ta'lim tillari kesimida olganda, 251,0 ming nafar o'quvchi o'zbek, 12,0 ming o'quvchi rus, 3,5 ming o'quvchi qirg'iz, 1,1 ming o'quvchi tojik, 0,4 ming nafar o'quvchi qozoq tillarida o'qigan.

Viloyatda 3 ta akademik litsey faoliyat ko'rsatgan bo'lib, barchasi Jizzax shahrida joylashgan. Ularda jami 3,0 ming nafar o'quvchi tahsil olgan. Shuningdek, ko'rilayotgan paytda viloyatda 15 ta kasb-hunar maktabi (6,8 ming o'quvchi), 7 ta kasb-hunar kolleji (2,8 ming o'quvchi) va 13 ta texnikum (8,0 ming o'quvchi) faoliyat ko'rsatgan.

Jizzax viloyatida 2022/2023-o'quv yili boshida 5 ta oliy ta'lim tashkiloti (o'tgan o'quv yili boshiga nisbatan 1 taga ko'paygan) faoliyat olib borgan bo'lib, 4 tasi davlat, 1 tasi nodavlat OTT hisoblanadi. OTTlardagi talabalar soni 37,0 ming nafar bo'lib, 1,5 ming nafari nodavlat OTTda tahsil olgan.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Jizzax viloyatining transport geografik o'rni qulay. Bu yerdan Katta O'zbek trakti avtomagistrali hamda Toshkent-Samarqand elektrlashtirilgan temir yo'li o'tgan. Viloyat va uning markazi – Jizzax shahri Toshkent, Samarqand, Bekobod shaharlari bilan aloqa qilish uchun qulay imkoniyatga ega.

Jizzax viloyatida 2022-yil davomida 35,1 mln tonna yuk, 97,0 mln yo'lovchi tashilgan. Yo'lovchi tashishning deyarli barchasi avtomobil transporti orqali amalga oshirilgan.

Viloyatning 2022-yildagi tashqi savdo aylanmasi 688,0 mln AQSH dollarini (jami respublika tashqi savdo aylanmasining 1,4 %) tashkil qilgan. Jumladan, eksport 199,5, import esa 488,5 mln AQSH dollariga teng bo'lgan.

Viloyat tashqi savdo aylanmasidan 24,3 % i Koreya Respublikasi, 18,7 % i Xitoy, 15,6 % i Rossiya, 11,7 i Turkiyaga to'g'ri kelgan.

Viloyat eksporti tarkibida sanoat tovarlari 49,0 %, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 27,3 % tashkil etadi. Importda esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (72,0 %) to'g'ri keladi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida Jizzax shahri (30,6 %), G'allaorol (27,9 %) va Forish (16,0 %) tumanlari yetakchilik qiladi.

Ichki tafovutlari. Viloyat tabiiy sharoiti, agroiqlim va mineral xomashyo resurslarining hududiy taqsimlanishidan kelib chiqqan holda

tarkibida 2 ta viloyat ichidagi iqtisodiy rayonlarini ajratish mumkin (A.Soliyev bo'yicha):

1) Yuqori (Tog'oldi-tog', yoki Eski o'zlashtirilgan) rayon. Mazkur rayon viloyatning tog' va tog'oldi hududlarini (Zomin, Baxmal, G'allaorol, Forish, Sharof Rashidov va Yangiobod tumanlari, Jizzax shahri) o'z tarkibiga oladi. Rayon viloyat umumiy maydonining 87,8 foizini mujassamlashtiradi. Rayonda lalmikor dehqonchiligi, shuningdek, bog'dorchilik, asalarichilik, kartoshkachilik, sabzavotchilik, jun va go'sht-sut chorvachiligi, baliq xo'jaligi, rekreatsiya va turizm rivojlangan, tog'-kon sanoati markazlari ham mavjud.

2) Quyi (Tekislik, yoki Yangi o'zlashtirilgan) rayon. Ushbu rayon viloyatning tekislik qismidagi yangi yerlarni o'zlashtirish negizida tashkil topgan tumanlardan (Arnasoy, Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod, Mirzacho'l va Paxtakor) iborat. Rayon viloyatning paxta-donchilik, polizchilikka, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan hududi hisoblanadi. Rayon viloyat umumiy maydonining 12,2 foizini egallaydi.

Tabiiy-xo'jalik jihatidan Jizzax viloyati hududi 3 ta yirik mintaqaga bo'linadi: yangi o'zlashtirilgan Mirzacho'l vohasi, Nurota-Turkiston tog'lari va tog'oldi tekisliklari hamda Aydar-Arnasoy ko'llari atrofidagi Qizilqum cho'li yerlari. Bu tabiiy-xo'jalik mintaqalar tabiatdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari va iqtisodiy-ekologik muammolari bilan sezilarli darajada farq qiladi.

Umuman olganda, Jizzax viloyatining rivojlanishiga qulay iqtisodiy geografik o'rni, mavjud tabiiy-resurs salohiyatidan keng foydalanish kabi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, "Jizzax" maxsus industrial zonasini barpo etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sirdaryo viloyati. Viloyat 16-fevral 1963-yilda tashkil etilgan. Maydoni 4,28 ming km^2, yoki respublika hududining bor-yo'g'i 0,95 foizini tashkil etadi, xolos. Bu borada u mamlakatimizda oxirgi o'rinda turadi.

Sirdaryo viloyati shimolda Qozog'istonning Turkiston viloyati, janubda Tojikistonning So'g'd viloyati, sharqda Toshkent viloyati, g'arbda Jizzax viloyati bilan chegaralanadi.

Viloyatda, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko'ra, 896,6 ming kishi, ya'ni mamlakatimiz aholisining 2,5 % qismi istiqomat qiladi. Aholi soni bo'yicha ham viloyat mamlakat hududlari ichida so'nggi o'rinni egallaydi. Aholi zichligi 1 km^{2}ga 209,5 kishiga teng. Shahar aholisining ulushi 43,1 %, qishloq aholisining salmog'i esa 56,9 % ni tashkil etadi.

Viloyatning ma'muriy markazi – Guliston shahri (aholisining soni, bo'ysunuvidagi qishloqlar bilan birgalikda – 100,1 ming kishi, 1.01.2023-yil).

Sirdaryo viloyatining O'zbekiston YaIMdagi salmog'i 2,0 %, sanoat mahsulotidagi ulushi 2,2 %, qishloq xo'jaligi mahsulotidagi hissasi esa 3,3 % ga teng (2022-y.). Shuningdek, respublika jami chakana savdo aylanmasining 1,6 % i, pullik xizmatlarning 1,4 % i, investitsiyalarning 4,7 % i, qurilish ishlarining 2,3 % i va tashqi savdo aylanmasining 1,6 % i Sirdaryo viloyatiga tegishli.

Sirdaryo viloyati respublikamizdagi sanoat ishlab chiqarishning ko'rsatkichlari yuqori bo'lmagan hududlar qatoriga mansub. O'zbekistonda jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining bor-yo'g'i 2 foiz qismi Sirdaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Sanoatning tarmoqlar tarkibida elektr energetika (40 foizga yaqin) va yengil sanoat (27 foiz) yetakchilik qilmoqda. Qurilish materiallari, oziq-ovqat va kimyo sanoati kabi tarmoqlarning har biri viloyat sanoat mahsulotining 8-10 foiz qismini tashkil qiladi. Viloyatning eng yirik sanoat korxonasi Shirin shahrida joylashgan Sirdaryo IES. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bilan Shirin va Guliston shaharlari hamda Sirdaryo tumani alohida ajralib turadi.

Sirdaryo viloyati mamlakatimizning jami qishloq xo'jaligi mahsulotining 3,3 foizini ta'minlaydi. Ayniqsa, paxta, g'alla va poliz ekinlarini yetishtirishda Sirdaryo viloyatining respublikadagi ulushi biroz yuqori.

Ma'muriy-hududiy bo'linishi. Sirdaryo viloyati tarkibiga 8 ta qishloq tumani, 5 ta shahar (3 tasi – Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlari– viloyatga bo'ysunuvchi), 25 ta shaharcha va 257 ta qishloq aholi punkti kiradi (63-jadval).

Viloyat maydoni kichik, uning tumanlari ham shunga mos holda mayda, o'rtacha har bir qishloq tumaniga 0,53 ming km^2 to'g'ri keladi. Viloyatda eng katta tuman – Mirzaobod (0,64 ming km^2) bilan eng kichik tuman – Guliston (0,35 ming km^2) orasidagi nisbat 1,83 martani tashkil qiladi.

Sirdaryo viloyatida jami 5 ta shahar mavjud bo'lib, shaharlar soni bo'yicha faqat Xorazm viloyatidan oldinda turadi, xolos. Shaharchalar soni 25 ta bo'lib, Guliston tumanida 5 ta, Sirdaryo, Sayxunobod va Boyovut tumanlarida 4 tadan, Oqoltinda 3 ta, Xovos va Mirzaobodda 2 tadan va Sardoba tumanida 1 ta shaharcha mavjud.

Viloyatda 257 ta qishloq aholi manzilgohlari mavjud. O'rta hisobda bitta qishloqda 1985 kishi doimiy aholi istiqomat qiladi.

63-jadval

Sirdaryo viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi (01.01.2023-holatiga ko'ra)

	Hududi (ming km²)	Qishloq tumanlari	Shahar-lar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Sirdaryo viloyati	**4,28**	**8**	**5**	**25**	**257**
Guliston shahri	0,04		1		6
Shirin shahri	0,01		1		
Yangiyer shahri	0,03		1		
tumanlar:					
Oqoltin	0,55	1		3	7
Boyovut	0,52	1		4	63
Guliston	0,35	1		5	30
Sayxunobod	0,45	1		4	33
Mirzaobod	0,64	1		2	39
Sardoba	0,52	1		1	14
Sirdaryo	0,55	1	2	4	32
Xovos	0,62	1		2	33

Manba: Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Tabiiy sharoiti va resurslari. Viloyat nisbatan qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega. U g'arb va janubi-g'arbda Jizzax, sharq va shimoli-sharqda Toshkent viloyati bilan chegaradosh. Shuningdek, shimolda Qozog'iston Respublikasining Turkiston viloyati, janubda Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati bilan tutash. Viloyat hududi shimol va shimoli-sharqqa pasaygan keng tekislikdan iborat. Viloyatning deyarli qoq o'rtasini kesib o'tgan magistral yo'llar ham uning geografik o'rnining qulayligi, tranzit xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

Viloyatning iqlim sharoiti quyoshli kunlarning ko'pligi, sutkalik va fasliy haroratlar orasidagi farqning kattaligi, ob-havosining quruqligi, kambulutliligi, ya'ni keskin kontinentalligi bilan tavsiflanadi. Qish va bahor fasllarida tezligi 20-30 m/s ga yetadigan shamollar esadi. Yillik yog'in miqdori 180-300 mmga, ba'zi yillarda 400 mmgacha yetadi.

Viloyatda vegetatsiya davri uzun bo'lib, u 210-228 kunga yetadi. Iqlimining issiqligi, vegetatsiya muddatining uzoqligi issiqsevar ekinlar yetishtirish uchun qulay.

Asosiy suv manbai – Sirdaryo. Undan boshlanadigan bir nechta kanal viloyat hududini sug'oradi. Kanallardan eng yiriklari Do'stlik va Janubiy Mirzacho'l hisoblanadi. Viloyat hududidagi sug'orish tarmoqlari Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlarining havza boshqarmasiga qarashli.

Sirdaryo viloyati yer usti tuzilishi uncha murakkab bo'lmagan holda, foydali qazilmalarga ham boy emas. G'isht-cherepitsa xom

ashyosini hisobga olmaganda, deyarli boshqa mineral boyliklari aniqlanmagan.

Umuman olganda, viloyatning tabiiy sharoiti, xususan, mineral resurs salohiyatining zaifligi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Yer usti tuzilishi ham ijobiy, ham biroz salbiy ahamiyatga ega. Uning balandligi dengiz sathidan 310-320 metrdan oshmaydi. Bunday tekislik uy-joy qurilishi, transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholi joylashuvi uchun qulay. Ammo sug'orma dehqonchilik nuqtai nazaridan yer biroz nishab bo'lgani maqsadga muvofiq.


Aholisi va mehnat resurslari. Viloyatning demografik ko'lami uncha katta emas. Sirdaryo viloyati doimiy aholisining soni, 2023-yil boshi holatiga ko'ra, 896,6 ming kishini tashkil etgan. Viloyat aholisi Mustaqillik yillarida (1991-2023 yy.) 320,3 ming kishiga, yoki yiliga o'rta hisobda 13,9 ming kishidan ko'payib borgan, 2022-yilda esa 18,0 ming kishiga (2,0 %) ko'paygan.

2023-yil 1-yanvar holatiga, aholi soni bo'yicha viloyatda Boyovut (134,1 ming kishi) va Sirdaryo (132,3 ming kishi) tumanlari oldingi o'rinlarda turadi (viloyatda faqat mazkur ikkita tuman aholisi 100 ming kishidan ortiq). Aholi soni eng kam tuman Oqoltin hisoblanib, uning aholisi soni 54,0 ming kishi.

Viloyatda aholi joylashuvida ma'lum hududiy farqlar ko'zga tashlanadi. Xususan, viloyat bo'yicha o'rtacha zichlik 1 km²ga 209,5 kishiga teng bo'lib, bu raqam tumanlar kesimida 99-259 kishi / km²gacha o'zgaradi. Aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichlari Boyovut (258,8 kishi/km²) va Sirdaryo (242,8 kishi/km²) tumanlarida qayd etilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Oqoltin (99,3 kishi/km²) va Mirzaobod (122,8 kishi/km²) tumanlariga tegishli.

2022-yilda tug'ilganlar soni 23,3 mingtani tashkil qilgan, tug'ilish koeffitsiyenti esa har 1000 kishiga 26,3 ‰ ga teng bo'lgan (respublika bo'yicha 26,2 ‰). Tug'ilish darajasi bo'yicha Yangiyer va Guliston shaharlaridan tashqari barcha shahar va qishloq tumanlari ko'rsatkichlari viloyat darajasidan past. Eng past tug'ilish ko'rsatkichi Boyovut tumaniga tegishli bo'lib, 16,4 ‰ ni tashkil etgan (46-rasm).

Viloyatda 2022-yilda 4297 ta o'lim holati qayd etilgan, o'lim koeffitsiyenti 4,8 promillega teng bo'lgan. O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Guliston shahri (8,1 ‰) va Guliston tumaniga (5,7 ‰) tegishli.



46-rasm. Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil yakunlari bo'yicha)

Manba: Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Ta'kidlash lozimki, Sirdaryo viloyati aholisi asosan migratsiya ta'sirida shakllangan bo'lib, bunday xususiyatga ega bo'lgan respublikamizdagi yagona viloyat hisoblanadi. Viloyatning sharqiy qismidagi yerlar XX asrning boshlarida, asosan, Rossiyadan ko'chib kelgan dehqon oilalari tomonidan o'zlashtira boshlandi. Keyinchalik, 1960-yillarda Mirzacho'l yerlarini kompleks o'zlashtirish dasturi amalga oshirilishi boshlanib, Sirdaryo viloyati alohida ma'muriy-hududiy birlik sifatida tashkil etildi. Yangi yerlarni o'zlashtirish uchun Sirdaryo viloyatiga aholi respublikaning boshqa hududlaridan, asosan, aholisi zich joylashgan sug'oriladigan mintaqalardan ko'chirilgan. Bu yerga ko'proq Andijon, Farg'ona viloyatlaridan dehqonlar ko'chib kelishgan. Cho'lni o'zlashtirish jarayonining keyingi bosqichlarida Samarqand viloyatidan ham migratsiya bo'lgan. Lekin, ular ko'proq cho'lning hozirgi qo'shni Jizzax viloyati tumanlariga joylashgan.

2022-yilda viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7,8 kishini tashkil qilgan. Migratsiya saldosi minus 0,9 ming kishiga teng bo'lgan. Guliston, Yangier shaharlari va Guliston tumanida migratsiya saldosi musbat, qolgan shahar va qishloq tumanlarida manfiy xarakterga ega bo'lgan.

Sirdaryo viloyati aholisining milliy tarkibida o'zbeklarning salmog'i, 01.01.2021-yil holatiga ko'ra, 79,2 % ni tashkil qilgan. O'zbeklardan keyingi o'rinni 9,3 % bilan tojiklar egallaydi. Shuningdek,

ruslarning ulushi 2,6 %, qirg'izlarning salmog'i 2,1 %, qozoqlarning hissasi 1,5 %, boshqa millat vakillarining hissasi esa 5,3 % ga teng. Tojiklarning jami aholi tarkibidagi yuqori salmog'i bilan Boyovut (8,5 %), Sayxunobod (15,5 %), Sirdaryo (15,1 %) va Xovos (14,6 %) tumanlari hamda Yangiyer shahri (16 %) ajralib turadi. Ruslarning nisbatan katta ulushi Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlari, Sirdaryo va Xovos tumanlariga xos. Qirg'izlarning asosiy qismi Sardoba tumanida istiqomat qilib, tuman aholisining salkam 19 % ini tashkil etadi. Qozoqlar ko'proq Oqoltin, Sayxunobod va Sirdaryo tumanlarida yashaydi.


Viloyatning urbanizatsiya darajasi 43,1 %. Viloyatda jami 5 ta shahar va 25 ta shaharcha mavjud. Viloyat markazi – Guliston shahrida shahar kengashiga bo'ysunuvchi qishloq aholi punktlari bilan birgalikda 100,1 ming kishi (respublika viloyat markazlari orasida faqat Nurafshon shahridan oldinda turadi), Yangiyer shahrida 46,8 ming kishi, Shirin shahrida 19,0 ming aholi istiqomat qiladi. Tuman bo'ysunuvidagi Sirdaryo shahrida 32,1 ming, Baxt shahrida esa 13,9 ming aholi yashaydi.

Qishloq aholi punktlari soni 257 ta bo'lib, ularning aholisi 510,3 ming kishi. O'rta hisobda 1 ta qishloqqa 1986 kishidan to'g'ri keladi.

1-yanvar 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, Sirdaryoda jami mehnat resurslari soni 487,4 ming kishidan iborat. Shundan 369,5 ming kishi iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. Iqtisodiyotda band aholining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga (36,7 %) to'g'ri keladi. Shu bilan birga, qurilish (10,0 %), sanoat (9,9 %), ta'lim (9,7 %), savdo (8,4 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (5,6 %) sohalarining aholi bandligi tarkibidagi salmog'i nisbatan yuqori (2022-y.).

Viloyat xo'jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Sirdaryo viloyatining YaHM hajmi, 2022-yil yakunlariga ko'ra, 18,14 trln so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 105,0 % ga o'sgan (respublika bo'yicha o'sish 105,7 %). Respublika YaIMdagi ulushi 2,0 % ga teng (hududlar ichida eng so'nggi o'rinda). Viloyatda aholi jon boshiga olingan YaHM hajmi 2022-yilda 20,43 mln so'mni (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 24,92 mln so'm) tashkil etgan.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mintaqa YaHMning 38,1 % (respublika bo'yicha 23,4 %), sanoat va qurilish 31,8 % (respublika bo'yicha 31,1 %), xizmatlar sohasida 26,8 % (respublika bo'yicha 38,7 %), sof soliqlar esa 3,3 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ini tashkil etgan. So'nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va xizmatlarning salmog'i pasayib, sanoat va qurilishning ulushi ko'tarilgan.



47-rasm. Sirdaryo viloyati iqtisodiy xaritasi

Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 44.

Sirdaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishning ko'rsatkichlari yuqori bo'lmagan hududlar qatoriga mansub. Sanoatning tarmoq tarkibida elektr energetika va yengil sanoat ustunlik qiladi. Bu ikkala sanoat tarmog'i jami viloyat sanoatining 67,0 % ini ta'minlaydi.

Viloyat qishloq xo'jaligi paxta, g'alla va poliz ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'i respublika miqyosida katta ahamiyatga ega emas.

Sanoati. Sirdaryo viloyati sanoatining tarmoq va hududiy tarkibi yaxshi rivojlanmagan. Viloyat viloyat respublika sanoat mahsulotining 2,2 foiz qismini ta'minlab bermoqda (2022-y.). Bu jihatdan viloyat respublikada faqat Jizzax va Surxondaryo viloyatlaridan oldinda turadi, xolos. Sirdaryo viloyatining yalpi sanoat mahsuloti hajmi 2022-yilda 12,17 trln so'mga teng bo'lib, oldingi yilga nisbatan 109,5 % ga o'sgan.

Viloyat sanoati tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 57,3 % tashkil etgan. Ammo bu raqam boshqa viloyatlarga qaraganda ancha past. Ta'kidlash lozimki, Sirdaryo viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida elektr energetika 42,1 % tashkil qiladi. Boshqa hech qaysi viloyatda elektr energetika sanoatning tarmoqlar tarkibida bunday yuqori ulushga ega emas. Bu holatga, albatta, Shirin shahridagi Sirdaryo IES ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, sanoatning tarmoqlar tarkibida yengil sanoat 18,8 %, oziq-ovqat sanoati 15,2 % ni tashkil qilgan (2022-y.). Demak, viloyat sanoati elektr energetika, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan.

Sirdaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibida eng katta ulush Shirin shahriga to'g'ri keladi (39,7 %), shuningdek, Sirdaryo tumani (21,6 %) va Guliston shahri (9,0 %) ning bu boradagi ko'rsatkichlari ham ancha yuqori. E'tiborli jihati shundaki, viloyat markazi mintaqa sanoatining hududiy tarkibida nisbatan kichik o'ringa ega. Shirin shahrining viloyat sanoatidagi yetakchi o'rni Sirdaryo IES bilan belgilanadi. Ishlab chiqaradigan sanoatni alohida ravishda olganda, Sirdaryo tumanining o'rni keskin ajralib turadi (salkam 40 %).

Qishloq xo'jaligi. Sirdaryo viloyati respublikamizning, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi. Viloyatda 2022-yilda 12,34 trln so'mlik qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga qaraganda 103,4 % ga o'sgan. Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti bo'yicha viloyat respublika hududlari ichida eng oxirgi (Toshkent shahri hisobga olinmasa) 13-o'rinni egallab, respublika qishloq xo'jaligi mahsulotining 3,3 % ini yetishtirgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotining umumiy hajmida dehqonchilikning ulushi 59,5 % ni, chorvachilik salmog'i esa 40,5 % ga teng.

Sirdaryo viloyati katta yer maydoniga ega emas, uning jami maydoni 427,6 ming gektar bo'lib, shundan 286,6 ming gektari, yoki 67,0 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi yer fondining 93,0 foizini sug'oriladigan yerlar tashkil qiladi. Bu jihatdan viloyat Xorazm va Andijon viloyatlariga o'xshab ketadi. Demak, Sirdaryoda yerdan intensiv foydalanish darajasi ancha yuqori. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida ekin maydonlari 86,8 foizni tashkil qiladi. Bu borada Oqoltin (96,0 %) va Sayxunobod (94,3 %) tumanlari oldinda turadi.

Sirdaryo viloyati yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 50,3 % i dehqon xo'jaliklari, 39,2 % i fermer xo'jaliklari, 10,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarga to'g'ri kelgan. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklarining ulushi ancha yuqori (75,0 %).

Viloyatda 2022-yilda 6818,7 mlrd so'mlik dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilgan. Jumladan, 513,2 ming tonna don ekinlari (respublikadagi ulushi 6,4 %, hududlar orasida 10-o'rin), 242,6 ming tonna paxta (6,9 %; 10-o'rin), 293,6 ming tonna sabzavotlar (2,6 %, 13-o'rin), 66,4 ming tonna kartoshka (1,9 %, 13-o'rin), 278,9 ming tonna poliz mahsulotlari (11,5 %, 3-o'rin), 43,0 ming tonna meva va rezavorlar (1,4 %, 13-o'rin), 14,4 ming tonna uzum (0,8 %, 12-o'rin) yig'ib olingan. Ta'kidlash joizki, Sirdaryoda polizchilik, xususan, qovun ("Mirzacho'l qovunlari") yetishtirish yaxshi rivojlangan. Sirdaryo viloyati agrosanoat majmuida 2022-yilda 70,5 ming tonna go'sht (2,6 %, 13-o'rin), 382,4 ming tonna sut (3,3 %, 13-o'rin), 193,4 mln dona tuxum (2,4 %, 13-o'rin) yetishtirilgan, 6595,8 tonna baliq ovlangan (3,9 %, 11-o'rin).

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo'yicha viloyatda Xovos va Sayxunobod tumanlari yetakchilik qiladi. Donli ekinlar yetishtirishda Boyovut va Xovos tumanlari, kartoshka yetishtirishda Sirdaryo va Sayxunobod tumanlari, poliz, sabzavot, meva va rezavorlar, uzum yetishtirish bo'yicha Xovos tumani yetakchilik qiladi.

Viloyatning chorvachilik geografiyasi ham o'ziga xos. Yirik shoxli qoramollar bosh soni bo'yicha Boyovut va Sayxunobod tumanlari, qo'y va echkilar bosh soni bo'yicha Boyovut va Xovos tumanlari, otlar bosh soni bo'yicha esa Sayxunobod tumani yetakchilik qiladi. Parrandalar bosh soni bo'yicha Guliston shahri yakka peshqadam.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Viloyatda 2022-yil yakunlari bo'yicha jami 5029,8 mlrd so'm hajmda pullik xizmatlar ko'rsatilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 1,4 % ni tashkil etib, hududlar orasida eng so'nggi o'rinda turadi. Pullik xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlarning salmog'i 31,8 %, savdo xizmatlarining ulushi 24,9 %, transport xizmatlarining ulushi 13,2 %, ni tashkil qilgan, boshqa turdagi xizmatlarning ko'rsatkichlari ancha past.

Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida viloyat markazi hissasiga 45,1 %, Sirdaryo tumani hissasiga 13,5 % to'g'ri keladi. Shuningdek, Yangiyer shahri (7,9 %) va Boyovut tumani (7,1 %) ulushi ham birmuncha yuqori. Eng past ko'rsatkichlar bu borada Shirin shahri (1,4 %) va Oqoltin tumaniga (3,1 %) tegishli.

Aholi jon boshiga hisoblaganda pullik xizmatlar hajmi viloyatda 5666,8 ming so'mni tashkil etgan holda, Guliston va Yangiyer shaharlaridan tashqari barcha hududlarda viloyat o'rtacha darajadan past ko'rsatkichlar qayd qilingan.

Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilda 4453,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Guliston shahrining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 37,1 %.

Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha 5513,64 ming so'mni tashkil etib, Guliston, Yangiyer shaharlari va Sirdaryo tumani ko'rsatkichlari viloyat darajasidan yuqori.

Sirdaryo viloyatida, 1.01.2023-y. holatiga ko'ra, 41 ta shifoxona muassasasi mavjud bo'lib, ulardan salkam yarmi (19 tasi) viloyat markazida, 5 tasi Yangiyer shahrida joylashgan. Shifoxonalarda koykalar soni 4,4 mingta, har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 49,1 tani tashkil qiladi. Viloyat bo'yicha ambulator-poliklinika muassasalari soni 191 tani tashkil etgan.

Viloyatda shifokorlarning umumiy soni 1900 nafar, o'rta tibbiyot xodimlari soni esa 13,4 ming nafar. Har 10 000 aholiga nisbatan 21 nafar shifokor, 149 nafar o'rta tibbiyot xodimi to'g'ri keladi.

Sirdaryo viloyatida, 2022-yil holatiga ko'ra, 236 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan. Ularda tarbiyalanuvchilar soni 36683 nafarni tashkil qilgan. Viloyatda 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 74,4 % ga teng (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 68,3 % ni tashkil qiladi).

Viloyatda 2022/2023-o'quv yili boshida 327 ta umumta'lim muassasalari (4 tasi nodavlat) faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda 159,1 mingta o'quvchi tahsil oladi. O'rta hisobda bitta maktabga 674 ta

o‘quvchi mos keladi. Ta’lim tillari kesimida olganda, o‘zbek tilida 147,8 ming nafar, rus tilida 9,6 ming nafar, tojik tilida 1,3 ming nafar, qozoq tilida 0,1 ming nafar o‘quvchi tahsil oladi.

Sirdaryo viloyatida 2 ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, 1 tasi viloyat markazi Guliston shahrida, 1 tasi Sirdaryo tumanida joylashgan. Ularda jami 773 nafar o‘quvchi tahsil olgan. Shuningdek, ko‘rilayotgan paytda viloyatda 12 ta kasb-hunar maktabi (5080 nafar o‘quvchi), 7 ta kasb-hunar kolleji (3535 nafar o‘quvchi) va 6 ta texnikum (2234 nafar o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Viloyatda 2022/2023-o‘quv yili boshida 3 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat olib borgan bo‘lib, 2 tasi Guliston shahrida, 1 tasi Yangiyer shahrida joylashgan. Viloyat OTTlarida 21524 nafar talaba tahsil olgan. Ta’kidlash joizki, respublika miqyosida Sirdaryoda eng kam oliy o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatadi.

Transport va tashqi iqtisodiy aloqalari. Sirdaryo viloyatining transport geografik o‘rni qulay. Viloyat hududidan qator xalqaro va respublika ahamiyatidagi temir va avtomobil yo‘llari o‘tadi. Guliston, Xovos muhim transport markazlari hisoblanadi. Toshkent–Xovos–Bekobod temir yo‘li Sirdaryo hamda poytaxt viloyatlarining muhim transport “uchburchagi” sifatida katta ahamiyatga ega.

Sirdaryo viloyatida 2022-yilda 19,5 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich oldingi yilga nisbatan 105,6 foizga o‘sgan. Yuk aylanmasi 338,8 mln tonna-kmni tashkil qilgan.

Sirdaryo viloyatining 2022-yil yakunlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi 813,5 mln AQSH dollarini (jami respublika tashqi savdo aylanmasining atigi 1,6 % i, hududlar orasida so‘nggi o‘rinlarda) tashkil qilgan. Jumladan, eksport 327,8 mln, import esa 485,8 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan. Viloyat tashqi savdo aylanmasining 29,6 % Qozog‘istonga, 16,5 % Xitoyga, 15,6 % Afg‘onistonga, 15,0 % Rossiyaga to‘g‘ri kelgan.

Viloyat eksporti tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (48,4 %), importda esa oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (42,7 %) hamda mashinalar va transport asbob-uskunalari (23,2 %) yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Eksport aloqalari, asosan, Rossiya, Xitoy va Afg‘onistonga, import esa ko‘proq Qozog‘iston va Xitoy hissalariga to‘g‘ri kelgan. Sirdaryo viloyati jami eksporti va importida eng yuqori ulush Sirdaryo tumaniga to‘g‘ri keladi.

Ichki tafovutlari. Sirdaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muayyan hududiy tafovutlar mavjud. Xususan, sanoatning

hududiy tarkibida Shirin shahri va Sirdaryo tumani, qishloq xo‘jaligining hududiy tarkibida Xovos va Sayxunobod tumanlari, xizmatlar sohasida Guliston shahri alohida ajralib turadi. Oqoltin, Sardoba tumanlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari esa ancha past darajada.

Sirdaryo viloyati hududining tabiiy-xo‘jalik sharoiti relyefning yassiligi tufayli ancha yaxlit bo‘lib, ichki tafovutlari yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Lekin viloyat shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy hududlarining tabiiy-xo‘jalik sharoitida ma’lum tafovutlarni ajratish mumkin. Mintaqaning Markaziy Mirzacho‘l kollektori (Yettisoy botig‘i) dan shimoli-sharqdagi qismi 1960-yillar boshiga kelib o‘zlashtirilgan bo‘lsa, viloyatning janubi-g‘arbiy qismi esa 1970-80-yillarda o‘zlashtirildi. Viloyatning shimoli-sharqiy qismi (Sirdaryo, Sayxunobod, Guliston, Boyovut tumanlari, Guliston, Yangiyer, Shirin shaharlari) oldinroq o‘zlashtirilgan bo‘lib, aholi va aholi punktlari zichligining nisbatan yuqoriligi, sanoatning nisbatan rivojlanganligi, yerlar meliorativ holatining nisbatan yaxshiligi bilan viloyatning janubi-g‘arbiy qismi (Xovos, Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlari) dan ajralib turadi. Shuningdek, viloyatning shimoli-sharqiy hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga Toshkent shahri va viloyatiga yaqinligi ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sirdaryo viloyatining shimoli-sharqiy tumanlari Do‘stlik kanali tizimi bilan sug‘orilsa, janubi-g‘arbiy tumanlari Janubiy Mirzacho‘l kanali tizimi bilan sug‘oriladi.

Savol va topshiriqlar

1. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini Mirzacho‘l iqtisodiy rayon doirasida birlashtirishga nimalar asos bo‘la oladi?
2. Iqtisodiy rayon aholisining shakllanishiga qanday xususiyat xos?
3. Jizzax viloyati qaysi sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan?
4. Jizzax viloyatida rekreatsiya va turizmni rivojlantirishga qanday imkoniyatlar mavjud?
5. Jizzax viloyati iqtisodiy rivojlanishi va ixtisoslashuvidagi ichki tafovutlariga qanday tabiiy geografik omillar ta’sir ko‘rsatadi?
6. Sirdaryo viloyatining iqtisodiy geografik o‘rni va tabiiy resurslari xo‘jaligining rivojlanishiga qanday tarzda ta’sir ko‘rsatadi?
7. Sirdaryo viloyati milliy iqtisodiyot doirasida qanday sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi bilan ajralib turadi?
8. Sirdaryo viloyatining shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy hududlari qanday geografik jihatlari bilan o‘zaro farqlanadi?

Test savollari

1. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni sanoatining nisbatan rivojlangan sanoat tarmoqlarini belgilang.
A) Yengil, qurilish materiallari sanoati, elektr energetika
B) Yoqilg‘i, oziq-ovqat sanoati
C) Kimyo, neft-gaz sanoati
D) Qurilish materiallari, rangli metallurgiya sanoati

2. Jizzax viloyati qishloq tumanlari ichida maydoni eng katta va eng kichik bo‘lganini belgilang.
A) Forish va Paxtakor
B) Zomin va Do‘stlik
C) G‘allaorol va Arnasoy
D) Baxmal va Yangiobod

3. Jizzax viloyati aholisi milliy tarkibida soni jihatidan o‘zbeklardan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi millat qaysi?
A) Tojiklar
B) Qirg‘izlar
C) Qozoqlar
D) Ruslar

4. Jizzax viloyatining Zafarobod tumanida qaysi sanoat tarmog‘ining yirik korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda?
A) Elektr energetika
B) Kimyo va neft-kimyo sanoati
C) Yengil sanoat
D) Qurilish materiallari sanoati

5. Jizzax viloyatining quyidagi tumanlaridan qaysi biri yangi o‘zlashtirilgan hududlar qatoriga kirmaydi?
A) Paxtakor
B) Mirzacho‘l
C) G‘allaorol
D) Do‘stlik

6. Sirdaryo viloyatida viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlarni belgilang?
A) Guliston, Shirin, Yangier
B) Guliston, Baxt, Sirdaryo
C) Guliston, Sirdaryo, Shirin
D) Guliston, Xovos, Baxt

7. Sirdaryo viloyatida aholi zichligining yuqoriligi bo‘yicha qaysi tuman yetakchilik qiladi?
A) Sardoba
B) Boyovut
C) Sirdaryo
D) Mirzaobod

8. Sirdaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibida eng katta ulush qaysi shahar hissasiga mos keladi?
A) Shirin
B) Guliston
C) Baxt
D) Yangiyer

9. Sirdaryo viloyati qaysi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi bo‘yicha respublika bo‘yicha yetakchi hududlardan birida turadi (2022-yilda yalpi hosil bo‘yicha 3-o‘rin)?
A) Bug‘doy
B) Kartoshka
C) Uzum
D) Poliz mahsulotlari

10. Sirdaryo viloyati eksporti tarkibida qaysi tuman yetakchi ko‘rsatkichlarga ega?
A) Sayxunobod
B) Sirdaryo
C) Xovos
D) Sardoba

18-§. Farg‘ona iqtisodiy rayoni

Iqtisodiy rayonning milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Farg‘ona iqtisodiy rayoni O‘zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlaridan iborat. Maydoni 18,5 ming km^{2}ga teng (respublika jami maydonining 4,1 % i). Aholisining soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 10296,5 ming kishini tashkil etadi (O‘zbekiston aholisining 28,6 % i). Shahar aholisining ulushi 57,7 % ga teng. Aholi zichligining yuqoriligi (1 km^2 ga 556,6 kishi) bilan mazkur iqtisodiy rayon respublikada alohida o‘rin tutadi.

Farg‘ona iqtisodiy rayonining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o‘ziga xos iqtisodiy geografik o‘rni, aholi va mehnat resurslarining ko‘pligi, shaharlar to‘rining rivojlanganligi, yer resurslarining unumdorligi va cheklanganligi, suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta’minlanganligi, yer osti boyliklarining nisbatan kamligi kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur rayon atrofi baland tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan Farg‘ona vodiysining O‘zbekistondagi qismini egallaydi. Hududining asosiy qismi tog‘oldi tekisliklari va adirlari bilan band. Chekka qismlarida tog‘lar mavjud. Respublikaning boshqa hududlari bilan transport aloqalari, asosan, Qamchiq tog‘ dovoni orqali avtomobil va temir yo‘l transporti yordamida amalga oshiriladi. Rayonning asosiy suv manbalari – Norin, Qoradaryo va Sirdaryo daryolari hamda ulardan to‘yinadigan qator kanallar hisoblanadi.

Rayon O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 16,9 %, sanoat mahsulotining 18,6 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 16,8 % ini beradi. Shuningdek, iqtisodiy rayonga respublika investitsiya hajmining 16,5 %, chakana savdoning 21,7 %, pullik xizmatlarning 14,9 %, qurilish ishlarining 18,7 % i to‘g‘ri keladi (2022-yil yakunlari bo‘yicha).

Farg‘ona iqtisodiy rayonining xo‘jalik majmuasi, asosan, jadal rivojlangan ko‘p tarmoqli agrosanoat majmuasi bilan belgilanadi. Sanoatning asosiy tarmoqlari qatoriga mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yengil, oziq-ovqat, neftni qayta ishlash, kimyo sanoati kiradi. Farg‘ona iqtisodiy rayoni mashinasozlik (ayniqsa, avtomobilsozlik) va yengil sanoatining rivojlanish darajasiga ko‘ra respublikada oldingi o‘rinda turadi.

Farg‘ona iqtisodiy rayoni respublikaning yirik paxta va g‘alla yetishtiruvchi mintaqasi bo‘lishi bilan birga, kartoshka, sabzavot, meva

yetishtirish, sut-go‘sht qoramolchiligi va pillachilik tarmoqlarida ham yuqori mavqega ega.

Andijon viloyati. Viloyat 1941-yil 6-martda tashkil topgan. Viloyat maydoni 4,30 ming km^2 bo‘lib, u mamlakatimiz umumiy hududining 0,96 % ini tashkil qiladi. Viloyatda, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 3322,7 ming kishi, ya’ni respublika aholisining 9,2 % qismi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 km^{2}ga 772,7 kishiga teng bo‘lib, bu jihatdan viloyat respublika hududlari orasida yetakchi hisoblanadi. Shahar aholisining ulushi 52,2 %, qishloq aholisining salmog‘i esa 47,8 % ni tashkil etadi.

Viloyatning ma’muriy markazi – Andijon shahri (aholisining soni – 468,1 ming kishi, 1.01.2023-y.).

Andijon viloyati O‘zbekistonning chekka sharqiy qismida joylashgan. U shimoli-sharq va janubi-sharqda Qirg‘iz Respublikasi (chegara uzunligi 409,3 km), shimoli-g‘arbda Namangan viloyati (106,6 km), janubi-g‘arbda esa Farg‘ona viloyati (101,2 km) bilan chegaralanadi.

Andijon viloyatining O‘zbekiston YaIMdagi salmog‘i 6,1 %, sanoat mahsulotidagi ulushi 9,8 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi hissasi esa 10,3 % ga teng (2022-y.). Shuningdek, respublika jami chakana savdo aylanmasining 7,0 % i, pullik xizmatlarning 4,9 % i, investitsiyalarning 5,5 % i, qurilish ishlarining 5,5 % i va tashqi savdo aylanmasining 8,6 % i Andijon viloyatiga tegishli.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Andijon viloyati tarkibiga 14 ta qishloq tumani, 11 shahar (2 tasi – Andijon va Xonobod – viloyatga bo‘ysunuvchi), 79 ta shaharcha va 455 ta qishloq aholi punkti kiradi (64-jadval).

Qishloq tumanlari hududining kattaligi jihatidan bir-biridan keskin darajada farq qilmaydi. Viloyatdagi 14 ta qishloq tumanidan birortasining maydoni 0,5 ming km^{2}ga yetmaydi, 4 tasining (Buloqboshi, Bo‘ston, Oltinko‘l va Xo‘jaobod) maydoni esa 0,25 ming km^{2}dan kichik. Maydoni bo‘yicha eng katta tuman Qo‘rg‘ontepa (0,47 ming km^2) bo‘lib, viloyatning eng kichik tumani bo‘lmish Buloqboshi tumanidan (0,18 ming km^2) 2,6 barobar yirik. Buloqboshi tumani O‘zbekistondagi 2023-yil boshi holatiga ko‘ra mavjud bo‘lgan 163 ta qishloq tumanlari orasida eng kichiklaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Viloyatdagi 14 ta qishloq tumanidan 8 tasining ma’muriy markazi shahar, 6 tasining ma’muriy markazi esa shaharcha maqomiga ega. Qo‘rg‘ontepa tumani ma’muriy-hududiy tuzilishining o‘ziga xos jihati tarkibida tuman markazi Qo‘rg‘ontepa shahridan tashqari yana 1 ta shahar – Qorasuv shahri mavjudligidan iborat.

64-jadval

Andijon viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi (01.01.2023-holatiga ko'ra)

	Hududi (ming km²)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Andijon viloyati	**4,30**	**14**	**11**	**79**	**455**
Andijon shahri	0,07		1		
Xonobod shahri	0,02		1	1	2
qishloq tumanlari:					
Oltinko'l	0,21	1	0	11	26
Andijon	0,37	1	0	19	17
Baliqchi	0,34	1	0	3	44
Bo'ston	0,20	1	0	3	37
Buloqboshi	0,18	1	0	4	19
Jalaquduq	0,37	1	1	7	47
Izboskan	0,28	1	1	4	49
Ulug'nor	0,42	1	0	1	25
Qo'rg'ontepa	0,47	1	2	1	34
Asaka	0,27	1	1	4	49
Marhamat	0,32	1	1	10	14
Shahrixon	0,29	1	1	3	49
Paxtaobod	0,26	1	1	3	25
Xo'jaobod	0,23	1	1	5	18

Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Shaharchalar soni bo'yicha Andijon, Oltinko'l va Marhamat tumanlari viloyatda peshqadam. Ulug'nor va Qo'rg'ontepa tumanlaridan faqat 1 tadan shaharcha joylashgan.

Qishloq aholi punktlari soni bilan Asaka, Shahrixon, Izboskan, Jalaquduq va Baliqchi tumanlari alohida ajralib turadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Viloyat hududining, asosan, tekislik va adirlardan iborat bo'lgan relyefi g'arbdan sharqqa tomon ko'tarilib boradi. Viloyat hududining eng baland joylari Qirg'iz Respublikasi bilan chegaradosh qismlarida joylashgan. Eng baland nuqtasi Qirtoshtog' tog'larida joylashgan bo'lib, mutlaq balandligi 1545 metrga teng. Viloyat hududining markaziy qismini shimoli-sharqdan janubi-g'arbga tomon cho'zilgan mutlaq balandligi 919 metrgacha yetadigan adirliklar zanjiri (Teshiktosh, Andijon, Asaka, Qoraadir adirlari) kesib o'tgan.

Foydali qazilmalarga Andijon viloyatining hududi unchalik boy emas. Bu yerda neft, tabiiy gaz, qurilish xomashyosining kichik konlari mavjud. Neft va tabiiy gaz konlari (Andijon, Polvontosh, Janubiy Olamushuk va boshqa konlar), asosan, viloyat markazidagi adirliklarda joylashgan.

Viloyatning asosiy daryosi Qoradaryo bo'lib, u viloyat hududini sharqdan g'arbga tomon kesib o'tgan. Bu daryoda, Qirg'iziston bilan chegarada Andijon suv ombori va shu nomdagi GES qurilgan. Shuningdek, Andijon viloyatining chekka qismlarida Oqbura, Moylisuv, Tentaksoy va Aravansoy daryolarining etaklari joylashgan. Bu daryolar hamda Andijonsoy va Shahrixonsoy kanallarining konussimon yoyilmalarida shahar va qishloq aholi punktlari juda zich joylashgan vohalar shakllangan. Magistral kanallardan Norindan to'yinadigan Katta Farg'ona va Katta Andijon kanallari hamda Qoradaryodan suv oladigan Janubiy Farg'ona kanali viloyat hududidan oqib o'tadi. Andijon viloyati hududidagi sug'orish tizimlari Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli.

Aholisi va mehnat resurslari. Andijon viloyati doimiy aholisining soni, 2023-yil boshi holatiga ko'ra, 3322,7 ming kishini tashkil etgan. Viloyat aholi soni bo'yicha respublikada Samarqand, Farg'ona, va Qashqadaryo viloyatlaridan keyingi 4-o'rinda turadi. Viloyat aholisi Mustaqillik yillarida (1991-2023-yy.) 1533,7 ming kishiga, ya'ni 85,7 % ga ko'paygan.

Andijon viloyatining aholisi 2022-yil mobaynida 69,3 ming kishiga (2,1 % ga) ko'paygan. Shunda tabiiy ko'payish 71,1 ming kishi, migratsiya saldosi esa -1,8 ming kishini tashkil etgan. Har 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,3, o'lim koeffitsiyenti 4,7, tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 21,6 (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 21,4), ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,0, ko'chib ketish koeffitsiyenti 2,6, migratsiya saldosi -0,6 ga teng bo'lgan (respublika bo'yicha -0,2).

65-jadval

Andijon viloyati aholisining milliy tarkibi (1.01.2021-y.)

Millatlar	Soni (ming kishi)	Jami aholidagi ulushi (%)
O'zbeklar	2 970,6	93,2
Qirg'izlar	107,7	3,4
Tojiklar	39,6	1,2
Ruslar	18,6	0,6
Tatarlar	8,9	0,3
Boshqa millatlar	42,7	1,3

Jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Andijon viloyati aholisining milliy tarkibida o'zbeklarning ulushi 93,2 % ni tashkil etadi (65-jadval). Bu ko'rsatkich respublika jami aholisida o'zbek millati vakillarining ulushidan 8,7 % ga yuqori. Soni va viloyat aholisidagi salmog'i bo'yicha 2-o'rinda turadigan qirg'izlar

viloyatning barcha tumanlarida istiqomat qilib, Andijon shahridan tashqari, barcha hududlarda jami aholining 3-5,5 % qismini tashkil etadi. Eng ko‘p qirg‘izlar Qo‘rg‘ontepa, Shahrixon, Asaka va Jalaquduq tumanlarida yashaydi. Xo‘jaobod, Jalaquduq va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida qirg‘izlar jami aholining 5 % dan ko‘proq qismini tashkil qiladi. Rus va tatarlar, asosan, Andijon shahrida yashaydi. Tojiklarning katta qismi viloyat markazi va Asaka tumanida yashaydi.

Viloyatning urbanizatsiya darajasi 2009-yildagi ma’muriy-hududiy islohot doirasida 70 tadan ko‘proq qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berilgandan so‘ng 29,2 % dan 53,5 % gacha ko‘tarildi. 2023-yil 1-yanvarga kelib, shahar aholisining ulushi 52,2 % gacha tushdi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Andijon viloyati respublikada Namangan va Farg‘ona viloyatlardan keyingi 3-o‘rinda turadi. Tumanlar kesimida shahar aholisining salmog‘i keskin darajada farq qiladi. Bu borada eng yuqori ko‘rsatkichlar Marhamat (78,7 %) va Andijon (76,6 %) tumanlarida, eng past ko‘rsatkichlar esa Asaka (30,9 %) va Ulug‘nor (10,5 %) tumanlarida qayd qilingan.

Viloyat markazi Andijon shahrining aholisi 500 ming kishilik marraga tomon o‘sib bormoqda va hozirgi vaqtda respublika shaharlari orasida aholi soni bo‘yicha Toshkent, Namangan va Samarqanddan keyingi 4-o‘rinda turadi. Andijon shahri negizida yirik shahar aglomeratsiyasi shakllangan.

Viloyatdagi 11 ta shahardan faqat Andijon shahri yirik, 2 ta shahar (Shahrixon (85,9 ming kishi) va Asaka (77,8 ming kishi)) o‘rta, qolgan shaharlar esa kichik shaharlar toifasiga kiradi. Aholisi soni jihatidan eng kichik shaharlar Marhamat (17,7 ming kishi) va Xo‘jaobod (24,0 ming kishi) hisoblanadi.

Funktsional jihatdan Andijon shahri ko‘p funktsiyali viloyat markazi, Asaka va Xonobod shaharlari sanoat shaharlari, Qorasuv shahri mahalliy agrosanoat va xizmat ko‘rsatish markazi, qolgan shaharlar esa mahalliy agrosanoat va xizmat ko‘rsatish funktsiyali tuman markazlari hisoblanadi.

Viloyat bo‘yicha 1 ta qishloqqa o‘rtacha hisobda 3491 kishilik aholi to‘g‘ri kelib, bu borada viloyat O‘zbekiston hududlari orasida 1-o‘rinda turadi (respublika bo‘yicha o‘rtacha hisobda mos ko‘rsatkich 1606 kishiga teng). Ayniqsa, qishloqlarning o‘rtacha aholiyligi Buloqboshi (4089 kishi), Shahrixon (4333 kishi), Asaka (4902 kishi) va Paxtaobod (5184 kishi) tumanlarida yuqori. Bu borada eng past ko‘rsatkich bilan Bo‘ston tumani (1332 kishi) viloyat tumanlari ichida keskin ajralib turadi.

Viloyat tumanlari aholisining soni bo‘yicha bir-biridan ancha farq qiladi. Eng ko‘p sonli aholiga Asaka (347,5 ming kishi) va Shahrixon (317,2 ming kishi), eng kam sonli aholiga esa Ulug‘nor (63,0 ming kishi) va Bo‘ston (76,2 ming kishi) tumanlari ega. Ta’kidlash lozimki, Bo‘ston va, ayniqsa, Ulug‘nor tumani Markaziy Farg‘ona tekisliklarining nisbatan yangi o‘zlashtirilgan hududlarida joylashgan bo‘lib, ularning aholi joylashuvi tizimi viloyatning boshqa tumanlaridan birmuncha farq qiladi.

Aholi zichligi viloyat bo‘yicha o‘rtacha hisobda 772,7 kishi / km^2 bo‘lib, tumanlar kesimida u 150 kishi / km^2dan (Ulug‘nor tumani) 1287 kishi / km^2gacha (Asaka tumani, O‘zbekistondagi qishloq tumanlari ichida eng yuqori ko‘rsatkich) o‘zgaradi. Asaka tumanidan tashqari, Shahrixon (1094 kishi / km^2) va Oltinko‘l (900 kishi / km^2) tumanlarida aholi zichligi juda yuqori darajaga yetgan. Umuman olganda, aholi zichligi viloyat ma’muriy markazi va uning yaqin atroflaridan g‘arbga, Markaziy Farg‘ona cho‘llariga tomon va janubi-sharqqa, adirlik va past tog‘larga tomon kamayib boradi.

Andijon viloyati mehnat resurslarining soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 1780,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu viloyat aholisining 53,6 % qismiga teng (respublika bo‘yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi 80,1 % ni, iqtisodiy nofaol aholi esa 19,9 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida esa iqtisodiyotda band aholining salmog‘i 90,9 %, ishsizlar ulushi esa 9,1 % ga teng.

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko‘p band aholi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (25,1 %), sanoat (13,9 %), savdo (12,5 %), ta’lim (8,4 %), qurilish (7,6 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (5,1 %) kabi sohalarga to‘g‘ri keladi (2022-y.).

Viloyat xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Andijon viloyatining YaHM hajmi, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, 54,46 trln so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 108,6 % ga o‘sgan (respublika bo‘yicha o‘sish 105,7 %). Viloyatning mamlakat YaIMdagi salmog‘i 6,1 % ga teng (2010-yilda 5,7 %, 2021-y. 5,9 %). Bu jihatdan viloyat respublika hududlari orasida 6-o‘rinda turadi.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblangan YaHM hajmi, 2022-yil ma’lumotlariga binoan, 16,56 mln so‘mni (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 106,4 % ga o‘sgan. Respublika hududlari orasida bu borada Andijon viloyati 7-o‘rin egallaydi va eng yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan Navoiy viloyatidan deyarli 4 barobar ortda qolgan.

Viloyat YaHMning tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi 39,6 % (respublika YaIMdagi ulushi 23,4 %), sanoat va qurilishning salmog‘i 27,8 % (respublika YaIMdagi salmog‘i 31,1 %), xizmatlarning hissasi 28,5 % (respublika bo‘yicha 38,7 %), sof soliqlar ulushi esa 4,1 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ga teng bo‘lgan. So‘nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida agrar sektorning ulushi biroz pasayib, boshqa sohalarning salmoqlari esa birmuncha ko‘tarildi.


Andijon viloyati respublika miqyosida, asosan, mashinasozlik (respublika bo‘yicha tarmoq mahsulotining 30,5 % i, hududlar orasida 2-o‘rin) va yengil sanoat (mamlakatda ishlab chiqarilgan tarmoq mahsulotining 15,8 % i, 1-o‘rin) rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi.

Viloyat qishloq xo‘jaligi respublika miqyosida, asosan, meva va rezavorlar (1-o‘rin), kartoshka va sabzavot (Samarqand viloyatidan keyingi 2-o‘rin) yetishtirilishi bilan alohida ajralib turadi. Dehqonchilikning shu tarmoqlarida viloyatning ixtisoslashuv darajasi ancha yuqori. Shuningdek, paxta, don ekinlari, poliz ekinlari hamda pilla yetishtirishda ham viloyat yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Sanoati. Andijon viloyatining yalpi sanoat mahsuloti hajmi 2022-yilda 54,1 trln so‘mga teng bo‘lib, oldingi yilga nisbatan 122,6 % ga o‘sgan. Respublika sanoati hududiy tarkibida viloyatning hissasi 9,8 % ni tashkil etib, bu borada viloyat mamlakatimiz hududlari ichida Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlaridan keyingi 4-o‘rinni egallaydi.

Viloyat sanoati tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,7 % tashkil etgan.

Andijon viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati alohida ajralib turgan holda, ulushi 63,9 %, jumladan avtomobil sanoatining ulushi 61,3 % ni tashkil etgan (2022-y.). Bunga, albatta, Asaka avtomobil zavodi va u bilan kooperatsiyada faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari katta ta’sir ko‘rsatgan. To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish (yengil sanoat) ning salmog‘i esa 23,9 % ni tashkil etgan. Boshqa sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish (oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati) ning hissasi nisbatan yuqori bo‘lib, 5,7 % ga teng bo‘lgan. Boshqa sanoat tarmoqlarining ulushi ancha past.



48-rasm. Andijon viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 46.

Demak, viloyat sanoati, avtomobilsozlik, to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatiga ixtisoslashgan. Buning asosiy omillari viloyatning mehnat resurslari salohiyati, iste’mol bozorining ko‘lami hamda paxta xomashyosi yetishtirilishi hisoblanadi. So‘nggi yillarda ham avtomobilsozlik, ham yengil sanoatda viloyat ko‘rsatkichlari ancha yuqori sur’atlar bilan o‘sib bormoqda.

Asaka avtomobil zavodi tomonidan 2022-yilda 234519 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 143,4 % ga o‘sgan. Bunda quyidagi rusumlardagi avtomobillar eng ko‘p ishlab chiqarildi: “Cobalt” – 101617 dona, “Lacetti-Gentra” – 87105 dona, “Nexia T-250” – 22245 dona va “Spark” – 14464 dona. Shuningdek, viloyatdagi sanoat korxonalari tomonidan 2022-yilda 19,9 ming tonna neft, 48571 tonna paxtadan yigirilgan ip, 121770 tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni, 2813 tonna tozalanmagan paxta yog‘i, 53467 tonna yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, 13,16 mln litr etil spirti va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Viloyatda 2022-yil mobaynida 802,3 mln kWh elektr energiyasi ishlab chiqarilgan (respublika bo‘yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 1,1 %). Elektr energiyaning hammasi GESlarda ishlab chiqarilgan.

Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida avtomobilsozlik juda katta ahamiyat tutishidan kelib chiqqan holda, sanoatning hududiy tarkibida eng katta salmoq Asaka tumaniga to‘g‘ri keladi. Jumladan, 2022-yil holatiga ko‘ra, viloyat yalpi sanoat mahsulotining 54,4 % qismi aynan shu tumanga to‘g‘ri kelgan. Boshqa hududlar orasida Andijon shahri (14,9 %), Xonobod shahri (5,0 %), Xo‘jaobod (4,1 %), Qo‘rg‘ontepa (3,5 %), Baliqchi (3,0 %) va Shahrixon (2,6 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga ega. Andijon va Xonobod shaharlarida mashinasozlik va metallni qayta ishlash, Xo‘jaobod, Shahrixon va Baliqchi tumanlarida yengil sanoat, Qo‘rg‘ontepada esa oziq-ovqat sanoati asosiy ixtisoslashgan tarmoqlari hisoblanadi. Viloyat sanoat ishlab chiqarishidagi eng past ulush Buloqboshi (0,7 %), Bo‘ston (0,8 %), Ulug‘nor (0,9 %) va Marhamat (1,0) tumanlariga tegishli.

Qishloq xo‘jaligi. Andijon viloyatida 2022-yilda 35,8 trln so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga qaraganda 103,4 % ga o‘sgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bo‘yicha viloyat respublika hududlari orasida Samarqand viloyatidan keyingi 2-o‘rinda turib, mamlakatda yetishtirilgan agrar mahsulotning 10,3 % ini ta’minlab bergan (2010-yilda tegishli ko‘rsatkich 9,2 % ga teng bo‘lgan). Xususan, respublika dehqonchiligida

viloyatning ulushi 12,6 % (Samarqand viloyatidan keyingi 2-o‘rin), chorvachilikdagi salmog‘i esa 7,8 % (respublika hududlari ichida 5-o‘rin) ga teng bo‘lgan.

Andijon viloyati qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibida 63,3 % dehqonchilikka, 36,7 % chorvachilikka to‘g‘ri keladi. Ta’kidlash kerakki, respublika hududlari orasida yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibida dehqonchilikning salmog‘i bo‘yicha Andijon viloyati birinchi o‘rinda turadi. Bu holat ko‘p jihatdan viloyat qishloq xo‘jaligi yerlari fondining tarkibiy tuzilishi bilan bog‘liq. Chunonchi, viloyat qishloq xo‘jaligi yerlarning 78,4 % qismini ekin yerlar, 12,3 % ini ko‘p yillik daraxtzorlar, 8,3 % ini yaylov va pichanzorlar, 1 % ini bo‘z yerlar tashkil etadi.

Andijon viloyati yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 60,5 % i dehqon xo‘jaliklari, 33,9 % i fermer xo‘jaliklari, 5,6 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarga to‘g‘ri kelgan.

Andijon viloyatida 2022-yilda 700,5 ming tonna don (respublika hosilining 8,8 % i; hududlar orasida 4-o‘rin), 277,4 ming tonna paxta (7,9 %; 5-o‘rin), 1708,2 ming tonna sabzavot (15,3 %; 1-o‘rin), 418,2 ming tonna kartoshka (12,2 %; 2-o‘rin), 201,6 ming tonna poliz (8,3 %; 4-o‘rin), 681,7 ming tonna meva va rezavorlar (22,9 %; 1-o‘rin), 81,7 ming tonna uzum (4,6 %; 9-o‘rin), 185,6 ming tonna go‘sht (6,8 %; 7-o‘rin), 1038 ming tonna sut (8,9 %; 6-o‘rin), 748,9 mln dona tuxum (9,2 %; 3-o‘rin), 3115,2 tonna pilla (12,8 %; 2-o‘rin) yetishtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo‘yicha Asaka, Jalaquduq, Shahrixon va Paxtaobod tumanlari alohida ajralib turadi. Asaka tumani viloyatning paxta yetishtirilmaydigan yagona tumani bo‘lib, sabzavotchilik, kartoshkachilik, bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan. Viloyatning g‘arbiy (Bo‘ston, Ulug‘nor, Baliqchi, Shahrixon, Izboskan) tumanlarida paxta va don ekinlari bilan birgalikda sabzavot va poliz ekinlari ham ko‘p yetishtiriladi. Markaziy va janubi-sharqiy (Andijon, Paxtaobod, Marhamat, Buloqboshi, Jalaquduq, Xo‘jaobod, Qo‘rg‘ontepa) tumanlarida kartoshkachilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik keng yo‘lga qo‘yilgan. Viloyatning barcha tumanlarida dehqonchilik chorvachilikdan ustun turadi.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Andijon viloyatida 2022-yilda ko‘rsatilgan pullik xizmatlar hajmi 17642,4 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 4,9 % ni tashkil etib, hududlar orasida u 5-o‘rinni egallaydi. Pullik xizmatlar tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 31 %, moliyaviy xizmatlarning salmog‘i 20,4 %, transport xizmatlarining ulushi esa 19,6 % ni tashkil etadi, boshqa turdagi

xizmatlarning ko‘rsatkichlari ancha pastroq. Pullik xizmatlar hajmining hududiy taqsimlanishida Andijon shahrining ulushi (35,5 %) keskin ravishda ajralib turadi. Boshqa hududlardan nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Asaka (7,4 %) va Andijon (6,2 %) tumanlarida qayd qilingan. Eng past ulushlar Bo‘ston (1,6 %) va Ulug‘nor (1,4 %) tumanlariga tegishli. Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi viloyatda 5365,4 ming so‘mni tashkil etgan holda, Andijon va Xonobod shaharlari hamda Xo‘jaobod tumanida bu borada viloyat bo‘yicha o‘rtacha darajadan yuqoriroq ko‘rsatkichlar qayd qilingan.

Andijon viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilda 19046,9 mlrd so‘mga teng bo‘lgan (respublikadagi ulushi 7,0 %; hududlar ichida 5-o‘rin). Andijon shahri hissasiga viloyatdagi jami chakana savdo tovar aylanmasining 32,8 % i to‘g‘ri keladi. Boshqa hududlardan Shahrixon (12,6 %) va Asaka (9,0 %) tumanlarining ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda, chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo‘yicha 6657,1 ming so‘mga teng. Bu borada Andijon shahri, Xo‘jaobod va Shahrixon tumanlarining ko‘rsatkichlari viloyatning o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan. Nisbatan past ko‘rsatkichlar Izboskan va Jalaquduq tumanlariga tegishli.

Viloyatda, 1.01.2023-y. holatiga ko‘ra, 162 ta shifoxona muassasasi faoliyat ko‘rsatadi. Ulardan 68 tasi viloyat markazida joylashgan. Shifoxonalarda bemor o‘rinlari soni 14390 ta (46,3 % i viloyat markaziga to‘g‘ri keladi), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 43,3 tani tashkil qiladi. Viloyat bo‘yicha ambulator-poliklinika muassasalari soni 577 tani tashkil etgan holda, 151 tasi Andijon shahrida joylashgan. Viloyatda jami shifokorlar soni 8275 nafar (51 % i viloyat markazida), o‘rta tibbiyot xodimlari 33165 nafar (35,3 % i viloyat markazida). Har 10 000 aholiga nisbatan 25 nafar shifokor (viloyat markazida 90 nafar), 100 nafar o‘rta tibbiyot xodimi (viloyat markazida 250 nafar) to‘g‘ri keladi.

Andijon viloyatida 2022-yil oxiriga maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 765 tani tashkil etgan. Viloyat bo‘yicha 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi 77,9 % ga teng (respublika bo‘yicha 68,3 %).

Viloyatda 2022/2023 o‘quv yili boshida 806 ta umumta’lim muassasalari (23 tasi nodavlat) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 26,7 % i bir smenada, 72,2 % i ikki smenada, 1,1 % i uch smenada ishlaydi. Eng ko‘p maktablar Shahrixon (77), Asaka (70) tumanlari va viloyat markazi (74) da faoliyat ko‘rsatadi. Maktab o‘quvchilari soni 595,9 ming nafar

(4,4 ming nafar nodavlat sektorida), bitta maktabda o‘rtacha 739 ta o‘quvchiga ta’lim berilgan. Ta’lim tillari kesimida olganda, 534,9 ming nafar o‘quvchi o‘zbek, 55,9 ming o‘quvchi rus, 2,7 ming o‘quvchi qirg‘iz, 0,2 ming nafar o‘quvchi ingliz tillarida o‘qigan.

Viloyatda 5 ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, barchasi Andijon shahrida joylashgan. Ularda jami 1,7 ming nafar o‘quvchi tahsil olgan. Shuningdek, ko‘rilayotgan paytda viloyatda 33 ta kasb-hunar maktabi (19,2 ming o‘quvchi), 20 ta kasb-hunar kolleji (13,0 ming o‘quvchi) va 16 ta texnikum (8,5 ming o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Andijon viloyatida 2022/2023 o‘quv yili boshida 10 ta oliy ta’lim tashkiloti (o‘tgan o‘quv yili boshiga nisbatan 2 taga ko‘paygan) faoliyat olib borgan bo‘lib, 7 tasi davlat, 3 tasi nodavlat OTT hisoblanadi. Andijon shahrida 6 ta davlat va 3 ta nodavlat OTT, Andijon tumanida esa 1 ta davlat OTT joylashgan. OTTlardagi talabalar soni 58312 nafar bo‘lib, 960 nafari (1,1 % i) nodavlat OTTlarda tahsil olgan.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Andijon viloyatida 2022-yil davomida 44704,6 ming tonna yuk (43,8 % i Andijon shahriga to‘g‘ri keladi), 724,8 mln yo‘lovchi tashilgan (42,0 % i Andijon shahriga mos keladi). Yuk va yo‘lovchi tashishning aksariyat qismi avtomobil transporti orqali amalga oshirilgan.

Viloyatning 2022-yildagi tashqi savdo aylanmasi 4281,4 mln AQSH dollarini (jami respublika tashqi savdo aylanmasining 8,6 % i, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan keyingi 3-o‘rin) tashkil kilgan. Jumladan, eksport 1246,2, import esa 3035,2 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan.

Viloyat tashqi savdo aylanmasidan 36,2 % i Koreya Respublikasi, 14,9 % i Xitoy, 10,9 % i Qirg‘iz Respublikasiga, 10,8 % i Qozog‘istonga, 10,6 % i Rossiyaga to‘g‘ri kelgan. Eksportning asosiy qismi Qozog‘iston (36,5 % i), Qirg‘iz Respublikasi (34,3 % i) va Rossiya (14,5 % i) yo‘naltirilgan bo‘lsa, importning katta qismi Koreya Respublikasi (51,1 %), Xitoy (19,1 %) va Rossiya (9,2 %) dan olib kirilgan. Koreya Respublikasi bilan katta hajmdagi tashqi savdo aylanmasi (deyarli to‘liq importdan iborat) avtomobilsozlikdagi kooperatsiya bilan bog‘liq.

Viloyat eksporti tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari (asosan, avtomobillar hamda energiya generatorlari) 38 %, turli xil tayyor buyumlar (asosan, kiyim-kechak mahsulotlari) 31,3 %, sanoat tovarlari (asosan, to‘qimachilik mahsulotlari) 22,9 % va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (asosan, meva va sabzavotlar, ayniqsa, poliz mahsulotlari va uzum) 3,2 % ini tashkil etadi.

Importda esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (58,9 %) va sanoat tovarlari (21,8 %) ga to‘g‘ri keladi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasining salkam 65 % i Asaka tumaniga to‘g‘ri keladi.

Ichki tafovutlari. Professor A.S. Soliyev Andijon viloyatida 3 ta mikroiqtisodiy rayon ajratishni taklif qilgan: Markaziy (Andijon shahri, Andijon, Asaka, Shahrixon, Oltinko‘l, Izboskan, Paxtaobod tumanlari), Janubi-sharqiy (Marhamat, Buloqboshi, Jalaquduq, Xo‘jaobod, Qo‘rg‘ontepa tumanlari, Xonobod shahri) va G‘arbiy (Baliqchi, Bo‘ston va Ulug‘nor tumanlari). Ulardan Markaziy mikrorayonning iqtisodiy salohiyati eng yuqori. “Andijon-Asaka-Shahrixon” geografik uchburchagi ushbu mikrorayonning o‘zagini tashkil qiladi. Adirorti Janubi-sharqiy mikrorayon ham nisbatan rivojlangan, ayniqsa, agrosanoat majmuasi borasida. Eng sust iqtisodiy ko‘rsatkichlar esa G‘arbiy mikrorayonga tegishli. Ayniqsa, Ulug‘nor va Bo‘ston tumanlari bu borada salbiy ravishda ajralib turadi.

Farg‘ona viloyati. Tashkil topgan sanasi 1938-yil 15-yanvar kuni hisoblanadi. Maydoni 6,76 ming km^2 bo‘lib, u O‘zbekiston jami maydonining 1,51 % ini tashkil qiladi. Viloyat aholisi, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 3976,3 ming kishi, yoxud respublika aholisining 11 % i yashaydi. Aholi zichligi 1 km^{2}ga 588,3 kishiga teng bo‘lib, bu borada O‘zbekiston hududlari orasida Andijon viloyatidan keyin turadi. Shahar aholisining ulushi 56,9 %, qishloq aholisining ulushi, mos ravishda, 43,1 % ga teng.

Viloyatning ma’muriy markazi – Farg‘ona shahri (aholisining soni – 314,4 ming kishi, 1.01.2023-y.).

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning sharqiy qismida, Farg‘ona vodiysining janubida joylashgan. U janub va janubi-sharqda Qirg‘iz Respublikasining Batken viloyati, g‘arbda Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati, shimolda Namangan viloyati, shimoli-sharqda Andijon viloyati bilan chegaradosh.

Farg‘ona viloyati tarkibiga Qirg‘iziston hududi bilan o‘ralgan O‘zbekistonning 4 ta eksklav hududi – So‘x, Shohimardon, Cho‘ng‘ara (Shimoliy So‘x) va Jangail kiradi. So‘x eksklavi alohida So‘x tumanini tashkil etadi, Shohimardon bilan Jangail eksklavlari Farg‘ona tumani, Cho‘ng‘ara eksklavi esa Rishton tumani tarkibiga kiradi.

Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston YalMdagi salmog‘i 6,3 %, sanoat mahsulotidagi ulushi 5,5 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi hissasi esa 9,3 % ga teng (2022-y.). Shuningdek, viloyatga respublika jami chakana savdo aylanmasining 8,3 % i, pullik xizmatlarning 6,0 % i,

investitsiyalarning 5,7 % i, qurilish ishlarining 7,2 % i va tashqi savdo aylanmasining 4,1 % i mos keladi.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Farg‘ona viloyati tarkibiga 15 ta qishloq tumani, 9 ta shahar (4 tasi – Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon, Quvasoy – viloyatga bo‘ysunuvchi), 194 ta shaharcha va 998 ta qishloq aholi punkti kiradi (66-jadval).

66-jadval

Farg‘ona viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi (01.01.2023-holatiga ko‘ra)

	Hududi (ming km^2)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Farg‘ona viloyati	**6,76**	**15**	**9**	**194**	**998**
Farg‘ona shahri	0,10		1		
Qo‘qon shahri	0,04		1	1	
Quvasoy shahri	0,26		1	1	30
Marg‘ilon shahri	0,04		1	1	
qishloq tumanlari:					
Oltiariq	0,63	1	1	14	18
Qo‘shtepa	0,37	1		14	62
Bag‘dod	0,33	1		21	59
Buvayda	0,28	1		10	88
Beshariq	0,77	1	1	10	96
Quva	0,44	1	1	15	76
Uchko‘prik	0,28	1		11	115
Rishton	0,31	1	1	13	41
So‘x	0,22	1		7	12
Toshloq	0,24	1		10	88
O‘zbekiston	0,69	1	1	21	84
Farg‘ona	0,61	1		20	27
Dang‘ara	0,43	1		8	116
Furqat	0,31	1		8	58
Yozyovon	0,41	1		9	28

Manba: Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Farg‘ona viloyatining 15 ta qishloq tumanidan faqatgina 3 tasi (Oltiariq, O‘zbekiston, Beshariq) ning maydoni 0,5 ming km^{2}dan oshadi, 2 tasi (So‘x va Toshloq) ning maydoni esa 0,25 ming km^{2}ga ham yetmaydi. Maydoni bo‘yicha eng katta tuman Beshariq (0,77 ming km^2) bo‘lib, eng kichigi esa So‘x tumani (0,22 ming km^2). Ular orasidagi farq 3,5 martani tashkil qiladi.

Viloyatdagi 15 ta qishloq tumanidan faqatgina 4 tasining ma’muriy markazi shahar, 10 tasiniki shaharcha va 1 tasi (Qo‘shtepa) niki qishloq aholi punkti maqomiga ega. Oltiariq tumani tarkibiga ma’muriy markaz vazifasini bajarmaydigan tuman bo‘ysunuvidagi Tinchlik shahri kiradi.

Shaharchalar soni bo‘yicha Farg‘ona viloyati respublika hududlari orasida katta ustuvorlik bilan yetakchilik qiladi. Viloyatning 15 ta tumanidan 11 tasida shaharchalar soni 10 ta va undan ko‘proq. Bu borada Bag‘dod, O‘zbekiston va Farg‘ona tumanlari viloyatda peshqadam.

Farg‘ona viloyati qo‘shni Andijon va Namangan viloyatlaridan qishloq aholi punktlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bu jihatdan, ayniqsa, Dang‘ara (116 ta qishloq), Uchko‘prik (115 ta) va Beshariq (96 ta) tumanlari alohida ajralib turadi. Eng kam qishloqlar esa So‘x (12 ta) va Oltiariq (18 ta) tumanlarida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Viloyat hududining katta qismi tekislik va adirlardan iborat, relyefi shimoldan janubga tomon ko‘tarilib boradi. So‘x va Shohimardon eksklavlari tog‘li hududlar hisoblanib, ularning chegarabo‘yi qismlarida joy mutlaq balandligi 2000 metrdan oshadi. Viloyat hududining asosiy qismini Oloy tizmasi yonbag‘irlaridan boshlanadigan So‘x, Isfara, Isfayramsoy, Shohimardonsoy kabi daryolarning konussimon yoyilmalari egallaydi. Ular negizida juda zich darajada o‘zlashtirilgan vohalar shakllangan. Viloyatning shimoliy qismida Qoraqalpoq va Yozyovon qumli cho‘llari joylashgan bo‘lib, ular, asosan, 1930-70-yillarda sug‘orma dehqonchilik maqsadlarida o‘zlashtirildi. Qumli massivlarning o‘zlashtirilmagan joylarida Farg‘ona vodiysi uchun noyob cho‘l landshaftlarini muhofaza qilish maqsadida “Yozyovon cho‘li” tabiat yodgorligi tashkil etilgan.

Foydali qazilmalardan viloyatda neft, tabiiy gaz, turli qurilish materiallarining konlari mavjud. Mineral resurslar konlari, asosan, viloyatning janubida, adirlar va past tog‘larda joylashgan. O‘zbekiston hududida dastlabki neft olingan Chimyon koni aynan Farg‘ona viloyati hududida, Janubiy Farg‘ona adirlarida (Farg‘ona tumani) joylashgan.


Viloyatning asosiy suv manbalari – Norindan to‘yinadigan Katta Farg‘ona va Qoradaryodan suv oladigan Janubiy Farg‘ona kanallari hamda Sirdaryo va So‘x daryolari. Farg‘ona viloyati hududidagi barcha sug‘orish tizimlari Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli.

Aholisi va mehnat resurslari. Farg‘ona viloyati aholisi soni, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 3976,3 ming kishiga teng bo‘lib, viloyat bu borada respublikada Samarqand viloyatidan keyingi 2-o‘rinda turadi. Farg‘ona aholisi Mustaqillik yillarida (1991-2023-yy.) 1716,7 ming kishiga, ya’ni 79,5 % ga ko‘paygan.

Farg‘ona viloyatining aholisi 2022-yilda 80,1 ming kishiga (2,1 % ga) ko‘paygan. Shunda tabiiy ko‘payish 82,9 ming kishi, migratsiya

saldosi esa -2,8 ming kishini tashkil etgan. Har 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 25,8, o‘lim koeffitsiyenti 4,7, tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti 21,1 (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 21,4), ko‘chib kelish koeffitsiyenti 2,2, ko‘chib ketish koeffitsiyenti 2,9, migratsiya saldosi -0,7 ga teng bo‘lgan (respublika bo‘yicha -0,2).

Farg‘ona viloyati aholisining milliy tarkibida o‘zbeklarning ulushi 89,7 % ni tashkil etadi (49-rasm). Viloyat aholisining salkam 6 % ini tashkil etuvchi tojiklar ko‘proq Farg‘ona, So‘x, Rishton va Quva tumanlari hamda Quvasoy shahrida istiqomat qiladi. So‘x tumanida tojiklar salmog‘i 90 % dan yuqori. Qirg‘iz millati vakillari, asosan, Farg‘ona, Rishton, Quva, Yozyovon tumanlari va Quvasoy shahrida yashaydi. Farg‘ona tumani va Quvasoy shahrida ularning jami aholidagi salmog‘i eng yuqori bo‘lib 7,5-8,0 % ga teng. Ruslar, asosan, Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarida yashaydi.



49-rasm. Farg‘ona viloyati aholisining milliy tarkibi (1.01.2021-y, ming kishi va % da)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Mintaqaning urbanizatsiya darajasi 2009-yilda birdaniga 196 ta qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berilgandan so‘ng 27,8 % dan 58,8 % gacha ko‘tarildi. 2023-yil 1-yanvarga kelib, shahar aholisining ulushi 56,9 % gacha pasaydi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Farg‘ona viloyati respublikada qo‘shni Namangan viloyatidan so‘ng 2-o‘rinni egallaydi. Tumanlar kesimida eng yuqori shahar aholisining salmog‘i Oltiariq (75,2 %), Rishton (63,9 % %) va So‘x (63,3 %) tumanlarida, eng past

ko‘rsatkichlar esa Furqat (23,7 %), Toshloq (23,4 %), Dang‘ara (22,2 %) va Uchko‘prik (18,9 %) tumanlari uchun xos.

Farg‘ona viloyatida aholisi 200 ming kishidan ortiq bo‘lgan 3 ta shahar mavjud. Bular: Farg‘ona (314,5 ming kishi), Qo‘qon (294,8 ming kishi, Muqimiy shaharchasi bilan 303,6 ming kishi) va Marg‘ilon (219,1 ming kishi, Yangi Marg‘ilon shaharchasi bilan 246,7 ming kishi). Bunday urbanistik xususiyat O‘zbekistonning boshqa hech qaysi hududiga xos emas. Viloyatning janubi-sharqiy qismida Farg‘ona-Marg‘ilon, g‘arbiy hududlarida esa Qo‘qon shahar aglomeratsiyalari shakllangan.

Viloyatdagi 9 ta shahardan 2 tasi (Farg‘ona, Qo‘qon) yirik, 1 tasi (Marg‘ilon) katta, 2 tasi (Quvasoy (53 ming kishi, shahar tasarrufidagi shaharcha va qishloqlarni qo‘shganda, 98,8 ming kishi) va Quva (53,6 ming kishi)) o‘rta, qolgan shaharlar esa kichik shaharlar toifasiga kiradi. Aholi soni jihatidan eng kichik shahar Tinchlik (17,2 ming kishi) hisoblanadi.

Funktsional jihatdan Farg‘ona shahri ko‘p funktsiyali viloyat markazi, Qo‘qon va Marg‘ilon ko‘p funktsiyali tumanlararo markazlar, Quvasoy va Tinchlik shaharlari tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari, qolgan shaharlar (Beshariq, Quva, Rishton, Yaypan) esa mahalliy agrosanoat va servis funktsiyali tuman markazlari hisoblanadi.

Viloyatdagi har bir qishloq aholi punktida o‘rtacha hisoblaganda 1716 kishi doimiy aholi istiqomat qiladi, bu borada viloyat O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichiga (1606 kishi) yaqin. Qishloqlarning o‘rtacha aholi soni bo‘yicha viloyat tumanlaridan Oltiariq (3079 kishi), Farg‘ona (3072 kishi) va So‘x (2511 kishi) tumanlari peshqadam. Bu borada eng past ko‘rsatkich bilan Dang‘ara tumani (1159 kishi) viloyat tumanlari orasida keskin ajralib turadi.

Viloyatning 15 ta tumanidan 11 tasida aholi soni 200 ming kishidan ortadi. Bu borada Quva tumani (270,7 ming kishi) yetakchi, So‘x tumani (76,7 ming kishi) esa so‘nggi o‘rin egallaydi. Shuningdek, Yozyovon (117,2 ming kishi) va Furqat (124,4 ming kishi) tumanlari aholisining soni ham boshqa tumanlardan ko‘ra nisbatan past. Bu tumanlarda yangi o‘zlashtirilgan cho‘l yerlari katta salmoqqa egaligi ularning demografik salohiyatiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Aholi zichligi viloyat bo‘yicha o‘rtacha hisobda 558,3 kishi / km^2 bo‘lib, tumanlar kesimida u 288,1 kishi / km^2dan (Yozyovon tumani) 881,9 kishi / km^2gacha (Toshloq tumani) o‘zgaradi. Toshloq tumanidan tashqari, Buvayda (865,6 kishi / km^2) va Uchko‘prik (857,3 kishi / km^2) tumanlarida ham aholi zichligi ancha katta. Umuman olganda, viloyat

sharoitida adir, past tog‘ va yangi o‘zlashtirilgan cho‘l yerlari ko‘proq mavjud bo‘lgan tumanlarda aholi zichligi nisbatan pastroq.


Farg‘ona viloyati mehnat resurslarining soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 2097,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu viloyat aholisining 52,8 % idir (respublika bo‘yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi 79,4 % ni, iqtisodiy nofaol aholi esa 20,6 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida esa iqtisodiyotda band aholining salmog‘i 90,8 %, ishsizlar ulushi esa 9,2 % ga teng.

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko‘p band aholi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (25,9 %), sanoat (15,8 %), savdo (10,3 %), ta’lim (9,0 %), qurilish (7,9 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (5,3 %) kabi sohalarga to‘g‘ri keladi (2022-y.).

Viloyat xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Farg‘ona viloyatining YaHM hajmi, 2022-yil holatiga ko‘ra, 55,97 trln so‘mga teng bo‘lib, 2021-yilga qaraganda 102,5 % ga o‘sgan (respublika bo‘yicha o‘sish 105,7 %). Viloyatning mamlakat YaIMdagi salmog‘i 6,3 % ga teng. Bu borada u respublika hududlari orasida 4-o‘rinda, Farg‘ona vodiysi viloyatlari orasida esa 1-o‘rinda turadi. Ta’kidlash joizki, viloyatning milliy iqtisodiyotining hududiy tarkibidagi o‘rni so‘nggi 20 yilda ancha pasaydi. Xususan, 2000-yilda Farg‘ona viloyatining respublika YaIMdagi hissasi 11,5 %, 2010-yilda – 6,9 %, 2022-yilda tegishli raqam 6,3 % gacha tushib ketdi.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblangan YaHM hajmi, 2022-yil ma’lumotlariga binoan, 14,20 mln so‘mni (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 102,5 % ga o‘sgan. Respublika hududlari orasida bu borada Farg‘ona viloyati faqatgina Namangan (13,86 mln so‘m) va Surxondaryo (12,56 mln so‘m) viloyatlaridan biroz ilgarilab ketgan.

YaHMning tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi 34,0 % (respublika YaIMdagi ulushi 23,4 %), sanoat va qurilishning salmog‘i 25,4 % (respublika YaIMdagi salmog‘i 31,1 %), xizmatlarning hissasi 37,4 % (respublika bo‘yicha 38,7 %), sof soliqlar ulushi esa 3,1 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ga teng bo‘lgan. So‘nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida agrar sektorning ulushi biroz pasayib, xizmatlar va qurilishning salmoqlari esa birmuncha ko‘tarildi.



50-rasm. Farg'ona viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 47.

Farg'ona viloyati respublika miqyosida, asosan, qurilish materiallari sanoati (mamlakat bo'yicha tarmoq mahsulotining 15,7 % i, Toshkent viloyati va Toshkent shahridan keyingi 3-o'rin) va yengil sanoat (tarmoq mahsulotining 13,3 % i, Andijon viloyatidan keyingi 2-o'rin) ga ixtisoslashgan.

Viloyat qishloq xo'jaligi respublika miqyosida, asosan, don ekinlari (respublika hududlari orasida 1-o'rin), sabzavot (Andijon, Samarqand viloyatlaridan keyingi 3-o'rin), meva va rezavorlar (Andijon viloyatidan keyingi 2-o'rin) yetishtirilishi bilan ajralib turadi. Ammo viloyatning ixtisoslashuv koeffitsiyenti faqat bog'dorchilik yo'nalishida 1,00 dan yuqori.

Sanoati. Mintaqada 2022-yilda 30,3 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 104,5 % ga o'sgan. Respublika sanoati hududiy tarkibida viloyatning hissasi 5,5 % ni tashkil etib, bu borada viloyat respublika hududlari orasida Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy va Andijon viloyatlaridan keyingi 5-o'rinda turadi.

Viloyat sanoati tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga 93,4 %, elektr energiya, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hissasiga 5,6 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga 0,7 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga esa 0,3 % to'g'ri keladi (2022-y.).

Farg'ona viloyati sanoati tarmoqlar tarkibida yengil sanoatning ulushi eng yuqori bo'lib, 2022-yilda 36,3 % ni tashkil etgan. Boshqa sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati (15,1 %), kimyo va neft-kimyo (13,4 %), qurilish materiallari sanoati (11,7 %), mashinasozlik va metallni qayta ishlash (8,4 %) va yoqilg'i sanoati (5,0 %) ning hissasi nisbatan yuqori. Viloyat sanoati tarmoqlar tarkibida so'nggi 10 yildagi asosiy o'zgarishlar yoqilg'i sanoati ulushining keskin pasayishi, yengil sanoat salmog'ining esa, aksincha, sezilarli darajada oshganligidan iborat. Bu jarayon, asosan, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining pasayib borishi bilan bog'liq. Demak, borgan sari Farg'ona viloyati sanoatining ixtisoslashuvini ko'proq agrosanoat majmuasi tarmoqlari belgilab beradigan bo'lmoqda.

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi (Tinchlik shahridagi filiali (sobiq Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi) bilan birgalikda) viloyatning yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lib, 2022-yilda unda 254,8 ming tonna avtomobil benzini, 329,4 ming tonna dizel yoqilg'isi, 37,1 ming tonna neft bitumi ishlab chiqarilgan. Shuningdek, viloyatdagi sanoat

korxonalari tomonidan 2022-yilda 38,9 ming tonna superfosfat o‘g‘iti, 93498 tonna paxta chigiti, 31250 tonna gips, 18,68 mln dona shisha idishlari ishlab chiqarilgan. Viloyatda 2022-yil mobaynida 397,3 mln kWh elektr energiya ishlab chiqarilgan (respublika bo‘yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 0,6 %). Elektr energiyaning deyarli to‘laligicha Farg‘ona IEMda ishlab chiqarilgan.

Farg‘ona viloyati sanoatining hududiy tarkibida Farg‘ona shahrining ulushi 22,6 %, Qo‘qon shahrining ulushi esa 18,0 % ni tashkil etadi. Boshqa hududlar orasida yengil sanoatning rivojlanishi bilan ajralib turadigan Toshloq (10,4 %), Uchko‘prik (8,4 %), Qo‘shtepa (4,8 %) tumanlari va Marg‘ilon shahri (5,1 %) hamda qurilish sanoatining yirik markazi bo‘lgan Quvasoy shahri (5,1 %) nisbatan yuqori salmoqqa ega. Qolgan 12 ta tumanning viloyat sanoat ishlab chiqarishidagi umumiy ulushi 25 % ga teng.

Qishloq xo‘jaligi. Farg‘ona viloyatida 2022-yilda 32,5 trln so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga qaraganda 103,6 % ga o‘sgan. Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti bo‘yicha viloyat respublika hududlari ichida Samarqand, Andijon, Buxoro va Toshkent viloyatlaridan keyingi 5-o‘rinni egallab turib, respublika qishloq xo‘jaligi mahsulotning 9,3 % qismini yetishtirgan (2010-yilda tegishli ko‘rsatkich 8,3 % ga teng bo‘lgan). Xususan, respublika dehqonchiligida viloyatning ulushi 10,8 %, chorvachilikdagi salmog‘i esa 7,8 % ga teng bo‘lgan.

Viloyat agrar mahsulotining tarkibida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 59,8 %, chorvachilik mahsulotlari salmog‘i esa 40,2 % ga teng. Qo‘shni Andijon viloyati singari, Farg‘ona viloyati qishloq xo‘jaligi yerlarining tarkibida yaylovlar ulushi minimal darajada bo‘lib, 3,1 % ni tashkil etadi. Ekin yerlar hissasiga 79 %, ko‘p yillik daraxtzorlar salmog‘iga esa 17,9 % to‘g‘ri keladi.

Farg‘ona viloyati yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 56,8 % i dehqon xo‘jaliklari, 39,5 % i fermer xo‘jaliklari, 3,7 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarga to‘g‘ri kelgan. Fermer xo‘jaliklarining jami agrar mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi salmog‘i bo‘yicha Farg‘ona viloyati respublikada Samarqand viloyati bilan birgalikda yetakchi o‘rinni egallaydi.

Farg‘ona viloyatida 2022-yilda 864 ming tonna don (respublika hosilining 10,8 % i; hududlar orasida 1-o‘rin), 285,5 ming tonna paxta (8,2 %; 4-o‘rin), 1227,6 ming tonna sabzavot (11,0 %; 2-o‘rin), 360,1 ming tonna kartoshka (10,5 %; 4-o‘rin), 155,8 ming tonna poliz (6,4 %;

10-o‘rin), 383,4 ming tonna meva va rezavorlar (12,9 %; 2-o‘rin), 184 ming tonna uzum (10,5 %; 3-o‘rin), 181,1 ming tonna go‘sht (6,6 %; 8-o‘rin), 1104,9 ming tonna sut (9,5 %; 3-o‘rin), 557,9 mln dona tuxum (6,9 %; 5-o‘rin), 2241 tonna pilla (9,2 %; 4-o‘rin) yetishtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo‘yicha Oltiariq, Farg‘ona, Qo‘shtepa, Rishton, Bag‘dod tumanlari yetakchilik qiladi. So‘x tumani viloyatning boshqa tumanlaridan paxta yetishtirilmasligi va asosan, kartoshkachilikka ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Oltiariq tumani sabzavot va uzum, Farg‘ona va Quva tumanlari, Quvasoy shahri meva va rezavorlar, Qo‘shtepa kartoshka, sabzavot va poliz yetishtirish hajmi bilan ajralib turadi. Go‘sht yetishtirishda Farg‘ona tumani, sut yetishtirishda O‘zbekiston tumani, tuxum yetishtirishda Beshariq tumani va Quvasoy shahri viloyat bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turadi. So‘x tumanidan tashqari, viloyatning barcha tumanlarida dehqonchilik chorvachilikdan ustun turadi.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Viloyatda 2022-yil yakunlari bo‘yicha jami 21960,3 mlrd so‘m hajmda pullik xizmatlar ko‘rsatilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 6,0 % ni tashkil etib, hududlar orasida u 4-o‘rinda turadi. Pullik xizmatlar tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 29,6 %, moliyaviy xizmatlarning salmog‘i 21,6 %, transport xizmatlarining ulushi esa 18,2 % ni tashkil etadi, boshqa turdagi xizmatlarning ko‘rsatkichlari ancha pastroq.

Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida viloyat markazi hissasiga 24,8 %, Qo‘qon shahriga esa 14,1 % mos kelgan. Qolgan hududlardan nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Marg‘ilon shahri (7,1 %) va Oltiariq tumanida (5,2 %) qayd qilingan. Eng past ko‘rsatkichlar bu borada So‘x (1,6 %), Yozyovon (1,9 %), Furqat (2,5 %) tumanlari va Quvasoy shahriga (2,5 %) tegishli. Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi viloyatda 5578,8 ming so‘mni tashkil etgan holda, Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida bu borada viloyat bo‘yicha o‘rtacha darajadan yuqoriroq ko‘rsatkichlar qayd qilingan.

Farg‘ona viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilda 22448,5 mlrd so‘mni tashkil etgan (mamlakatdagi ulushi 8,3 %; hududlar orasida 4-o‘rin). Farg‘ona shahrining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 19,2 %, Qo‘qon shahrining ulushi 19,0 %, Marg‘ilon shahri ulushi 17,1 %, Uchko‘prik tumanining hissasi 7,4 % ga teng bo‘lib, boshqa hududlarning ko‘rsatkichlari ancha pastroq.

Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo‘yicha 6610,4 ming so‘mni tashkil etib, faqatgina Farg‘ona, Qo‘qon,

Marg‘ilon shaharlari va Uchko‘prik tumanining bu boradagi ko‘rsatkichlari viloyatning o‘rtacha darajasidan yuqoriroq.

Farg‘ona viloyatida, 1.01.2023-y. holatiga ko‘ra, 128 ta shifoxona muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 43 tasi viloyat markazida, 18 tasi Qo‘qon shahrida faoliyat ko‘rsatadi. Shifoxonalarda koykalar soni 16698 ta (26,5 % i Farg‘ona shahri, 13,1 % i Farg‘ona tumani va 10,4 % i Qo‘qon shahriga to‘g‘ri keladi), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 42,0 tani tashkil qiladi (viloyat markazida 141,0 ta). Viloyat bo‘yicha ambulator-poliklinika muassasalari soni 625 tani tashkil etgan holda, 119 tasi (19 % i) Farg‘ona shahrida, 72 tasi (11,5 % i) esa Qo‘qon shahrida faoliyat ko‘rsatadi.

Viloyatda shifokorlarning umumiy soni 8959 nafar (28,9 % i viloyat markazida, 10,2 % i Qo‘qonda), o‘rta tibbiyot xodimlari 44492 nafar (19,0 % i viloyat markazida, 9,4 % i Qo‘qon shahrida). Har 10 000 aholiga nisbatan 22 nafar shifokor (viloyat markazida 83 nafar), 112 nafar o‘rta tibbiyot xodimi (viloyat markazida 270 nafar) to‘g‘ri keladi.

Farg‘ona viloyatida, 2022-yilning oxiri holatiga ko‘ra, 1065 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan. Mintaqada 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 75,2 % ga teng (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 68,3 % ni tashkil qiladi).

Mintaqada 2022/2023-o‘quv yili boshida 1026 ta umumta’lim muassasalari (35 tasi, ya’ni 1,8 % i nodavlat) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 33,1 % i bir smenada, 63,5 % i 2 smenada, 3,3 % i 3 smenada ishlaydi. Eng ko‘p umumta’lim muassasalar faoliyat ko‘rsatayotgan hududlar qatoriga Quva (73), O‘zbekiston (73) va Rishton (72) tumanlari kiradi. Maktab o‘quvchilari soni 646,2 ming nafar (7,4 ming nafar nodavlat umumta’lim tashkilotlarida), bitta maktabda o‘rtacha 608 ta o‘quvchiga ta’lim berilgan.

Farg‘ona viloyatida 6 ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, 5 tasi viloyat markazida, 1 tasi Qo‘qon shahrida joylashgan. Ularda jami 2,2 ming nafar o‘quvchi tahsil olgan. Shuningdek, ko‘rilayotgan paytda viloyatda 32 ta kasb-hunar maktabi (24,4 ming o‘quvchi), 22 ta kasb-hunar kolleji (14,9 ming o‘quvchi) va 23 ta texnikum (11,8 ming o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Farg‘ona viloyatida 2022/2023-o‘quv yili boshida 11 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat olib borgan bo‘lib, 7 tasi Farg‘ona shahrida, 4 tasi Qo‘qon shahrida joylashgan. Viloyat OTTlaridagi talabalar soni 72239 nafar bo‘lib, 53603 nafari Farg‘ona shahridagi, 18636 nafari esa Qo‘qon shahridagi OTTlarda tahsil olgan.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Farg‘ona viloyatida 2022-yilda 63 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, 7 mln tonna temir yo‘l, 56 mln tonna avtomobil va 1 ming tonna yuk havo transporti orqali tashildi. Yuk aylanmasi 3898,3 mln tonna-kmni tashkil etib, temir yo‘l transportida bu ko‘rsatkich 2086,4 mln tonna-km, avtomobil transportida esa 1811,9 mln tonna-kmga teng bo‘ldi. Temir yo‘l transporti ma’danli o‘g‘itlar, neft yuklari, don mahsulotlari, sement, qora metall temir-tersaklarini uzoq masofalarga tashishda katta ahamiyatga ega.

Farg‘ona viloyatining 2022-yil yakunlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi 2061,4 mln AQSH dollarini (jami respublika tashqi savdo aylanmasining 4,1 % i, hududlar orasida 5-o‘rin) tashkil qilgan. Jumladan, eksport 827,2, import esa 1234,2 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan.

Mintaqa tashqi savdo aylanmasining 29,2 % i Rossiyaga, 22,1 % i Xitoyga, 11,9 % i Qozog‘istonga, 7,7 % Turkiyaga, 5,6 % i Qirg‘iz Respublikasiga to‘g‘ri kelgan. Eksport aloqalari ko‘proq Rossiya (41,5 %), Turkiya (10,9 %), Qirg‘iziston (7,5 %), Xitoy (7,1 %), Afg‘oniston (5,6 %) bilan amalga oshirilgan. Yalpi import tarkibida esa asosiy hajm Xitoy (32,1 %), Rossiya (20,9 %), Qozog‘iston (17,4 %), Turkiya (5,5 %) va Qirg‘iz Respublikasi (4,3 %) ga mos kelgan.

Viloyat eksporti tarkibida sanoat tovarlari, asosan, to‘qimachilik mahsulotlari (46,1 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, ko‘proq meva-sabzavot mahsulotlari va bug‘doy uni (32,1 %) asosiy ahamiyatga ega. Import tarkibida esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,5 %), sanoat tovarlari (23,7 %), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash mahsulotlar (14,5 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarga (14,4 %) to‘g‘ri kelgan.

Eksportning hududiy tarkibida Qo‘qon va Farg‘ona shaharlari, Oltiariq, Toshloq va Uchko‘prik tumanlari yetakchilik qilmoqda. Import hajmi bo‘yicha Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlari va Uchko‘prik tumani alohida ajralib turadi.

Ichki tafovutlari. Professor Abdusami Soliyev fikricha, Farg‘ona viloyatida 2 ta viloyat ichidagi iqtisodiy rayonni ajratish mumkin: Farg‘ona-Marg‘ilon (Farg‘ona, Marg‘ilon, Quvasoy shaharlari, Farg‘ona, Quva, Qo‘shtepa, Toshloq, Oltiariq, Yozyovon tumanlari) va Qo‘qon (Qo‘qon shahri, Beshariq, Furqat, Dang‘ara, O‘zbekiston, Uchko‘prik, Buvayda, Rishton, Bag‘dod, So‘x tumanlari).

Birinchisi neftni qayta ishlash, kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati, sabzavot, meva, poliz, uzum

yetishtirishga ixtisoslashgan, shuningdek, viloyat va butun iqtisodiy rayon miqyosida o‘zining rekreatsion resurslari (Chimyon, Shohimardon, Vodil va boshqa dam olish hududlari) bilan diqqatga sazovor. Ikkinchisi esa ko‘proq yengil, oziq-ovqat va kimyo sanoati, donchilik, paxtachilik va bog‘dorchilikka ixtisoslashgan.

Ta’kidlash lozimki, eksklav geografik joylashuvi va tog‘li hududlarga xos bo‘lgan tabiiy-xo‘jalik sharoiti bilan boshqa tumanlardan keskin ajralib turadigan So‘x tumani mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borishda alohida e’tibor va yondashuvni talab etadi. Shu bois, fikrimizcha, bu tumanni Qo‘qon mikroiqtisodiy rayoni tarkibiy qismi sifatida emas, alohida maxsus mikroiqtisodiy rayon sifatida ko‘rish lozim.

Namangan viloyati. Viloyat dastlab 1941-yil 6 martda tashkil etildi. Keyinchalik 25.01.1960-yilda viloyat tugatilib, hududi Andijon va Farg‘ona viloyatlari o‘rtasida taqsimlandi. 1967-yil 18-dekabrda esa Namangan viloyati hozirgi chegaralarida qayta tiklandi.

Namangan viloyati O‘zbekistonning sharqida, Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. U shimol va shimoli-sharqda Qirg‘iz Respublikasining Jalolobod viloyati, janubi-g‘arbda Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati, g‘arbda Toshkent, janubda Farg‘ona, janubi-sharqda esa Andijon viloyati bilan chegaralanadi. Namangan viloyati hududida Tojikiston Respublikasi So‘g‘d viloyati Asht tumani tarkibiga kiruvchi Sarvak eksklavi joylashgan. Bu O‘zbekistonda joylashgan boshqa davlatning yagona eksklavi.

Namangan viloyati maydoni 7,44 ming km^2 bo‘lib, u O‘zbekiston jami maydonining 1,66 % ini tashkil qiladi. Doimiy aholisining soni, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 2997,5 ming kishi, ya’ni O‘zbekiston jami aholisining 8,3 % qismi (respublika hududlari orasida 5-o‘rin). Aholi zichligi 402,7 kishi / km^2. Bu jihatdan Namangan viloyati O‘zbekiston hududlari ichida qo‘shni Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan keyingi, 3-o‘rinni egallaydi. Ta’kidlash joizki, Namangan viloyati Farg‘ona iqtisodiy rayonidagi 3 ta viloyat ichida maydoni jihatidan eng kattasi bo‘lib, aholi soni jihatidan ham Andijon, ham Farg‘ona viloyatidan ortda turadi. Bu holat Namangan viloyatining relyefi, ya’ni tog‘li yerlarining nisbatan ko‘pligi bilan bog‘liqdir. Shu bois, aholi zichligining o‘rtacha qiymati vodiydagi qolgan ikkita viloyatga nisbatan ancha pastroq. Ammo shunda ham, mamlakat miqyosida Namangan viloyati aholi eng zich joylashgan hududlarning birinchi uchtaligiga kiradi.

Viloyatning ma’muriy markazi – Namangan shahri (aholisining soni – 678,2 ming kishi, 1.01.2023-y.).

Namangan viloyati iqtisodiy geografik o‘rnining o‘ziga xos jihati uning Qamchiq dovonidan o‘tgan Toshkent-Qo‘qon avtomagistrali va Angren-Pop temir yo‘li orqali Andijon va Farg‘ona viloyatlarini respublikamiz poytaxti bilan bog‘lab berishi bilan belgilanadi. Shuningdek, viloyat hududi Janubiy Qirg‘izistonning mamlakatimiz Toshkent iqtisodiy rayoni hamda qo‘shni Tojikiston Respublikasi bilan aloqalarini amalga oshirishda katta tranzit imkoniyatlariga ega.

Namangan viloyatining respublika YaIMdagi ulushi 4,5 %, sanoat mahsulotidagi salmog‘i 3,3 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi hissasi esa 7,2 % ga teng (2022-y.). Viloyatga mamlakat jami chakana savdo aylanmasining 6,4 % i, pullik xizmatlarning 4,0 % i, investitsiyalarning 5,3 % i, qurilish ishlarining 6,0 % i, tashqi savdo aylanmasining 2,6 % i mos keladi. Umuman olganda, Namangan viloyatining deyarli barcha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan pastroq darajada.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Namangan viloyati ma’muriy-hududiy jihatdan 11 ta qishloq tumani, 8 ta shahar (1 tasi – Namangan – viloyatga bo‘ysunuvchi), 2 ta shahar tumani, 115 ta shaharcha va 388 ta qishloq aholi punkti kiradi (67-jadval).

67-jadval

Namangan viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi (01.01.2023-holatiga ko‘ra)

	Hududi (ming km^2)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Namangan viloyati	**7,44**	**11**	**8**	**115**	**388**
Namangan sh, *jumladan:*	0,15		1		
Davlatobod tumani	0,05				
Yangi Namangan tumani	0,06				
qishloq tumanlari:					
Mingbuloq	0,74	1		7	50
Kosonsoy	0,52	1	1	10	41
Namangan	0,20	1		5	36
Norin	0,21	1	1	8	35
Pop	2,91	1	1	15	47
To‘raqo‘rg‘on	0,27	1	1	13	25
Uychi	0,30	1		13	39
Uchqo‘rg‘on	0,30	1	1	4	43
Chortoq	0,38	1	1	10	19
Chust	0,94	1	1	11	24
Yangiqo‘rg‘on	0,53	1		19	29

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Viloyatdagi qishloq tumanlaridan maydoni jihatidan Pop tumani keskin ajralib turadi. Namangan viloyati umumiy maydonining 39,1 % ini egallaydigan ushbu tuman nafaqat viloyatda, balki butun Farg‘ona iqtisodiy rayonidagi eng katta qishloq tumani hisoblanadi. Boshqa tumanlaridan Chust va Mingbuloq tumanlari nisbatan katta. Eng kichik qishloq tumanlari sifatida esa Namangan va Norin tumanlari ajralib turadi. Umuman olganda, adir va tog‘li yerlarda joylashgan tumanlarning maydoni sug‘oriladigan tekisliklardan iborat bo‘lgan tumanlarnikidan sezilarli darajada kattadir.

Namangan viloyatining 11 ta qishloq tumanidan 7 tasining ma’muriy markazi shahar, 4 tasiniki esa shaharcha hisoblanadi.

Viloyat ma’muriy-hududiy tuzilishining o‘ziga xos jihati Namangan shahri tarkibida 2 ta shahar tumani – Davlatobod va Yangi Namangan tumanlarining mavjudligidan iboratdir.

Shaharchalar soni eng ko‘p bo‘lgan tuman Yangiqo‘rg‘on bo‘lsa, eng kam shaharchalar Uchqo‘rg‘on va Namangan tumanlarida joylashgan.

Namangan viloyati respublika hududlari orasida qishloq aholi punktlari sonining nisbatan kamligi bilan ajralib turadi. Qishloqlar soni faqatgina Sirdaryo viloyatida kamroq. Eng ko‘p qishloq aholi punktlari Mingbuloq (50 ta) va Pop (47 ta) tumanlarida, eng kam qishloqlar esa Chust (24 ta) va Chortoq (19 ta) tumanlarida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Namangan viloyatining relyefi Farg‘ona iqtisodiy rayonidagi qo‘shni viloyatlardan tog‘li hududlarning nisbatan katta maydonni egallaganligi bilan farq qiladi. G‘arbiy Tyanshanning Chotqol va Qurama tizmalariga tegishli tog‘lar viloyatning shimoli va shimoli-g‘arbida joylashgan. Bu yerdagi eng baland cho‘qqilarning balandligi 4000 metrdan oshadi. Qurama tog‘larida Farg‘ona vodiysi poytaxt mintaqa bilan transport bog‘lanishida juda katta ahamiyat kasb etadigan Qamchiq dovoni joylashgan (mutlaq balandligi 2267 m). Umuman olganda, viloyat hududining relyefi janub va janubi-sharqdan shimol va shimoli-g‘arbga tomon ko‘tarilib boradi.


Viloyatning janubiy qismida, Sirdaryoning chap sohilida Qoraqalpoq cho‘li joylashgan. Uning yerlari 1930-70-yillarda sug‘orma dehqonchilik maqsadlarida o‘zlashtirildi.

Foydali qazilmalardan oltin, kumush, neft, qurilish xomashyosi konlari bor. Qimmatbaho metallar viloyatning shimoli-g‘arbiy, tog‘li qismida qazib olinadi. Bu yerdagi konlar Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan o‘zlashtirilgan.

Asosiy suv manbalari – Norin, Sirdaryo, Kosonsoy, Podshootasoy, G‘ovasoy daryolari. Eng katta kanallari – Katta Farg‘ona, Shimoliy Farg‘ona, Katta Andijon, Katta Namangan va Oxunboboyev nomidagi kanal. Adir mintaqasida bir qator kichik suv va sel omborlari bunyod etilgan (Eskiyer, Rezaksoy, Varzik, Yertikan, Qorasuv va boshqalar). Viloyat hududidagi barcha sug‘orish tizimlari Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli.

Aholisi va mehnat resurslari. Namangan viloyati doimiy aholisining soni, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 2997,5 ming kishiga teng. Viloyat aholisi Mustaqillik yillarida (1991-2023-yy.) 1445,7 ming kishiga, ya’ni 93,2 % ga ko‘paygan.

Namangan aholisi 2022-yil mobaynida 66,5 ming kishiga, yoxud 2,3 % ga ko‘paygan. Shunda tabiiy ko‘payish 68,8 ming kishi, migratsiya saldosi esa -2,3 ming kishini tashkil etgan. Har 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 27,8, o‘lim koeffitsiyenti 4,5, tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti 23,3 (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 21,4), ko‘chib kelish koeffitsiyenti 0,8, ko‘chib ketish koeffitsiyenti 1,6, migratsiya saldosi -0,8 ga teng bo‘lgan (respublika bo‘yicha -0,2).



51-rasm. Namangan viloyati aholisining milliy tarkibi (1.01.2021-y, ming kishi va % da)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyat aholisining milliy tarkibida o‘zbeklar 89,0 % qismini tashkil etadi (51-rasm). Tojiklar viloyat aholisining salkam 9 % ini tashkil qilgan holda, asosan, Kosonsoy va Chust tumanlarida istiqomat qiladi. Tojiklar Kosonsoy tumani aholisining 61,7 % ini, Chust tumani aholisining esa 35,5 % ini tashkil etadi. Qirg‘iz millati vakillari ko‘proq Namangan shahri, Yangiqo‘rg‘on, Kosonsoy va Chust tumanlarida istiqomat qiladi. Ruslarning asosiy qismi viloyat markaziga to‘g‘ri keladi.

Viloyatda shahar aholisining salmog‘i 64,9 %, qishloq aholisining salmog‘i esa, mos ravishda, 35,1 % ga teng. Shahar aholisi ulushi jihatidan viloyat respublika hududlari ichida 1-o‘rinda turadi. Mintaqaning urbanizatsiya darajasi 2009-yilda keskin ravishda 37,1 % dan 64,7 % ga ko‘tarildi, binobarin, viloyatdagi shaharchalar soni birdaniga 109 taga ko‘paydi. Tumanlar orasida eng yuqori shahar aholisining salmog‘i Yangiqo‘rg‘on (68,6 %), Chust (68,2 %) va Chortoq (66,8 %) tumanlarida, eng past ko‘rsatkichlar esa Namangan (30,3 %) va Mingbuloq (34,8 %) tumanlari uchun xos.

Viloyat markazi – Namangan shahri – O‘zbekistondagi 120 ta shaharlari ichida Toshkentdan keyingi 2-o‘rinda turadi. Hozirgi vaqtda Namangan shahri aholisining soni 700 ming kishiga yaqinlashgan. Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda viloyat markazi aholisining o‘sishiga uning ma’muriy chegaralarining kengayishi ham ta’sir ko‘rsatdi.

Mintaqadagi 8 ta shahardan 1 tasi (Namangan) eng yirik, 3 tasi (Chust (81,2 ming kishi), Chortoq (61,6 ming kishi) va Kosonsoy (59,9 ming kishi)) o‘rta, qolgan shaharlar esa kichik shaharlar toifasiga kiradi. Aholisi soni jihatidan eng kichik shahar Pop (31 ming kishi) hisoblanadi.

Funktsional jihatdan Namangan shahri ko‘p funktsiyali viloyat markazi, Chust ko‘p funktsiyali tumanlararo markaz, Chortoq rekreatsiya shahri va tuman markazi, qolgan shaharlar esa mahalliy agrosanoat va servis funktsiyali tuman markazlari hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, Pop shahrining transport funktsiyasi Angren-Pop temir yo‘li ishga tushgandan so‘ng ancha rivojlandi.

Viloyatdagi har bir qishloqda o‘rtacha hisobda 2715 kishi doimiy aholi mavjud bo‘lib, bu borada mintaqa Andijon viloyatidan keyingi 2-o‘rin egallaydi. Qishloqlarning o‘rtacha aholiyligi tumanlar kesimida 1750 kishidan (Mingbuloq) 4016 kishigacha (To‘raqo‘rg‘on) o‘zgaradi.

Aholi soni qishloq tumanlari kesimida ancha farq qiladi. Bu borada 279,7 ming kishilik aholi istiqomat qiladigan Chust tumani alohida ajralib turadi. Eng kam aholi esa Mingbuloq tumanida (134 ming kishi) yashaydi. E’tiborlisi, Farg‘ona vodiysidagi barcha viloyatlarda eng kam sonli aholi

Markaziy Farg‘ona cho‘llarining yangi o‘zlashtirilgan yerlarda joylashgan tumanlarga (Mingbuloq, Yozyovon, Bo‘ston, Ulug‘nor) xos.

Aholi zichligi viloyat bo‘yicha 402,7 kishi / km^2 bo‘lib, tumanlar kesimida u ancha farq qiladi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar bu borada hududi kichik, intensiv sug‘orma dehqonchiligi rivojlangan tumanlar (Namangan (926,3 kishi / km^2), To‘raqo‘rg‘on (878,1 kishi / km^2), Norin (832,7 kishi / km^2)) ga tegishli. Eng past ko‘rsatkichlar esa hududining katta qismi tog‘ va adirlardan iborat bo‘lgan Pop (79 kishi / km^2) va Markaziy Farg‘onadagi yangi o‘zlashtirilgan yerlarda joylashgan Mingbuloq (180 kishi / km^2) tumanlarida qayd qilingan.


Viloyat mehnat resurslarining soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 1588,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, mintaqa aholisining 53 % iga teng. Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi 76,1 % ni, iqtisodiy nofaol aholi esa 23,9 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida iqtisodiyotda band aholining salmog‘i 91,1 %, ishsizlar ulushi 8,9 % ga teng. Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko‘p band aholi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (27,5 %), sanoat (12,2 %), savdo (10,4 %), ta’lim (8,3 %), qurilish (7,2 %) kabi sohalarga to‘g‘ri keladi (2022-y.).

Viloyat xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Namangan viloyatining YaHM hajmi, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, 41,1 trln so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 106,6 % ga o‘sgan (respublika bo‘yicha o‘sish 105,7 %). Respublika YaIMdagi ulushi 4,5 % ga teng (hududlar ichida 9-o‘rin).

Viloyatda aholi jon boshiga olingan YaHM hajmi 2022-yilda 13,86 mln so‘mni (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etgan bo‘lib, mamlakatimiz hududlari orasida bu jihatdan Namangan viloyati 13-o‘rin egallaydi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida mintaqa YaHMning 34,0 % i (respublika bo‘yicha 23,4 %), sanoat va qurilishda 21,6 % i (respublika bo‘yicha 31,1 %), xizmatlar sohasida 36,3 % i (respublika bo‘yicha 38,7 %) yaratildi, sof soliqlar ulushi esa 3 % ni (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) tashkil etgan. So‘nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining salmog‘i pasayib, sanoat, qurilish va xizmatlarning ulushi ko‘tarildi.

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarish sohasidagi salohiyati yuqori emas. Mintaqa respublika miqyosida, asosan, elektr energetika (mamlakat bo‘yicha elektr energiyaning 9,3 % i, 5-o‘rin) va yengil sanoat (tarmoq mahsulotining 8,8 % i, Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan keyingi 3-o‘rin) rivojlanishi bilan ajralib turadi.



52-rasm. Namangan viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 48.

Mintaqa qishloq xo'jaligi mamlakat miqyosida, asosan, meva va rezavorlar (hududlar orasida 4-o'rin), tuxum (4-o'rin) va pilla (5-o'rin) yetishtirilishi bilan nisbatan ajralib turadi. Boshqa agrar mahsulotlar yetishtirish bo'yicha viloyat O'zbekiston hududlari ichida 6-chi va undan pastroq o'rinlarda turadi.

Sanoati. Namangan viloyatida, 2022-yil yakunlari bo'yicha, 18,2 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan va bu ko'rsatkich o'tgan yilga qaraganda 109,4 % ga o'sgan. Respublika sanoati hududiy tarkibida viloyatning hissasi 3,3 % ni tashkil etadi (2010-yilda – 2,6 %) va bu respublika hududlari orasidagi eng past ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Namangan viloyatining sanoati tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga 82,0 %, elektr energiya, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hissasiga 16,4 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga 1,0 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga esa 0,6 % to'g'ri keladi (2022-y.).

Mintaqa ishlab chiqaradigan sanoatining tarmoqlar tarkibida yengil sanoatning ulushi eng yuqori bo'lib, 47,1 % ni tashkil etgan. Shuningdek, oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati (24,0 %), mashinasozlik va metallni qayta ishlash (11,6 %), kimyo va neft-kimyo (7,6 %), qurilish materiallari sanoati (4,6 %) ulushi nisbatan yuqori. Sanoatning tarmoqlar tarkibida so'nggi yillarda asosiy o'zgarish oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati ulushining pasayishi va, ayni paytda, yengil (asosan, to'qimachilik) sanoati salmog'ining ortishi bilan bog'liq.

Namangan viloyatidagi sanoat korxonalari tomonidan 2022-yil mobaynida 42,2 ming tonna paxta tolasi, 125,2 ming tonna un, 13,3 ming tonna o'simlik yog'i ishlab chiqarilgan. Viloyatda 2022-yilda 6576,6 mln kWh elektr energiyasi ishlab chiqarilgan (respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 9,3 % i). Elektr energiya deyarli to'liq To'raqo'rg'on IESda ishlab chiqarilgan.

Mintaqa sanoatining hududiy tarkibida viloyat markazining ulushi ancha yuqori bo'lib, 38,9 % ga teng. Shuningdek, To'raqo'rg'on (17,8 %) va Chust (8,4 %) tumanlarining ulushi nisbatan ajralib turadi. Eng past salmoq Norin (1,3 %), Yangiqo'rg'on (1,7 %) va Chortoq (2,1 %) tumanlariga tegishli.

Qishloq xo'jaligi. Viloyatda 2022-yil davomida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining yalpi qiymati 27,7 trln so'm tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 104,2 % ga o'sgan. Qishloq xo'jaligi mahsuloti bo'yicha viloyat respublika hududlari orasidagi mavqei

o‘rtacha, respublika qishloq xo‘jaligi mahsulotining hududiy tarkibida 7,2 % lik ulush bilan 7-o‘rin egallaydi.

Mintaqa qishloq xo‘jaligi tarmoqlar tarkibida dehqonchilikning ulushi 58,3 %, chorvachilikning salmog‘i esa 41,7 % ga teng. Ta’kidlash o‘rinliki, viloyat qishloq xo‘jaligi yerlarining tarkibida yaylov va pichanzorlar ulushi (41,1 %) qo‘shni Andijon va Farg‘ona viloyatlarga qaraganda ancha yuqori bo‘lishiga qaramasdan, dehqonchilik va chorvachilikning o‘zaro nisbati uchala viloyatda deyarli bir xil. Viloyat tumanlaridan faqat Kosonsoyda qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibida chorvachilik mahsuloti dehqonchilik mahsulotidan biroz ustunroq.

Namangan viloyati agrar ishlab chiqarish tarkibida dehqon xo‘jaliklarining salmog‘i 59,4 %, fermer xo‘jaliklarining ulushi 37,1 %, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarining hissasi esa 3,5 % ni tashkil etadi.

Mintaqada 2022-yilda 642,8 ming tonna don (respublika hosilining 8 % i; hududlar orasida 7-o‘rin), 222,5 ming tonna paxta (6,4 %; 12-o‘rin) 931 ming tonna sabzavotlar (8,3 %; 6-o‘rin), 305,1 ming tonna kartoshka (8,9 %; 5-o‘rin), 127,7 ming tonna poliz (5,3 %; 11-o‘rin), 328,3 ming tonna meva va rezavorlar (11 %; 4-o‘rin), 142,2 ming tonna uzum (8,1 %; 4-o‘rin), 168 ming tonna go‘sht (6,2 %; 11-o‘rin), 758,1 ming tonna sut (6,5 %; 9-o‘rin), 651,1 mln dona tuxum (8,0 %; 4-o‘rin), 2031,5 tonna pilla (8,4 %; 6-o‘rin) yetishtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo‘yicha Yangiqo‘rg‘on tumani va Namangan shahri (bunday xususiyat xos bo‘lgan yagona viloyat markazi) yetakchi ahamiyatga ega. Yangiqo‘rg‘on, Chortoq va Kosonsoy tumanlari bog‘dorchilik, uzumchilik, kartoshkachilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan. Pop va Chust tumanlarining adir va tog‘ yaylovlarida qo‘ychilik va echkichilik rivojlangan. Pop va Mingbuloq tumanlari don va poliz ekinlari, Yangiqo‘rg‘on tumani sabzavot, kartoshka, meva va rezavorlar, uzum yetishtirish hajmi bilan alohida ajralib turadi. Bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlarini yetishtirishda Yangiqo‘rg‘on tumani respublika miqyosida peshqadam tumanlaridan biri hisoblanadi. Go‘sht yetishtirishda Namangan shahri, sut yetishtirishda Yangiqo‘rg‘on va Chust tumanlari, Namangan shahri, tuxum yetishtirishda Kosonsoy tumani viloyat miqyosida alohida ajralib turadi.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Mintaqada 2022-yilda 14722,6 mlrd so‘m hajmda pullik xizmatlar ko‘rsatilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 4,0 % ni tashkil etadi va hududlar orasidagi 8-chi

ko‘rsatkich hisoblanadi. Pullik xizmatlar tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 33,2 %, transport xizmatlarining salmog‘i 17 %, moliya xizmatlarining ulushi 16,8 % ga teng.

Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida Namangan shahri 39,6 % lik ulush bilan keskin ravishda yetakchilik qiladi. Tumanlarning salmog‘i esa 4,0 % dan (Mingbuloq) 7,2 % gacha (Chust) oralig‘ida tebranadi. Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi viloyatda 4966,6 ming so‘mni tashkil etgan. Viloyat markazida bu ko‘rsatkich ancha yuqori (8693,7 ming so‘m) bo‘lib, tumanlarning barchasida esa, aksincha, viloyat bo‘yicha o‘rtacha darajadan pastroq ko‘rsatkichlar qayd qilingan.

Namangan viloyatida 2022-yil yakunlari bo‘yicha 17273,1 mlrd so‘mlik chakana savdo tovar aylanmasi qayd etilgan (respublikadagi salmog‘i 6,4 %; hududlar orasida 8-o‘rin). Viloyat markazining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi salmog‘i 39,7 % ga teng. Boshqa hududlardan Chust (8,7 %) va Pop (7,6 %) tumanlarining ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori. Eng past ko‘rsatkich esa Mingbuloq tumanida (2,5 %) qayd etilgan. Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo‘yicha 6641,4 ming so‘mni tashkil etib, faqatgina viloyat markazi (11675,1 ming so‘m) va Norin tumani (7136,9 ming so‘m) ning ko‘rsatkichlari viloyatning o‘rtacha darajasidan yuqoriroq.

Mintaqada, 2022-yilning boshi holatiga ko‘ra, 110 ta shifoxona muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 47 tasi viloyat markazida, 14 tasi Kosonsoy, 11 tasi Chust tumanida joylashgan. Shifoxonalarda koykalar o‘rni 13769 ta (43,1 % i Namangan shahri, 7,4 % i Chust tumaniga to‘g‘ri keladi), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 46,0 tani tashkil qiladi (viloyat markazida 87,6 ta). Viloyatda ambulator-poliklinika muassasalari soni 387 taga teng bo‘lgan holda, 105 tasi (27,1 % i) Namangan shahrida, 44 tasi (11,4 % i) Pop, 35 tasi (9 % i) Chust tumanlarida faoliyat ko‘rsatadi.

Shifokorlarning umumiy soni 5329 nafar (42,1 % i Namangan shahrida), o‘rta tibbiyot xodimlari 30307 nafar (30,9 % i Namangan shahrida). Har 10 000 aholiga nisbatan 18 nafar shifokor (viloyat markazida 36 nafar), 101 nafar o‘rta tibbiyot xodimi (viloyat markazida 138 nafar) to‘g‘ri keladi.

Viloyatda, 2022-yil oxiri holatiga ko‘ra, 689 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lgan. Mintaqada 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 69,8 % ga teng (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 68,3 % ni tashkil qiladi).

Mintaqada 2022/2023-o‘quv yili boshida 742 ta umumta’lim muassasalari (15 tasi, yoxud 2,0 % i nodavlat) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 25,8 % i bir smenada, 74,2 % i 2 smenada ishlaydi. Eng ko‘p umumta’lim muassasalar Namangan shahri (111 ta), Chust (79 ta) va Pop (73 ta) tumanlarida joylashgan. Maktab o‘quvchilari soni 527,5 ming nafar (1,8 ming nafar nodavlat umumta’lim tashkilotlarida), bitta maktabga o‘rtacha hisobda 711 ta o‘quvchi to‘g‘ri kelgan.

Namangan viloyatida 4 ta akademik litsey mavjud bo‘lib, barchasi Namangan shahrida joylashgan. Ularda jami 2,1 ming nafar o‘quvchi tahsil olgan. Mintaqada 27 ta kasb-hunar maktabi (16,3 ming o‘quvchi), 18 ta kasb-hunar kolleji (7,7 ming o‘quvchi) va 19 ta texnikum (8,3 ming o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Namangan viloyatida 2022/2023-o‘quv yili boshida 6 ta oliy ta’lim tashkiloti (5 tasi davlat, 1 tasi nodavlat OTT) faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, 5 tasi (xususan, 1 ta nodavlat OTT) Namangan shahrida, 1 tasi To‘raqo‘rg‘on tumanida joylashgan. Viloyat OTTlaridagi talabalar soni 52,3 ming nafar bo‘lib, ulardan 51,9 ming nafari viloyat markazidagi, 0,4 ming nafari esa To‘raqo‘rg‘on tumanidagi OTTlarda tahsil olgan.

Namangan viloyatining tog‘oldi va tog‘li hududlari rekreatsiya resurslariga boy. Chortoq, Yangiqo‘rg‘on, Kosonsoy, Chust va Pop tumanlaridagi dam olish markazlariga (Chortoq, Kosonsoy, Nanay, G‘ova, Parda Tursun, Cho‘dak va boshqalar) yozgi mavsumda butun Farg‘ona vodiysidan ko‘plab dam oluvchilar tashrif buyuradi.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Namangan viloyatida 2022-yil davomida 31,1 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, hammasi avtomobil transporti hissasiga to‘g‘ri kelgan. Yuk aylanmasi 768,2 mln tonna-kmni tashkil etgan. Ayni paytda tashilgan yo‘lovchilar soni 7,1 mln nafarga teng bo‘lib, yo‘lovchi aylanmasi 437 mln yo‘lovchi-kmni tashkil qildi.

Mintaqaning 2022-yilda tashqi savdo aylanmasi 1276,1 mln AQSH dollariga (mamlakat tashqi savdo aylanmasining 2,6 % i, hududlar orasida 6-o‘rin) teng bo‘ldi. Eksport hajmi 581,2 mln, import esa 649,9 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan.

Tashqi savdo aylanmasining 32,1 % i Rossiyaga, 21,2 % i Xitoyga, 8,8 % i Qozog‘istonga, 8,0 % Turkiyaga, 6,6 % i Qirg‘iz Respublikasiga to‘g‘ri kelgan. Eksport tarkibida eng katta ulush (51,2 %) Rossiya egallagan. Ayni paytda Qirg‘iz Respublikasi ulushi 10,8 %, Qozog‘iston ulushi 7,7 %, Turkiya ulushi 7,1 %, Xitoy ulushi esa 6,9 % ni tashkil

etgan. Import ko‘proq Xitoy (33,2 %), Rossiya (16,1 %), Qozog‘iston (9,8 %), Turkiya (8,7 %) va Belarus (4,6 %) kabi davlatlardan olib kirilgan.

Eksport tarkibida sanoat tovarlari, asosan, to‘qimachilik mahsulotlari (52 %), turli xil tayyor mahsulotlar, ko‘proq kiyim mahsulotlari (20,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan, meva-sabzavot mahsulotlari (18,2 %) katta o‘rin egallaydi. Import tarkibida esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (32,1 %), sanoat tovarlari (23,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16 %) hamda kimyoviy moddalar va shunga o‘xshash mahsulotlarga (13,1 %) to‘g‘ri kelgan.

Eksportning hududiy tarkibida viloyat markazi va To‘raqo‘rg‘on tumani alohida ajralib tursa, import bo‘yicha esa Namangan shahri keskin ravishda ustunlik qiladi.

Ichki tafovutlari. Namangan viloyati iqtisodiyotining hududiy tarkibida viloyat markazi, Namangan shahrining o‘ta sezilarli ustuvorligi ko‘zga tashlanadi. Viloyat markazining mintaqa sanoat ishlab chiqarishi, pullik xizmatlar va chakana savdo aylanmasidagi ulushi 40 % atrofida. Hattoki, qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarish bo‘yicha Namangan shahri viloyatda 2-o‘rinda turadi. Bu holat viloyat xo‘jaligining yuqori darajada qutblashganligidan dalolat beradi.

Namangan viloyatida, professor A.S. Soliyev fikricha, 2 ta mikroiqtisodiy rayon shakllanmoqda: Namangan (viloyat markazi, Chust va Pop tumanlaridan tashqari barcha qishloq tumanlari) va Chust-Pop (Chust va Pop tumanlari). Birinchisi, asosan, Namangan shahar aglomeratsiyasini qamrab oladi hamda yengil va oziq-ovqat sanoati, elektr energetikaga, sabzavot, kartoshka, meva va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan. Chust-Pop mikrorayoni yengil sanoat, donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, tog‘-yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan.

Namangan viloyati hududiga tabiiy-xo‘jalik sharoitining xilma-xilligi xos bo‘lib, bu holat, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi va yerlarning meliorativ sharoitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Fikrimizcha, Namangan viloyatida 5 ta tabiiy-xo‘jalik rayonni ajratish mumkin: 1) Sirdaryo chap qirg‘oq (Mingbuloq tumani, Pop tumanining Sirdaryo chap qirg‘oq‘idagi qismi); 2) Sirdaryo o‘ng qirg‘oq (Namangan shahri, Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Uychi tumanlari, Chortoq tumanining janubiy, tekislik qismi); 3) Norin (Uchqo‘rg‘on, Norin tumanlari); 4) Shimoliy Namangan (Kosonsoy, Yangiqo‘rg‘on tumanlari Chortoq, Chust, Pop tumanlarining adir qismlari); 5) Qurama-Chotqol (Pop va Chust tumanlarining tog‘li hududlari).

Sirdaryo chap qirg‘oq tabiiy-xo‘jalik rayoni paxtachilik, donchilik va polizchilikka ixtisoslashgan. Sirdaryo o‘ng qirg‘oq tabiiy-xo‘jalik rayoni viloyatning eng zich va intensiv o‘zlashtirilgan qismi bo‘lib, rivojlangan ko‘p tarmoqli agrosanoat majmuasi bilan alohida ajralib turadi. Bu hudud Namangan shahar aglomeratsiyasining yadrosini tashkil qiladi. Norin tabiiy-xo‘jalik rayoni paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik va polizchilik, oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan. Shimoliy Namangan tabiiy-xo‘jalik rayoni adir hududlarini qamrab olgan bo‘lib, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavot va kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan. Shuningdek, bu rayonda viloyatning asosiy rekreatsiya resurslari mujassamlashgan. Qurama-Chotqol tabiiy-xo‘jalik rayoni tog‘-yaylov chorvachiligi, bog‘dorchilik va mavsumiy rekreatsiyaga ixtisoslashgan. Shuningdek, bu rayonda qimmatbaho metallar qazib olinadi.

Savol va topshiriqlar

1. Farg‘ona iqtisodiy rayoni yuqori darajada o‘zlashtirganligiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?
2. Farg‘ona iqtisodiy rayoni sanoati va qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari qaysi?
3. Andijon viloyati tabiiy sharoiti va resurslarining qanday ijobiy jihatlarini ajratish mumkin?
4. Andijon viloyati sanoatining hududiy tarkibida qaysi tuman katta ulushga ega va nimaning hisobiga?
5. Andijon viloyati g‘arbiy va sharqiy tumanlarining tabiiy-xo‘jalik sharoiti va qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi qanday farq qiladi?
6. Farg‘ona viloyati tarkibiga qaysi eksklav hududlari kiradi? Ularning geografik o‘rniga qanday xususiyat xos?
7. Farg‘ona viloyati urbanistik tarkibiga qanday o‘ziga xos jihat xos?
8. Farg‘ona viloyati sanoati qanday tarmoqlarga ixtisoslashgan va uning tarmoqlar tarkibida so‘nggi yillarda qanday o‘zgarishlar kechmoqda?
9. Farg‘ona viloyati aholisining milliy tarkibida o‘zbeklardan tashqari qaysi millatlar katta o‘rin tutadi? O‘sha millatlar, asosan, qaysi tumanlarda istiqomat qiladi?
10. Namangan viloyatining tabiiy sharoiti va resurslari qo‘shni Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
11. Namangan viloyati aholisining joylashuvida qanday hududiy tafovutlar mavjud?
12. Namangan viloyati tabiiy-xo‘jalik sharoitining notekisligi qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuviga ta’sir ko‘rsatishini izohlang.

Test savollari

1. Farg‘ona iqtisodiy rayoni quyidagi sanoat tarmoqlarining qaysi biriga respublika miqyosida ixtisoslashgan?
A) Qurilish materiallari sanoati
B) Yengil sanoat
C) Metallurgiya sanoati
D) Kimyo va neft-kimyo sanoati

2. Andijon viloyatidagi qaysi shahar (viloyat markazi Andijon shahridan tashqari) viloyatga bo‘ysunuvchi shahar maqomiga ega?
A) Asaka
B) Shahrixon
C) Xonobod
D) Qorasuv

3. Andijon viloyati aholisining milliy tarkibida qaysi millat o‘zbeklardan keyin 2-o‘rinda turadi?
A) Ruslar
B) Tojiklar
C) Qirg‘izlar
D) Koreyslar

4. Qaysi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hajmi bo‘yicha Andijon viloyati respublikada 1-o‘rin egallaydi?
A) Meva va rezavorlar
B) Uzum
C) Kartoshka
D) Paxta

5. Farg‘ona viloyatining tumanlaridan qaysi biri maydoni jihatidan eng katta hisoblanadi?
A) Uchko‘prik
B) Farg‘ona
C) O‘zbekiston
D) Dang‘ara

6. Tinchlik shahri Farg‘ona viloyatining qaysi tumani tarkibiga kiradi?
A) Oltiariq
B) O‘zbekiston
C) Farg‘ona
D) Rishton

7. Farg‘ona viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida qaysi tarmoq eng katta ulushga ega?
A) Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati
B) Kimyo va neft-kimyo sanoati
C) Mashinasozlik va metallni qayta iashlash sanoati
D) Yengil sanoat

8. Quyidagi suv omborlaridan qaysi biri Namangan viloyati hududida joylashgan?
A) Rezaksoy
B) Markaziy Farg‘ona
C) Karkidon
D) Sardoba

9. Namangan viloyatining qaysi tumani bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlarini yetishtirishda respublika miqyosida peshqadam tumanlaridan biri hisoblanadi?
A) Kosonsoy
B) Chortoq
C) Chust
D) Yangiqo‘rg‘on

10. Namangan viloyatining eksporti tovar tarkibida qaysi mahsulot eng katta salmoqqa ega?
A) Meva-sabzavot mahsulotlari
B) To‘qimachilik mahsulotlari
C) Kiyim mahsulotlari
D) Kimyoviy moddalar

19-§. Zarafshon iqtisodiy rayoni

Iqtisodiy rayonning milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Zarafshon iqtisodiy rayoni O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, tarkibida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarini birlashtiradi. Maydoni – 168,1 ming km^2 bo‘lib, respublika hududining 37,4 % ini tashkil qiladi. Bu jihatdan u faqat Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidan kichikroqdir. Aholisining soni, 01.01.2023-y. holatiga ko‘ra, 7183,4 ming kishi, ya’ni respublika jami aholisining 19,9 % ini tashkil etadi (iqtisodiy rayonlar ichida Farg‘ona iqtisodiy rayonidan keyingi 2-o‘rin). Aholi zichligi rayon bo‘yicha o‘rtacha hisobda 42,7 kishi/km^2 ga teng. Aholisining 38,6 % i shahar, 61,4 % i esa qishloq joylarida istiqomat qiladi.

Iqtisodiy rayon transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lgan Zarafshon daryosining o‘rta va quyi qismini o‘z ichiga oladi. Hududining katta qismi Qizilqum cho‘lidan iborat. Samarqand va Navoiy viloyatlarida Nurota va Zarafshon tog‘ tizmalari va ularning tarmoqlari joylashgan. Rayonning cho‘l va tog‘li hududlarida oltin, uran, kumush, volfram, turli nodir metallar, marmar, qimmatbaho toshlar zaxiralariga boy. Umuman olganda, tabiiy-xo‘jalik sharoiti o‘ta xilma-xil bo‘lib, rayon iqtisodiyotining hududiy tarkibiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Zarafshon iqtisodiy rayonining nisbatan qulay markaziy geografik o‘rni, katta mineral xomashyo va mehnat resurslari salohiyati, yaylov yerlarining ko‘pligi, boy va xilma-xil turistik resurslarining mavjudligi uning kuchli tomonlari sanalsa, zaif jihatlari hududining katta qismi cho‘ldan iborat ekanligi, ko‘p hududlarida suv tanqisligi sezilishi bilan bog‘liqdir.

Ushbu rayon hissasiga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 19,7 %, sanoat mahsulotining 25,5 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 26,0 % i to‘g‘ri keladi. Ta’kidlash lozimki, rayonning respublika sanoati va qishloq xo‘jaligidagi ulushi uning mamlakatning jami aholisidagi salmog‘idan yuqori. Zarafshon iqtisodiy rayonining respublika bo‘yicha investitsiya hajmidagi ulushi 23,1 %, chakana savdodagi salmog‘i 18,8 %, pullik xizmatlardagi ulushi 13,1 %, qurilish ishlaridagi hissasi 17,3 %, tashqi savdo aylanmasidagi salmog‘i esa 9,8 % dan iborat (2022-y.).

Zarafshon iqtisodiy rayoni respublika hududiy mehnat taqsimotida, asosan, rangli metallurgiya va yoqilg‘i sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan bo‘lib, shuningdek, mashinasozlik va metallni qayta ishlash (ayniqsa,

avtomobilsozlik), kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Rayon yirik ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligiga ega bo'lib, respublika miqyosida don, paxta, kartoshka, sabzavot, meva va rezavorlar, uzum, go'sht, sut, tuxum, pilla, jun, qorako'l terilari kabi mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan.

Zarafshon iqtisodiy rayoni hududida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab turistik obyektlar mavjud. Bu, albatta, birinchi navbatda, Samarqand va Buxoro shaharlarining noyob tarixiy-madaniy merosi bilan belgilanadi.

Samarqand viloyati. Viloyat 1938-yil 15-yanvar kuni tashkil topgan. Maydoni 16,77 ming km^2 bo'lib, respublika hududining 3,73 % ini tashkil qiladi va bu borada O'zbekiston hududlari orasida 7-o'rinda turadi. Viloyat aholisi, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko'ra, 4118,2 ming kishini tashkil etib, uning respublika jami aholisidagi salmog'i 11,4 % ga teng. Aholi soni bo'yicha Samarqand viloyati O'zbekiston hududlari ichida 1-o'rinni egallaydi. Aholi zichligi viloyat bo'yicha o'rtacha hisobda 245,6 kishi / km^{2}ga teng bo'lib, bu jihatdan viloyat ko'rsatkichi respublika o'rtacha darajasidan 3 barobar katta.

Viloyatning ma'muriy markazi – Samarqand shahri (aholisining soni – 572,8 ming kishi (shahar bo'ysunuvidagi Kimyogarlar, Farxod, Xishrav shaharchalarisiz – 544,6 ming kishi), 1.01.2023-y.).

Samarqand viloyati respublikaning markaziy qismida, Zarafshon daryosining o'rta oqimida joylashgan. Iqtisodiy geografik o'rni tranzitligi hisobiga ancha qulay deb, baholanishi mumkin. Viloyat sharqda Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, shimoli-sharqda Jizzax viloyati, g'arb va shimoli-g'arbda Navoiy viloyati, janubda Qashqadaryo viloyati bilan chegaradoshdir.

Mintaqa hissasiga mamlakatimiz YaIMning 7,0 % i, sanoat mahsulotining 5,3 % i, qishloq xo'jaligi mahsulotining 12,0 % i, chakana savdo aylanmasining 9,4 % i, pullik xizmatlarning 6,3 % i, investitsiyalarning 8,1 % i, qurilish ishlarining 6,9 % i va tashqi savdo aylanmasining 4,8 % i to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, ushbu ko'rsatkichlardan faqatgina viloyatning mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi uning respublika aholisidagi salmog'i (11,4 %) dan yuqori.

Ma'muriy-hududiy bo'linishi. Samarqand viloyati tarkibiga 14 ta qishloq tumani, 11 shahar (2 tasi – Samarqand va Kattaqo'rg'on –

viloyatga bo'ysunuvchi), 88 ta shaharcha va 1901 ta qishloq aholi punkti kiradi (68-jadval).

68-jadval

Samarqand viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi (01.01.2023-holatiga ko'ra)

	Hududi (ming km^2)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Samarqand viloyati	**16,77**	**14**	**11**	**88**	**1901**
Samarqand sh.	0,12		1	3	
Kattaqo'rg'on sh.	0,01		1	1	
qishloq tumanlari:					
Oqdaryo	0,39	1		10	105
Bulung'ur	0,76	1	1	3	143
Jomboy	0,55	1	1	5	152
Ishtixon	0,72	1	1	12	165
Kattaqo'rg'on	1,39	1		8	172
Qo'shrabot	2,16	1		2	137
Narpay	0,44	1	1	3	133
Payariq	1,29	1	2	9	210
Pastdarg'om	0,87	1	1	12	164
Paxtachi	1,38	1		7	132
Samarqand	0,43	1		2	91
Nurobod	4,86	1	1	1	95
Urgut	1,12	1	1	7	115
Toyloq	0,28	1		3	87

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Viloyat tarkibidagi qishloq tumanlari orasida maydoni bo'yicha ancha tafovutlar mavjud. Eng katta tuman (Nurobod, 4,86 ming km^2) eng kichik tuman (Toyloq, 0,28 ming km^2) dan 17,4 barobar yirik. Viloyatning katta tumanlari qatoriga, Nuroboddan tashqari, Qo'shrabot, Kattaqo'rg'on, Paxtachi, Payariq va Urgut tumanlari kiradi. Nisbatan kichik tumanlar sifatida, Toyloq tumani bilan birga, Oqdaryo, Samarqand va Narpay tumanlarini ajratsa bo'ladi.

Mintaqaning 14 ta tumanidan 8 tasining ma'muriy markazi shahar, 6 tasining ma'muriy markazi esa shaharcha maqomiga ega. Payariq tumani tarkibiga tuman markazi Payariq shahridan tashqari yana 1 ta tuman bo'ysunuvidagi shahar – Chelak shahri kiradi.

Eng ko'p shaharchalar Pastdarg'om (12 ta), Ishtixon (12 ta) va Oqdaryo (10 ta) tumanlarida joylashgan. Nurobod tumani tarkibida 1 ta shaharcha (Nurbuloq) mavjud.

Samarqand viloyati respublika hududlari orasida qishloq aholi punktlarining eng ko'p soni bilan ajralib turadi. Tumanlar kesimida qishloqlar soni 87 tadan (Toyloq) 210 tagacha (Payariq) o'zgaradi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Samarqand viloyatining markaziy qismini Zarafshon vodiysi egallaydi. Bu hududda viloyat aholisining aksariyat qismi istiqomat qiladi. Viloyatning shimolida Nurota, G'obduntog', Qaroqchitog' va Oqtog', janubida esa Zarafshon (Chaqilkalon-Qoratepa) tog'lari (eng baland cho'qqilari 2500 metrdan oshadi) joylashgan. Viloyatning janubi-g'arbiy qismi Qarnobcho'l tekisligi va Zirabuloq-Ziyovuddin past tog'lari bilan band. Viloyat hududining relyefi Zarafshon daryosi o'zanidan shimol va janubga tomon hamda daryo oqimiga teskari ravishda g'arbgan sharqqa tomon ko'tarilib boradi.

Viloyatdagi asosiy foydali qazilmalari – oltin, uran, volfram va turli qurilish xomashyosi. Nurota tog'larida Zarmitan yirik oltin koni joylashgan. Volfram rudalari Zirabuloq past tog'lardagi Ingichka konidan qazib olinadi.

Viloyatning asosiy suv manbai Zarafshon daryosi hisoblanadi. Samarqand shahrining yonida Zarafshon 2 ta o'zan – Oqdaryo va Qoradaryoga bo'linadi. Navoiy viloyati bilan chegaraga yetgach, bu 2 ta irmoq yana birlashadi. Natijada Samarqand viloyatining markaziy qismida Miyonkal nomli o'ziga xos orol (aniqrog'i, daryolar oralig'i) vujudga kelgan. Zarafshon daryosi suvidan oqilona foydalanish maqsadida viloyat hududida Kattaqo'rg'on va Oqdaryo suv omborlari barpo etilgan. Shuningdek, viloyat hududidagi kichik soylarda ham qator suv omborlari qurilgan – To'sunsoy, Qorasuv, Qoratepa, Sobirsoy. Samarqand viloyati hududidagi barcha sug'orish tizimlari Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli.

Aholisi va mehnat resurslari. Samarqand viloyatida, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 4118,2 ming kishilik doimiy aholi istiqomat qiladi. Viloyat aholisining soni 1991-2023-yillar mobaynida 1744,1 ming kishiga, yoxud 73,2 % ga ko'paygan.

Samarqand viloyatining aholisi 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 87,1 ming kishiga (2,2 % ga) ko'paygan. Aholining tabiiy ko'payishi 92,3 ming kishi, migratsiya saldosi esa -5,2 ming kishiga teng bo'ldi. Har 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 27,4, o'lim koeffitsiyenti 4,7, tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 22,7 (mamlakat bo'yicha o'rtacha daraja 21,4), ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,2, ko'chib ketish koeffitsiyenti 3,5, migratsiya saldosi -1,3 ga teng bo'lgan (respublika bo'yicha -0,2).

Viloyat aholisining milliy tarkibida 88,5 % o'zbeklarga, 7,1 % tojiklarga, 1,2 % ruslarga, 3,2 % boshqa millatlarga to'g'ri keladi (2021-y.). Tojiklar viloyatning barcha tumanlarida istiqomat qilgan holda, eng

katta qismi Samarqand, Urgut, Pastdarg'om tumanlari va viloyat markaziga to'g'ri keladi. Bu 4 ta ma'muriy birlikda viloyatdagi tojiklarning 58 % i yashaydi. Tojiklarning jami aholi sonidagi eng yuqori ulushi Samarqand (29,2 %), Paxtachi (11,2 %) tumanlari va Samarqand shahrida (9,9 %) qayd qilingan. Ruslar, asosan, Samarqand shahrida yashaydi.

Samarqand viloyatining urbanizatsiya darajasi, 1-yanvar 2023-yil holatga ko'ra, 36,7 % ga teng bo'lib, O'zbekiston bo'yicha tegishli ko'rsatkich (51,0 %) dan ancha past (pastroq ko'rsatkichlar faqat Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida qayd etilgan). Mintaqada shahar aholisining salmog'i 2009-yildagi ma'muriy-hududiy islohot natijasida 25,1 % dan 37,4 % gacha ko'tarildi. Tumanlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Urgut (41,9 %), eng past ko'rsatkich esa Samarqand (6,9 %) tumaniga tegishli.

Viloyat markazi, Samarqand shahri aholi soni jihatidan eng yirik shaharlar (500 ming – 1 mln kishi) toifasiga kiradi, 2 ta shahar (Kattaqo'rg'on (93,4 ming kishi, bo'ysunuvidagi Ingichka shaharchasisiz 80,7 ming kishi) va Urgut (83,3 ming kishi)) o'rta, qolgan 8 ta shahar esa kichik shaharlar toifasiga kiradi. Aholisi soni jihatidan eng kichik shaharlar Nurobod (10,0 ming kishi) va Payariq (11,4 ming kishi) hisoblanadi.

Samarqand shahri ko'p funktsiyali viloyat markazi bo'lib, so'nggi yillarda u ilm-fan, ta'lim, transport, turizm, tibbiy xizmat ko'rsatish sohalarida yirik viloyatlararo markazga aylandi. Shuningdek, ko'plab xalqaro ahamiyatidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlar o'tkazilishi ta'sirida Samarqandning respublika ahamiyatidagi yirik ko'p funktsiyali markazga aylanib bormoqda. Kattaqo'rg'on va Urgut shaharlari ko'p funktsiyali tumanlararo markazlar, Payariq tumanidagi Chelak shahri mahalliy agrosanoat va xizmat ko'rsatish markazi, viloyatdagi qolgan shaharlar esa mahalliy agrosanoat va xizmat ko'rsatish funktsiyali tuman markazlari hisoblanadi.

Samarqand shahri negizida respublikamizdagi yirik shahar aglomeratsiyalaridan biri shakllangan (Bulung'ur, Jomboy, Urgut, Toyloq, Samarqand, Oqdaryo, Pastdarg'om, Payariq tumanlaridagi ko'p aholi manzilgohlari ushbu aglomeratsiya doirasida joylashgan).

Samarqand viloyatida 1 ta qishloq aholisining o'rtacha soni 1370 kishiga teng (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 1606 kishi). Mintaqa tumanlaridan qishloqlarning o'rtacha aholiyligi bo'yicha Toyloq (2175 kishi), Samarqand (2755 kishi) va Urgut (2756 kishi) tumanlari

viloyatning qolgan tumanlaridan keskin farq qiladi. Bu borada eng past ko‘rsatkichlar Oqdaryo (990 kishi), Jomboy (948 kishi), Qo‘shrabot (921 kishi), Paxtachi (917 kishi) va Payariq (912 kishi) tumanlariga tegishli.


Viloyat tumanlari aholi soni jihatidan ancha farq qiladi. Urgut tumani 545,7 ming kishilik aholisi (1.01.2023-y.) bilan nafaqat viloyatda, balki butun mamlakatda 1-o‘rin egallaydi. Urgut tumani O‘zbekistonda aholisi 500 ming kishidan oshgan yagona tuman hisoblanadi. Shuningdek, respublika miqyosida aholi soni bo‘yicha eng yirik tumanlar toifasiga Pastdarg‘om tumani (375 ming kishi) ham mansub. Eng kam sonli aholi esa viloyatning tog‘li qismida joylashgan Qo‘shrabot tumanida (139,1 ming kishi) istiqomat qiladi.

Samarqand viloyatida aholi zichligi 246 kishi / km^{2}ga teng bo‘lib, respublika hududlari orasida Farg‘ona vodiysi viloyatlari va Xorazm viloyatidan keyingi 5-o‘rinda turadi. Mintaqa tumanlaridan eng yuqori aholi zichligi Toyloq (779 kishi / km^2) va Samarqand (618 kishi / km^2) tumanlarida, eng kichik ko‘rsatkichlar esa Qo‘sharabot (64 kishi / km^2) va Nurobod (39 kishi / km^2) tumanlarida qayd qilingan. Demak, aholi zichligi viloyat markazi atroflaridan tog‘ va cho‘l hududlariga tomon kamayib boradi.

Viloyat mehnat resurslarining soni, 2023-yilning boshi holatiga ko‘ra, 2168,4 ming kishiga teng bo‘lib, viloyat aholisi tarkibidagi ulushi 52,6 % ni tashkil etadi (mamlakat bo‘yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslarining 75,4 % ini iqtisodiy faol aholi, 24,6 % ini esa iqtisodiy nofaol aholi tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida iqtisodiyotda band aholining salmog‘i 90,7 %, ishsizlar ulushi esa 9,3 % ga teng.

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko‘p band aholi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (26,0 %), savdo (13,4 %), sanoat (12,0 %), ta’lim (9,9 %), qurilish (8,0 %), tashish va saqlash (5,6 %) hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (5,2 %) kabi sohalarga to‘g‘ri keladi (2022-y.).

Viloyat xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 2022-yil yanvar-dekabr davri uchun 62,44 trln so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 105,8 % ga o‘sgan (respublika bo‘yicha o‘sish 105,7 %). Mintaqaning mamlakat YaIMdagi salmog‘i 7,0 % ga teng bo‘lib, 2010-yilga (8,3 %) nisbatan sezilarli darajada pasaygan. YaHM hajmi bo‘yicha Samarqand viloyati mamlakat hududlari orasida 4-o‘rinda turadi (Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloaytlaridan keyin).



53-rasm. Samarqand viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 49.

Aholi jon boshiga YaHM hajmi 2022-yilda 15,32 mln so‘mni (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etgan bo‘lib, o‘tgan yilga qaraganda 103,2 % ga o‘sgan. Respublikaning 14 ta mintaqasi orasida Samarqand viloyatining bu boradagi reytingi yuqori emas (9-o‘rin).

Samarqand viloyati YaHMning tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining salmog‘i 39,5 % (respublika bo‘yicha 23,4 %), sanoat va qurilishning hissasi 21,5 % (respublika bo‘yicha 31,1 %), xizmatlarning ulushi 36,5 % (respublika bo‘yicha 38,7 %), shuningdek, sof soliqlar ulushi esa 2,5 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ni tashkil etgan. So‘nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi pasayib, boshqa sohalarning ulushi esa ko‘payib bormoqda.

Samarqand viloyati sanoat tarmoqlaridan respublika miqyosida ko‘proq oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati (respublikadagi ulushi 10,2 %), yengil sanoat (7,4 %) hamda mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati (5,6 %) bilan birmuncha ajralib turadi. Ammo ta’kidlash lozimki, viloyatning ixtisoslashuv koeffitsiyenti birorta sanoat tarmog‘i bo‘yicha 1,00 ga yetmaydi.

Ayni paytda viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda respublika hududlari orasida yetakchi o‘rinda turadi. Xususan, Samarqand viloyati kartoshka, uzum, sut va pilla yetishtirish bo‘yicha 1-, don ekinlari, meva va rezavorlar, go‘sht, tuxum yetishtirish bo‘yicha esa 2-o‘rinda turadi. Ixtisoslashuv koeffitsiyenti kartoshka, sabzavot, uzum, sut, tuxum va pilla yetishtirishda yuqori.

Sanoati. Mintaqaning yalpi sanoat mahsuloti hajmi 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 29,4 trln so‘mni tashkil etdi va 2021-yilga nisbatan 109,0 % ga o‘sdi. Respublika sanoati hududiy tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 5,3 % ga teng bo‘lib, bu jihatdan u mamlakatimiz hududlari orasida 5-o‘rinni egallaydi.

Viloyat sanoati tarkibida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 95,6%, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning ulushi 2,7 %, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning salmog‘i 0,9%, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning hissasi 0,8 % ni tashkil qilgan.

Viloyat ishlab chiqaradigan sanoatining tarkibida oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati, yengil sanoat hamda mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati asosiy o‘rin tutadi (69-jadval). Shuningdek, so‘nggi yillarda metallurgiya sanoatining ulushi ham sezilarli darajada

ortgan. Boshqa sanoat tarmoqlaridan qurilish materiallari sanoati hamda kimyo va neft-kimyo sanoatining salmog‘i nisbatan yuqori. Sanoatning ixtisoslashuviga, asosan, mehnat resurslari, iste’mol hamda qishloq xo‘jaligi xomashyosi omillari katta ta’sir ko‘rsatgan.

69-jadval

Samarqand viloyati ishlab chiqaradigan sanoatining tarmoqlar tarkibi (%)

Sanoat tarmoqlari	2010-y.	2022-y.
Yoqilg‘i sanoati	0,1	0,1
Metallurgiya sanoati	3,2	11,9
Kimyo va neft-kimyo sanoati	3,5	3,4
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	19,9	19,0
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati	1,7	1,8
Qurilish materiallari sanoati	4,4	4,2
Yengil sanoat	24,5	21,8
Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati	42,3	37,6
Boshqa tarmoqlar	0,4	0,2

Jadval mualliflar tomonidan Samarqand viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Samarqand viloyatidagi sanoat korxonalari 2022-yil yanvar-dekabr oylari mobaynida 22 ming tonna ma’danli o‘g‘itlar, 162,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni, 17,4 ming tonna tozalangan paxta yog‘i, 57,5 ming tonna paxta tolasi, 228,1 ming litr uzum vinosi, 159,1 ming litr aroq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Samarqand viloyati respublikamizda yuk avtomobillari va avtobuslarni ishlab chiqarish markazi hisoblanadi. Viloyatda 2022-yilda 517,9 mln kWh elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.

Mintaqa sanoati hududiy tarkibida viloyat markazi 45,7 % lik ulushi bilan alohida o‘rin egallaydi. Boshqa hududlardan Samarqand shahri atrofida joylashgan Jomboy (11,0 %), Toyloq (7,7 %), Urgut (7,1 %) va Samarqand (6,9 %) tumanlari nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Jomboyda yuk avtomobillarini ishlab chiqaruvchi “MAN” zavodi faoliyat ko‘rsatadi. Viloyat sanoat ishlab chiqarishidagi eng past ulush Qo‘shrabot (0,4 %) va Nurobod (1,5 %) tumanlariga tegishli.

Qishloq xo‘jaligi. Yuqorida qayd etilgandek, Samarqand viloyati respublika hududlari orasida eng yirik qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Ammo 2010-2022-yillar mobaynida viloyatning mamlakat qishloq xo‘jaligi hududiy tarkibidagi ulushi 17,2 % dan 12,0 % gacha tushib ketdi.

Samarqand viloyatida 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 43,9 trln so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga qaraganda 103,7 % ga o‘sgan.

Mintaqa qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibida 54,3 % dehqonchilik mahsulotlari, 45,7 % esa chorvachilik mahsulotlariga to'g'ri kelgan. Viloyat tumanlari kesimida bu tarmoqlararo nisbat anchagina farq qiladi. Xususan, katta maydondagi yaylov yerlariga ega bo'lgan Nurobod va Qo'shrabot tumanlarida chorvachilikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi salmog'i, mos ravishda, 78,8 % va 62,0 % ni tashkil qiladi. Shuningdek, shahar atrofi xo'jaligiga ixtisoslashgan Samarqand va Toyloq tumanlari qishloq xo'jaligida ham chorvachilik dehqonchilikka qaraganda muayyan ustuvorlikka ega.

Samarqand viloyatining relyef, agroiqlim va gidrografik sharoiti ancha notekis bo'lganligi tufayli uning yer fondi tarkibida turli toifadagi yerlar katta maydonga ega. Xususan, viloyat qishloq xo'jaligi yerlarining 32,7 % qismini ekin yerlar, 5,6 % ini ko'p yillik daraxtzorlar, 61,3 % ini yaylov va pichanzorlar, 0,4 % ini bo'z yerlar tashkil etadi. Nurobod, Qo'shrabot, Payariq, Bulung'ur, Kattaqo'rg'on, Ishtixon tumanlarida lalmikor yerlar katta maydonlarni egallaydi.

Mintaqa yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 57,3 % i dehqon xo'jaliklari, 39,5 % i fermer xo'jaliklari, 3,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yetishtirilgan.

Samarqand viloyatida 2022-yil yakunlari bo'yicha 842,9 ming tonna don (respublika yalpi hosilining 11,4 % i; hududlar orasida 2-o'rin), 258,1 ming tonna paxta (7,8 %; 7-o'rin), 1665,9 ming tonna sabzavot (14,9 %; 2-o'rin), 718,6 ming tonna kartoshka (20,9 %; 1-o'rin), 166,4 ming tonna poliz (6,9 %; 8-o'rin), 368,9 ming tonna meva va rezavorlar (12,4 %; 3-o'rin), 625,4 ming tonna uzum (35,5 %; 1-o'rin), 313,2 ming tonna go'sht (11,5 %; 2-o'rin), 1378,4 ming tonna sut (11,9 %; 1-o'rin), 1281,0 mln dona tuxum (15,7 %; 2-o'rin), 3159,5 tonna pilla (13,0 %; 1-o'rin) yetishtirilgan.

Qishloq xo'jaligi hududiy tarkibida yuqori ulush bilan Kattaqo'rg'on, Urgut, Bulung'ur, Payariq, Ishtixon va Pastdarg'om tumanlari viloyat miqyosida ajralib turadi. Eng kam qishloq xo'jaligi mahsulotlari (Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlarini hisobga olmaganda), Qo'shrabot va Nurobod tumanlariga to'g'ri keladi. Donchilikda Pastdarg'om, Oqdaryo, Kattaqo'rg'on va Payariq tumanlari, kartoshkachilikda Bulung'ur, Urgut, Toyloq va Payariq tumanlari, sabzavot yetishtirishda Bulung'ur, Kattaqo'rg'on va Urgut tumanlari, polizchilikda Payariq, bog'dorchilikda Bulung'ur va Jomboy tumanlari, uzumchilikda Ishtixon va Urgut tumanlari alohida ajralib turadi. Go'sht yetishtirishning katta qismini Urgut, Kattaqo'rg'on va Toyloq tumanlari

ta'minlaydi, sut yetishtirishda Payariq va Kattaqo'rg'on tumanlari, tuxum yetishtirish bo'yicha esa Samarqand tumani yetakchi. Urgut tumanida tamaki yetishtiriladi.

Viloyatning Bulung'ur, Jomboy, Samarqand, Urgut va Toyloq tumanlari paxta yetishtirilmaydigan hududlar bo'lib, sabzavotchilik, kartoshkachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, sut-go'sht qoramolchiligi va parrandachilikka ixtisoslashgan. Nurobod, Qo'shrabot tumanlari hamda Paxtachi tumanining katta qismida tog'oldi-tog' va cho'l-yaylov chorvachiligi rivojlanadi. Bu tumanlarda chorvachilikning boshqa tarmoqlari bilan birga qorako'lchilik ham rivojlangan.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Mintaqa bo'yicha 2022-yilda ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi 22,73 trln so'mni tashkil qilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 6,3 % ni tashkil etib, hududlar orasida u Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan keyin 3-o'rinda turadi. Pullik xizmatlarning hududiy taqsimlanishida viloyat markazi keskin ustunlikka ega (42,8 %). Boshqa hududlardan nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Urgut (6,7 %), Samarqand (6,7 %) va Pastdarg'om (6,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng past ulush Qo'shrabot (2,0 %) va Nurobod (2,0 %) tumanlariga tegishli. Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi viloyatda 5579,2 ming so'mni tashkil etgan holda, Samarqand shahrida bu ko'rsatkich 17115,9 ming so'mga teng, boshqa hududlarda esa 2839,5 ming so'mdan (Urgut tumani) 5759,8 ming so'mgacha (Samarqand tumani) o'zgaradi.

Samarqand viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 25342,5 mlrd so'mni tashkil qilgan (respublikadagi ulushi 9,4 %; hududlar ichida Toshkent shahridan keyingi 2-o'rin). Samarqand shahri hissasiga viloyatdagi jami chakana savdo tovar aylanmasining 40,1 % i to'g'ri keladi. Boshqa hududlardan Urgut (10,1 %), Samarqand (6,0 %) tumanlari va Kattaqo'rg'on shahri (5,8 %) ko'rsatkichlari nisbatan yuqori.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda, chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha 6683,1 ming so'mga teng. Bu borada Samarqand (19263 ming so'm) va Kattaqo'rg'on (17151,9 ming so'm) shaharlarining ko'rsatkichlari viloyat qishloq tumanlarining ko'rsatkichlaridan bir necha barobar yuqoridir.

Samarqand viloyati hududida, 1.01.2023-y. holatiga ko'ra, 120 ta shifoxona muassasasi faoliyat ko'rsatgan. Ulardan 59 tasi, ya'ni salkam yarmi Samarqand shahrida joylashgan. Samarqand tumanida 9 ta, Urgut va Ishtixonda 7 tadan shifoxona faoliyat ko'rsatgan. Shifoxonalarda jami

koykalar o‘rni 16661 ta (40,1 % i viloyat markaziga to‘g‘ri keladi), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 40,4 tani tashkil qiladi.

Viloyatda jami shifokorlar soni 11386 nafar (58,9 % i Samarqand shahrida), o‘rta tibbiyot xodimlari 32154 nafar (41,5 % i viloyat markazida). Har 10 000 aholiga nisbatan 28 nafar shifokor (viloyat markazida 118 nafar), 78 nafar o‘rta tibbiyot xodimi (viloyat markazida 234 nafar) to‘g‘ri keladi.

Samarqand viloyatida 2022-yil oxiriga maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 921 tani (jumladan, nodavlat MTTlar soni 178 tani), ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 155,8 ming nafarni tashkil etgan (1 ta MTTga o‘rtacha hisobda 169 nafar tarbiyalanuvchi mos kelgan). Viloyat bo‘yicha 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi 65,7 % ga teng (respublika bo‘yicha 68,3 %).

Viloyatda 2022/2023-o‘quv yili boshida 1310 ta umumta’lim muassasalari (22 tasi, ya’ni 1,7 % i nodavlat) mavjud bo‘lib, ulardan 20,8 % i bir smenada, 79,2 % i 2 smenada faoliyat olib boradi. Eng ko‘p maktablar Urgut (150 ta) va Pastdarg‘om (130 ta) tumanlarida faoliyat ko‘rsatadi. Maktab o‘quvchilari soni 766,8 ming nafar (2,8 ming nafar nodavlat sektorida), bitta maktabga o‘rtacha 585 ta o‘quvchi to‘g‘ri kelgan. Ta’lim tillari kesimida olganda, 695,6 ming nafar o‘quvchi o‘zbek, 56,4 ming o‘quvchi rus, 12,8 ming o‘quvchi ingliz, 0,2 ming nafar o‘quvchi tojik tillarida tahsil olgan.

Samarqand viloyatida 8 ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, hammasi viloyat markazida joylashgan. Ularda jami 3,3 ming nafar o‘quvchi ta’lim olgan. Shuningdek, viloyatda 37 ta kasb-hunar maktabi (20,7 ming o‘quvchi), 15 ta kasb-hunar kolleji (7,6 ming o‘quvchi) va 23 ta texnikum (19,3 ming o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Mintaqada 2022/2023-o‘quv yili boshida 15 ta oliy ta’lim tashkiloti (o‘tgan o‘quv yili boshiga nisbatan 1 taga ko‘paygan) faoliyat olib borgan bo‘lib, bu jihatdan Samarqand viloyati respublikada poytaxtdan keyingi 2-o‘rinda turadi. Jami OTTlardan 14 tasi davlat, 1 tasi nodavlat mulkchilik shakllariga mansub. Viloyat markazida 12 ta OTT, Kattaqo‘rg‘on shahri, Urgut va Oqdaryo tumanlarida 1 tadan OTT joylashgan. OTTlardagi talabalar soni 84,8 ming nafarga teng bo‘lgan (respublikadagi jami talabalarning 8,4 % i).

E’tirof etish lozimki, Samarqand shahri butun jahonga o‘zining betakror va boy tarixiy-madaniy merosi bilan mashhur bo‘lib, respublikamizda xalqaro va ichki turizm rivojlanishining asosiy markazlaridan biri sanaladi. Samarqand viloyatida 2022-yilda 41 ta

turistik firma va tashkilot faoliyat ko‘rsatgan (Toshkent shahridan so‘ng 2-o‘rin). Mintaqada 2022-yilda 116 ta mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari faoliyat ko‘rsatgan (Toshkent shahri va Buxoro viloyatidan keyingi 3-o‘rin). Undan tashqari, viloyatda 36 ta ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari ham mavjud (respublika hududlari orasida 4-o‘rin).

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Samarqand viloyatida 2022-yil davomida 31,1 mln tonna yuk va 449,7 mln yo‘lovchi tashilgan.

Samarqand shahri yirik temir yo‘l va avtomobil transporti tuguni bo‘lib, viloyatlararo hamda tranzit aloqalarda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Samarqand xalqaro aeroporti ham mamlakatimizni yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan aloqalarni amalga oshirishdagi o‘rni tobora mustahkamlanmoqda.

Samarqand viloyatining 2022-yil yanvar-dekabr oylaridagi tashqi savdo aylanmasi 2384,5 mln AQSH dollarini (jami respublika tashqi savdo aylanmasining 4,8 % i, Toshkent shahri, Toshkent va Andijon viloyatlaridan keyingi 4-o‘rin) tashkil qilgan. Jumladan, eksport 656,1 mln, import esa 1728,4 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan.

Mintaqa tashqi savdo aylanmasidan 21,5 % i Rossiya, 15,7 % i Xitoy, 15,0 % i Qozog‘iston, 7,6 % i Turkiya, 3,4 % i Tojikiston, 3,0 % i Yaponiyaga to‘g‘ri kelgan.

Viloyat eksporti tarkibida sanoat tovarlari (asosan, to‘qimachilik mahsulotlari va qora metallar) 35,8 %, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (asosan, meva va sabzavotlar, ularni qayta ishlash mahsulotlari) 35,0 %, turli xil tayyor buyumlar (asosan, trikotaj mahsulotlari va gilamlar) 7,6 %, mashinalar va transport asbob-uskunalari (asosan, avtotransport vositalari) 7,2 % ini tashkil etadi. Importda esa eng katta ulush sanoat tovarlari (26,9 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (26,1 %), kimyoviy vositalar (25,5 %) va oziq-ovqat mahsulotlari (10,1 %) ga to‘g‘ri keladi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasining asosiy qismini viloyat markazi, Jomboy, Samarqand, Urgut va Toyloq tumanlari ta’minlab beradi.

Ichki tafovutlari. A.S. Soliyevning fikricha Samarqand viloyatida 2 ta mikroiqtisodiy rayon shakllanmoqda: Samarqand (Samarqand shahri, Samarqand, Toyloq, Bulung‘ur, Urgut, Jomboy, Pastdarg‘om, Oqdaryo va Payariq tumanlari) va Kattaqo‘rg‘on (Kattaqo‘rg‘on shahri, Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon, Narpay, Paxtachi, Qo‘shrabot va Nurobod tumanlari). Samarqand mikroiqtisodiy rayoni ko‘p tarmoqli agrosanoat majmuasi, mashinasozlik

sanoati, meva-sabzavotchilik, rekreatsiya va turizmga ixtisoslashgan bo‘lsa, Kattaqo‘rg‘on mikroiqtisodiy rayoni ko‘proq oziq-ovqat sanoati, paxtachilik, donchilik, yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan, oltin, uran, volfram qazib olinishi bilan ajralib turadi. Samarqand mikroiqtisodiy rayonining viloyat xo‘jaligining hududiy tarkibida yaqqol ustunlikka ega.

Navoiy viloyati. Navoiy viloyati O‘zbekistonning eng yosh asosiy ma’muriy-hududiy birligi hisoblanib, dastlab 1982-yil 20-aprel kuni Buxoro va Samarqand viloyatlarining bir guruh tumanlarini birlashtirish asosida tashkil etildi. Sobiq Ittifoqda 1988-yilda amalga oshirilgan ma’muriy-hududiy birliklarning qisqartirilishi doirasida viloyat tugatilib, hududi Buxoro va Samarqand viloyatlari tarkibiga o‘tkazildi. Lekin 27-yanvar 1992-yilda Navoiy viloyati 1982-yildagi chegaralarida qayta tiklandi.

Navoiy viloyati maydonining kattaligi jihatidan O‘zbekiston hududlari orasida Qoraqalpog‘iston Respublikasidan keyingi 2-o‘rinda turadi. Maydoni 111,1 ming km^2 bo‘lib, respublika jami maydonining 24,7 % ini tashkil qiladi. Viloyat maydoni 2018-yilda Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani tarkibidan Konimex tumaniga Zafarobod va Ko‘kcha MFY hududlari o‘tkazilganligi natijasida 0,11 ming km^{2}ga ko‘paygan. Viloyatda, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 1055,5 ming kishilik doimiy aholi yashagan bo‘lib, bu respublika jami aholisining 2,9 % ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km^{2}ga 9,5 kishiga teng bo‘lib, bu borada viloyat O‘zbekiston hududlari orasida eng oxirgi o‘rinda turadi. Shahar aholisining ulushi 49,0 %, qishloq aholisining ulushi esa 51,0 % ga teng.

Viloyatning ma’muriy markazi – Navoiy shahri (aholisining soni – 156,0 ming kishi (Tinchlik shaharchasisiz – 152,2 ming kishi), 1.01.2023-y.).

Navoiy viloyati O‘zbekistonning markaziy va g‘arbiy qismlarida joylashgan. U shimol va shimoli-sharqda Qozog‘iston Respublikasi, g‘arbda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, janub va janubi-g‘arbda Buxoro viloyati, sharqda Jizzax viloyati, janubi-sharqda Samarqand viloyati va chekka janubida qisqa masofada Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh.

Navoiy viloyatiga respublika YaIMning 7,5 % i, sanoat mahsulotining 15,3 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 4,4 % i, chakana savdo aylanmasining 3,7 % i, pullik xizmatlarning 2,5 % i, investitsiyalarning 7,2 % i, qurilish ishlarining 4,2 % i va tashqi savdo aylanmasining 2,5 % i mos keladi. E’tiborlisi, yuqoridagi ko‘rsatkichlarning aksariyati viloyatning respublika jami aholisidagi ulushidan kattaroq.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Navoiy viloyati tarkibiga 8 ta qishloq tumani, 7 ta shahar (3 tasi – Navoiy, Zarafshon, G‘ozg‘on – viloyatga bo‘ysunuvchi), 46 ta shaharcha, 20 ta qishloq fuqarolar yig‘inlari va 582 ta qishloq aholi punkti kiradi (70-jadval). G‘ozg‘on 3.05.2019-yilda shahar maqomini olib, viloyat bo‘ysunuviga o‘tkazilgan bo‘lib, 2023-yil holatiga ko‘ra, mamlakatimizda shahar maqomidagi eng yosh aholi manzilgohi hisoblanadi.

70-jadval

Navoiy viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi (01.01.2023-holatiga ko‘ra)

	Hududi (ming km^2)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq fuqarolar yig‘inlari	Qishloq aholi punktlari
Navoiy viloyati	111,1	8	7	46	20	582
Navoiy shahri	0,06		1	1		
Zarafshon shahri	0,02		1	1		
G‘ozg‘on shahri	0,59		1			
qishloq tumanlari:						
Karmana	0,94	1		5		88
Konimex	9,25	1		5	5	42
Qiziltepa	2,19	1	1	12		123
Navbahor	1,57	1		5		68
Nurota	5,94	1	1	4		55
Tomdi	42,49	1		1	8	24
Uchquduq	46,63	1	1	1	7	13
Xatirchi	1,42	1	1	11		169

Manba: Navoiy viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

To‘laligicha Qizilqum cho‘lida joylashgan Uchquduq va Tomdi tumanlari O‘zbekistondagi 163 ta qishloq tumanlarining maydoni jihatidan eng yirik uchtaligiga kiradi va bu borada Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumanidan keyingi, mos ravishda 2- va 3-o‘rinlarni egallaydi. Konimex va Nurota tumanlari ham maydoni jihatidan katta tumanlar hisoblanadi. Konimex tumani hududi 3 ta alohida qismdan iborat bo‘lib, ma’muriy markazi Zarafshon vodiysida, tumanning asosiy hududi, ma’muriy markazdan Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumani hududi bilan ajralgan holda, Qizilqum cho‘lida, yana bir kichik bo‘lagi esa Navbahor va Nurota tumanlarining chegarasida, Qoratog‘ tizmasining suvayirg‘ich qismida joylashgan. Viloyatning eng kichik – Karmana tumanining maydoni ham salkam 1 ming km^{2}ga teng (70-jadval).

Viloyatdagi 8 ta qishloq tumanidan 4 tasining ma’muriy markazi shahar, 4 tasiniki esa shaharcha maqomiga ega.

Qiziltepa va Xatirchi tumanlarida, mos ravishda, 12 ta va 11 ta shaharcha bo‘lsa, Tomdi va Uchquduq tumanlarida atigi 1 tadan shaharcha joylashgan.

Qishloq aholi punktlari soni esa Tomdi tumanidagi 13 tadan Xatirchi tumanidagi 169 tagacha o‘zgaradi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Navoiy viloyatining hududi tabiiy geografik sharoitidagi kuchli tafovutlar bilan tavsiflanadi. Mintaqa hududining 80 foizdan ko‘proq qismini Qizilqum cho‘li egallaydi, janubi-sharqiy qismida Nurota, Baxiltog‘ va Qoratog‘ tog‘ tizmalari va ularning tog‘oldi tekisliklari, janubida esa Zarafshon daryosining vodiysi joylashgan.

Qizilqum cho‘lining relyefida qumli tekisliklar, mutlaq balandligi 922 metrgacha boradigan bir nechta qoldiq tog‘lari (Tomditov, Bo‘kantov, Yetimtov, Ovminzatov, Qozoqtov va boshqalar) hamda Mingbuloq, Qoraqata, Mo‘lali singari botiqlar mavjud. Mingbuloq botig‘i O‘zbekistonning eng past nuqtasi (-12 m) hisoblanadi.

Navoiy viloyati ulkan mineral resurs salohiyatiga ega. Asosiy foydali qazilmalari – oltin, uran, kumush, nodir metallar, fosforit, asbest, dala shpati, marmardan iborat. Muruntov oltin koni jahon miqyosida eng yirik oltin konlaridan biri hisoblanib, ayrim yillarda qazib olish hajmi bo‘yicha dunyodagi barcha oltin konlar ichida birinchi o‘rinni egallagan.

Qizilqum va Nurota tog‘larining iqlim sharoiti ancha noqulay va keskin. Xususan, qishda havo harorati -20 °C dan ham pastroq darajaga tushadi, yozda esa +45 °C dan oshadi. Kuchli shamollar ko‘p kuzatiladi. Viloyatning cho‘l hududlari Quyosh va shamol energiya resurslariga ancha boy.

Viloyatning asosiy suv manbai – Zarafshon daryosi. Cho‘l va tog‘li hududlarda doimiy oqar suvlar deyarli yo‘q bo‘lib, xo‘jalik va maishiy maqsadlarda, asosan, yer osti va vaqtincha oqar suvlardan foydalaniladi. Viloyat sharqida Aydarko‘l ko‘lining bir qismi joylashgan. Navoiy viloyati hududidagi barcha sug‘orish tizimlari Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli.

Viloyat hududidagi cho‘l geotizimlarini muhofaza qilish va ularning ekoturistik imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadlarida “Markaziy Qizilqum” tabiat bog‘i va “Oqtov-Tomdi” davlat qo‘riqxonasi tashkil etilgan.

Aholisi va mehnat resurslari. Navoiy viloyatida doimiy aholi soni, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 1055,5 ming kishi bo‘lib, viloyat bu borada respublikada faqatgina Sirdaryo viloyatidan oldinda turadi.

Mintaqa aholisining soni 2022-yil davomida 21,6 ming kishiga (2,1 % ga) ko‘paygan. Shunda tabiiy ko‘payish 22,1 ming kishi, migratsiya saldosi esa -0,5 ming kishini tashkil etgan. Har 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 25,1, o‘lim koeffitsiyenti 4,0, tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti 21,1 (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 21,4), ko‘chib kelish koeffitsiyenti 8,2, ko‘chib ketish koeffitsiyenti 8,7, migratsiya saldosi -0,5 ga teng bo‘lgan (respublika bo‘yicha -0,2).

71-jadval

Navoiy viloyati aholisining milliy tarkibi (1.01.2021-y.)

Millatlar	Mutlaq soni, ming kishi	Jami aholidagi ulushi, %
O‘zbeklar	896,3	88,5
Qozoqlar	37,3	3,7
Qoraqalpoqlar	23,7	2,3
Ruslar	16,6	1,6
Tojiklar	14,4	1,4
Boshqa millatlar	25,3	2,5

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Navoiy viloyati aholisining murakkab va xilma-xil milliy tarkibi bilan ajralib turadi (71-jadval). Viloyat aholisining 88,5 % qismini o‘zbeklar tashkil qiladi. Boshqa millatlardan viloyatda qozoqlar, qoraqalpoqlar, ruslar, tojiklar va boshqalar yashaydi. Qozoqlar, asosan, Konimex, Tomdi, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrida istiqomat qilib, Tomdi va Konimex tumanlari aholisi tarkibida eng katta etnik guruhni tashkil qiladi. Qoraqalpoqlar Konimex, Tomdi va Uchquduq tumanlari, Navoiy va Zarafshon shaharlarida istiqomat qiladi. Ruslar, asosan, Navoiy va Zarafshon shaharlari, Uchquduq tumanida yashaydi. Tojiklar ko‘proq Nurota va Qiziltepa tumanlarida istiqomat qiladi.

Navoiy viloyatida shahar aholisining salmog‘i, 2023-yilning boshi holatiga ko‘ra, 49,0 % ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich 2009-yilda viloyatda 30 ta qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berilgandan so‘ng 39,5 % dan 49,6 % gacha ko‘tarilgan edi. Urbanizatsiya darajasi bo‘yicha Navoiy viloyati respublikamizda Farg‘ona vodiysi viloyatlari va Toshkent viloyatidan keyingi 5-o‘rinda turadi. Tumanlar kesimida eng yuqori shahar aholisining salmog‘i Uchquduq (87,5 %, O‘zbekiston qishloq tumanlari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich) va Nurota (56,8 %) tumanlari, eng past ko‘rsatkichlar esa Navbahor (14,3 %) va Xatirchi (22,8 %) tumanlari uchun xos. Qolgan tumanlarning tegishli ko‘rsatkichlari 30-50 % oralig‘ida.

Viloyat markazi – Navoiy shahri – demografik salohiyati bo‘yicha katta shaharlar toifasiga mansub. Zarafshon shahri shu jihatdan o‘rta shahar hisoblanadi (75,4 ming kishi, bo‘ysunuvidagi Muruntov shaharchasi bilan birga 86,5 ming kishi). Mintaqaning qolgan shaharlari kichik shaharlar toifasiga kiradi. Aholisi soni jihatidan eng kichik shaharlar G‘ozg‘on (9,1 ming kishi) va Qiziltepa (12,8 ming kishi) hisoblanadi.

Funktsional jihatdan Navoiy shahri ko‘p funktsiyali viloyat markazi bo‘lib, ko‘plab boshqa viloyat markazlaridan o‘zining yirik ko‘p tarmoqli sanoat ishlab chiqarishi bilan ajralib turadi. Navoiy shahri respublika miqyosida sanoat ishlab chiqarish hajmi eng katta bo‘lgan shaharlar qatoriga kiradi. Zarafshon, Uchquduq va G‘ozg‘on shaharlari tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari (resurs shaharlar, monoshaharlar) hisoblansa, Qiziltepa va Yangirabot shaharlari mahalliy agrosanoat va servis funktsiyali tuman markazlari toifasiga kiradi.

Viloyat kichik va mayda qishloqlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi. O‘rtacha hisobda 1 ta qishloq aholi punktiga 925 kishilik doimiy aholi mos keladi, bu esa O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi (1606 kishi) dan ancha past. Ayniqsa, qishloqlarning o‘rtacha aholi soni Konimex (483 kishi), Tomdi (442 kishi) va Uchquduq (377 kishi) tumanlarida ancha past. Bu borada viloyat tumanlari ichidagi eng yuqori ko‘rsatkich Navbahor tumaniga (1499 kishi) tegishli.

Viloyat tumanlari orasida aholi soni jihatidan yetakchisi Xatirchi tumani hisoblanadi. Bu tumanda 209,8 ming aholi istiqomat qiladi. Mintaqaning cho‘l qismida joylashgan Uchquduq (39,1 ming kishi), Konimex (37,4 ming kishi) va Tomdi (15,8 ming kishi) tumanlarining aholi soni ancha kam. Xususan, Tomdi tumani respublika qishloq tumanlari orasida aholisi eng kam bo‘lgan tuman hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, Konimex va, ayniqsa, Tomdi tumani aholisi soni so‘nggi 30 yilda qozoq millati vakillarining Qozog‘istonga tomon intensiv emigratsiyasi tufayli ancha kamaydi. Masalan, Tomdi tumanida 1991-yilda 28 mingdan ortiq aholi yashagan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib, tuman aholisi soni 16 ming kishiga yetmaydi. Bunday demografik dinamika ko‘rsatkichlari O‘zbekistonning boshqa hech qaysi hududga, hattoki ekologik vaziyati ancha og‘ir bo‘lgan Orolbo‘yidagi tumanlarda ham qayd etilmagan.

Viloyat hududining aksariyat qismini suvsiz cho‘l yerlari egallaganligi tufayli mintaqa bo‘yicha o‘rtacha hisobdagi aholi zichligi juda past (9,5 kishi / km^2) va bu borada u O‘zbekiston hududlari orasida so‘nggi o‘rinda turadi. Tumanlar kesimida bu ko‘rsatkich keskin ravishda

farqlanadi. Aholi zichligining eng yuqori darajasi Xatirchi (147 kishi / km^2) va Karmana (144 kishi / km^2) tumanlari, eng past ko‘rsatkichlari esa Uchquduq (0,8 kishi / km^2) va Tomdi (0,4 kishi / km^2) tumanlari uchun xos. Konimex (4,0 kishi / km^2) va Nurota (14,8 kishi / km^2) tumanlarida ham aholi zichligi past darajada.

Navoiy viloyati mehnat resurslari, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 570,6 ming kishidan iborat bo‘lib, bu raqam viloyat aholisining 54,1 % iga teng (respublika bo‘yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi 78,1 % ini, iqtisodiy nofaol aholi esa 29,9 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida iqtisodiyotda band aholining ulushi 92,0 %, ishsizlar salmog‘i esa 8,0 % ga teng.

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko‘p band aholi sanoat (26,0 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (18,5 %), ta’lim (11,6 %), qurilish (9,8 %), savdo (8,5 %) kabi sohalarga to‘g‘ri keladi (2022-y.). Aholi bandligining tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishining o‘ziga xos jihati sanoatda band bo‘lganlar ulushining yuqoriligida o‘z ifodasini topadi.

Viloyat xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 66,69 trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilga qaraganda 105,5 % ga o‘sdi (respublika bo‘yicha o‘sish 105,7 %). Mintaqaning respublika YaIMdagi ulushi 7,5 % ga teng va bu borada u respublika bo‘yicha Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan so‘ng 3-o‘rinda turadi. E’tirof etish lozimki, viloyatning respublika iqtisodiyoti hududiy tarkibidagi ulushi tobora ortib bormoqda. Xususan, 2000-yilda uning respublika YaIMdagi hissasi 4,5 %, 2010-yilda – 5,5 %, 2022-yilga kelib esa 7,5 % gacha yetgan.

Aholi jon boshiga viloyat YaHM ko‘rsatkichi 2022-yilda 63,68 mln so‘mni (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etib, o‘tgan yilga qaraganda 103,4 % ga o‘sgan. Respublika hududlari orasida Navoiy viloyati aholi jon boshiga hisoblaganda eng yuqori YaHM ko‘rsatkichiga ega.

Viloyat YaHMning tarmoqlar tarkibi ko‘pchilik hududlardan keskin farq qiladi, chunki uning eng katta qismini sanoat va qurilish sektori tashkil etadi. Mintaqa iqtisodiyotida sanoat va qurilishning salmog‘i 71,9 % (respublika YaIMdagi salmog‘i 31,1 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi 13,6 % (respublika YaIMdagi ulushi 23,4 %), xizmatlarning hissasi 12,6 % (respublika bo‘yicha 38,7 %), mahsulotlarga solingan sof soliqlarning ulushi esa 1,9 % (respublika YaIMdagi ulushi


6,8 %) ga teng. Shunday ekan, Navoiy viloyati O‘zbekiston hududlari ichida eng sanoatlashgan iqtisodiyotga ega. Navoiy viloyati YaHM tarkibidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining eng past ulushi (26,8 %) bilan alohida ajralib turadi. Taqqoslash uchun, respublika YaIM tarkibida kichik biznesning ulushi 51,8 %, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida esa tegishli raqam 75 % dan ham yuqori.

Navoiy viloyati respublika miqyosida ko‘p tarmoqli sanoati bilan alohida ajralib turadigan mintaqalardan sanaladi. Xususan, viloyat hissasiga mamlakatning metallurgiya sanoatida 47,3 % (hududlar ichida 1-o‘rin), elektr energetikada 16,3 % (3-o‘rin), kimyo va neft-kimyo sanoatida 11,3 % (4-o‘rin), qurilish materiallari sanoatida 9,2 % (4-o‘rin), mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida 5,6 % (6-o‘rin) to‘g‘ri keladi (2022-y.). Ushbu sanoat tarmoqlarining barchasi bo‘yicha viloyat ixtisoslashuv koeffitsiyenti juda yuqori.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan viloyat respublika miqyosida, asosan, jun va qorako‘l terilarini yetishtirishda yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Xususan, viloyat respublika bo‘yicha qorako‘l terilarining salkam 1/4 qismini ta’minlab beradi. Ammo, ta’kidlash lozimki, viloyatning asosiy dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining deyarli barchasi bo‘yicha ixtisoslashuv koeffitsiyenti 1,00 dan yuqori, ya’ni viloyatning agrar majmuasi uning demografik salohiyatiga to‘liq mos holda rivojlanib bormoqda.

Sanoati. Navoiy viloyatida 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 84,1 trln so‘mga teng bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 104,5 % ni tashkil etgan. Mamlakat sanoatida viloyatning salmog‘i 7,5 % ga teng bo‘lib, bu borada respublika hududlari orasida Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan keyingi 3-o‘rinni egallaydi. Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati, “Navoiyazot”, Elektrkimyo zavodi, Navoiy issiqlik elektr stansiyasi, “Qizilqumsement” singari respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan yirik sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatadi.

Mintaqa sanoatidagi ishlab chiqaradigan sanoat ulushi 80,7 %, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash salmog‘i 13,9 %, elektr energiya, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash hissasi 5,3 %, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish ulushi esa 0,1 % ni tashkil qiladi (2022-y.). E’tiborlisi, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning hissasi boshqa viloyatlarga qaraganda ancha yuqori.



Masshtab 1:2 300 000

54-rasm. Navoiy viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 50.

Viloyat ishlab chiqaradigan sanoatining tarmoqlar tarkibida metallurgiya sanoatning ulushi alohida ajralib turib, 74,4 % ga teng. Qolgan tarmoqlardan kimyo va neft-kimyo (8,6 %), mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati (7,1 %) ning hissasi nisbatan yuqori. Sanoatning tarmoqlar tarkibida 2010-2022-yillarda metallurgiya sanoati hamda mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining salmog'i ancha ko'tarilib, boshqa tarmoqlar ulushi sezilarli darajada pasaydi. Ayniqsa, qurilish materiallari sanoatining jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi keskin pasaydi (18,4 % dan 3,0 % gacha). Demak, viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibi so'nggi yillarda yanada monoprofillashdi.

Navoiy viloyatidagi sanoat korxonalari tomonidan 2022-yilda 61,9 ming tonna kaustik soda, 289,9 ming tonna ammoniy nitrat, 741,4 ming tonna suvsiz ammiak, 228,9 ming tonna karbamid, 3015 ming tonna portlandsement, 6543 ming tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, 54,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni ishlab chiqarilgan. Viloyatda 2022-yil mobaynida 11572,3 mln kWh elektr energiyasi ishlab chiqarilgan (respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 16,3 %).

Mintaqa sanoatining hududiy tarkibida Navoiy shahrining ulushi juda katta ustunlikka ega bo'lib, 84,7 % ni tashkil etadi. Ammo bu joyda shuni hisobga olish joizki, Navoiy va Zarafshon shaharlari, Uchquduq va Konimex tumanlarida faoliyat olib boradigan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining mahsuloti rasmiy statistikada to'liq Navoiy shahri hisobiga yoziladi. Shuning uchun ham Zarafshon shahri va Uchquduq tumanining viloyat sanoati tarkibidagi ulushlari rasman 1 % ga ham yetmaydi. Sanoat ishlab chiqarishida Navoiy shahridan keyingi hissa Karmana tumaniga (9,7 %) tegishli. Boshqa ma'muriy-hududiy birliklarning salmoqlari juda past darajada.

Qishloq xo'jaligi. Navoiy viloyatida 2022-yilda yalpi qiymati 16,1 trln so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirilib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 103,9 % ga o'sgan. Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti bo'yicha viloyat respublika hududlari ichida faqat Sirdaryo viloyatidan oldin turadi, xolos (Toshkent shahrini hisobga olmaganda), mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotning 4,4 % qismini yetishtirgan.

Viloyat agrar mahsulotining tarkibida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 35,5 %, chorvachilik mahsulotlari salmog'i esa 64,5 % ga teng. Ta'kidlash kerakki, chorvachilikning qishloq xo'jaligi

tarkibidagi eng yuqori ulush respublikamiz hududlari ichida aynan Navoiy viloyatida qayd qilingan. Bunga, albatta, viloyat qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibiy xususiyatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Mintaqa qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibida yaylov va pichanzorlar ulushi 98,4 % ni tashkil etadi. Ekin yerlar hissasi 1,4 %, ko'p yillik daraxtzorlar va bo'z yerlar salmog'i esa 0,1 % dan tashkil etadi. Nurota va Xatirchi tumanida hamda G'ozg'on shahrida lalmi yerlar mavjud.

Navoiy viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotining 70,8 % i dehqon xo'jaliklari, 23,6 % i fermer xo'jaliklari, 5,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarga to'g'ri kelgan. Fermer xo'jaliklarining tarmoq mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushi faqatgina Toshkent viloyatida Navoiy viloyatidagidan pastroq darajada.

Navoiy viloyatida 2022-yil yanvar-dekabrda 251 ming tonna don (respublika hosilining 3,1 % i; hududlar orasida 13-o'rin), 115,1 ming tonna paxta (3,3 %; 13-o'rin), 320,2 ming tonna sabzavot (2,9 %; 11-o'rin), 85,6 ming tonna kartoshka (2,5 %; 12-o'rin), 100,5 ming tonna poliz (4,2 %; 13-o'rin), 108,6 ming tonna meva va rezavorlar (3,6 %; 10-o'rin), 90,3 ming tonna uzum (5,1 %; 8-o'rin), 180,6 ming tonna go'sht (6,6 %; 9-o'rin), 520,6 ming tonna sut (4,5 %; 11-o'rin), 385,4 mln dona tuxum (4,7 %; 12-o'rin), 1022,2 tonna pilla (4,2 %; 10-o'rin) yetishtirilgan, 13995 tonna baliq ovlangan (7,9 %, 6-o'rin).

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo'yicha Xatirchi va Qiziltepa tumanlari yetakchilik qiladi. Bu tumanlar dehqonchilikning asosiy mahsulotlarini, shuningdek, go'sht, sut va tuxum yetishtirishda viloyat bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Konimex, Tomdi va Uchquduq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ancha past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, cho'l-yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan, jun va qorako'l terilarni yetishtirish bo'yicha viloyatda alohida ajralib turadi. Nurota tumani cho'l- va tog'-yaylov chorvachiligi hamda lalmi dehqonchiligiga ixtisoslashgan.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Mintaqada 2022-yilda 9247,2 mlrd so'm hajmda pullik xizmatlar ko'rsatilgan. Bu borada viloyatning mamlakatdagi ulushi 2,5 % ga teng bo'lib, hududlardan u faqat Jizzax va Sirdaryodan oldinda turadi. Pullik xizmatlar tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 31,5 %, moliyaviy xizmatlarning salmog'i 21,0 %, transport xizmatlarining ulushi esa 16,2 % ni tashkil etadi, boshqa turdagi xizmatlarning ko'rsatkichlari ancha past.

Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida Navoiy shahrining ulushi 39 %, Karmana tumani salmog'i 14,4 %, Zarafshon shahri hissasi esa 12,3

% ga teng, qolgan hududlarning ko‘rsatkichlari esa ancha pastroq. Eng past ko‘rsatkichlar bu borada Tomdi tumani (1,3 %) va G‘ozg‘on shahri (0,3 %) ga tegishli. Aholi jon boshiga hisoblaganda pullik xizmatlar hajmi viloyatda 8851,5 ming so‘mni tashkil etgan holda, Navoiy va Zarafshon shaharlari, Karmana tumanida mintaqa bo‘yicha o‘rtacha darajadan yuqoriroq ko‘rsatkichlar qayd qilingan.

Mintaqada chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 10101,6 mlrd so‘mga teng bo‘lgan (respublikadagi ulushi 3,7 %; hududlar orasida 11-o‘rin). Viloyat markazining mintaqa chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 35,5 %. Boshqa hududlardan nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Karmana (14,9 %), Xatirchi (11,2 %), Qiziltepa (10,7 %) tumanlari va Zarafshon shahri (9,3 %) ga tegishli.

Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo‘yicha 11711,1 ming so‘mni tashkil etib, Navoiy, Zarafshon, G‘ozg‘on shaharlari, Karmana va Uchquduq tumanlarida tegishli ko‘rsatkich viloyatning o‘rtacha darajasidan yuqoriroq.

Navoiy viloyatida, 1.01.2023-y. holatiga ko‘ra, 40 ta shifoxona muassasasi faoliyat ko‘rsatib, ulardan 18 tasi viloyat markazida joylashgan. Shifoxonalarda koykalar o‘rni 4,4 mingta (43,2 % i viloyat markazida), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa ularning soni 41,7 tani tashkil qiladi (viloyat markazida 126,7 ta). Viloyat bo‘yicha ambulator-poliklinika muassasalari soni 360 tani tashkil etgan holda, 104 tasi (28,9 % i) Navoiy shahrida joylashgan.

Mintaqada shifokorlarning soni 3,6 ming nafar (43,7 % i Navoiy shahrida), o‘rta tibbiyot xodimlari 14,8 ming nafar (31,6 % i Navoiy shahri). Har 10 000 aholiga nisbatan 30 nafar shifokor (viloyat markazida 92 nafar), 140 nafar o‘rta tibbiyot xodimi (viloyat markazida 312 nafar) to‘g‘ri keladi.

Navoiy viloyatida 2022-yil oxirida 305 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) mavjud bo‘lgan, ulardagi tarbiyalanuvchilar 49954 nafarni tashkil etgan (har bir MTTga o‘rtacha hisobda 164 nafar tarbiyalanuvchi). Mintaqada 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 79,7 % ga teng (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 68,3 % ni tashkil qiladi).

Viloyatda 2022/2023-o‘quv yili boshida 374 ta umumta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, ulardan 35,8 % i bir smenada, 64,2 % i ikki smenada faoliyat olib boradi. Eng ko‘p umumta’lim muassasalar Xatirchi (91), Nurota (54) va Qiziltepa (44) tumanlarida joylashgan. Maktab o‘quvchilari soni 187,7 ming nafar, bitta maktabga o‘rtacha 502 ta

o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Viloyat bo‘yicha o‘zbek tilida 161,6 ming nafar, rus tilida 16,1 ming nafar, qozoq tilida 8,2 ming nafar, tojik tilida 0,7 ming nafar, qoraqalpoq tilida 0,3 ming nafar o‘quvchi tahsil olgan. Tomdi tumanida barcha maktablarda ta’lim qozoq tilida olib boriladi. Tojik sinflar Nurota tumanida, qoraqalpoq sinflar Konimex tumanida bor.

Mintaqada 3 ta akademik litsey mavjud bo‘lib, barchasi Navoiy shahrida joylashgan. Ularda jami 1,2 ming nafar o‘quvchi tahsil olgan. Shuningdek, ko‘rilayotgan paytda viloyatda 11 ta kasb-hunar maktabi (6,6 ming o‘quvchi), 4 ta kasb-hunar kolleji (1,7 ming o‘quvchi) va 11 ta texnikum (7,5 ming o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Navoiy viloyatida 2022/2023-o‘quv yili boshida 4 ta oliy ta’lim tashkiloti (2 tasi nodavlat OTT) faoliyat olib borgan bo‘lib, 3 tasi (2 ta davlat, 1 ta nodavlat OTT) Navoiy shahrida, 1 tasi (nodavlat OTT) Karmana tumanida joylashgan. Viloyat OTTlaridagi talabalar soni 30,3 ming nafar bo‘lib, 28,3 ming nafari (barchasi Navoiy shahrida) davlat OTTlarda, 2,0 ming nafari (1,3 nafari Navoiy shahrida, 0,7 ming nafari Karmana tumanida) esa nodavlat OTTlarda tahsil olgan.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Mintaqada 2022-yilda 359 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, hammasi avtomobil transporti hissasiga to‘g‘ri kelgan. Yuk aylanmasi 2014,9 mln tonna-kmni tashkil etgan. Viloyat bo‘yicha yo‘lovchi tashish hajmi 175,0 mln kishini, yo‘lovchi aylanmasi esa 4251,0 mln yo‘lovchi-kmni tashkil qildi. Yuk tashishda Navoiy shahrida ro‘yxatdan o‘tgan transport korxonalarning ulushi 93 %, yo‘lovchi tashishda esa 40,9 % ga teng.

Navoiy viloyatining 2022-yil yakunlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi 1244,6 mln AQSH dollarini (mamlakat tashqi savdo aylanmasining 2,5 % i, hududlar orasida 7-o‘rin) tashkil qilgan. Jumladan, eksport 595,5 mln, import esa 649,2 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan. Qayd etish lozimki, qimmatbaho va nodir metallar eksporti maxsus eksport hisoblanib, rasmiy statistikada hududlarga taqsimlanmasligi hisobga olinsa, aslida Navoiy viloyatiga tegishli bo‘lgan tashqi savdo aylanmasi sezilarli darajada yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Viloyat statistikasida hisobga olingan tashqi savdo aylanmasining 22,6 % i Rossiyaga, 19,8 % i Xitoyga, 16,4 % i Kanadaga, 7,9 % i Qozog‘istonga, 5,5 % Turkiyaga, 5,1 % i Fransiyaga to‘g‘ri kelgan. Eksport, asosan, Kanadaga (33,4 %), Rossiyaga (14,7 %), Xitoyga (12,5 %), Fransiyaga (10,1 %), Turkiyaga (6,5 %), Qirg‘iz Respublikasiga (4,8 %), Turkmanistonga (4,5 %) yo‘naltirilgan. Importning geografik

tarkibida esa asosiy qism Rossiya (29,9 %), Xitoy (26,5 %), Qozog'iston (11,5 %), Yaponiya (4,8 %), Turkiya (4,6 %) ga mos kelgan.

Mintaqa eksporti tarkibida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (61,0 %) hamda sanoat tovarlari (21,1 %) asosiy ahamiyatga ega. Import tarkibida esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (37,4 %), sanoat tovarlari (30,8 %) hamda kimyoviy toifalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (15,1 %) ga to'g'ri kelgan.

Eksportning hududiy tarkibida Navoiy shahriga 70,3 %, Karmana tumaniga esa 12,1 % lik ulush to'g'ri kelsa, importning hududiy tarkibida viloyat markazining hissasi 39 %, Karmana tumanining hissasi esa 48,7 % ni tashkil etgan.

Ichki tafovutlari. Navoiy viloyati hududi 3 ta yirik tabiiy-xo'jalik mintaqaga bo'linadi: cho'l-yaylov chorvachiligi va tog'-kon sanoatiga ixtisoslashgan Qizilqum mintaqasi (Zarafshon shahri, Tomdi, Uchquduq tumani va Konimex tumanining cho'l-yaylov qismi), sug'oriladigan dehqonchilik va ko'p tarmoqli ishlab chiqaradigan sanoatga ixtisoslashgan Zarafshon vodiysi (Navoiy shahri, Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlari, Konimex tumanining voha qismi) hamda tog'-yaylov chorvachiligi, lalmi dehqonchilik va qurilish materiallari sanoatiga ixtisoslashgan Nurota tog'lari va tog' oralig'idagi vodiylari (Nurota tumani, G'ozg'on shahri). Ushbu yirik tabiiy-xo'jalik mintaqalarni Navoiy viloyati ichida mikroiqtisodiy rayonlari sifatida ham ko'rish mumkin.

Navoiy viloyatining ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlarida, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishida viloyat markazining ulushi juda yuqori, ya'ni mintaqa iqtisodiyotining markazlashuv darajasi ancha katta. Navoiy shahrida bir qator yirik sanoat korxonalari, savdo va ijtimoiy obyektlarida atrofidagi tumanlar (shu jumladan, qo'shni Samarqand viloyatining Paxtachi tumani) aholisining katta qismi band bo'lib, kundalik ravishda Navoiy shahri va yaqin tumanlari o'rtasida juda intensiv mayatniksimon migratsion aloqalar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida Navoiy shahar aglomeratsiyasi shakllanmoqda.

Shuningdek, Navoiy IES hamda "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi joylashgan Karmana tumani ham viloyat iqtisodiyotida, ayniqsa, tashqi iqtisodiy aloqalarida sezilarli salmoqqa ega.

Buxoro viloyati. Buxoro viloyati 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan respublikamizning dastlabki viloyatlaridan biri. Hududining maydoni 40,22 ming km^2 bo'lib (2018-yilda Zafarobod va Ko'kcha MFYlar Navoiy viloyati tarkibiga o'tkazilgandan so'ng viloyat maydoni

0,1 ming km^{2}ga kamaygan), mintaqa O'zbekiston jami maydonining 9,0 % ini egallaydi (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatidan keyingi 3-o'rin). Doimiy aholisining soni, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko'ra, 2009,7 ming kishi bo'lib, mamlakat jami aholisining 5,6 % iga teng (hududlar ichida 9-o'rin). Aholi zichligi 50 kishi / km^2. Bu jihatdan viloyat respublika hududlari orasida oxirgidan 3-o'rinni egallaydi.

Viloyatning ma'muriy markazi – Buxoro shahri (aholisining soni – 289,2 ming kishi (tasarrufidagi 14 ta qishloq aholi punktisiz – 264,3 ming kishi), 1.01.2023-y.).

Buxoro viloyati mamlakatimizning janubi-g'arbida, Zarafshon havzasining quyi qismi va Qizilqum cho'lining janubiy qismida joylashgan. U janub va janubi-g'arbda Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati, shimoli-g'arbda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati, shimol va sharqda Navoiy viloyati, janubi-sharqda Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh.

Buxoro viloyati iqtisodiy geografik o'rni hududidan respublikamizni Turkmaniston va u orqali Janubiy Kavkaz va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan bog'laydigan transport yo'llari o'tganligi tufayli ancha qulay hisoblanadi. Buxoro viloyati mamlakatimizning janubi-g'arbiy darvozasi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Buxoro-Miskin temir yo'li qurilgandan so'ng mintaqaning tranzit salohiyati yanada oshdi.

Viloyatning O'zbekiston YaIMdagi ulushi 5,2 %, sanoat mahsulotidagi salmog'i 4,9 %, qishloq xo'jaligi mahsulotidagi hissasi esa 9,6 % ga teng (2022-y.). Mintaqa hissasiga mamlakat jami chakana savdo aylanmasining 5,7 % i, pullik xizmatlarning 4,3 % i, investitsiyalarning 7,8 % i, qurilish ishlarining 6,2 % i va tashqi savdoning 2,5 % i to'g'ri keladi.

Ma'muriy-hududiy bo'linishi. Buxoro viloyati ma'muriy-hududiy jihatdan 11 ta qishloq tumani, 11 ta shahar (2 tasi – Buxoro va Kogon – viloyatga bo'ysunuvchi), 68 ta shaharcha va 1473 ta qishloq aholi punkti kiradi (72-jadval).

Buxoro viloyati hududi yaqqol ravishda 2 qism – Buxoro-Qorako'l vohasi va atrofidagi cho'l-yaylov yerlariga bo'linishi uning ma'muriy birliklarini konfiguratsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Viloyatning aksariyat tumanlari maydon jihatidan kichikroq, lekin demografik sig'imi yuqori bo'lgan sug'oriladigan voha hamda hududiy jihatdan keng, aholisi esa kam sonli va siyrak joylashgan cho'l-yaylov qismlaridan iborat. Bu borada maydonlari nisbatan kichik bo'lgan Vobkent va Kogon tumanlari istisno hisoblanib, ular, asosan, Buxoro vohasi chegaralari doirasida

joylashgan. Viloyatdagi qishloq tumanlaridan maydonining kattaligi bilan Peshko‘ va Qorako‘l tumanlari alohida ajralib turadi. Har ikkalasi viloyat umumiy hududining 20 % idan ko‘proq qismini egallaydi. Romitan tumani hududiy tuzilishining o‘ziga xos xususiyati uning 3 ta alohida qismdan tashkil topganligidir.

72-jadval

Buxoro viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi (01.01.2023-holatiga ko‘ra)

	Hududi (ming km^2)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Buxoro viloyati	**40,22**	**11**	**11**	**68**	**1473**
Buxoro shahri	0,07		1		14
Kogon shahri	0,02		1		
qishloq tumanlari:					
Olot	3,23	1	1	8	62
Buxoro	1,32	1	1	6	162
Vobkent	0,29	1	1	3	186
G‘ijduvon	3,84	1	1	13	252
Kogon	0,50	1		2	134
Qorako‘l	8,69	1	1	12	91
Qorovulbozor	2,20	1	1		6
Peshku	8,72	1		4	131
Romitan	2,45	1	2	3	153
Jondor	5,17	1		9	138
Shofirkon	3,72	1	1	8	144

Manba: Buxoro viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Viloyatdagi 11 ta qishloq tumanidan 9 tasining ma’muriy markazi shahar va faqatgina 2 tasiniki (Peshko‘ va Jondor) shaharcha hisoblanadi. Kogon shahri Kogon tumanining ma’muriy markazi bo‘la turib, tuman tarkibiga kirmaydi va alohida ma’muriy-hududiy birlik hisoblanadi. Romitan tumani tarkibida 2 ta tuman bo‘ysunuvidagi shahar – Romitan va Gazli – mavjud.

Shaharchalarning ko‘pligi bilan G‘ijduvon (13 ta) va Qorako‘l (12 ta) tumanlari alohida ajralib turadi. Qorovulbozor tumanida esa birorta shaharcha mavjud emas.

Qishloq aholi punktlari soni bo‘yicha Buxoro viloyati Samarqand viloyatidan keyingi 2-o‘rinda tursa, 1 ta qishloqqa o‘rtacha hisobda to‘g‘ri keladigan aholi soni (862 kishi) bo‘yicha esa respublika hududlari orasida oxirgi o‘rin egallaydi. Qiziqarli jihati shundaki, O‘zbekiston bo‘yicha qishloqlar soni eng ko‘p (G‘ijduvon, 252 ta qishloq) va eng kam (Qorovulbozor, 6 ta) bo‘lgan tumanlar ham Buxoro viloyatida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Viloyat relyefi, asosan, tekisliklardan iborat. Viloyat relyefi shimol va shimoli-sharqdan janub va janubi-g‘arbga, Amudaryo vodiysiga tomon pasayib boradi. Chekka shimolida Quljuqtov (viloyatning eng baland nuqtasi, 785 m, shu yerda joylashgan) va Beltov qoldiq tog‘lari, shimoli-sharqida Qoratog‘ va Baxiltog‘ tizmalarining tarmoqlari, janubi-sharqida esa Jarqoq platosi joylashgan. Viloyat hududi aksariyat qismining mutlaq balandligi 300 metrdan oshmaydi.

Viloyatning g‘arbiy va janubiy qismlarida neft-gaz va gaz konlari mavjud bo‘lib, ularning ayrimlarida zaxiralar ancha kamaygan bo‘lsa (Gazli, Uchqir va h.k.), ayrimlari yaqin vaqtdan boshlab ishga tushirilgan (Kandim konlari guruhi). Undan tashqari, viloyat hududida turli qurilish xomashyosi ham qazib olinadi. Qurilish xomashyosi ko‘proq Kogon tumani hududidagi kichik ko‘tarilmalarda joylashgan. Quljuqtov tog‘larida grafit (Tasqazgan) va mineral bo‘yoqlar (Jongeldi-Toshquduq) konlari mavjud.

Viloyat hududi, asosan, Amu-Buxoro kanali hisobidan suv resurslari bilan ta’minlanadi. Amu-Buxoro kanal qo‘shni Turkmaniston hududida boshlanib, nasos stansiyalari yordamida suvni viloyat hududiga yetkazadi. Zarafshon daryosi Buxoro vohasining shimoliy tumanlarini sug‘orishda biroz ahamiyatga ega. Viloyatning irrigatsiya xo‘jaligida To‘dako‘l, Quyimozor va Sho‘rko‘l suv omborlari katta ahamiyatga ega. Buxoro viloyati hududidagi barcha sug‘orish tizimlari Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli.

Buxoro viloyatida kollektor-zovur suvlari bilan to‘yinadigan bir nechta tashlama ko‘llar mavjud, Ulardan eng yiriklari Dengizko‘l, Qoraqir, Sho‘rko‘l, Oyoqog‘itma, Xadicha ko‘llari hisoblanib, ayrimlarida qushlarni muhofaza qilishga ixtisoslashtirilgan buyurtma qo‘riqxonalari tashkil etilgan.

Viloyat hududi tabiiy-xo‘jalik xususiyatiga ko‘ra ikki qismga – Buxoro-Qoraqo‘l vohasi hamda Qizilqum va Sandiqli cho‘llariga bo‘linadi.

Aholisi va mehnat resurslari. Buxoro viloyati doimiy aholisi, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 2009,7 ming kishiga teng bo‘lgan. Mintaqa aholisi 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 32,9 ming kishiga, ya’ni 1,7 % ga ko‘paygan. Aholining tabiiy ko‘payishi shunda 35,9 ming kishi, migratsiya saldosi esa -3,0 ming kishini tashkil etgan. Har 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 22,6, o‘lim koeffitsiyenti 4,5, tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti 18,1 (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich

21,4), ko‘chib kelish koeffitsiyenti 3,1, ko‘chib ketish koeffitsiyenti 4,7, migratsiya saldosi -1,6 ga teng bo‘lgan (respublika bo‘yicha -0,2).

73-jadval

Buxoro viloyati aholisining milliy tarkibi (1.01.2021-y.)

Millatlar	Soni, ming kishi	Ulushi, %
O‘zbeklar	1801,9	92,5
Tojiklar	60,9	3,1
Ruslar	25,0	1,3
Qozoqlar	16,5	0,8
Turkmanlar	11,6	0,6
Boshqa millatlar	31,2	1,7

Jadval mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyat aholisining milliy tarkibida o‘zbeklar hissasiga 92,5 % to‘g‘ri keladi (73-jadval). Viloyat aholisi tarkibida 3,1 % lik ulushga ega bo‘lgan tojiklar ko‘proq Buxoro shahri, Peshko‘, Romitan va Shofirkon tumanlarida yashaydi. Ruslar, asosan, Buxoro va Kogon shaharlarida istiqomat qiladi. Qozoqlarning katta qismi Romitan, Peshko‘ va Qorovulbozor tumanlaridagi cho‘l-yaylov hududlarida yashaydi. Turkmanlarning asosiy qismi Buxoro va Qorovulbozor tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Mintaqada shahar aholisining salmog‘i 36,8 %, qishloq aholisining salmog‘i esa, mos ravishda, 63,2 % ga teng. Shahar aholisi salmog‘i jihatidan viloyat respublika hududlari orasida (Toshkent shahri hisobga olinmaganda) 10-o‘rinda turadi. Tumanlar orasida eng yuqori shahar aholisining salmog‘i Qorovulbozor (56,9 % %), eng past ko‘rsatkichi esa Kogon (7,5 %) tumanida qayd etilgan. Ko‘pchilik tumanlarda urbanizatsiya darajasi 10-30 % oralig‘ida.

Viloyat markazi – Buxoro shahrida – 1.01.2023-yil holatiga ko‘ra, 264,25 ming kishi, bo‘ysunuvidagi 14 ta qishloq aholi punkti bilan birgalikda esa 289,2 ming kishi doimiy aholisi mavjud. Bu respublikadagi shaharlar orasida 8-chi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Aholi soni jihatidan Buxoro shahri yirik, Kogon (63,7 ming kishi) o‘rta, viloyatning qolgan shaharlari esa kichik shaharlar toifasiga kiradi. G‘ijduvon shahri (49,4 ming kishi) o‘rta shaharlar toifasiga kirish arafasida. Aholisi soni jihatidan eng kichik shaharlar Gazli (8,3 ming kishi) va Qorovulbozor (11,1 ming kishi) hisoblanadi. Viloyatdagi qolgan 6 ta shaharning har birida 15-26 ming kishilik aholi yashaydi.


Funktsional jihatdan Buxoro shahri ko‘p funktsiyali viloyat markazi, yirik turistik markaz hisoblanadi. Boshqa shaharlardan Kogon sanoat-transport markazi, G‘ijduvon ko‘p funktsiyali tumanlararo markaz, Qorovulbozor va Gazli tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari (resurs shaharlar yoki monoshaharlar), qolgan shaharlar esa mahalliy agrosanoat va servis funktsiyali tuman markazlari hisoblanadi.

Viloyat tumanlarining ko‘pchiligida kichik (aholisi 1000 kishidan kam) qishloqlar keng tarqalgan bo‘lib, o‘rtacha 1 ta qishloqqa to‘g‘ri keladigan aholi soni Kogon tumanidagi 570 kishidan Qorovulbozor tumanidagi 1400 kishigacha o‘zgaradi. Bu raqam Qorovulbozordan tashqari, Olot (1034 kishi), Jondor (1067 kishi) va Qorako‘l (1151 kishi) tumanlarida 1000 kishidan biroz oshadi.

Aholi soni jihatidan G‘ijduvon tumani viloyatda yaqqol ustunlik bilan yetakchi o‘rinda turadi – 317,1 ming kishi. Bu ko‘rsatkich bilan G‘ijduvon respublika qishloq tumanlari orasida ham peshqadamlari qatorida joy olgan. Eng kam aholi soni esa Qorovulbozor tumanida (19,5 ming kishi) istiqomat qiladi. Bu borada O‘zbekiston qishloq tumanlari ichida Qorovulbozor faqatgina Navoiy viloyatidagi Tomdi tumanidan oldinroq turadi. Viloyat tumanlarining ko‘pchiligida doimiy aholisi soni 100-200 ming kishi oralig‘ida.

Aholi zichligi viloyat bo‘yicha 50 kishi / km^2 bo‘lib, respublika hududlari ichida 12-o‘rinda turadi (pastroq ko‘rsatkichlar faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatida qayd qilingan). Eng yuqori ko‘rsatkich bu borada hududi, asosan, sug‘oriladigan yerlardan iborat bo‘lgan Vobkent tumanida qayd etilgan (503 kishi / km^2). Kogon (165 kishi / km^2) va Buxoro (132 kishi / km^2) tumanlarida ham aholi zichligi nisbatan yuqori, boshqa tumanlarida esa 9 kishi / km^2 (Qorovulbozor) dan 83 kishi / km^2 (G‘ijduvon) gacha ko‘rsatkichlariga ega. Albatta, aholi zichligi faqat tumanlarning intensiv o‘zlashtirilgan sug‘oriladigan hududlariga nisbatan hisoblansa, raqamlar keskin ravishda o‘zgarib ketadi.

Mintaqa mehnat resurslarining soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 1074,7 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu jami aholining 53,5 % iga teng (respublika bo‘yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi 79,7 % ni, iqtisodiy nofaol aholi esa 20,3 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida esa iqtisodiyotda band aholining salmog‘i 91,1 %, ishsizlar ulushi esa 8,9 % ga teng.



55-rasm. Buxoro viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 51.

Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko'p band aholi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (28,8 %), qurilish (12,6 %), sanoat (12,0 %), ta'lim (9,5 %), savdo (9,0 %), tashish va saqlash (5,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (5,0 %) kabi sohalarga to'g'ri keladi (2022-y.).

Viloyat xo'jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Buxoro viloyatining YaHM hajmi, 2022-yil yakunlariga ko'ra, 45,8 trln so'mga teng bo'lib, 2021-yilga nisbatan 104,4 % ga o'sgan (respublika bo'yicha o'sish 105,7 %). Respublika YaIMdagi ulushi 5,2 % ga teng (hududlar orasida 8-o'rin). Aholi jon boshiga YaHM hajmi 2022-yilda 22,97 mln so'mni (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 24,92 mln so'm) tashkil etgan bo'lib, hududlar orasida bu jihatdan viloyat 4-o'rinda turadi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida mintaqa YaHMning 42,7 % i (respublika bo'yicha 23,4 %), sanoat va qurilishda 25,0 % i (respublika bo'yicha 31,1 %), xizmatlar sohasida 27,9 % i (respublika bo'yicha 38,7 %) yaratildi, sof soliqlar ulushi esa 4,4 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ni tashkil etgan.

Buxoro viloyati respublika miqyosida, asosan, neftni qayta ishlash sanoati (mamlakat bo'yicha tarmoq mahsulotlarining 81,4 % i, 1-o'rin), yengil sanoat (7,3 % i, 8-o'rin), oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati (5,6 %, 6-o'rin) va qurilish materiallari sanoati (5,5 %, 6-o'rin) rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Mintaqa qishloq xo'jaligi mamlakat miqyosida, asosan, qorako'l terilari (hududlar orasida 1-o'rin), paxta (2-o'rin), uzum (2-o'rin), pilla (2-o'rin), go'sht (3-o'rin), poliz (5-o'rin), meva va rezavorlar (5-o'rin), sut (5-o'rin) va jun (5-o'rin) yetishtirilishi bilan ajralib turadi.

Sanoati. Buxoro viloyatida 2022-yilda 27,2 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan va bu ko'rsatkich o'tgan yilga qaraganda 106,2 % ga o'sgan. Respublika sanoati hududiy tarkibida viloyatning hissasi 4,9 % ni tashkil etadi (2010-yilda 4,4 %) va bu respublika hududlari orasidagi 7-chi ko'rsatkich hisoblanadi.

Mintaqa sanoati tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga 92,5 %, elektr energiya, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hissasiga 3,6 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 3,2 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga esa 0,7 % mos keladi (2022-y.). Mintaqa sanoatining tarmoqlar tarkibida neftni qayta ishlash sanoatining ulushi ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, 48,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, yengil sanoat (22,0 %), oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati (14,5 %), va qurilish materiallari

sanoati (4,5 %) ning salmog'i nisbatan yuqori. Sanoatning tarmoqlar tarkibida so'nggi yillarda asosiy o'zgarish tendensiyasi neftni qayta ishlash sanoati ulushining ko'tarilishi va boshqa asosiy tarmoqlar salmog'ining pasayishidan iborat.

Viloyatdagi eng yirik sanoat korxonasi – Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (Qorovulbozor tumanida joylashgan) tomonidan 2022-yilda 993,4 ming tonna benzin, 317,4 dizel yoqilg'isi, 140,8 ming tonna kerosin, 78,1 ming tonna mazut ishlab chiqarilgan. Shuningdek, viloyatdagi sanoat korxonalari tomonidan 15,4 ming tonna suyultirilgan gaz, 89,5 ming tonna paxta tolasi, 66,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni, 3,6 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i, 317,9 ming litr uzum vinosi, 6807,8 ming litr aroq, 151,6 ming tonna asfaltli aralashmalar, 33,4 ming tonna omuxta-yem ishlab chiqarilgan.

Mintaqa sanoatining hududiy tarkibida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi hisobiga Qorovulbozor tumani 48,4 % lik salmog'i bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, Buxoro shahri (10,9 %), G'ijduvon (6,5 %), Kogon (5,6 %) va Romitan (5,2 %) tumanlarining ulushi nisbatan ajralib turadi. Eng past salmoq Olot (1,3 %), Vobkent (2,0 %) va Peshko' (2,7 %) tumanlariga tegishli.

Qishloq xo'jaligi. Buxoro viloyatida 2022-yilda 34,1 trln so'mlik qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirilgan. Tegishli ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 103,6 % ga o'sgan. Mintaqa respublika qishloq xo'jaligi mahsulotining hududiy tarkibida 9,6 % lik ulushi bilan Samarqand va Andijon viloyatlaridan so'ng 3-o'rinda turadi.

Viloyat qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 52 %, chorvachilik mahsulotlarining salmog'i esa 48 % ga teng. Viloyat tumanlaridan faqat Kogon tumanida chorvachilik mahsulotlari hajmi dehqonchilik mahsulotlar hajmidan ustun.

Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi yerlari tarkibida yaylovlar 91,7 % lik salmoqqa ega, ekin yerlarning ulushi 7,2 %, ko'p yillik daraxtzorlar salmog'i 0,8 %, bo'z yerlarning hissasi 0,3 % ga teng. Bu borada Buxoro viloyati Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatiga o'xshab ketadi. Lekin shunday yer fondi tuzilishiga qaramay, qishloq xo'jaligi tarmoqlar tarkibida dehqonchilik muayyan darajada chorvachilikdan ustun.

Mintaqa agroiqtisodiyoti tarkibida dehqon xo'jaliklarining salmog'i 61,4 %, fermer xo'jaliklarining ulushi 32,5 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarining hissasi esa 6,1 % ni tashkil etadi.

Buxoro viloyatida 2022-yilda 621,5 ming tonna don (respublika hosilining 7,8 % i; hududlar orasida 8-o'rin), 359,3 ming tonna paxta (10,3 %; 2-o'rin), 883,9 ming tonna sabzavot (7,9 %; 7-o'rin), 249,1 ming tonna kartoshka (7,2 %; 7-o'rin), 198,3 ming tonna poliz (5,3 %; 5-o'rin), 289,7 ming tonna meva va rezavorlar (9,7 %; 5-o'rin), 218,7 ming tonna uzum (12,4 %; 2-o'rin), 284,9 ming tonna go'sht (10,5 %; 3-o'rin), 1053,3 ming tonna sut (9,1 %; 5-o'rin), 519,7 mln dona tuxum (6,4 %; 8-o'rin), 2574,4 tonna pilla (10,6 %; 3-o'rin) yetishtirilgan. Ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan mahsulotlardan deyarli barchasini yetishtirish bo'yicha viloyatning ixtisoslashuv koeffitsiyenti 1,00 dan ortiq.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo'yicha Jondor va G'ijduvon tumanlari yetakchi o'rinlarda turadi. Don va sabzavot ekinlarini yetishtirishda Jondor tumani, kartoshkachilik bo'yicha Buxoro, Jondor va Peshko' tumanlari, poliz ekinlarini yetishtirishda Peshko' va Jondor tumanlari, bog'dorchilik va uzumchilikda Jondor va Buxoro tumanlari alohida ajralib turadi. Go'sht va sut yetishtirishda G'ivduvon tumani, tuxum yetishtirishda esa Jondor va Kogon tumanlari viloyat miqyosida alohida ajralib turadi.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Viloyatda 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 15780,0 mlrd so'm hajmda pullik xizmatlar ko'rsatilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 4,3 % ga teng va hududlar orasida u 7-o'rinda turadi. Pullik xizmatlar tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 32,0 %, transport xizmatlarining salmog'i 21,0 %, moliya xizmatlarining ulushi 19,8 % ga teng.

Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida viloyat markazining salmog'i 38,2 % ga teng. Tumanlardan nisbatan yuqori ulush G'ijduvon (12,7 %) va Vobkent (6,7 %) nisbatan yuqori. Eng past ulush Qorovulbozor tumaniga (1,8 %) tegishli. Aholi jon boshiga hisoblaganda pullik xizmatlar hajmi viloyatda 7916,5 ming so'mni tashkil etgan. Buxoro shahri (21007,7 ming so'm), Qorovulbozor tumani (14952 ming so'm) va Kogon shahrining (9077,8 ming so'm) ko'rsatkichlari viloyat bo'yicha o'rtacha darajadan ancha yuqori, boshqa hududlarning tegishli ko'rsatkichlari esa pastroq darajada.

Buxoro viloyatida 2022-yil yakunlari bo'yicha 15522,0 mlrd so'mlik chakana savdo tovar aylanmasi qayd etilgan (respublikadagi ulushi 5,7 %; hududlar orasida 9-o'rin). Viloyat markazining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi salmog'i 35,4 % ni tashkil qiladi. Boshqa hududlardan G'ijduvon tumanining ko'rsatkichi (18,2 %)

nisbatan yuqori. Eng past ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida qayd etilgan (1,8 %).

Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo‘yicha 9125,7 ming so‘mni tashkil etib, Buxoro shahri (22443,7 ming so‘m), Qorovulbozor (17436,2 ming so‘m), G‘ijduvon (10538,9 ming so‘m) tumanlari va Kogon shahrining (9906,8 ming so‘m) ko‘rsatkichlari viloyatning o‘rtacha darajasidan yuqoriroq.

Viloyatda, 2023-yilning boshi holatiga ko‘ra, 95 ta shifoxona muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 46 tasi viloyat markazida, 11 tasi Buxoro tumanida joylashgan. Shifoxonalardagi o‘rinlar soni 9162 ta (48,9 % i Buxoro shahriga to‘g‘ri keladi), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 45,8 tani tashkil qiladi (viloyat markazida 155 ta). Viloyatda ambulator-poliklinika muassasalari soni 586 taga teng bo‘lgan holda, 185 tasi (31,6 % i) Buxoro shahrida, 69 tasi (11,8 % i) G‘ijduvon tumanida faoliyat ko‘rsatadi.

Viloyat bo‘yicha shifokorlarning umumiy soni 6,5 ming nafar (58,5 % i Buxoro shahrida), o‘rta tibbiyot xodimlari 24,6 ming nafar (36,6 % i Buxoro shahrida). Har 10 000 aholiga nisbatan 32 nafar shifokor (viloyat markazida 131 nafar), 122 nafar o‘rta tibbiyot xodimi (viloyat markazida 311 nafar) to‘g‘ri keladi.

Buxoro viloyatida, 2022-yil oxiri holatiga ko‘ra, 593 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lgan. Mintaqada 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 77,6 % ga teng (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 68,3 % ni tashkil qiladi).

Viloyatda 2022/2023-o‘quv yili boshida 577 ta umumta’lim muassasalari (16 tasi, yoxud 2,8 % i nodavlat) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 55,7 % i bir smenada, 44,3 % i esa ikki smenada faoliyat ko‘rsatadi. Eng ko‘p umumta’lim muassasalar G‘ijduvon (74 ta), Shofirkon (58 ta), Qorako‘l (56 ta), Buxoro (56 ta) tumanlari va Buxoro shahrida (57 ta) joylashgan. Maktab o‘quvchilari soni 331,6 ming nafar (3,0 ming nafar nodavlat sektorida), bitta maktabga o‘rtacha hisobda 575 ta o‘quvchi to‘g‘ri kelgan. Tillar kesimida olganda, viloyat bo‘yicha 308,8 ming o‘quvchi o‘zbek, 21,1 ming o‘quvchi rus, 0,7 ming nafar o‘quvchi qozoq, 0,008 ming nafar o‘quvchi tojik tilida tahsil olgan.

Viloyatda 4 ta akademik litsey mavjud bo‘lib, 3 tasi viloyat markazi, 1 tasi Qorako‘l tumanida faoliyat ko‘rsatadi. Ularda jami 1,7 ming nafar o‘quvchi o‘qigan. Shuningdek, mintaqada 20 ta kasb-hunar maktabi (11,0 ming o‘quvchi), 13 ta kasb-hunar kolleji (6,8 ming o‘quvchi) va 13 ta texnikum (7,6 ming o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Buxoro viloyatida 2022/2023-o‘quv yili boshida 11 ta oliy ta’lim tashkiloti (5 tasi davlat, 6 tasi nodavlat OTT) faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, 10 tasi (xususan, 5 ta nodavlat OTT) Buxoro shahrida, 1 ta nodavlat OTT Kogon tumanida joylashgan. Viloyat OTTlaridagi talabalar soni 57,7 ming nafar bo‘lib, ulardan 56,9 ming nafari viloyat markazidagi, 0,8 ming nafari esa Kogon tumanidagi OTTlarda tahsil olgan.

Buxoro jahon miqyosida o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, ko‘plab ziyoratgoh va diniy qadamjolari bilan mashhur shahar. Shu bois, an’anaviy ravishda Buxoro shahri respublikamizda, Samarqand, Toshkent, Xiva shaharlari singari xalqaro va ichki turizmning asosiy maskanlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Viloyatda 2022-yilning yanvar-dekabrida 65,3 mln tonna yuk tashilgan. Yuk aylanmasi 2244,1 mln tonna-kmga teng bo‘lgan. Yuk tashishda eng katta ulush Buxoro shahri (19,6 %), Romitan (14,1 %) va G‘ijduvon (10,5 %) tumanlaridagi transport korxonalariga to‘g‘ri kelgan. Viloyatda tashilgan yo‘lovchilar soni 290,4 mln nafarga teng bo‘lib, yo‘lovchi aylanmasi 9978,5 mln yo‘lovchi-kmni tashkil qildi.

Mintaqaning 2022-yilda tashqi savdo aylanmasi 1227,6 mln AQSH dollariga (mamlakat tashqi savdo aylanmasining 2,5 % i, hududlar orasida 7-o‘rin) teng bo‘ldi. Eksport hajmi 310,2 mln, import esa 917,5 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan.

Tashqi savdo aylanmasining 27,5 % i Rossiyaga, 18,2 % i Turkmanistonga, 12,2 % i Xitoyga, 9,3 % i Qozog‘istonga, 7,6 % Turkiyaga, 5,1 % i Afg‘onistonga, 4,2 % i Eronga to‘g‘ri kelgan. Eksport tarkibida eng katta ulush bilan Rossiya (25,2 %) va Afg‘oniston (20,0 %) alohida ajralib turgan. Import tarkibida Rossiya (28,3 %), Turkmaniston (23,3 %) va Xitoy (15 %) yetakchi o‘rinlarda turadi.

Eksport tarkibida sanoat tovarlari, asosan, to‘qimachilik mahsulotlari (43,1 %), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar, asosan, neft mahsulotlari (22,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan, meva-sabzavot mahsulotlari (11,9 %) asosiy o‘rin egallaydi. Import tarkibida esa eng katta ulush mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar, asosan, xom neft (50,4 %), mashinalar va transport asbob-uskunalar (22,7 %) hamda kimyoviy moddalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (10,1 %) ga to‘g‘ri kelgan.

Eksport va importning hududiy tarkibida Qorovulbozor tumani va Buxoro shahri alohida ajralib turadi.

Ichki tafovutlari. Buxoro viloyati hududi tabiiy-xo‘jalik jihatdan ikkita yirik qismga – Buxoro-Qorako‘l vohasi va uning atrofidagi cho‘l-yaylov mintaqasiga bo‘linadi. Buxoro-Qorako‘l vohasi qadimdan sug‘oriladigan dehqonchilik maqsadlarida o‘zlashtirilgan Zarafshon daryosining deltasida shakllangan. Hozirgi vaqtda voha yerlari, asosan, Amu-Buxoro kanali orqali yetkazilayotgan Amudaryo suvlari bilan sug‘orilmoqda. Buxoro-Qorako‘l vohasi xo‘jaligi ko‘p tarmoqli dehqonchilik va chorvachilik, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan.

Viloyatning cho‘l-yaylov qismi Qizilqum va Sandiqli cho‘llarini qamrab oladi. Uning xo‘jalik majmuasi cho‘l-yaylov chorvachiligi, xususan, qorako‘lchilik, neft-gaz va qurilish materiallari sanoatiga ixtisoslashgan.

Ma’muriy-hududiy birliklar kesimida olganda, viloyat iqtisodiyotining hududiy tarkibida Qorovulbozor tumani viloyatdagi eng yirik sanoat korxonasi va tashqi iqtisodiy aloqalar subyekti hisoblanadigan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi hisobiga alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati, xizmatlar sohasi, ayniqsa, turizm va savdo xizmatlari yaxshi rivojlangan viloyat markazi – Buxoro shahri – ham viloyat xo‘jaligining hududiy tarkibida salmoqli mavqega ega. Qishloq xo‘jaligining hududiy tarkibida esa Jondor, G‘ijduvon, Buxoro, Peshko‘ va Romitan tumanlari katta ahamiyatga ega hududlar hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Zarafshon iqtisodiy rayoni iqtisodiy geografik o‘rniga baho bering. U rayon xo‘jaligini rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlarni yaratadi?
2. Zarafshon iqtisodiy rayoni sanoatining ixtisoslashuvi va uni belgilab beruvchi omillarni izohlang.
3. Samarqand viloyati aholisining joylashuvi qanday omillar ta’sirida shakllangan?
4. Samarqand shahri atrofidagi qishloq tumanlarida qaysi qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan?
5. Samarqand viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida qaysi tarmoqlar yetakchi ahamiyatga ega? So‘nggi yillarda qaysi sanoat tarmog‘ining viloyat sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi sezilarli darajada o‘sdi?
6. Qaysi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda Samarqand viloyati respublika miqyosida katta o‘rin tutadi?
7. Navoiy viloyatining qaysi tumanlari O‘zbekistondagi 3 ta eng yirik qishloq tumanlari qatoriga kiradi?

8. Navoiy viloyati respublika miqyosida qaysi sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi?
9. Navoiy viloyati qanday 3 ta yirik tabiiy-xo‘jalik mintaqaga bo‘linadi?
10. Buxoro viloyatining tumanlari ichida Vonkent va Kogon tumanlari hududiy tuzilishining qanday xususiyati bilan ajralib turadi?
11. Qaysi omil hisobiga Buxoro viloyati sanoatining hududiy tarkibida Qorovulbozor tumani yetakchi o‘rin egallaydi?
12. Buxoro viloyati hududi tabiiy-xo‘lik jihatdan qanday 2 ta yirik qismga ajratiladi?

Test savollari

1. Zarafshon iqtisodiy rayoni quyidagi sanoat tarmoqlarining qaysi biriga respublika miqyosida ixtisoslashgan?
A) Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati
B) Qora metallurgiya
C) Rangli metallurgiya
D) Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati

2. Samarqand viloyatining qishloq tumanlaridan qaysi biri maydoni bo‘yicha eng yirik hisoblanadi?
A) Nurobod
B) Qo‘shrabot
C) Pastdarg‘om
D) Urgut

3. Chelak shahri Samarqand viloyatining qaysi tumani tarkibiga kiradi?
A) Oqdaryo
B) Ishtixon
C) Samarqand
D) Payariq

4. Samarqand viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida qaysi sanoat tarmog‘i eng yuqori salmoqqa ega?
A) Yengil
B) Metallurgiya
C) Mashinasozlik va metallni qayta ishlash
D) Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta yem

5. Navoiy viloyati quyidagi ko‘rsatkichlardan qaysi biri bo‘yicha respublika hududlari orasida so‘nggi o‘rinda turadi?
A) Maydon
B) Aholi soni
C) Aholi zichligi
D) Shahar aholisi salmogi‘

6. Navoiy viloyatida qaysi tumanning hududi 3 ta alohida qismdan tashkil topgan?
A) Tomdi
B) Konimex
C) Nurota
D) Karmana

7. Buxoro viloyati shaharlari orasida viloyat markazidan keyingi 2-o‘rinda qaysi shahar turadi?
A) Romitan
B) Qorovulbozor
C) G‘ijduvon
D) Kogon

8. Buxoro viloyatidagi eng yirik sanoat korxonasi qaysi sanoat tarmog‘iga tegishli?
A) Metallurgiya
B) Yoqilg‘i
C) Qurilish materiallari
D) Mashinasozlik va metallni qayta ishlash

9. Qaysi toifadagi yerlar Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning tarkibida yetakchi ulushga ega?
A) Ekin yerlar
B) Yaylov va pichanzorlar
C) Ko‘p yillik daraxtzorlar
D) Bo‘z yerlar

20-§. Janubiy iqtisodiy rayon

Iqtisodiy rayonning milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Janubiy iqtisodiy rayon respublikamiz janubida joylashgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarini birlashtiradi. Hududi – 48,67 ming km^2 bo‘lib, bu respublika hududining 10,9 foizini tashkil etadi. Aholisi (1.01.2023 y.) – 6288,8 ming kishi. Shahar aholisining ulushi 39,5 foizga teng. Aholi zichligi ko‘rsatkichi 141,6 kishi / km^2.

Rayonning tabiiy sharoitiga tog‘lilik xususiyati xos. Hisor tog‘ tizmasining tarmoqlari bu hududning o‘rtasida joylashgan bo’lib, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini ajratib turadi. Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘li va Katta O‘zbek trakti avtomagistrali ikkita viloyatni o‘zaro bog‘laydi.

Hozirgi vaqtda rayon hosil qiluvchi omillar sifatida uning geografik o‘rni, ya’ni respublikamiz janubida joylashganligidan tashqari, mintaqaning tabiiy-resurs salohiyati, demografik vaziyati, transport tizimi va xo‘jalik an’analari xizmat qiladi. Janubiy iqtisodiy rayon respublikamizda yoqilg‘i, kimyo, yengil sanoat, paxta, g‘alla, pilla, poliz, meva, go‘sht, jun yetishtirish kabi iqtisodiyot tarmoqlari bilan ajralib turadi. Uning hissasiga respublikada ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 11,9 % i, kimyo va neft-kimyo sanoati mahsulotining 9,3 % i, yengil sanoat mahsulotining 11,4 % i mos keladi (2022-y.). Janubiy iqtisodiy rayon don ekinlari, go‘sht, sut yetishtirish, yirik shoxli qoramollar, qo‘y va echkilar bosh soni bo‘yicha respublikada oldingi o‘rinlarda turadi. Shuningdek, rayonning rekreatsiya va turizm borasidagi salohiyati katta.

Qashqadaryo viloyati. Viloyat 1943-yil 20-yanvarda tashkil topgan. Viloyat maydoni 28,57 ming km^2 bo‘lib, u mamlakatimiz umumiy hududining 6,4 % ini tashkil qiladi. Viloyatda, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 3482,3 ming kishi, ya’ni mamlakatimiz aholisining 9,7 % qismi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 km^{2}ga 121,9 kishiga teng. Shahar aholisining ulushi 42,9 %, qishloq aholisining salmog‘i esa 57,1 % ni tashkil etadi.

Viloyatning ma’muriy markazi – Qarshi shahri (aholisining soni – 289,1 ming kishi, 1.01.2023-y.).

Qashqadaryo viloyati respublikaning janubida joylashgan, u shimoli-g‘arbda Buxoro viloyati, shimolda Samarqand va qisqa masofada Navoiy viloyatlari, janubi-sharqda Surxondaryo viloyati bilan chegaradosh. Geosiyosiy mavqei ham o‘ziga xos bo‘lib, viloyatning

hududi g‘arb va janubi-g‘arbda Turkmaniston, shimoli-sharqda esa Tojikiston bilan tutashgan.

Qashqadaryo viloyatining O‘zbekiston YalMdagi salmog‘i 5,6 %, sanoat mahsulotidagi ulushi 4,1 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi hissasi esa 9,3 % ga teng (2022-y.). Shuningdek, respublika jami chakana savdo aylanmasining 6,7 % i, pullik xizmatlarning 4,4 % i, investitsiyalarning 6,0 % i, qurilish ishlarining 5,5 % i va tashqi savdo aylanmasining 1,1 % i Qashqadaryo viloyatiga tegishli.

Viloyat respublika milliy iqtisodiyoti, jumladan, respublika sanoat ishlab chiqarishida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, neft-gaz, elektr energetika va kimyo sanoatida Qashqadaryonning ulushi ancha yuqori. Shuningdek, yengil sanoat ham viloyatda rivojlanib bormoqda.

Qashqadaryo viloyatida mamlakatimizning jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 9 foizdan ko‘proq qismi yetishtiriladi. Ayniqsa, paxta, donli ekinlar yetishtirish, yirik shoxli qoramollar, qo‘y va echkilar, otlar bosh soni bo‘yicha respublikadagi ulushi yuqori.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Qashqadaryo viloyati tarkibiga 14 ta qishloq tumani, 12 shahar (2 tasi – Qarshi va Shahrisabz – viloyatga bo‘ysunuvchi), 117 ta shaharcha va 1042 ta qishloq aholi punkti kiradi (74-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 aprel 2022-yildagi “Qashqadaryo viloyati tarkibida Ko‘kdala tumanini tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-211-son Qarori qabul qilindi. Chiroqchi tumanida yashayotgan aholiga ijtimoiy va maishiy qulayliklar yaratish hamda viloyatda rejalashtirilayotgan o‘zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish, ayniqsa, aholi bandligini ta’minlash maqsadida ushbu tumanning bir qismida Ko‘kdala tumani tashkil qilindi, uning markazi Yettitom (hozirgi kunda – Ko‘kdala) shaharchasi etib belgilandi.

Qishloq tumanlari hududining kattaligi jihatidan bir-biridan keskin darajada farq qiladi. Maydonining ko‘lami bo‘yicha eng katta tuman Dehqonobod tumanidir (4,0 ming km^2), shuningdek, Mirishkor (3,21 ming km^2) va Muborak (3,07 ming km^2) tumanlari ham nisbatan katta maydonga ega. Yuqoridagi 3 ta tuman maydoni birgalikda qo‘shib hisoblaganda, 10,3 ming km^2, yoki viloyat hududining 36,0 foiziga tengdir. Viloyatda maydoni eng kichik tuman Kasbi tumanidir (0,65 ming km^2).

74-jadval

Qashqadaryo viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi (01.01.2023-holatiga ko‘ra)

	Hududi (ming km^2)	Qishloq tumanlari	Shahar-lar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Qashqadaryo viloyati	**28,57**	**14**	**12**	**117**	**1042**
Qarshi sh.	0,08		1	1	0
Shahrisabz sh.	0,05		1		0
qishloq tumanlari:					
G‘uzor	2,66	1	1	5	80
Dehqonobod	4,00	1		3	106
Qamashi	2,66	1	1	5	115
Qarshi	0,91	1	1	15	73
Koson	1,88	1	1	14	66
Kitob	1,75	1	1	13	144
Mirishkor	3,21	1		3	22
Muborak	3,07	1	1	5	15
Nishon	2,11	1	2	9	30
Kasbi	0,65	1		9	49
Ko‘kdala	1,72	1			
Chiroqchi	1,12	1	1	8	127
Shahrisabz	1,62	1		13	101
Yakkabog‘	1,10	1	1	14	114

Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Izoh: Ko‘kdala tumaniga tegishli ayrim raqamlar Chiroqchi tumani ko‘rsatkichlari tarkibiga kiritilgan.

Shaharchalar soni bo‘yicha Qarshi, Yakkabog‘, Koson, Kitob va Shahrisabz tumanlari viloyatda peshqadam. Dehqonobod va Mirishkor tumanlarida ularning soni bor-yo‘g‘i 3 tadan, xolos.

Viloyatda 1042 ta qishloq aholi manzilgohlari mavjud. O‘rta hisobda bitta qishloqda 1910 kishi istiqomat qiladi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Viloyatning yer usti tuzilishi ancha murakkab. Sharqiy qismi tog‘ va tog‘lar orasidagi vodiylar, markaziy qismi adirlar, g‘arbiy qismi esa Qarshi cho‘li tekisligi bilan band. Viloyatning shimoli-sharqiy, sharqiy va janubi-sharqiy hududlari Zarafshon va Hisor tizmalari, Chaqchar tog‘lari bilan o‘ralgan. Umuman olganda, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi, Dehqonobod, Kitob hamda Chiroqchi tumanining shimoli-sharqiy qismi tog‘liklardan iborat. Bu yerda ekstremal tog‘ turizmi, ekoturizm, geologik turizm turlarini rivojlantirish imkoni mavjud. Viloyatning markaziy va g‘arbiy qismlari esa tekisliklardan tashkil topgan (dengiz sathidan 250-500 metr balandlikda). Shunday qilib, mintaqaning yer usti tuzilishi sharqdan g‘arbga tomon pasayib borishi bilan tavsiflanadi.

Viloyat respublikamizda neft va tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Hududda Ko‘kdumaloq, O‘rtabuloq, Muborak, Pomuk va boshqa yirik neft-gaz, Sho‘rtan, Zevardi, G‘uzor, Janubiy Pomuk, Qamashi, Alan, Qo‘ltoq tabiiy gaz, Qo‘shquduq neft konlari mavjud. Viloyatning Dehqonobod tumani turli xil tuz konlari, qurilish materiallari xom ashyosiga boy. Bu borada katta zaxiraga ega bo‘lgan kaliy tuzlarining borligi bu yerda kaliy o‘g‘itlarini ishlab chiqarishga asos bo‘lgan. Kitob-Shahrisabz botig‘ida marmar, g‘isht-cherepitsa xomashyosi va boshqa konlar aniqlangan. Mineral resurs salohiyati bo‘yicha Qashqadaryo viloyati respublikamizning Navoiy hamda Toshkent viloyatlari qatorida turadi hamda tog‘-kon va yoqilg‘i-energetika sanoatini rivojlantirishga ulkan imkoniyatlari mavjudligi bilan ajralib turadi.

Iqlimi kontinental, yog‘in miqdori, ayniqsa, cho‘l mintaqasida juda kam. Tog‘oldi va tog‘li hududlarida yillik yog‘inlar miqdori 800-900 mmgacha yetadi. Bu esa daryolarning to‘yinishiga qulay sharoit yaratadi.

Viloyatda Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, Hisorak, Qalqama, Qamashi, Dehqonobod va boshqa suv omborlari qurilgan. Viloyat g‘arbidagi Qarshi cho‘li yerlarini sug‘orishda asosiy ahamiyatga Qarshi magistral kanali ega. Ushbu kanal Amudaryodan to‘yinadi va qo‘shni Turkmaniston hududidan boshlanadi. Qarshi kanali suvidan samarali foydalanish maqsadida Tallimarjon suv ombori barpo etilgan. Bundan tashqari, viloyatning cho‘l mintaqasi Mirishkor kanali bilan ham sug‘oriladi. Viloyatning shimoliy qismiga, Ko‘kdala va Chiroqchi tumanlariga Zarafshon suvlari Eski Anhor kanali orqali keladi.

Umuman olganda, viloyatning barcha hududida tabiiy sharoit bir xil emas. Uning yuqori qismida tabiiy sharoit bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun ancha qulay bo‘lsa, tekislik qismida esa agroiqlim sharoiti paxta, g‘alla yetishtirish va chorvachilik uchun mos keladi. G‘alla tog‘ etaklarida lalmikor yerlarida sug‘orishsiz yetishtiriladi.


Viloyat rekreatsiya va turistik resurslar bilan ham ajralib turadi. Katta tarixga ega bo‘lgan Shahrisabz, Qarshi shaharlarining xalqaro va mahalliy turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati katta. Shu bilan birga, viloyatda sihatgoh, ziyoratgoh, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar negizida turizmni rivojlantirishning keng imkoniyatlari mavjud.

Aholisi va mehnat resurslari. Qashqadaryo viloyati doimiy aholisining soni, 2023-yil boshi holatiga ko‘ra, 3482,3 ming kishini tashkil etgan. Viloyat aholi soni bo‘yicha respublikada Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridan keyingi 3-o‘rinda turadi. Viloyat aholisi Mustaqillik yillarida (1991-2023-yy.) 1788,2 ming kishiga, yoki yiliga

o‘rta hisobda 55,9 ming kishidan ko‘payib borgan. 2022-yilda esa 74,3 ming kishiga (2,2 %) ko‘paygan.

2023-yil 1-yanvar holatiga, aholi soni bo‘yicha viloyatda Koson tumani oldingi o‘rinda turadi (304,6 ming kishi, viloyatga nisbatan 8,7 %). Shu bilan birga, Yakkabog‘, Chiroqchi, Kitob, Qarshi va Qamashi tumanlarining har birida 250-300 ming aholi istiqomat qiladi. Aholi soni eng kam tuman Muborak hisoblanib, uning aholisi 91,8 ming kishiga teng.

Viloyatda aholi joylashuvida katta hududiy farqlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, viloyat bo‘yicha o‘rtacha zichlik 1 km^2ga 122 kishiga teng bo‘lib, bu raqam tumanlar kesimida 30-321 kishi / km^2gacha o‘zgaradi. Bunda eng yuqori ko‘rsatkich Kasbi tumanida (321 kishi / km^2), eng past ko‘rsatkich esa Muborak tumanida (30 kishi / km^2) qayd etilgan. Umuman olganda, Qashqadaryoning yuqori qismida (Shahrisabz, Yakkabog‘ va Kitob tumanlari) aholi zichligi ancha yuqori, cho‘llik va tog‘lilik xususiyatiga ega Muborak, Mirishkor va Dehqonobod qishloq tumanlarida esa u ancha past.



56-rasm. Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti (2022-yil yakunlari bo‘yicha)

Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti


Viloyatda aholining tabiiy harakati ko‘rsatkichlari boshqa hududlarga qaraganda sezilarli darajada farq qiladi. 2022-yilda tug‘ilganlar soni 98339 kishini, tug‘ilish koeffitsiyenti esa har 1000 kishiga 28,5 kishini tashkil etdi. Bu jihatdan viloyat faqat Surxondaryo viloyatidan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi (respublika bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyenti 26,2 ‰).

Tug‘ilish darajasi bo‘yicha viloyatda katta hududiy farqlar mavjud (56-rasm). Ta’kidlash joizki, viloyatning Chiroqchi tumani bir necha yillar davomida respublikamizda tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori darajada qayd etilayotgan tuman sanaladi (2022-yilda 40,5 ‰). Shuningdek, Dehqonobod (29,7 ‰), Qamashi (29,5 ‰) va Yakkabog‘ (29,4 ‰) tumanlarida ham tug‘ilish ancha yuqori. Ayni vaqtda, umumiy tug‘ilish koeffitsiyenti Shahrisabz shahri (23,7 ‰), Muborak (23,3 ‰), Ko‘kdala (23,7 ‰) va Shahrisabz (24,1 ‰) tumanlarida viloyat darajasidan past. Umuman olganda, viloyat bo‘yicha eng yuqori va past ko‘rsatkichlar orasidagi farq 17,2 ‰ ga teng.

Viloyatda 2022-yilda 17017 ta o‘lim holati qayd etilgan bo‘lib, o‘lim koeffitsiyenti 4,9 promillega teng bo‘lgan. O‘lim ko‘rsatkichining nisbatan yuqori darajasi Dehqonobod (5,7 ‰), Shahrisabz (5,5 ‰), Muborak (5,8 ‰) tumanlari, Qarshi shahri (5,5 ‰) va Qarshi tumanida (6,5 ‰) kuzatilgan.

Aholi tabiiy ko‘payishi tug‘ilish darajasi ta’sirida shakllangan bo‘lib, mintaqa bo‘yicha eng yuqorisi Chiroqchi tumanida, nisbatan pastrog‘i esa Shahrisabz shahri va Muborak tumanida qayd etilgan.

2022-yilda viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 9138 kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 16235 kishini tashkil qilgan. Migratsiya saldosi minus 7097 kishiga teng bo‘lgan. Eng katta minus qoldiqlar Yakkabog‘ (-1112), Qamashi (-1093) va Chiroqchi (-1031) tumanlarida qayd etildi. Umuman olganda, 2022-yilda viloyatda Qarshi tumanidan tashqari barcha qishloq tumanlarida aholi migratsiyasi minus saldoga ega bo‘lgan.



57-rasm. Qashqadaryo viloyati aholisining milliy tarkibi (01.01.2021-yil holatiga)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Qashqadaryo viloyati aholisining milliy tarkibida o‘zbeklarning salmog‘i, 01.01.2021-yil holatiga ko‘ra, 92,9 % ni tashkil qilgan (57-rasm). O‘zbeklardan keyingi 2-o‘rinni 4,1 % bilan tojiklar egallaydi. Shuningdek, viloyatda turkmanlar (1,1 %), ruslar (0,6 %) va boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Tojiklar ulushining yuqoriligi bilan Dehqonobod (25,1 %) va Kitob (11,5 %) tumanlari ajralib turadi. Turkmanlarning eng katta ulushi (23,3 %) Mirishkor tumanida qayd etilgan.

Viloyatning umumiy urbanizatsiya darajasi 42,9 % ni tashkil etadi (2022-y.). Mintaqada jami 12 ta shahar va 117 ta shaharcha mavjud. Viloyat markazi, Qarshi shahrida 289,6 ming kishi, Shahrisabz shahrida 144,9 ming kishi istiqomat qiladi. Boshqa shaharlardan Kosonda 85,8 ming, Kitobda 48,7 ming, Qamashida 47,6 ming aholi yashaydi. Aholisi eng kam bo‘lgan shaharlar Yangi Nishon (16,0 ming kishi) va Tallimarjon (12,9 ming kishi).


Qishloq aholi punktlari soni 1042 ta bo‘lib, ularning aholisi 1990,3 ming kishi. O‘rta hisobda 1 ta qishloqqa 1911 kishidan to‘g‘ri keladi. Intensiv sug‘orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan Qashqadaryoning yuqori zonasida katta qishloqlar shakllangan.

Qashqadaryoda mehnat resurslari soni 1811,0 ming kishidan iborat (2022-y.). Shundan 1339,5 ming kishi iqtisodiy faol aholi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda band aholining asosiy qismi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga (26,5 %) to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, qurilish (13,7 %), savdo (10,7 %), ta’lim (9,8 %) va sanoat (7,0 %) sohalarining aholi bandligi tarkibidagi salmog‘i nisbatan yuqori (2022-y.).

Viloyat xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Qashqadaryo viloyatining YaHM hajmi, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, 49,5 trln so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 105,6 % ga o‘sgan (respublika bo‘yicha o‘sish 105,7 %). Respublika YaIMdagi ulushi 5,6 % ga teng (hududlar ichida 7-o‘rin). Viloyatda aholi jon boshiga olingan YaHM hajmi 2022-yilda 13,37 mln so‘mni (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etgan.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mintaqa YaHMning 39,3 % (respublika bo‘yicha 23,4 %), sanoat va qurilish 23,1 % (respublika bo‘yicha 31,1 %), xizmatlar sohasida 33,0 % (respublika bo‘yicha 38,7 %), sof soliqlar esa 4,6 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ini tashkil etgan. So‘nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining salmog‘i pasayib, sanoat, qurilish va xizmatlarning ulushi ko‘tarildi.



58-rasm. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy xaritasi

Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 52.

Respublika milliy iqtisodiyotida neft-gaz, elektr energetika va kimyo sanoatida Qashqadaryoning ulushi ancha yuqori. Shuningdek, yengil sanoat ham viloyatda rivojlanib bormoqda. Sanoatning hududiy tarkibida Nishon, G'uzor tumanlari va Qarshi shahri yetakchi ko'rsatkichlarga ega.

Viloyat qishloq xo'jaligi mamlakat miqyosida, asosan, don, paxta, go'sht, sut, jun va qorako'l terilari yetishtirilishi bilan nisbatan ajralib turadi.

Sanoati. Viloyat respublika milliy iqtisodiyoti, jumladan, respublika sanoat ishlab chiqarishida o'ziga xos o'rin egallaydi. Xususan, viloyat respublika sanoat mahsulotining 4,1 foiz qismini ta'minlab bermoqda. Ayniqsa, elektr energetika (11,9 %), kimyo va neft-kimyo sanoati (9,3 %) va yengil sanoatda (7,9 %) Qashqadaryoning ulushi yuqori.

Qashqadaryo viloyatining yalpi sanoat mahsuloti hajmi 2022-yilda 22,81 trln so'mga teng bo'lib, oldingi yilga nisbatan 110,5 % ga o'sgan.

Viloyat sanoati tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 68,2 % tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida elektr energetika 23,5 % ni tashkil qiladi. Bunda Tallimarjon IES va Muborak IEMning o'rni katta. Shuningdek, jami sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlar tarkibida yengil sanoat 15,2 %, kimyo va neft-kimyo sanoati 13,4 % (Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Dehqonobod kaliy zavodi va boshqa yirik korxonalar mavjud), oziq-ovqat sanoati 9,9 % ni tashkil qilgan (2022-y.). Ammo mashinasozlik va metallni qayta ishlash, metallurgiya sanoati viloyatda ancha zaif. Demak, viloyat sanoati elektr energetika, kimyo va neft-kimyo, to'qimachilik va tikuvchilik sanoatiga ixtisoslashgan. So'nggi yillarda qurilish materiallari sanoati ko'rsatkichlari ancha yuqori sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Qashqadaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibida eng katta ulush Nishon (22,9 %), G'uzor (15,4 %), Qarshi (7,7 %), Dehqonobod (5,9 %), Koson (4,1%) tumanlari hamda Qarshi shahri (15,3 %) hissasiga to'g'ri keladi. Qolgan hududlarda sanoat ancha sust rivojlangan. Ko'kdala tumani hissasiga viloyat sanoat mahsulotining bor-yo'g'i 0,6 % i, Shahrisabz shahri va tumaniga 1,9 % dan, Chiroqchi tumaniga 2,4 % mos kelgan.

Qishloq xo'jaligi. Qashqadaryo viloyatida 2022-yilda 33,38 trln so'mlik qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga qaraganda 103,7 % ga o'sgan. Yalpi qishloq xo'jaligi

mahsuloti bo‘yicha viloyat respublika hududlari ichida Samarqand, Andijon, Toshkent va Buxoro viloyatlaridan keyingi 5-o‘rinni egallab turib, respublika qishloq xo‘jaligi mahsulotning 9,2 % qismini yetishtirgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 40,7 % ni, chorvachilikning salmog‘i esa 59,3 % tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2857 ming ga, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar jami maydonga nisbatan 74,9 % ni tashkil qiladi. Sug‘oriladigan yerlar 458,6 ming ga, yoki jami qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 21,4 foizini egallaydi. Bunday yerlar eng yuqori ulushi Kasbi (90,6 %) va Qarshi (66,3 %) tumanlarida kuzatiladi. Biroq, Muborak, Shahrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi va Dehqonobod tumanlarida u ancha past.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida ekin maydonlari 31,5 foizni tashkil qiladi. Bu borada Kasbi (87,2 %), Qarshi (67,1 %) tumanlari oldinda, Muborak (12,9 %), Dehqonobod (18,5 %) va Mirishkor (20,2 %) tumanlari esa ohirgi o‘rinlarda turadi.

Qashqadaryo viloyati yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 67,9 % i dehqon xo‘jaliklari, 27,4 % i fermer xo‘jaliklari, 4,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarga to‘g‘ri kelgan. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo‘jaliklarining ulushi ancha yuqori (63,0 %).

2022-yilda viloyatda 13127,8 mlrd so‘mlik dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilgan. Viloyatda 2022-yilda 777,1 ming tonna don (respublika yalpi hosilining 9,7 % i, hududlar orasida 3-o‘rin), 426,7 ming tonna paxta (12,2 %; 1-o‘rin), 518,3 ming tonna sabzavot (4,6 %, 9-o‘rin), 180,2 ming tonna kartoshka (5,2 %, 8-o‘rin), 183,1 ming tonna poliz (7,6 %, 6-o‘rin), 167,3 ming tonna meva va rezavorlar (5,6 %, 7-o‘rin), 105,2 ming tonna uzum (6,1 %, 5-o‘rin) yetishtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo‘yicha Koson, Kasbi, Qamashi, Nishon tumanlari yetakchilik qiladi. Donli ekinlar yetishtirishda Nishon va Kasbi tumanlari, kartoshka va sabzavot yetishtirishda Kitob, Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlari yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, poliz mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha Nishon, Yakkabog‘ va Kasbi tumanlari, meva va rezavorlar bo‘yicha Kitob, Kasbi va Yakkabog‘ tumanlari peshqadamlik qiladi. Kitob tumani uzum yetishtirishga ixtisoslashgani bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, Qarshi cho‘li hududidagi tumanlarda paxta, g‘alla va poliz ekinlari ko‘p miqdorda yetishtirilsa, Kitob, Shahrisabz va

Yakkabog‘ tumanlari kartoshka, sabzavot, meva va uzumning yalpi hosili jihatidan yetakchilik qiladi.

Viloyatning chorvachilik geografiyasi ham o‘ziga xos. 2022-yilda viloyatda 1688,8 ming bosh yirik shoxli qoramollar mavjud bo‘lib (respublikadagi ulushi 12,2 %), bu borada respublikada birinchi o‘rinda, 4919,5 ming bosh qo‘y va echkilar mavjud bo‘lib, bu borada ham Qashqadaryo birinchi o‘rinda, jami respublikadagi ulushi esa 20,8 % ga teng bo‘lgan. Jami otlar soni 35,6 mingta, bu jihatdan Qashqadaryo Toshkent viloyatidan keyingi ikkinchi o‘rinni egallagan.

Viloyat agrosanoat majmuida 315,8 ming t tirik vaznda go‘sht (respublikada 1-o‘rin), 1277,6 ming t sut (Samarqand viloyatidan keyingi 2-o‘rin), 544,5 mln dona tuxum, 2,3 ming t pilla yetishtirilgan, 5151 t baliq ovlangan (2022-y.).

Yirik shoxli qoramollar bosh soni bo‘yicha Koson, Qarshi va Kasbi tumanlari, qo‘y va echkilar bosh soni bo‘yicha Dehqonobod, G‘uzor va Koson tumanlari, otlar bosh soni bo‘yicha esa Qamashi, Dehqonobod va Ko‘kdala tumanlari yetakchilik qiladi. Parrandalar bosh soni bo‘yicha Shahrisabz tumani yakka peshqadam.

Viloyat markazi hamda Shahrisabz atrofida shahar atrofi qishloq xo‘jaligi shakllangan bo‘lib, sabzavot, kartoshka, ko‘katlar yetishtirish yaxshi rivojlangan.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Viloyatda 2022-yil yakunlari bo‘yicha jami 15945,8 mlrd so‘m hajmda pullik xizmatlar ko‘rsatilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 4,4 % ni tashkil etib, hududlar orasida u 6-o‘rinda turadi. Pullik xizmatlar tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 32,2 %, transport xizmatlarining ulushi 21,3 %, moliyaviy xizmatlarning salmog‘i 16,8 % ni tashkil etadi, boshqa turdagi xizmatlarning ko‘rsatkichlari ancha pastroq.

Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida viloyat markazi hissasiga 25,6 %, Qashi tumani hissasiga esa 7,8 % to‘g‘ri keladi. Shuningdek, Kitob (6,9 %) va Koson (6,6 %) tumanlarining ulushi ham birmuncha yuqori. Eng past ko‘rsatkichlar bu borada Ko‘kdala (1,2 %) va Dehqonobod (3,1 %) tumanlariga tegishli.

Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi viloyatda 4628,0 ming so‘mni tashkil etgan holda, Qarshi va Shahrisabz shaharlari, Muborak, Mirishkor va Qarshi tumanlarida viloyat o‘rtacha darajadan yuqori ko‘rsatkichlar qayd qilingan.

Qashqadaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilda 18165,9 mlrd so‘mni tashkil etgan (mamlakatdagi ulushi 6,7 %; hududlar

orasida 6-o‘rin). Qarshi shahrining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 25,5 %, Shahrisabz shahrining ulushi 8,3 %, Chiroqchi tumanining hissasi 8,2 % ga teng bo‘lib, boshqa hududlarning ko‘rsatkichlari pastroq.

Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo‘yicha 5272,4 ming so‘mni tashkil etib, Qarshi shahri ko‘rsatkichi ancha yuqori.

Qashqadaryo viloyatida, 1.01.2023-y. holatiga ko‘ra, 91 ta shifoxona muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 34 tasi viloyat markazida, 8 tasi Kitob tumani, 7 tasi Shahrisabz tumanida faoliyat ko‘rsatadi. Shifoxonalarda koykalar soni 11,6 mingta (42,2 % i Qarshi shahriga to‘g‘ri keladi), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 33,3 tani tashkil qiladi. Viloyat bo‘yicha ambulator-poliklinika muassasalari soni 543 tani tashkil etgan holda, 122 tasi (22,5 % i) Qarshi shahrida, 50 tasi (9,2 % i) Kitob tumanida faoliyat ko‘rsatadi.

Viloyatda shifokorlarning umumiy soni 6600 nafar (36,4 % viloyat markazida), o‘rta tibbiyot xodimlari soni esa 45,0 ming nafar. Har 10 000 aholiga nisbatan 19 nafar shifokor, 119 nafar o‘rta tibbiyot xodimi to‘g‘ri keladi.

Qashqadaryo viloyatida, 2022-yil oxiri holatiga ko‘ra, 557 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan. Mintaqada 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 47,7 % ga teng (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 68,3 % ni tashkil qiladi). Bu borada Qashqadaryo viloyati respublika hududlari orasida so‘nggi o‘rinda turadi.

Viloyatda 2022/2023-o‘quv yili boshida 1220 ta umumta’lim muassasalari (3 tasi nodavlat) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularda 657,3 mingta o‘quvchi tahsil oladi. O‘rta hisobda bitta maktabga 539 ta o‘quvchi mos keladi.

Qashqadaryo viloyatida 7 ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, 4 tasi viloyat markazi, Qarshi shahrida, 1 tasi Shahrisabz shahrida, 1 tadan Qarshi va Shahrisabz tumanlarida joylashgan. Ularda jami 2,2 ming nafar o‘quvchi tahsil olgan. Shuningdek, ko‘rilayotgan paytda viloyatda 35 ta kasb-hunar maktabi (16,6 ming o‘quvchi), 16 ta kasb-hunar kolleji (6,3 ming o‘quvchi) va 12 ta texnikum (9,7 ming o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Viloyatda 2022/2023-o‘quv yili boshida 9 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat olib borgan bo‘lib, 6 tasi Qarshi shahrida, 2 tasi Shahrisabz shahrida va 1 tasi Qarshi tumanida joylashgan. Viloyat OTTlaridagi

talabalar soni 57426 nafar bo‘lib, 46903 nafari Qarshi shahridagi, 9500 nafari Shahrisabz shahridagi OTTlarda va 1023 nafari Qarshi tumanidagi oliygohida tahsil olgan.

Qashqadaryo viloyatida katta rekreatsiya va turistik resurslarning mavjudligi ushbu sohalar rivojlanishining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada Shahrisabz hamda Qarshi shaharlaridagi tarixiy obidalarning ahamiyati katta. Kitob davlat geologik milliy bog‘i, Hazrati Bashir, Sulton Mirhaydar, Isoq-ota, Langar-ota kabi ziyoratgoh va qadamjolar turizmning maxsus turlarini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Transport va tashqi iqtisodiy aloqalari. Qashqadaryo viloyatida 2022-yilda 44,6 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich oldingi yilga nisbatan 105,6 foizga o‘sgan. Yuk aylanmasi 1319,9 tonna-kmni tashkil qilgan.

Tashilgan yuklarning hududiy tarkibida yetakchi o‘rinni Qarshi shahri (7929,3 ming tonna) egallaydi. Shu bilan birga, G‘uzor (4240,5 ming tonna) va Qarshi (4140,5 ming tonna) tumanlarining ko‘rsatkichlari ancha yuqori. Nisbatan kichik hajm Ko‘kdala, Mirishkor va Kasbi tumanlariga tegishli.

Viloyat transport tizimida Toshg‘uzor – Boysun – Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining ahamiyati katta.

Viloyatda neft va gaz sanoatining rivojlanishi barobarida quvur transporti ham shakllangan. Respublikamizning turli qismlariga hamda qo‘shni davlatlarga magistral quvurlar o‘tkazilgan. Xususan, Buxoro neftni qayta ishlash zavodiga, yirik issiqlik elektr stansiyalariga quvur orqali yoqilg‘i yetkazib beriladi.

Viloyat markazi, Qarshi shahrida xalqaro aeroport mavjud bo‘lib, undan nafaqat mahalliy, balki xalqaro reyslar ham amalga oshiriladi.

Qashqadaryo viloyatining 2022-yil yakunlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi 547,5 mln AQSH dollarini (jami respublika tashqi savdo aylanmasining atigi 1,1 %, hududlar orasida qo‘shni Surxondaryo viloyati bilan bir qatorda so‘nggi o‘rin) tashkil qilgan. Jumladan, eksport 303,4 mln, import esa 244,1 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan.

Viloyat tashqi savdo aylanmasining 25,5 % i Turkiyaga, 16,9 % i Rossiyaga, 16,6 % i Xitoyga, 5,3 % i Qozog‘istonga, 4,4 % i Qirg‘iz Respublikasiga to‘g‘ri kelgan. Eksport aloqalari ko‘proq Turkiya (35,8 %) va Rossiya (21,1 %) bilan amalga oshirilgan. Yalpi import tarkibida esa asosiy hajm Xitoy (31,2 %), Turkiya (12,7 %) va Rossiya (11,7 %) hissalariga to‘g‘ri kelgan.

Viloyat eksporti tarkibida sanoat tovarlari, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari (19,7 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (3,6 %), importda esa mashina va uskunalar (60,2 %) yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Ichki tafovutlari. Abdusami Soliyev fikricha, Qashqadaryo viloyatida 3 ta viloyat ichidagi iqtisodiy rayonni ajratish mumkin.

Quyi Qashqadaryo, yoki Qarshi mintaqasi paxta va g‘alla, chorvachilikka, neft-gaz, kimyo sanoati hamda elektr energetikaga ixtisoslashgan. Uning tarkibiga Qarshi shahri, Qarshi, Nishon, Muborak, Koson, Kasbi va Mirishkor tumanlari kiradi.

Yuqori Qashqadaryo, yoki Kitob-Shahrisabz mintaqasida ko‘proq agrosanoat majmuasi rivojlangan. U Shahrisabz shahri, Shahrisabz, Yakkabog‘ va Kitob tumanlarini birlashtiradi.

Chiroqchi, Ko‘kdala, Qamashi, G‘uzor va Dehqonobod tumanlarini O‘rta Qashqadaryo mintaqasi sifatida ajratish mumkin. Bu rayonda sug‘oriladigan va lalmi yerlarda don yetishtirish, tog‘ oldi va tog‘ yaylovlarida chorvachilik asosiy ixtisoslashuv tarmoqlari hisoblanadi. G‘uzor va Dehqonobod tumanlarida yirik kimyo sanoati korxonalari faoliyat ko‘rsatadi, neft va gaz qazib olish rivojlanmoqda.

Yaqin kelajakda ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishini takomillashtirish, mehnat resurslari, rekreasiya va turistik imkoniyatlaridan foydalanish, to‘qimachilik va qurilish sanoati bazasini mustahkamlash, transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Qishloq joylarida sanoatni rivojlantirish va ijtimoiy holatni yaxshilash, aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minlash darajasini oshirish, geoekologik vaziyatni sog‘lomlatirish ham mintaqaviy muammolar sirasiga kiradi.

Surxondaryo viloyati. O‘zbekistonning eng janubida, Surxon-Sherobod vodiysi va Hisor tog‘ tizmasi va janubi-g‘arbiy tarmoqlarining janubiy etaklarida joylashgan. 6 mart 1941-yilda tashkil topgan. Hududi – 20,1 ming km^2. Aholi soni (1.01.2023-y.) – 2806,5 ming kishi. Urbanizatsiya darajasi 36,2 foizga teng va bu jihatdan mintaqa respublikada faqat Xorazm viloyatidan oldingi o‘rinda turadi. Aholi zichligi (1.01.2023-y.) 139,6 kishi/km^{2}ga teng. Ma’muriy markazi – Termiz shahri (195,9 ming kishi, 1.01.2023-y.).

U shimol va sharqda Tojikiston, janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubda, Amudaryo orqali Afg‘oniston bilan, shimoli-g‘arbda esa Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Ta’kidlash joizki, viloyat geosiyosiy o‘rni nuqtai nazaridan alohida ajralib turadi. U birdaniga 3 ta davlat bilan tutashgan (bunday xususiyat mamlakatimizda faqat Toshkent

viloyatiga xos) hamda Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lgan respublikamizning yagona hududidir.

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy geografik o‘rni O‘zbekistonning chekka janubiy qismida, mamlakatimizning aksariyat hududlaridan olisda joylashganligi bois ma’lum darajada noqulay deb, e’tirof etilishi mumkin. Shu bilan birga viloyat hududi orqali Tojikistonning janubiy hududlari hamda Afg‘onistonning shimoliy viloyatlaridan tranzit yuklar o‘tishi Surxondaryo iqtisodiy geografik o‘rnining ustunlik jihatlarini belgilab beradi. Kelajakda Transafg‘on yo‘lak (koridor) ning transport infratuzilmasi ishga tushirilsa, Surxondaryoning tranzit ahamiyati yanada oshib, viloyat respublikamiz va butun Markaziy Osiyo mintaqasining chin ma’noda janubiy “darvozasi”ga aylanadi.

Surxondaryo viloyatining O‘zbekiston YaIMdagi salmog‘i 3,9 %, sanoat mahsulotidagi ulushi 1,3 %, qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi hissasi esa 7,9 % ga teng (2022-y.). Shuningdek, viloyatga respublika jami chakana savdo aylanmasining 6,4 % i, pullik xizmatlarning 3,5 % i, investitsiyalarning 4,3 % i, qurilish ishlarining 5,4 % i va tashqi savdo aylanmasining 0,7 % i mos keladi.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Surxandaryo viloyati tarkibiga 14 ta qishloq tumani, 8 ta shahar (1 tasi – Termiz – viloyatga bo‘ysunuvchi), 112 ta shaharcha va 859 ta qishloq aholi punkti kiradi (75-jadval).

Sariosiyo, Boysun, Sherobod va Qumqo‘rg‘on tumanlari nafaqat Surxondaryo viloyati, balki butun respublikamizda maydoni yirik tumanlar hisoblanadi. Mazkur 4 ta tuman Surxondaryo viloyati jami maydonining 62,3 % ini tashkil qiladi. Shuningdek, Uzun va Jarqo‘rg‘on tumanlari maydoni ham katta. Angor (0,39 ming km^2) va Qiziriq (0,38 ming km^2) tumanlari maydoni eng kichik hisoblanadi. Eng katta maydonga ega Sariosiyo va eng kichik maydonga ega Qiziriq tumanlari orasidagi farq 10,1 martaga teng.

Viloyatdagi 14 ta qishloq tumanidan 6 tasining ma’muriy markazi shahar, 8 tasiniki esa shaharcha maqomiga ega.

Surxondaryo viloyati qishloq tumanlarida jami shaharchalar soni 112 ta. Oltinsoy tumanida 14 ta, Angorda 12 ta, Qumqo‘rg‘on va Denovda 11 tadan, shuningdek, Sho‘rchi va Muzrabotda 10 tadan shaharchalar bor. Bandixon tumanida ularning soni 3 taga teng.

Viloyatda qishloq aholi punktlari soni 859 ta va ularda 1789,8 ming aholi istiqomat qiladi. O‘rta hisobda bitta qishloqqa 2084 nafar kishi mos keladi. Sariosiyo (115 ta) va Denov (106 ta) tumanlari qishloq aholi punktlarining soni ko‘pligi bo‘yicha ajralib turadi.

75-jadval

Surxandaryo viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi (01.01.2023-holatiga ko'ra)

	Hududi (ming km²)	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Surxandaryo viloyati	**20,10**	**14**	**8**	**112**	**859**
Termiz sh.	0,03		1		
tumanlar:					
Oltinsoy	0,57	1		14	46
Angor	0,39	1		12	27
Bandixon	0,68	1		3	40
Boysun	3,21	1	1	4	49
Muzrabot	0,74	1		10	48
Denov	1,15	1	1	11	106
Jarqo'rg'on	1,16	1	1	5	66
Qumqo'rg'on	1,83	1	1	11	76
Qiziriq	0,38	1		5	42
Sariosiyo	3,82	1	1	4	115
Termiz	0,83	1		7	27
Uzun	1,84	1		9	77
Sherobod	2,73	1	1	7	96
Sho'rchi	0,72	1	1	10	44

Manba: Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Viloyat markazi Termiz shahri viloyatga bo'ysunuvchi shahar maqomiga ega. Shahar O'zbekistonning eng janubiy chegasida joylashganligi bilan ajralib turadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Viloyat hududining taxminan 70 foiz maydoni tog' va adirlardan iborat. Hisor tizmasida, Tojikiston bilan chegarada O'zbekistonning eng baland nuqtasi – Hazrat Sulton cho'qqisi joylashgan (4643 m). Surxondaryo relyefining xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Hududining dengiz sathidan balandligi janubdan shimolga tomon 270 metrdan (Amudaryo vodiysi) 4643 metrgacha (Hisor tog' tizmasi) ko'tarilib boradi. Viloyat hududi shimoliy, g'arbiy va sharqiy tomonlaridan baland tog'lar bilan o'ralgan va ularning kirib keladigan sovuq havo oqimlarini to'sib qolishi viloyat iqlimining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo viloyati mamlakatimizning eng janubida joylashganligi sababli uning yozi boshqa mintaqalarga nisbatan ancha issiq va davomli bo'ladi. Harorat respublika bo'yicha eng yuqori, vegetatsiya davri uzoq. Yillik yog'in miqdori ko'p joylarda o'rtacha 130-180 mm, tog' yonbag'irlarida 600 mmgacha yetadi.

Foydali qazilmalardan viloyatda toshko'mir (Sharg'un, Boysun), neft (Xovdog', Kakaydi, Uchqizil, Mirshodi, Jaloir va b.), polimetall rudalari (Xonjiza, Chaqchar), osh tuzi (Xo'jaikon), stronsiy (Sherobod), ohaktosh (Sherobod), turli xil qurilish sanoati xomashyosi (Sayrob, Beshbuloq va b.) kabilar mavjud.

Surxondaryo va Sherobod daryolari viloyat xo'jaligi, shuningdek, aholi joylashuvida muhim rol o'ynaydi. Viloyatning irrigatsiya infratuzilmasi sifatida Janubiy Surxon, Uchqizil, Oqtepa, Degrez, To'palang suv omborlari, Katta Hisor, Amu-Zang, Hazorbog' va boshqa kanallarni ko'rsatish mumkin. Umuman olganda, Surxondaryo viloyati respublikamizda Toshkent viloyati singari suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan hudud hisoblanadi.

Shu bilan birga viloyat o'zining dorivor o'simliklari resurslariga boyligi bilan ham ajralib turadi. Ma'lumotlarga qaraganda, respublika dorivor o'simliklarining 1/3 qismidan ko'prog'i aynan shu viloyatda o'sadi.

Aholisi va mehnat resurslari. Surxondaryo viloyati aholisi soni, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko'ra, 2806,5 ming kishiga teng bo'lib, viloyat bu borada respublikada 8-o'rinda turadi. Viloyat qo'shni Qashqadaryo bilan birgalikda aholisining o'sish bo'yicha mamlakatimizda oldingi o'rinlarda turadi. 1991-yilda viloyat aholisi 1332,0 ming kishiga teng bo'lgan holda, o'tgan 32 yil mobaynida 1474,7 ming kishiga ko'paygan. Xususan, 2022-yilda viloyat aholisi 63,6 ming kishiga (2,3% ga) ko'paygan.

Aholi soni qishloq tumanlari kesimida keskin farq qiladi. Bu borada 409,5 ming aholiga ega Denov tumani yakka peshqadamlik qiladi. Denov tumani nafaqat Surxondaryoda, balki respublikamizdagi Urgut, Pastdarg'om tumanlari qatorida eng ko'p aholiga ega tuman hisoblanadi. Shuningdek, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Sherobod va Sho'rchi tumanlari har birida 200 mingdan ortiq aholi yashaydi. Bandixon va Termiz tumanlarida mos holda, 80,8 va 82,2 ming aholi yashaydi.

Aholi zichligi viloyat bo'yicha 139,6 kishi / km² bo'lib, tumanlar kesimida u katta farq qiladi. Eng yuqori ko'rsatkich Denov tumaniga (541 kishi / km²) to'g'ri keladi, shuningdek, u Angor (362 kishi / km²) va Oltinsoy (331 kishi / km²) tumanlarida ham ancha yuqori. Sho'rchi, Qiziriq, Jarqo'rg'on va Muzrabot tumanlarining bu boradagi ko'rsatkichlari viloyat darajasidan yuqori. Aksincha, Boysun, Sariosiyo, Sherobod va Termiz tumanlarida 100 kishiga ham yetmaydi.

76-jadval

Surxondaryo viloyati aholisining tabiiy va migratsion harakati (2022-yil)

	Aholining tabiiy harakati, ‰ hisobida			Aholining mexanik harakati, kishi hisobida		
	Tug‘ilish	O‘lim	Tabiiy ko‘payish	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya qoldig‘i
Surxondaryo viloyati	**29,4**	**5,0**	**24,4**	**9577**	**14007**	**-4430**
Termiz sh.	28,6	5,5	23,1	3214	1505	1709
tumanlar:						
Oltinsoy	28,7	5,1	23,6	210	692	-482
Angor	28,6	6,5	22,1	610	700	-90
Bandixon	31,9	5,8	26,1	297	323	-26
Boysun	27,6	5,0	22,6	306	741	-435
Muzrabot	28,8	4,0	24,8	406	865	-459
Denov	30,0	4,3	25,7	677	1513	-836
Jarqo‘rg‘on	30,4	5,3	25,1	563	1085	-522
Qumqo‘rg‘on	30,4	5,1	25,3	410	1141	-731
Qiziriq	29,7	5,0	24,7	364	875	-511
Sariosiyo	28,2	3,6	24,6	342	927	-585
Termiz	30,1	5,3	24,8	826	892	-66
Uzun	29,0	5,1	23,9	377	915	-538
Sherobod	27,9	5,6	22,3	583	971	-388
Sho‘rchi	30,8	5,3	25,5	392	862	-470

Jadval mualliflar tomonidan Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi sonining ortib borishiga tabiiy ko‘payish hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Surxondaryo viloyatida 2022-yilda 81598 nafar tug‘ilish qayd etilgan, har 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 29,4 promille bo‘lgan (76-jadval). Viloyatning Bandixon, Sho‘rchi, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Denov, Termiz va Qumqo‘rg‘on tumanlarida tug‘ilish koeffitsiyenti viloyat ko‘rsatkichidan yuqori. 2022-yilda 13,8 mingta o‘lim holati qayd etilgan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etgan.

Respublikamizning boshqa viloyatlari singari, Surxondaryoda ham migratsiya qoldig‘i manfiy xususiyatga ega. Viloyatga 2022-yilda 9577 kishi ko‘chib kelgani holda, 14007 kishi ko‘chib ketgan, migratsiya qoldig‘i minus 4430 kishiga teng. Tahlillar ko‘rsatishicha, viloyat markazi Termiz shahridan tashqari barcha tumanlarda migratsiya manfiy qoldiqqa ega bo‘lgan.

Viloyat aholisining 84,5 % i o‘zbeklar, 12,5 % i tojiklar, 3 % i boshqa millat vakillaridan iborat (01.01.2021-y.). Surxondaryo viloyati O‘zbekiston hududlari orasida tojiklarning mutlaq soni va jami aholi tarkibidagi ulushi jihatidan birinchi o‘rinda turadi. Mintaqada

respublikamiz tojik aholisining 1/5 qismi istiqomat qiladi. Tojiklarning ulushi Boysun, Sariosiyo, Uzun va Denov tumanlari aholisi tarkibida ancha yuqori. Shuningdek, Termiz shahri, Termiz, Angor va Muzrabot tumanlarida turkmanlarning aholi tarkibidagi ulushi nisbatan yuqoridir.

Surxondaryo viloyatida mehnat resurslarining soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 1468,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu viloyat aholisining 52,3 % iga teng (respublika bo‘yicha mehnat resurslarining jami aholidagi ulushi 54,2 %). Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi 1105,3 ming kishini tashkil etadi.


Iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko‘p band aholi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (34,3 %), ta’lim (9,7 %), savdo (9,4 %), qurilish (8,8 %), sanoat (6,6 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (5,1 %) kabi sohalarga to‘g‘ri keladi (2022-y.).

Viloyat xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Surxondaryo viloyatining YaHM hajmi 2022-yilda 34,9 trln so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 104,0 % ga o‘sgan (respublika bo‘yicha o‘sish 105,7 %). Respublika YaIMdagi ulushi 3,9 % ga teng (hududlar ichida 10-o‘rin).

Viloyatda aholi jon boshiga olingan YaHM hajmi 2022-yilda 12,56 mln so‘mni (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etgan bo‘lib, mamlakatimiz hududlari orasida bu jihatdan oxirgi o‘rinlardan birini egallaydi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida mintaqa YaHMning 46,5 % i (respublika bo‘yicha 23,4 %), sanoat va qurilishda 14,8 % i (respublika bo‘yicha 31,1 %), xizmatlar sohasida 36,1 % (respublika bo‘yicha 38,7 %) yaratildi, sof soliqlar ulushi esa 2,6 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ni tashkil etgan. So‘nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining salmog‘i biroz o‘sgan.

Surxondaryo viloyati sanoat mahsuloti bo‘yicha respublika hududlari ichida so‘nggi o‘rinda turadi. Mintaqa respublika miqyosida, asosan, yengil sanoat (mamlakatda ishlab chiqarilgan yengil sanoat mahsulotining 3,5 %), qurilish materiallari sanoati (2,9 %) va oziq-ovqat sanoatining (2,0 %) rivojlanishi bilan ajralib turadi.



59-rasm. Surxondaryo viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 53.

Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchilik qiladi. Shuningdek, qurilish materiallari, yoqilg'i va kimyo sanoati ham rivojlanib bormoqda. Viloyatning shahar va tumanlari ichida sanoat ishlab chiqarish hajmi bilan respublika darajasida ko'zga tashlanadiganlari yo'q.

Agrar sohada Surxondaryo viloyati nisbatan yuqori salohiyatga ega. Viloyat hududi qulay agroiqlimiy sharoitlarga ega. Shu bois, bu yerda turli xil issiqsevar subtropik mevalar ko'p yetishtiriladi. Viloyat qishloq xo'jaligi mamlakat miqyosida, asosan, paxtachilik, kartoshkachilik, polizchilik, bog'dorchilik, qo'ychilik va echkichilik bilan nisbatan ajralib turadi.

Viloyat rekreatsiya va turistik salohiyati bo'yicha ham alohida ajralib turadi (Omonxona, Uchqizil, Jayronxona, Xo'jaikon va boshqa sihatgohlar). Bu yerning arxeologik topilmalari, at-Termiziy vatanining tarixiy yodgorliklari, ilk shaharlar qoldiqlari, karst g'orlari, ma'danli buloqlari, o'ziga xos tabiiy landshaftlari, qadamjo va ziyoratgohlari ekskursion, agroturizm, diniy va ekoturizmning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Sanoati. Surxondaryo viloyatida 2022-yil yakunlari bo'yicha 7,30 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan va bu ko'rsatkich o'tgan yilga qaraganda 104,4 % ga o'sgan. Respublika sanoati hududiy tarkibida viloyatning hissasi 1,3 % ni tashkil etadi va bu respublika hududlari orasidagi eng past ko'rsatkich hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining sanoati tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga 88,5 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hissasiga 7,0 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 2,9 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga 1,6 % to'g'ri keladi (2022-y.).

Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida yengil sanoatning ulushi eng yuqori bo'lib, 40,5 % ni tashkil etgan. Shuningdek, oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati (20,2 %), kimyo va neft-kimyo (7,4 %) va elektr energetika sanoatining (7,0 %) ulushi nisbatan yuqori. Sanoatning tarmoqlar tarkibida so'nggi yillarda yoqilg'i, kimyo va neft-kimyo sanoatining salmog'i ortmoqda.

Surxondaryo viloyatidagi sanoat korxonalari tomonidan 2022-yil mobaynida 15,0 ming tonna paxta tolasi, 101,5 ming tonna un, 2,3 ming tonna o'simlik yog'i ishlab chiqarilgan. Viloyatda 2022-yilda 232,3 mln kWh elektr energiyasi ishlab chiqarilgan (respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 0,3 %). Elektr energiya, asosan,

To‘palang GESi da ishlab chiqarilgan. Yoqilg‘i sanoatining yirik korxonalari qatoriga “Sharg‘unko‘mir” va “Jarqo‘rg‘onneft” zavodlari kiradi.

Viloyat sanoatining hududiy tarkibida viloyat markazining ulushi ancha yuqori bo‘lib, 17,7 % ga teng. Shuningdek, Jarqo‘rg‘on (14,2 %), Sho‘rchi (11,2 %) va Sariosiyo (10,7 %) tumanlarining ulushi nisbatan yuqori. Eng past ulush Boysun (1,6 %), Bandixon (1,8 %) va Angor (2,1 %) tumanlariga tegishli.

Qishloq xo‘jaligi. Viloyatda 2022-yil davomida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining yalpi qiymati 28,03 trln so‘m tashkil qilib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 102,5 % ga o‘sgan. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti bo‘yicha viloyat respublika hududlari orasidagi mavqei o‘rtacha bo‘lib, mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotining hududiy tarkibida 7,9 % lik ulush bilan 7-o‘rin egallaydi.

Viloyat qishloq xo‘jaligi tarmoqlar tarkibida dehqonchilikning ulushi 53,4 %, chorvachilikning salmog‘i esa 46,6 % ga teng.

Jami qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni 1137,0 ming ga, sug‘oriladigan yerlar maydoni esa 271,2 ming ga, ya’ni qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 23,8 foizi demakdir. Mazkur ko‘rsatkich Angor, Muzrabot va Qiziriq tumanlarida yuqori, Boysun, Sariosiyo va Sherobod tumanlarida esa eng past.

Surxondaryo viloyati agrar ishlab chiqarish tarkibida dehqon xo‘jaliklarining salmog‘i 65,6 %, fermer xo‘jaliklarining ulushi 26,7 %, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarining hissasi esa 7,7 % ni tashkil etadi.

Viloyatda 2022-yilda 723,8 ming tonna don (respublika yalpi hosilining 9,1 % i, hududlar orasida 4-o‘rin), 255,2 ming tonna paxta (7,3 %; 8-o‘rin), 1143,8 ming tonna sabzavot (10,2 %, 4-o‘rin), 350,5 ming tonna kartoshka (10,2 %, 5-o‘rin), 329,1 ming tonna poliz (13,6 %, 1-o‘rin), 180,3 ming tonna meva va rezavorlar (6,0 %, 6-o‘rin), 104,9 ming tonna uzum (6,0 %, 6-o‘rin), 209,8 ming tonna go‘sht (7,7 %, 6-o‘rin), 936,3 ming tonna sut (8 %, 8-o‘rin), 542,1 mln dona tuxum (6,7 %, 7-o‘rin) yetishtirilgan, 6003,8 tonna baliq ovlangan (3,5 %, 12-o‘rin).

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo‘yicha Denov, Sherobod, Jarqo‘rg‘on va Qumqo‘rg‘on tumanlari yetakchilik qiladi. Mazkur tumanlar 2022-yilda viloyat jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 48,6 % ini yetkazib bergan.

Don yetishtirishda Sherobod va Muzrabot tumanlari, kartoshka yetishtirishda Denov, Sho‘rchi va Qumqo‘rg‘on, sabzavotchilikda

Sherobod va Denov, poliz ekinlarini yetishtirishda Sherobod, Qumqo‘rg‘on va Denov tumanlari yetakchilik qiladi. Meva va rezavorlarning katta qismi Sariosiyo, Sherobod va Denov tumanlarida, uzum yetishtirish Oltinsoy, Denov va Qumqo‘rg‘on tumanlarida rivojlangan.

Go‘sht va sut yetishtirishda Denov tumani, tuxum yetishtirishda Jarqo‘rg‘on va Termiz tumanlari viloyat miqyosida alohida ajralib turadi.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Viloyatda 2022-yilda 12878,0 mlrd so‘m hajmdagi pullik xizmatlar ko‘rsatilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 3,5 % ni tashkil etadi va hududlar orasida u 8-o‘rinda turadi. Pullik xizmatlar tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 36,5 %, moliya xizmatlarining ulushi 20,1 %, transport xizmatlarining salmog‘i 15,0 % ga teng.

Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida Termiz shahri 28,4 % lik ulushi bilan yetakchilik qiladi. Denov tumanida mazkur ko‘rsatkich 12,6 % ga teng. Bandixon tumanining bu boradagi ulushi esa eng past (2,3 %). Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi viloyatda 4640,7 ming so‘mni tashkil etgan. Viloyat markazida bu ko‘rsatkich ancha yuqori (19000,0 ming so‘m) bo‘lib, Boysun va Termiz tumanlaridan tashqari, u barcha hududlarda viloyat o‘rtacha darajasidan past.

Surxondaryo viloyatida 2022-yil yakunlari bo‘yicha 17428,5 mlrd so‘mlik chakana savdo tovar aylanmasi qayd etilgan (respublikadagi salmog‘i 6,4 %; hududlar orasida 7-o‘rin). Denov tumani ulushi viloyat chakana savdo tovar aylanmasida 23,5 % ni tashkil qiladi. Viloyat markazining bu boradagi ulushi 21,8 % dir. Eng past ko‘rsatkich esa Bandixon tumaniga tegishli (1,1 %).

Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo‘yicha 6989,1 ming so‘mni tashkil etib, viloyat markazi Termiz shahrida 21901,1 ming so‘m, Denovda 11259,5 ming so‘m, Sho‘rchi tumanida 7897,5 ming so‘mga teng bo‘lgan. Qolgan tumanlarning bu boradagi ko‘rsatkichlari viloyatning o‘rtacha darajasidan past.

Viloyatda, 2022-yilning boshi holatiga ko‘ra, 67 ta shifoxona muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 17 tasi viloyat markazida, 14 tasi Denovda, 8 tasi Termiz tumanida joylashgan. Shifoxonalarda koykalar o‘rni 9731 ta, har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 35,0 tani tashkil qiladi. Viloyatda ambulator-poliklinika muassasalari soni 292 taga teng bo‘lgan holda, 30 tasi Termiz shahrida, 47 tasi Denov tumanida faoliyat ko‘rsatgan.

Shifokorlarning umumiy soni 5,0 ming nafar, o‘rta tibbiyot xodimlari 28,4 ming nafar. Har 10 000 aholiga nisbatan 18 nafar shifokor, 137 nafar o‘rta tibbiyot xodimi to‘g‘ri keladi.

Viloyatda, 2022-yil holatiga ko‘ra, 594 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lgan. Ularda tarbiyalanuvchilar soni 92680 ta. 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 55,0 % ga teng (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 68,3 % ni tashkil qiladi).

2022/2023-o‘quv yili boshida 953 ta umumta’lim muassasalari (2 tasi nodavlat) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 15,4 % i bir smenada, 84,3 % i ikki smenada, 0,3 % i uch smenada ishlaydi. Eng ko‘p umumta’lim muassasalari Denov (106 ta), Sariosiyo (91 ta) va Qumqo‘rg‘on (84 ta) tumanlarida joylashgan. Maktab o‘quvchilari soni 529351 nafar, bitta maktabga o‘rtacha hisobda 555 ta o‘quvchi to‘g‘ri kelgan. Ta’lim tillari kesimida olganda, 489,8 ming nafar o‘quvchi o‘zbek, 20,1 ming nafar o‘quvchi tojik, 9,1 nafar o‘quvchi rus tilida ta’lim olgan.

Surxondaryo viloyatida 4 ta akademik litsey mavjud bo‘lib, 2 tasi Termiz shahrida, Jarqo‘rg‘on va Qiziriq tumanlarida 1 tadan joylashgan. Ularda jami 1106 nafar o‘quvchi tahsil olgan. Viloyatda 29 ta kasb-hunar maktabi (11855 nafar o‘quvchi), 14 ta kasb-hunar kolleji (5766 nafar o‘quvchi) va 17 ta texnikum (6747 nafar o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

Viloyatda 2022/2023-o‘quv yili boshida 7 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, 4 tasi Termiz shahrida, 2 tasi Termiz tumani va 1 tasi Denov shahrida joylashgan. Viloyat OTTlaridagi talabalar soni 50,6 ming nafar bo‘lib, ulardan 40,7 ming nafari viloyat markazidagi, 3,1 ming nafari Termiz tumanidagi va 6,8 ming nafari Denov shahridagi OTTlarda tahsil olgan.

Surxondaryo nafaqat tarixiy, balki o‘ziga xos tabiiy rekreatsiya resurslariga ham boy. Bu yerdagi qadimiy milliy an’analar, o‘yinlar, folklor qo‘shiqchiligi va sport turlarining saqlanib qolishi sayyohlarni o‘ziga jalb eta oladi. Dalvarzintepa majmuasida qadimiy budda ibodatxonalarining topilishi esa butun dunyoda ushbu dinga e’tiqod qiluvchilarni mazkur hududga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirdi. Bundan tashqari, Ko‘hna Termiz harobalari, Teshiktosh g‘ori, Zarautsoy qoya su’ratlari, islom olamining yirik namoyondalari hisoblanmish Termiziylar maqbaralari bilan bir qatorda go‘zal tabiat manzaralari, shifobaxsh buloqlar viloyatdagi asosiy turistik obyektlarga aylanish imkoniyatiga ega.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Surxondaryo viloyatida 2022-yil davomida 71,66 mln tonna yuk tashilgan. Yuk aylanmasi 1146,9 mln tonna-kmni tashkil etgan. Ayni paytda tashilgan yo‘lovchilar soni 281,24 mln nafarga teng bo‘lib, yo‘lovchi aylanmasi 6447,7 mln yo‘lovchi-kmni tashkil qildi.

Viloyatning 2022-yilda tashqi savdo aylanmasi 372,79 mln AQSH dollariga (mamlakat tashqi savdo aylanmasining 0,7 %, hududlar orasida oxirgi o‘rin) teng bo‘ldi. Eksport hajmi 227,6 mln, import esa 145,2 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan.

Tashqi savdo aylanmasining 20,7 % i Xitoyga, 19,6 % i Rossiyaga, 18,7 % i Pokistonga, 13,4 % i Qozog‘istonga to‘g‘ri kelgan. Eksport tarkibida eng katta ulushni (20,8 %) Pokiston egallagan. Shuningdek, 20,0 % i Xitoyga, 16,9 % i Qozog‘istonga tegishli. Import ko‘proq Rossiya (28,6 %), Xitoy (21,7 %) kabi davlatlardan olib kirilgan.

Eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (55,4 %), sanoat tovarlari (35,2 %) katta o‘rin egallaydi. Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (38,9 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (29,7 %), oziq-ovqat va tirik hayvonlar (23,0 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Viloyat eksportida eng yuqori ulush Denov tumaniga (15,8 %) to‘g‘ri kelgan, eng quyi o‘rinni esa Bandixon tumani 2,2 % ulush bilan egallaydi. Sariosiyo tumani viloyat importining 25,3 % ta’minlaydi, Bandixon tumani esa 0,6 % bilan oxirgi o‘rinda turadi.

Ichki tafovutlari. Surxondaryo viloyati xo‘jaligi va aholisining hududiy tarkibida, avvalambor, sug‘orma dehqonchiligiga asoslangan ko‘p tarmoqli agrosanoat majmuasi shakllangan, mintaqa aholisining asosiy qismi mujassamlashgan Surxondaryo vodiysi va Sherobod vohasi hamda ularning atrofidagi tog‘li hududlar o‘zaro ajralib turadi. Viloyatning tog‘li qismida tog‘-yaylov chorvachiligi, bog‘dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan, shuningdek, rekreatsiya va ekoturizmning boy tabiiy resurslari mavjud.

Shuningdek, viloyatning shimoliy (Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy, Sho‘rchi, Boysun) va janubiy (Termiz, Muzrabot, Angor, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Bandixon, Qiziriq, Sherobod) tumanlarining xo‘jalik majmualari o‘rtasida ma’lum darajadagi farqlar ham mavjud. Shimoliy tumanlar bog‘dorchilik, uzumchilik, kartoshkachilik, tog‘-yaylov chorvachiligining rivojlanishi bilan ajralib tursa, janubiy tumanlarida paxtachilik, donchilik, polizchilik, qorako‘lchilik kabi

tarmoqlar ancha yaxshi rivojlangan. Bu tafovutlarga, asosan, agroiqlim resurslaridagi tafovutlar ta'sir ko'rsatgan.

Viloyatning janubiy tumanlarida yangi o'zlashtirilgan yerlar ko'p. Ularni sug'orish uchun Amu-Zang kanali orqali Amudaryo suvi yetkaziladi, shimoliy tumanlaridagi yerlar esa to'liq ravishda mahalliy suv resurslari hisobiga sug'oriladi.

Aholiga xizmat ko'rsatishning hududiy tizimida shimoliy tumanlar guruhi uchun bosh markaz funktsiyasini Denov shahri, janubiy tumanlar guruhi uchun esa viloyat markazi, Termiz shahri bajaradi.

Ta'kidlash lozimki, viloyatning qishloq tumanlari asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha bir-biridan ancha farq qiladi. Masalan, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda Termiz shahri va Jarqo'rg'on tumani oldingi o'rinlarni egallasa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda Denov va Sherobod tumanlari alohida ajralib turadi. Shuningdek, chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatishda Termiz shahri va Denov tumanining ko'rsatkichlari yuqori.

Savol va topshiriqlar

1. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarini alohida iqtisodiy rayon sifatida birlashtirishga qanday asoslar bor, deb o'ylaysiz?
2. Iqtisodiy rayonning mamlakatimiz milliy xo'jaligi tizimida tutgan o'rni qanday tarmoqlar bilan ko'proq belgilanadi?
3. Iqtisodiy rayon viloyatlarining iqtisodiy geografik va geosiyosiy o'rinlarida qanday xususiyatlar mavjud? Janubiy iqtisodiy rayonining iqtisodiy rivojlanishida Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining ahamiyatini izohlang.
4. Qashqadaryo viloyatida sanoatning qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan va bunga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
5. Quyi, O'rta va Yuqori Qashqadaryo mikroiqtisodiy rayonlari xo'jaligini taqqoslang.
6. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining rekreatsiya va turizm resurslarida qanday umumiy hamda farqli jihatlari mavjud?
7. Surxondaryo viloyati qanday tabiiy resurslarga boy? Ularning viloyat iqtisodiyotining ixtisoslashuviga ta'sirini izohlang.
8. Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi qay darajada rivojlangan? Uning asosiy tarmoqlari qaysi?
9. Surxondaryo viloyati shimoliy va janubiy tumanlari xo'jaligining xususiyatlarini izohlang.

Test savollari

1. Janubiy iqtisodiy rayon hissasiga 2022-yilda respublikada ishlab chiqarilgan elektr energiya, kimyo va neft-kimyo sanoati mahsulotlari hamda yengil oziq-ovqat sanoati mahsulotining qancha qismi mos keladi?
A) 11,9 %; 9,3 %; 11,4 %.
B) 15,5 %; 11,7 %; 21,5 %
C) 9,8 %; 17,3 %; 16,8 %
D) 12,1 %; 10,8 %; 12,3 %

2. Janubiy iqtisodiy rayonda 2022-yilda qaysi qishloq ma'muriy tumani tashkil qilingan?
A) Chiroqchi
B) Bandixon
C) Qiziriq
D) Ko'kdala

3. Qashqadaryo viloyati har uchala qishloq tumanining maydoni qo'shib hisoblanganda 10,3 ming km^2, yoki viloyat hududining 36,0 foizini egallaydi. Qaysi uchta tuman to'g'risida gap ketayotganini toping?
A) Dehqonobod, Kasbi, Kitob
B) Dehqonobod, Chiroqchi, Mirishkor
C) Mirishkor, Dehqonobod, Muborak
D) Koson, Muborak, Dehqonobod

4. Qashqadaryo viloyati quyidagi foydali qazilmalarning qaysi biri bo'yicha respublika hududlari orasida oldingi o'rinda turadi?
A) neft va tabiiy gaz
B) rangli metallar
C) qurilish materiallari
D) tabiiy gaz va ko'mir

5. Qashqadaryo viloyati g'arbidagi Qarshi cho'li yerlarini sug'orishda qaysi kanal asosiy ahamiyatga ega?
A) Qarshi magistral kanali
B) Amu-Zang kanali
C) Eski Anhor kanali
D) Sherobod kanali

6. Qashqadaryo viloyati shaharlari orasida viloyat markazidan keyingi 2-o‘rinda qaysi shahar turadi?
A) Koson
B) Kitob
C) Shahrisabz
D) G‘uzor

7. Surxondaryo viloyatida eng katta va eng kichik maydonga ega qishloq tumanlarini belgilang.
A) Uzun va Angor
B) Boysun va Bandixon
C) Sherobod va Muzrabot
D) Sariosiyo va Qiziriq

8. Surxondaryo viloyatining qaysi qishloq tumani nafaqat viloyat balki respublikada aholisining mutlaq soni bo‘yicha oldingi o‘rinlarda turadi?
A) Jarqo‘rg‘on
B) Termiz
C) Denov
D) Boysun

9. Surxondaryo viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida qaysi sanoat yetakchilik qiladi?
A) yengil sanoat
B) oziq-ovqat sanoati
C) qurilish materiallari sanoati
D) yoqilg‘i sanoati

10. Surxondaryo viloyatida qaysi GES joylashgan?
A) Sangardak GES
B) Janubiy Surxon GES
C) To‘palang GES
D) Sherobod GES

21-§. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni

Iqtisodiy rayonning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni O‘zbekiston Respublikasining shimoli-g‘arbida, Amudaryoning quyi oqimida, mamlakatimizning asosiy markazlaridan uzoqda, ayni vaqtda respublikamizning chet davlatlarga chiqish va unga xorijdan kirish qismlaridan birida joylashgan. Rayon Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Xorazm viloyatidan tarkib topadi. Maydoni bo‘yicha O‘zbekiston hududida ajratilgan 6 ta asosiy iqtisodiy rayonning eng yirigi hisoblanadi. Hududi – 172,64 ming km^2, respublika maydonining 38,5 foizini tashkil etadi.

Aholisi, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko‘ra, 3934,3 ming kishini tashkil qiladi (respublika aholisining 10,9 % i). Shahar joylarda aholining 41,1 foizi istiqomat qiladi. Aholi zichligi ko’rsatkichi har kv. kmga 22,8 kishidan mos keladi.

Rayonning iqtisodiy geografik o‘rni tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish uchun ancha qulay. Ammo uning respublika chekka shimoli-g‘arbida, boshqa hududlardan ancha olisda, ekologik jihatdan muammoli Orolbo’yi mintaqada joylashganligi iqtisodiy rayonning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Quyi Amudaryo rayonining siyosiy geografik o‘rni Turkmaniston hamda Qozog‘iston bilan chegaradoshligida o‘z aksini topadi, bu yerda istiqbolda xalqaro miqyosda chegarabo‘yi iqtisodiy hamkorlikni (ayniqsa, Turkmanistonning Dashog‘uz viloyati bilan) rivojlantirish mumkin.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoniga O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 7,0 % i, sanoat mahsulotining 6,5 % i, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 10,6 % i to‘g‘ri keladi. Shuningdek, pullik xizmatlarning 5,8 % i, investitsiyalarning 7,0 % i, bajarilgan qurilish ishlarining 8,1 %i va tashqi savdo aylanmasining 2,8 % i shu rayon hissasiga tushadi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoatining asosiy tarmoqlariga yoqilg‘i, kimyo va neft-kimyo, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yengil, oziq-ovqat, elektr energetika, qurilish materiallari sanoatini kiritish mumkin.

Iqtisodiy rayon mamlakat qishloq xo‘jaligida paxta, sholi, poliz ekinlari, go‘sht, sut va qorako‘l terilarini yetishtirishga ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi. Respublika aholisining guruchga bo‘lgan ehtiyojini deyarli 1/3 qismini Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni ta’minlab beradi.

Rayonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar, eng avvalo, tabiiy hamda mehnat resurslarining ko'pligi bilan bog'liqdir. Biroq, bu ijobiy omillar bilan birgalikda rayon rivojlanishini ancha cheklab qo'yuvchi zaif xususiyatlari ham mavjud. Bular rayon mamlakatning bir chekkasida joylashganligi va uning keskin geoekologik vaziyati hisoblanadi. Shu bilan birga, rayonning ayrim hududlari zamonaviy transport infratuzilmasi bilan yaxshi ta'minlanmaganligi ham uning zaif tomonlarini aks ettiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoli-g'arbida, Janubiy Orolbo'yi hududida joylashgan. Uning O'zbekiston markaziy qismidan ancha olisda o'rnashganligi iqtisodiy rivojlanish holatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'istonning geosiyosiy mavqei, ya'ni Qozog'iston va Turkmaniston davlatlari bilan qo'shnichiligi, O'zbekistonning Yevropa mamlakatlariga chiqish joyida ekanligi uning rivojlanishiga qulay imkoniyatlar yaratib beradi.

O'rta Osiyoning milliy davlat chegaralanishi doirasida 1925-yil 16-fevral kuni Qozog'iston tarkibida Qoraqalpog'iston muxtor viloyati tuzildi. Keyinchalik, 1930-yilda u bevosita Rossiya (RSFSR) bo'ysunuviga o'tkazildi. Qoraqalpog'istonning siyosiy-ma'muriy maqomi 1932-yilda muxtor respublikaga o'zgartirildi, 1936-yilda esa Qoraqalpog'iston O'zbekiston tarkibiga kirdi. 9-yanvar 1992-yildan buyon Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren respublika maqomiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti – Nukus shahri. Maydoni 166,59 ming km^2, aholisi 1976,2 ming kishi (1.01.2023-y.). Maydoni O'zbekiston Respublikasiga nisbatan olganda, 37,1 foizni tashkil qiladi.

Mamlakat ichidagi mehnat taqsimotida neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat va yengil sanoatning ayrim tarmoqlari, qishloq xo'jaligida sholi yetishtirish, go'sht-jun chorvachiligi bilan ajralib turadi.

2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining 5,5 % i, yalpi ichki mahsulotining 3,4 % i, sanoat mahsulotining 3,2 % i, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 3,9 % i Qoraqalpog'iston hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, pullik xizmatlarning 2,9 % i, investitsiyalarning 3,7 % i, qurilish ishlarining 3,8 % i va tashqi savdo aylanmasining 1,2 % i Qoraqapog'istonga tegishli bo'lgan.

Ma'muriy-hududiy bo'linishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy-hududiy jihatdan 16 ta qishloq tumanlari, 12 ta shahar, 26 ta shaharcha, 145 ta qishloq fuqarolar yig'inlari va 1126 ta qishloq aholi punktlaridan iborat (77-jadval). Poytaxti Nukus shahri respublikaga bo'ysunuvchi shahar hisoblanadi.

77-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi (2023-yil 1-yanvar holatiga)

	Hududi (ming km^2)	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq fuqarolari yig'inlari	Qishloq aholi punktlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	**166,59**	**12**	**26**	**145**	**1126**
Nukus shahri	0,22	1	1		
qishloq tumanlari:					
Amudaryo	1,02	1	4	16	129
Beruniy	3,95	1	1	13	68
Bo'zatov	2,04		1	4	25
Qorao'zak	5,89		1	8	97
Kegeyli	0,92	1	1	8	130
Qo'ng'irot	76,00	1	5	13	43
Qonliko'l	0,74		1	7	38
Mo'ynoq	37,88	1		7	23
Nukus	0,94		1	6	43
Taxiatosh	0,18	1	1	3	30
Taxtako'pir	21,12		1	8	39
To'rtko'l	7,48	1	5	15	88
Xo'jayli	0,55	1	1	7	63
Chimboy	1,44	1	1	10	115
Shumanay	0,78	1		7	104
Ellikqal'a	5,42	1	1	13	91

Manba: Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti.

Qishloq tumanlari maydoni bo'yicha keskin ravishda farqlanadi. Qo'ng'irot (76,0 ming km^2), Mo'ynoq (37,88 ming km^2) va Taxtako'pir (21,12 ming km^2) tumanlari nafaqat Qoraqalpog'iston, balki O'zbekiston Respublikasidagi maydoni jihatidan eng katta tumanlar jumlasiga kiradi. Uchala tuman maydoni qo'shib hisoblanganda, Qoraqalpog'iston maydonining 81,0 % ini, butun mamlakatimiz maydonining esa 30,1 % ini tashkil qiladi. Maydoni bo'yicha Taxiatosh tumani (0,18 ming km^2) eng kichigi hisoblanib, u eng yirik tuman – Qo'ng'irotdan 422,2 marta kichikdir.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Yer usti tuzilishi murakkab emas: eng baland nuqtasi Sulton-Uvays tizmasida joylashgan bo'lib, dengiz sathidan 473 metr balandlikka ega. Qoraqalpog'istonning g'arbiy qismida Ustyurt

platosi, markaziy va janubiy qismida Amudaryo deltasi joylashgan, sharqiy qismi Qizilqum cho'li, shimoliy qismi esa Orol dengizining qoldiq suv havzalari va Orolqum cho'li bilan band.

Qoraqalpog'iston turli xil qazilma boyliklarga ega. Jumladan, Sulton-Uvays tizmasida temir va titan rudalari, turli qurilish materiallarining katta zaxiralari aniqlangan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston hududi kimyo sanoatining xomashyosi zaxiralariga ham boy: Qo'shqanatov, Borsakelmas hamda Qoraumbet kabi konlarda sulfat, magniy va osh tuzlarining ulkan zaxiralari mavjud. Shu bilan birga, Ustyurt platosi va Orolqumda tabiiy gaz va neft konlari mavjud.

Iqlimi keskin kontinental bo'lib, yillik yog'in-sochin miqdori 80-200 mm atrofida. Mintaqada qurg'oqchilik keskin sezilib turadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida yer maydoni katta bo'lsada, sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlari ancha cheklangan. Asosiy suv manbai – Amudaryo.

Shunday qilib, Qoraqalpog'iston Respublikasining tabiiy sharoiti, mineral xomashyo hamda agroiqlim resurslari, asosan, kimyo, qurilish materiallari va yoqilg'i sanoati, chorvachilik uchun qulayroq. Ayni vaqtda bu yerda suv zaxiralarining yetishmasligi intensiv sug'orma dehqonchilik hamda sanoatning suv talab tarmoqlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Aholisi va mehnat resurslari. Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1976,2 ming kishini tashkil etgan bo'lib, oldingi yilga nisbatan 27,8 ming kishiga (1,4 % ga) ko'paygan. 01.01.1991-yil holatiga ko'ra esa, Qoraqalpog'iston aholisi 1256,1 ming kishi bo'lgan. Demak, mintaqa aholisi o'tgan 32 yil davomida 720,2 ming kishiga, ya'ni yiliga o'rta hisobda 22,5 ming kishidan ko'paygan. Jami aholidan 967,5 ming kishi (49,0 %) shahar joylarda, 1008,8 ming kishi (51,0 %) esa qishloq va ovullarda istiqomat qiladi.

Respublikada aholi zichligi 1 km^2 ga 12 kishi. Bu ko'rsatkich Nukus shahri atrofida hamda intensiv dehqonchilik rivojlangan hududlarda ancha yuqori (78-jadval).

Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlarida aholi o'sish sur'atlari ancha sekin, hattoki kamayish tendensiyasi kuzatilayotgan hududlari ham bor. Bu, asosan, Orolbo'yi mintaqasidagi noxush ekologik vaziyat tufayli vujudga kelgan migratsion vaziyat bilan bog'liq. Bu borada eng muammoli vaziyat Taxtako'pir tumaniga xos bo'lib, 2000-yil boshida bu tumanda 44,3 ming aholi istiqomat qilgan holda, 2023-yil boshiga kelib, bu raqam 39,0 ming kishini tashkil qilgan. Ayni paytda, respublikaning

janubidagi To'rtko'l, Beruniy, Ellikqal'a va Amudaryo tumanlarida aholining ko'payishi ancha yuqori.

78-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq tumanlarining aholisi (yil boshiga)


t/r	Qishloq tumanlari	Aholi soni, ming kishi			Aholi zichligi, kishi / km^2
		2000-y.	2023-y.	O'sish, %	
1	Amudaryo	141,8	208,6	147,1	204,5
2	Beruniy	144,1	201,2	139,6	50,9
3	Bo'zatov	19,6	21,9	111,7	10,7
4	Kegeyli	58,7	74,2	126,4	80,6
5	Mo'ynoq	29,1	33,4	114,8	0,9
6	Nukus	43,2	52,9	122,4	56,3
7	Taxiatosh	51,6	76,3	147,9	423,9
8	Taxtako'pir	44,3	39,0	88,0	1,8
9	To'rtko'l	155,0	224,7	145,0	3,3
10	Xo'jayli	145,8	127,4	87,4	231,6
11	Chimboy	91,1	115,0	126,2	80,0
12	Shumanoy	41,7	57,6	138,1	73,8
13	Ellikqal'a	113,8	167,7	147,4	31,0
14	Qonliko'l	39,4	53,1	134,8	71,7
15	Qorao'zak	43,8	54,1	123,5	9,2
16	Qo'ng'irot	110,2	134,6	122,1	1,8

Jadval mualliflar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi soni bo'yicha To'rtko'l tumani (224,7 ming kishi) oldingi o'rinda turadi, eng kam aholi esa Bo'zatov tumanida (21,9 ming kishi) yashaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy tumanlari orasida aholi zichligi bo'yicha ham katta farqlar mavjud. Eng yuqori ko'rsatkich Taxiatosh tumanida (423,9 kishi) kuzatilsa, eng past darajasi Mo'ynoq tumaniga to'g'ri keladi. Ushbu tuman Qoraqalpog'istonning 23,0 foiz maydonini egallagan holda, 1 km^2 maydoniga 0,9 kishi to'g'ri keladi.

Qoraqalpog'istonda tug'ilish 2022-yilda 42854 kishini tashkil qildi, tug'ilish koeffitsiyenti esa mos ravishda 21,8 promillega teng bo'lgan. Tug'ilishning nisbatan yuqori darajasi Amudaryo (25,4 ‰), Beruniy (24,8 ‰), Nukus (24,4 ‰) tumanlarida kuzatilgan. Quyi darajasi esa Bo'zatov (16,1 ‰) tumaniga tegishli (60-rasm).

Shuningdek, 2022-yilda 9588 ta o'lim holati qayd qilingan. Mos ravishda, o'lim koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil qilgan. O'lim koeffitsiyentining yuqori darajasi Nukus shahri (5,2 ‰), Taxtako'pir (6,5 ‰), Qorao'zak (5,7 ‰), Bo'zatov (4,7 ‰) va Xo'jayli (5,0 ‰) tumanlarida kuzatilgan. O'lim ko'rsatkichining birmuncha yuqoriligini Taxtako'pir, Chimboy va Qorao'zak, ya'ni Qoraqalpog'istonning sharqiy qismida joylashgan tumanlarida ko'rish mumkin.




60-rasm. Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2022-yil yakunlari bo‘yicha)

Manba: Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti.

Qoraqalpog‘istonda ekologik vaziyatning noqulayligi sababli aholining migratsiya harakati muntazam manfiy saldoga ega. Mintaqadan ketuvchilar orasida, asosan, qozoq millati vakillari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Har 1000 kishiga hisoblaganda, 2010-yilda ketganlar 15,4, kelganlar 8,3, migratsiya qoldig‘i minus 7,1 promillega teng bo‘lgan. 2022-yilda Qoraqalpog‘iston bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 7754 kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 13167 kishini tashkil qilgan. Migratsiya qoldig‘i minus 5413 kishiga teng bo‘lgan. Eng katta manfiy qoldiq Taxtako‘pir tumanida (-2065) kuzatilgan.

Jami aholidan 967,5 ming kishi 12 ta shahar va 26 ta shaharchalarda yashaydi. Eng katta shahar Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus bo‘lib, unda 334,6 ming aholi istiqomat qiladi (01.01.2023-y.). Xo‘jayli (74,8 ming kishi), To‘rtko‘l (66,4 ming kishi), Beruniy (65,6 ming kishi), Chimboy (56,2 ming kishi) va Taxiatosh (52,1 ming kishi) o‘rta shaharlar qatoriga kiradi. Qolgan shaharlar kichik shaharlar toifasiga to‘g‘ri keladi.

Qoraqalpog‘istonda 1126 ta qishloq aholi punktlari mavjud bo‘lib, ularning har biriga o‘rtacha 896 kishidan aholi to‘g‘ri keladi. Qishloqlar aholisining kamligi respublikaning cho‘llik xususiyatini o‘zida aks ettiradi.




61-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining milliy tarkibi (1.01.2021-y., jamiga nisbatan % da)

Rasm mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Aholining milliy tarkibida, 01.01.2021-yil ma’lumotlari bo‘yicha, o‘zbeklar 40,4 %, qoraqalpoqlar 37,0 %, qozoqlar 15,0 %, turkmanlar 5,4 %, ruslar 0,5 %, boshqa millat vakillari 1,2 % ni tashkil etgan (61-rasm). O‘zbeklar ulushi respublika janubidagi Amudaryo (86,3 %), Ellikqal’a (80,7 %), Beruniy (69,2 %) va To‘rtko‘l (62,8 %) tumanlarida yuqori. Qoraqalpoqlar Nukus shahri va ko‘pchilik tumanlarida aholining milliy tarkibida yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, Chimboy, Bo‘zatov va Kegeyli tumanlarida, ayniqsa, katta ustunlik bilan ko‘pchilikni tashkil qiladi (uchala tumanda ularning ulushi 80 % dan yuqori). Taxtako‘pir tumani aholisining 42,2 % aholisini qozoqlar tashkil qilsa, Mo‘ynoqda qozoqlar salmog‘i 30 % atrofida. Turkmanlarning salmog‘i To‘rtko‘l tumanida 24,3 %, Shumanoyda 7,8 %, Beruniy, Xo‘jayli va Taxiatosh tumanlarida 7,4 %, Ellikqal’a tumanida esa 6,7 % ga teng.

2022-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining 55,4 % ini mehnatga layoqatli yoshdagilar tashkil qiladi. Iqtisodiy faol aholi 781,5 ming kishi, iqtisodiyotda band bo‘lganlar esa 702,7 ming kishi. Ishsizlarning umumiy soni 78,8 ming kishini tashkil etgan holda, ishsizlik darajasi 10 % ga teng.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, 2022-yil holatiga ko‘ra, iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko‘p band aholi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (25,2 %), ta’lim (11,9 %), savdo (11,2 %), qurilish (10,2 %), sanoat (8,6 %) kabi sohalarga to‘g‘ri keladi.



62-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy xaritasi

Manba: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o'rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o'quv atlas. – T., 2023. – B. 55.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Qoraqalpog'iston Respublikasining YaHM hajmi, 2022-yil yakunlariga ko'ra, 29,92 trln so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 104,0 % ga o'sgan (mamlakat bo'yicha o'sish 105,7 %). Qoraqalpog'iston Respublikasining mamlakat YaIMdagi salmog'i 3,4 % ga teng. Bu jihatdan u respublika hududlari orasida faqat Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridan oldinda turadi, xolos.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblangan YaHM hajmi, 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, 15,25 mln so'mni (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 24,92 mln so'm) tashkil etgan bo'lib, 2021-yilga nisbatan bu ko'rsatkich 102,6 % ga o'sgan.

YaHMning tarmoqlar tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 27,3 % (respublika YaIMdagi ulushi 23,4 %), sanoat va qurilishning salmog'i 29,4 % (respublika YaIMdagi salmog'i 31,1 %), xizmatlarning hissasi 35,5 % (respublika bo'yicha 38,7 %), sof soliqlar ulushi esa 7,9 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ga teng bo'lgan.

Qoraqalpog'iston sanoat majmuida neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati asosiy o'rin egallaydi. Agroiqtisodiyot tizimida paxta, sholi, go'sht, jun, qorako'l terilarni yetishtirish nisbatan rivojlangan. Qishloq xo'jaligining bunday sohalarga ixtisoslashuvi, asosan, hududining tabiiy iqlim sharoitiga bog'liq.

Sanoati. O'zbekistonda jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 3,2 foizi Qoraqalpog'iston hissasiga to'g'ri keladi (2022-yil). Bu jihatdan mintaqa faqat Surxondaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridan oldinda turadi, xolos. 2022-yilda 17,79 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati 100,6 % ni tashkil etgan.

79-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida ayrim sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi (2022-yil yakunlari bo'yicha)

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Hajmi
Tabiiy gaz	mln m^3	1312,3
Elektr energiyasi	mln kWh	5373,6
Ohaktosh	ming tn	231,1
Polietilen	ming tn	295,8
Paxta tolasi va chigiti	ming tn.	90,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni	ming tn	107,2
Aroq mahsulotlari	ming litr	3748,4
Guruch mahsulotlari	tonna	3864,1
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari	tonna	4604,3

Jadval mualliflar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qoraqalpog‘iston sanoati tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoatga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,5 % ni tashkil etadi. Shuningdek, elektr energiya, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash hissasiga 11,9 %, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 0,9 %, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishga esa 0,7 % to‘g‘ri kelgan (2022-y.).

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining tarmoqlar tarkibida kimyo va neft-kimyo sanoatining ulushi eng yuqori bo‘lib, 51,3 % ni tashkil etgan. Boshqa sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati (15,5 %), yengil sanoat (13,8 %) va elektr energetikaning (11,9 %) hissasi nisbatan yuqori.

So‘nggi yillarda Qoraqalpog‘iston sanoatining tarmoqlar tarkibida kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari sanoatining ulushi ortib bormoqda. Bu jarayon, asosan, “Ustyurtgaz” MChJ (Surgil gaz koni negizida) mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi hamda Qorao‘zak tumanida loyiha quvvati 1,2 mln t bo‘lgan Quyi Amudaryo mintaqasidagi eng yirik sement zavodi hisoblanadigan “Karakalpak sement” ning ishga tushirilishi bilan bog‘liq.

Qoraqalpog‘istonda 2022-yilda 5373,6 mln kWh elektr energiya ishlab chiqarilgan (mamlakat bo‘yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 7,6 %). Elektr energiyaning barchasi Taxiatosh IESda ishlab chiqariladi.

Sanoatning hududiy tarkibida katta farqlar ko‘zga tashlanadi. Qoraqalpog‘iston bo‘yicha eng katta sanoat ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (53,4%) va Taxiatosh tumaniga (12,2 %) to‘g‘ri keladi. Qolgan tumanlardan Qo‘ng‘irot (5,2 %), To‘rtko‘l (3,9 %), Amudaryo (3,4 %), Beruniy va Ellikqal’a (2,9 % dan) salmog‘i nisbatan yuqoridir. E’tibor berish lozimki, “Ustyrtgaz” majmuasi Qo‘ng‘irot tumanidagi Qirqqiz shaharchasida joylashgan bo‘lib, uning yuridik manzili Nukus shahrida bo‘lganligi bois, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari Nukusning hisobiga yoziladi. Shu bois, aslida Qoraqalpog‘iston sanoatining tayanch hududi Qo‘ng‘irot tumani hisoblansa, to‘g‘riroq bo‘lar edi. Sanoat ishlab chiqarish salohiyati jihatidan mintaqada Bo‘zatov, Shumanoy, Mo‘ynoq, Chimboy, Kegeyli, Taxtako‘pir va Xo‘jayli tumanlarining ulushi ancha past (jamiga nisbatan har birida 2,0 % ga ham yetmaydi).

2022-yilda Qoraqalpog‘istonda aholi jon boshiga o‘rta hisobda 9067,7 ming so‘mdan sanoat mahsulotlari to‘g‘ri kelgan. Nukus shahri va

Taxiatosh tumanidan tashqari, barcha tumanlarda bu raqam respublika ko‘rsatkichidan past.

Umuman olganda, Qoraqalpog‘istonda mashinasozlik, metallurgiya va yog‘ochni qayta ishlash sanoati yaxshi rivojlanmagan. Qurilish materiallari sanoati, xususan, ohak, marmar, chaqiq tosh, g‘isht ishlab chiqarish esa tobora rivojlanib bormoqda (asosiy markazlari Qoratov va Jumurtov shaharchalari hisoblanadi).

Yengil sanoat tarkibida to‘qimachilik va paxta tozalash tarmoqlari ustunlikka ega. Aksariyat paxta yetishtiruvchi Beruniy, To‘rtko‘l, Amudaryo, Ellikqal’a, Xo‘jayli va boshqa tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari ishlamoqda.

Oziq-ovqat sanoatida, asosan, o‘simlik yog‘i, meva-konserva mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Qishloq xo‘jaligi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida yer maydoni katta bo‘lsada, sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlari ancha cheklangan. Jami yer maydonining 34,3 foiz qismidan qishloq xo‘jaligida foydalaniladi, xolos. O‘z navbatida, sug‘oriladigan yerlar umumiy qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning bor-yo‘g‘i 7,3 foizini tashkil qiladi.

Qoraqalpog‘istonda 2022-yilda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining yalpi qiymati 14,36 trln so‘mni tashkil qilib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 103,3 % ga o‘sgan. O‘zbekistonda jami yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining 3,9 % i Qoraqalpog‘iston hissasiga to‘g‘ri keladi, bu jihatdan Qoraqalpog‘iston mamlakatimiz hududlari orasidagi eng oxirgi o‘rinlardan birida, faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda turadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 49,5 % ni tashkil qiladi, chorvachilikning salmog‘i esa 50,5 % ga teng. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining o‘zaro nisbati yillar davomida ob-havo sharoitiga qarab o‘zgarib turadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda jami mahsulotning 34,3 % i fermer xo‘jaliklari, 58,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo`jaliklari, qolgan 7,6 % i esa qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

Qoraqalpog‘istonda 2022-yilda 287,1 ming tonna don (respublika yalpi hosilining 3,6 % i, hududlar orasida 12-o‘rin), 239,8 ming tonna paxta (6,9 %; 11-o‘rin), 90,6 ming tonna kartoshka (2,6 %, 11-o‘rin), 314,6 ming tonna sabzavot (2,8 %, 12-o‘rin), 64,9 ming tonna meva va rezavorlar (2,2 %, 12-o‘rin), 173,5 ming tonna poliz ekinlari (6,6 %, 9-

o‘rin), 11,5 ming tonna uzum (0,7 %, 13-o‘rin), 120,5 ming tonna go‘sht (4,4 %, 12-o‘rin), 434,1 ming tonna sut (3,7 %, 12-o‘rin), 386,9 mln dona tuxum (4,8 %, 10-o‘rin), 802,0 tonna pilla (3,3 %, 12-o‘rin), 93,0 ming dona qorako‘l terilari (7,1 %, 4-o‘rin) yetishtirilgan (80-jadval).

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda katta hududiy farqlar mavjud. Deyarli barcha dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda janubiy tumanlar Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l va Ellikqal’a alohida ajralib turadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning katta qismi aynan shu 4 ta tuman hissasiga to‘g‘ri keladi.

80-jadval

Qoraqalpog’iston Respublikasida yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari

Mahsulot turi	O‘lchov birligi	2010-y.	2015-y.	2020-y.	2022-y.
Don ekinlari	tonna	299816,0	266541,0	277968,0	287103,0
Kartoshka	tonna	31114,0	47754,0	85700,0	90584,0
Sabzavot	tonna	134245,0	241257,0	286811,8	314563,0
Oziqbop poliz	tonna	69530,0	113824,0	152627,6	173474,0
Meva va rezavorlar	tonna	24728,0	41019,0	57888,0	64898,0
Uzum	tonna	3467,0	5737,0	10413,2	11531,0
Go‘sht (tirik vaznda)	tonna	58881,0	88 402,0	111069,0	120504,0
Sut	tonna	183554,0	322130,0	404778,0	434002,0
Tuxum	ming dona	45998,0	206722,0	341296,0	386951,0
Asal	tonna	95,0	364,0	753,0	835,9
Jun	tonna	861,0	1175,0	1358,0	1502,0
Qorako‘l terilari	dona	68503	80300	83497	93033
Pilla	tonna	814,4	852,5	704,4	802,1

Jadval mualliflar tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Don yetishtirish Amudaryo va To‘rtko‘l tumanida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu ikkita tuman hissasiga Qoraqalpog‘istonda olingan boshoqli don hosilining 36,3 foizi to‘g‘ri keladi. Sabzavot mahsulotlari hosili bo‘yicha Amudaryo, Beruniy va To‘rtko‘l tumanlari (46,3 %) yetakchi. Kartoshka Amudaryo tumanida eng ko‘p yetishtiriladi.

Yirik shoxli qoramollar bosh soniga ko‘ra Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlari oldinda turadi. Qo‘y va echkilar bosh soni bo‘yicha esa To‘rtko‘l, Taxtako‘pir, Ellikqal’a, Amudaryo, Qo‘ng‘irot va Qorao‘zak tumanlari ajralib turadi.

2022-yilda barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 11148,6 tonna baliq ovlangan. Ovlangan baliq umumiy hajmidan 42,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, 39,5 foizi esa fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2022-yilda 10421,9 mlrd so‘m hajmda pullik xizmatlar ko‘rsatilgan. Bu borada Qoraqalpog‘istonning mamlakatdagi ulushi 2,9 % ni tashkil etadi va hududlar orasida faqat Jizzax va Navoiy viloyatlaridan oldinda turadi. Pullik xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (27,2 %), savdo xizmatlari (21,7 %), moliyaviy xizmatlarga (21,4 %) to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ta’lim sohasidagi xizmatlarning ulushi (6,5 %) ham nisbatan yuqori. Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida Nukus shahri (42,1 %), Qo‘ng‘irot (14,8 %), To‘rtko‘l (7,7 %) va Amudaryo (5,2 %) tumanlari yuqori ulushga ega. Bo‘zatov va Shumanoy tumanlarining bu boradagi ulushi esa juda past.

Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi 5310,8 ming so‘mni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich Nukus shahrida 13233,9 ming so‘m, Bo‘zatov tumanida esa 2531,2 ming so‘mga teng.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2022-yil yakunlari bo‘yicha 9557,5 mlrd so‘mlik chakana savdo tovar aylanmasi qayd etilgan (O‘zbekistondagi salmog‘i 3,5 %; hududlar orasida 12-o‘rin). Nukus shahrining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi salmog‘i 29,9 % ni tashkil qiladi. Qishloq tumanlaridan To‘rtko‘l (13,2 %), Beruniy (9,2 %), Xo‘jayli (8,8 %) va Amudaryo (6,2 %) tumanlarining ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori. Eng past ko‘rsatkich esa Mo‘ynoq, Bo‘zatov va Shumanoy tumanlariga tegishli.

Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi Qoraqalpog‘iston bo‘yicha 5505,0 ming so‘mni tashkil etgan. Faqatgina Nukus shahri (9737,1 ming so‘m), To‘rtko‘l (6410,7 ming so‘m) va Xo‘jayli (7540,5 ming so‘m) tumanlarining ko‘rsatkichlari respublika o‘rtachasidan yuqori. Bo‘zatov tumanining bu boradagi ko‘rsatkichi (1989,9 ming) o‘rtacha darajadan uch martaga yaqin past.

Qoraqalpog‘istonda, 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 66 ta shifoxona muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 21 tasi Nukus shahrida joylashgan. Shuningdek, Ellikqal’a tumanida 7 ta, Chimboyda 5 ta, Qo‘ng‘irot, Nukus va Taxiatosh tumanlarida 4 tadan mavjud. Umuman olganda, barcha tuman markazlarida markaziy shifoxonalar mavjud. Shifoxonalarda koykalar o‘rni 7998 ta (40,1 % i Nukus shahrida), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 40,5 tani tashkil qiladi (Nukus shahrida 96,7 ta). Ambulator-poliklinika muassasalari soni 421 taga teng bo‘lgan holda, 120 tasi (28,5 % i) Nukus shahrida, 35 tasi (8,3 % i) To‘rtko‘l, 34 tasi (8,1 % i) Amudaryo tumanlarida faoliyat ko‘rsatadi.

Shifokorlarning umumiy soni 5420 nafar, o‘rta tibbiyot xodimlari 24827 nafar. Har 10 000 aholiga nisbatan 27,4 nafar shifokor, 125,6 nafar o‘rta tibbiyot xodimi to‘g‘ri keladi.

Qoraqalpog‘istonda 2022-yil holatiga ko‘ra, 546 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lgan. Ularda tarbiyalanuvchilar soni 93258 ta, o‘rta hisobda bitta maktabgacha ta’lim tashkilotiga 171 tadan mos keladi. 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 79,7 % ga teng (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 68,3 % ni tashkil qiladi). Bu borada mintaqa respublika hududlari orasida peshqadam hisoblanadi.

2022/2023-o‘quv yili boshida Qoraqalpog‘istonda 746 ta umumta’lim muassasalari (3 tasi nodavlat) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 17,7 % i bir smenada, 81,9 % i ikki smenada va 0,4 % i uch smenada ishlaydi. Eng ko‘p umumta’lim muassasalar Amudaryo tumanida (86 ta), Ellikqal’a (73 ta), Beruniy (72 ta) va To‘rtko‘l (69 ta) tumanlarida joylashgan. Poytaxt Nukus shahrida ularning soni 60 ta. Maktab o‘quvchilari soni 326,5 ming nafar, bitta maktabga o‘rtacha hisobda 438 ta o‘quvchi to‘g‘ri kelgan. Ayni paytda, Nukus shahri maktablarida 64,6 mingta o‘quvchilar bo‘lib, shaharda bitta maktabga o‘rtacha 1077 ta o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Ko‘rilayotgan o‘quv yilida o‘quvchilarga 38,2 ming o‘qituvchilar saboq berishgan. Jami o‘qituvchilarning 93,7 % i (35,7 mingtasi) oliy ma’lumotli. Ta’lim tillari kesimida olganda, 156,9 ming nafar o‘quvchi o‘zbek, 129,2 ming nafar o‘quvchi qoraqalpoq, 45,9 ming nafar o‘quvchi rus, 19,7 ming nafar o‘quvchi qozoq, 10,6 ming nafar o‘quvchi turkman sinflarida tahsil olgan.

Qoraqalpog‘istonda 5 ta akademik litsey mavjud bo‘lib, ularning 4 tasi Nukus shahrida, 1 tasi Chimboy tumanida joylashgan. Ularda jami 1,9 ming nafar o‘quvchi tahsil olgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonda 22 ta kasb-hunar maktabi (10,0 ming o‘quvchi), 14 ta kasb-hunar kolleji (8,3 ming o‘quvchi) va 15 ta texnikum (7,7 ming o‘quvchi) faoliyat ko‘rsatgan.

2022/2023-o‘quv yili boshida Qoraqalpog‘istonda 10 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatgan. Jumladan, Nukus shahrida Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Toshkent davlat agrar universiteti filiali, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti filiali, Toshkent tibbiyot akademiyasi filiali faoliyat ko‘rsatmoqda. Respublika OTTlaridagi talabalar soni 57503 nafar, ularga 2382 ta professor-o‘qituvchi mashg‘ulot olib borishadi. Nukus shahrida

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq bo‘limi mavjud.

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Qoraqalpog‘iston hududidan O‘zbekistonni Rossiya bilan bog‘lovchi Qo‘ng‘irot-Beynov-Aleksandrov Gay temir yo‘li o‘tadi. Shu bilan birga, Uchquduq-Miskin-Nukus hamda Buxoro-Miskin temir yo‘llarining ishga tushirilishi nafaqat Qoraqalpog‘iston balki, mamlakatimiz transport xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2022-yil davomida 33,7 mln tonna yuk tashilgan. Yuk aylanmasi 865,8 mln tonna-kmni tashkil etgan. Tashilgan yuk bo‘yicha yetakchi o‘rinni Nukus shahri (8062,4 ming t) egallaydi. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar To‘rtko‘l (6450,2 ming t) va Amudaryo (3659,0 ming t) tumanlariga ham tegishli.

Tashilgan yo‘lovchilar soni 140,2 mln nafarga teng bo‘lib, yo‘lovchi aylanmasi 4119,6 mln yo‘lovchi-kmni tashkil qiladi. Yo‘lovchi tashishda ham vaziyat yuk tashishga o‘xshab ketadi. Bu borada Nukus shahri (51047,9 ming kishi) yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, To‘rtko‘l (14227,3 ming kishi) va Beruniy (13006,2 ming kishi) tumanlari ham yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining 2022-yilda tashqi savdo aylanmasi 611,8 mln AQSH dollariga (mamlakat tashqi savdo aylanmasining 1,2 % i, hududlar orasida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan oldinda, xolos) teng bo‘lgan. Eksport hajmi 365,3 mln, import esa 246,5 mln AQSH dollarini tashkil qilgan.

Tashqi savdo aylanmasining 28,7 % i Xitoyga, 18,1 % i Rossiyaga, 17,3 % i Turkiyaga, 8,7 % i Qozog‘istonga, 6,6 % i Koreya Respublikasiga, 6,3 % i Latviyaga to‘g‘ri kelgan.

Eksport tarkibida sanoat tovarlari, asosan, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (71,5 %) va oziq-ovqat mahsulotlari (10,9 %) katta o‘rin egallagan. Import tarkibida esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (37,4 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (12,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (11,6 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (8,8 %) ga to‘g‘ri kelgan.

Eksportning hududiy tarkibida Nukus shahri va Qo‘ng‘irot tumani alohida ajralib tursa, import bo‘yicha esa Nukus shahri yaqqol ustunlik qiladi.

Ichki tafovutlari. Professor A. Soliyev Qoraqalpog‘iston hududini beshta kichik iqtisodiy rayonga ajratgan: G‘arbiy, Sharqiy, Markaziy, Janubiy va Shimoliy rayonlar.

G'arbiy rayon tarkibiga Qo'ng'irot va Shumanoy tumanlari kiradi. Rayonning Qoraqalpog'iston hududidagi ulushi 46,1 %, aholisidagi hissasi esa 9,7 % ni tashkil qiladi. G'arbiy rayon hissasiga Qoraqalpog'iston sanoat mahsulotining 6,3 % hamda qishloq xo'jaligi mahsulotining 9,3 % i mos keladi. Ushbu rayonning "norasmiy" markazi Qo'ng'irot shahridir. Rayonda yaylov chorvachiligi birmuncha rivoj topgan. Shu bilan birga, yoqilg'i va kimyo sanoati ham yuksalib bormoqda.

Shimoliy rayon Mo'ynoq tumanidan tashkil topgan bo'lib, unga Qoraqalpogiston hududining 22,7 foizi, aholisining atigi 1,7 foizi to'g'ri keladi. Rayon Qoraqalpog'iston sanoat mahsulotining 1,6 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotining 1,6 foizini beradi. Yagona shahri – Mo'ynoq (14,8 ming kishi). Rayonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bevosita Orol muammosi bilan bog'liq.

Markaziy rayon Nukus shahri, Nukus, Kegeyli, Qonliko'l, Xo'jayli va Taxiatosh tumanlarini birlashtiradi. Qoraqalpog'iston hududining 2,0 foizi, aholisining 36,4 foizi, sanoat mahsulotining 73,6 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotining 17,1 foizi shu rayon hissasiga to'g'ri keladi. Bu Qoraqalpog'istonda nisbatan rivojlangan rayon hisoblanadi. Markazi – Nukus shahri. Mintaqa asosini Nukus-Xo'jayli sanoat tuguni va Nukus shahar aglomeratsiyasi tashkil qiladi. Mazkur rayonda oziq-ovqat, to'qimachilik, elektr energetika sanoati, sholichilik, shahar atrofi qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan.

Sharqiy rayon Qorao'zak, Chimboy, Taxtako'pir va Bo'zatov tumanlaridan iborat. Qoraqalpogiston ko'rsatkichlaridagi o'rni: maydonining 18,3 % i, aholisining 11,6 % i, sanoat mahsulotining 5,8 % i, qishloq xo'jaligi mahsulotining 15,9 % i. Rayon hosil qiluvchi markaz sifatida Chimboy shahrini e'tirof etish mumkin (aholi soni – 50,5 ming kishi). Rayonda cho'l-yaylov chorvachiligi, sholichilik, sabzavotchilik katta ahamiyatga ega. Eng sust rivojlangan qishloq tumanlari ham aynan shu rayonda joylashgan.

Janubiy rayon tarkibiga Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlari kiradi. Rayon Qoraqalpogiston hududining 10,7 % ini egallab turib, aholisining 40,6 % ini mujassamlashtiradi. Bu yerda paxta va sholi yetishtirish, sabzavot va poliz elinlarini yetishtirish, yengil sanoat nisbatan yaxshi rivojlangan. Rayon Qoraqalpog'iston sanoat mahsulotining 12,7 % ini, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 53,4 % ini ta'minlaydi (2022-y.).

Xorazm viloyati. Viloyat 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Viloyat maydoni 6,05 ming km^2 bo'lib, u mamlakatimiz umumiy hududining 1,3 % ini egallaydi. Viloyatda, 1-yanvar 2023-yil holatiga ko'ra, 1958,1 ming kishi, ya'ni mamlakatimiz aholisining 5,4 % i qismi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 km^2ga 323,7 kishiga teng bo'lib, bundan yuqori ko'rsatkichlar faqat Farg'ona iqtisodiy rayonidagi viloyatlarga tegishli. Shahar aholisining ulushi 33,4 %, qishloq aholisining salmog'i esa 66,6 % ni tashkil etadi.

Viloyatning ma'muriy markazi – Urganch shahri (149,9 ming kishi, 01.01.2023-y.).

Xorazm viloyati Amudaryoning quyi oqimida, O'zbekistonning shimoli-g'arbida joylashgan bo'lib, g'arb va janubda Turkmaniston Respublikasi, shimol va shimoli-sharqda Qoraqalpog'iston Respublikasi, janubi-sharqda Buxoro viloyati bilan chegaradosh. Viloyat hududi Amudaryodagi Tuyamo'yin to'g'oni atrofida tutashgan ikki qismdan iborat. Hududining katta qismi Amudaryoning chap sohilida joylashgan bo'lib, qadimdan o'zlashtirilgan Xorazm vohasiga to'g'ri keladi. Viloyat hududining ikkinchi, kichikroq qismi Amudaryo (jumladan, Tuyamo'yin o'zanli suv ombori) ning o'ng qirg'og'ida joylashgan, asosan, cho'l-yaylov yerlaridan iborat bo'lgan Tuproqqal'a massividir.

Xorazm hududini Turkmanobod – Dashoguz – Qo'ng'irot – Beynov temir yo'li kesib o'tadi. Bu uning Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlar bilan aloqa qilishida ancha qulayliklar tug'diradi. Ammo, viloyatning ekologik-geografik o'rni, ya'ni uning Orol dengiziga yaqinligi, ushbu mintaqada vujudga kelgan ekologik vaziyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga noqulaylik tug'diradi.

Xorazm viloyatining O'zbekiston YalMdagi salmog'i 3,6 %, sanoat mahsulotidagi ulushi 3,3 %, qishloq xo'jaligi mahsulotidagi hissasi esa 6,7 % ga teng (2022-y.). Shuningdek, respublika jami chakana savdo aylanmasining 4,2 % i, pullik xizmatlarning 2,9 % i, investitsiyalarning 3,3 % i, qurilish ishlarining 4,3 % i va tashqi savdo aylanmasining 1,6 % i Xorazm viloyatiga tegishli.

Xorazm viloyati iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega. Yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatining ulushi yuqori. Viloyat qishloq xo'jaligida don, xususan, bug'doy va sholi, sabzavot, poliz, go'sht, sut, pilla yetishtirish, parrandachilik, baliq xo'jaligi nisbatan rivojlangan. Xiva shahrida xalqaro turizm an'anaviy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Xorazm viloyati iqtisodiyotining rivojlanishi ko‘p jihatdan agroiqlim va mehnat resurslariga, suv zaxiralari, Orolbo‘yi ekologik muammolarini hal qilishga hamda qo‘shni hududlar bilan iqtisodiy homkorlikni rivojlantirishga bog‘liq.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Xorazm viloyati tarkibiga 11 ta qishloq tumani, 3 ta shahar (2 tasi – Urganch va Xiva – viloyatga bo‘ysunuvchi), 56 ta shaharcha va 550 ta qishloq aholi punkti kiradi (81-jadval).

81-jadval

Xorazm viloyatining ma’muriy-hududiy bo‘linishi (01.01.2023-holatiga ko‘ra)

	Hududi (ming km²)	Tumanlar	Shaharlar	Shahar-chalar	Qishloq aholi punktlari
Xorazm viloyati	6,05	**11**	**3**	**56**	**550**
Urganch sh.	0,03		1		
Xiva sh.	0,03		1		
qishloq tumanlari:					
Bog‘ot	0,44	1		5	64
Gurlan	0,44	1		9	31
Qo‘shko‘pir	0,54	1		6	36
Urganch	0,45	1		5	71
Xazorasp	0,45	1		3	68
Tuproqqa’la	1,60	1	1	1	18
Xonqa	0,43	1		5	45
Xiva	0,43	1		6	73
Shovot	0,45	1		7	65
Yangiariq	0,40	1		6	34
Yangibozor	0,34	1		3	45

Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Viloyat ma’muriy-hududiy bo‘linishi geografik jihatdan o‘ziga xos. Bu ko‘pchilik qishloq tumanlari maydonining deyarli bir xilligida o’z aksini topadi (81-jadval). Faqat Tuproqqal’a tumanining hududi (asosan, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi cho‘l hududi hisobiga) birmuncha katta bo‘lib, u viloyat jami maydonining 26,4 % ini tashkil qiladi. Tuproqqal’a nisbatan yangi tashkil qilingan tuman hisoblanib, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2020-yildagi PQ-4671-son Qaroriga binoan, Xazorasp tumani hududining bir qismini ajratish asosida ma’muriy-hudidiy birlik sifatida tuzilgan.

Jami tumanlardan 7 tasi (Bog‘ot, Gurlan, Urganch, Xazorasp, Xonqa, Xiva va Shovot) maydoni deyarli teng bo‘lib, har biriga 0,43-0,45 ming km² maydon mos keladi. Bunday holat viloyatning bir tekis o‘zlashtirilganligi, sug‘orma dehqonchilikka ixtisoslashganligi bilan

bog‘liq. Eng katta (Tuproqqal’a) va eng kichik (Yangibozor) qishloq tumanlari orasidagi farq 4,7 martani tashkil qiladi.

Viloyat respublikamizda shahar soni eng kamligi bilan ajralib turadi, ular bor-yo‘g‘i 3 ta. 11 ta qishloq tumanidan 2 tasining ma’muriy markazi shahar (Xiva va Pitnak), 9 tasining ma’muriy markazi esa shaharcha maqomiga ega.

Shaharchalar soni bo‘yicha Gurlan tumani (9 ta) viloyatda yetakchilik qiladi. Shuningdek, Shovotda 7 ta, Yangiariq, Xiva va Qo‘shko‘pir tumanlarida 6 tadan shaharchalar bor. Tuproqqal’a tumanida esa atigi 1 ta shaharcha mavjud.

Qishloq aholi punktlari soni Xiva, Urganch va Xazorasp tumanlarida eng ko‘p.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Bu hududning qadimgi madaniyatining saqlanib qolishi ko‘p jihatdan uning geografik o‘rniga ham bog‘liq bo‘lgan. Xorazm mintaqasining chor atrofi cho‘llar bilan o‘ralganligi uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Viloyat yer usti tuzilishi murakkab emas, chunonchi u, asosan, Amudaryoning qadimgi Xorazm-Sariqamish deltasi allyuvial tekisliklari hududida joylashgan. Yer sathining nisbatan balandligi daryodan uzoqlashgan sari janubga tomon biroz ko‘tarilib boradi. Bunday geomorfologik holat va u bilan bog‘liq yer osti suvlarining joylanishi aholi manzilgohlari va xo‘jalik tarmoqlarining hududiy tashkil etish xususiyatlarini belgilab beradi.

Xorazm hududining geologik tuzilishi ayni vaqtda uning qazilma resurslariga boy emasligidan ham darak beradi. Darhaqiqat, bu yerda ko‘zga ko‘rinarli qazilma boyliklar topilmagan (ehtimol, uning janubiy va o‘ng qirg‘oq qismida kelajakda yoqilg‘i resurslari, jumladan, tabiiy gaz konlari aniqlanishi mumkin). Viloyatda mineral xomashyo resurslarining o‘ta tanqisligi og‘ir sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Bu yerda g‘isht-cherepitsa xomashyosi (Shovot, Pitnak konlari), qum (Xiva, Qorako‘l konlari) bor, xolos.

Xorazm viloyati mo‘tadil iqlim mintaqasining ichki kontinental sektorida joylashgan. Viloyatda yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 80 mmdan 160 mmgacha o‘zgaradi. Yil davomida quyosh nur sochib turadigan vaqt 2900 soatdan ortiq bo‘lib, hududda yillik sovuqsiz kunlar o‘rtacha 200, chekka janubda 204, shimoliy qismlarda esa 195 kunni tashkil etadi.

Qadimdan bu hududda dehqonchilik, asosan, suv, sug‘orish inshootlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Hatto hozirgi kunda ham iqlimning

quruq kelishi, Amudaryoda suvning kamayishi sug‘orma dehqonchilikka salbiy ta’sir qiladi. Qadimdan tashkil topgan sug‘orma dehqonchilik (chig‘iriq) madaniyati, suvdan samarali foydalanish, irrigatsiya infratuzilmasi – kanal va ariqlar (yop va solmalar) mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasining asosi hisoblanadi.


Aholisi va mehnat resurslari. Xorazm viloyati doimiy aholisining soni, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 1958,1 ming kishini tashkil etgan. Viloyat aholi soni bo‘yicha respublikada Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlaridan oldinda 11-o‘rinda turadi. Viloyat aholisi Mustaqillik yillarida (1991-2023 yy.) 892,2 ming kishiga, yoki yiliga 27,9 ming kishiga ko‘paygan.

So‘nggi yillarda aholi soni yiliga 32-34 ming kishiga, yoki 1,8-2,0 foiz atrofida ortib bormoqda. Viloyat markazi Urganch shahrida 149,9 ming kishi istiqomat qiladi. Xazorasp (202,2 ming kishi), Xonqa (194,9 ming kishi), Qo‘shko‘pir (179,0 ming kishi) va Shovot (177,1 ming kishi) tumanlarida aholi nisbatan ko‘p. Eng kam aholi Tuproqqal’a (57,9 ming kishi) tumaniga tegishli.

Xorazm viloyati aholisi zichligi bevosita bosh irrigatsiya tizimi Amudaryodan boshlanuvchi Toshsoqa-Polvon, Polvon-Shovot, shuningdek, Daryoliq-Qilichniyozboyarna kanallari yo‘nalishida, “Xazorasp-Xiva-Gurlan” uchburchagi doirasida ancha yuqori ko‘rsatkichga ega. O‘rtacha zichlik 1 km^2 ga 323,7 kishini tashkil etgan holda, u 36,0 kishidan (Tuproqqal’a tumani) 469,2 kishigacha (Urganch tumani) farq qiladi. Demak, bu borada tumanlararo tafovut 13,0 ga teng.

Viloyatda 2022-yilda tug‘ilganlar soni 44904 kishini tashkil qilgan, yoki har ming kishi hisobiga 23,1 ‰ (respublikada 26,2 ‰) bo‘lgan. O‘lganlar soni 9446 kishi, o‘lim koeffitsiyenti 4,9 ‰ (respublikada 4,8 ‰). Viloyatda tabiiy ko‘payish 18,2 promillega teng bo‘lgan.

Tug‘ilish koeffitsiyentida katta hududiy farqlar ko‘zga tashlanadi. Urganch shahrida tug‘ilish koeffitsiyenti 30,0 promillega teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich viloyatda eng yuqori hisoblanadi. Eng past koeffitsiyent esa Urganch tumanida – 20,4 ‰. Eng yuqori va past ko‘rsatkich orasidagi farq 10 ‰ atrofida. Tug‘ilish koeffitsiyenti Xazorasp tumanidan tashqari barcha tumanlarda 24,0 ‰ gacha tashkil qiladi. O‘lim darajasida hududiy farqlar katta emas (Urganch shahrini hisobga olmaganda). Aholining tabiiy ko‘payishi Urganch va Xiva shahri, Bog‘ot, Xazorasp, Tuproqqal’a va Xonqa tumanlarida viloyat darajasidan yuqori bo‘lgan (63-rasm).



63-rasm. Xorazm viloyati aholisining tabiiy xarakati (har 1000 kishiga nisbatan, 2022-yil yakunlari bo‘yicha)

Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Viloyatda aholi migratsiyasi respublikaning boshqa hududlariga qaraganda sust. Masalan, 2000-yilda viloyatga 7182 kishi ko‘chib kelgan holda, bu yerdan 8565 kishi ko‘chib ketgan va migratsiya qoldig‘i minus 1383 kishini tashkil etgan. 2022-yilda viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 6685 kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 8148 kishini tashkil qilgan. Migratsiya qoldig‘i minus 1463 kishiga teng. Eng katta minus qoldiqlar Xazorasp (-722), Xonqa (-317), Qo‘shko‘pir (-302) tumanlarida kuzatilgan.

Xorazm viloyati aholisining yana bir xususiyati aholisi tarkibining bir millatliligi hisoblanadi. Masalan, 2021-yil ma’lumotlariga qaraganda, viloyat aholisining 97,8 % ini o‘zbeklar tashkil etgan, qozoqlar va turkmanlarning ulushi 0,5 % dan.

Xorazm viloyati shaharlar to‘ri eng kam rivojlangan, urbanizatsiya darajasi bo‘yicha respublikamizda oxirgi o‘rinda turadi. Jami aholining 33,4 % i shahar joylarda mujassamlashgan, ma’lumki, mazkur ko‘rsatkich respublikamiz miqyosida deyarli 51 % ni tashkil qiladi. Shahar aholisi 3 ta shahar (Urganch, Xiva va Pitnak) hamda 56 ta shaharchada yashaydi.

Viloyatning ma’muriy markazi – Urganchda 149,9 ming, ikkinchi shahar – Xivada 97,0 ming kishi istiqomat qiladi. Tuyamo‘yin gidrouzeli qurilishi munosabati bilan barpo etilgan Tuproqqal’a tumani markazi

Pitnak shahrida 20,3 ming aholi yashaydi. Shaharchalar orasida demografik salohiyati bo‘yicha Xonqa (43,4 ming kishi) va Gurlan (30,4 ming kishi) alohida ajralib tursa, Qo‘shko‘pir, Shovot, Xazorasp shaharchalarida, mos holda, 20,3; 20,6; 20,0 ming kishidan aholi bor. Ta’kidlash lozimki, 1992-yilda Xonqa, Gurlan, Shovot, Xazorasp va Qo‘shko‘pirning ma’muriy maqomi rasman shahardan shaharchaga o‘zgartirilgan.

Viloyatda 550 ta turli katta-kichiklikdagi qishloq aholi punktlari qayd etilgan. Bitta qishloq aholi punktiga o‘rta hisobda 2382 ta aholi mos keladi. Bu respublika hududlari orasidagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.


2022-yilda Xorazm viloyatida mehnat resurslarining soni 1050,9 ming kishiga teng bo‘lib, bu viloyat aholisining 53,7 % iga tengdir. Iqtisodiy faol aholi 815,5 ming, iqtisodiyotda band bo‘lganlar esa 741,8 ming kishi. Ishsizlarning umumiy soni 73,7 ming kishini tashkil etgan holda, ishsizlik darajasi 10 % ga teng.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlaridan eng ko‘p band aholi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (32,2 %), qurilish (11,6 %), ta’lim (9,8 %), savdo (9,0 %), sanoat (8,6 %) kabi sohalarga to‘g‘ri keladi (2022-y.).

Viloyat xo‘jaligining tarmoqlar tarkibi, ixtisoslashuvi. Xorazm viloyatining YaHM hajmi, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, 31,96 trln so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 105,7 % ga o‘sgan (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich bilan teng). Viloyatning mamlakat YaIMdagi salmog‘i 3,6 % ga teng. Bu jihatdan viloyat respublika hududlari orasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Jizzax viloyatlaridan oldinda, xolos.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblangan YaHM hajmi, 2022-yil ma’lumotlariga binoan, 16,46 mln so‘mni (respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 24,92 mln so‘m) tashkil etgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 103,9 % ga o‘sgan.

Viloyat YaHMning tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi 44,5 % (respublika YaIMdagi ulushi 23,4 %), sanoat va qurilishning salmog‘i 20,6 % (respublika YaIMdagi salmog‘i 31,1 %), xizmatlarning hissasi 31,6 % (respublika bo‘yicha 38,7 %), sof soliqlar ulushi esa 3,3 % (respublika YaIMdagi ulushi 6,8 %) ga teng bo‘lgan. So‘nggi yillarda viloyat YaHM tarmoqlar tarkibida agrar sektorning ulushi biroz pasayib, boshqa sohalarning salmoqlari esa birmuncha ko‘tarildi.



64-rasm. Xorazm viloyatining iqtisodiy xaritasi

Manba: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Umumiy o‘rta talim maktablarning 8-sinfi uchun o‘quv atlas. – T., 2023. – B. 54.

Xorazm viloyati respublikadagi hududiy mehnat taqsimoti tizimida avtomobilsozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, paxta, sholi, poliz, go‘sht, sut, pilla yetishtirishga ixtisoslashgan (64-rasm).

Sanoati. Xorazm viloyatining yalpi sanoat mahsuloti hajmi 2022-yilda 18,32 trln so‘mga teng bo‘lib, oldingi yilga nisbatan 115,1 % ga o‘sgan. Respublika sanoati hududiy tarkibida viloyatning hissasi 3,3 % ni tashkil etib, bu borada viloyat mamlakatimiz hududlari ichida so‘nggi o‘rinlardan birini egallaydi.

Viloyat sanoati tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,1 % ni tashkil etgan.

Xorazm viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibi unchalik murakkab emas. Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati alohida ajralib turgan holda, ulushi 40,6 %, jumladan, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 38,4 % ni tashkil etgan (2022-y.). Bunga, asosan, Pitnak shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan Xorazm avtomobil zavodi katta ta’sir ko‘rsatgan.

Oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish (oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati) ning hissasi 27,5 %, to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish (yengil sanoat) ning salmog‘i esa 21,3 % ni tashkil etgan. Boshqa sanoat tarmoqlarining ulushi ancha past.

Keyingi yillarda viloyatda trikotaj, non va non mahsulotlari, omuxta yem, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish o‘sib bormoqda. Ayni vaqtda sanoat majmuida og‘ir sanoat, xususan, yoqilg‘i-energetika, qora va rangli metallurgiya sust rivojlangan.


Viloyatda Tuyamo‘yin GES yagona elektr energiya ishlab chiqaruvchi manba sanaladi (2022 yilda 633,1 mln kWh elektr energiya ishlab chiqargan, respublikaga nisbatan 0,9 %).

Viloyat sanoatining hududiy tarkibi uncha rivojlanmagan. Bu borada, eng avvalo, Tuproqqal’a tumani va viloyat ma’muriy markazi – Urganch yetakchilik qiladi. Xususan, jami sanoat mahsulotining 51,6 % Tuproqqal’a tumaniga, 17,3 % Urganch shahriga to‘g‘ri keladi (65-rasm).

Shu bilan birga, Urganch tumani (5,1 %), Shovot tumani (3,6 %), Xonqa tumani (4,0 %) nisbatan ko‘proq sanoat mahsulotini ishlab chiqargan, qolgan tumanlar ko‘rsatkichlari 3,0 % dan past.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash Tuproqqal’a tumani va Urganch shahrida, yengil sanoat, jumladan, to‘qimachilik Shovot,

Urganch, Gurlan va Xonqada, gilam ishlab chiqarish Xivada yo‘lga qo‘yilgan.



65-rasm. Xorazm viloyati jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi (% hisobida, 2022-yil yakunlari bo‘yicha)

Rasm mualliflar tomonidan Xorazm viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Aksariyat qishloq tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud. Oziq-ovqat sanoati esa Urganch, Xazorasp, Xonqa va boshqa tumanlarda nisbatan rivojlangan, Xonqa va Shovot tumanlarida yirik don kombinatlari bor.


Qishloq xo‘jaligi. Xorazm viloyati 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi maxsulotining 6,7 foizini bergan. Bunda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 24,61 trln so‘mni tashkil etgan va 2021-yilga nisbatan 103,4 % o‘sgan. Jami agroiqtisodiyot tizimida yetishtirilgan mahsulotning 53,9 foizini chorvachilik mahsulotlari tashkil qiladi. Fermer xo‘jaliklari 27,7 %, dehqon xo‘jaliklari esa 67,4 % yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotini ta’minlaydi.

Viloyat bo‘yicha qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar 331,5 ming gektar, yoki viloyat jami yer fondining 54,5 foizini tashkil qiladi. Sug‘oriladigan yerlarning maydoni 222,3 ming gektar bo‘lib, bu qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 2/3 qismidan ko‘prog‘i demakdir. Alohida ta’kidlash joizki, bu borada, ya’ni yerlardan qishloq xo‘jaligida intensiv foydalanish nuqtai nazaridan Xorazm viloyati respublikamizda oldinda turadi. Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Xonqa, Yangiariq,

Xiva va Yangibozor tumanlarida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 100 foizi sug‘oriladigan yerlardan iborat.

Xorazm viloyatida 2022-yilda 459,9 ming tonna don (respublika yalpi hosilining 5,7 % i, 11-o‘rin), 295,4 ming tonna paxta (8,4 %; 3-o‘rin), 636,9 ming tonna sabzavot (5,7 %, 8-o‘rin), 144,5 ming tonna kartoshka (4,2 %, 9-o‘rin), 173,5 ming tonna poliz (7,2 %, 7-o‘rin), 158,6 ming tonna meva va rezavorlar (5,3 %, 8-o‘rin), 48,6 ming tonna uzum (2,8 %, 10-o‘rin), 174,6 ming tonna go‘sht (6,4 %, 10-o‘rin), 1097,4 ming tonna sut (9,4 %, 5-o‘rin), 478,9 mln dona tuxum (5,9 %, 9-o‘rin), 2015,3 tonna pilla (8,3 %, 5-o‘rin) yetishtirilgan, 29565 tonna baliq (16,4 %, 1-o‘rin) ovlangan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo‘yicha Urganch, Xonqa va Gurlan tumanlari alohida ajralib turadi (66-rasm).



66-rasm. Xorazm viloyati qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida, 2022-yil yakunlari bo‘yicha)
Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti

Viloyatning barcha qishloq tumanlarida boshoqli don, asosan, bug‘doy yetishtiriladi. Gurlan, Xonqa, Urganch, Yangibozor va Bog‘ot tumanlarining har birida viloyat g‘allasining 10 % idan ko‘prog‘i olinadi. Sholi hosili bo‘yicha Gurlan va Xazorasp tumanlari yetakchi. Sabzavotchilik bo‘yicha, eng avvalo, Xiva, Xonqa va Urganch, kartoshka hosiliga ko‘ra, Urganch, Shovot va Xonqa oldingi o‘rinlarda turadi. Bog‘dorchilik mahsulotining hajmi Shovot va Xivada ko‘proq, uzum

yetishtirish bo‘yicha Bog‘ot tumani yetakchi (jami viloyatda yetishtirilgan uzumning 33,2 %).

Chorvachilik mahsulotlarining geografiyasi o‘ziga xos. Yirik shohli qoramollar soni bo‘yicha Xonqa (120172 bosh) va Urganch tumani (116224 bosh), qo‘y va echkilar soni bo‘yicha Qo‘shko‘pir tumani (90270 bosh), parrandalar soni bo‘yicha Urganch tumani (1003,9 ming) peshqadamlik qiladi. Urganch, Shovot va Qo‘shko‘pir tumanlari go‘sht yetishtirishda yuqori ko‘rsatkichga ega. Sut yetishtirish Urganch, Xazorasp va Xonqa tumanlarida yaxshi rivojlangan.

So‘nggi yillarda viloyatda baliqchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. 2022-yilda viloyatda 29565,5 tonna baliq ovlangan (jami respublikada ovlangan baliqning 16,4 %). Bu borada viloyatda Yangiariq tumani yaqqol peshqadamlik qiladi, tumanga jami viloyatda yetishtirilgan baliqlarning 30,2 % i mos keladi. Shuningdek, Xiva va Bog‘ot tumanlaring ko‘rsatkichlari ham yuqori.

Ijtimoiy sohalar geografiyasi. Xorazm viloyatida 2022-yilda ko‘rsatilgan pullik xizmatlar hajmi 10303,2 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu borada viloyatning respublikadagi ulushi 2,9 % ni tashkil etib, hududlar orasida oxirgi o‘rinlarni egallaydi. Pullik xizmatlar tarkibida savdo xizmatlarining ulushi 25,1 %, transport xizmatlari ulushi 22,9 %, moliyaviy xizmatlarning salmog‘i 21,1 % tashkil etadi, boshqa turdagi xizmatlarning ko‘rsatkichlari ancha pastroq.

Pullik xizmatlar hajmining hududiy taqsimlanishida Urganch shahrining ulushi (36,6 %) keskin ajralib turadi. Boshqa hududlardan nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Urganch (7,7 %) va Xazorasp (6,7 %) tumanlarida qayd qilingan. Eng past ko‘rsatkich Tuproqqal’a (2,2 %) va Yangibozor (3,9 %) tumanlariga tegishli. Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi viloyatda 5307,6 ming so‘mni tashkil etgan holda, faqat Urganch shahri viloyat bo‘yicha o‘rtacha darajadan yuqori.

Xorazm viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi 2022-yilda 11317,2 mlrd so‘mga teng bo‘lgan (respublikadagi ulushi 4,2 %). Urganch shahri hissasiga viloyatdagi jami chakana savdo tovar aylanmasining 27,7 % i to‘g‘ri keladi. Urganch (11,8 %) va Xazorasp (10,7 %) tumanlarining ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda, chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo‘yicha 5830,0 ming so‘mga teng. Bu borada Urganch shahridan tashqari Urganch va Xazorasp tumanlarining ko‘rsatkichlari viloyat darajasidan yuqori.

Xorazm viloyatida 2022-yilda 451 ta maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularda tarbiyalanuvchilar soni 85517 nafarni tashkil qilgan. Bunday turdagi ta'lim muassasalarining har biriga o'rta hisobda 190 ta tarbiyalanuvchi mos keladi. 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi, 2022-yil oxiriga ko'ra, 76,5 % ni tashkil qilgan (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 68,3 % ga teng).

Shuningdek, 2022/2023-o'quv yilida viloyatda 573 ta umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatgan, ulardan 13 tasi nodavlat ta'lim tashkiloti hisoblanadi. Jami o'quvchilar soni 365,7 ming nafar, bitta maktabda o'rtacha 638 ta o'quvchiga ta'lim berilgan. Respublikamizda bu ko'rsatkich 614 nafar o'quvchiga teng. Ta'lim tillari kesimida olganda, 337,8 ming nafar o'quvchi o'zbek, 26,3 ming nafar o'quvchi rus, 0,5 ming nafar o'quvchi turkman, 0,2 ming nafar o'quvchi qozoq tillarida tahsil olgan.

Ko'rilayotgan o'quv yilida viloyatda 3 ta akademik litsey, 25 ta kasb-hunar maktabi, 8 ta kollej va 13 ta texnikum faoliyat ko'rsatgan. Ularda, mos tarzda, 1,5; 8,9; 4,9 va 4,2 ming nafar o'quvchi tahsil olgan.

Viloyatda 8 ta oliy ta'lim tashkiloti faoliyat olib boradi. Ularning bittasi xorijiy oliy ta'lim tashkilotining filiali, ikkitasi nodavlat oliy ta'lim tashkiloti hisoblanadi. Jami talabalar soni 42,8 ming nafar, ularga 1571 nafar professor-o'qituvchilar mashg'ulot olib borishadi. Professor-o'qituvchilarning 43,6 % i ilmiy darajaga ega. Viloyat jami oliy o'quv yurtlarida 724 nafar chet el fuqorolari tahsil oladi, ularning 47,1 % Turkmaniston, 27,8 % Pokiston, 21,7 % Hindiston davlati fuqorolari hisoblanadi. Urganch davlat universiteti yirik oliygohlardan sanaladi. Xiva shahrida Ma'mun akademiyasi o'zining ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib bormoqda.

Xorazm viloyatida 2022-yilda 75 ta shifoxona muassasalari xizmat ko'rsatgan, ularning 34 tasi Urganch shahrida joylashgan. Shifoxonalarda bemorlar o'rni 7,8 mingta yoki har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari soni 39,8 tani tashkil qiladi. Tumanlarning barchasi tuman markaziy kasalxonalari, tug'ruqxona majmuiga ega, yirikroq maxsus ixtisoslashtirilgan kasalxonalar Urganch shahri, Urganch tumani va Xiva shahrida joylashgan. Viloyatda jami shifokorlar 5,6 ming nafar, o'rta tibbiyot xodimlari 17,2 nafarni tashkil qiladi, har 10 ming aholiga 91,2 ta mos keladi. Viloyatda ambulator-poliklinika muassasalari soni 462 ta.

Xorazmda turizm an'anaviy ahamiyatga ega. 2022-yil boshiga viloyatda turistik firma va tashkilotlar soni 14 tani tashkil qilgan, mehmonxonalar soni 75 ta (respublikada 1167 ta).

Transport infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalari. Xorazm viloyatida 2022-yil davomida 36,9 mln tonna yuk tashilgan. Yuk va yo'lovchi tashishning aksariyat qismi avtomobil transporti orqali amalga oshirilgan. Viloyatda tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Urganch tumani egalladi. Unga jami viloyatda tashilgan yuklarning 17,4 % i to'g'ri keladi. Shuningdek, yuqori ulush Urganch shahri (12,7%) va Xiva tumanida (12,2 %) ham qayd etilgan. Yuk aylanmasi 1046,8 mln tn-kmni tashkil qilgan.

Viloyatning 2022-yildagi tashqi savdo aylanmasi 785,5 mln AQSH dollarini (jami respublika tashqi savdo aylanmasining 1,6 %) tashkil qilgan. Jumladan, eksport 245,2 mln, import esa 540,3 mln AQSH dollariga teng bo'lgan. Eksportda asosiy o'rinni oziq-ovqat mahsulotlari (33,0 %) tashkil qiladi. Importda esa mashina va asbob-uskunalar yuqori ko'rsatkichga ega (82-jadval).

82-jadval

Xorazm viloyatining eksport va import tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foizda)

	2010-y.	2020-y.	2022-y.
Tashqi savdo aylanmasi	**100**	**100**	**100**
Eksport	74,4	36,1	31,4
Import	25,6	63,9	68,6
Eksport tarkibi	**100**	**100**	**100**
shu jumladan:			
paxta tolasi	83,8	4,3	0,1
oziq-ovqat mahsulotlari	1,1	31,7	33,0
kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,8	0,9
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	0,0	2,1
qora va rangli metallar	0,0	0,8	1,6
mashina va asbob-uskunalar	0,2	0,1	0,1
xizmatlar	2,5	5,2	6,6
boshqalar	12,4	57,1	55,6
Import tarkibi	**100**	**100**	**100**
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari	9,3	27,8	38,1
kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan buyumlar	20,8	5,8	5,4
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	0,9	1,7
qora va rangli metallar	1,2	2,9	3,2
mashina va asbob-uskunalar	34,0	30,6	38,5
boshqalar	34,8	32,0	13,0

Jadval mualliflar tomonidan Xorazm viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xorazm viloyati eksportining asosiy qismi Rossiya, Xitoy, Afg'oniston va Turkiya davlatlariga to'g'ri keladi. Importda katta ulush 6 ta hamkor davlat: Braziliya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston hamda Hindiston hissasiga to'g'ri keladi. Ular umumiy import hajmining 84,2 % ini ta'minlab beradi.

Eksport hajmida Urganch shahar (11,8%), Bog'ot (13,6 %), Shovot (10,8 %) va Xonqa (10,5 %) tumanlari yetakchilik qiladi. Importda esa, Tuproqqal'a tumani (38,1 %), Urganch shahar (22,4 %) va Yangiariq tumani (10,2 %) ustunlikka ega. Qolgan hududlarda bu ko'rsatkichlar ancha past.

Ichki tafovutlari. Xorazm viloyati hududining uncha katta emasligi, uning kompakt (ixcham) ekanligi, aholi va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning deyarli bir tekis taqsimlanganligi bu yerda, ayrim boshqa viloyatlarga nisbatan ichki iqtisodiy rayonlarga ajratish ancha mushkul masaladir. Ammo shunga qaramasdan, xorazmlik geograf O.K. Raximov tomonidan Xorazm viloyati tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklarining xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari va ulardan foydalanish holati, ixtisoslashuvi, ishchi kuchining o'zaro almashinuvi jihatidan hududiy o'xshashlik va tafovutlari, o'zaro bog'liqliklaridan kelib chiqib, 4 ta iqtisodiy geografik mikrorayonga ajratish taklif qilingan^

Markaziy, ya'ni, katta shaharning mavjudligi va uning ta'sirida rivojlangan hamda sanoat ishlab chiqarishi ustunlik qiluvchi iqtisodiy mikrorayon (Urganch shahri, Xonqa va Urganch tumanlari);

Shimoli-G'arbiy, ya'ni, qishloq xo'jaligi bilan bo'g'liq sanoat tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud iqtisodiy mikrorayon (Shovot, Gurlan va Yangibozor tumanlari);

Janubi-G'arbiy, ya'ni, rekreatsiya va turizmni rivojlantirish ustuvorlikka ega iqtisodiy mikrorayon (Xiva shahri, Qo'shko'pir, Yangiariq va Xiva tumanlari);

Janubi-Sharqiy, sanoat ishlab chiqarishi eng ustun bo'lgan mikrorayon (Bog'ot, Xazorasp va Tuproqqal'a tumanlari).

Xorazm viloyatining istiqbolda rivojlanishi, eng avvalo, mavjud mehnat resurslari va qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash, avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish, hududiy agroindustrial majmuani takomillashtirish bilan bog'liq. Bu xususda uning tranzit holatiga ega bo'lgan iqtisodiy geografik o'rnidan ham foydalanish talab etiladi.

Umuman olganda esa, Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini uning Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan integratsiya

asosida, yagona iqtisodiy makon doirasida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu borada Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonini tashkil etuvchi bu ikki ma'muriy birlik bir-birini to'ldiruvchi imkoniyatlarga ega.

Savol va topshiriqlar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatini bitta iqtisodiy rayon tarkibiga kiritilishining omillarini tushuntiring.
2. Iqtisodiy rayonning tabiiy sharoiti va boyliklari, demografik vaziyatiga iqtisodiy geografik jihatdan baho bering.
3. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'rniga baho bering.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakatimizda qanday sohalarga ixtisoslashgan va uning istiqboldagi rivojlanish omillari qaysilar?
5. Qoraqalpog'istonda qanday iqtisodiy rayonlar ajratiladi?
6. Xorazm viloyatida og'ir sanoat, rangli metallurgiya sanoatini rivojlantirish imkoniyatlari cheklanganligini izohlang.
7. Xorazm viloyati aholi joylashuv xususiyatlari, urbanizatsiya jarayonlarini izohlang.
8. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining asosiy muammolari va istiqbolda rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilang.
9. Orol muammosining mohiyati va sabablari, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tushuntiring.

Test savollari

1. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayon quyidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan?
A) Kartoshka
B) Uzum
C) Paxta
D) Sabzavot

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakat ichidagi mehnat taqsimotida qaysi tarmoqlarga ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi?
A) Neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari sanoati
B) Oziq-ovqat va yengil sanoat
C) Metallurgiya sanoati
D) O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy-hududiy bo‘linishida eng so‘nggi o‘zgarishlar qaysi qishloq tumanining tashkil etilishi bilan ro‘y bergan?

A) Qonliko‘l
B) Bo‘zatov
C) Taxiatosh
D) Amudaryo

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi professor A. Soliev tomonidan nechta kichik iqtisodiy rayonga ajratilgan?

A) 4 ta
B) 5 ta
C) 6 ta
D) 8 ta

5. Xorazm viloyatining qishloq xo‘jaligida ixtisoslashgan tarmog‘i qaysi?

A) Sholichilik
B) Sabzavotchilik va polizchilik
C) Pillachilik
D) Bog‘dorchilik

6. Xorazm viloyatida viloyat markazidan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi, viloyatga bo‘ysunuvchi shaharni belgilang.

A) Pitnak
B) Xonqa
C) Xiva
D) Shovot

7. Quyidagi foydali qazilmalaridan qaysi biri Xorazm viloyatida mavjud?

A) Neft va gaz
B) Qurilish materiallari
C) Rangli metallar
D) Mineral tuzlar

22-§. Iqtisodiy rayonlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolari

Hududlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini taqqoslama baholash iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Hududlar rivojlanish darajasini bir nechta mezon (ko‘rsatkich) asosida baholash natijasida hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning kuchli va kuchsiz jihatlari aniqlanadi, mintaqaviy siyosatning ustuvor vazifa va yo‘nalishlari belgilab olinadi. Shuningdek, mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlari solishtirganda ijtimoiy rivojlanish darajasi iqtisodiy salohiyatidan ko‘ra yuqori yoki pastroq bo‘lgan hududlar aniqlanadi. Shu bois, hududlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini reyting baholashning metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash uchun quyidagi statistik ko‘rsatkichlar tanlab olindi:

1) Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (mln so‘m);
2) Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti (mln so‘m);
3) YaHM tarmoqlar tarkibida sanoat ulushi (foiz);
4) Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (mln so‘m);
5) Aholi jon boshiga qurilish ishlari (mln so‘m);
6) Aholi jon boshiga pullik xizmatlar (mln so‘m);
7) Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (mln so‘m);
8) Har 1000 aholiga kichik biznes subyektlari soni;
9) Aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollari);
10) Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni;

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar umumiy holatda mintaqalarning hozirgi bosqichdagi iqtisodiy salohiyatini aks ettiradi. Tahlil uchun tanlangan har bir ko‘rsatkichning qiymatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2022-yil ma’lumotlari bo‘yicha olindi. Bunda har bir ko‘rsatkich bo‘yicha hududlarning reyting o‘rinlari belgilab olindi, ko‘rsatkich qiymatlari bir xil bo‘lgan hududlarning o‘rinlari ham bir xil sifatida qabul qilindi. Keyingi bosqichda respublikaning har bir hududi uchun tegishli 10 ta statistik ko‘rsatkich bo‘yicha reyting o‘rinlarining o‘rtacha arifmetik qiymati hisoblab chiqildi hamda ushbu raqam asosida mintaqalarning integral (yalpi) reyting ko‘rsatkichi (pozitsiyasi, o‘rni) aniqlab olindi (83-jadval).

83-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasini reyting baholash (2022-yil yakunlariga ko‘ra)

O‘zbekiston hududlari	Iqtisodiy ko‘rsatkichlar										O‘rtacha o‘rin ko‘rsatkichi	Hududlarning integral reyting o‘rni
	Aholi jon boshiga YaHM		Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti		YaHM tarmoqlar tarkibida sanoatning ulushi		Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar		Aholi jon boshiga qurilish ishlari			
	mln so‘m	o‘rin	mln so‘m	o‘rin	foiz	o‘rin	mln so‘m	o‘rin	mln so‘m	o‘rin		
Toshkent sh.	50,68	2	36,87	2	30,2	3	19,5	1	10,97	1		
Toshkent v.	31,5	3	31,35	3	46,0	2	11,78	4	4,1	4		
Andijon v.	16,56	7	16,46	4	22,4	5	4,49	12	2,05	14		
Farg‘ona v.	14,22	12	7,72	9	18,9	7	3,91	14	2,17	12		
Namangan v.	13,86	13	6,15	13	14,5	11	4,84	9	2,28	10		
Sirdaryo v.	20,43	5	13,72	5	24,1	4	14,17	3	3,71	5		
Jizzax v.	18,6	6	7,64	10	12,8	13	7,37	6	2,35	9		
Samarqand v.	15,32	9	7,21	11	15,6	10	5,39	7	2,15	13		
Navoiy v.	63,83	1	80,55	1	68,0	1	18,57	2	5,81	2		
Buxoro v.	22,98	4	13,67	6	17,2	8	10,6	5	4,18	3		
Qashqadaryo v.	14,37	11	6,62	12	16,4	9	4,7	10	2,27	11		
Surxondaryo v.	12,56	14	2,63	14	6,7	14	4,15	13	2,36	8		
Xorazm v.	16,47	8	9,44	7	13,9	12	4,54	11	2,52	7		
Qoraqalpog‘iston	15,25	10	9,07	8	21,7	6	5,15	8	2,7	6		
O‘zbekiston hududlari	Iqtisodiy ko‘rsatkichlar											
	Aholi jon boshiga pullik xizmatlar		Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi		Har 1000 aholiga kichik biznes subyektlari soni		Aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi		Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni			
	mln so‘m	o‘rin	mln so‘m	o‘rin	birlik	o‘rin	ming AQSH doll.	o‘rin	birlik	o‘rin		
Toshkent sh.	47,22	1	28,18	1	35,9	1	6712,7	1	9716	1	**1,4**	**1**
Toshkent v.	8,76	3	10,68	3	19,7	5	1885,3	2	1642	2	**3,1**	**3**
Andijon v.	5,37	9	6,66	9	14,8	12	1302,1	3	433	6	**8,1**	**6**
Farg‘ona v.	5,57	7	6,61	11	15,4	9	523,7	8	596	5	**9,4**	**8**
Namangan v.	4,97	12	6,64	10	13,2	13	430,5	10	317	8	**10,9**	**11**
Sirdaryo v.	5,67	5	5,51	13	23	3	916,5	5	219	12	**6,0**	**5**
Jizzax v.	5,47	8	7,78	5	21,5	4	471,4	9	228	11	**8,1**	**6**
Samarqand v.	5,58	6	6,68	8	15	11	585,2	7	710	3	**8,5**	**7**
Navoiy v.	8,85	2	11,71	2	24,8	2	1191,3	4	279	9	**2,6**	**2**
Buxoro v.	7,92	4	9,13	4	19	6	615,9	6	400	7	**5,3**	**4**
Qashqadaryo v.	4,63	14	5,95	12	15,5	8	158,9	13	246	10	**11,0**	**12**
Surxondaryo v.	4,65	13	6,99	6	12,6	14	134,3	14	626	4	**11,4**	**13**
Xorazm v.	5,31	11	6,91	7	15,8	7	404,6	11	193	14	**9,5**	**9**
Qoraqalpog‘iston	5,32	10	5,5	14	15,3	10	311,8	12	196	13	**9,7**	**10**

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Tahlil ko‘rsatilishicha, iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha dastlabki 3 ta reyting o‘rni Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlariga tegishli. Ayniqsa, Toshkent shahrining ko‘rsatkichlari e’tiborga loyiq, chunki tanlangan 10 ta ko‘rsatkichdan 7 tasi bo‘yicha poytaxt respublika hududlari orasida birinchi o‘rinni egallamoqda. Aholi jon boshiga YaHM va sanoat mahsuloti ko‘rsatkichlari bo‘yicha respublikada Navoiy viloyatidan keyingi 2-o‘rinda, YaHM tarmoqlar tarkibida sanoatning ulushi bo‘yicha esa Navoiy va Toshkent viloyatlaridan keyingi 3-o‘rinda turadi. Navoiy viloyati 5 ta ko‘rsatkich bo‘yicha 2-o‘rin, 3 ta ko‘rsatkich bo‘yicha 1-o‘rin, aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha 4-o‘rin, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni bo‘yicha esa 9-o‘rin egallaydi. Toshkent viloyatining turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha reyting o‘rinlari 2-chidan 5-chigacha o‘zgaradi. Navoiy viloyatining iqtisodiy salohiyatini, asosan, ko‘p tarmoqli sanoat ishlab chiqarishi belgilasa, Toshkent shahri va viloyatida sanoatdan tashqari, poytaxtlilik omili ham, albatta, katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha hududlarning birinchi beshtaligiga, shuningdek, Buxoro (4-o‘rin) va Sirdaryo (5-o‘rin) viloyatlari ham kiradi.

Respublika miqyosida iqtisodiy rivojlanishning o‘rtacha darajasi Andijon (6-o‘rin), Jizzax (6-o‘rin), Samarqand (7-o‘rin) va Farg‘ona (8-o‘rin) viloyatlarida qayd qilingan. Bu hududlarning turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha reyting o‘rinlari keskin ravishda farq qiladi. Ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha mamlakat miqyosida 3-4-o‘rin egallasa, boshqalari bo‘yicha 13-14-o‘rinda turadi.

Iqtisodiy rivojlanishning eng past ko‘rsatlichlari esa Xorazm viloyati (9-o‘rin), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (10-o‘rin), Namangan (11-o‘rin), Qashqadaryo (12-o‘rin) va Surxondaryo (13-o‘rin) viloyatlariga xos. Bu borada, ayniqsa, Surxondaryo viloyatidagi vaziyat e’tiborni tortadi, chunki ko‘rsatkichlarning teng yarmi (aholi jon boshiga YaHM, sanoat mahsuloti va tashqi savdo aylanmasi, YaHM tarkibida sanoatning ulushi, har 1000 aholiga kichik biznes subyektlari soni) bo‘yicha bu mintaqa mamlakat hududlari orasida so‘nggi o‘rinda turibdi.

Ta’kidlash lozimki, bitta iqtisodiy rayon tarkibiga kiruvchi hududlarning iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari ko‘p holatda bir-biriga yaqin. Buni, ayniqsa, Toshkent, Mirzacho‘l, Quyi Amudaryo va Janubiy iqtisodiy rayonlar doirasida ko‘rish mumkin. Zarafshon iqtisodiy rayonida Samarqand viloyatining ko‘rsatkichlari Navoiy va Buxoro viloyatlaridan biroz orqada bo‘lsa, Farg‘ona iqtisodiy rayonida Namangan viloyatidagi iqtisodiy vaziyat Andijon va Farg‘ona

viloyatlariga qaraganda birmuncha muammoliroq hisoblanishi mumkin. Umuman olganda, iqtisodiy rayonlar kesimida iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha Toshkent va Zarafshon iqtisodiy rayonlari yetakchi, Mirzacho‘l va Farg‘ona iqtisodiy rayonlari o‘rtacha, Quyi Amudaryo va Janubiy iqtisodiy rayonlari esa nisbatan past o‘rinlarni egallamoqda.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlardan tashqari, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy rivojlanishdagi tafovutlarning tahlili ham katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy rivojlanish darajasini baholash maqsadida turmush darajasi va sifatini muayyan ravishda aks ettiradigan quyidagi statistik ko‘rsatkichlar tanlab olindi:

1) Aholi jon boshiga umumiy daromadlar (ming so‘m);
2) O‘rtacha nominal ish haqi (ming so‘m);
3) O‘rtacha pensiya miqdori (ming so‘m);
4) Aholi jon boshiga uy-joy fondi (m^2);
5) Aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minlanganligi (%);
6) Aholining tabiiy gaz bilan ta’minlanganligi (%);
7) Aholining bandlik darajasi (%);
8) Har 10 000 aholiga shifoxona o‘rinlari soni;
9) Har 10 000 aholiga shifokorlar soni;
10) 1-6 yoshli bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi (%);

Sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlarning 2022-yil holatiga ko‘ra rasmiy davlat statistika manbalaridan olingan qiymatlari 84-jadvalda keltirilgan. Bunda mintaqalarning ijtimoiy rivojlanish darajasini reyting baholash metodikasi yuqorida keltirilgan iqtisodiy rivojlanish darajasini reyting baholash metodikasi bilan bir xil. Ya’ni, har bir ko‘rsatkich bo‘yicha hududlarning o‘rinlari aniqlangandan so‘ng ularning o‘rtacha arifmetik qiymatlari bo‘yicha mintaqalarning ijtimoiy rivojlanish darajasining integral reyting pozitsiyalari belgilab olindi.

Ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent shahriga tegishli bo‘lib, 10 ta ko‘rsatkichdan 9 tasi bo‘yicha mamlakat poytaxti 1-o‘rinda turadi. Faqatgina aholi jon boshiga uy-joy fondi maydoni bo‘yicha Toshkent shahri hududlar orasida 3-o‘rinni egallaydi. Mintaqalar orasida 2- va 3-o‘rinni, mos ravishda, Navoiy va Toshkent viloyatlari turadi. Lekin mezonlar kesimida ko‘rib chiqilganda, bu ikki hududning respublika miqyosidagi pozitsiyalari ancha xilma-xil bo‘lib, 2-3-o‘rindan 10-11-o‘ringacha o‘zgaradi.

84-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy rivojlanish darajasini reyting baholash (2022-yil yakunlariga ko‘ra)

O‘zbekiston hududlari	Ijtimoiy ko‘rsatkichlar										O‘rtacha o‘rin ko‘rsatkichi	Hududlarning integral reyting o‘rni
	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar		O‘rtacha nominal ish haqi		O‘rtacha pensiya miqdori		Aholi jon boshiga uy-joy fondi		Aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minlanganligi			
	ming so‘m	o‘rin	ming so‘m	o‘rin	ming so‘m	o‘rin	m^2	o‘rin	foiz	o‘rin		
Toshkent sh.	37518	1	6314	1	1308	1	22,8	3	96,9	1		
Toshkent v.	18129	5	3946	3	1060	3	17,6	7	78,9	6		
Andijon v.	15727	6	3381	4	825	14	15,7	12	79,4	5		
Farg‘ona v.	13607	13	2900	14	865	12	20,8	4	72,4	8		
Namangan v.	13880	12	2924	13	828	13	17	10	86,2	2		
Sirdaryo v.	15124	9	3221	7	975	5	18,7	6	82,4	3		
Jizzax v.	15221	8	2946	10	891	11	17	10	63,8	11		
Samarqand v.	15534	7	2944	12	934	7	19,4	5	64,5	10		
Navoiy v.	27420	2	5125	2	1238	2	24	2	76,1	7		
Buxoro v.	21382	3	3312	5	982	4	17,4	8	55,6	13		
Qashqadaryo v.	14678	10	2952	9	916	8	16,6	11	37,1	14		
Surxondaryo v.	14597	11	2946	11	891	10	13,7	13	80,2	4		
Xorazm v.	19643	4	3182	8	895	9	24,1	1	61,3	12		
Qoraqalpog‘iston	13253	14	3246	6	946	6	17,1	9	66,1	9		
O‘zbekiston hududlari	Ijtimoiy ko‘rsatkichlar											
	Aholining tabiiy gaz bilan ta’minlanganligi		Aholining bandlik darajasi		Har 10000 aholiga shifoxona o‘rinlari soni		Har 10 000 aholiga shifokorlar soni		1-6 yoshli bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi			
	foiz	o‘rin	foiz	o‘rin	birlik	o‘rin	nafar	o‘rin	foiz	o‘rin		
Toshkent sh.	97,3	1	82,5	1	80,4	1	64,4	1	42,3	1	**1,2**	**1**
Toshkent v.	88,5	2	71,0	2	61,0	2	26,7	5	27,2	11	**4,6**	**3**
Andijon v.	42,8	10	69,5	3	43,8	7	26,5	6	30,9	8	**7,5**	**7**
Farg‘ona v.	45,0	9	67,1	6	42,4	9	22,3	9	33,8	5	**8,9**	**9**
Namangan v.	36,9	12	64,8	8	47,6	4	18,2	11	31,2	7	**9,2**	**10**
Sirdaryo v.	68,8	4	64,0	11	49,6	3	20,6	10	30,2	10	**6,8**	**5**
Jizzax v.	62,5	8	66,2	7	44,5	6	16,1	13	30,4	9	**9,3**	**11**
Samarqand v.	41,3	11	64,7	9	42,5	8	25,2	8	26,0	12	**8,9**	**9**
Navoiy v.	67,7	5	67,7	4	42,1	10	29,4	3	35,6	3	**4,0**	**2**
Buxoro v.	63,8	7	67,2	5	46,2	5	31,6	2	34,9	4	**5,6**	**4**
Qashqadaryo v.	25,3	14	61,9	12	33,7	14	17,6	12	17,5	14	**11,8**	**13**
Surxondaryo v.	25,5	13	64,2	10	35,0	13	15,5	14	17,8	13	**11,2**	**12**
Xorazm v.	64,5	6	64,7	9	40,2	12	27,5	4	32,2	6	**7,1**	**6**
Qoraqalpog‘iston	70,7	3	61,6	13	40,8	11	25,9	7	40,3	2	**8,0**	**8**

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Boshqa hududlardan ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari jihatidan nisbatan yuqori pozitsiyalarda Buxoro (4-o‘rin) va Sirdaryo (5-o‘rin) viloyatlari turadi. Buxoro viloyati ko‘pchilik ko‘rsatkichlar bo‘yicha 2-5-o‘rinlarni egallab, aholining uy-joy, tabiiy gaz va, ayniqsa, toza ichimlik suvi bilan ta’minlanish darajasi bo‘yicha pastroq o‘rinlarda turadi. Sirdaryo viloyati esa aholi jon boshiga umumiy daromadlar, aholining bandlik darajasi, shifokorlar bilan ta’minlanganligi hamda maktabgacha ta’lim bilan qamrovi jihatidan ancha past ko‘rsatkichlarga ega.

Xorazm (6-o‘rin), Andijon (7-o‘rin) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (8-o‘rin) ijtimoiy rivojlanish darajasi jihatidan respublika mintaqalari orasida o‘rtacha mavqega ega. Xorazm viloyati respublika bo‘yicha aholining uy-joy fondi bilan ta’minlanganlik darajasi bo‘yicha 1-o‘rin egallaydi, lekin, ayni paytda, o‘rtacha pensiya miqdori, aholining toza ichimlik suvi va shifoxona o‘rinlari bilan ta’minlanganligi, aholining bandlik darajasi bo‘yicha ancha past ko‘rsatkichlarga ega. Andijon viloyatida aholining bandlik darajasi, o‘rtacha nominal ish haqi va toza ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi bo‘yicha ancha yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, uy-joy va tabiiy gaz bilan ta’minlanganlik, o‘rtacha pensiya miqdori bo‘yicha past ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi esa maktabgacha ta’lim bilan qamrovi hamda tabiiy gaz bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari ancha yuqori (2-3-o‘rin) bo‘lsa, shifoxona o‘rinlari bilan ta’minlanganlik, aholining bandlik darajasi va aholining umumiy daromadlari kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha vaziyat ancha muammolidir.

Respublika hududlari orasida ijtimoiy rivojlanish darajasi jihatidan eng past o‘rinlarda Farg‘ona (9-o‘rin), Samarqand (9-o‘rin), Namangan (10-o‘rin), Jizzax (11-o‘rin), Surxondaryo (12-o‘rin) va Qashqadaryo (13-o‘rin) viloyatlari turadi. Ayniqsa past ko‘rsatkichlar Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga xos bo‘lib, bu hududlar aksariyat ko‘rsatkichlar bo‘yicha respublikada 11-14-o‘rinlarda turadi.


Iqtisodiy rayonlar kesimida ko‘rib chiqqanda, Toshkent, Janubiy, Quyi Amudaryo va Farg‘ona iqtisodiy rayonlaridagi hududlarning ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha reyting o‘rinlari bir-biriga ancha yaqinligi ko‘zga tashlanadi. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoniga kiruvchi Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bir-biridan ancha farq qiladi. Shuningdek, Zarafshon iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi Samarqand viloyatining reyting ko‘rsatkichi Navoiy va Buxoro viloyatlari ko‘rsatkichlaridan ancha pastroq.

Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha aniqlangan reyting o‘rinlari solishtirganda bu ikkala sohaning yuqori darajada o‘zaro bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Xususan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalari bo‘yicha yetakchi 5 ta mintaqa tarkibi va ketma-ketligi ayni bir xil: Toshkent shahri, Navoiy, Toshkent, Buxoro va Sirdaryo viloyatlari. Ayni paytda, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanish darajalari jihatidan mintaqalar orasidagi eng past o‘rinlarni egallaydi. Farg‘ona iqtisodiy rayoni tarkibiga kiritiladigan 3 ta viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari ham deyarli o‘zaro mos keladi.

Lekin iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini ko‘rsatuvchi reyting o‘rinlari bir-biridan sezilarli tarzda farq qiladigan mintaqalarni ham ajratish mumkin. Xususan, Jizzax viloyati iqtisodiy salohiyati jihatidan respublikada 6-o‘rinni egallab turib, ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha 11-o‘rinda tursa, Samarqand viloyatining reyting ko‘rsatkichlari, mos ravishda, 7- va 9-o‘ringa teng. Demak, bu ikkita hududda ijtimoiy rivojlanishning nisbiy darajasi iqtisodiy salohiyati bo‘yicha aniqlangan reyting o‘rinlaridan ko‘ra sezilarli darajada pastroq. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa vaziyat teskari, ya’ni ularning ijtimoiy rivojlanish darajasi iqtisodiy rivojlanishning reyting pozitsiyalaridan ko‘ra yuqoridir. Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyati bo‘yicha mamlakatda 9-o‘rinda tursa, ijtimoiy rivojlanish darajasi jihatidan 6-o‘rinni egallaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi esa iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan mamlakat bo‘yicha 10-o‘rin egallab turib, ijtimoiy rivojlanish yo‘nalishida hududlar orasida 8-o‘rinda turadi.

O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalar jihatidan aniqlangan reyting o‘rinlarining nisbati 67-rasmdagi grafikda aks ettirilgan. Bu grafikdagi gorizontal o‘qda mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha reyting o‘rinlari, vertikal o‘qda esa ijtimoiy rivojlanish darajasining reyting ko‘rsatkichlari keltirilgan. Har bir hududning nuqtasi mos ravishda gorizontal va vertikal koordinatalaridan kelib chiqqan holda qo‘yilgan. Trend chizig‘i esa hududlarning ijtimoiy rivojlanish darajasi ularning iqtisodiy rivojlanishiga yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan bir qator xulosalarni chiqarish mumkin. Respublikamiz poytaxti – Toshkent shahri – ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanish darajasi jihatidan mintaqalar orasida yaqqol ravishda 1-o‘rinni egallaydi.



67-rasm. O‘zbekiston hududlari iqtisodiy (grafikdagi birinchi raqam) va ijtimoiy (grafikdagi ikkinchi raqam) rivojlanish darajasi bo‘yicha reyting o‘rinlarining o‘zaro nisbati (2022-y.)

Rasm mualliflar tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, Navoiy, Toshkent, Buxoro va Sirdaryo viloyatlari ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha respublika hududlari orasida nisbatan yuqori pozitsiyalarni egallaydi.

Janubiy iqtisodiy rayon tarkibidagi 2 ta viloyat – Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari – iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi jihatidan mamlakatimiz hududlari orasida eng so‘nggi o‘rinlarda turadi va respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan eng muammoli hududlari sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Jizzax viloyati qo‘shni Sirdaryo viloyatiga iqtisodiy rivojlanganlik jihatidan birmuncha yaqin turgan holda, ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha ancha orqada turadi va uni bu jihatdan respublikadagi muammoli hududlar qatoriga kiritish mumkin.

Farg‘ona vodiysi viloyatlari ichida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan Namangan viloyati nisbatan qoloq hudud hisoblanadi. Xuddi shunday ravishda Zarafshon iqtisodiy rayonida Samarqand viloyati Navoiy va Buxoro viloyataridan sezilarli darajada pastroq ko‘rsatkichlariga ega.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonini hosil qiluvchi Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha

faqatgina Janubiy iqtisodiy rayon viloyatlaridan ustun turgan holda, ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha respublikamizda o‘rtacha mavqega ega.

Umuman olganda, iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan hududlarda ijtimoiy rivojlanish darajasi ham, qoida tariqasida, nisbatan yuqori bo‘ladi. Demak, hududlarning ishlab chiqarish, investitsiya, tashqi savdo aylanmasi salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, odatda, aholining turmush sharoiti yaxshi, turmush darajasi va sifati esa yuqori bo‘ladi. Shu bois, istiqbolda respublikamizda faol mintaqaviy siyosat Janubiy va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari, Namangan, Samarqand va Jizzax viloyatlarini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Savol va topshiriqlar

1. Hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda qanday ko‘rsatkichlar qo‘llanilishi mumkin? Hududlarni baholashda aholi jon boshiga hisoblab olingan ko‘rsatkichlarning mutlaq ko‘rsatkichlardan afzalligini tushuntiring.
2. Mintaqalarning ijtimoiy rivojlanish darajasini baholashda qaysi ko‘rsatkichlar qo‘llanildi? Bu ko‘rsatkichlardan tashqari, fikringizcha, yana qanday ko‘rsatkichlarni qo‘llash mumkin?
3. Qaysi hududlar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha respublikada dastlabki 3 ta o‘rin egallaydi? Bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi, deb o‘ylaysiz?
4. O‘zbekiston hududlaridan qaysilari ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan so‘nggi o‘rinlarda turadi? Bunga qanday omillar sabab bo‘lmoqda, deb hisoblaysiz?
5. Farg‘ona iqtisodiy rayonidagi viloyatlardan qaysi biri iqtisodiy-ijtimoiy riviojlanish jihatidan nisbatan qoloq? Zarafshon iqtisodiy rayonida-chi?
6. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishiga bog‘liqligini izohlang.
7. Fikringizcha, davlat mintaqaviy siyosatining yo‘nalish va choralarini ishlab chiqishda hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi qanday ravishda hisobga olinishi lozim?

Test savollari

1. Quyidagi hududlardan qaysi biri iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra respublika bo‘yicha yetakchi uchlikka kirmaydi (2022-yil holatiga ko‘ra)?

A) Toshkent shahri
B) Toshkent viloyati
C) Samarqand viloyati
D) Navoiy viloyati

2. O‘zbekiston hududlari orasida iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha eng so‘nggi o‘rinda turadiganini belgilang (2022-yil holatiga ko‘ra).

A) Surxondaryo viloyati
B) Qashqadaryo viloyati
C) Qoraqalpog‘iston Respublikasi
D) Sirdaryo viloyati

3. Qaysi viloyat ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha Toshkent shahridan keyingi, 2-o‘rinni egallaydi (2022-yil holatiga ko‘ra)?

A) Toshkent viloyati
B) Navoiy viloyati
C) Andijon viloyati
D) Buxoro viloyati

4. Qaysi iqtisodiy rayondagi hududlar respublikada ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha oxirgi o‘rinlarda turadi (2022-yil holatiga ko‘ra)?

A) Quyi Amudaryo
B) Mirzacho‘l
C) Janubiy
D) Farg‘ona

5. Qaysi viloyatning ijtimoiy rivojlanish darajasi bo‘yicha respublikadagi o‘rni iqtisodiy rivojlanish reyting ko‘rsatkichlariga nisbatan ancha past (2022-yil holatiga ko‘ra)?

A) Navoiy viloyati
B) Jizzax viloyati
C) Sirdaryo viloyati
D) Xorazm viloyati

GLOSSARIY

Aholi – ma’lum hududda istiqomat qiluvchi odamlar majmui.

Aholi migratsiyasi – bu aholining ma’lum bir hudud (mamlakat, viloyat, tuman va aholi punkti) dan boshqa hududga ko‘chishi.

Aholiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari – aholiga xizmatlar taklif etish va ishlab chiqarish maqsadida shakllantirilgan faoliyat turlari hamda xo‘jalik tarmoqlarining jamlanmasi.

Aholining umumiy daromadlari – doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda, uy xo‘jaligi yoki uning alohida a’zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlar hajmi.

Baliq xo‘jaligi – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akvakulturani saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha faoliyat turi.

Dehqon xo‘jaligi – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradigan va realizatsiya qiladigan xo‘jalik toifasi (shakli).

Dehqonchilik – qishloq xo‘jaligi ekinlarini va o‘simliklarni o‘stirish bilan bog‘liq bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sohasi.

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Elektr energetika – elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash bilan shug‘ullanadigan korxonalarni birlashtiruvchi sanoat tarmog‘i.

Erkin iqtisodiy zona – yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta’minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud.

Fermer xo‘jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Hududiy ishlab chiqarish majmuasi – muayyan hududda, uning tabiiy va iqtisodiy sharoit, iqtisodiy geografik o'rniga muvofiq korxonalarni to'g'ri tanlab olish va joylashtirish hisobidan iqtisodiy samaradorlikka erishiladigan ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shaklidir.

Hududiy ixtisoslashuv – ma'lum hudud xo'jaligining tashqi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlardir.

Iqtisodiy faol aholi – mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar va rasmiy ishsizlar.

Iqtisodiy geografik o'rin – muayyan hududiy obyekt (korxona, aholi punkti, ma'muriy birlik, mamlakat) ning iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan turli geografik obyektlarga nisbatan joylashuvi.

Ishlab chiqarish – inson (jamiyat) ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiat ne'matlari va kuchlarini o'ziga moslashtirishdan iborat iqtisodiy jarayon.

Kichik sanoat zonasi – aniq yer uchastkasini o'z ichiga olgan hudud bo'lib, ba'zi hollarda – muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish maydonlari.

Klaster – muayyan bir hududda barcha korxonalar va tashkilotlarning ma'lum sohada katta yutuqlarga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mujassamlashuvi.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati – milliy iqtisodiyot uchun mehnat qurollari, shuningdek, iste'mol buyumlari va mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og'ir sanoat sohalari majmui.

Maxsus iqtisodiy zona – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud.

Ma'muriy-hududiy tuzilish – mamlakat hududining ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linishi.

Mehnat resurslari – mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi mehnat bilan band bo'lgan shaxslar.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi – O'zbekiston mehnat qonunchiligiga muvofiq, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar.

Moddiy ishlab chiqarish – sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa (kommunikatsiya tizimi), savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy texnika ta'minoti (logistika) kabi iqtisodiy faoliyat turlari majmui.

Monoshahar – muayyan bir yirik korxona yoki foydali qazilma koni negizida shakllangan, bitta ishlab chiqarish tarmog'iga ixtisoslashgan shahar aholi punkti.

Nomoddiy yoki ijtimoiy-madaniy sohalar – madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, fan, jismoniy tarbiya va sport, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi kabi faoliyat turlari va iqtisodiyot tarmoqlarining tizimidir.

Oziq-ovqat, un-yorma va omuxta-yem sanoati – sanoatning oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaradigan sohasi.

O'limning umumiy koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadigan demografik ko'rsatkich.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar) da istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirish, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, parrandalarini, asalarilarni, baliqlarni saqlash va ko'paytirish, yog'och, yog'och bo'lmagan yovvoyi holda o'suvchi o'rmon xo'jaligi mahsulotlarni olish, suv organizmlarini ovlashni o'z ichiga oladigan iqtisodiy faoliyat turi.

Qishloq xo'jaligi tashkiloti – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, yordamchi qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan noqishloq xo'jaligi tashkilotlaridan iborat bo'lgan xo'jalik toifasi (shakli).

Qishloq xo'jaligi yer turlari – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish uchun muntazam ravishda foydalaniladigan yer maydonlari.

Qishloqlar va ovullar – tumanlar hududida joylashgan, fuqarolar yig'inlaridan (mahallalardan) iborat bo'lgan aholi punktlari.

Qora metallurgiya – metallurgiya sanoatining sohalaridan biri bo‘lib, qora metallar ruda xomashyosini qazib olish, boyitish, maydalash, cho‘yan va po‘lat eritish, prokat metallurgiyasi, metall buyumlarni ishlab chiqarish, ferroqotishmalar va o‘tga chidamli materiallar tayyorlash va qora metallarni qayta eritish tarmoqlarini o‘z ichiga oladi.

Rangli metallurgiya – metallurgiya sanoatining tarmogi bo‘lib, rudalarni qazish, boyitish, rangli, nodir va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish hamda qayta ishlash, ularning qotishmalarini tayyorlash bilan shug‘ullanadi.

Rekreatsion resurslar – rekreatsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin bo‘lgan tabiiy, tarixiy-madaniy, xo‘jalik, sog‘lomlashtiruvchi, ko‘ngilochar obyektlar.

Rekreatsiya – insonlarning jismoniy va ruhiy quvvati, salomatligi hamda ish qobiliyatini tiklash.

Sanoat – xomashyo, material, yoqilg‘i, energiya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki aholiga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar (zavod, fabrika, kon, shaxta, elektr stansiya, ferma va h.k) majmuasi.

Sanoat aglomeratsiyasi – sanoat korxonalari va tugunlarining bir joyda g‘uj holda mujassamlashuvi.

Sanoat markazi – turli tarmoqlarga tegishli bo‘lgan bir nechta sanoat korxonalari joylashgan aholi punkti.

Sanoat punkti – sanoat korxonasi mavjud bo‘lgan aholi punkti.

Sanoat tuguni – ishlab chiqarish va texnologik jihatdan o‘zaro bog‘langan turli tarmoqlarga mansub bo‘lgan sanoat korxonalarning hududiy birikmasi.

Sellyuloza-qog‘oz sanoati – sellyuloza, qog‘oz va karton mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmog‘i.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Shahar aglomeratsiyalari – turli kattalikdagi shaharlarning ma’muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashuvi.

Shaharchalar – aholisining soni, qoida tariqasida, kamida ikki ming kishi bo‘lgan, sanoat korxonalari, temir yo‘l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan, fuqarolar yig‘inlaridan (mahallalardan) iborat bo‘lgan aholi punktlari.

Tabiiy resurslar – jamiyat tomonidan kundalik turmushi va xo‘jalik faoliyatida foydalaniladigan barcha turdagi tabiiy jism va kuchlar.

Tabiiy sharoit – hududlarning tabiiy muhiti komponentlarining asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim tabiiy tavsiflar majmuasidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat – mamlakat jismoniy va yuridik shaxslarining chet el davlatlari yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat.

Tashqi savdo aylanmasi – davlatning ma’lum davr mobaynidagi eksporti va importining yig‘indisi.

Tashqi savdo balansi – ma’lum davr oralig‘ida muayyan davlat eksporti va importi qiymatlarining ayirmasi.

Texnopark – o‘zaro, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiluvchi, tadbirkorlik, investitsiya faoliyatini va ilmiy faoliyatni yuritish maqsadida zamonaviy texnologik va tashkiliy muhitni shakllantiruvchi ilm-fan va ta’limning tijorat va notijorat tashkilotlari, moliya institutlari va tadbirkorlarning integratsiyalashuvi shakli.

Transportning yo‘lovchi aylanmasi – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha masofani hisobga olgan holdagi ish hajmini tavsiflaydi va yo‘lovchi-kilometrda hisoblanadigan statistik ko‘rsatkich.

Turizm – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali aniqlanadigan demografik ko‘rsatkich.

Uy-joy fondi – inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turarlar majmuasi bo‘lib, uylar, kvartiralar, xizmat turar-joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uyjoy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylardan) iborat.

Urbanizatsiya – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida shaharlar ahamiyatining oshishi, jumladan, shahar aholisi soni va salmog‘ining o‘sishi, shahar turmush tarzining tarqalishi jarayoni.

Viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ysunuvidagi shaharlar) — aholisining soni, qoida

tariqasida, kamida 30 ming kishi bo‘lgan, muhim ma’muriy ahamiyatga, rivojlangan infratuzilmaga ega, shuningdek, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar bo‘lgan aholi punktlari.

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste’mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya’ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste’mol sohasiga o‘tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat’iy nazar, aholiga iste’mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Chorvachilik – qishloq xo‘jaligi hayvonlari, parrandalari va asalarilarni o‘stirish va urchitish bilan bog‘liq bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sohasi.

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasi.

Yalpi ichki mahsulot (YIM) – muayyan davrda mamlakat hududida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi umumiy qiymati.

Yalpi milliy mahsulot (YMM) – muayyan mamlakatning fuqaro va kompaniyalari tomonidan ma’lum bir davr mobaynida mamlakat hududida va uning tashqarisida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi umumiy qiymati.

Yengil sanoat – xilma-xil xom ashyodan keng iste’mol mahsulotlari va buyumlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui.

Yoqilg‘i – asosiy tarkibiy qismi ugleroddan iborat bo‘lgan modda bo‘lib, undan issiqlik energiyasini olish maqsadida foydalaniladi.

Yoqilg‘i sanoati – yoqilg‘ini qazib olish va uni qayta ishlash korxonalarini birlashtiruvchi sanoat tarmog‘i.

Yoqilg‘i-energetika majmuasi – yoqilg‘i sanoati hamda elektr energetikani birlashtiruvchi tarmoqlararo sanoat majmuasi.

Yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar:

1. Солиев А. Ўзбекистон географияси (Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси). – Тошкент: Университет, 2014. – 404 б.
2. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – 352 б.
3. Egamberdieva U.T. O‘zbekiston geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2018. – 242 b.
4. Mamajonov M. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Darslik. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 368 b.
5. To‘xliyev N., Xolmatov N., Ermamatov Sh., Haqberdiyev Q. O‘zbekiston iqtisodiyoti: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 488 b.
6. O‘zbekiston Milliy Atlasi. II jild. O‘zbekiston Respublikasining aholisi va ijtimoiy sohalari, iqtisodiyoti va tarixi. – Toshkent, 2020. – 233 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 464 б.
8. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. – 301 б.
9. Бабурин В.Л., Гладкевич Г.И., Даньшин А.И., Ратанова М.П. Экономическая и социальная география стран Ближнего Зарубежья: учебник. – Москва: ЛЕНАНД, 2021. – 440 с.
10. Жумаев Т. Бизнинг улуғвор тоғларимиз. Янги Ўзбекистон тоғ зонасининг барқарор ривожланиши. Назария ва амалиёт. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. – 561 б.
11. Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. – Ташкент: Издательский дом «Эльдинур», 2000. – 116 с.
12. Новая географическая картина мира. Часть 1. Учебное пособие / Под ред. В.А. Колосова, Д.В. Зайца. – Москва: Дрофа, 2020. – 319 с.
13. Новая географическая картина мира. Часть 2. Учебное пособие / Под ред. В.А. Колосова, Д.В. Зайца. – Москва: Дрофа, 2020. – 287 с.
14. Ражабов Ф.Т. Фермер хўжаликлари ихтисослашуви ва ривожланишининг ҳудудий хусусиятлари (Қашқадарё вилояти материаллари асосида). – Тошкент: Info Capital Group, 2020. – 148 б.
15. Солиев А.С. Танланган асарлар. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2018. – 376 б.
16. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2009. – 275 б.

17. Федорко В.Н. Территориальная структура природопользования в Узбекистане: теоретико-методологические и практические аспекты исследования. – Ташкент: ZIYO NUR, 2022. – 288 с.

18. Федорко В.Н., Янчук С.Л., Курбанов Ш.Б. Современная этническая география Узбекистана // Географический вестник. 2020. № 4 (55). – С. 63-79.

19. Янчук С.Л. Экономическая и социальная география. Учебник. – Ташкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 168 с.

20. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 162 б.

21. Qurbonov Sh.B. O‘zbekiston qishloq joylari geografiyasi. Monografiya. – Toshkent: KALEON PRESS, 2021. – 176 b.

22. O‘zbekiston Milliy Atlasi. I jild. O‘zbekiston Respublikasining tabiiy sharoiti va resurslari, ekologiyasi va atrof-muhitini muhofaza qilish. – Toshkent, 2020. – 192 b.

Statistik to‘plamlar:

23. Халқ таълими рақамларда. Рисола. II нашр. – Тошкент, 2022. – 86 б.

24. O‘zbekiston demografik yillik to‘plami (2018-2022). – Toshkent, 2023. – 214 b.

25. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami (2020-2021). – Toshkent, 2022. – 292 b.

26. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami (2021-2022). – Toshkent, 2023. – 292 b.

27. O‘zbekistonda mehnat va bandlik (2019-2022). – Toshkent, 2023. – 152 b.

28. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi (2019-2022). – Toshkent, 2023. – 290 b.

29. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2010-2018). – Toshkent, 2019. – 274 b.

30. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2011-2020). – Toshkent, 2021. – 290 b.

31. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2013-2022). – Toshkent, 2023. – 280 b.

32. O‘zbekiston sanoati (2019-2022). – Toshkent, 2023. – 152 b.

Internet-saytlar:

33. www.andstat.uz [Andijon viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

34. www.bp.com [BP (“British Petroleum”) kompaniyasining rasmiy veb-sayti].

35. www.buxstat.uz [Buxoro viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

36. www.farstat.uz [Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

37. www.jizzaxstat.uz [Jizzax viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

38. www.imf.org [Xalqaro Valyuta Fondining rasmiy veb-sayti].

39. www.imv.uz [O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti].

40. www.kadastr.uz [O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining rasmiy veb-sayti].

41. www.minenergy.uz [O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining rasmiy veb-sayti].

42. www.namstat.uz [Namangan viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

43. www.navstat.uz [Navoiy viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

44. www.qashstat.uz [Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

45. www.qrstat.uz [Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

46. www.samstat.uz [Samarqand viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

47. www.sirstat.uz [Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

48. www.stat.uz [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti]

49. www.surxonstat.uz [Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

50. www.toshstat.uz [Toshkent shahar statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

51. www.toshvilstat.uz [Toshkent viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

53. www.uznature.uz [O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining rasmiy veb-sayti].

54. www.ung.uz [“O‘zbekneftgaz” AJ rasmiy veb-sayti].

55. www.worldbank.org [Jahon Bankining rasmiy veb-sayti].

56. www.xorazmstat.uz [Xorazm viloyati statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

MUNDARIJA

	Mavzular	Betlar
	So‘z boshi	3
1-§	O‘zbekistonning geografik o‘rni, maydoni va chegaralari	5
2-§	O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari	14
3-§	O‘zbekiston aholisi va mehnat resurslari	21
4-§	O‘zbekiston Respublikasi xo‘jaligining umumiy tavsifi	35
5-§	O‘zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi	45
6-§	Yoqilg‘i-energetika majmuasi geografiyasi	53
7-§	Metallurgiya, kimyo, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	62
8-§	Qurilish materiallari, o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati	72
9-§	Yengil va oziq-ovqat sanoati	78
10-§	O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga umumiy tavsif	86
11-§	Dehqonchilik geografiyasi	97
12-§	Chorvachilik geografiyasi	108
13-§	Ijtimoiy sohalarning rivojlanishi	118
14-§	O‘zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi	140
15-§	O‘zbekiston Respublikasi xo‘jaligining hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlari	155
16-§	Toshkent iqtisodiy rayoni	167
	Toshkent viloyati	167
	Toshkent shahri	181
17-§	Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni	196
	Jizzax viloyati	197
	Sirdaryo viloyati	208
18-§	Farg‘ona iqtisodiy rayoni	222
	Andijon viloyati	223
	Farg‘ona viloyati	234
	Namangan viloyati	246
19-§	Zarafshon iqtisodiy rayoni	261
	Samarqand viloyati	262
	Navoiy viloyati	274
	Buxoro viloyati	286
20-§	Janubiy iqtisodiy rayon	301
	Qashqadaryo viloyati	301
	Surxondaryo viloyati	314

21-§	Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni	329
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	330
	Xorazm viloyati	345
22-§	Iqtisodiy rayonlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolari	361
	Glossariy	371
	Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar	377

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI AXBOROT RESURS MARKAZI 1-FILIALI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI AXBOROT RESURS MARKAZI

– 5137 –

Qurbonov Shuxrat Bekmetovich,
Fedorko Viktor Nikolayevich

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYASI

(II QISM. O‘ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI)

Darslik

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: T. Raxmatullayev
Musahhih: N. Ismatova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 05.01.2024 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. ‘’Times New Roman’’garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 24.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 1.

‘’Yangi Chirchiq prints’’ MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

QAYDLAR UCHUN

DARSLIK



ISBN 978-9910-780-28-8
9 789910 780288